

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QORAQALPOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

38

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QORAQALPOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

38

1619301
TDTU
ARM (SO'ZBOSHQA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.121-3
KBK 83.3(5O'zb-6Qor)
Q 59

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Muzaffar Ahmad

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvarli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8570-5-6

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

QORAQALPOQ NASRI: IZLANISHNING DONG'IL YO'LLARI

Qoraqalpoq adabiyoti so'nggi ellik-oltmish yillar mobaynida rivojlanishning ulkan va dong'il yo'lini, taraqqiyot davrlarini bosib o'tdi. Nasr yo'nalishining turli janrlarida — romanchilik, qissa, hikoya, novella, esse, badiiy publitsistik asarlardan tortib, aforistik ko'rinishdagi ijod namunalari, fantastik (fentezi) asarlargacha yozildi, o'quvchilarga yetib bordi, boshqa tillarga o'girildi, qoraqalpoq adabiyotining yutuqlari sifatida e'tirof etildi, e'tibor qozondi. Endilikda shunday asarlarning ko'payib borayotganligi, yangi-yangi nomlar kashf etilayotganligi, zabardast adiblar safi, yetuk asarlar soni ortib borayotgani ayniqsa quvonarlidir. Binobarin, qoraqalpoq adabiyotida nasr yo'nalishida ijod qilayotgan adiblarning romanlarini tilga olib o'tish, qissa, hikoya, novella va esse, fentezi asarlari namunalarini bir to'plam tarzida o'quvchilar qavmiga taqdim etish ham bu xil to'plamni tuzuvchilarga alohida zavq-shavq, badiiy jihatdan to'laqonli lazzat bag'ishlaganini aytib o'tish joiz.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab nasr yo'nalishida asarlar yozib, ko'zga ko'ringan Amet Shomurotov, Jo'lmirza Aymirzayev, To'lepbergen Qaipbergenov, Aytboy Bekimbetov, Turdimurot Najimov, Karomatdin Sultonov, Guloysha Yesemurodova, Sarigul Bahodirova asarlari xalq ma'naviyatini, milliy ong va tafakkurni boyitishda muhim ruhiy-tarbiyaviy ozuqa bo'ldi. Ularning asarlarida davr murakkabliklari, qahramonlarning ichki dunyosi, milliy qiyofa va xarakter, turmushdagi yangiliklar, muammolar shaxslar taqdiriga, faoliyatiga vobasta ravishda yoritib berildi. Ulardan keyingi avlod vakillari — Obod Aliyev, Abdumurot Otajonov, Abdulla Sodiqov, Kamol Mambetov, Sharap Usnatdinov, Shovdirboy Seitov, Alp Sulton va boshqalar ijodida voqea-hodisalarni badiiy tasvirlash, urf-odatlarni, asar qahramonlari kayfiyatini, davr mashaqqatlarini idrok qilish yanada kuchayganini ko'ramiz. So'nggi

yillarda yaratilayotgan asarlarda, roman, qissa, hikoya, esse, badiiy publitsistik namunalarda qahramonlarning ichki olami, davr hodisalariga munosabat, teran psixologizm kuchaya borganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa Kengesboy Karimov, O'rozboy Abdurahmonov, Hikmatulla Ayimbetov, Murodboy Nizanov, Kengesboy Allambergenov, Beknazar Ernazarov, Marat Tauboyev, Pardagul Xo'jamurodova, Allanazar Abdiyevlar ijodini jahon adabiyotidagi sara asarlar bilan bemalol bellasha oladigan yangilik sifatida mutolaa qiladi o'quvchi. Darhaqiqat, bugungi kun qoraqalpoq nasri namunalari ichida Vatan va xalq taqdiri, turmush voqeliklari, insonlar hayotidagi yangiliklar, ruhiy holatlar tasviri, til va uslub jihatdan ancha mukammallashgan asarlar mavjud ekanligini qayd etish zarur.

Shu o'rinda atoqli o'zbek adiblari Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Nosir Fozilov, O'tkir Hoshimov, Muhammad Alilarning qoraqalpoq diyori, bu xalq vakillari orasidan yetishib chiqayotgan adiblar va ularning asarlari haqidagi fikr-mulohazalar beixtiyor esga tushadi. Masalan, ulug' adib Abdulla Qahhor oltmishinchi yillar boshida yosh adib To'lepbergen Qaipbergenov ijodini o'zbek kitobxonlariga tanishtirar ekan, yosh qalamkash do'stining asarlarini o'qib hayratga tushganini yashirmagan, hatto tarjima qilishga ham tezlik bilan kirishib ketganini ochiq aytgan edi. Adabiy-badiiy hayotda ulkan voqea bo'lib qolgan bunaqa epizodlarni keyinchalik ham ko'p kuzatdik. Kulgisevar adib Said Ahmad yosh qoraqalpoq shogirdlari Murodboy Nizanov, Saylovboy Jumag'ulov hajviyalarining kitob bo'lib "Mushtum" jurnali ruknida nashr qilinishiga bosh qo'shib, so'zboshi yozganida "Mana satira! Mana hajviy asar qanaqa bo'lishi kerak!" deb xitob qilgani, yosh hajvchilar haqida faxrlanib gapirganlari hali-hanuz esimizda. Adabiyotlar, xalqlar o'rtasida do'stlik-qardoshlik munosabatlarini rivojlantirishda beqiyos o'rin tutadigan bunaqa hodisalar keyinchalik ham davom etdi, hozirgacha ham davom etib kelayotir. O'z davrida ustoz Nosir Fozilov — O'rozboy Abdurahmonovning badiiy mahoratini yuksak baholagan bo'lsa, bugun Ahmadjon Meliboyev — Kengesboy Karimov, Sirojiddin Sayyid — Sharap Usnatdinov haqida, Rustam Musurmon — Allanazar Abdiyev va

Jumaniyoz O'teniyozov haqida, Qozoqboy Yo'ldoshev — yosh qoraqalpoq adiblari, olimlari haqida ko'p gapiradilar, yozadilar. Yaqin besh-olti yil ichida qoraqalpoq nasrida sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Nasrning eng yirik janrlaridan roman-dilogiya, roman-trilogiya, roman-tetralogiya, esse-romanlar, biografik romanlar, etnografik nasriy asarlar yaratildi. Bir adibning o'zi qisqa vaqtda o'nlab romanlar yaratdi. Bu asarlardan namunalar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Eng muhimi, qoraqalpoq adiblarining asarlari har ikkala xalq kitobxonlariga birday ma'qul kelib, o'quvchilar ommasi o'rtasida ijobiy fikrlar uyg'otayotganligi diqqatga sazovor. Darhaqiqat, "Adabiy do'stlik — abadiy do'stlik" degan ibora juda yashovchan, umidbaxsh hikmat ekanligi ayni shu kunda o'zini yanada yangi ko'rk, mazmun, yangi tarjima asarlar bilan boyitmoqda.

Qoraqalpoq adabiyotida nasr yo'nalishida, turli janrlarda g'urur bilan aytsa-ko'rsatsa arzigulik asarlar — roman va qissalar, hikoyalar, esselar, ocherklar yaratilmoqda. Agar bularga bolalar adabiyoti sohasidagi yaratilayotgan asarlarni ham qo'shsak, yangilik sifatida e'tirof qilsa bo'ladigan asarlar salmog'i yanada oshadi. Binobarin, ularni keng targ'ib-tashviq qilish, tarjima qilish, boshqa xalqlarning ma'naviy-madaniy mulkiga aylantirish ishlarini ham yanada ravon yo'lga qo'yib ololsak — bu ishlarimiz mustaqillik davrida xalqlarimizni ma'naviy kamolotga yetaklovchi muhim omillardan biriga aylanishi shubhasiz. Adabiyot sohasida fidoyilik bilan mehnat qilayotgan kishilarni qo'llab-quvvatlash, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, asarlarini tarjimalab jahon xalqlarining badiiy-ma'naviy xazinasiga aylantirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish esa nafaqat ziyoli kishilarning, umuman barcha soha xodimlarining e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan vazifasidir. Qoraqalpoq nasri namunalaridan tashkil topgan qo'lingizdagi ushbu to'plam ham ana shu yo'ldagi ilk nishona sifatida tayyorlandi. Tarjimonlar, to'plovchilar, noshirlar mehnatini xolis baholash esa — siz aziz kitobxonlarning diqqatiga havola.

Muzaffar Ahmad,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

Gulaysha YESEMURADOVA,
Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi

SHUTIK CHIROQNING SHAROFATI

(bo'lgan voqea asosida)

1

1937-yil. Bahor boshlangan kunlar.

Ipak shamollar zar sochlarni siypab, ko'ngillarga jo'sh bag'ishlaydi. Har kungi odatimiz — chashka bo'lishi bilan uch dugona qo'zi-uloqqa suyrik[1] terish uchun ovulning qoq o'rtasidan ko'pirib oqadigan Eshonyobni yoqalab ketamiz. Suyrik terib yurib, roshning ba'zi joylarida g'ovlab o'sib yotgan sutilmakka[2] qiziqib, ularni terib o'tamiz. Uch dugona suyrik, sutilmakka talashib, o'ynab yurib, sal vaqtda tushlik payti bo'lib qolganini bilmayam qolamiz. Shu orada ertak aytamiz, qo'shiq aytamiz, bektosh[3] o'ynaymiz. Uyga qaytgimiz kelmaydi, axir bu o'yinlarni ham, bahorning yoqimli shamollarini qanchalar intizorlik bilan kutganmiz-da. Shunday qiziqli kunlarning birida onam hovliqib yonimga keldi-da:

— Ukamning uyiga o't tegib, sho'ri qaynaganning anov-manov yiqqan-terganlari bari yonib ketibdi! Yur, borib kelaylik, — deb meni uyga olib qaytdi.

Onam bilan ketgim kelmay, qiyshaloqlab (ortga basib) turgan edim, onam:

— Bu o'yiningning izi uziladimi o'zi? Enang nima qilib o'tirgan ekan, ukam ham og'rib yotibdi, deb eshitdim! — deb meni do'stlarimdan ayirib oldi-da ketdi.

O't ketgan uy — onamning murundiq[4] uyi hisoblanardi. Murundiq enamizning ismi Davlatxon. Uning Qidirniyoz degan yolg'iz bolasi bor. Odatga ko'ra, onam uning ismini aytmay, ukam deydi.

---

[1] **Suyrik** — o'simlik nomi.

[2] **Sutilmak** — o'simlik nomi.

[3] **Bektosh** — bolalar o'yini.

[4] **Murundiq** — kelin uchun vakolatli, tutingan qarindosh.

— Mana, suyrik tergan qopchig'im ham hali to'lmadi, endi uydagi qo'zi-uloqlar mendan o'pkalaydi, ularga nima tutaman, — deb onamning izidan to'ng'illab kelayapman. Onam indamaydi, tez-tez qadam tashlaydi.

Uyga kelgandan so'ng ham men:

— Qidirtiraman[1] deysan, ustimga nima kiyaman, yangi ko'ylagim yo'q, borgim kelmaydi, o'zing ketaver, — deb turib oldim.

— Hoy, senga kim qaraydi, seni ergashtirib borgim kelayapti, u uydayam senga tengdosh qizlar bor, birga o'ynaysan, — deb, gapirib yurib, yengi yamoq, yuvib qo'yilgan, bayramlik ko'ylagimni kiydirdi, meni ergashtirib uydan chiqdi.

O't tushgan uy bilan bizning ovulni orasi o'n chaqirimcha bor. Mening yurishim bilan peshinda chiqqandan nomozshom paytida Sheruvshi ovuliga zo'rg'a yetib bordik.

Bizlarni ko'rgan Davlatxon kampir o't ketgan uyini, mulklarini yo'qlab, tovush chiqarib qattiq yig'ladi. Onam:

— Ena, mayli, bo'lari bo'ldi, yig'lamang, mol-dunyoning o'rni to'lib ketar, manov ukam tuzalib ketar, hali yana qatorga qo'shiladi, — deb, enasining ko'nglini olib, tasalli aytdi.

— Qaydam, chirog'im, qani edi shunday bo'la qolsa, mulk-ka-ku uncha qiynalmadim, anavi ko'kko'ylakni[2] aytgin, yoqasining bir chekkasigina qolibdiyov, ne-ne armon-orzular bilan tikkan edim-a, — deb qiynalib o'tirdi enamiz. "Qiziq, bu kampir uyiga, mulkiga qiynalmay, bitta ko'ylakka nimaga qiynaladi-ya..." — deb hayron qoldim men.

Uyning oshxonaga o'xshagan kichkina bir hujrasi chalaroq yongan, bizlarni o'sha xona tomon boshlab bordi — ichi tosh qorong'i. Kampir goh chiroqni, goh gugurtni izlab topolmay alvirab qoldi. Xona ichi kam-kamdan qorong'ilik bosayotganday men qo'rqa boshladim.

— Chiroq tushmagur qayda ekan, ih... — Kampir qarmalanib yurib, chiroqni, so'ng gugurtni bazo'r topdi. — Adra qolguray...

---

[1] **Qidirtirmoq** — mehmonga olib bormoq, tomosha qildirmoq.

[2] **Ko'kko'ylak** — qoraqalpoq ayol-qizlari to'y uchun umr bo'yi tikib, naqsh soladigan mashhur kiyimlik, ko'ylak.

buning ham bittagina toshi qolibdi... Shu bir toshni tutantirib yuborib, kampir qo'lidagi shutik chiroqning piligiga yaqinlashtirgan edi, dunyoning yoqtiligi, nurning bari shu xonaning ichiga to'plangandday, hamma narsa yarq etib ko'rina qoldi. Endi chiroqni qo'yguday yerni topsa qani, o't tekkan uyda nimayam bo'lsin. Kampir hamon qarmalanib yurardi.

— Sadag'ang ketayin yorug'likay... Bu yoqti dunyoga kishi to'yadimi? Qosh qoqim qorong'ilik bir umrga tatiydi-ya...

Kampir uhlab yurib, endi sal yengil nafas oldi.

"Bu dunyongga chiroq ol, qolganiga sovun ol", deb aytib ketgan-ku ota-bobolar.

— Qarag'im Qollixonay, shu shutik chiroqning karomatli yorug'ida ko'kko'ylakni kiyib qancha quvongan edim-a... Bunday ko'ylak ovul bo'yichayam hech kimda yo'q edi. Naqshlarini chekib bo'lgan kuni ota-onamning quvonchida chek bo'lmagan. Mana, mana, manovini qara, shu joyigina qolibdi... — deb, kampir ko'kko'ylakning yonmay qolgan bir qismini ikki kaftiga solib onamga ko'rsatdi.

Onam shutik chiroqning yog'dusida yoqaning jullig'ini olib ko'rayotganida men ham qiziqsinib qaragan edim, julmiqning o'zidagi naqshlarning go'zalligidan, rang-barangligidan ko'z uzolmay qoldim. Yoqa sakkiz sayga bo'lingan, har yoqqa to'rtdan to'rtdan tarab ketgan, bo'linish oraliqlari eshma naqsh bilan chegaralangan. (Bu ko'kko'ylakdagi naqshlar, ko'ylak bichimi hozir muzeylarda saqlanadigan nusxalardan ancha farq qilardi.) Menimcha, chevarlarning chevarlari xuddi go'zallik yaratishda, ko'ylakka naqsh tushirishda bir-birlari bilan musobaqa o'ynashganov... Har sayning oralig'idagi naqshlarni Davlatxon kampir bizlarga barmog'i bilan ko'rsatib, nomma-nom ayta boshladi.

— Manavisi jiydagul, manovi qumursqabel, manov qo'chqormuyuz, manavisi ilma sulton, manavisi qushtirnoq, qarg'atuyaq, o'rikguli... — so'ng ko'zga yayrab ko'rinayotgan naqshlarni qanday chekkanini, onasining birma-bir, hijja-hijjalab o'rgatgani, ko'p (uzoq) yillar mobaynida naqsh chekib bitirganini aytdi, naqshlarning bir-biriga qanchalar yarashimli (uyg'un) holatda ekanligini ta'rifladi. Iplarning ranglarini bir-biriga moslashtirish

(saykeslantirish)da qanchalar qiynalganlarini ham qoldirmadi. — Qarog'im Qallixon-a, bu ko'ylakni kiyib chiqqanimda butun el-u yurt og'zi ochilib, ko'zini uzolmay turardi-ya... O'sha paytlardagi quvonchlarimni, g'ururlanganlarimni aytsangizchi, — deb enamiz yig'lamsirab maqtanib o'tirdi. — Endi shular esimga tushsa, ichlarim achiydi-da... Shu ko'ylakni kiyib, bu ovulga kelin bo'lib tushganimda, yigitim yumshoq kaftlari bilan yuzimni silab:

— Qanday chevar qizga uylangan ekanman. Bu ko'ylak o'zingning mini (kamchiligi) yo'q bo'y-bastingga juda yarashibdi. Oq qog'ozday farangi yuzingni obdan ochib, chiroylantirib yuboribdiyov... — degan edi. Shu bir karomatli shutik chiroqning yorug'ida ne bir-ne bir ipak choponlarga muhr bosildi, ne bir-ne bir suluv yoqalarni ipak bilan jiyakladim. Bu karomatli chiroqning yog'dusi, nuri bizlar yashagan davrning tulg'asi (ramzi, bayrog'i) bo'lib, butun ixlosimizni egallab olgan edi-ya. Hozir fonus, yettinchi lampa chiroqlar tek sanoqli uylarda bo'lmasa, ko'p uylar mana shu chiroqning yog'dusida farovon yashayapti... Eh, nimasini aytasan endi...

Avvaliga men, "manov kampirning o'zi qalay-qalay, yonib ketgan mulklariga qiynalmasa-yu, allaqanday bir ko'ylak uchun muncha achinadi-ya", deb o'ylagan bo'lsam, endi uning uchun ko'ylak yoshligining, chevarligining, baxtli kunlarining ramzi bo'lib qolganligini tushundim...

Men ko'ylak naqshlari-yu ularning chekilishiga qarab astoydil qiziqib o'tirishimni sezgan onam:

— Qizim, sen ham kashtalab shunday ko'ylak tikasan hali, ulg'ayganingda kiyib chiqqaningda hamma havaslanib qaraydi, — deb qo'ydi. Onamning bu daldasi menga yoqsa ham, "buning nima qizig'i bor?" deganday yelka qisib qo'ydim.

Kampirning kelini ham ishdan kelib, guybang-guybang ishga kirishdi. Ora-orada u enasining so'zlariga quloq osib turgan bo'ladi-da, yana o'zining ishi bilan bo'lib, yo'qdan bor narsalarni topib, qozon osib, ovqat tayyorlay boshladi.

Men bu yoqqa kelishda onamga "siz bilan bu uyga bormayman, qidirmayman" deb tentaklik qilgan bo'lsam, kampir enamizning

manov gaplarini eshitib, ko'ylakning tarixini bilib, ko'ylakning omon qolgan yoqasini ko'riboq, eshitganlarimga, ko'rganlarimga o'kinmay qo'ydim.

2

Ushbu esdaliklarni yozib o'tirib, yana ba'zi voqealar esimga tushib ketdi. Ora-tura bu yorug'lik manbayi ham o'chib, o'zining qadrini o'tkazib turadiyov...

Ota-bobolarimiz mana shu kichkinagina shutik chiroqning yog'dusida o'tirib, dunyoni tebratganlar, kitob yozganlar, ilm-tahsil qilganlar. Ol, bizlar kunning yorug'iday ravshan elektr chiroqlarining yorug'idan ham o'nglab foydalana olmaymizov, degan xayolga boraman.

Bizlar akademik Marat Nurmuhammedov bilan yon qo'shni-jon qo'shni bo'lib turdik, bolalarimiz birga o'sdi, birga o'qidi, birga dars tayyorladi, maktabga qatnadi. U vaqtlarda bular hali akademik bo'lib saylanmagan, biroq ikkoviyam elning manglay oldi azamatlari — savod desang savodli, ikkoviyam rus tilida yetuk so'zlaydi, biladi.

Bolaning odati-da, o'qishdan kela sola o'yin o'ynaydi, dars tayyorlashni keyinga qoldiradi... Bir kuni bolalar kechda kitoblarini olib, dars tayyorlashga endi kirishamiz deb turgan mahalda chiroqlar o'chib qoldi. Xonalar qop-qorong'i, boyagiday shutik chiroqlar qayda deysiz. Yaxshiyam sham bor ekan uyda, shamni yoqsam, bolalar "shamning isi bor, yorug'ligi kam", deb mensimay o'tirdi.

Sirtga chiqdik. Hamma yerda chiroq o'chgan, tosh qorong'i. Yo pirimay, qorong'ilikning qo'rqinchini ayting!.. U paytlarda Nukus elektrostansiyasining kuchiyam oz, o'chib-qolib turadi. Hali yangi oy ham tug'magan. Bizlar nima qilishimizni bilmay tursak, Marat sirtga chiqib keldi-da, bizning xayoldagi gaplarni aytdi:

— Endi nima qilsak ekan? Bolalar darslarini tayyorlay olmadi. Hoy Sobir (Kamolovga aytyapti), burunlari qanday yashagan ekanmiz-ay?.. Bizlar bolaligimizda shutik chiroqni tevaraklab

o‘tirib oq, dars tayyorlardik, shuytib yuriboq a’lo baholarga o‘qiganmiz, tirishib o‘qirdik-a, shunday emasmi?! Manov bolalar shamni mensimaydi-ya, — dedi.

— Biroq ertalab turganimizda burnimizga is tiqilib, burnimizning atrofi qop-qora bo‘lib chiqardik, — dedi Sobir Kamolov. — Shundayam o‘sha shutik chiroqning yorug‘i bilanoq ko‘pdan ko‘p kitoblarni o‘qidik. Yedige, Alpomish, Qo‘blon, yana boshqalar haqidagi doston kitoblarni yodlab, suv qilib ichib olgan edik. Balki lampa moyning isi miyamizning yaxshi ishlashiga yordam qilgandir! Bilimga intilaverdik-ku.

— Poh, qotirding-ov! Shunda nima, bizlarning boshimiz yaxshi ishlaganiga sabab — shutik chiroqning hidida bilim olganimizmi?

— Hovva, xuddi shunday, Marat, unday deganim, bir safari mening boshimga sartaroshning pokisidan tozqo‘tir kasali yuqib, ulg‘ayib ketdi. Yomon qichiydi. O‘shanda otam boshimga lampamoy yoqqan edi, boshimni ushlagancha — ovul aylanib, zir yugurdim. O‘shandan keyin sochim ham boshimga sig‘may, g‘ovlab o‘sdimi, haligachayam bir tola sochim tushmay kelayapti. Shu-shu bo‘ldi-yu, boshim qattiq ishlab ketgani shuncha, kitob qo‘ymay o‘qiyman, yodlab olib kuylayman. Haytovur, shutik chiroq sharofati bilan kitob o‘qiydigan bo‘ldimmi deyman. Oxirida olim bo‘ldik-qoldik. Shamning esa hozirgi bolalarning boshiga ta’siri yo‘q-da. Shundan keyin ular elektrning yorug‘ini yoqtiradi.

— Sobir Kamolovich, sen hamma narsani hazilga aylantirasan. Unday bo‘lsa, filologiya fanlari doktori Qirqboy Boyniyozovning boshigayam otasi lampamoy quyganidan so‘ng yaxshi olim bo‘lib yetishgan ekan-da?! Unda hozirgi bolalarning ham boshiga lampamoy quysakmikan? — deb ikkovi ixlos bilan kulishib olishdi. So‘ng ikkoviyam telefon dastasiga yopishib:

— Elektr yorug‘ini qachon berasizlar? — deb so‘rashdi.

Shu orada elektr chiroqlar yaraqlab, tevarak-atrof yorishib ketdi. Bolalar chapak chalib yuborishdi.

— Ne degan bilan, elektr chirog‘ining yorug‘iga nima yetsin! Yorug‘likni kim ham yomon ko‘radi? Yorug‘likka kim intilmaydi? Yorug‘lik lazzati o‘z oldiga bir dunyo-ku! Shunday yorug‘likdan,

yorug‘ dunyo imkoniyatlaridan yoshlarimiz foydalanib qolishlari kerak-ku, — deyishdi ular, bir-birini ma’qullashib.

— Baribir, menimcha, bu yoshlargayam lampamoydan iskatib turish kerak, shutik chiroqni unutmasliklari kerak. Balki shunda ular ilmga intilar?..

Ko‘p o‘tmay, ular ikkoviyam akademik darajasiga ko‘tarildi. Mumkin, ular o‘sha shutik chiroqning sharofati bilan shunday ulug‘ maqomga sazovor bo‘lgandir?

Abdimurod OTAJONOV

TUG'ILMAY TURIB YO'Q BO'LDI

Hikoya

Birinchi kursning birinchi oyi oxirlari. Talabalarni paxta terimiga olib ketadigan bo'ldi. Bo'yra sochli, kelbati kelishgan yosh yigit — kuratorimiz: "Ertadan keyingi kun ketamiz. Institutning oldiga yig'ilasizlar. Bir kunning o'zida qishgi kiyimlarni, bir-ikki kunlik oziq-ovqatingizni tayyorlang. Hozirdan boshlab ruxsat", — deb, bizlarni tarqatib yubordi. Ma'ruza o'qilayotgan paytda hatto nafas olishimiz ham aniq eshitilib turadigan tinch auditoriya bir daqiqada arining uyasiday guvullab ketdi. Oltin davr talabalikning eng bir shirin damlarini tatib boshlagan, endi bir-birimiz bilan tanishib-o'rganishayotgan biz yosh yigit-qizlar shu zahoti institutning katta yo'lga qaragan eshigidan chiqib, yugurishib ketdik.

Ovulim shaharga yaqin joyda bo'lgani uchun shoshilmayotgan bemalolxo'jalar ichida men ham bor edim. Nimasiga shoshaman, ovul yaqinligi sababli o'qishga velosipedda qatnab yuribman-ku, men uchun uyga borib kelish muammo emas.

Menga oziq-ovqat, kiyim ham muammo emas, eng yetishmayotgan narsa — bu vaqt edi. Fikr-u xayolimni band qilib yurgan bir voqeani qog'ozga tushirib, kichkintoy bolalar uchun ixcham pyesa yozgan edim, shuni tahririyatga topshirganman. O'qib ko'rishgan, so'nggi borganimda "gazetada yoritsak bo'ladi. Oyoq olishing yomon emas, mazmuniyam juda muhim. Yaqinda chiqib qolar", deb ishontirishgan. Biroq men ishonganim bilan, pyesamning yoritilishi negadir cho'zilayotgan edi, izga surilayotir. Agar indinga paxta terimiga ketib qolsak, shu bilan qish tushganda, qor yoqqanda qaytamizmi, kim bilsin. Tahririyatdan xabar olib turmasang, qalin papka-yu, qog'ozlar orasida qolib, yotaversa — yosh yozuvchi uchun bu haqiqiy muammo-ku. Shuning uchun ham tahririyatga borib, asarimning taqdirini bilib ketishim kerak edi. O'y bo'y, bola, shu pyesam o'qib yurgan paytimizda chiqa qolsa-ku, yaxshi

bo'lardi-ya. Bir auditoriyada o'tirib, ma'ruza tinglaydiganlar orasida, ko'z-ko'zga tushadigan tanish-bilishlar, domlalar orasida rosa tilga tushib, gap-so'z bo'lib, obro'yim oshib ketardi-ya! Hamma meni ko'rsatib "ana, yosh yozuvchi Falonchi Falonchiyev!" desa — o'hho', shuning o'zi o'qishimga, adabiyotni o'rganishimga, kelajagimga eng ajoyib poydevor bo'lmasmidi! Biroq, institutda o'qishning to'xtagani, talabalarni paxtaga olib ketish harakatlari — qip-qizil cho'g'li ko'mirni kulga aylantirish uchun sepilgan suvga o'xshaydi-ku. Yoki "asarim baribir chiqadi-ku" deb, ko'pchilikka qo'shilib paxtaga ketaverishim kerakmi? Meni — bo'lajak yozuvchini mana shunday xayollar qiynayotgan edi.

* * *

"Qo'y ko'rmagan qo'y ko'rsa, quvalab yurib o'ldirar", deganlari rost ekan, shekilli-da. Asar yozildi, qog'ozga tushdi, endi gazetada chiqqanini ko'rmoqchiman — mana mening dard-u hasratim! Institut oldidagi teraklar yonida yolg'iz qolganimda men ana shular haqda o'ylar, o'zimni beli tolib, charchagan odamday his qilardim.

Guzar yo'lning chetidagi trotuarda ketib borarkanman, men mana shunday xayol-o'ylar iskanjasida edim. "Sen, nima, atoqli yozuvchimisan? Halitdan shunchalar tirrayging keladi, o'zing endi birinchi kurs talabasisan-u, shu yoshingdan kekkayishni boshlayapsanmi? Undan ko'ra, bor ovulingga jo'na. Terimga tayyorlan. Oyog'ingga etik, ustingga issiq kiyim g'amlashtir. Kun izillab sovitsa, birinchi oyoqdan o'tadi, ikkinchi, usting yuqa bo'lsa, gazetaga bergan asaring ham kiyim bo'lmaydi, qorningni to'ydirmaydi", — deb birinchi xayolim koyisa, ikkinchisi menga dalda berganday bo'ladi: "Hay-hay, qaysi odam bugungi kunda ochdan o'lib, ko'chdan qolib borayotir? Kaftingda pul bo'lsa, xarajating mo'l bo'lsa, shaharning o'zidan ham barchasini sotib olish mumkin. Barchasidan muhimi — asaringning chiqishi emasmi? Shunga g'ayrat sol. Nima uchun chiqmayotganining sababini bil, kamchiligi bo'lsa, tuzat. Yetmagan joyini to'ldir, qo'sh..." Oxir so'ngida men ikkinchi fikrni ma'qul ko'rib, "gazetaga bir kirib ketish kerak" degan qarorga keldim.

* * *

Shaharning markaziy ko'chasiga joylashgan matbuot uyiga — uning ko'p derazali imoratiga shunday shirin-u tashvishli xayollar yetagida yetib keldim. Ichkariga kirib, ikkinchi qavatga ko'tarildim. Kunchiqar bilan kunbotarga cho'zilgan uzun dahliz. Ikki tomondagi eshiklardan birovlar ildam kirib, birovlar chiqib yotibdi. Ochiq turgan eshiklardan yozuv mashinkalarining shitirlagan ovozi keladi. Men asarimni topshirgan, shu sababdan tez-tez qatnayotgan mahkama — yoki bolalar gazetasi, uzun dahlizning narigi tomonidagi muyulishda edi. Men yaqinlab kelayapman-u, biroq o'zimdan o'zim uyala boshladim. Buning ham sabablari bor. Kichkina bo'lma(xona)da yetti-sakkiz xodim qator qo'yilgan stollarda tiqilishib o'tiradi, oralaridan odam zo'rg'a o'tadi. Qachon kirib borsang, xodimlarning tiqilib o'tirganini ko'rasan. Bo'sh o'rin bo'lmaydi. Menga-ku bo'sh o'rinning hech keragi yo'q, bir-ikki og'iz gaplashib olsam — shuning o'zi yetarli. Biroq har gal xonadagi odamlar bilan qo'l olishib salom-alik qilish kerak, ba'zan hol-ahvol so'rashish kerak deganday... Dim, dim qisinaman, yelkamdan ter chiqib ketganday, bir g'alati bo'lib ketaman. Mana xonaga kirdim, yana qo'l olishib so'rashaman. Yana terlayman. So'ng bo'sag'a tomon borib, kutib turaman. To'rda o'tirgan ot jag'li kishiga termilib qarayman — nima aytadi ekan deb yuragim gupullay boshlaydi. Yaxshi gap bo'lsin-da ishqilib, deb tama etaman. Oqsil-ko'k, urunibroq qolgan kastum kiygan kishi menga tikilib qarab, darrov tanidi. Uning taqqan galstugining tugun joyi ko'ylak yoqasining bir tomoniga og'ib ketgan edi. Shimining pochasi ham anchadan beri dazmol ko'rmaganini aytib turibdi. O'zi qandoq alba-dalba bo'lsa, usti-boshi ham shunga loyiq. Hech kasbdoshlariga qarab, ulardan o'rnak olib yurmaydi.

U meni ko'rgan zahoti dahlizning huv to'r tomoniga boshlab ketdi. Men albatta uning bir nimalar aytishini bilaman, quvontiradigan xabar bo'lsa edi, deb yalpillab unga ergashaman.

— Keldingmi? Keldingmi? — deb qayta-qayta so'raydi u. Men javob berishga ulgurmasdanoq so'zida davom etadi. — Inim, hay bola, asaringni yana o'qidim. — U kulimsirab qaragan edi, dilimdagi hadikka nur tushib, atrof yorishib ketganday bo'ldi. — Tak,

tak, tak, yomon emas. Oyoq olishing yaxshi, so‘z qo‘llashlaring yaxshi. Shartta gazetaga berib yuboraversam ham bo‘ladi...

— Yaxshimi? Unda qachon chiqadi? Qachon o‘qiyman? Qo‘lim yuqa talaba bo‘lsam ham, qotirib yuvaman, og‘a!..

— Niyating yomon emas. Yaxshi. Biroq qichimagan iyakni erta qashib o‘rganma, bola... Sen bola, juda balo ko‘rinasan, balo ekansan... Mushtday boshingdan narastalarning tilini yaxshi bilasan... Bolali bo‘lgan bizlar bilmaymiz. Shuning uchun ham asaring yaxshi chiqibdi. Juda asosli. Gazetada bosila qolsa bormi, manov yurgan yaltirbosh yozuvchilarning ko‘pi tang qoladi, tuz yalab qoladi! Yaraysan, bola... Yo‘q, yo‘q, inim.

Ana! Demak, asarimning yulduzi yarqirayin deb, oyi o‘ngidan tug‘ayin turibdi. Gazetada chiqib olsin qani! Hozircha esa, quruq maqtovdan og‘iz yolchimaydi, maqtayvergan bilan sho‘rva qaynamaydi! Baribir, ko‘zimcha maqtaganidan, taniqli adiblarni tang qoldira olishimdan shu turishimdayoq bo‘yim bir qarich o‘sib qoldiyov deb xayolladim. “Manov og‘amizga ma’qul bo‘lsa, gazetada so‘zsiz chiqadi. Buning yozganlarini ham men doimo o‘qib boraman. Juda qotirib yozadi. Bunday odam albatta boshqalarning mehnatini ham qadrlay biladi. Qani edi, pyesam tezroq bosilib chiqsa, bosilib chiqqanini ko‘z bilan ko‘rsam, ko‘zimga surma qilib, so‘zma-so‘z, harfma-harf o‘qisam, o‘qiyversam! O‘zimning ismim, otamning ismi yuqorida alohida qilib yoziladi, kattakon qilib yoziladi. Yulduzday porlab, ko‘zga tushadi, ko‘ngilni yayratadi. Ana shunda maktabda yurganida biror nimasi chiqqan, institutga kirgandan berli bir-ikki she’ri bosilgan shoirlar bilan tenglashaman, tenglashaman nima, o‘zib ketaman! Sababi, ularniki she’r, oddiy she’r, mening asarim esa har kim yozishga jur’at qilavermaydigan pyesa, axir!..”

Oyog‘imni yerdan uzib, o‘zimni osmon-u falakka olib ketgan xayollarim tilimga jadal, shiddat bag‘ishlaydi, o!

...Xullas, o‘zimni yetti qat osmonlarda his qilib tursam...

— ...Endi, bola, inim, menimcha, juda erta quvonayapsan. Har kim ham quvonadi asari chiqayotganda, lekin bunchalik emas-da... Hali asarni pishirish bor, uni gazetada chiqarishga yaraydigan qilib tayyorlash bor, xato-kamchiligini, kam-ko‘stini qoqib, yamab,

randalab, yo'nib, ko'z ko'rsa quvonadigan, o'qiganda dil yayraydigan holga keltirish bor. Bu yog'i alohida masala, bildingmi?! Gazetada bosilib chiqaman deguncha asar ne bir mashaqqatli yo'llardan o'tadi. Mening boshdagi so'zlarimga ayqillab (lop etib ishonib) qoldingmi deyman-a? Asar bekam-u ko'st bo'lishi kerak, tushunarlimi, boshda Cho'lpon yulduzday yonib, so'ng o'chib qolmasliging uchun uni haliyam pishirish kerak, pishirish kerak! Tushunarlimi?!

Rosti, endi tushunmayapman. So'zlari og'mali-to'kmali, almoyi-aljoyi, biri iliq, biri sovuq bu odam nima demoqchi o'zi? Birasa, ko'kka ko'tarib maqtayotganday, birasa yerga ag'darib tashlab tepkilayotganday... Bu qanaqasi axir?

— Shunda men nima qilishim kerak? — Uyat, qisinishma, xijolatpazlikni yig'ishtirib qo'yib, men endi masalani bir yoqli qilishning yo'liga tushdim. — To'g'risini aytavering, nima qilishim kerak? "Dallidan to'g'ri javob" deganlar, kamchiligi bo'lsa, ayting, tuzatib kelay, yo boshqatdan yozib kelay... Qani, ayting-da!

— Hammasini o'qib, fikrlarimni yozib qo'yganman. So'roq belgisi qo'yilgan joylar ham bor, shularga aniqlik kiritish lozim. Birov yordam beradi deb tama' qilma, umid ham qilma, hammasini o'zing bajarishing kerak! Asarning muallifi sensan! Masalan, men o'zim dumbulman, hamma ishimni chalakam qilaman, seni ham shunga o'rgatishim kerakmi? Yo'q, sen pishiq bo'l, pishiq bo'lmasang, adabiyotda ham shunday nahanglar bor, o'zini sal bo'shang tutganlarni yutib yuboradi, ya'ni o'zining ishini qildiradi, mening uchun yoz deydi, yozganlaring mening nomimdan chiqsin deydi. Ora-orasida ozgina pul ham berib qo'yadi, sen quvonib yuraverasan, u esa obro' olaveradi... Birovning chaynab bergani birovga tomoq (ovqat) bo'lmaydi-ku! Uqdingmi?

— Juda oshirib yubormadingizmi? Ja unchalik emasdirov... Qo'lidan kelgan odam asar yozmaydimi axir...

— Oshirdimmi, oshirmadimmi, qo'lidan keladimi-kelmaydimi, hozir adabiyot degani shunday bo'lib qolgan. "Chidaganga chiqargan" deganlari mana shu bo'ladi. Gapning ham o'g'il bolasi — shu. Xo'p, o'zimizning gaplarga qaytaylik. Xullas, gap shu: qayta o'qiysan, qayta yozasan! Kamchiliklarini tuzatasan. So'roq

qo'ygan joylarimni o'nglaysan. Undan keyin tama qilsang, o'rinli bo'lar, bo'lmasa yo'q.

— Voh-voh! — Men boshimni changalladim, hozir o'tirib qoladigan ahvolda edim. — Tamom, umidim, hammasi sochilib, chilparchin bo'ladigan bo'lib turibdi, og'a, nega shuncha gapni menga aytib tashladingiz?

— Nega? Nega? Nega? Birdan o'chib qolging kelayaptimi? Nima bo'ldi? Adabiyot ishini oson deb o'ylagan edingmi? Nima, pishib turgan narsani qayta ishlash qo'lingdan kelmaydimi? Ko'zing qiymayaptimi? Birovga yozdirib olib, o'zingning ismingni qo'ydingmi? Rostingni ayt!

— Yo'q, yo'q, og'a! Shundaylar ham uchrab turadimi?

— Dunyoda nimalar bo'layotgan bo'lsa — adabiyotda ham ana shular aks etishi kerak! Sen, bola, suv ko'rmay turib, etik yechmoqchi bo'lib turibsan. O'rdakka o'xshab, ham olding, ham keting bilan sho'ng'imoqchisan! Nima bo'ldi, omonlikmi?

— Men aytganlaringizning hammasini bajarolmayman, og'a, vaqt yetmayapti, ertadan keyin paxtaga ketayapmiz. O'qishdan ruxsat berishdi hozir.

— Nima bo'pti? Hech termay yurgan paxtangmi? Shunga shunchalikmi? Qachon ketasizlar, ertagami, azon bilanmi?

— Narigi kuni.

— Ertaga emas ekan-ku. Demak, seliy (bus-butun, "селый" demoqchi!) bir kun bor ekan. Bemalol yozib-o'chirib, chizib-ko'chirib kelishga vaqting bor! Demak, qayta tuzatilgan, ko'chirilgan, ishlangan nusxasi ertaga tayyor bo'ladi. Ertaga tushdan keyin opke-da qo'limga bos! Murti sarg'aygan tuynak tez pishadi, asaring pishay deb turibdi, sarg'ayib qoldi. Pishirish sening yumushing, tushundingmi?

— Ulgurolmasam nima qilaman? Uyga borib kelishim kerak, oziq-ovqat, issiq kiyim deganday...

— Sen bola, g'ajirlik (g'ayirlik) qilma endi. — U har barmog'i o'roqning sopicha keladigan qo'lini duoxon-folbinga o'xshab boshimdan aylantirdi-da, yelkamni siypab-siypab qo'ydi. — Men bir yosh yozuvchining asarini tayyorlayapman deb, redaktorga quloqqoqish qilib qo'yganman-a!.. U ham tez-tez so'rab turib-

di. Keyinga sursam yo natijasiz qoldirsam, keyin redaktor menga ishonmaydi. Masxara bo'lamiz-a. Qo'lidan ish kelmaydigan, mualliflar bilan ishlashni bilmaydigan xodimlar qatoriga tushib qolaman. Mening ham ahvolimni tushun.

— Tushunganda, tushunmaganda... — Men chaynalib qoldim. Ichimda unga oson emasligini o'ylab qo'ydim. "Baribir ulgurmayman", degan xavotir menga tinchlik bermayotgandi. — Vaqt chumchuqning qadamidan ham tor, juda qisqa, og'a...

Uning afti burishdi, surlandi, qiynalib qoldi.

— Ko'p gap eshakka yuk, bola. So'zdan shahar qurgan, qal'a yasagan odam yo'q bu dunyoda. Ertagayoq olib kelsang kelganing, bo'lmasa bu atrofda qaytib ko'rinma! Paxtadan qachon qaytishingni kutib o'tirmayman-ku. Ertagacha yozib, qo'limga ushlatib ketsang, omadingning chopgani. Meni aldaydigan bo'lsang, boshqalar ham eshitadi, bildingmi?

— Men so'zimda tursam, siz va'dangizni bajarasizmi?

— Va'da? Qanaqa va'da? — u bir turli bo'lib o'zgarib ketdi. — Men va'da berdimmi?

— Men chiqarasizlarmi deb so'rayapman. Tez kunda chiqadimi?

— Chiqadi, chiqadi dedimmi, chiqadi. Sen bola, bora-bora orqalab ol demasang bo'ldi-ya. Gap tamom, ertaga kutib o'tiraman, er-ta-ga...

— Bosiladimi shunda? — Men qaysarlanib, so'raganimni bilmay qoldim. — Mehnatim kuymaydimi?

— Yo'qolsang-a! Mehnatlaring talay marotaba kuyadi hali... — U negadir ma'yus tortib qoldi. — Biroq sen hozir mening aytganlarimni qil. Mening yoshim ulug', ko'p narsalarni ko'rdim. Quyushqonga tepma. Boyagi gaplarni ko'nglingga olma, chiqarib tashla. Hammasi yaxshi bo'lib ketadi. Bor, bor...

* * *

Ijarada turgan uyning bir xonasiga kirib bordim-da, derazaning chit pardalarini bir chetga yig'ib tashlab, yerga o'tirib, qo'ltiqlab qaytgan asarimni qayta o'qidim, qayerini qayta ishlash kerak bo'lsa, qayeriga o'zgartishlar kiritish kerak bo'lsa, ajratib oldim.

Uy ichi qorong'ilashib, oq qog'oz betidagi harflar ko'zga ilinmay qolguncha, kunning botib ketganini ham bilmadim. Ko'zlarim tolib, achishib ketsa, uqalab — bosib, lom-mim demay, yana kirishdim. Oxiri, qog'ozga, yozuvga, harflarga qaragim kelmay qoldi. Bezor bo'lib ketgandirman. To'shakda sochilib yotgan qog'ozlari bet-ma-bet qilib yig'ishtirdim-da, tomog'imdan bir nimarsalar o'tkazishga urundim. Ochga o'xshayman, chanqab qolganga o'xshayman, qaysi biri bosim ekanini bilmayman. Ay bola, ochlik bilan chanqov bir-biriga yondosh, o'rtoq shekilli deb o'ylab qo'ydim. Uch-to'rt kartoshka archib-to'g'rab, yuqalab kesib, bizga o'xshagan talabalarning yengil, mazali ovqatini pishirishga kirishdim. O't yoqib-yonadigan kerogazda bu ovqat ancha vaqtda tayyor bo'ladi... Choyni xumorlanib, shakardan o'lchab-solib, shirinchoy ichganimda, manglaydan ter shovullab oqqanday bo'ldi, butun tanam ivib, gavdamga yangi kuch-g'ayrat yig'ildi. Bir xayolim yana yozishga kirishishga undasa, yana bir xayolim aytdiki: Ey bola, manglayi sho'r adib, ko'zlaringga oz-moz dam bersang-chi, tashqariga chiqib, bir pas shamollab kel, sochilgan o'ylaringni jamlab-yig'ishtirib ol!..

Shaharning tungi jamoli, ko'k gumbazida yayrab-yashnab, uchib yurgan yulduzlar, qovun tiligiday kumush oy, tungi salqinlik orasida bu yoqlarga yetib kelgan ohangdor kuy, salqin havo — bari-bari o'zgacha bir olam, ajoyib dunyo, ko'ngilga farog'at bag'ishlovchi, xumorni qondiruvchi cheksiz-chegarasiz mumkinotlar edi. Men ko'chalar bo'ylab qibla tomonga qarab yuravergim keldi, yuraverdim...

Ertasiga erta bilan turib yana yozdim, yana yozaverdim. Tushlik mahali tugalladim! Bag'ridan yel o'tib, tepasidan kun tushib, oy erkalagan asarimni qo'limga olib, goh qo'ltiqlab ko'tarib yo'lga tushdim.

— Barakalla, barakalla, inim, — dedi meni kutib o'tirgan yoshi ulug' ustoz mendan ko'rayam quvonib. — Qisinishmadan qutqarding. Mana endi, xudo xohlasa irkilish (to'xtash, to'g'anoq) bo'lmas. Paxtaga ketib borayapsizlar-da, yo'qsa birinchilardan bo'lib o'qirding. U yoqda ham qarab yur. Qo'lingga gazeta tushib qolsa, to'rtinchi betdan izlayver...

* * *

Og'och bortli mashina bizlarni shimol tomondagi tuman tupkiriga — qumliklar orasidagi bir kichkina qishloqqa olib borib tashladi. Uylarga bo'lindik. Undoq qiladurman-bundoq qiladurman deguncha kun ham botdi. Ertadan boshlab dalaga — paxta terimiga chiqib ketdik.

"Norma — oltmish kilo. Kechasi o'zim kelib o'lchab olaman. Oz terganlar yaxshilik kutmasin!" — dedi yoshi ulug' bir muallim. — Ayamayman! To shaharga qaytib borgunlaringcha uy tomonlardagi chalama-chuttilikni, beg'amlikni yo'qotinglar. Sizlarni papalab ayaydigan ota-onanglar bu yerda yo'q, ularning o'rnida men borman, men..."

Durust, uning borligini, ota-onamiz emasligini kun botganda, tushdan keyin tergan paxtamizni o'lchatib bo'lganda bildik. Bir, ikki, uch, hatto yarim kilo kam terganlarni qaytadan otizga haydadi, qorong'ida paxta tergizdi, haliyam beg'amlikda yurganlarning ko'zidan sho'rva oqizdi. Kunduz kuni yaproqlar orasida yashirinib turadigan oppoq xona ham, yumshoq paxta ham tunda tungi qorong'ida ko'zga ko'rinmaydi, qo'lga ilinmaydi. So'qirday siypalanib, gungday qarmalanib bir-ikki kilo tugul, yarim kilo teramanyig'nayman deguncha o'lmasang ham o'limning yarmiga borib qolasan. "Bo'ldi, yig'ishtiringlar! Eslaringda bo'lsin, ertaga oltmish kilo terganlar vaqtida ketadi, oltmishga yetolmaganlarning kuni shunday bo'ladi", — deyish yo'q. Ortda qolgan yalqovlar qattol odamning ruxsatini olib, yemakxonaga charchab kelganlarida, avvalroq ichib-yeb bo'lgan, suyak sho'rvaning o'zigina qolgan bo'ladi. Ayniqsa, eng chaqqon, zarbdor terimchilar uchun muallimning o'zi qozonboshida turib ovqat soldiradi, go'shtdan mo'l-mo'l soldiradi.

Shunday og'ir kunlardayam mening o'yimdan gazetada bosiladigan asar ketmadi, paxta terib, qoriq bo'ylab borayotganda ham men o'sha asarimning taqdiri haqida, chiqqan-chiqmaganligi haqida o'ylar edim. Tunda yotoq joyimizga qaytib kelayotib ham, ovqat yeyayotib ham, sutli choyni terlab-pishib ichayotib ham faqat o'sha asarni o'ylayman. Gazetaning to'rtinchi betida asarimni, yaraqlab turgan ism-familiyamni ko'rib qolganday bo'laman. Bunday payt-

larda men al-havoda, tiniq ko'kda qiyquv solib guvullagan shamolga aralashib, olamga juda yuksaklardan nazar solaman, pastdagi kengliklarda asarim bosilgan gazeta paydo bo'ladi. Shamol gazetaning chetlarini yulqilab o'ynayotgan bo'ladi. Shamolmi, havomi, bulutmi, nurafshon ko'kning to'nkarilgan gumbazimi qulog'imga: "Asaring chiqibdi, chin yurakdan tabriklayman!" — deb shivirlaydi. Izidan bu tovush (shivir) gumburlab-daranglab ketadi-da, olis-olislarga borib yetib, biroz vaqtgacha onamning ovozi kabi, otamning ovozi kabi vujudimni yayratib-balqitib, jaranglab turadi. Biroq xayol quchog'idan qutulib, chin turmushga, o'tirgan o'rnimga nazarimni qaratganimda quloqni chingillatadigan tinch-osuda bo'shliqda qolaman, gazeta ham g'oyib bo'ladi, harflar ham yo'q; o'zim esa qorachoy ichib bo'lib, tiniqib dam olib, yonboshlab yotgan bo'laman...

Yordamda yurgan kunlarimiz shu taxlitda o'tdi. Sovuq tushib, qor yog'di. Ovulda uyma-uy yurib gazeta izlayolmadim. "Paxtakorlarga yordam berish mavsumi tezroq tovsilsa (tugasa) ekan, shaharga tezroq qaytsak bo'lardi-ya..." degan tilak kuchaydi. Noyabrning boshlarida qalin qor yog'di. Shunga qaramasdan zirillab to'ng'ib, sovqotib yurib paxta terdik. Shunday qorli kunlarning birida ovoz yangradi: "Shaharga qaytamiz ekan, olib qaytadigan mashina yuborilibdi!"

Qalin, oppoq, yumshoq qorni kechib ovulga yugurdik.

Boshqalar uy-uyga tarqashib, sog'inchlarini bosib olish uchun oshiqsa, men to'ng'ich asarimning gazetada bosilganini ko'rishga chirpinaman. Kun borida institut oldida mashinadan tushdik. Hamma yon yoqqa tarqaldi. Yerda qor yaltirab yotsa ham, shahar ichi ovulga qaraganda ancha iliq, tinch edi. Men ko'rpa-to'shak solib og'zi bog'langan xaltamni yotoq joyga keltirib tashladim-u, betqo'limni ham yuvmasdan shahar markazidagi kutubxonaga jo'nadim. Bir oy ichida bu yerga qatnayverib, xodimlarning ish vaqtigacha bilib olgan edim. Ancha yoshlarga borib qolgan kutubxonachi opa meni ko'rgandan darrov tanidi. "Nima xizmat?" deganday menga qaradi. Men o'zimga kerak gazetani so'radim. Bolalar gazetasining yangi sonlari tikib qo'yilgan taxlamni oldimga opkelib tashladi.

Burunlari qo'limga tushgan gazetani ola qoldirmasdan, betma-bet o'qib chiqadigan odatim bor edi. Bu safari sondan songa hatlab, sahifalarni birin-birin chaqqonlik bilan varaqlab o'ta boshladim. Faqat to'rtinchi betni sinchiklab kuzataman. Tentak bolakayning boshdan kechirgan voqealar tasvirlangan asar — bizning pyesadan darak yo'q. Sahifalar she'r-u hikoya, latifamonand gaplar, hajviyalar bilan to'ldirilgan. Jumboq, yanglishmachoq, tez aytish deysizmi — bari bor-u, bizning asar yo'q, tirnoqoldi pyesam ko'rinmaydi. Shoshilinchda bir-ikki sahifani qo'shib o'tkazib yuborgandirman deb, qayta boshdan varaqladim — baribir, yo'q. "Hav, hav, bola, bu nimasi, bu nima qilgani? Ota-onamiz boshqaning so'ziga ishonmasayam, gazetada bosilib chiqqan so'zga ishonadi. Shunda, nega?.. Yoki ulug' ustozimning tayyorlab berganini muharrir yoqtirmadimi? Balki... asarimning chiqishiga boshqalar to'g'anoq bo'lib qoldimikan? Nega? Kim?" Men gazeta to'plamining ustiga qo'limni, qo'limga iyagimni qo'yib o'tirib qoldim. Katta derazaning ko'zlarida kunning shafag'i yaltillaydi, qizil alvonga do'nadi. Bu — botib borayotgan quyoshning shu'lalari... Endi bu yerda o'tiravergandan foyda yo'q. Gazetada bosilmabdimi — bosilmabdi, endi o'tirgandan ko'ra, tahririyatga borib surishtirish kerak, vassalom. Gazeta taxlamini opaga topshirayotib, o'zim bilmagan holda: "chiqmabdi, aldashdi meni" deb qo'yganimni o'zim bilmay qoldim. "Qarog'im, qiynalma. Aldaganlardan emas, aldanganlardan bo'laver. Qachon bo'lmasin niyating ushaladi. Damingni ol. Paxtadan qaytganing bilinib turibdi", — dedi.

Tongni qattiq iztirobda o'tkazdim. Goh o'zimning go'shtimni o'zim yedim, goh o'zimni o'zim yupatdim... Kun botadi, tong albatta otadi. Qorong'i tun doimo yoyilib, butun jahonni qoplab yotavermaydi. Sen uchun ham oftob chiqadigan, tonglar otadigan paytlar ham kelib qolar. Shu paytgacha chiqmaganligining ham bir sababi bordir. Yana boshqa kamchiligi topilib qoldimi, kim biladi? Chamasi, gazeta uchun tayyorlangan materiallarni ham o'qiydigan, tekshiradigan boshqa odamlar bo'lsa kerak. Bir odamning fikri ikkinchi bir odamning fikriga to'g'ri kelavermaydi-ku... Ming turli xayolga bordim. O'ylanavergandan foyda chiqmas ekan, demak, gazeta tahririyatiga borish kerak, bo'ldi.

Birinchi kun borganimda yoshi ulug‘ ustoz yo‘q ekan. Ikkinchi kun yana bordim. Tushdan keyin ishda bo‘lishini aytishdi. Uchinchi kun borganimda u bilan ko‘rishdim.

— Yur, yur, bu yoqqa, — deb oldimga tushib, keng dahliz bo‘ylab boshlab ketdi. Sirtqi eshikdan chiqib, qor yopingan, qor yotgan ko‘chaga o‘tdik. Terakzorga keldik.

Men chidab turolmadim, erkim meni tashlab ketgan edi.

— Og‘a, og‘a, asarim chiqdimi? — dedim.

— Inim, — dedi u og‘zidan bug‘ otilib, ulkan gavdasi egilib, — o‘zim qanday aldam-qaldam bo‘lsam, ishim ham shunday... Shu qilig‘imdan qutulolmayapman. Endi meni, inim, og‘angni...

— Nima bo‘ldi, og‘a? Omonlikmi?

— Omonlik bo‘lganida yosh boladay tilimni chaynab turarmidim? Senga nima aytib, nimalar deb tushuntirishni ham bilmayapman. Kechir meni... kechira olsang!

— Shu paytgacha gazetada e’lon qilinmagani uchunmi? Nima deb kechiraman? Aytganingiz amalga oshmagani uchunmi? Boshqalarga ma’qul kelmadimi?

— Qani endi shunday bo‘la qolsa? Undaymas-da, unday emas!

— Nima bo‘ldi o‘zi?

— Sho‘rim qurib, men... sho‘rimga sho‘rpa to‘kilib... men pyesangni yo‘qotib qo‘ydim. Uchdi-kuydi — yo‘q!

— Agar biror narsani bola yo‘qotib qo‘ysa, kechirish mumkindir? Kap-katta yoshdagi odamning bu ishiga nima deymiz, og‘a? Yoshingiz bir joyga borib qolgan bo‘lsa... Shunday gazetaning xodimiga... nima deymiz?

— Nima desang, de, inim... Shunday bo‘ldi. Mayli, so‘k, mayli, koyi, o‘zim ham nima qilishimni bilmay yuribman. Uyatli bo‘ldim, uyatli... Sen bola, yo‘q, inim...

— Ol, og‘a, nima qilishim kerak men? Tuproqqa o‘t qo‘yayinmi?

— Qaytadan yoz, qaytadan...

— Qorinda turib o‘lgan narsa qaytib tug‘ilmaydi-ku, qaytadan enmaydi. Men uni o‘lik tug‘ilgan bola hisoblayman.

— Qo‘y, inim, o‘zingni... Boshda aytdim-ku, hali talay pand yeysan, qiynalasan deb... Kechirsang-chi!

— Men kechiraman, kechirim berarman. Biroq yashashga intilgan, tiriklikka talpingan asar kechirmaydi.

Men sovuqdan qotib yotgan qorda uchib ketib qulamayin deb, yalang'och terakning quruq shoxiga osilib, ariqdan narigi tomonga hatladim. Uning o'zicha g'udurlanib, shivirlanib aytayotgan, bir-biriga bog'lanmayotgan so'zlariga quloq solib turmadim, javob qaytarmadim. Bu paytda mening ko'nglimda izzat-hurmatdan ko'ra g'azab tuyg'usi toshib kelayotgan edi.

Guliston SHOMURODOVA

BIBIZODA
(Bir surat tarixi)

(Esse)

Manov suratning tushirilganiga 60 yildan oshib borayapti.

Suratning orqasida onam boyoqishning dastxati ham bor, unda: "1950-yil. Bibizoda, Oyimxon, Zulfiya" deb, iziga "Bekach bilan tushdik" deb yozilgan. Yoshi ulug' kampirlar ham o'zlariga tengdosh keksa kampirlarni qartayib qolganiga qaramasdan "hoy qiz, hoy bola" deb chaqirganlarida bizlar ichak-sillamiz qotib kulganmiz.

Yoshlik paytlarimizdagi onamning bekach, mirzaog'a, qaynog'a degan insonlari bizlarga eng qadrli kishilar bo'lib ko'rinar edi. Shunday qadrdonimiz — Bibizoda Mateke qizi Jumanazarovani "bekach" deb, akasini "qaynog'a", onasi Palzoda opani "sheshey" deb, oldilarini kesib o'tmagan siylashuvlari bizning umrimizdagi unutilmas, ajoyib voqealar bo'ldi.

Yoshingni uchiga chiqib, qartaysang ham, shu boyagi yoshlik davrdagi qator-qurbing, ko'z ko'rgan qadrdonlaringning diydori o'sha holatda ko'z oldingda ko'rinaverarkan. Bibizoda mendan 3 yosh katta bo'lsa ham, qator-qurdosh, sirdosh edik. U — o'sha paytlarda Jo'qorg'i Kengashning Boshlig'i Mateke otamning to'ng'ich qizi, undan keyingilari: Hamzoda, Oynazar, Lala (La'li), Sveta, Pirnazar, Ernazar, Gulsara.

Men ham ota-onamning to'ng'ichiman. Izimdagilar: Guljahon, Zuhra, Ziyoda, Berdimurod, Zulfiya, Oyimgul. Ikki uyning bolalari qo'shilib o'ynab qolsak, shovqinimizdan chorbog'ni boshimizga ko'tarar edik. Bibizoda bilan men "kampir saqlaganlik"dan[1] ovulda o'sganmiz. Qoraqalpoq maktabida o'qib, 5–6- sinfni bitirib, shaharga kelganmiz. Ikkovimizdan boshqalari bari rus sinflarida o'qiydi. Ikkovimiz g'alig'alaqning bolasi kabi ukalarimizga singisholmay, chetlanib, yozgi dam olishlarda ularning keng chor-

[1] Ovuldagi kampir onamizning qo'lida o'sganmiz, demoqchi.

vog'ida, quyuq soyamonli (sersoya) bog'ning ichidagi tapchanda pashshaxona qurib o'tiramiz. Bibizoda o'ninchi sinfni bitirgan yili, men — yettinchi sinfdaman. Uning oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor, pistaburun, qiyoqday qoshi, o'kchasiga tushadigan qo'shburum sochi, o'qlovday tup-tuzuk, to'g'ri, oq boldirlari bor, yumri bilaklari — oppoq diydoriga bari-bari munosib, quyib qo'yganday, sup-suluv parizodning o'zginasi edi. Men uni yonida yurganimda belimga tushgan qo'lang sochlarim unikiga qaraganda cho'ntayib turganday. Qiyilgan qora qoshlarim, do'ngalak ko'zim, o'ymoqday og'zim bo'lsa-da, to'mtiygan burnim, oppoq yuzimdagi mayda sepkillar siyqimni (jozibamni) qochirib turganday, o'zimni qo'rqinchli ko'rib qimsinaman. U esa mening fikrlarimni o'qib turganday tushunib, meni bag'riga tortib, "nega tortinaverasan, mening sendan bo'tan bilan alpim olishmaydi. Sen o'zimga o'xshab qorapoyim (sodda)san. Hamma narsaga fahming yetadi. Shuning uchun ham sen bilan sirlashgim keladi", deb ichki sirlarini to'kib, uydagi-tuzdagilarni gap qilib, o'ziga yigitlardan kelgan xatlarni ham yashirmasdan o'qitadi. Meni xayolimda o'sha yillardagi uzzukun sirlashuvlarimizdagi voqealar ko'nglimning tub-tublarida muhrlanib qolganday. Esimga olgan sayin yuragimni tebratib, to'lqinlantirib yuborganday bo'ladi. Ikkovimiz ham ruschaga no'noqmiz. Men uni o'rganishga qiziqmadim ham. Ol, Bibizoda bo'lsa, dunyo yuzindagi klassiklarning kitoblarini rus tilida o'qirdi. Sababi, otasi unga "rus tilini o'rganib, oltin medal bilan bitirsang, Moskvada — MGUda o'qitaman", deb shart qo'ygan. Haqiqatan ham u akasi (otasi)ning talablariga loyiq bo'lish uchun tirishib o'qidi. Dastxati toshga tamg'a o'yganday suluv edi, ham bexato yozardi. Uning uyda ruscha so'zlaganini ko'rmadim, ona tilida toza, ko'rkam qilib so'zlaganida, odobiga, ibosiga, oshmay-shoshmay, sabr-bardoshliligiga ham hayron qolar edim. Ikkovimiz ham nozik emas, to'laroqdan kelgan edik, desam bo'ladi. Uning to'liqligi ham o'ziga yarashimli, ol men o'rta bo'yli bo'lganim uchun to'mpoqlovman. Shu qaddi-qomatimga qaramay, dostonlarni ko'p o'qiyman, Guloyim, Gulbarchinday savlatli, To'marisday mard bo'lsam deyman.

Ibroyim og'aning unga yozgan oshiqona xatlarini o'qib, "sening ham hech armoning bormi?" deyman. Ol Ibroyim Yusupovni

mening akam (otam demoqchi, ya'ni Amet Shomurodov) tug'ishgan inisi kabi yaxshi ko'rardi. Uning har bir she'rini o'qigani sayin ko'ngli toshib, "Qoraqalpog'istonning Pushkini bo'ladigan iste'dodi bor", deb to'lqinlanib o'tirar edi. Ibroyim og'aning uyimizga har kelgani bayramlardagiday quvonch olib kelardi. Sababi, uning izicha chorvoqning ichi bilan keladigan Bibizoda ham tovusday taranib, ustidan chiqqan atirning xush isi burunni qimirchitib, yuragingni qitiqlayotganday kayf berardi. Ana, quvonch ustiga quvonch, qadrli qo'noqlarimiz ko'nglimizga zavq berganlari shunchalik, to'rlarning tepasiga o'tirg'izgimiz keladi, jonimizni yaproqday maydalab to'shagimiz keladi, yalbiroqlanamiz (yalinib-yolvoramiz), ammo ular o'tirmaydi. Gap nimadaligini so'ng tushunganmiz. Onamiz ikkovini ergashtirib parkka ketadi. Bizlarni ergashtirmaydi.

Gohida og'am (otam demoqchi) ikki uyning bolalarini ergashtirib, teatrga pyesa ko'rsatishga olib ketadi. Shu paytlar ikkala uyning qizlari esimizni bilib qolganmiz. Bibizoda bilan Ibroyimning uchrashib yurganini bilsak ham illo deb so'z qilmas edik. Goho ularning ko'chamiz boshidagi quyuq terakzor ko'lankasida yoki park ichidagi skameykalarda o'tirganini ko'rib qolar edik. Bilmaganday-tanimaganday bo'lib, bir-birimizga qarab jiminglashib (miyiqda sal kulib) o'tib ketaveramiz.

Sababi ota-onamizning ularga hurmati cheksiz. Og'am (otam) Ibroyim og'ani yolg'iziday qadrlab, onam esa bekachining sevikli yigitiga duchlashuvini jon-tani bilan istar edi. Shu yillari og'am (otam) Yozuvchilar uyushmasining raisi, ol Ibroyim og'a esa uning kotibi bo'lib ishlar ekan. Ibroyim og'a bir yumushlarning bahonasida siltavrab (bahona qilganday bo'lib) uyimizga kelsa, bizlar chorvoqning ichi bilan Bibizodaning uyiga yugurib xabar berishga shoshilamiz. Biroq Bibizoda so'nggi kunlarda bizlarning xabarimizga tebranmaydiyam, aksincha ranjiganday tur bildirib, unsiz o'tiradi. Men chidamay ketaman, "nima, uni xohlamaysanmi?" deyman. U mung'ayadi, "akangni norozi qilgim kelmaydi. Otam "uning kelajagi yo'q, ulamoning bolasini partiyaga olmaydi, o'stirmaydilar", debdi. Meni esa otam o'qishimni bitkazmagunimcha kuyovga bermaydi. Shunda u meni yana uch yil kutar deysanmi?

Hozirning o'zida u — institut bitirgan yigit, uning bilan bir qator yigitlar bola-chaqali bo'lishdi", — deydi. Haqiqatan ham Ibroyim og'a Bibizodadan sakkiz yosh katta edi.

Bizning inimiz Berdimurod to'rt-besh yashar chamasidagi bolakay edi. Uning buldirchinday tilini hamma yaxshi ko'rib, gapirtirgisi kelaveradi. Ibroyim og'a Bibizodaning ko'zicha bir kuni: "Berdimurod, katta yigit bo'lib qolibsan, oladigan, gaplashib yurgan qizing bormi?" deb, erkalatib, gapirtirmoqchi bo'ldi. Shunda Berdimurod: "Hovva, qizim bor, Bibizodani olaman", — dedi. Bizlar uyalib, "qo'y, u ajapang-ku" desak ham, "yo'q, Bibizodani olaman" deb o'jarlandi. Bibizoda qip-qizarib, uyalib: "Berdish, sen kap-katta yigit bo'lganingda o'zingday sup-suluv qiz olib beramiz", degan edi, Berdimurod bunga ko'nmadi: "Yo'q, sen sup-suluvsan, seni olaman", dedi. Ibroyim og'a Berdimurodni ko'tarib olib: "sizlar qo'yaveringlar, biz ikkovimiz kelishib olamiz" deb, Berdimurodni ko'tarib yurdi. Bizlar Berdishni dalaga olib ketib uchrashganmiz. Berdimurodning bu bolalikdagi so'zini, Ibroyim og'aning itga talanganini ancha vaqtlargacha aytishib, kulishib yurdik. Qutlioyoq — Bibizodalarning uyidagi it. Bibizodani uyidagilar tashqariga chiqarmay, qatag'on qilib, bizning uyga ham yubormay qo'ygan paytlar bo'lsa kerak. Uchrashishning o'ng'ayini topolmagan Ibroyim og'a bizning uyga kelib, onamning singlisidan unga xat berib yuboradi.

Bibizoda, bizlarning chorbog'dan o'tib, o'zlarining chorbog'idagi bir joyni aytib, shu tomonga o'tsin degan xabar yuboradi. Uyidagilar Ibroyimni ko'rganda bilmay qolarov, degan maqsadda, onamning singlisi Tilla o'zining xalatini Ibroyim og'aning ustiga yopib yuboradi. Uylarimizning orasini ajratib turgan devorning o'tkal (o'tish) joyidan (eshikdan) o'taverganda Ibroyimni ana o'sha Qutlioyoq kutib oladi-da, xalat yopingan yigitga tashlanadi. Tillaxonning xalati tol-tol bo'lib, yigitning o'zi zo'rg'a qochib qutuladi. O'shanda it og'amizning tirsagidan tishlagan, shimining balag'i (pochasi)ni yirtib tashlagan ekan. Bu voqeani ko'p vaqtlargacha aytishib, kulishib yurdik. Manov she'r Ibroyim og'aning o'sha paytlarda yozgani bo'lsa kerak, mana:

TO‘NG‘ICH MUHABBAT

1

Kim meni “sevmaydi” deb chiqardi gap?
Sevaman men yomon chumchug‘ingni ham.
Derazang ostidagi dumchaga o‘xshab,
Sho‘mpiygan huv qora mushugingni ham.

Uying oldidagi uchta terak ham,
Bari yuragimdan emasdir yiroq.
Mayli, o‘pkalama mendan, jonginam,
Itingni sevmayman baribir, biroq.

Muhabbat itdan qo‘rqsa — muhabbatmi u?
Shundayam kuydim shu Qutlioyoqdan.
Eplab eshik tomon yetdim desam-u,
Auffillab ola ketar meni balaqdan.

2

Sen mehrsiz bo‘lib o‘sding yoshingdan,
Men turibman qaroqchiday osingan.[1]
Yosh “o‘g‘ri”ga o‘lja tilab, mazaxlab,
Militsioner o‘tib ketdi qoshimdan.

3

Uyingning oldida uch tup qoratol,
Kuzda solma[2] ichin yaproq bo‘ratar.[3]
Darvozang oldida turdim anqayib,
Go‘yo to‘p kutganday anqov vratar.

---

[1] **Osingan** — qurol-yaroqlarini osib olgan, demoqchi.

[2] **Solma** — kichkina ariq.

[3] **Bo‘ratmoq** — bo‘ronday, yaproqlarni supurib-shipirib haydamoq.

4

Osiyoning o‘zgaruvchan havo ra’inday,
Shu sabrli minazing dim jonimga tiydi.
Men kelaman bo‘ron kabi, balki quyunday,
Sen shoshilmay kitob o‘qib yotasan uyda.

1948-yil

Ibroyim og‘a pedinstitutda o‘qib yurgan paytida Bibizodaning o‘qiyotgan maktabiga amaliyotga borib qoladi va o‘sha yerda Bibizoda bilan tanishadi.

Bizning uyga emin-erkin kelib-ketib yurgan vaqtlari 1952-yillar edi. Ibroyim og‘a pedinstitutni bitirgandan so‘ng o‘zi bitirgan til-adabiyot fakultetida o‘qituvchi bo‘lib ishlab qolgan. Bibizoda bo‘lsa MGUda o‘qir, tez-tez xat yozib turar, bizlarni sog‘inganini, Moskvada o‘qish qiyinligini, bu yoqlarga o‘rganib ketish qiyin kechayotganini aytib, yurtimizda bo‘layotgan yangiliklardan yozib turishni so‘rardi. Bu orada Ibroyim og‘a mening og‘am (otam) bilan kurortlarga borib, Toshkent va Moskva singari shaharlarni ko‘rib, safarlarda bo‘lib, ajoyib she’rlar yozib, xalqimiz orasida atoqli ijodkorga aylangan edi. Nomi, yozganlari xalqimiz orasida keng yoyilib, hammaning yuragidan joy oldi, tildan tushmaydigan, dildan chiqmaydigan shoirga aylandi, martabasi osha boshladi. Bibizodaning uyidagilar Ibroyim bilan uning ko‘ngli yaqinligini yoqtirmay, oralarini olislatish uchunmi yoki rostdan ham qizning o‘zi o‘qishga, bilim olishga chin ixlos ila berilishi uchunmi ko‘p harakatlar qilar, ammo Alloh taoloning o‘zi bu ajoyibg‘aroyib juftlikni, oshiq-ma’shuqlarning taqdirini ajralmasday qilib qo‘shib-mustahkamlab tashlagan edi.

Bir kuni Ibroyim og‘a bizning uyga keldi. Moskvaga — Bibizodaning izidan borib qaytgan ekan. Qo‘lida Bibizoda berib yuborgan bozorlik sovg‘a — shokolad ham bor. Biz qizlar undan Bibizoda haqida so‘rashga qisinamiz. Onam ikkovlari uzoq vaqt gaplashib o‘tirdilar. Ibroyim og‘a ketganidan keyin, onam Palzoda opaning uyiga borib, u bilan sirlashib, bekachining omonlik xabarini yetkazdi. Palzoda opa ko‘p gapirmaydigan ayol edi. U

Bibizoda to'ng'ich qiz bo'lgani uchun uning ismini aytmas, o'zicha Sho'ydon deb ism qo'yib olgan edi. Onamning so'zlarini tinglab bo'lib, ranjib o'tirib: "Sho'ydonning o'qishdan qiynalib o'tirganini bilaman. Ovulda o'sgan qizni shu yerda o'qitaversak bo'lar edi..." deb, eriga o'pka qilib gapirib o'tirdi. Mening onam ham uni gohida "bekach" deb aytsa, gohida "Sho'ydon" derdi. Bularning qayg'urganlariyam to'g'ri chiqdi, Bibizodaning Moskvada rus tilida qiynalib o'qiganidan ko'ra, bu yoqda o'qishi ma'qul ko'rildi va u kelasi yili o'qishini Toshkentga o'zgartirib keldi. Bibizoda qayerda o'qisayam, Ibroyim og'a uning izidan borib, qoraqalpog'istonlik talaba qiz bilan uchrashish yo'llarini izlab topar, o'rtadagi chin muhabbatni o'tli, noyob she'riy satrlarda yonib kuylar va bu muhabbatning tarix bo'lib qolarlik jihatlarini kashf qilib berardi. Endilikda bu she'rlar qoraqalpoq she'riyatida muhabbat haqidagi eng go'zal she'rlar sifatida xalq ma'naviyati xazinasidan mangu o'rin oldi. Manov she'rni o'qing:

MGUning yotoqxonasida,
Lof emas ming xona bor desa.
Yashirmayman biroq-da unda
Besh yuz birinchi xona — o'zgacha!

Bir, ikki, uch... Yetti koykaning
Devoriga gilam kerilgan.
"Yetti suluv" poemasining
Geroylari bunda tutgandir maskan.

Go'zal Nina olis Taygada
Qarag'ayni oralab o'sgan.
Tojik qizi Chehrayi zoda —
Misoli Panj olmasi, pishgan.

Tiranali Xajira tentak,
"Men Pushkinga oshiqman", deydi.
Yan-Guy-Fey-chi, "Kak dela?" desak
"Karasho" deb kulimsiraydi.

Eston qizi Lidiya yana
Aytib berdi "Kalevi poeg"ni.
Osetinli muloyim So'na
Bo'sh vaqtinda kashtaga epli.

Yettinchi qiz — Amu yulduzi,
Bulay aytsam, ovuldosh! E, bas,
Oh, qo'y ko'zli qoraqalpoq qizi,
Isming aytib sir bersam bo'lmas.

Yilda keldim, sog'inch bu —
mushkul!
Oz yozasan, bu ham bir azob.
Sen o'qiysan, hali, yana uch yil!
O, bu o'qish qanchalar uzoq!

O'qing, qizlar, kim bilim olsa,
Foydasi ko'p xalq ishi uchun.
Olisda qolgan odaming bo'lsa,
Menga o'xshab qattiq sog'insin!

Talay yurtning qo'shgan ul-qizin,
Moskvada joy ko'p-ku bunday. —
Degan bilan, hamon shu so'zim:
Dim o'zgacha, do'stlarim, bul joy.

Hoy, issiq uy, yaxshi qara sen,
Yetti suluvning semyasiga.
Qo'shilaman "a'lochi" degan
Talabalar jarnomasiga.

Yetti guli yetti turli yerning,
Gullash faslin, do'stlik tilayman sizga.
Barchangizni sevdim va yaxshi ko'rdim,
Lekin chin oshiqman men bittangizga!

1953-yil, Moskva

1619301

* * *

Mateka Jumanazarovning uy ichi bilan bari mening og'amni, onamni hurmatlab, yaxshi ko'rar edilar. Ayniqsa Mateke otam:

— Bizning Ametday savodli odam butun O'zbekistonda kam bo'lsa kerak-da, SKdan so'ratib, yozuvchilarning kitobini nashr qilish uchun Toshkentga matbaa ishlariga direktor qilib qo'ydi, — derdi. So'ng bilsak, og'am (otam) 1940–1941-yillarda Toshkentdagi bosmaning badiiy adabiyotlar bo'limining direktori bo'lib ishlagan ekan. Bibizoda bo'lsa, og'amning she'rlarini yoddan bilar edi. Tek bizning og'amning emas, o'zbek shoirlarining ko'pisining asarlarini ham bilar edi. "Ikki xalqning shoirlari ichidagi eng ko'rnikli (mashhur)lari Hamid Olimjon, Zulfiya, bizning Amet og'am deb aytib o'tirardi. Shu sababliyam, bizning Zulfiya degan singlimizning ismini qo'ygan Bibizoda edi. Og'ama (otamga): "qizingiz ham o'zizga o'xshagan shoira bo'lsin", degan edi. Bizning Zulfiya otamga yuz tuzilishi juda o'xshab ketadigan bo'lgani bilan, u shoira emas, olima bo'lib chiqdi. Filologiya fanlari nomzodi, pedinstitutda muallim, dotsent.

Bibizoda bilan umr bo'yi Ibroyim og'aning she'rlari haqida gaplashib, turmushimizda ajoyib yangiliklarni, voqeliklarni o'rtoqlashib, sirdosh bo'lgan davrlar — hayotimning eng qizg'in, qiziqli davri ekan. U bilan so'zlashganimda ko'nglimda bor gaplarni hech yashirib-bukmasdan, chin ixlosim bilan ichki sirlarimni yoyib tashlardim. Uning fikrlarimni suyub, rohatlanib tinglaganlariga sevinib, ichki tashvishlarim-u hayajonlarimdan bo'shab qolganday sezinardim. U dunyoga kelib ketganidan keyingi umrimda ko'nglim andishalarini anglaydigan o'shanday do'st topdim deb ayta olmayman. Yoshlikdagi xayollarimizning uchqur qanoti bo'lgan azizim ardoqli Bibizodani o'ylash bilan hayotimda muhrlanib qolgan voqealarni eslab, kamtar ko'ngilning baland-pastliklarini to'ldirganday bo'laman. Bizlarning bo'y yetgan davrimizdagi ko'ngillarimizning tupkir-tupkiri (tub-tubi)dagi qatlanib yotgan ajoyib sirlarni, tuyg'ularni ayrim vaqtlarda jamoat oldida ham to'lqinlanib gapirib yuraman. Bibizoda qaytish bo'lganida ko'nglimdagi munglarni "Bibizodaga" degan she'rlarimda aytib, Ibroyim og'aga oborib ko'rsatganimda, og'am uyidagi kirar yerda-

gi devorga ildiruvli turgan ta'ziyanoma, telegrammalarning qatoriga solib, ildirib qo'ydi. Bu she'riy to'plamlarimga ham kiritilgan, mana mening o'sha she'rim:

Qayga ketdi ko'z qiymas ul parizod,
Talpinib, yuraklar sig'mas xonaga.
Sochin yulib yig'lar ona tabiat,
Ko'ngilni to'ldirib mungli nag'maga.

To'lishgan oy kabi qaddi qomatli,
Bu foniy dunyoga munosib eding.
Shodli zamon qizi, baxtli, davlatli,
Tong shafag'iga sen tutashib eding.

Ko'rkingga mos edi qadamlaring ham,
Ko'chani to'ldirib o'tar eding sen.
Saqlab doim ibo-odobing, erkam,
Ko'rganlarni behush etar eding Sen.

Bizlar bosib o'tgan so'qmoq bo'yinda
Bir majnuntol yig'lab turganin ko'rdim.
Bu davron oldi — chin, izi o'yinma?
Berib turib qaytib olganin ko'rdim.

Adashgan g'oz kabi jufting topolmay,
Yor qoshida qo'sh to'shaging bo'sh qoldi.
Onalik taftingga mehri qonalmay,
Ul qizingning ko'zlarida yosh qoldi.

Dunyoga kelganding shon-shavkat bilan,
Ketganda ham qayg'u bo'lding umrga.
Seni oramizdan op ketgan bilan,
Jon-tanimiz bilan yashaysan birga.

Dunyoda odamning eng yaqinlari o'lgani bilan, xayolida xuddi tiriklar kabi yashayverarkan... Qizg'aldoqday qiz davrimizda, uning uyidagi bog' ichida, tapchanda, pashshaxonada, tun-u kun demay, har xil suratlarni yoyib, yigitlardan kelgan xatlarni taxlab,

birma-bir o'qib chiqamiz-da, ular ichida Ibroyimning she'rlariga e'tiborimizni qaratamiz.

Men uning ishqiy she'rlarini o'qiyverib kimgadir oshiq bo'lib qolganimni dastlab qipsa (xufiya) saqlaganman. Sababi, men suygan yigit Ibroyimday shoir emas, she'r yozish u yoqda tursin, hatto qoraso'z (proza) bilan ham "suyaman" deb aytgan emas. Uning uylarini yangam Bozorguldan eshitardim. Bizlarni uchrashtirgan ham o'sha edi. U mening qo'limdan tutib, "aylanib qaytamizmi?" degandayoq, "opam chaqirayapti!" deb, alvirab, oldi-orqamga qaramasdan yugurib ketganman.

O'sha paytda Bibizodaga bu sirimni aytishga imkon bo'lmagan. Bir kuni u o'ziga kelgan bir yigitning xatini ko'rsatib: "Manov yigit qalay? Bir yildan beri izimdan qolmaydi. Oshiq bo'lib qolibdi. Ibroyimning izimdan yurganini ham biladi. O'zi mening bilan tengdosh. Toshkentda, talaba", — dedi. Mening tur-tusim o'zgarib ketgan ekan. U: "qalay ko'rsam ham otam Ibroyimga chiqishimga ruxsat bermaydi, endi bu yog'i qalay bo'lar ekan deb, sening bilan o'ylashib o'tirganim-ku", — dedi. Achchig'im burnimning uchigacha chiqib ketdi. "Agar sen Ibroyimga turmushga chiqmasang, u o'lib qoladi" deb yuboribman.

— O'lib qolishini uydagilar ham, boshqalar ham aytishyapti. "Up-uzun ichakday oriq, kasalmasmikan?" deb ham so'rashyapti birovlar.

— Odamlar nima desa, deyversin. Sen bilan qo'shilib turmush qursa, barcha kasalliklardan qutuladi. Hali ko'rasan, dong'i butun dunyoga yoyilgan Pushkinday shoir bo'ladi. Shunda sen Tatyanaday[1], ulug' shoirning seviklisi degan obro'ga erishasan, — qayirib tashladim men.

— U o'lib qolsa, men bolalarim bilan qolsam, nima bo'ladi? Otam ham mendan yuzini buradi. O'z manglayim bo'lib, toleim ochilmasa, mening kimga keragim bor?

— Hammaga keraging bo'ladi. Ulug' shoirning rafiqasi deb el-yurt ham qadrlaydi. Go'zalliging bilanoq hammani sevintirib yurasan...

---

[1] **Tatyana** — Pushkin asaridagi qahramon. Pushkinning rafiqasining ismi-sharifi Natalya Nikolayevna Goncharova (1812–1852) *(tahririyat izohi)*.

— Qo'ysang-chi! Menda el-yurt tang qolguday go'zallik bormi? Qaysi dostonda semiz qizlar suluv deb kuylangan? Xalqimiz xipchabel qizlarni suluv deb kuylagan-ku!

Men uning aql-farosat, zakiylik bilan aytgan gaplariga javob aytolmay qolsam ham, "baribir, semiz bo'lsang-da, suluvsan, bo'lmasa nega hamma senga oshiq bo'laveradi? O'zing emasmi shu gaplarni aytgan: "Moskvaning, Toshkentning ko'chalarida yursam, yonimdan o'tib borayotganlar tanglayin qoqib, bir aylanib qarab oladi. Ayrimlar, so'zlatib ko'rmoqchi bo'lib, "Qaysi millatdansan?" deb so'raydi. Qoraqalpoqning otini eshitmagan birovlar mening qayerdan ekanligimni bilib olgisi keladi. Men ularga: "bilging kelsa, xaritaga qarab Orol dengizini, Amudaryoni topib ol, men o'sha kichkina millatning farzandiman" deb ketaman. Ular Orol, Amu deb tamshanuvi bilan qolaveradi, — degansan-ku!"

— Ay, ular chet elliklar edi! Badanlari biznikiday oq bo'lmagach, hayron qolaveradi-da! O'zimizda menday suluvlar ozmi?! Ne bir-ne bir xipchabel suluvlar, Guloyimday, Gulbarchinday, Qurtqa, Oysanam-u Shohsanamday arularning hisob-soni yo'q. Ibroyim ham shulardan birini tanlab-saylab olar. Yurtning sevimli shoiriga qaysi odam qizini bermas deysan?! — deb kuyunardi Bibizoda.

O'zi ichdan yig'lagusi kelib tursa ham, bu gaplarni joyfarog'at (bemalol) aytayotganini tushunsam ham, unga:

— Bibizoda, nega uni ayamaysan, rahming kelmaydimi? — deyman.

— Guliston, Ibroyimga mendan ko'ra sen oshiq bo'lib qolganga o'xshaysan. Sening shoirlikkayam uqubing bor. Shunday ekan, unga o'zing tegib qo'ya qolsang-chi!

— Men sening qoshingda kimman? Uning sevgilisi kim ekanini bila-tura nega odamni kuydirasan? Ibroyim meni nima qiladi? U seni sevadi! Men esa sen bilan birga ko'chaga chiqishga ham tortinaman. Burnim puchuq bo'lsa, betimni sepkil bosgan bo'lsa, boya aytganimday, sen bilan ko'chada yurishgayam uyalsam... Birovlar aytgan ekan, "Kabutarni kabutarga qo'y, tovusni tovusga..." deb.

— Voy-vo'y, mening o'ynab aytganimga, maslahatlashayin deb aytganlarimga izzang kelib qoldimi? O'zimning puchuqqinam, achchiqlanmagin. Seni kim suluvmassan dedi?! Puchuqliging ham, yuzingdagi sepkillar ham o'zingga yarashib turibdi. Bo'y-bichiming ham, soching ham o'zingga loyiq. Tek o'zing tortinchoqsan. Senga oshiq bo'lmaydigan yigit bormi? Sen ham ko'ksingni ko'tarib, to'manga qarayvermay, atrofingdagi ko'z solgan yigitlarga nazar tashla. Tek menga, Ibroyimga teg deb yalinavermay, uning yozganlarini ham o'qib ko'r. Yigitlarni bilish oson deysanmi? Balki ularning xatlarini o'qib, odob-axloqini tushunish mumkindir. Umr insonga bir marta berilgani kabi, chin muhabbat ham bir marta beriladi...

— Yigitlaring o'zingga ordona bo'lsin. O'zimning suygan yigitim bor!

— Sen mening barcha sirlarimni bilasan. O'zing esa mendan sir yashirasan, — dedi Bibizoda.

Shundan keyin men ham sirimni aytishga majbur bo'ldim. Bibizoda ranjigan turdi:

— Sendan yoshi ancha katta ekan, qalayincha qo'rqmasdan gaplashib yuribsan? — deb ozorlandi. Men unga sir ochganimdan qo'rqib ketdim. "Hali u bilan so'ylashib ko'rmadim, tek Bozor yangamning aytganiga ko'ra tanishdim, xolos" deb, o'zimni oqlay boshlagan edim, u ishonmadi.

— Menga hozirgina suyib qolganingni aytgan eding. Hali o'ninchi sinfni ham bitirganing yo'q. Onang bilib qolsa, gapga qolasan. Aldanib qolsang nima bo'ladi? Masxara bo'lasan-ku. Ehtiyot bo'l. Hali maktabni bitirib, talaba bo'lib olsang, aql-hushingni jamlab, o'zingga loyiq azamatga ko'ngil qo'shasan... Ota-onangning obro'yini o'yla.

Bibizoda ToshDUda ikkinchi kursda o'qib yurganda, 1955-yil 29-avgust kuni Ibroyim og'a bilan qochib ketdi. Ularga yetti yil mobaynida yangalik qilib yurgan mening onam ham, ertalab soat sakkizda Toshkentga uchaman deb o'tirgan Mateke otam bilan Palzoda opam bundan xabarsiz edi. O'sha kuni nomozdigar paytida Bibizoda chorvoqning sirti bilan bizning uyga yaqinlashib, meni chaqirib oldi-da:

— Tez opangdan so‘rab chiq. Men bilan parkka borishingni ayt. Qistovli so‘zim bor senga. Og‘zingga mahkam bo‘l, bugun Ibroyim bilan qochib ketaman, — dedi.

— Hov, ertalab uchadigan biletingni nima qilasan? Nega birdan o‘zgarib qolding?

— Gapni cho‘zma. Bugun azonda Ibroyim bilan parkning ichida uchrashdik. U talabni qattiq qo‘ydi. Bugun u bilan ketmasam, endigi yog‘ida meni kutmaydi.

Ko‘nglimning to‘lqinlanib ketgani shunchalik, darhol uyga qarab yugurib, onamdan so‘rab, Bibizodaning uyiga bordim. U uyning to‘ridagi o‘zining xonasida tiqilib, aqli olti bo‘lak, ko‘ngli bezovta bo‘lib o‘tirgan ekan.

— Shuncha yil ota-onamning boqib-saqlab o‘stirganiga, ixlosiga loyiq nimalar qildim? Niyatlarini amalga oshirolmadim. Ko‘p o‘ylandim. Chinini aytganda, mendan otam o‘ylaganiday olim ham, amaldor ham chiqmaydi. Men siyosatni yoqtirmayman. Yaxshi uy bekasi bo‘lishni kelishtirolsam, iqbol-baxtim ochilib ketar, deb o‘ylayman. Otam mendan boshqalarini yuqori darajaga yetkazaverar. Men ularga o‘xshab tikminaz emasman. Amalga chiqish, boshqarib ketish uchun ham bilim kerak. Mening muloyim-xushfe’lligimdan kimga naf bor?

U esini yig‘ib olganday kulimsiradi:

— Aytmoqchi, mendagi barcha xatlarni, suratlarni senga qoldiraman. Hech kimga ko‘rsatmay saqlab tur.

Xatlarning ichidan bir suratni olib, qo‘limga tutqazdi, suratning orqasiga “Pardaboy. Aytboy,” deb yozilgan edi. Pardaboyning suratini burun ko‘rganman, ikkinchisini bilmayman.

— Manov Pardaboyning jon jo‘rasi Aytboy degan yigit. Ikkoviyam o‘qishini bu yil tamomlaydi. Aytboy — Nukusning bolasi. Seni tanishtiraman deb yurgan edim. Juda aqlli yigit. O‘qishini bitirib kelganidan so‘ng ko‘rasan. Bularning hech biriga ham javob qaytarmayman. Vaqti kelganida o‘zlari bilib olaveradi. Hali senga aytadigan so‘zlarim ko‘p edi. Hammasini aytishga ulgurmayapman. Manavi xatlarni o‘qib chiqsang, mening ahvolimni tushunarsan. “Sevaman”, “kuyaman” degan xatlar zeriktirdi meni. Og‘am (otam) ham meni ayttirib keluvchilardan zerikkandir, ketganimga

qiynalmas. Anov bir kuni o'zing ko'rding-ku og'amning ahvolini. Jini kelib, oldidagi araqni piyolaga quyib, ichib yubordi-da, "ol, men mastman" deb uxlab qolganidayam, ular ketmasdan javob kutib o'tirdi. O'zlari el tanigan, el boshqargan oqsoqollar ekan, otamning yoqtirmaganini anglab yetmaydilarmi? Shunda, nima, meni xotin tashlagan odamga loyiq ko'rganlarimi bu? "Qizning o'zi biladi" degan javobni aytibdi og'am. Shundan keyin ketavermaydilarmi, axir... Men xabarlashgandan keyin xat yozibdi, endi javob kutib o'tiribdi.

Bu voqeaning men ham guvohiman. Dam olish kuni edi. Choshga mahali bog' ichiga ayttiruvchilar kirib keldi. Uy xizmatkori Yaqshim Palzoda opani chaqirib, mehmonlar kelganini xabarladi. Yozgi osh pishiriladigan bostirma bilan mehmonxona oldidagi teraklar soyasidagi keng supaga ko'rpachalar to'shalib, dasturxon yoyildi. Uydan Mateke chiqib, dasturxon atrofida hamma jam bo'ldi-yu, Bibizodaning tinchi yo'qolib, tipirchilab qoldi.

— Bular bekorga kelmagandirov. Meni Ibroyimga otasi bermaydigan bo'libdi, deb gap chiqqanidan keyin xotini borlar ham, yo'qlar ham so'z soladigan bo'ldi. Nima, endi men yerda qoldimmi? Ba'zilarining xotinlari erini mendan qizg'onib, ustimdan g'iybat chaplaydigan bo'lgan emish. Go'yo kimdir qo'l bilg'ab, "menga boy kerak" deb chaqirayotganday, fahmsizlar...

Uzoq gapning qisqasi — Bibizodaning o'ylaganlari haq bo'lib chiqdi o'shanda. Ayttiruvchilar uyiga ketguncha biz ikkovimiz pashshaxonadan chiqolmay o'tirganmiz.

— Guliston, xatlarni sumkangga sol. Og'am ishdan kelmay turib, parkka aylanib kelamiz deb chiqib ketaylik, — deb meni shoshiltirib turganda ustimizga Palzoda opa kelib:

— Sho'ydon, sen olib ketadigan narsalarni tayyorlab qo'ydim, yur, shularni solishtiraylik, — deb, uni oshxona tomonga boshlab ketdi. Bibizoda menga ko'zini qisib:

— Guliston, sen ketaver, parkdan qaytishingda kirib ketarsan, mening boshqa ishlarim chiqib qoldi, — deganidan keyin, men uydan chiqib, ko'cha yuzida u yoqdan bu yoqqa yurib turdim. Chiqarmikan desam, chiqmadi.

Parkning ichini ham bir aylanib chiqib, Bibizodaning uyiga kelsam, Mateke otam hali ishdan kelmagan ekan. Deraza tagida turganimda, Xolmurod Safarov[1] yonimga yetib keldi-da:

— Qachon chiqadi? — deb so'radi.

— Og'asi hali kelmadi, qaydam. Ibroyim og'a keldimi? — desam, Xolmurod Safarov solmaning ichiga imo qildi. Bechora, ikki bukilib-buqib, yotib olibdi. Kulgim keldi, shunchalik qo'rqqaniga ayab ham ketdim. Xolmurod ikkovimiz hech narsadan qo'rqmay gaplashib turaverdik. Oradan ko'p o'tmayoq bir mashinaning chirog'i bizlarga tushib, atrofni yoritib yubordi. Men darhol o'zimni tanitmaslik uchun Xolmurodning panasiga tiqildim. Tanisin-tanimasin, bizlar keyinga chekinib, chetlab turdik. Chiqadigan Bibizoda yo'q. Borib xabarlashib kelay desam — qo'rqaman. Uyining hamma tomoni yorug', chiroq o'chmaydi. Oxiri Ibroyim og'a solmadan chiqib kelib, Xolmurod bilan yo'lning tomonidagi qalin terakzorning ostiga borib turdi. Men bo'lsam yolg'iz o'zim Bibizodaning derazasi tarafga borib-kelib turibman. Xonasida hech kim yo'q. Uydagilar yo hammasi jam bo'lib, ovqatlanayapti yoki Bibizodaning ertangi safarga olib ketadigan narsalarini qarashtirib-solishtirib yurgan bo'lsa kerak. Darvozadan mo'ralasam, hech narsa ko'rinmaydi. Ustimdagi ko'ylagimni almashlash uchun uyga borib kelsammikan desam, Bibizoda men yo'q paytda chiqib qoladiganday, bundan ham qo'rqaman. Allabir paytda barcha uylarning chiroqlari o'chib qoldi-yu, atrofni sukunat qopladi. Hammamiz yo'l qarab, sarg'ayib turibmiz. Baribir, chiqmayapti, chiqmayapti-da.

Soat bir-ikkilar chamasi Bibizoda singlisi Lyalya bilan chiqib, tom muyushiga kelib turdi. Men uning yoniga borib:

— Bunchalik yo'l qaratib, dilgir qilib qo'yganing nimasi? — dedim. U bo'lsa:

— Chiqishni oson deysanmi? — dedi qaltirab. Shuning orasida Ibroyim og'a bilan Xolmurod kelib, Bibizodaning hiqillab turganini ko'rib, to'xtab qoldilar. Bu tinchlikni uyqusirab turgan Lyalya buzdi:

---

[1] **Xolmurod Safarov** (1932–2009) — atoqli bolalar shoiri, o'sha paytda boshlovchi ijodkor.

— Bibizoda, bo'lsang-chi, uyqum kelib turibdi, — dedi u. — Ma, manov sumkangni ol, men uyga ketaman!

Bibizodaning yig'lay boshlaganini ko'rib, hayron bo'lib qoldim. Nima deyishni bilmayman. Ibroyim og'a asta ularning yoniga bordi:

— Qo'y, bo'ldi. Lyalya bizlar bilan ketadimi?

Lyalya uydan chiqqandan qo'rqib boshlaganmi yo rostdan ham uyqusirab turganmidi, shoshilib uyiga jo'navordi. Men ham:

— Bibizoda, yaxshi, men ketdim, — desam, Ibroyim og'a:

— Bizlar bilan yurmaysanmi? — dedi.

— Yo'q, opam "qayda yo'qoldi bu?" deb, izlab qolar, — dedim.

Shunday qilib, Bibizoda Ibroyim og'aning qo'ltig'ida, trotuardan katta yo'lga chiqib, Xolmurod uchovlari yayov ketaverdilar. Ularning izidan qarab-qarab qo'ydim. Ikki oshiqning nihoyat necha yillardan keyin birga yurib ketganlarini, baxtli hayot sari qadam tashlayotganlarini kuzata turib ham quvonmoqda edim, ham sirdoshim, dugonam, opajonimdan uzil-kesil ayrilib qolayotganday o'ksigim kelmoqda edi...

* * *

Bir kuni Bibizodaning Shahzodasini ko'rishga bordim. Men kirib borganda Bibizoda qizini emizib, ikki ko'zi kitobda, roman o'qib o'tirgan ekan. Bizlar apoq-chapoq bo'lib, qizining Ibroyim og'aga o'xshab chiqqanini aytib kulishib oldik.

Men unga:

— Qizing qoragina bo'lib chiqibdi, sening oq rangingdan narsa yo'q, — desam, u:

— Men qaydan bilayin, qiz bolayam otaga shuncha tortadimi? — dedi. Uning so'zlariga rohatlanib kulib oldim. "Qiz bola otaga tortsa, baxtli bo'ladi", deb qo'limga olib, ona suti anqib turgan norastaning ifor hididan ko'nglim yayrab, yuzlarimga quvonch taraldi. Uning mehri meni o'ziga tortaverdi. Bibizodaning oppoq yuzlariga qizg'ish do'nib, chiroyi yanada ortib ketgan edi. Boyagi oppoq qo'llari qavarganday. Uy ichi top-toza, yerga dasturxon yoyilib, to'rga enasini olib kelib o'tirg'izib, meni tanishtirayotir. Ishdan qaytgan Ibroyim og'a ham dasturxon boshida bizlar bilan o'ti-

rib, iliq lafz, sipoyilik bilan hurmatimizni joyiga qo'yib, ko'pdan kutgan qadrdoniday hangomalashib o'tirdik.

Bunday juftlikdan, sevishganlardan ibrat olganlar umr bo'yi baxtli yashayajagini, bunday oila hamisha xalqqa, ko'pchilikka namuna bo'lishidan faxrlansa arzigulik ekanini uyga kelganimdan keyin ko'nglim to'lqinlanib aytib berdim. Xuddi shu kundan boshlab yaxshi-yomon kunlarimda, quvonch-u tashvishlarimni ular bilan baham ko'rishmoq uchun yetib boradigan, ularning mehriga, tasallilariga o'zimda hamisha ehtiyoj sezadigan bo'ldim. Ularga ixlosim ortgandan ortaverdi.

Ularning oilasini bir daraxtga o'xshatadigan bo'lsak, endilikda ular kamolga keltirgan o'g'il-qizlar shu daraxtning shoxlari bo'lib o'smoqdalar, soya yozmoqdalar. Farzandlari — Shahzoda, Bahrom, Madiyor, Aruvxon va Oyjamollar ham shu ulug' oilaning a'zolari bo'lib, ham o'zlari bu daraxtning shoxlari, yaproqlari, davomchilari bo'lib umr kechirmoqdalar.

Na iloj, dunyo shunday ekan, bizlarning do'stligimizni, totuvligimizni ko'ra olmaganlar ham bo'ldi. Oramizga o't solmoqchi bo'lganlar, do'stligimizni dushmanlikka aylantirib yubormoqchi bo'lganlar ham topildi. "Odamzod so'zdan buziladi" deganday, bizlar ham birovlarning gapiga kirib, o'pkalashib olgan paytlarimiz bo'ldi. Tub oxiri haqiqat yuzaga chiqquncha, g'iybatlar loyqasi tinguncha ko'nglimiz ozor chekib, pushaymonlar chekkanmiz. Shunday kunlarda ham men ularni tug'ishganimday a'lo ko'rib, bir-birimizni yana tushunishadigan yaxshi kunlar kelishiga ishonib yashaganman.

Bizlarni o'lim ajratgan bo'lsa-da, ularning yorqin siymolarini ko'nglimda saqlayman, mehrlarini qo'msayman. Vodarig'! Qanday ajoyib juftlik, qanday ulug' insonlar edi har ikkalasi ham! Men uchun eng quvonchlisi, eng umidlisi shuki — hali ular haqida yozadiganlarim ko'p! Umrim yetgunicha shularning suluv tuyg'ularini, bir-birlariga bo'lgan muhabbatlarini kuylab o'tsam deyman. Tuprog'ingiz to'rqa (yumshoq) bo'lib, jonlaringiz jannatdan o'rin olsin, azizlarim, qadrdonlarim!..

BO'ZTO'RG'AY

(Hujjatli hikoya)

Bahor tongi. Yaproqlarida tungi yog'inning tomchilari yaltirayotgan, yangi chiqqan ko'm-ko'k o'simliklarning xush bo'yi tong shamolida yelpinib, keng dalalarni joylab, zavqingni oshiradi. Allaqayerlardan yaqindagina tug'ilgan qo'zichoq-uloqchalarning tovushi eshitilib, atrofimga alaylab qarayman. Uy sirtidagi kecha surilgan yerning o'rtasida yotgan kunda-mo'yintiriq ko'rinadi. Oldimdagi ariqcha-solmada eshilib oqib yotgan loyqa suvda jimjiloqday oq chavoqlar bir yaltirab, bir ko'rinmay ketib, yana zavqingni keltiradi. Shu payt xayol qochib turganda chelaklarning daranglashi eshitilib, alanglab qarayman. O'zimdan ancha olisda ariqqa engashib, suvga tegay deb turgan soch-burumlarini yelkasiga qoqib-tashlayotgan yangi kelinchakka ko'zim tushadi.

— Mendan ham ertaroq uyg'onganlar bor ekan-a... — degan fikrga kelib, yangi ovuldoshimga baxtiyor damlar, farovon hayot tilayman. Ha-ha, yaqindagina u ovulimizga kelin bo'lib tushgan, uning to'y oqshomida bolalar-u yigit-qizlar berilib baxshi tinglaganlarimiz yodimda bor. O'sha to'yning baxshisi kim edi-ya, Eshjon baxshimidi, Japaq baxshimi? Aytmoqchi, baxshining yonida g'ijjakka jon endirib o'tirgan mashshoq yaqindagina televizorda ham chiqqan, uning chalgan kuylari eshitganlarning yurak-bag'rini yeljiratib (pora-pora) qilib yuborgan edi-ya!.. Ariqdan suv olib, obkash-iynog'ochini qiltillatib, chiviqday buratilib borayotgan atlas ko'ylakli navjuvon kelinchakka o'zimcha onalik baxtini tilab turar ekanman, sharq tomondagi oqish-olachalpoq bulutlar orasidan yoyilib chiqib kelayotgan quyoshdan ko'zim qamashib, beixtiyor ravishda kipriklarim namlanib ketadi. Lekin shu lahzalarda qoq tepamda pal-pallab qanot parillatayotgan bo'zto'rg'ayning ovozini eshitaman-u, yana osmonga qarayman. Tabiatda boshlanib ketgan

bahor mo'jizalari endi ko'nglimda davom etayotganday tuyuladi, yana Eshjon baxshini, uning yonidagi g'ijjakchi Qo'yli Axmetovni ko'z oldimga keltiraman... E, ular sozandamisan sozanda edilar-da!

Darhaqiqat, Qo'yli og'a g'ijjakda "Bo'zto'rg'ay" nag'masini chalganda, talay-talay odamlarning yodiga talay-talay bahorlarni solib qo'yardi... Ol, yoshi ulug' qariyalarning gaplariga qaraganda, avvalroqda Xolmurod g'ijjakchi degan bir mohir mashshoq bo'lgan emish. Biroq mening o'zim uning chalganini eshitmaganman-u, har holda odamlar juda maqtashadi-da. Mana, mening o'zim Qo'yli og'aning usta g'ijjakchi ekanini, oldiga odam solmaydigan mahoratli sozandaligini bilaman. "Falonchi Qo'ylidan ham zo'r chaladi", degan e'tirofni men hech kimdan eshitmadim-da..., deb o'yladim men yaqinda uning o'zi bilan gaplashib o'tirib.

Menga qolsa-ku, bo'zto'rg'aylar ham mudom sayrayversa ekan, to'xtamasalar ekan. Tilagim shu. Ammo, bahor o'tgandan keyin bo'zto'rg'aylar sayrashni qo'yadi. Endigi navbatni quyuq soyali bog'larning yashil yaproqlarini oralab, gullardan gullarga parvoz etib yurgan bulbullarga beradi-da, bo'zto'rg'ay o'zi jimjit bo'lib qoladi. Ammo, baribir men bahorning yog'in-sochinli kunlariga aralashib keladigan qaldirg'ochni, odamlar uncha-muncha hurmat qilavermaydigan o'sha bo'zto'rg'aylarni juda yaxshi ko'rishimni sira yashirolmayman. Ular boshqa qushlarga o'xshab kuzda issiq yurtlarga uchib ketmaydilar, bo'zto'rg'aylar — o'zi tug'ilib-o'sgan keng dalaning sodiq kuychilari!

Eh, bola paytlarimda go'daklik hoy-huylariga berilib, anchagina qushlarning uyalarini buzganimni eslasam, endi achinib ketaman, eh... Ayniqsa, soqponning kesagidan qo'rqmay, seskanmay, durillab uchib kelib, otizlarga ekilgan, baliqko'z bo'lib turgan jo'xoriga qo'naveradigan chumchuqlarning necha-nechasini rogatkadan otib qulatganlarimni eslasam, sillalarini qotirib, dumalatib tashlaganlarimni o'ylasam... Lekin, o'shanda ham men bo'zto'rg'aylarga tegmasdim, ularni yaxshi ko'rardim.

Bir gal manavinday voqea bo'lgan: velosipedimni pot bilan haydab kelib, alanglab, ko'lankali joyni mo'ljallab turganimda, qoziqda pichan yeb turgan buzoq tarbayoqlab hurkib, ipini uzdi-ketdi. Nima qilish kerak? Tandir yonida turgan kuyali kosovni olib izidan yugur-

dim. Buzoq ovulning sirtidagi arpa otizga qarab ketgan edi. Qabriston tomondagi yo'lsiz yerlardan yugurib borayotganimda, o'kchamga tikan kirib, dodlab o'tirib qoldim. Buzoq huv narida kolxozning qo'shdan chiqqan targ'il ho'kizi bilan ikki buyuri ko'tarilib-bosilib, iyaklashib turgan ekan, endi uni quvish ham befoyda edi. Tikanni oyog'imdan olib o'tirib, bolalik xayollari bilan osmonga ham tikilaman. Toshtepamda yolg'iz to'rg'ay kuyib-pishib sayrayapti. Endi bu sayroq nag'maning nimasini aytmay... Ilohiy nag'ma oqib kelayotganday!

O'rnimdan turib, quvroq cho'plarga chirmatilab o'sib yotgan sutilmaklardan terib yurganimda oldimdagi butaning orasidan bir to'rg'ay burnimni siypalaganday bo'lib pirillab uchib chiqdi-da, besh-olti odim yerga borib tushdi va tepasidagi o'papish (toji)ni hurpaytirib, yo'rg'alay ketdi. Endi o'ylasam, u qush buta ostida tuxum bosib o'tirgan ekan. Kalta-kulta, quvroq qamish orasidan butaning tubiga tikildim o'shanda, o'tgan yilgi ajriq bilan oqbosh o'palaklari solingan kaftday uyada xuddi chumchuqlarnikiday sepkil tortgan to'rt dona moyak yotgan ekan... Biroz vaqt tikilib turdim-da, ovulga qaytdim.

Oradan bir necha kun o'tib, tag'in shu yerga aylanib keldim, uyani ko'rsam, moyaklarning birining ichidan chiqqan kichkinagina palaponni to'rt-besh qizil chumoli o'zaro talashib-tortishib, uzib-qochib yeb yotibdi. Ol, qolgan uch moyak haliyam o'sha yotishida yotibdi. Men ang-tang bo'lib, uyaning tevaragida bo'zto'rg'aylarning to'zg'ib yotgan parlariga tikilib turganimda o'zimdan ikki odimday nariroqda o'ratilib-chuvatilib yotgan ilonni ko'rib, seskanib ketdim. Orqamga serpilib, shudgordan bir-ikki qattiq kesak yig'ib keldim. Ko'zlab otgan bir kesagim tegishi bilan ilon teng bo'linib, cho'pga ilinib qoldi. Yaqinlashib kelib qarasam — bu haqiqiy ilonning o'zi emas, qachongi bir tashlab ketgan po'sti ekan.

Shu-shu bo'ldi, shundan keyingi yillarda qachon radiodan: "Bo'zto'rg'ay. G'ijjakda Qo'yli Axmetov ijro qiladi", deb e'lon qilinganida o'sha ajoyib bir bahorning g'aroyib voqealari xayolimda jonlanadi-turadi: choshka paytidagi olamjahonni yondirayotgan quyosh! Bulutsiz osmon ostida o'zidan ketib sayrayotgan yolg'iz

bo‘zto‘rg‘ay!.. Odam o‘zini baxtli sezishi uchun bundan ortiq yana nima kerak! Rassom bo‘lib tug‘ilgan bo‘lsang-u, mana shularning suratini chizaversang-chizaversang — keng, ko‘m-ko‘k dala. Ko‘z uchida turgan cho‘pon. Ho‘kiz bilan iskashayotgan buzoq. Bo‘zto‘rg‘ayning uyasi. O‘zining po‘stini uya oldidagi cho‘plikka tashlab ketgan ko‘zlari chekraygan sur ilon!.. Mana shularning suratini chizadigan bo‘lsang, odam bolasi qarab to‘yadimi bunaqa tasvirga!

Shundan beriyam “ho‘kizga tug‘gan kun qocharga ham tug‘ar...” deganlariday, talay-talay bahorlar kelib, talay-talay bo‘zto‘rg‘aylar sayragandir? Ba’zan yaxshi ko‘rgan xonanda yoki baxshini tinglab turib, “o‘ziyam bulbulday sayrar ekan!” deb maqtaymiz, hayratlanamiz. Bo‘lsa bordir. Biroq sayrovning ham sayrovi, chertishning ham chertuvi bor ekan. Duch kelgan odam ham soz chalavermaydi, soz chertganlarning hammasiyam tilga tushavermaydi, tan olinavermaydi. Ayniqsa, g‘ijjakday asbobni, bosadigan pardasi ko‘rinib turmaydigan musiqiy sozni hamma-hammayam qo‘lga olavermaydi. Bu o‘ng‘ay soz emas-da. Yana, “tolqon yutishning ham ming xil yo‘li bor...” deganday, har bir g‘ijjak chaluvchining ham chalish uslubi har xil bo‘ladi.

2

Yana bir gal uyiga borib, omonlik-esonlik so‘rashib bo‘lib, gapni “Bo‘zto‘rg‘ay” kuyining tarixi, kelib chiqishi haqida so‘ray boshlaganimda, Qo‘yli og‘a:

— Burundan hozirgacha bu kuyni mendan boshqa hech kim chalgan emas, — dedi uch-to‘rt g‘ijjakning orasidan birovini olib, tiringlatib, quloqlarini burar ekan. — Ilk bor g‘ijjakka oshiq bo‘lib, to‘liqtirib chalgan nag‘mam shu, inim. Shundan beri talay-talay to‘y-ma’rakada, baxshi doston boshlamay turib, tomoshabin-muxlislarning o‘tinishlariga ko‘ra mana shu kuyni necha martalab chalib berganimning hisobi yo‘q...

O‘qlovdaygina og‘ochning beliga qistirilgan qora jambilchaday sodda-ajoyib musiqiy asbob... Bu asbobning ichida qanchalik “Bo‘zto‘rg‘ay”yu “Bo‘zatov”lar kuyi, “Otingdan”, “Aruxon”lar

kuyi joylashib yotganini g'ijjakchining o'zi bilmasa, boshqalar na bilsin?! Biz faqat bosh chayqab o'tirib tinglashni bilamiz, lazzat olamiz. Axir, bunaqa tinglashlar, musiqiy ijrodan olam-jahon ozuqa ola bilishning o'zi odam uchun qanchalar kuch-g'ayrat bag'ishlashi, qanday xayollarga sudrab olib ketishiga hammayam guvoh bo'lgan-ku bir paytlar!

Qo'yli og'a hozirgi Beruniy tumanining "Ozod" qishloq sho'rosi hududida 1901-yilda tug'ilgan. Tug'ilib, dastyor bo'lgandan beri[1] g'ijjak chertadi. Shundan bu yog'iga u qoraqalpoqning atoqli-atoqli san'atkorlari: Qudaybergen, Qurbonniyoz, Eshjon, Japaq baxshilar bilan davradosh bo'ldi, zangidosh bo'ldi, dasturxon atrofida tuz-tomoq bo'ldi, ko'p yillar davomida shular bilan birga to'y-ma'rakalarda yurdi. Ehhe, g'ijjak bilan dutorni birga qo'shib sayratishga kelganda marhum Eshjon Qo'shpo'latovni hurmat bilan tilga olib, "baliq suvga kirganday bo'lib, mazza qilardik o'ziyam..." deb yodga tushiradi bo'lib o'tgan voqealarni. Bularning mahorati, san'ati, sozining ovozi xalqning hamon yodida. Biz nimaniyam bilamiz, bular urush yillarida, urushdan so'nggi qayg'ubosdi yillarda to'y-ma'rakalarda tomoshabinlarning qulog'ini qondirib yurganlarida, bizlar davralarda berilib (mardayib) o'tirib, so'ngidan, odamlarning orasida qunishib o'tirib uxlab qoladigan bola edik.

Ol, Qo'yli og'a esa, bola paytlaridayam talay-talay to'ylarda baxshining yonida hamnafas bo'lib, doston kuylagan, kattalarni uxlatib bo'lib, undan keyin o'zi uxlagan. Ikki ko'zi hamisha sozandalarning barmog'ida, barmoqlarning harakatida, harakatning nozik sirli-sehrli kuyga aylanishida — sozanda bo'laman degan bolaning ko'ziga bunday paytlarda uyqu kelarmidi?

Mana shunday sirli-sehrli voqealar sirasida unutilmaydiganlari qancha, desangiz-chi! Shu bir voqea hech esidan chiqmaydi-chiqmaydi-da... Shovqin-suronli, tantanalarga, qo'shiq-kuylarga boy o'tgan to'ylarning birida yoshgina bola Qo'ylijonning ko'ngliga ham "soz mehri" degan tuyg'u tushadi, qalbi hallos uradi, o'ziga g'ijjak yasab olmoqchi bo'ladi. Bu paytlarda u chig'ir haydaydigan

[1] **Dastyor bola bo'lish** — taxminan 10–12 yashar bo'zbolalik.

o'n yashar bolakay edi. Bolalik-da endi, allaqaysi bir to'qaylikdan shangilqovoq[1] topib olgandi o'shanda. Bitta o'zi bo'z yerdagi chig'irning yoniga borib, o'sha qovoqni chevarlab o'yib, ilk avval g'ijjakning mushtdaygina kallasini tayyorlaydi. Shangilqovoqdanku g'ijjakning kallasini yasash mumkin ekan, ammo endi bunga dasta kerak-ku. Shunda esiga tushadi — qishloqning doim bobillab yuradigan, hamma "yanga" deb chaqiradigan ayolning uyi oldidagi tandirning bir tomonidagi oshtaxta yonida turgan o'qlov! Ana shu o'qlovni o'g'irlab ketib, haligi shangilqovoqqa o'rnatmoqchi bo'ladi. Qarasa, hali g'ijjakka o'rnatilishi kerak bo'lgan narsa ko'p. Shunda yana esiga tushadi — axir uyda sangsang po'stin tiktirish uchun otasi oldirib qo'ygan qo'y terilari bor-ku, shulardan foydalansa bo'lmasmikan? Darrov uyiga zing'illaydi, bitta qo'yterining o'rtasini o'yib olib, yana chig'ir tomonga zuvillab uchadi. Ol, endi, g'ijjak uchun tor izlab yurganidagi qiziqlarni ayting — bola-da, bola, uyda bir qulunli yobi ot bor edi bu otni uydagilar goh chig'ir haydash uchun, goh u yoq-bu yoqqa borib kelish uchun foydalanar edi, o'sha yobining quyrug'idan torga qil uzib olmoqchi bo'lib, otning orqa tarafiga o'tadi. Yobi ham "qani, kelaverchi" deganday, indamay turib-turib, bolakay quyrug'iga endi osilaverganda, o'mganiga shunaqa tepganki!.. Ha, shunday voqealar ham bo'lgan.

Bir safari bosa-bos ekin ekish payti edi. Bir tomchi suv ham qahat. Bir kuni chig'ir solmaning oyog'idagi qiytoq yerlarga suv berilmay qolibdi. Og'asi Ortiq qattiq qahrlanib kelsa, inisi Qo'yli tol soyasida g'ijjak g'iyqillatib o'tiribdi. Chig'ir to'xtab qolgan edi. Charchagan yobi so'nalab, turgan joyida mulgib, qulunini emizib turibdi. Uni tejastirib yurishtiradigan, ishongan inisi esa g'ijjak chalib o'tiribdi!

Achchig'i chiqqan Ortiq shu yerning o'zida g'ijjakni yerga tortib urib, dab-dalasini chiqarmoqchi edi, biroq bir paytlar uning o'ziyam dutor chalib, soz o'rganaman deb yurgan paytlari esiga tushib, o'zini bosdi. Qaytanga, ertasiga Qo'yliga, "ma, g'ijjagingning kamoniga ishqaysan", deb saqich (kanifol) topib opkelib berdi. Shun-

[1] **Shangilqovoq** — nosqovoq, piyola, kosa-tovoq yasashda qo'llaniladigan qovoqning bir yovvoyi turi.

dan keyin-ku o'z qo'li bilan yasagan-so'qqan g'ijjagidan o'zi tengi jo'ralariga, qo'ni-qo'shnilarga g'ijjak chalib berib yurganlari. Ana shunda-ku ovul bolalari oy yog'dusida yashrinmachoq o'ynashni qo'yib, Qo'yli chalgan sehrli nag'malarning ta'siriga berilganlari...

Oradan ko'p o'tmadi, Qo'yli g'ijjakni chinlab o'rganmoqchi bo'lib, endi o'ziga ustoz izlay boshladi. Shu maqsadda, Oltiboy baxshiga ergashib yuradigan Paltaq g'ijjakchiga: "Siz ustozim bo'ling, biz shogird bo'laylik" deb yalindi. Mana shu o'rinda Paltaq g'ijjakchi fe'li torlik qildi, "men sizga shogird bo'lay" deb kelgan bolakayning qo'lidan qoqib, o'tirsa — o'poq, tursa — so'poq deb, gap topaverdi. Buni sezgan, o'zidagi iste'dodga qattiq ishongan Qo'yli endi atoqli san'atkor — Nomozboy baxshining qo'lidan tutdi. Mana shu Namozboy baxshi bolada bir xudo yuqtirgan nimadir borligini angladi, bolaga ixlosi ketdi, chalgan kuylarining o'lpi-so'lpiliklarini tuzatish bo'yicha maslahatlarini ayamadi. Ana shundan keyin Qo'ylivoy ham zehnining o'tkirligi, iste'dodining noyobligi tufayli, yo'l qo'ygan kamchiliklarini ustozining ko'rsatmasiga binoan tuzatib, kundan kunga ochilishib, tinglaganning dardiga malham bo'ladigan kuylarni g'ijjakda yangratib yuraverdi. Shu-shu, to'yga borgan yerida, to'ychilar baxshini qanday izzat-hurmat qiladigan bo'lsa, buniyam izzat-hurmatlab, otdan ko'tarib tushirib, obro'yini oshirib, ehtirom ko'rsatishardi. Ol, baxshining yonida bo'lganida, g'ijjakchining ostiga bir emas, ikki ko'pchik (yostiq) bosib qo'yishar, sababi, u paytlarda Qo'yli hassadaygina bola edi-da.

Keyin-keyin... burniga shamol endi, yigitlik davriga keldi, Bika yangamizning hasratida muhabbat tashvishlarini chekdi... Endilikda "Qo'yli g'ijjakchi" deb atalib ketgan san'atkorni to'y-ma'raka, yig'in-ziyofatga chaqirib keladiganlar ko'paydi. Bir safari unga "To'rtko'lga kelsin!" degan chaqiriq ham keldi, ammo sahroda o'sgan turkman yigiti bu xabarni xushlamayroq eshitdi. Buning ustiga onasi ham "To'rtko'lga chaqirishgan bo'lsa, To'rtko'l degani — bir markaz, poytaxt shahar bo'lsa, qo'y, borma, bolam, u yerda har xil odam bo'ladi, yomonlarga qo'shilib buzilib ketarsan" deb, irkuv berdi[1].

[1] **Irkuv bermoq** — yo'lni to'smoq, yo'l bermaslik.

Darhaqiqat, To'rtko'l degani o'sha paytlarda Qoraqalpog'istonning poytaxt shahri bo'lib turgan, soz ko'targan sozanda bormi, qalam tutgan ijodkor bormi, ko'zga tushish maqsadida o'sha tomonlarga intilardi, bu tabiiy tuyg'u, albatta. Qo'ylining To'rtko'lga bormay qishloqda qolgani bir tomondan ko'nglini xijil qilar, ikkinchi tomondan... To'rtko'lda — markazda yashash, ishlash istagi oti-ovozasi gurkirab chiqib kelayotgan yigitning tinchini buzar edi. Xullas, kunlarning birida dilidagi orzu-istaklari qaynab toshgan Qo'yli g'ijjagini ko'tarib, To'rtko'l yo'liga tushdi. Markazdagi pochta degan idoraning yonidagi bir uyga kirib kelsa, uy ichida shapka kiyib, vag'ir-vug'ur gaplashib o'tirgan yigitlarni ko'radi. Onasi qator bir kayvoni ayol buni "keling-keling"lab kutib olib, to'rga o'tishga taklif qiladi. (So'ngidan so'rashtirib bilsa, bu ayol — qoraqalpoq teatri asoschilaridan biri mashhur adib Abdurahman O'tepovning onasi ekan.) To'rda o'tirgan yigitlarning orasidan o'rta bo'yli, chaqqongina bir yigit o'rnidan uchib turib, avvallari buni ko'rmagan bo'lsa ham:

— Ha, Qo'yli og'a, kelganing yaxshi bo'ldi, to'rt-besh marta xabar yuborgan edim axir, — deb ichi-bag'riga kirib so'rashdi.

Bu yigit davlat teatrining direktori Abdurahmon O'tepov ekanligi ma'lum bo'lgach, ertasiga Qo'ylini teatr xodimilarini tayyorlaydigan bir yillik kursga jalb qilib, qo'liga "7-oktabr, 1932-yil" deb yozilgan guvohnoma berdi.

Burun baxshiga ergashib yurib, erkinlikka o'rganishib qolgan Qo'yli shaharning hayotiga o'rganisholmay, o'nlagan kundan keyin hech kimga aytmasdan-so'ramasdan ovuliga ketib ham qoldi. Shundan so'ng Abdurahman uni rafiqasi bilan qo'shib chaqirtirib oldi, ularni ish, maosh bilan ta'min qildi. Ikkoviyam shu yerdagi lotincha xatni tanimaydiganlar uchun ochilgan savodsizlik kursini — likbez (likvidatsiya bezgramotnosti)ni tamomlashdi.

Shunday qilib, Qo'yli Axmetov 1933–1943-yillarda davlat teatrida, ol, 1943-yildan boshlab esa to 1959-yilgacha Qoraqalpog'iston radioeshittirish qo'mitasida musiqachi bo'lib ishladi. Shu orada esa, yuqorida aytib o'tilgan nomdor baxshilardan tashqari, Qo'yli og'a boshqayam nomi-ovozasi chiqqan baxshi-sozanda, san'atkor-u mashhur xodimlar bilan birga ishlashdi, teatr va radioeshit-

tirish sohasi xodimlari bilan yaqin ustoz-shogirdlik maqomida bo'ldi. "Ayniqsa Otaniyoz bilan Sobirni aytsang-a, — deb o'tiradi u so'z orasida, — san'atning yulduzi bo'laman deb yurgan shunday iste'dodlarni urush yeb ketdi-ya..." Agar urush tufayli shunday yigitlar o'lib ketmaganida, ular san'atning, madaniyatning turli sohasida xalqimiz shuhratini olamga yoyardi, na iloj...

Aytganday, Qo'yli og'aning o'ziyam faqat g'ijjak chalish bilan cheklanmaydi, u dutorniyam, skripkaniyam chalganda gapirtirib, sayratib yuboradi. Goh soz, goh suhbat yaxshi, deganlariday, u to'rdagi uch-to'rt g'ijjakning orasidagi ikki dutorning birini qo'lga olib, bundan o'ttiz yillar burun shuhrat topgan Ibroyim Patullayevning "Qizil kolxoz" qo'shig'ini ham, xalqning otli-ovozali qo'shig'i "Dambermas"ni ham qiyomiga yetkazib chalib ketaveradi. Shularning izicha yana "Muhalles", "Namaboshi", "Xo'ja bog'mon", "Eshvoy", "Qoradali", "Kenges" kuylarini goh g'ijjakda, goh dutorda chala boshlasa, dilingiz yayraydi.

Darhaqiqat, o'tgan asrlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan bizning milliy kuylarimizni g'ijjakda butun go'zalligi, nafosati, shiddati ila ijro qiladigan chevar sozanda Qo'yli Axmetovning musiqa sohasida yaratganlari, ijro madaniyati, bu sohani rivojlantirishga qo'shgan hissasi ham tahsinlarga loyiq. Sababi, u — xalqqa ma'lum va mashhur bo'lgan anov-manov baxshilarni ko'rgan, hozirgi paytda tinglovchilar, muxlislar berilib tinglaydigan Ahmad, O'tan, G'aybulla va shularga o'xshash o'nlab baxshilarga turli davralarda jo'rovozlik qilgan, ularning sozi baland-past ketib qolganida "tekislab" yuborgan odam. Ehhe, agar Oqto'badagi atoqli Seytniyoz ustaning qo'lidan chiqqan olamo'ynoq dutorning gumburlab qantarilgan birovi yaxshi sozandaning qo'liga tushib, unga Qo'yli og'aning g'ijjagining sasi qo'shilsa bormi, har qanday navoni tinglaganingda ham, "bu sozlarni, bu kuylarni o'ylagan, bastalagan ota-bobolarimga ofarin!" deb, qoyil qolib o'tiraverasan. Go'yoki ko'z oldingda qizil-yashil ipak tolalar bir-birlari ila yarashig'i bilan tovlanib-eshilib qo'shilayotganga o'xshaydi.

Ba'zan ko'pni ko'rgan qariyalar Musa baxshi yoki Qosim baxshini ta'riflayotib: "falon kuyni chalganda shang'aroq (o'tov)ning tepasida o'tirgan bulbul kuy zavqidan behush bo'lib, dutor qulog'iga

o'zi kelib qo'nardi..." — degan gaplarni aytib yuboradilar. Bunisi endi lofning eng go'zal xili bo'lsa kerak. Balki rostdan ham musiqa o'ta mahorat bilan chalinsa, shunday bo'lar ham. Axir musiqiy asbob chalinganda, o'ta yoqimli ovozlardan qushlar zavqi toshib ketishini, o'zini bilmaydigan ekstaz holatga tushib qolishini, hatto uylarga, odamlar davrasigacha, tinglovchilar yonigacha uchib-qo'nib kirib kelishini tibbiyot fani bilimdonlari ham tan olyapti-ku hozir! "Fan va turmush" jurnalining yaqinda chop etilgan sonlarining birida maqola berilganini ko'pchilik eslaydi: unda kaklik qushlar, tog' qirg'ovullari radiodan yangragan navolarni tinglab turib, ketolmay aylanishib qolishlari haqida yozilgan. Ular musiqa chalingan paytda o'zlari radio atrofiga uchib emas, yo'rg'alab kelar emish... "Dutorining dastasiga bulbul kelib qo'narmish" degan gaplar ham ana shunday sabablarga ko'ra aytilgan bo'lsa, ajab emas. Zero, bu e'tirof ham sozanda-mashshoqlarning nihoyatda yuksak mahoratga egaligini ifodalaydi. Agar bulbul qushning dutorga kelib qo'nishi rost gap bo'lsa, unda bahor osmonida muallaq turgan holda qanot qoqayotgan sahro bulbullari — bo'zto'rg'aylar ham Qo'yli og'a kuy chertganda g'ijjak qulog'iga intilib kelishlari ham rost bo'lib chiqadi...

Qo'yli og'a g'ijjakda ushog'ini tushirmay kuy chertganidan so'ng, men u bilan xo'shlashib, o'rnimdan turdim. Ko'nglimni navbahor egallaganday, atrofni qushlar egallab olganday edi. Yuragimdan esa "Bo'zto'rg'ay" kuyi toshib chiqmoqda...

Shirin XOLMUROTOVA

OTAM EKKAN GULLAR

(Hikoya)

Beknazar otam — Chimboydagi atoqli oqsoqollardan biri. Katta-yu kichik uni hurmat qiladi. Uyimizning yonidan o'tib borayotganlar u kishiga salom bermasdan o'tmaydi. Ularning bosim ko'pchiligi o'ziga o'xshagan qariyalar. Men o'zim shu paytgacha otamday kengfe'lli, haqko'krak, donishmand odamni uchratmaganman. Bunday deyishimning ham sabablari bor — otam ba'zi birovlarga o'xshab millat surishtirib, "qayerdansan, qaysi urug'dansan, qanaqa xalqsan?" deb o'tirmaydi, hammaga bir xilda muomala qiladi, g'amxo'rlik ko'rsatadi.

Biroq uning o'zi juda sinchil, ziyrak, tafakkurli odam. Ko'rgan odamini bir qarashdayoq oq-qoraga ajratib bera oladi. Otamning mana shunday bilgichligi, odamlarning ichki dunyosini o'qiy olishi meni hayron qoldiradi.

Otamning yana bir xarakterli jihatlaridan biri — uning "baynalmilalchiligi", ya'ni hech bir xalqni yotsiramay, har bir inson bilan qadrdon bo'lib ketishi, turli xalqlardan jo'ra, yor-do'stlarining ko'pligi. Chimboyda uning o'zbek, turkman, qozoq jo'ralarini aytmaganda ham, tatarlar, ruslar bilan ham erkin gaplashib, ming yillik quda-andalarday bo'lib ketaverishiga ko'p vaqtlar guvoh bo'lganman.

Men u paytlarda hali kichkina qizaloq edim. Chap qo'l tomondagi qo'shnimiz Ismoil og'a uyini sotib, Nukus shahriga ko'chib ketmoqchi bo'ldi. Uning uyiga ko'p o'tmay og'amning jo'rasi Ivan ko'chib keldi. Ularning oilasidayam mening otamga tengdosh mo'ysafid bor ekan — "ded". Ular ko'chib kelgan kundan boshlab bizlar bilan ahil-inoq bo'lib, qadrdonlashib ketdi. Ivan akaning ayoli Valya xonim bir idorada hisobchi bo'lib ishlarkan. Bu kuni u: "Nazira opa, bizlarga beshbarmoq pishirishni o'rgat!" — deb qari onamning yonidan chiqmay o'tirib, oxiri beshbarmoq pishirish-

ni o'rganib oldi. So'ng bizning uydagilarni mehmonga chaqirib, shunday ovqat bilan siylagani va sinovdan "a'lo" baholar bilan o'tib olgani esimda.

Xullas, mening bobojonim — odam tanlamaydigan odam.

Quvonchning eng kattasi uyimizga mehmonlar kelganda bo'ladi. Qimmatbaho jihozlanmagan bo'lsa-da, biroq ozoda va oddiygina mehmonxonamiz bor — adanga turkmangilam, palos to'shab qo'yamiz. Ustidan gulli kichkina takimat (ko'rpacha) to'shaymiz. Sirib tikilgan quroq ko'rpachalar mehmonlarning xizmatida.

Otamning Ko'na Urganch, Beruniy, Xo'jayli, Nukus tomonlardagi jo'ralari mehmonga kelishardi. Ularning orasida qissaxon[1] Boltaboy ota bo'lardi. U har kelganida tuni bilan bizning uyimizda qissa o'qib chiqardi. O'rtaga o'n oltilik chiroq[2]ni osib qo'yardik.

O'sha qissaxonlik kechalarida qissa-dostonlarni tinglayverib, mening ko'nglimda "Oshiq G'arib" dostoni yod bo'lib qoldi. Boltaboy ota ovozini sozlab qissadagi qo'shiqlar, matnlarni xirgoyi tovushda ayta boshlashi bilan mehmonxonada, eshik orqasida odam qolmaganday tinchlik, sukunat o'rnashadi uyimizda. Bizlar ham, qo'ni-qo'shnilar, otalarning kampirlari, ayol-qizlar bilan uy og'zidagi xonada o'tirib, xurmo yo nuqul o'rik yeb, choy ichib, pishgan palovlardan yeb, mazza qilib doston tinglaymiz. Doston so'zlari, qo'shiqlari xirgoyi qilinib, qissalar ajib bir qiroat ila o'qilganda qo'shni kampirlar, yoshi katta ayollar boshlarini chayqab, sovuq damlarini olib, "ay... iy... dunyo-ay..." deb qo'yadi.

Qissa-doston, kitob o'qishga, tinglashga ixlosmand odamlar kelib, mehmonlar uyimizni to'ldirishadi. Bu shaharning, tevarak-atrofning kazo-kazolari bo'lardi. Shunday paytlarda mehmonlarning oldiga hamma narsadan avval ko'zachaga joylangan ikki dasta gul qo'yilardi. Gullarning ifori butun mehmonxonamizga mast qilgudayin xushbo'y is taratadi.

Dasturxonga chuchvaradan tortib, qirmichgacha, xullas, dunyoda bor bo'lgan barcha tansiq taomlar tortilardi. Kelinbarmoq, husayni uzumlar uyub tashlangan. Bularning hamma-

[1] **Qissaxon** — ma'rifiy yig'in, kechani boshqarib, ovoz chiqarib kitob o'quvchi odam, hofiz.

[2] Pilikli chiroq.

si — otam o'z qo'li bilan yetishtirgan mevalar edi. Otam bo'lsa, bunday paytlarda charchoq nimaligini bilmay, chaqqonlashib ketardi.

Qo'noqlar ketganlaridan keyin odatdagicha qo'shni ayollar, kampirlar mehmonxonaga kirib kelishadi. Ularni ko'pincha o'ng yoqdagi qo'shnimiz O'rozgul opa boshlab kelardi.

— Qani, Beke (Beknazar og'a degani), bizlarga nima sarqitlar qoldi yoshi ulkan ulug'lardan? — deb so'raydi.

— Hamma narsa topiladi albatta, qani yuqoriga o'tinglar, — deb parvona bo'ladi otam kampiridan ham avval.

Qo'shni ayollar otamning pishirgan taomlarini maqtab ketishadi.

Men otamning birgina nevarasiman. Ulkan kampiri (boyvuchchasi) to'qqiz o'g'il, bir qiz tug'gan. O'sha qizi mening onam ekan. Ol, barcha bolalaridan qolgani — O'rinboy otam.

Men otamni o'zim yuzini ko'rmagan onamdan ham yaxshi ko'rardim (sababi, onam juda erta — men bir yarim yasharligimda qaytish bo'lib ketgan ekan). Hamma-hammadan — tug'gan otamdan ham, kampir onamdan ham yaxshi ko'rardim. Qo'ni-qo'shnilar meni "Beknazar qarining nevarasi" deb aytishar, bu men uchun juda yoqimli eshitilardi.

Otam hech qachon baqir-chaqir qilib, shovqin ko'tarib, qattiq gaplar aytmasdi. Faqat juda achchig'i chiqqan paytlarda hech kim bilan gaplashmay qo'yardi, mana shuning o'zi qolganlarga juda katta jazo edi.

Kayfiyati ko'tarinki paytlardagina erkalovchi gaplar aytardi, bu yog'i endi bizlar uchun bayramday gap.

Har safar nafaqa pulini olganda men uchun arzonroq nimadir xarid qilar:

— Hozircha shuni kiyib tur, hali senga yurtda yo'q kiyimlarni olib beraman, bolam, — derdi. Izidan yana qo'shimcha qiladi:

— Biroq yaxshi o'qigin, xo'pmi, qizim! Qunt bilan, zehningni ishga solib, tushunib o'qi. O'qiganlaring hukumatga, xalqqa foyda keltirsin, shu tomonlarini ham o'yla...

Bu gaplarni necha martalab eshitgan bo'lsam, yaxshi o'qishga, tushunib o'qishga shuncha marta ahd qilganman.

— Onangni qanday tarbiyalagan edim-a... Yurtlar qizini eshikdan tashqariga chiqarmay qo'ygan paytlarda men uni institutda o'qitganman! Attang, umri kalta ekan-da qizimning... — deb, ko'z yoshlarini artadi. So'ng... kechgacha hech kim bilan gaplashmay yuradi, o'zi bilan o'zi, bog' ishlari bilan mashg'ul bo'lib vaqt o'tkazadi: bog'ga suv olib keladi, otizlarni tekislaydi, o'zi ekib o'stirgan gullarga qarab o'tirib xayol suradi. O'zining yoshligini, o'tgan voqealarnimi, quvonch-u anduhlarnimi, haytovur allako'p narsalarni eslasa, mulohaza qilsa kerak-da... Kampiri kechki choyni tayyorlayotgan paytda otam bir podnos (taqsimcha)da uzum bilan bir dasta gulni dasturxonga qo'yadi. Xullas, bu uyda yashashning o'zi odamga bir cheksiz zavq-shavq baag'ishlardi. Yangi uzib keltirilgan gullarning yoqimli isi taralib turgan bir shodumon sharoitda uzum yeb, choy ichishning lazzati boshqacha bo'lardi.

Supaning pastgi tomoni otizga borib taqaladi. Shu yerdan turib men bog'imizdagi gullarning turli-turli navlarini sanab chiqaman. Bir gal o'n oltita gul nomini sanaganim esimda. Hid taratishda, chiroyda gullar bir-biridan qolishmaydi. Rang-barang, katta-kichik gullarni erinmay sanab chiqishning zavqini, ularni nomlashning zavqini ayting! Eh, bolalik, bolalik!.. Gullarga bo'lgan muhabbatim, gullarni yaxshi ko'rishim o'sha paytlarda shakllangan bo'lsa, ajab emas. Otam o'stirgan gullarga qarab turib, yoshgina boshim, tabiatning go'zalligiga, o'simliklar dunyosining jozibasiga imon keltirardim, yuragimda hayotga nisbatan cheksiz ehtirom his qilardim. Axir insonga guldan ko'rayam ko'proq lazzat bag'ishlovchi nima bor? Men hozir ham goh-gohida shunday deb o'ylayman.

Qo'shnilarimizning bolalari otamga salom berish uchun kelganlarida, otamning boshi ko'kka yetib qolardi.

— Va alaykum assalom, qoravoylar, yigit bo'lib qoldilaringmi? — deb hazillashgan bo'lardi. So'ng otizga tushib ketadi-da, har biriga bir-bir g'ujum uzum olib chiqadi. Izlariga ergashib kelgan qizaloqlarning har biriga ikki-uch donadan gul tutqazadi. Otam kimning ko'nglini nima bilan topishni juda yaxshi bilardilar.

Men uni ichimdan faylasuf deb qo'yardim. Sababi, ko'chamizda yo tomir-tanishlar orasida otam kimlargadir qanday baho

bergan bo'lsa, oradan ikki-uch oy o'tiboq aytgani kelar, bu meni juda hayron qoldirardi.

* * *

Toza ko'prikdan o'tavergan yerda Safargul opaning uyi bor. Men unga eng kamida haftasiga bir marta dasta gul eltib berardim. Har doim otam har xil gullardan, qizil, qizg'ish, sari gul-chechaklardan dastalab berib, orasiga nozivoyguldan qo'shib qo'limga tutqazardi:

— Oysanam, ma bolam, uchib borib oborib kel Safargul opangga...

Darvozadan chiqishim bilan, toza ko'prikka yetguncha, oldi-ortimga qaramay yuguraman. Sekin yurib, shoshilmasdan yurib boraversam ham bo'ladi, biroq yo'lda uchragan tarbiyasiz bolalar gullarni qo'limdan yulib olib qoladimi deb qo'rqaman. Otamning topshirig'ini bajarolmay qolishdan og'ir narsa yo'q-da. Sababi, bu gullar — faqat Safargul opaga tegishli. O'pkam o'chib, uning qop-qorong'i dahliziga kirib boraman.

Safargul opaning uyi, xonalari juda ozoda, shinam, ko'rgan odamning bahri-dili ochiladi. Devorlarga qo'lda to'qilgan kashtalar ilingan. Xonalarning birida opaning karavoti bor. Men har doim kirib borganimda opani yotgan holatda ko'raman. Qachon borsam "oh-uh" qilib yotadigan ayolning nima kasali borligini, qanaqa dardga chalinganligini bilmayman.

Dasta gulni ko'tarib kirib borganimda, u o'rnidan uchib turadi-da, gullarni olib rohatlanib hidlaydi, ko'zlariga suradi — shu lahzalarda uning yig'layotganini sezib turaman. Nega u yig'layapti? Hech aqlim yetmaydi. So'ng, qayta-qayta rahmat aytadi-da, yana o'tirib olib...

Men shu kabi o'ylarga tolib uyga qaytardim. O'sha paytlarda opaning yoshi qirqlarga chamalashib qolgan edi. Juda suluv, xushro'y ayol: ko'zlari qop-qora, yo'g'on burumlari bo'ksasiga tushgan, ajoyib ayol. O'ziyam o'zbekchami, turkmanchami so'zlarni aralashtirib so'zlardi.

Kampir opamning aytishiga qaraganda, Safargul opa — qoraqalpoq qizi ekan. Eri — Madrayim — qari turkman. Soch-so-

qollari oppoq, yirik gavdali, og'ir qadam tashlab, vazmin salobat bilan yuradi. Yoshi yetmishlarga borib qolgan mo'ysafid. Madrayim bobo shahar ichidagi bozorda kabob sotib turardi. Uning laqabi ham shundan kelib chiqqan — Madrayim kabobchi. Lekin hozir uni hamma "bobo" deydi. Hatto ayoli Safargul opayam uni "bobo" deb chaqiradi. Ayniqsa, bir gal uning "tandiri chiqqur bobo", deb gapirgani esimda qolgan.

Shunday suluv, maftunkor, yoshgina ayol shu boboga turmushga chiqqaniga hayron qolaman. Bu qariyaning avval ham ayoli bo'lgan bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Ularning uyida yigirma besh yoshlarda bir yigit yuradi, uni Madrayim boboning o'g'li deb aytishardi qo'shnilar. Safargul opa bilan otamning orasida qanday tanishlik yo qarindoshlik bor — buni bilmayman. Biroq doimo u otam bilan "Beknazar og'a" deb qo'l berib ko'rishadi. Bu befarzand, ko'ngli yarim ayol haqida boshqa hech narsa bilmayman.

Quvonchli voqea Safargul opa uyimizga qadam ranjida qilganida bo'ladi. U uydagilarning bariga bozorlik sovg'a olib keladi. Masalan: otamga do'ppitaqiya, kampir onamga ko'ylak, menga sirg'a, akamga qayishkamar, shunga o'xshash narsalar. Bizlarni esa baridan ham ko'proq o'zining kelishi quvontiradi. Safargul opa kirib kelishi bilan bizning uyimizda joziba, chiroy, kayfiyat o'zgaradi. Otam hamma yerga suv sepib chiqib, soya-salqin qilib tashlaydi. Gullardan saylab-saylab uzib, bir-ikki dasta qilib, dasturxonga keltirib qo'yadi.

Shu kuni uyda eng mazali ovqat osiladi. Safargul opa bo'lsa, gullarni hidlab-hidlab, hammamizga sevina-sevina qarab:

— Rahmat sizlarga, bu gullar buncha chiroyli ekan-a... — deb gapirib o'tirib xayolga botadi. Shu orada kampironam o'zi yopgan nonlarni dasturxonga uyub tashlaydi. Choy ichib bo'lganimizdan so'ng Safargul opa mening qo'limdan tutib bog'imizni oralaydi.

Bog'da uning eng yaxshi ko'radigani — gullar. Bog'larni oralab yurib-yurib, gullar to'p-to'p bo'lib o'sib turgan yerga kelamiz. Safargul opa ko'zlarini yumib turib gul iskaydi. Men esa uning yonida "qani endi shu opam uyimizdan hech ketmasa...", — deb tilak qilib turaman. Negadir shunday vaqtlarda otam haqida o'ylayman. Otamning o'zi minazi (xarakteri) og'ir-u, keng fe'l, katta

odamgarchilikli bu odam nega Safargul opaga juda yumshoq gapiradi, mehribonlik ko'rsatadi?.. Buning ma'nosi nima? Men mana shular haqida o'ylar edim-u, hech tushuna olmasdim.

Hozir-chi, hozir, endilikda ularning har ikkalasiyam dunyodan o'tib ketishdi-ku, ularning gulga, tabiatga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini qanday tushunish kerak? Tirik bo'lganida Safargul opa oltmishdan oshgan bo'larmidi? Ol, otam bo'lsa bundan ikki yil avval saksondan o'tib vafot qildilar...

Ha, endi ularning har ikkalalariyam yo'q. Biroq mening ko'z oldimda — gullarni zavq bilan saralab, chiroyli dastalab dasturxonga qo'yayotgan otam... ko'z-qoshlari surma qo'yganday qop-qora, uzun bo'yli, oq yuzli Safargul opam... "Unga nima sababdan otam mehr bilan qaraydi?" — deyman o'zimga o'zim. Menimcha bu borada hech kimga boshqacha o'y-xayol kelmasa kerak. Sababi — ularning biri tabiatning eng go'zal, eng jozib mahsulotini yetishtiradi, ikkinchisi esa o'sha mahsulotlardan zavqlanar, ko'rib cheksiz rohat-farog'atga botar edi. Bor gap — shu. Ularni mehnat, go'zallikka e'tiqod, tabiat va gullar birlashtirib turardi...

Sharap USNATDINOV,
Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi

AYOL KAROMATI

Hikoya

Bugun uning birinchi payshanbasi. Xalqimizning diniy marosimlarni o'tkazish urflarida haftaning marhum dunyodan o'tgandan keyingi payshanbasi shunday ataladi. Qachonlardir shunday qabul qilinib ketgan. Shu kuni xonadon a'zolari, tug'ishganlar, yaqin qarindoshlar marhum chiqqan uyga barvaqt to'planishadi. Qo'shnilar ham kelishadi. Uy egalari oldindan ulov-ko'lik tayyorlab qo'yishadi. Shunday qilib, masjid imomi boshchiligida jamoa bo'lib, qabristonga yo'l olishadi.

Borguncha hamma jimjit, o'zaro shivirlashganlari ham eshitilmaydi. Janozada qiz farzandning o'rni bo'lakcha. Opalari, yangalariga suyanishib, qayg'udan qotib ketgan qovoqlarini ko'tarolmay, uydan chiqishgandayoq ko'zlarining chanoqlariga to'lgan yosh siqsa yo'rg'alab ketadigandek, kelishmoqda. Boshqalar ularga qaramaslikka tirishib, boshlarini egib olishgan.

Kechagina kulib-o'ynab, uyim-joyim deb chopib yurgan, qarindoshlar kelsa bag'riga bosib, ko'rinmay ketsa sog'inib, farzandlari holidan doim xabardor bo'lib, mehr-u shafoat nima ekanini izhor qilgan, nabiralarini "yeb qo'yaqolsa tomog'idan o'tmaydigan", qo'ni-qo'shni bilan aylanib-o'rgilib charchamagan kayvoni ayol — to'qqiz farzandning onasi to'satdan shunday bo'lib qoldi. Manavilar endi, uning yil sayin to'lishib boraveradigan, hech qayoqqa ko'chib keta olmaydigan mangulik qo'nalg'asiga kelishmoqda...

Qo'yilganiga hali bir hafta bo'lmasdan qabr tuprog'i qatqaloqlanib turgan ekan. Janoza kuni mayitni olib chiqishayotganda birdaniga gursillab yomg'ir yog'ib ketdi. Ajoyib xalqimiz bor-da, o'lsang bo'ldi, ilgari xushlamagan bo'lsa-da darhol seni "yaxshi odam" qiladi, chindanam yaxshi bo'lsang, bir zumda ilohiylashti-

rib yuboradi. Yerlanadigan kuni quyosh chiqib tursa: "Ko'rdingmi, yaxshi odamga quyosh ham charaqlab chiqadi" deyishadi. Qahraton sovuq bo'lsa-chi: "Qahrli odam edi" deb gapni yaxshilikka burishning yo'lini topadi. Mana bu ayolning jasadini olib chiqishayotganda ham: "Voh, aylanayinay, xalqning qayishib qayg'urishayotganini qara, hatto osmon ham ko'z yoshini to'kib yubordi", deyishgandi.

Avtobus qabristonga kelib to'xtadi. Odamlar shoshmasdan, sabrlilik bilan ketma-ket tushishayotgandi. Marhumaning eng kichik qizi otilib chiqdi-da, shiddat bilan borib onasining qabriga bo'yini tashladi. Qabrni quchoqlab o'kirib yig'ladi. Hammaning ko'ngli buzildi, so'ngra boshqa farzandlar ham ovoz chiqarib yig'lasha boshladi. Ko'pchilik ko'zlaridagi yoshni ko'rsatmaslik uchun yuzlarini burib turishdi.

Qizning: —Onajonim!—deya baqirgan tovushi atrofni larzaga soldi. — Onajonim, nega meni tashlab ketding? Endi meni kim uzatadi? Kim meni yupatib, sochimni silaydi, kim peshonamdan suyub qoladi, ona!!!

Qabriston yonida baland tog' bo'lganida bu tovushdan aks sado berardi. Manavi baland qumlik uzra cho'zilib yotgan qabr chetida qo'shilib qayg'urishayotganlarning yuraklari silqidi. Endigina bekachining (qayinsingil) yoniga yetib kelgan o'rtancha yangasi qizni bag'riga bosib, qo'shilib yig'ladi. Qiz yana nimalarnidir aytib yig'lar, bu paytda unga un qo'shayotgan, qalblari vayron bo'lgan xotin-qizlarning ko'payib ketganidan bu so'zlarni tushunib bo'lmasdi. Bu, bo'y yetganlik orzusiga erishay deganda, osonlik bilan ushlatmaydigan baxt qushi endigina boshiga qo'nay deganda, dunyodagi eng aziz, eng mehribon, qizining baxtli kunlarini ko'rishga talpinib, "quvonganimdan yuragim yorilib ketmasaydi", deb yurgan onasidan ayrilgan qizning zori edi. Unga qo'shilib ho'ngrab turgan juvon, marhumaning o'rtancha kelini, katta hovlidan bo'lak chiqqaniga ikki yilcha bo'lgandi. Uning bu bo'zlashi-da bejiz emas. Eri so'ylamaydigan, xotini qayoqqa tortsa o'shanga qarab yuradigan, tashidan qarasang musulmon yuzli yigit. Bir yomon odati—ichadi. Ish paytimi, keyinmi, kim chaqirsa borib ichib qo'yadi. Ichganidan keyin odam qiyofasidan ayriladi. Dunyo-

da bundan tentak odam yo'q. Uyiga so'kinib kirib, xotiniga tashlanadi, aytmaydigan yomon so'zi yo'q. Oldidan chiqqanni tepib, qo'liga ilingan narsani xotiniga otib, quturadi. Kelin erining akalarini chaqirib ham, do'stlarini chaqirib ham ko'rdi, ular kelsa sal pasayadi, ketishgach yana boyagi holat. Tun yarmida qochib kelib, shu onani talay marta pana qilgan. Eri faqat shu onadan hayiqar, faqat shuni tinglardi. Kelinning manavi yig'isida: "Seni hammamiz ko'plab-ko'maklab uzatarmiz bekachimov, endi mening kunim ne kechadi?" degan zorlanish bor.

Ko'chaning narigi boshida turadigan Jiyangul degan to'ladan kelgan yo'g'on xotin marhumaning eng yaqin dugonasi edi.

— Onangning bosh tomonida turib yig'lama, chirog'im,— deya ularni oyoq tomonga olib o'tdi. — Qo'ying endi bunday yig'lashni, u barini eshitib yotibdi, onangizning ruhini chirqillatmang,—deb tasalli aytib, — voy, aylanay dugonajon, sen karomatli xotin ekansan-ku, o'zim ham sening tenging emasligimni bilardim, karomatingni ko'rsatib ketding-ku sen,—deb o'zi ham ho'ngrab yubordi.

Eri Dosan bilan ikkovining ham yoshlari endi oltmishdan o'tgan bo'lsa-da, hali yurishlari chaqqon, yop-yosh ko'rinishardi. Ammo, Dosan keyingi bir hafta ichida cho'kib, adoyi tamom bo'ldi. Janoza kuni ham, undan so'ng ham boshini ko'tarib bir so'ylagani, ko'ngil so'rovchilarga javob-da qaytarib ko'rgani yo'q. Hozir ham mozorning oyoq uchida hech ma'ni anglatmaydigan nursiz ko'zlari bilan lol bo'lib o'tiribdi. Ularning olti o'g'li, uch qizi bor. Aslida o'g'illari beshov edi, Dosanning Afg'onistonda qazo qilgan inisidan qolgan yolg'iz bolani o'zlarining nomiga o'tkazib olishgan. Bunda-da manovi marhuma Hurliqoning xizmati bor. Inisi xuddi bilgandek, armiyaga ketaridan oldin, maktabni endigina bitkazgan, hali yoshi ham to'lmagan yop-yosh qizga uylanib urushga ketganida, kelinchak yukli edi. Hurliqo qaynisining yil oshidan keyin: "hali yoshsan, yana baxtingni sinab ko'r, qizim" dedi-da, ikki tomonning roziligi bilan shu go'dakni olib qoldi. Bugun farzandlarining hammasi shu yerda. Biroq, to'ng'ichidan keyingi bolasi, manavi jamoatdan chetda, qo'shni qabrning devoriga suyanib, yuzini qiblaga qaratib, hech kim bilan ishi yo'q, hiq-hiq yig'lab o'tiribdi.

O‘ylanib qaragan odam hayron qolarlik narsalar bor. Manavi bolalarning bari bir ota, bir onadan tug‘ilgani bilan har qaysisi har turli, to‘qqizidan faqat ikkovi hech kimni tinglamay uzluksiz yig‘lashayapti. Imom mulla ham bir necha bor tavallo qilib ko‘rdi, befoydaligini bilgach, xatmi qur’onni boshlab yubordi.

Hurliqo aya bir oy muqaddam farzandlarini uyiga to‘plagan edi. Uchalasi oila qilib bo‘lak chiqqan, qolgan uchalasi qo‘lida, bir hovlida turishadi, qizlardan ikkalasi turmushga chiqqan. O‘sha kuni katta kelinini barvaqt chaqirib: — Sen bugun palov qil, manovi uydagi kelinlar hali yosh, ko‘pchilikka yaxshilab damlay olishmaydi, — degandi.

Kechqurunga borib uy ichi ola-g‘ovur bo‘lib ketdi. Kelinlari, nevaralari bari to‘planishsa qirqdan oshib ketadi. Aya kechki ovqat paytida gap boshladi.

— Biz kecha otangiz bilan xalqqa taniqli Jumambet og‘angizning namoziga borib keldik. Ay, xalqimga rahmat, janozada yer qayishganday odam bo‘ldi, ko‘chasiga sig‘may ketdi. O‘zi ham bir halol, to‘g‘riso‘z, katta bilan kichikka birday odam edi, boyoqish.

Aya chuqur dam olib, eri Dosanga qaradi. U, “o‘zing aytaver”, deganday ishora qilgach, so‘zida davom etdi.

— Aytayin deganim, o‘zlaringiz bilasiz, Jumambet og‘angizning uchta norg‘ul o‘g‘li bor. Mening ulardan juda ko‘nglim qolib, kechadan beri o‘zimni qo‘yarga joy topmadim. Yurtiga qadrli o‘sha hazrati insonni qayg‘urib, yer tepsinib yig‘lab turgan bir farzandi yo‘q. Uchalasi-da tip-tinch bo‘lib, eshik oldida xuddi to‘ydagiday, kelgan odam bilan kallalarini cho‘qishtirib, salomlashib turishibdi. Vey, boshlaring qurimag‘urlar, Yaratgan egam bu gavdalarning ichiga bir misqol ham mehr degan narsa solmagan ekan-da...

O‘sha kuni aya misollar keltirib, ularga ko‘p narsalarni aytgan edi.

— Agar bizlar o‘lganda sizlar ham shularday bo‘lsangiz, to qo‘lim singuncha bir chetingizdan hammangizni uraman, — deganida bari kulib yuborishdi.

— Ana, ko'rdinglarmi,—degandi to'ng'ichi kulgisini tiyolmay. — Onajonimiz hammangizni o'sha yoqdan kelib ham urib ketadi...

Nega endi oltovining faqat ikkinchisigina so'lqillab yig'lab o'tiribdi? Olloh Taolo mehr degan narsani faqat uning ichiga soldimikin? Bari-da bir otadan, bir onaning ko'kragini emib katta bo'lishgan. O'sgan uyi, o'ynagan o'yinchoqlari, tarbiyalari-da bir. "Hamma bola dunyoga yig'lab keladi, ulg'aygandan keyin har xil odam bo'lib chiqadi, bu—tarbiyadan", deyishibdi donolar. Bu ta'rif manavi bolalarga to'g'ri kelmaydi-ku. Buning sababi ne? Bu savolga hozir shu yerda qayg'uga botib o'tirgan Dosandan boshlab to xatm qilib o'tirgan imom mullagacha hech kim javob bera olmaydi. Qabrda yotib, tashqaridagi voqealarni tinglayotgan marhumadan so'rashganda nima degan bo'lardi? U ham bu holga hayronlar qolishi aniq. Biroq, u juda aqlli ayol, biroz o'tirib, bunday derdi nazarimda: "Shu ikkinchi farzandim Qobiljonga homilali bo'lganimda kishimizni (u hech qachon Dosanning nomini aytib, yo boshqalarday "og'asi" deb ko'rgan emas, "bizning kishimiz, bizning uyning kishisi" derdi) Qonliko'l tomondagi bog'dorchilik xo'jaliklariga yer tuzilishi injeneri qilib jo'natishdi. Birovning ko'chib ketgan eski uyida turdik. O'tin chopib o't yoqamiz, kichkina aravacha bilan xo'jalik idorasidan suv tashib ichamiz. Buning ustiga, sut-qatiqsiz o'tirmang, deb buzoqli sigir berishdi, olmaslikka uyaldik. Men o'choqda ovqat pishirib, sigir sog'ib, tandirda non yopib ko'rmagan juvon edim. Barini o'rgandim, to'ng'ichim endigina ko'krakdan chiqqan paytda shu Qobiljonim tug'ildi. U uchga qaragan paytda yana Nukusga qaytib keldik. Bolam hali qornimdaligidan boshlab shu qiyinchilik, shu mehnatlarni sezib tug'ildi. Uni opichlab yurib, keli tuydim, kir yuvdim, bolamda mehr-shafoat urug'i ko'proq sepilgani shundanmikan?..."

Imom mulla xatmi qur'onni tugatib, fotihaga qo'l ochdi. Oxirida: "Hurliqo opamizning qabr azoblari yengil bo'lg'ay", degan so'zi qulog'iga chalingan Jiyangul ichidan: — U karomatli xotin, bir haftadan beri farishtalarning so'rovlariga to'liq javob berib, qabr azobidan allaqachon qutulgan, — dedi-da, "osiy bo'lsam kechirgay" deya yoqasini ushladi. U, o'zida shu marhuma dugonasidan

qandaydir bir hayiqish, shu qabr ichida qandaydir bir karomat borligiga ishonch paydo bo'layotganini sezdi.

— Bay-bay, qanday xotin edi u, endi ko'rasan ko'chaning Hurliqosiz huvullab qolganini. Ko'cha-qavmda to'y bormi, janoza bormi, bir damda xotinlarni to'plardi. Bizning ma'rakalarimizning bo'g'irsoq pishirish degan bir balosi bor. Mundayroq ma'rakalarga bir, kattaroqlariga uch-to'rt qop unni bo'g'irsoq etib pishirish kerak, har qopdan mingtadan ko'p bo'g'irsoq chiqadigan bo'lsa, ulkan yig'inlarga pishirganing bir necha mingga qarab ketadi. Uni tayyorlash uchun un qoradigan, xamir yoyadigan, kesadigan kamida o'n-o'n besh kelinchak kerak. Aksariyati uyalganidan, birozi Hurliqodan hayiqqanidan kelishardi. O'zi esa uch kelinini ham chiqaradi. Bir kuni menga: —Sen bunday qilib keliningni ayayverma, o'zing ergashtirib kelib ko'pchilikka qo'sh, tanishsin, yuzi ochilsin, ertaga ma'rakalarning hammasi shularga qolmaydimi?— deb koyiganini esladi.

Jiyangulning o'yi avtobusda qaytib kelishayotganida ham tugamadi. Dugonasining ne bir gaplari, yurakliligi, odamlarning boshini qo'shib, aytganiga yurgiza olishi izma-iz xayolidan o'tar erdi.

— Yanga,—dedi yonida o'tirgan yosh kelinchak uning xayolini bo'lib,—dugonangizning karomati haqida duv-duv gap tarqalgan, hamma hayron, oxiri ne bo'ldi?

— Nima bo'lardi, voqeaning bo'lgani rost, hamma ko'zi bilan ko'rgan. Uy ichi ham hayron, bari qo'rqib qolishgan. Ayniqsa, yosh kelinlarining hushi uchib, Hurliqoning xonasiga kirishga, kiyimlarini yig'ib, ushlab-tutganini qo'zg'ashtirishga jur'at qilishmayotgan emish. Otasi, bolalarimga bir balo bo'lib qolmasin, deb masjiddan bir-ikki imom-xatiblarni chaqirib, qur'on o'qittiribdi.

Bu haqda aytishning hali kezi kelmayotgandi. Endi payti kelganga o'xshaydi. Oilaning onasi yerlanganidan buyon bu xavotir davom etmoqda. Voqea marhumani tuproqqa qo'yishadigan kuni ertalab boshlandi. Bir hovlida yashayotgan uch kelinning kattasi tungi ovqatning yuvindisini quyish uchun Oqtumshuq degan qora itning uychasi eshigini ochsa, jonivorning oldingi ikki oyog'i qulog'igacha tortilib, orqa oyoqlari dumidan ham o'tib, ipday

eshilib yotgan ekan. Kelinchak qo'rqib ketib erini chaqirdi. It jonivor tilini tishlab, o'lib qolibdi. Birovdan birov eshitib, uyning kichik bolalari ham to'planib qoldi.

— Buvimning iti o'lib qolibdi-ku,—deb kattaroq nevara yig'lab yubordi, kichiklari ham ingranishib un qo'shishdi.—Buvim qayoqqa borsa, ortidan ergashib yurardi,—deya kattasi yig'ini kuchaytirdi.

Chindan ham, bu it tashqari eshik oldida bo'ynini cho'zib, Hurliqo ayaning chiqishini kutib yotardi, do'konga boradimi, qo'ni-qo'shniga boradimi, doim ergashib yurardi. Bir kuni "Qumovul"ga bir ma'rakaga borayotib orqasiga qarasa, Oqtumshuq kelayotgan ekan.

— Hoy Hurliqo, ering izingdan it qo'shib quvib yubordimi, yo poylatib qo'yibdimi,—degan Jiyangulning gapiga xotin-xalaj maza qilib kulishgandi.—Uyingga qaytar, xotinning it ergashtirgani erish tuyularkan.

Mana endi, bu jonivor ham qo'shilib jon topshiribdi. Kelin qo'lidagi yuvindini tovuqlarga quyay deb, katakka kelgan edi, birato'la hushi uchib:—Voy-voy, odamlar, manov nima balo?—deb qichqirib yubordi. Tashqarida yurganning barisi yugurishib tovuq katakka kelishsa, o'n bitta tovuqning hammasi qotib o'lib yotibdi. Faqat, beridagi bittasi chalajon bo'lsa kerak, bir oyog'i ora-sira qimirlab qo'yadi.

— Manavisi tirikka o'xshaydi,—deb kelin ushlamoqchi edi.— Ushlama,—deb baqirdi katta qaynog'asi.—Xudo biladi nimadan o'lganini!?

Xabar yon-atrofga sekin tarqala boshladi. Ikki kundan buyon ko'chadagi o'tirg'ichda hushi ketib, angrayib o'tirgan Dosanga ham yetib keldi. U eshitgan paytda: —Nima deding? —deb birdan boshini ko'tardi.—Astag'furillo, astag'furillo...

Ichidan kalima keltirdi. So'ngra, baqrayib ancha o'tirdi-da, ovuldan kelgan inisini chaqirdi.

— Sen yoningga odam ol-da, itni alohida, tovuqlarni alohida qopga solib, "Damas" bilan qumloqqa oborib ko'mib kel, gapni ko'paytirmanglar, xalq yig'ilmasdan burun bitkazib kel.

Bu xabar ichkarida tovush chiqarib yig'lab o'tirgan xotinlarga yetib kelganda, bari yoqalarini ushlab:

— Onajonim, tegin ketmabsan-ku,—deb chuvillab yig'lashdi.

O'rtancha kelinning xayoliga yana bir narsa taq etib keldi-da, sekin sirg'alib ko'chaga chiqib ketdi. Qo'y qo'raning oldi yopiq, ichkari tashqaridan ko'rinmasdi. Kelin xavotir bilan asta qo'raga kirsa, boqilayotgan yolg'iz qo'y ham o'rnida sal noqulayroq yotardi. Kirgan odamni ko'rib, boshini ko'tarmoqchi edi, holi kelmadi. Kelin yugurib, tashqariga chiqdi-da, birdaniga to'xtadi. Endi buni qanday aytadi? Kimga aytadi? Yana hamma eshitsa, xalq nima deydi, men faqat o'lim xabarchisi bo'laveramanmi? U ozgina turdi-da, umrida yoniga o'zicha borib ko'rmagan qayinog'asi — shu uyning eng katta bolasiga asta tortinib bordi va ko'rganini shivirlab aytdi.

—Bo'ldi, hech kim eshitmasin, — dedi u ham shivirlab. — Otam eshitsa birato'la yiqilib qoladi.

Darrov ko'cha qassobi Saparniyazga sekin nimalarnidir aytib topshiriq berdi...

Mana, o'shandan beri bir haftacha vaqt o'tdi. Birinchi payshanbaga ham borib kelishdi. Imom mulla uyga kelib, yana xatmi qur'on qildi-da: "Ziyoratlaringiz qabul bo'lg'ay" deb tugatdi. Yig'ilganlar tayyor dasturxondan tuz totib, tarqala boshlashdi.

Hamma ketib bo'lishsa ham, o'rnida o'tirib qolgan Abdimurat ko'cha biyi yoniga Saparniyaz qassobni chaqirib, o'sha kungi pichoqqa ilinib, halollab olingan qo'y haqida so'radi.

— So'yib, barini tekshirib ko'rdim, o'pka-jigari top-toza, bez yo boshqa kasalning belgisi topilmadi, go'shtining chiroyi ham o'rnida.

— Ichak-qornini nima qildinglar?

Qassob nima deyishni bilmay, Abdimuratga qaradi:

— Ichaklari tiqilib, yurmay qolibdi, suv ichmaganga o'xshaydi.

— A, shunaqa de.

Ko'cha biyi sovuq damini olib, biroz unsiz o'tirdi.

— Hurliqo insult bo'lib necha kun yotdi?

— O'n uch kun.

— Shunaqa de, ha, sadag'ang ketayin ayol karomati... Ha, karomatingdan aylanayin, yangajonim-ay...

Qoraqalpoq tilidan

Hidoyat Ahmedov tarjima qildi

Alp SULTON
Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi

BAXTSIZ OILA

(Novella)

1

Men tug'ilganimdan keyin onam bilan otamning yulduzlari yarashmay, otam bizlarni tashlab ketgan. Kun ko'rish mashaqqatga aylangach, onam meni Mehribonlik uyiga topshirgan. Shundan keyin tengini topib, boshqa turmush qurib, bola-chaqali bo'lgan.

Tuxumimizda badiiy san'atga qiziqqan biron-bir odam bo'lmagan. Qiziq, shunga qaramay, menda kichkinaligimdayoq rasm chizishga qiziqish, tasviriy san'atga kuchli intilish paydo bo'ldi. Birinchi sinfdaligimdan boshlab dastlab choynak-piyolaning, so'ng-so'ng uylarning, jonivorlarning suratini, yana keyinroq tabiat manzaralarini matoda aks ettirishga moyillik, xushtorlik kuchaydi. So'ng esa do'stlarimning, tengdoshlarning suratlarini oq qog'ozga tushira boshladim. Rasm chizish mening eng sevimli odatimga aylandi. Ayniqsa qad-qomati kelishgan qizlarning suratini chizishga havasim zo'r edi. Shular oqibatida, hamma narsaga qiziqaverishim natijasida bir qancha vaqt ishlarim yurishmay, muvaffaqiyatsizliklarga ham uchradim. Rus tili va adabiyotidan dars beradigan muallimimizning suratini chizganimda maktab direktorimizdan bir talay baqiriq-koyishlarni ham eshitdim.

— Hali kichkinasan, bunaqa suratlarni chizishga yoshlik qilasan, ulg'aygandan keyin chizsang bo'ladi, — dedi ustoz.

Hayron bo'ldim. Buning nima ahamiyati bor ekanligini ko'p vaqtlargacha anglab yetolmadim. Keyinroq muallimlarimizdan so'rab, bilib oldim — yevropacha kiyingan, hech kimdan tortinmasdan ko'kraklarini ko'rsatib yuradigan muallimaning qaddi-qomatini qandoq ko'rgan bo'lsam, o'sha holatda qog'ozga muhrlab qo'yaqolgan ekanman.

— Bu chizgan surating borib turgan naturalizm, — dedi tasviriy san'at muallimimiz.

"Naturalizm" degan so'zni ilk bor eshitishim edi, men undan:

— "Natura" (tabiat) degan so'zdan olinganmi? — deb so'radim ezmalanib.

— Hoy, nima qilasan gapni ko'paytirib, hali vaqti kelganida tushunib olasan, — dedi muallim jerkinib.

— Unda bu rasmni yirtib tashlayman! — dedim men.

— Yo'q, unday qilma. Nima deganda ham bu surat — sening rassom bo'lib yetishishingda muhim bosqich bo'lib qoladigan asarku axir, — dedi ustoz.

Men o'zimni biroz bosib olib, jim bo'ldim. Boshqa gapirmadim.

Maktabni tamomlagach, "Rangli tasvir va dizayner" ixtisosligi bo'yicha o'qishga kirdim. Tasviriy san'atning teran sirlarini mana shu bilim yurtida o'rganib, o'zlashtira boshladim. Sababi, bu o'quv yurtidagi ustozlarimiz Moskva, Toshkent, Olmaota shaharlaridagi oliygohlarni bitirib kelgan, teatr dekoratsiyasi-yu, tasviriy san'at sohasida yetuk mutaxassis darajasiga ko'tarilgan taniqli mo'yqalam ustalari edi. Ularga shogird tushib, darslardan bo'sh vaqtlarimni teatrda o'tkazib, talay marta molbertimni orqalab, o'sha mashhurlar bilan tabiat qo'ynida etudlar ham chizganman.

— Bilim yurtini bitirish bilan cheklanib qolma, — deb kengash berdi ustozlar. — Teatr-rassomlik institutiga topshir, shundagina haqiqiy rassom bo'lib chiqasan...

Shunday qilib, ilm-bilim quvib Toshkentga ketdim. Imtihonlardan biroz qiynalsam ham, ijodiy ishlarimni mutaxassislar yaxshi baholashdi. Men ham oliygoh talabasi bo'ldim. Surat chizish, tasviriy san'at asarlariga qiziqishim yanada ortdi. Ixlos qo'yib o'qiy boshladim. Quvonchlarim cheksiz edi, oyog'im yerga tegmay, qushday qanot qoqib, o'zimni uchib yurganday his qilardim.

Ustozlarning oliy dargohdagi o'qigan ma'ruzalarining ta'sirimi, endi mening atrofimdagi narsalarga, odamlarga munosabatim ham o'zgarib, voqealarni obrazlar orqali ko'rish, obrazlar orqali tasavvur qilish qobiliyati paydo bo'la boshladi.

Bir kuni tasviriy san'at darsini o'tadigan ustozimiz: "ertaga auditoriyaga natur shitsa keladi, bo'yoq va qalam-qog'ozlaringizni,

kerakli buyumlaringizni qoldirib, esdan chiqarib kelmang", — deb e'lon qildi. Boyagidagi "natura", "naturalizm" degan so'zlar lop etib yodimga tushdi. O'shanda ustozim akvarelda chizgan dastlabki asarimni yirtib tashlamoqchi bo'lganimda yirtqizmagan, yirttirmay, "bu ishing — sening rassom bo'lib shakllanishdagi ilk chizgilaring-ku" deb kelajagimga umid bildirgan edi. Shular yodimga tushdi.

Ertasi kuni ulkan hayajonlar bilan darsga keldim. Auditoriya qilib, institutning teatri studiyasining sahnasi tayyorlangan ekan. Negadir hamma oldinga o'tib olibdi. Menga orqadan joy tegdi. Dars boshlanishiga qo'ng'iroq chalinganda auditoriyada dastlab ustozimiz ko'rindi, keyin sahnada qaddi-qomati yetilib qolgan, o'rta bo'yli suluvgina bir qiz paydo bo'ldi.

Ustoz so'z boshladi:

— Sen sizlarni "naturshitsa keladi" deb ogohlantirgan edim. Aytganimiz bo'lmadi, u shamollab qolibdi, bu qiz professional naturshitsa emas. Darslarimizda uzilish bo'lmasin deb, iltimos qilib, roziligini oldik. Uni uyaltirmang, unga savol ham bermang, dars mobaynida faqat surat chizish bilan mashg'ul bo'lasizlar. Tushunarlimi?

— Ha! — dedik hammamiz bir ovozdan.

Muallim sirtga chiqib ketdi. Oq libosga o'ranib kelgan sahnadagi oppoq suluv qiz auditoriyadagilardan yuzini burib, patikka (shiftga) qarab turishi bilan dastlab oq libosni yengidan kindigigacha tushirdi. Hamma bo'lajak rassomlar nafas olmay qo'ydilar, zaifa shu turishida oq marmardan yaratilgan Venerani eslatardi. Uning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan ajoyib qaddi-qomati bo'lajak qilqalam sohiblarining polotnolarida aks etajagi ayon bo'lmoqda...

Ustozimiz bizlarning diqqatimizni o'ziga tortmaslik, o'zlarimizni erkin sezishimiz, ijod qilishimiz, xayolot daryosiga kirib ketishimiz osonroq kecharmikan degan umidda sahnani tark etib, tashqariga chiqib ketgan edi. Auditoriyadagilar ancha vaqtlargacha sukut ichra qotib o'tirdilar. Nihoyat bo'lajak rassomlarning biri xayolot olamiga kirib-chiqib, o'zining yolg'izligiga chiday olmadi shekilli, tinchlikni buzib yubordi:

— Oq libosingizni olib tashlang! — deb buyurdi.

Sahnada o'tirgan zaifa bu buyruqni eshitmaganga olib, qilt etmasdan avvalgi holatida o'tiraverdi.

— Aytganni bajaring, uyaladigan bo'lsangiz nega bu yerga keldingiz? — dedi do'stining gapini ma'qulladi avvalgi og'zi bo'shning yonidagi birov. Auditoriya endi g'ala-g'ovurga tayyor holga kelib qolgan edi. Bilmayman, balki natурshitsaga qo'yilayotgan talablar to'g'ridir, bilmayman, bilolmayman, lekin ustoz bizlarga "ortiqcha savol bermanglar!" deb tayinlagan edi-ku! Kutilmaganda qiz tilga kirdi:

— Men natурshitsa emasman!

U bu so'zlarni achchiqlangan holda, silkinib-silkinib aytdi. Qiz gapirayotgan paytda esa uning ustidagi sirpanchiq ipak — oq libosning ikki uchini tutashtirib turgan tugun yechilib ketdi-da, sahnadagi bechora zaifa (qiz bola) yupqa ich kiyimda yalang'ochlanib qoldi. Sipirilib yerga tushgan oq libosni u bir sa'y-harakat ila, qiymil bilan ilib olmoqchi bo'ldi-yu, ipak jonivor yana battar sirpanib, qizning qo'liga ilinay demasdi. Qiz bechora bu holatga chidab o'tirolmadi — ho'ngrab yig'lab yubordi-da, oq libosgayam intilmasdan, sahnadan yugurib chiqdi-ketdi! Ustozning aytgan eslatmalari kunpayakun bo'lgan edi. Auditoriyada shovqin ko'tarila boshlandi, tartibot chilparchin bo'lgan edi. Talabalarning ichidan bir-ikkita gavdali yigit ajralib chiqib, haligi tilini tiyolmagan buzuqilar tomonga yugurib borib, chinakam mushtlashuvni boshlab yubordilar. Nima qilsalar ham endi befoyda, qiz baribir qaytib kelmasligi aniq edi.

Og'zi buzuq, tilini tiya olmaganlar pusib, yuz-ko'zini panalab yashirinishib oldilar. Guruhimiz sarkori mushtlashuv tugaganiga ishonch hosil qildi, shekilli, tashqariga chiqib, muallimni izlab ketdi. Men bechora qizga shunchalik rahmim keldiki, guruhimiz nomidan kechirim so'rash uchun qizning izidan chopdim. Auditoriyadan chiqib, katta ko'chaga yetib olaman deguncha qiz kiyinib olgan, trolleybus to'xtaydigan bekatga yaqinlashib qolgan edi. Men uni qichqirib to'xtatarman degunimcha, trolleybus kelib qoldi. Ammo negadir qiz trolleybusga chiqmadi. Men halloslab uning yoniga yetib keldim.

2

— Kechirarsiz... men hammaning nomidan kech... kechirim so‘rab keldim... kutilmagan vaziyat... ro‘y berib qoldi... talabalarning hammasiyam birday bo‘lavermas ek... Xullas hammaning nomidan bosh egib, kechirim so‘rayman. Ustozimiz auditoriyada bo‘lganlarida bu voqea bo‘lmas edi, afv eting biz ahmoqlarni...

— Hech qisi yo‘q, bo‘lar ish bo‘ldi.

— To‘g‘ri, biroq negadir kayfiyatingiz buzildi, qatiq nola tortib... ho‘ngrab demoqchiman, yig‘lab yubordingiz. Sizga juda rahmim kelib ketdi.

— Ha... onamning taqdiri mening hayotimda ham takrorlangani ta’sir qilib, yig‘lab yubordim.

— O‘ybay, onangizga nima bo‘lgan?

— U kecha og‘rib, to‘shak tortib qoldi. Ustozingiz aytgan naturshitsa — mening onam bo‘ladi. Asosiy ishi — shu institutda farroshlik. Qo‘shimcha ish deb, shartnoma asosida naturshitsa bo‘lib ishlaydi. Nimasini yashiray, ro‘zg‘orimizga xarajat puli yetishmagani uchun onam kecha naturshitsaning pulini olib ishlatib yuborgan ekan. Men aslida ustozning oldiga onamning bugun kela olmasligini aytish uchun kelgandim. Ustozingiz iltimos qilgani uchun, mayli deb, ustimga oq libos kiyib bir soat naturshitsa bo‘lib o‘tirishga kelishim bergan edim. “Anqov soddalik ham ahmoqlikning bir turi”, derdi onam. Mana, shuning ayanchli oqibati.

— Qayerda o‘qiysiz?

— Hech qayerda o‘qimayman. Shu institutning “drama va kinoaktyorlik” bo‘limiga hujjat topshirib, ikkinchi marta yiqildim.

— Nechanchi trolleybusga minmoqchisiz?

— Minmayman.

— Nega?

— Yonimda pulim qolmabdi. Uyga yayov boraman...

— Maylimi, men sizga yo‘ldosh bo‘lib borsam?

— Menga yo‘ldosh kerak emas. Darslaringizdan qolmang, ketavering.

— Sizning ko‘z yoshingizni ko‘rib, tashlab ketolmayman-ku.

— Nega bunchalar mehribonsiz, yetim o‘sganmisiz?

— Ha, onam otam bilan men kichikligimda ajrashib ketganlar. Shundan keyin men Mehribonlik uyida...

— Ehhe, qiyinchilik ko'rgan ekansiz.

— E, so'ramang...

— Nimasini so'rayman? Mening hayotim ham shunga o'xshash. Men — tirik yetimman... Yaxshiyam siz institutga kirgan ekansiz. Baxtingiz bor ekan.

— Xudo xohlasa, siz ham hali kirib ketasiz.

— Ay, qaydam...

— Yaxshi tayyorlanib, ko'proq kitob o'qish kerak. Qiyinmas-ku.

— Buning uchun vaqt kerak. Hozir onam og'rib qolganidan beri farroshlik qilib yuribman. Onamga ham qarashim kerak. Uydan chiqolmayman. Aytmoqchi, men aptekaga kirib onamga vrach yozib bergan dorilarni sotib olishim kerak edi-yu. Siz darsingizga kechikmang, ketavering.

— Pulingiz bo'lmasa, dorilarni qanday olasiz? Hozirgina "trolleybusga pulim yo'q" deganday edingiz-ku.

— Ha dorixonadan qarzga so'rayman. Daftaringizga yozib qo'ying, maosh olganda opkeb beraman, — deyman.

— Ishonib, berarmikan?

— Beradi. Juda yaxshi ayol. Qachon nima dori so'rasam, yo'q demagan.

— Keling, bu gal naqd pulga olamiz. Men kecha stipendiya olganman. Doriga yetib qoladi.

— "Birovning pulini nega ishlatding?" deb baqiradi-ku onam.

— Baqirmaydi. Juda aniqlab so'rayversa, familiyamni yozdirib olganman, deysiz, bo'ldi.

— Onamga qanday qilib yolg'on gapiraman?

— Unda... to'g'risini ayt.

— Yaxshi.

Bizlar dorixonaga birga kirdik-da, shifokor yozib bergan dorilarni oldik. Uyga kirib borganimizda bechora betob onaning issig'i ko'tarilib, qattiq qiynalib yotgan ekan?

— Keldingmi, qizim? — dedi u inqillab.

— Ha, keldik, keldik, oyi.

— Kim bilan kelding?

— Otini bilmayman, so'ramabman.

— Shunda tanimaydigan odamni nega uyga ergashtirib kelding?

— Tanishamizov, siz ishlaydigan institutning talabasi ekan.

— Kim yubordi uni uyimizga?

— Hech kim yuborgani yo'q. Izimdan qolmay, o'zi menga ergashib keldi.

— Qanaqasiga?

— Tasviriy san'at muallimining iltimosiga ko'ra, men sizning o'rningizda sahnada natur shitsa bo'lib turgan edim, kelishtirolmadim, birovlarning aytgan gapiga orim kelib, sahnadan yig'lab chiqib ketdim.

— Ahmoq, qiz bajaradigan ish emas-ku bu axir.

— Ha, men badanimni to'liq namoyish qilmasdan, ustimga oq libos yopinib olgan edim. Ipak libos siljishib, yerga tushib ketdi... Men ustimdagi yolg'iz ichkiyimda qoldim. Keyin...

— Gapirma, bari tushunarli... Masxara bo'libsan...

Ona titrab-gapirolmay, ko'ziga yosh oldi:

— Ey Xudo, meni baxtsiz qilib qo'yganing ozmidi, endi qizimni to'g'ri yo'ldan chiqarmoqchimisan?!

— Buncha nolimang, o'zingizni bosing, onajon, kasalingizni o'tlashtirib olasiz. Biz sizga dorilar opkeldik, shulardan iching, Xudo shifo bersa, tuzalib ketasiz, — deb gapga aralashdim.

— Dorini qalay oldingiz, pulingiz bo'lmasa?

— Men kecha stipendiya olgan edim, opa.

— Shuni ishlatdinglarmi? Sen mening qizimni taniysanmi?

— Yo'q, tanimayman, otini ham bilmayman...

— Shunda, qalayincha uning uchun pul sarflab yuribsan?

— Ahvolini tushunib, qattiq ayab ketdim. Men o'zim Mehribonlik uyida tarbiyalanganman. Ustozlarimiz "mehr-shafoatli, rahmdil, odamgarchilikli bo'ling", deb o'rgatishgan bizlarga.

— Oting kim, bolam?

— Mehrbek.

— Baxting ochilsin, ko'p yasha, xizmatlaring Allohdan qaytsin.

— Rahmat, opa.

Shu orada qizi iliq suv bilan betob onaning dorilarini olib keldi. To'shak tortib yotgan ona endi ko'rpaga burkanib, gavdasini tiklab

o'tirdi. Yuzlari anchagina so'lg'in tortgan edi. Dorilarini izma-iz ichib o'tirib:

— Mehrigul qizim, mehmonga choy tayyorla, — dedi. Iziga ergashib kelgan qizning ismini men shu yerda bilib oldim. Mehrigul, xuddi mening ismim bilan o'zakdosh ekan.

Dasturxon yozilib, choy tayyorlandi. Ona yotgan o'rnidan tushib o'tirmadi. Dasturxon atrofida Mehrigul ikkovimiz. Gaplashib o'tirib, o'tgan-ketganni aytishib choy ichildi. Mehrigul onasiga ovqat tayyorlab berish uchun oshxonaga yo'naldi. Xonada opa bilan ikkovimiz qoldik.

— Talabamisan, bolam? — deb so'radi ona qizining boya aytganlarini unutib.

— Teatr va rassomlik institutida o'qiyman. Rassom bo'lmoqchiman.

— Juda yaxshi-da. Hayotda mangu iz qoldiradigan kasb tanlabsan, o'g'lim, talablaringga nur yog'sin. Unda bizlarning ruhiy dunyomiz yaqin ekan.

— Siz ham rassom bo'lmoqchimidingiz?

— Yo'q, men yoshligimdan aktrisa bo'lishni xohlaganman. Lekin bu armonim amalga oshmadi. Otamning kasbi nima edi, millati nima edi — bilmayman. Sababi, men uni yaxshi eslayolmayman... U tirik paytida men juda kichkina bo'lganman. Uning ustiga, hech kim menga otam haqida aytib bergan emas. Lekin shuni bilaman — onam nemis qizi edi. Meni dunyo adabiyoti namunalari asosida tarbiyaladi. Otam onamni tashlab ketganidan so'ng, erkaklarga bo'lgan nafrat qalbimda ancha vaqt o'rnashib olib ketmay yurdi. Ular bir so'z aytsa, g'azabim qo'zg'ab, yomon ko'rinib tikanaklanib oladigan bo'ldim.

3

(Ona hikoyasi)

Urushdan so'nggi yil edi. Uyimizda bir tishlam non yo'q. Biroq devordagi taxtalarda, javon ichida kitob liq-liq to'la. Shularni o'qib, ulg'ayganman. O'rta maktabni bitirgach, teatr-rassomlik institutiga kirib o'qimoqchi bo'ldim. Orzum amalga oshmadi. Bilimim bo'yi-

cha barcha imtihonlardan yaxshi baholar bilan o'tardim-u, mahorat imtihoniga kelganda, qabul qiluvchilar "bu qizda mahorat yetishmaydi" deb meni olishmasdi. Shunday qilib, ikki marta institutga topshirib kirolmadim. Uchinchi yili topshiraman deb yurganimda onam to'satdan vafot qildi. Shundayam orzularimdan voz kechmay, yoshgina navnihol bo'lishimga qaramay, institutga farrosh bo'lib ishga kirdim. Kunlardan bir kuni to'zib ketgan oyoq kiyimimga na'l qoqtiraman deb borib, bir etikchi yigit bilan tanishib qoldim. No'mon ismli bu kishi bir oyog'i yo'q nogiron, urush ishtirokchisi ekan. Unga ahvolimni aytdim. Mening aktyorlikka qiziqishimni, lekin institutga kirolmayotganimni, soddaligim, yolg'izligimni eshitib, joni achishib, ancha vaqtgacha bosh egib o'tirdi. Keyin ochilishib, so'zlashib o'tirdik. U ham o'zining so'qqaboshligini aytdi. Orada mol-mulkini ham qo'shib aytib, topish-tutishi yaxshiligini bildirdi, "agar kir-pirimni yuvib, ovqat pishirib bersang bo'ldi, uyimda bepul yashayver", dedi.

— Yo'q, mening ham onamdan qolgan eski kulbam bor. Lekin bir o'zim yashayman, ko'zimning qorachig'iday imoratimni tashlab ketish niyatim yo'q, — deb sal achchig'im ham chiqay dedi.

— Rost aytasan, menga o'xshagan mayib-nogironning kimga keragi bor, buning ustiga bori-yo'g'i bir etikchi bo'lsam...

— Qo'ying, unaqa demang, mayib bo'lsangiz ham hali yoshsiz-ku, qo'lingizdan ish keladi, kasbingiz bor, yaxshi yashaysiz, — deb yupatgan bo'ldim.

— To'g'ri-kuya... Biroq yashash bilan yashashning farqi borda. Meniki bir kun ko'rish... — deb hiqillab oldi.

Uning ko'zlarida yosh aylanib qoldi. O'tirib-o'tirib, negadir unga rahmim keldi.

— Ertaga dam olish kuni, manzilingizni ayting, uyingizda bo'lsangiz, borib kir-piringizni yuvib beraman, — dedim unga.

— Baraka toping, tortinmasdan kelavering. Bo'sh qo'ymayman, qo'lhaqingizni beraman, — deb aylanib-o'rgila boshladi u.

— Hech narsa kerak emas, shusiz ham boraveraman, — deb, kelishim berib, uy manzilini so'rab, etikchining budkasidan chiqdim.

Uyga kelguncha, uyga kelgach, choy qo'yib ham, o'zimning ishimga o'zim tang qolib yurdim. "Nega u kishiga jonim achib, rahmim kelib, mehribon bo'lib qoldim? Bu ola-to'zonli dunyoda urush nogironi, oqsoqlar ozmi? Ko'nglim eljirab, bungayam qaramay "uyingga boraman, kirlaringni yuvib beraman" deb, bir ko'ngli o'ksikka va'da berib, ishontirganimni qara. Allakimga-ya?! Qani, bor qani uyiga, uyam keladi deb ishonib o'tiribdi-ya. Aldoqchi!" Birovga va'dalar berib, aldab ketganim o'zimga g'alati tuyulib, bormaslikka ahd qildim. Bormasligim aniq-ku, unda... unga nega va'da berding, ishontirding?!

O'zim o'zimni tergab, nogiron etikchining ustidan kulib yurdim.

Uxlashga yotayotib ham bu xayollar meni tark etmadi. Nega bunday so'zlar og'zimdan chiqib ketdi o'zi? Endi u meni kutib o'tiraveradi, o'tiraveradi... O'tiraversin! Qarorim qat'iy edi. Uxlab qolibman.

Tong otishi bilan jadal kiyina boshladim. Bir inson mening va'damga ishonib, kutib o'tiribdi, axir! Inson insonni aldamasligi kerak! Bir marta uyini Xudo uchun artib-supurib bersam, mening biror joyim katilib tushmas axir...

Bayramda kiyadigan kiyimlarimni kiyib yo'lga tushdim.

"O'zim kir yuvishga borayapman, shunda nega kundalik kiyimlarimni kiyib chiqavermadim?!"

Negaligini o'zim ham bilmayman. Bir boshining tashvishlarini aytaverib, menda rahmdillik, odamiylik hissini uyg'ota olgan etikchining uyini so'rab-surishtirib topdim.

— Mumkinmi? — deb sirtqi eshikni qoqdim.

— Marhamat, kiravering, — degan ovoz eshitildi. Kirdim. U ham menga o'xshab bayramona kiyinib olibdi. Avvaliga tanimay ham qoldim. Sochlari yuvilib-taralgan, soqol-mo'ylovlari olingan, kresloda o'tirgani uchunmi, gavdasi ham tim-tik, nogironligi bilinmaydiyam. Hamma yoqdan xushbo'y atirning hidi kelib turibdi.

— O'zingizmisiz? — dedim hayron qolib.

— Ha, o'zimman, No'monman! — dedi u.

— Ismingiz shunaqami?

— Ha, ha...

— Meniki Eleonora.

— Qiziq bo'ldi-ku... Bu nemis qizlarining ismi-ku!

— Onam nemis qizi bo'lganligi uchun menga shunaqa ism bergan.

— Juda yaxshi, qani, to'rga chiq.

— Yo'q, chiqib o'tirmayman. Kiyimlaringiz qayerda? Ko'rsating, yuvaman-u ketaman.

— Manov ustingdagi bayram ko'ylaging bilan-a?

Men ma'rakaga kelganday kiyinib olganimga uyalib ketdim.

— Xalatimni chiqarib qo'ygan edim, unutib ketibman, — dedim men qip-qizarib.

— Keyingi safar yuvarsan. Biz bir-birimizni goh sizlab, goh sanlardik

— Qayta-qayta kelib yuramanmi, yuvib ketayin. Buning nima qiyomati bor, bir pasda yuvib tashlayman.

— Buning bir iloji bo'lar. Hozir meni tingla. Anov turgan muzlatgichda go'sht bor, iltimos, mazali qilib biron nima pishir, bugun mening tug'ilgan kunim, — dedi u mardayib (kekkaygannamo).

— Hov, nega kecha aytmading shuni, sovg'a olib kelgan bo'lardim, — dedim men xuddi puli cho'ntagiga sig'mayotgan odamday.

— Va'dangning ustidan chiqib kelganingning o'zi katta sovg'a-ku menga, — dedi u sipoyilik bilan.

— Shundayam, men qisinib qoldim-ku, — dedim odob saqlab.

— Hech qisinmang, bu uyni o'zimning uyim deb his qiling, vassalom...

— Bo'ladi, — dedim. Men muzlatgichdan go'shtni oldim-da, oshxonaga kirib ketdim.

— Jangchi No'mon, nima ovqatni xohlaysiz, oshpazga buyruq bering! — dedim oshxonada turib, u bilan hazillashgim kelib.

— Beshbarmoq bo'lsin! — dedi u kinolardagi ofitserlarga o'xshatib.

— Siz nima, qoraqalpoqmisiz? — dedim men.

— Yo'q, boshqirdman, lekin, qoraqalpoqlarning mana shu ovqatini yaxshi ko'raman.

— Bo'pti, bajaramiz! — dedim-da ishga kirishib ketdim.

Shunday qilib oshxonada kuymalanib yurganimda, u dasturxonga ko'p narsalarni qo'yib, bezab tashlabdi. U o'tirishga tanta-

navor tus berish uchun kechadan boshlaboq tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa kerak. Ko'chadagi yeyimliklardan boshqa, dasturxonda turli xil shishalar ham bo'y ko'rsatib turardi.

Men bug'i burqirab taralayotgan beshbarmoqni dasturxonga opkelib qo'ydim. Go'shtni ayamay solganim uchunmi, ovqat juda shirin bo'lgan edi, sho'rvasiniyam maza qilib ichdi.

— Bu taom bilan endi manovidan ham yuz-yuz tashlamasak, uvol bo'lar, — dedi u.

— Qaydam, unday bo'lsa, shampanni ochganing durust bo'lar, tug'ilgan kuning-ku axir...

— Ma'qul, ishtaha ochilib ketsa, qolganlarini keyin ko'raveramiz, — dedi u.

Mehmon sifatida dastlabki so'zni men gapirdim. Yoshini so'rasam, bu xirsday yigit, ayni yigirma yettida ekan. Ko'ngilli bo'lib urushga ketib, bir oyoqdan ayrilib qaytgan. Qanchalar ayanchli taqdir!..

Men unga baxt tiladim.

— Qanaqa baxt? — dedi u ovozi o'zgarib. — Xotin bo'lmasa, oldingga yugurib chiqadigan bolang bo'lmasa...

— Bo'lib qolar axir, — deb javob berdim.

— Menga o'xshagan mayibga kim ham tegardi... — U yerga tikilib qoldi.

— Qo'ying, unaqa demang, shodon umrning hammasi hali oldingizda. O'zga yerlarda o'lib ketganlar qancha. Undan ko'ra, mayib bo'lsang ham yurtda yashashning o'zi bir baxt emasmi?

— Balki shundaydir, — dedi u meni ma'qullaganday bosh silkib.

O'zi tilak aytganda ta'siri oz shampandan ko'ra araq ichganni ma'qul ko'rdi etikchi.

Uning tug'ilgan kunini shu tariqa nishonladik.

Oradan kunlar o'tdi. Uning kirini yuvib beraman degan va'damdan chiqolmaganim, vinosini ichib, tug'ilgan kuniga hech narsa sovg'a qilolmaganim endi meni tashvishga sola boshladi. Nima qilib bo'lsa-da, bir-ikki ko'ylagini yuvib bersam va'damning ustidan sal chiqqanday bo'larman deb o'yladim. Xijolatdan sal qutularman axir.

Shanba kuni institutdagi ishlarimni ertaroq tamomlab, etikchining budkasiga bosh suqsam, u ketish taraddudida uskunalarini yig'ishtirayotgan ekan. Meni ko'rgandan ko'zlari yashnab, quvonib ketdi.

— Bir kelsa kerak, xabar olsa kerak deb kutib o'tirgan edim, — dedi u.

— Men ham uyingizga borib, sharobingizni ichib, kirlaringizni yuvmasdan ketib qolganimga uyalib yurgan edim. Ertaga dam olish, hech qayoqqa ketmasangiz, men kirlaringizni yuvib bermoqchi edim...

— Shunaqami? — dedi u quvonchini yashirmasdan.

— Ha.

— Juda ma'qul, — dedi yosh boladay shodlanib.

— Chiqasizmi?

— Ha, — dedi-yu, budka ichida allanarsalarga ivirsib, u yoq bu yoqqa yurib, o'ylanib qoldi. — Siz boravering, mening hali qiladigan ishlarim bor ekan, — dedi nihoyat.

— Mayli, — dedim-da, men tashqariga chiqdim. "Nega men bilan yurmadi?" Bilaman, mening yonimda oqsoqlanib yurishni o'ziga ep ko'rmadiyov. Qarang: sup-suluv, barvasta yigitni la'nati urush qay ahvollarga solib ketganini ko'ring-a! Uyga kelaman deguncha shunday o'y-xayollar meni sira tark etmadi-etmadi. Rahm deysizmi, mehr-muruvvatmi, shunga o'xshagan uni ko'rgandan uyg'onadigan iliq tuyg'ular kundan kunga qalbimdan teran o'rin ola boshladi. Uni doim ko'rgim kelardi. Bora-bora uni ko'rmasam bir narsamni yo'qotganday bezovtalanadigan bo'ldim.

Dam olish kuni uning uyiga qalay yetib borganimni o'zim ham bilmayman. U yotgan to'shagini hali yig'ishtirib ham ulgurmagan ekan. Meni ko'rib, alvirab, qisinib qoldi.

— Er-erta kelibsiz?

— Ha, tuni bilan oppoq ipak tovarga ismingni to'qib-yozib chiqqan edim, shuni senga ko'rsatay deb kelaverdim, choyga qarashga ham toqatim yetmadi. Choyni siz bilan icharman deb kelaverdim.

— Yaxshi qilibsan. Kelganingga quvonchliman, bir o'zim hech qayerga sig'may yotgandim. Yolg'izlik jonimni yeb yuborayapti.

— Gohida men ham shunday ahvolga tushib qolaman. Bunday paytlarda men kitob bilan tillashaman. Meni onam shunday qilishga o'rgatgan. Yolg'izlikni men shunday qilib yengaman.

— Yaxshi usul ekan. Lekin so'qqaboshlikni shu yo'l bilan muntazam yengib chiqaverish mumkinmi? Ota-bobolardan qolgan naql bor-ku: "Yolg'izlik degan yaxshidir, yotib ichar osh bo'lsa!.."

— Mana bu hayot falsafasi!

— Qo'y, falsafani aytma, unga mening tishim o'tmaydi. O'zi yettinchi sinfni zo'rg'a bitirganman. Ota-onam seni o'qitaman, derdi. Oiladagi yetar-yetmaslik tufayli turmush mushtlariga erta o'zimni tutganman. Keyin urush boshlanib, askarlikka jo'nadim. Berlinga bosib kirgan paytimiz bir oyoqdan yaralanib, gospitalga tushdim. Undan chiqib, elga kelsam, otam ham, onam ham dunyodan o'tgan ekan — mana bizning qisqacha tarjimayi holimiz.

— Tushunarli. Men endi kirimni yuvayin.

— Tashvishlanavermasang-chi. Yonimda o'tir. O'zim yuvaman-ku.

— Yo'q, bundan buyog'iga sen kir yuvmaysan, men yuvaman!

"Nega bunaqa deb yubordim-ay?! Meni bu so'zlarni aytishga itarmalagan qanday kuch o'zi? Nega ichimdagina saqlashim kerak bo'lgan so'zlarni tashqariga chiqarguncha shoshilaman-ay? Endi No'mon nima deb o'ylaydi men haqimda? Menga nimalar bo'lyapti o'zi?

Afsus, bo'lar ish bo'lgan, bo'takasi chiqqan, go'jani to'kib qo'ygan edim. Ortiqcha gap aytib turmadim-da, kir yuvishga kirishdim. Bir odamda qanchayam kir ko'ylak bo'lsin, damda yuvib-siqib, kirni osdim. Keyin kirlab, qirmichi chiqib qolgan sochiqlarni tovoqqa suv quyub, gazning ustiga qo'yib, sovun qo'shib, qaynatishga qo'ydim.

— Bo'ldi, charchab qolgandirsan, dasturxonga kel, choy ichamiz, — deb chorladi meni No'mon yoniga.

Borsam, turli shirinliklar bilan birga dasturxonda tunov kungi tug'ilgan kundan qolgan konyak turibdi.

— Hov, bu ne bayram bu? — deb hovliqdim men.

— Sening har kelganing bayram-ku, — deb yonidan joy berdi.

O‘tirdim. Qarasam yelkalarimiz bir-biriga tegib qolibdi. Bunchalik yopishaverib balo bormidi menga?

— Sening, nima, magniting bormi? — dedim men u bilan hazillashib.

U mening gapimga hayron bo‘lib qoldi.

— Qaydam, — dedi bir payt.

— Shunda nega men seni ko‘rgim kelaveradi, uyingga kelgim kelaveradi?

— Xudo xohlab, bizlarni taqdirning o‘zi duchlashtirayotgandir-da.

— Shunaqamikan?

— Shunday bo‘lishi ehtimol.

— Unda nega menga qarab gapirmaysan?

— Gapiraman-ku-ya, gapimni qaytarib tashlaysanmi deb qo‘rqaman-da, — dedi u.

— Nega unaqa deysan?

— Nega bo‘lardi? Men — mayib odam bo‘lsam, sen — o‘n ikki muchasi kelishgan sup-suluv qizsan.

— Unaqa dema, sen bir oyog‘ingni mening o‘n ikki muchamni saqlab qolish uchun bergansan, yo‘qsa men allaqachon o‘zga birovning qo‘lidagi suluv bir cho‘riga aylangan bo‘lardim.

— Tushunish dunyong, qalbdagi ma’naviyat degan saroying naqadar keng va teran-a sening! Hayotdan bezor bo‘lib yurganimda menga yashash sirlarini o‘rgatgan, meni hayotga qaytargan sensan...

— Hayotdan o‘pkalab, uni yomon ko‘rib yashab bo‘lmaydi, uni sevib yashash kerak!

— Mana bu haqiqiy dilrabo gap! Sen, bilasanmi, juda ajoyib qizsan! Xudo seni menga ko‘p ko‘rmasin!

— Omin!

Shu kuni bizlar bir-birimizga tilaklar aytib, bir-birimizga xushomadlar qilib, bir shisha konyakni ichib tugatdik.

G‘alaba bayrami yaqinlashib qolgan edi. Men ishlaydigan institutda shu bayram sharafiga urush ishtirokchilari bilan talabalarning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Farroshlar, ya’ni bizlar hamma yerni bu tantanali yig‘in sharafiga tozalab, supirishtirib, yugurib yursak,

ishtirokchilar orasida No'mon ham yurgan ekan. Ko'kragi to'la orden-u medal! Birinchi marta ko'rishim, kamtarinligini qarang, shuncha uchrashganda menga davlat mukofotlari ham borligi haqida og'iz ochmagan odam, mana, yuribdi jarang-juringlatib faxr bilan!

...Uchrashuv boshlanib ketdi. Ulkan zalning ichi o'qituvchilar-u, talabalar bilan to'lib, bizga o'xshagan supirgi tutganlarga o'rin ham tegmadi. Tomosha qilishga ishtiyoqim shunchalar ediki, baland sahnadagi uzun stolni to'ldirib o'tirgan urush qatnashchilarini men pardalar orasidan mo'ralab bo'lsa ham kuzatib turdim. Ular minbarga chiqib, urush voqealarini esladilar, talabalar ularga guldasta tutdilar. Keyin mehmonlarni dasturxonga taklif qildilar. Institut rahbariyati ularning ustiga to'n yopdi. Noz-ne'matlar qo'yildi, dasturxonlar to'kin, araq-sharoblar shisha-shisha bo'lib kelib turdi.

Ziyofat tugagach, dasturxonlarni yig'ishtirishga borsam, No'mon meni kutib o'tirgan ekan.

— Birga ketamiz, — dedi u menga.

— Bo'pti. Sen sirtdagi o'rindiqda dam olib o'tira tur. Men hozir dasturxonlarni yig'ishtirishga yordamlashib, o'n-o'n besh minutlarda chiqaman, bo'ladimi? — dedim men.

— Ma'qul! — deb, kelishim berdi u.

Men tashqariga chiqqanimda, u meni guldasta bilan kutib oldi! Bu mening hayotda birinchi marotaba erkak odamning qo'lidan gul olishim edi. Hayajonlanib ketdim, yuragim dukullab turdi.

— Endi bizning uyga boramiz, — dedi u.

— Qo'y, qaytaveray, dam olish kuni borarman.

— Meni bayram bilan qutlamaysanmi? G'alaba kuni bir yilda bir marta, bir marta keladi axir, — dedi u yalinib.

Uning so'zini ikki qilolmadim. Rad qiladigan bo'lsam, shu yerning o'zida o'kirib-yig'lab yuboradiganday tuyuldi menga.

— Mayli, ketdik.

Oshxonaga kirib, qozon-tovoqqa aralashib yursam, uning o'zi hamma narsani kuni burun tayyorlab ketgan ekan. Tayyorgina dasturxonning atrofida o'tira qoldik. Bugun u kundagidan ham o'zgacha, qutlov so'zlaridan obdan ruhlanib ketgandi. Yo boya ichgan

yuz grammning ta'sirimi, har bir so'zi chaqmoqning toshiday qarsillab eshitilardi.

— Inson bu dunyoga baxtli bo'lish uchun keladi, shunday ekan, bizlar ham baxtli bo'laylik! — deb tilak aytdi u.

Birinchi qadah shu taxlit ichildi. Izidan men tilak aytdim.

— Inson butun umrini o'ziga loyiq juftlik izlab o'tkazar ekan. Menimcha, shu juftlikni topgan odamgina baxtli bo'larkan. Bizlar ham baxtlilar qatoridan joy olaylik.

— Omin! — dedik ikkalamiz ham.

Shundan keyin ham tilaklar aytildi. "Tezroq qaytaman", deb shoshilib o'tirgan odam, buning izi nima bo'lganini eslayolmayman. Xullas jahon urushi nogironining uyida qo'nib chiqdim. O'sha kundan boshlab bizlar to'shakdosh bo'lib qoldik. Oradan bir yil o'tib, mana shu qiz tug'ildi. Farzandli bo'lgandan keyin o'qish qayda? Ot boshiday armonim ishga oshmay, farroshlik bilan cheklanib, butun umr o'tib ketdi...

Etikchi bilan farroshning oilasida nima kun ko'rish bo'lsin? Amal-taqal kun kechira boshladik. Bir kuni yomg'ir qattiq yog'gan paytda yer muzxonaga aylanib qolganda No'mon etikchilik qiladigan budkasini yopib kelayotib, baldog'i ham, oyog'i ham toyib ketib, ariqqa dumalab tushib ketibdi. Yordam so'rab, odamlarni chaqirsa, ko'rganlar "bu mast-ku" deb, hech kim yordam bermagan. Oxir so'nggi, bir mehr-shafoatli birov duch kelib, buni muzday botqoqdan olib, uyga ko'tarib keldi.

Shu-shu, men unga etikchilik ishini qo'ydirdim. Uning oladigan nafaqasiga shukur etib yashayverdik. Uning qayg'u-g'am, hasratlarini salgina bo'lsa-da unuttiray deb, katta idoralar eshigiga borib, urush ishtirokchisiga yordam so'radim. Ular qo'l bilan boshqariladigan "Zaporojes" mashinasini yengillatilgan bahoda bizlarga sotadigan bo'lishdi. Mashina xarajati uchun uyimni sotdim.

Endi turmushimiz yaxshilanib ketar degan umidda edim. Biroq, "kelishmagan ishingni, bulamiq sindirar tishingni" deganlariday, bu jangchi do'stlari bilan ko'proq ichib qo'ydimi, menga aytmadi, o'sha "Zaporojes"ni telegraf ustuniga urib, kul-vafotini chiqardi. Haytovur, o'zining joni omon qoldi. Xudo ayagan shekilli. Yaxshi

xonadon edik, ko'z tegdimi, sal vaqt ichida cho'kib qoldik, yer siypalab, o'tirdik-qoldik. Endi oila tebratishning butun og'irligi, pul topish mashaqqati birgina men farroshning bo'ynida qoldi. Endi No'mon kuyukdanmi, bilmayman, izini uzmay ichadigan qiliq chiqardi. Araq ichib kelib, "bir qizdan keyin hayallading-qolding, nega tug'mayapsan?" deb menga baqiradigan odat paydo qildi. Sababini o'zidan izlamaydi, mendan ko'radi.

Bir kuni azon bilan ishga borib, auditoriyalarni supirib bo'lib, endi uyga qaytaman deb tursam, talabalarga tasviriy san'atdan dars beradigan muallim kelib qoldi. Naturshitsa ayol mazasi qochib, kelmay qolganini aytdi, uning xizmatini o'tab berishni mendan iltimos qildi. Bu xizmat uchun beriladigan pul ham tayyorligini qo'shib qo'ydi.

O'zi pulga muhtoj bo'lib qolgan xo'jalikning og'irligi bir mening bo'ynimda qolganligi tufayli, chor-nochor kun kechirayotgan paytimiz, nima ham derdim, ilojsizlikdan rozi bo'ldim. Shu kuni ipak libosga o'ranib, bu xizmatni amalga oshirdim. O'sha kuni, hech yashiradigani yo'q, qancha uyalsam ham, pul topganimga quvondim. Keyin bu xizmat kundalik oddiy ishga aylanib ketdi. Bu ishlarimni albatta No'monga aytmadim. Sababi, bunday ishga qarshi chiqishi otday aniq narsa edi.

Bir kuni tasviriy san'at muallimi kelib, qo'limga bir dunyo pul tutqazdi. Hayron bo'ldim.

— Bu pul... nega buncha ko'p? — dedim men.

— Endi ustingizda hech libos bo'lmaydi, qip-yalang'och turishingiz kerak!

— Yo'q, yo'q! Bunga rozi emasman, pulingizni qaytarib oling!

— Siz badiiy san'atni yaxshi tushunadigan nemis xalqining qizisiz-ku, klassik uslubda yaratilgan rassomlarning polotnolarini ming marotaba ko'rgansiz.

— Ko'rganman.

— Ular ham kimlarning sevikli yori, xotini bo'lgan, qizi bo'lgan. Ular bundan bir necha asrlar muqaddam o'lib ketishdi. Lekin ularning ko'rinishi, vujudi rassomlar chizgan asarlarda mangu qoldi. Siz mana shunday mangulik oldida turibsiz.

Muallimning bu so'zlari menga ta'sir qildi, qolaversa, qo'limdagi otning boshiday puldan ayrilib qolgim ham kelmadi.

— Ma'qul, — devorganimni o'zim ham bilmay qoldim.

— Kelishdik, uyalsangiz, auditoriyaga qaramang, boshingizni burib, sahnaning shiftiga qarab turavering, o'zimdan boshqa hech kim yo'q degan tushunchada bo'ling. Men ham auditoriyani tinchlantirib, lom-mim degizmay, og'zini ochirmay turaman.

Shunday qilib men yuzimdagi uyat pardasini yirtib sahnaga chiqdim. Bu mening ilk marotaba va so'nggi marotaba yalang'och holda namoyon bo'lishim edi.

...Oradan yillar o'tdi. Urush faxriylariga e'tibor kuchayib, ularning nafaqalari ko'payib, davlat tomonidan ularga sovg'a-ehtirom berilayotgan kunlarning birida etikchi No'monni ham tantanali yig'inga taklif qilishadi. Undan keyin faxriylarni muzeylarga olib borib, rassomlar ijodi bilan tanishtirishgan shekilli. No'mon bir suratga qarab turib, mening yalang'och holatda turganimni ko'rib qoladi. Qattiq xafa bo'ladi. O'sha kuni ko'ngilsiz voqeani unutayin deb, es-tusini bilmay qolgunicha araq ichadi. Kartinani baribir unuta olmaydi.

— Boshim og'riyapti, poxmel qilishim kerak, — dedi u ertasiga tura-sola.

Men muzlatkichdan og'zi ochilgan shishani olib keldim.

— Kecha muzeyda sening yalang'och holatda turgan suratingni ko'rdim. Do'stlarim ustimdan kuldilar. "Bu — mening xotinim emas, boshqa ayol bo'lsa kerak", dedim. Ular baribir ishonmadi. Rostdan ham o'sha sening suratingmi? — dedi titrab o'tirib No'mon.

— Mumkin, — dedim men. — Umrimda bir martagina yalang'och o'tirganman.

— Demak, polotnolardagi suratlarda endi mangu yashaysan, muzeylarda, galereyalarda, xudojniklarning uylarida yalang'och holda turasan, shundaymi?!

U shu so'zlarni aytib bo'yini to'shakka tashladi. Bir payt xir-xir uxlay boshladi. Unga xalaqit bermaylik deb, men — ishga, qizim — maktabga, o'qishga ketdik. Bizlar qaytib kelsak, No'mon o'zini osgan ekan...

4

Betob ona qo'shmay-yashirmay menga — bo'lajak rassomga o'zining hayot yo'li haqida jonini qiynab-qiynab aytib berdi. Kim bilsin, rassomlarga, hatto naturshik ayollarga ham hayotda oson bo'lmasligini bu bilan ta'kidlamoqchi bo'ldimi? Uning aytganlarini menimcha oshxonada yurgan qizi ham eshitdiyov.

— Mehrigul, — deb tovushladim shunda men. Qiz churq etmadi. Men oshxonaga o'tmoqchi bo'lib endi qo'zg'algan edim, Mehrigul tars ettirib eshikni yopib tashladi. Men eshikni nari-veri itarib ko'rdim, ilgak bilan mahkam yopildi. Qizi onasining hikoyasidan nomuslandimi, bilmadim. Oshxonadan o'ksib yig'layotgan tovush aniq-tiniq eshitilardi.

— Eshikni och, Mehrigul...

— Ket, yo'qol, hamma gapni eshitding-ku. Bu xonadondan baxt topolmaysan. Bu baxtsiz oila, tushundingmi? Hozir onam og'rib yotibdi. Men uning ahvoliga tushib, naturshitsa bo'lib kelganimni biladi, uyam o'zini o'zi... ket!

Men ketmadim. Eshik oldida u yoqdan bu yoqqa yuraverdim. Hech ketgim kelmasdi, aksincha bu bechoralarga — og'ir taqdirdan qutulish uchun jon-tani bilan harakat qilayotgan ona va qizga yordam qo'limni cho'zgim kelmoqda edi. Men ham ularning taqdiriga javobgarman, endi bu uyda etikchining yo'qligini bildirmaslik uchun, Mehrigulning o'qishga kirib ketishi, onasining tuzalib-turib ketishi uchun mas'ulman. Mana shu sodda-samimiy, pok dil va go'zal qizning himoyachisi bo'lgim kelmoqda edi...

O'rozboy ABDURAHMONOV
O'zbekiston va
Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi

DENGIZ TO'LA, OY YORUG'...

(Zamonoviy afsona)

Ushbu asarni yozishga ilhomlantirgan do'stim Erkin A'zamga

ADIB ESLATMASI

Fentezi — hali bizning adabiyotlarga kelib qo'nmagan janr. Ammo taraqqiy qilgan mamlakatlarda bu janr, xuddi esse janriga o'xshab, allaqachonlardan beri bor narsa. Fentezida tarix va tarixda o'rin tutgan odamlarning o'y-xayollari bilan ish-harakatlari tarixiy aniq hodisalarga yondashtirilib, xayoliy voqealar bilan qorishtirib yoritiladi.

Bu janrdan tarixiy haqiqatlarni izlash o'rinsiz. Sababi, fentezi janri tarixni tarixchilar ulushiga qoldirib, diqqatni ma'lum bir masalaga yoki muammoning yo'nalishiga qaratadi.

Shuningdek, bu janrdan mumtoz adabiyotlardagiday timsol (obraz) izlash ham befoyda, zero, u ko'pincha yakka xayol mahsuli sifatida ahamiyatli masala yoki muammoning obrazinigina yaratishi mumkin.

Shuning uchun ham, duch kelgan adabiy asardan faqat turmushda bo'lib o'tadigan voqealarni izlaydigan ruhda tarbiyalangan sotsialistik realizm adabiyotchilariga bu asarni o'qimasliklarini maslahat bergan bo'lar edim. Sababi, o'quvchining tafakkur dunyosi keng yoki torligiga yozuvchi javob berolmaydi. O'quvchi esa xohlasa o'qiydi, xohlamasa... o'zi biladi.

* * *

Dengizga yoqqan yog'in saxovat emas...
Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" dan

Istiqlol zamonida yashayotgan Tilaganning voyaga yetgan uch o'g'li bor edi. Qariya o'g'illarini chaqirib:

— Bolalarim, hali boldirim qaqshab, belimdan quvvat ketganicha yo'q. Endi, mana imkon bor paytda sizlar dunyo kezib, yurt ko'rib, qayerda kim baxtli yashayotgan bo'lsa, o'shalarning baxtidan ovulga xamirturush olib qaytsanglar... — deb, farzandlarini safarga otlantirdi.

Otaning bu tilak-istakli sinovlari xuddi ertakdagiday edi... Ya'ni "to'g'ri yurasan, o'ngga burilasan, yana to'g'ri yurasan, chapga burilasan", deganga o'xshardi.

Shunday qilib, katta o'g'il — G'arbga, o'rtanchasi — Janubga ketib, erinchoqroq kenjatoyi safar xush yoqmay ovulda qoldi. Uch yo'l, uch taqdir, uch oqibat... Bularning qaysi biri baxt tomon eltadi, buni hali hech biri bilmaydi. Odatda, odam bolasi o'zga yurtdagilar yaxshi yashaydi, deb o'ylab, baxtni g'oyibdan izlaydi. Lekin gohida g'ofil inson baxt degan lazzatni totib o'tirib, bundan ham ta'mlirog'in totgisi kelib, bundan ham yaxshirog'in izlashga tushadi...

* * *

"Bakra baliqning boshi toshga tegmaguncha qaytmaydi", degan so'z bor. Orol dengizidan o'rlab, Amudaryoga chiqqan bakra baliq anovi Pomir tog'larining toshiga tumshug'i urilgandan so'ng uvildiriq sochib yuboradi... Shundan million-millionlab uvildiriqlar oqim suv bilan oqib, Orolga qaytib kelgunicha, uvildiriq — chavoqqa, chavoq — bakraga aylanadi. Bu qoidani tushunmagan odamlar bo'lsa, bakrani uvildiriq sochib ulgurmasdan burun qornini yorib, uvildirig'in olib qolish bilan ovora.

Tilagan eshkakka g'aybarli Ajiniyozni o'tirg'izib, o'zi keng oydin[1]ga ko'z tikib borayapti. U bugun qaysi oydinda qanday

[1] **Oydin** — dengizning chuqur yeri.

baliq bo'lishini biladiganday, naq ichidan sezadiganday o'tirar, biroq "taxminim to'g'ri chiqmay qolsa yetti yurt oldida uyalib qolamanov", deganday, eshkakda o'tirgan o'g'liga yo'l ko'rsatib turmadi. Yo'l ko'rsatgan bilan manov cheksiz dengizda yo'l topish oson deysizmi, qayiqning yurgan izi daqiqa o'tgan sari o'chaveradi. Dengizning nizomi shunday.

Faqatgina manovi loyqasuv bilan ko'ksuvning aralasholmay borayotgan oqim chizig'i borib, o'ttiz chaqirimcha o'tilsa bo'ldi, loyqasuv asta-sekin yoqaga yonbag'irlab, oxiri yo'q bo'ladi. Dengiz osmonning oynasi yanglig', olag'at bulutli ko'k-ko'mbak rangga kiradi. Ana, anov ov ovlanadigan makon o'sha tomondagi uch-to'rt chaqirim yerda. U azongi choyi qo'nmagani uchunmas, o'rgangan odati bo'yicha suvqovoqni ikki bo'lib yasalgan cho'lmagi bilan qayiq ostida yig'ilib qolgan suvni sirtga sepdi-da, qayiqning o'ng tomonidagi loyqasuvdan olib, mehri qongunicha simirdi...

— Hay, hay, hay!

U rohatlanganini ovoz chiqarib bildirib, Urga[1] ustiga do'nib turgan Ustyurt tomonga — dengizning uzun-uzun qirg'og'iga qaradi...

Tik qirg'oqda yog'in-yomg'ir va dengiz shamollaridan siyqalangan tabiiy naqshlari qo'ldan chizilganday toshdevor savlat to'kib turibdi. Devor bilan dengiz oralig'idagi sohil ko'rinishlari goh kengayib, goh torayib, bora-bora uchi-qiri yo'q manzaraga aylanadi. Ol, qirg'oqdagi uzun-chuvay manzaralar goh ayrilib, goh qo'shilib borayotgan ko'chalarni yoqalagan paskaltak oppoq uylarning devorlari qadimgi qamishni suvab ishlangan cho'pkori uylar ekanligiga odam ishongisi kelavermaydi. Chotmalarning ichi-sirti sarg'ish yelim-loy bilan suvalgan, ohaklangan, endi qirg'oq dengizdan qalqib chiqib turganday ko'rinadi. Urganing qoq o'rtasidagi yoqada tik-jarlikdan osmonga dukkayib chiqib turgan baland imoratning tirnog'i dengizga tarmashib ketgan... Uning ikki qaptalida uzunasiga cho'zilgan ko'chada g'oz-qatora uylar joylashgan...

Oqtumshuq tikjarligiga suyab solingan ofisga sohil tomondan kirib, yildirim (jadal) lift bilan yettinchi qavatga ko'tarilsang, qiblada Ustyurt tekisligining cheksizligi, orqa (shimol) tomonda, pastda Orol dengizining dovulli, bulut-yomg'irli oydinlari kaft-

[1] **Urga** — dengiz bo'yidagi manzil nomi.

dagi to'lqinlanib turadi. Ol, o'n yettinchi qavatni to'liq egallagan "G'aroyib Orol MChJ" kompaniyasining mahkamasidagi rahbarning kabinetidan dengiz bilan Ustyurtning uzundan uzun chegarasi ufqqacha taqalib borib, naryog'i ko'rinmay ketadi.

Iyso keng xonada naridan beri boshini qashib yurib, oxiri to'rdagi oppoq divanga cho'zilib yotgan Musaning oldiga kelib so'z boshladi:

— Xalqaro auksionning o'tkazilishigayam bir oy qoldi... Ustyurtning uchdan biri bizga tegishli, endi dengizniyam qo'lga ololsak, oshshig'imiz olchi tushgan bo'lardi. Ruslar bilan arablar o'yindan chiqib ketgani bilan, endi bu basaki savdoga yaponlar bilan xitoyliklarning aralashgani chatoq bo'ldi-da...

— Atrofini suv o'rab-bosib yotgan yaponlarga qurib-yo'qolib borayotgan kirttay[1] dengizning nima keragi bor ekan?

— Ularga dengiz emas, Orolqumning qumlari kerak...

— Manov chang-to'zondan qutula olmay turganda... qumlarni nima qilarkan deyapman-da. Qumlarning ostida, nima, xudoyning margi ham yo'q-ku...

— Orolbo'yida tug'ilib o'sgan shoir Tilovbergan og'a "Borsa kelmasda imom Mahdining xazinasi qolgan..." degan gapni eshitgan ekan qariyalardan...

— Kim biladi endi... Qumdan ham bir narsalar ishlab chiqarsa kerak-da, ular. Nima qilganda ham ishning ko'zini biladigan xalq ekan. Yana, uch hissa oz xarajat sarflab, besh hissa ko'p sifatli mahsulot ishlab chiqarishlarini ayt...

— Yaxshi, "ko'p gap eshakka yuk" deganlar, dengizni sotib olib, nima qilishimiz borasida biznes-rejangni yana ko'raylik-chi? Bundan buyog'iga baribir Orolda baliq urchimasa...

— Orolga keltirib tashlangan tuzga chidamli kambala balig'ining so'nggi nusxasi o'lib qolganiga ham o'n yilcha bo'ldi. Men faqat manov tuz, qunduz, oltin, neft, gaz bilangina shug'ullanib yurganim yo'q. Antaliya, Sharm-ash Sheyx, Ispaniya, Tailand, Kanar, Qibris orollaridagi kurortlarda dam olganimda dengiz suviga cho'milib maza qilgan edim. Ayniqsa, Isroildagi "O'lik dengiz" ko'lida cho'milishning shifo ekanini tekshirib ko'rganman. Ko'pgi-

[1] **Kirttay** — kichkina, degan ma'noda.

na olim-shifokorlar bilan maslahat qildim. Hisoblab ko'rsam, Orol atroflarida, sohilda xalqaro sanatoriylar qurib, shifosayohat, suv va ov sayohatlarini uyushtiradigan bo'lsak, anovi neft-gazga qaragandayam ko'proq foyda toparkanmiz...

— Buni boshqalar bilmaydimi?

— Biladi! Mendan ham yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham Orol talash bo'lib turibdi-da.

— Odamlarning kelib-ketishi ham oson emas-ku...

— Anovi Oqtumshuqqa yigirma chaqirimdagi burungi harbiy aerodromni xalqaro aeroportga aylantirish qiyin emas...

— Shunda, men nima qilishim kerak?

— Sen hokimsan-ku, hokim sifatida anovi Tilagan tirsiqni ko'ndirishing kerak.

— Voybo'y... Yalinib-yolvorib maymunga qo'shiq ayttirish mumkindir, biroq Tilaganni aytganidan qaytarish... qaydam... U tobutda borayotib ham "yo'q" deb boshini chayqab ketsa kerak.

— Anov hajga borib kelgan urgalik O'tegen hoji-mullani o'rtaga solib ko'rsak, qalay bo'lar ekan?

— Kim biladi...

— U to'rt marta hajga borib keldi, bir kelganida tuvaloq ovlaydigan shayxlarni ham ergashtirib kelgan edi ovulga...

— Hovva, hovva, anovi Oqshaloqning naryog'ida shayxlar bilan ot minib, burgut uchirib, tuvaloq quvib yuribdi deb eshitgan edim. Lekin, lekin, lekin... O'tegen shunaqa dedi deb, Tilagan tirsiq aytganidan qaytarmikan? E, mullaning bir o'g'li otasining aytganini qilmay, Tilaganga shogird tushgani ham qulog'imga chalingan edi-ya...

— Unda...Aralskdagi qudasini ishga solsak-chi?

— Qaydam, uni o'zini Tilagandan battar tirsiq deyishadi-ku...

— Hov, tavba, tavba, nima buncha hadiksiraysan? "Mo'ynoqqunduz", "Qo'ng'irottuz", "Ustyurtneft" "Surgil gaz", "Qizil-qush oltin", "Qoratovaraq", "Sariqamish baliq", "Orolqumto'zon" kabi korxona-yu kompaniyalar qo'lingda turib, qayoqdagi yirtiq kemadan boshqa davlati yo'q Tilaganning nimasidan qo'rqasan?

— Qo'rqishga qo'rqmayman-u, lekin uning ortida Orolni yoqalab yashayotgan xalq turibdi-da!

— Xalq bilan nima ishing bor? Xalq o'ylaydigan bo'lsa, o'zini o'zi o'ylasin, shungayam bosh qotirib...

Musa boshini qashidi

— Men ham axir shu xalqning bir vakiliman, shu xalqning saylab qo'ygan odamiman...

— Seni saylagan xalq emas, biz... Senga ovoz beraman deganlarning uyiga qoplab un tarqatgan — men. Men ham shu xalqning biriman. "Alloh yolg'iz, men yolg'iz", degan gap bor, "Alpomish"-da. Sen ham yolg'izsan... Boshingga ish tushganda xalqing senga g'amxo'rlik qilolmaydi. Ernazar olako'zning yelkasidan otgan ham Ernazar edi-ku. Hatto qo'yningdagi xotining ham xohlagan paytida bevafolik qilishi mumkin. Ishongan odamlaring: "Yuz gramm pishgan go'sht, yuz gramm xom go'sht, yuz gramm araq, yana nima kerak senga, qoraqalpoq!" — deb, otar tongga, botar kunga tost aytib yuribdi-ku? Seni bizlar qo'llamaganda borar joying belgili edi...

Musa o'ylandi, o'zini o'yladi. Ko'z oldida tubsiz tungg'iyiq[1] elasladi...

Iyso o'rnidan turib durbin bilan derazadan chor atrofni kuzatdi. Qarasa pastdagi sohilni yoqalagan daryoning loyqa dengizning ko'm-ko'k suviga aralasha olmagan, tuppa-tuzuk chizilgan chiziqday ko'rinayotgan iz bo'ylab bir qayiq suzib borayapti...

Tilagan qayiqda kunda ko'ziga ko'rinadigan manzaralardan xushkayf bo'lib borayotib, sohilning xuddi mana shu joyida kampirini qizlik paytida olib qochganini esladi va eshkakchi uning xayollarini o'qib turganday seskanib ketdi.

— Hoy bola, charchagan bo'lsang, eshkakni qo'yib, motorni yoqsang-chi!

— Charchaganim yo'q, ajag'a[2], qaytanga, ertalabki nonushta uchun yaxshi bo'ladi-ku...

Ajiniyoz mustaqillikdan keyin talay mamlakatlarni ko'rib, o'qib qaytgani bilan, manov ota-boboning eshkagini sog'inaverib, oxir-so'ngi litseyda o'qiyotgan informatika darslaridan ham voz kechib, Tilaganga baliqchilik o'rgatishni so'ragan, mana endi

[1] **Tungg'iyiq** — dengizning eng chuqur yeri.

[2] **Ajag'a** — og'a degani (aziz og'a, demoqchi).

charchoq nimaligini bilmasdan shu kasbga qiziqib yuribdi. Charchaganini ham sezdirgisi kelmaydi. Biroq Tilaganday dengiz qashqiridan biror narsani yashirib ko'r, qani...

Ol, Tilagan o'g'lining ahvolini his qildi-da, qayiq quyrug'idagi motorni ishga soldi. Shu zahoti qayiqning o'mgani ko'tarilib, olg'a qarab uchdi. Ajiniyoz eshkaklarni qayiq ichiga — ernakka joylashtirib qo'yib, yo'l olgan tomonlarga burilib o'tirdi. Qayiq potlanib, oydinni tilib-tilib uchmoqda... tilaganga bu sohil manzaralari, bu suvlar doimo o'tmishni eslatadi...

— Pah-pah, qizmisan, qiz edi-da o'ziyam, maktab manglayoldi qizi edi...

Bu gal Tilaganning xayoli allaqachonlardir bo'lib o'tgan kimyo darsiga og'di.

* * *

Kimyo darsida muallim sinfga kirgan zahoti o'quvchilar o'rinlaridan sakrab turishdi. O'quvchilarning:

— Assalomu alaykum! — deb bergan umumsalomiga ustoz indamay turdi-da, so'ng:

— Hash ikki O!.. — deb, o'tirishga imo qildi va taxta oldiga borib bo'r bilan "N_2O" deb yozdi. Bolalar o'zaro: "ximiya qiyin, achiydi miying" degan mashhur satrlarni ichlarida yana bir takrorlab, yelkalarini qisib, bir-birlariga qarashdi.

Muallim — asli Qo'ng'irotning yigiti bo'lib, u Toshkentda o'qib kelgan edi, darslarida toshkentchalab gapirar, bunaqa paytlarda ko'pchilik uning gaplariga tushunib-tushunmay ham qolardi. Buni har kim o'zicha har narsaga yo'yib ko'rishdi: birovlar "ko'p o'qiyverganlar shunaqa bo'ladi, har narsani aytaveradi", desa, yana boshqalar, "ilm tilida so'zlaydigan odamlarni avvallari ham hech kim tushunmagan", degan gaplarni aytishdi. Nima qilgandayam, kimyo muallimining tili keyinchalik burro bo'lib ketdi, u gapirganda bola-ku bola, katta yoshdagi odamlarning ham og'zi ochilib qoladiganday so'zamollikka erishdi...

Muallim taxtaga yozilgan "Hash ikki O"ning ma'nosini hijjalab tushuntira boshladi:

— Hash degan belgi vodorodni bildiradi. O esa — kislorodni... Demak vodorod bilan kislorod qo'shilsa nima bo'ladi, qani, kim aytadi?..

O'quvchilar jimjit, bir-birlariga qarashdi. Unsizlikni Mahmud qo'lini bilanglatib buzdi.

— Qani, Mahmud, aytib yubor...

— Hash ikki O! — dedi Mahmud.

Hamma duv kulib yubordi.

— Tinchlik saqlansin! — deb, boshlanib kelayotgan g'avur-g'ovurni bosib qo'ydi muallim. — Mahmud bilganini to'g'ri aytdi.

Yana g'ovur-g'uvur ko'tarila boshladi.

— Buni kim bilmaydi?

— Taxtaga yozib qo'yibdi-ku...

— Juda bilag'on-da bu Mahmud...

— Tinchlik saqlansin! — dedi muallim yana qo'lini ko'tarib. — Mahmudga rahmat, hamma nima deyishini bilmay turganida, u o'zi bilganini aytdi. Endi yaxshilab uqib olinglar, shu vodorodning bir atomi kislorodning ikki atomi bilan qo'shilib, bizning tirikligimizning asosi bo'lmish suvni hosil qiladi. Suv — bu tabiiy turda gaz, suyuqlik va qattiq modda — muz holida uchraydigan bebaho xazina. Geografiya muallimingiz ham aytgan bo'lsa kerak, yerda hozir odam soni ko'payib, ichimlik suv ozayib bormoqda. Hozirning o'zida toza suvning bahosi bodring narxidan oshib ketdi. Bilasizlarmi, bolalar, bir kilo bodring olish uchun qancha litr suv sarflanishini? Kamida yigirma litr suv!.. Bora-bora suvning narxi neft narxidan ham oshib ketishi mumkin.

Muallim shu taxlid suvning qanday qilib bug'ga aylanishi, qanday qilib muz paydo bo'lishini, shu bilan birga vodorodning bir atomi kislorodning ikki atomi qo'shilgandagina suvga aylanishini tushuntirdi. Ajiniyoz qo'lini ko'tarib so'radi:

— Muallim, vodorodning bir atomini qo'shaverib-qo'shaverib, suv chiqarib, daryolarni to'ldirsak bo'lmaydimi?

— Bo'ladi, buning uchun sizlar bilimli bo'lib ulg'ayishlaringiz kerak. Ana shunda o'sha atomlarni qo'shib, suvga aylantiradigan uskunalar o'ylab topib, ularni odamlarning ehtiyoji uchun ishlatadigan bo'lasizlar. Agar manovi bizning Mahmudga o'xshab, "Hash

ikki O" deb, taxtaga yozilgan belgilarni tovushlab o'qiganlaring bilan, Orol qurisa quriydi-yu, ammo to'lmaydi. Shuning uchun kimyo darsida o'tilayotgan har bir mavzuni miyangizga quyib oling. Ha, aytganday, shuni ham aytib qo'yishim kerakki, insonning miya degan a'zosining ham 78 foizi — suvdan, 15 foizi — yog'dan, 7 foizi oqimtir modda — hujayradan (ya'ni belokdan), kaliy va tuz aralashmalaridan iborat. Agar boshingiz ishlamasa, Oroldan boshqa narsalaringizdan ham ayrilib qolish hech gap emas. Orol bo'lmasa edi, bir-birlaringni ham yo'qotib olarsiz, maktabni bitirib olaveringlar, qani...

Muallimning so'zlarini jaranglab yuborgan qo'ng'iroq bo'lib tashladi.

* * *

Qariyaning xayolini yana o'sha yoshlik davri o'ziga jalb qilib oldi... Huv anovi qirmizi ro'moliga tulumchoqlari[1] qo'shila hilpirab, oq ko'ylagi sirtidan kiygan ko'kish peshvandi belini bir tutamgina qilib buragan, dengiz sohilida oydinlardan ko'zini uzmay qarab turgan yalangoyoq qiz bir umr yoddan chiqarmikan sira? Olisdan qarasang, giyohsiz sarg'imtil sohilda oppoq gulning osmondan ko'k g'unchasidan qip-qizil shokila-po'paklar chiqib kelayotganga o'xshaydi. Kanorni cho'lpillatib o'payotgan dengizning to'lqinchalari o'sha gulni quchgisi kelib intiladi, yana intiladi, so'ng talpinib-talpinib yetaman deganingda qo'li yetmay qolgan boladay ortga qaytadi. Huv anov tepadagi hurkak sayg'oqlar podasi ham to'xtab qolib, sohilda hilpirayotgan gulga tikilib turganday. Tilagan o'zicha xayolan qizning tovonini yalashga tayyor to'lqinlardan ham, huv anovi termilib turgan sayg'oqlardan o'sha qizni qizg'onadi. Tilaganlar ovlagan baliqlarini topshirish uchun qirg'oqqa yaqinlashgan zahoti o'sha qiz o'rnidan qo'zg'alib, birdaniga yigitga yalt qarab, oldidan yugurib o'tib ketadi. Ularning ko'zlari duchlashib, o'zlari tillasha olmay qoladi. O'zaro uchrashuv lahzalarida ham doimo tilga chaqqon yigitning zaboni tutilib, tomoqqa tiqilib turgan hislarini sirtga chiqarolmas, qiz tik qaramasayam, uning shu turishining o'zi Tilaganning tilini lol qilib qo'yardi...

[1] **Tulimchoq** — chiroyli bo'lib osilib turgan kokil.

O‘g‘lining ahvolini onasi bildi. Bildi-da, qariyaga yetkazdi. Tilaganning otasi Orol atrofda atoqli qayiqchi-usta edi. Uning qo‘lidan chiqadigan qayiqlarga xaridorlar Mo‘ynoqdan Aralskkacha navbat kutib turardi. Shunday ustaning qiz so‘rab kelganidan kekkaygan Zuhraning otasi tol chaynab o‘tirmasdan, qalini deb qo‘shqayiqqa fotiha o‘qishdi-da, ikki yoshning to‘yiga rozilik berib yubordi...

Mavsum o‘zgargani Orolda to‘lqindan bilinadi. Oydinda avvalgi to‘lqinsoqlar bora-bora to‘lqinga aylana boshlasa, bilavering, bu — kuzning o‘rtasi. Baliqchilar bunday paytlarda oydin shalqarga qarata qayiq haydamaydilar. Urganing butkul xalqi xuddi mana shu voqeani kutib turganday, kemani alvonrang bayroqcha-yu g‘ayrinaqsh tovarlar, sharlar bilan bezatishdi. Endi bu kemaga Tilagan bilan Zuhraning muhabbatini ortganlari uchunmi og‘irlikdan seyner chayqatilib-chayqatilib suzib bormoqda edi. Qiziljargacha ikki qulag‘ir... Ol, seyner palubasida yongan o‘choq bilan osilgan qozonning bug‘lari butun Urgaga taralib, odamlar uylaridan sohilga chiqishib, ro‘mollarini hilpiratayotgan qiz-kelinchaklarning soni hisobsiz edi. Go‘yo sohilni allakimlar alvon rangga bo‘yab tashlaganday. Zuhraning ko‘zlariga yosh yugurdi, quloqlariga “Yor-yor” ohanglari o‘rnalashib, boshqa narsalarni eshittirmasdi.

O‘z uyingning eshigi
Maxmal eshik, yor-yor.
O‘zga uyning eshigi
Yantoq eshik, yor-yor...

Qiziljarning qorasi ko‘rinmasdanoq Tilaganning jo‘ra-yoronlari motorli qayiqlari bilan seynerning oldiga suzib chiqishdi.

Dengiz tomondan kelgan kelinning to‘yi qiziq bo‘lar ekan, Qiziljarga qo‘shni ovullardan qayiq bilan kelgan kelinning to‘yi shunchalik bo‘lar-da. Kelinning oldiga suzib chiqqan bolalar qayiqni to‘xtatib qo‘yib, qayiq ag‘darilib ketmasligi uchun harakat qilar, ham qiz yangasi uloqtirgan tugunchaklarga talashib-yopishardi.

Qoraqalpoqning o‘zidan ko‘ra dasturi ko‘p. Ayniqsa, “qiz olib qochish” dasturini eskilik qoldig‘i deydiganlarning qulog‘iga oltin isirg‘a: bu xalq zo‘rlik-zo‘ravonlikni azaldan xush ko‘rmaydigan-

lar toifasiga kiradi. Odatda qochganlar quvganlarga tuttirmaslik uchun ikki yoqqa bo'linib qochadilar. Ol, qoraqalpoqda shu paytgacha bir-birlarini yaxshi ko'rib qochganlarning ikkiga bo'linib qochganini ko'rgan odamning o'zi yo'q, qaytanga sut-qatiq bo'lib, totuv xo'jalik (oila) bo'lib, o'zlaridan ko'payishib yashamoqda. Boyagidagi Romeo-Juletta kabi oshiq-ma'shuqlar qochadigan yer topolmagandan so'ng balanddan o'zlarini tashlagan chiqar...

"Hay-hay, astag'furilloh, menga nima bo'ldi?" — deb ko'zini ochgan Tilagan yoqa tugmalarini yechib, ko'kragiga tuflab: "Tuf-tuf, uyat-ku", deb qo'ydi. Uning hozirgina eslab o'tirganlarini nabirasiga tengdosh Ajiniyoz ko'rib qo'ymadimikan deganday qaradi — Ajiniyoz hamon eshkaklari bilan band edi. Tilagan kampirini eslaganida, hamisha Zuhraning o'sha o'n sakkiz yoshidagi chehrasi yodiga tushaveradi. "Anchadan beri kampirimning boshiga (qabriga) borolmadim. Endi ovulga yetib borgan zahoti kelinga bo'g'irsoq pishirtirib, qabridan aylanib, Qur'on chiqartirib (xatm) qildirib yubormasam..."

Qabristonga ketayotib qariya xayolan kampiri bilan Omonxona sanatoriyasiga borganini esladi.

* * *

...Tilaganning bir o'yi — ovulning imomi O'tagan hojini besh-olti mo'ysafid-oqsoqollar bilan qo'sha chaqirib, Qur'on o'qitib, undan keyin qabr boshini ziyorat qilish edi. Katta o'g'li bilan qizi Genjagul bilan maslahatlashib ko'rgan edi, bu o'yi ularga yoqmay qoldi.

— Qo'ysangiz-chi, ota, o'sha mullasimog'ingni... Hajga ikkinchi borib kelganida bir kanistr suv olib kelib, shifo bo'ladi deb, yarim yildan beri piyolalab-stakanlab sotayotir. Daryoning suvi qaytsa ham, uning shifo suvi tovsilmaydi, — dedi katta o'g'il.

— Yana bir gap eshitdim, — shivirlabgina gapirdi qizi. — O'tagan mulla yesir ayollarning uylariga borib, "u dunyoda choling qayerda, nima ishlar qilib yurganini bilaman, agar u bilan birga bo'lishni xohlasang, ataganingni chiqar, arvohiga oyat o'qib, to'g'ri yo'lga solib yuboraman" deb pul olarmish, degan gaplar ham bor.

Lekin bu bilan Tilagan aytganlaridan qayta qolmadi.

— Sizlar, bolalarim, O'taganni baribir mendan yaxshi bilmaysizlar. Uning qiliqlari manovi mening yomon xaltamning ichida. Biroq, el-yurtimizning dasturi, dinimizning hurmati uchunoq uni chaqirib Qur'on o'qitib yubormasak bo'lmaydi. Mish-mishning oti mish-mish, "pish" desang uchadi-ketadi. Ovul-elning og'izbirchiligi va onangizning ruhi shodligi uchun ham qo'y so'yib, Qur'on chiqartirib (xatm qildirib), kichikkina sadaqa tarqatib yuborganning chapi yo'q (zarar qilmaydi). Qur'on o'qib, xatm qiladigan boshqa odam bo'lmagach, O'taganning oldiga o'zim borib kelay deb o'tirganim. Iloj qancha, shuni chaqirtiramiz...

— Mayli, ota, sizning aytganingiz bo'ladi, — dedi o'g'li. — O'tagan mullada hech gap yo'qdir, bizlarni institutda ateizm degan fandan o'qitgan domla "Berdaqning ateistik qiziqishlari" ("dahriylik nuqtayi nazari") degan kitobi bilan dissertatsiya yoqlab, mustaqillikdan so'ng esa "Berdaq — Qoraqum eshonning o'ng qo'l so'fisi (muridi) edi" deb o'zgartirib yozib atoq-obro'y olib yuribdi-ku...

Tilagan o'sha odamni ham yaxshi tanirdi, murtidan mirsillab kulib qo'ya qoldi. So'ng-so'ng shay halqasda? Yakka o'tirib, o'tmishdagi voqealarni esladi. Negadir yodiga O'taganning o'tmishi tushaverdi...

* * *

O'tagan ovuldagi maktabda tarix muallimi va boshlang'ich partiya tashkilotining kotibi edi. O'zining xarakteriga mos maktab bilan uydagi qiliqlari bir xil edi. Faqat bitta farqi — maktabda ozroq ishladi... Ol, ovulda to'y-ma'rakami yo gap-gashtak bo'lib qolsa — xudoning bergani, o'zgalarning tiliga tushov tashlab, bir o'zi gapiradi-o'tiradi.

— Birinchi tostni marksizm-leninizmga asos solib, yo'q narsaning — bor, bor narsaning — yo'q bo'lmasligini aniqlagan Karl Marks uchun olib qo'yaylik...

— Ikkinchi tostni odamning kelib chiqishi — maymun ekanligi haqidagi haqiqatni o'ylab topib, tinmay mehnat qilaverganligidan so'ng odamga aylanganini o'ylab topgan Fridrix Engels uchun olaylik...

— Uchinchi tostga keldik, buni oldingi ikki dohiyning aytganlari bo'yicha barchasini bekam-u ko'st bajarib, proletariat diktaturasini o'rnatgan Vladimir Ilich Leninning hurmati uchun ichishlaringni iltimos qilgan bo'lardim...

— To'rtinchisini Gitlerning to'nini teskari kiydirgan Isekang (Iosif Stalin) uchun, qani, ol!

So'ng ma'rakaning egasi yodga tushib, uning o'ziga, ayoliga, o'g'il-qizlariga atab alohida-alohida tilaklar aytilar, oxir-so'ngi til aylanmay qoladigan paytga yaqinlashganda dohiylar va rahbarlarga qoraqalpoqcha ismlar qo'yilar, xuddi o'zlarining ovuldoshiday ko'rib, bir ajoyib munosabat o'rnatilar edi:

— Endigi tostni hammamiz uchun hurmatli va qadrdon Br-r... Brake... (Brejnev) uchun o'rinlarimizdan turib olib yuboraylik...

— Hay o'rtoq partkom, o'rtada Qur... Qur... Qureka (Xrushchev) qolib qo'ydi-ku... Tegaversin bechora, kommunizm qurib beraman derdi, hech bo'lmasa tuz bilan lampamoyni muft qilib beraman degandi, — deb so'z qo'shmoqchi bo'ladi mehnat muallimi. — Yana bir gapida "Kommunizmda faqat tuz bilan lampamoyni emas, hamma narsani tekin qilaman", devdi, hattoki pul ham bermaydi, degan gaplar chiqqan edi...

— E-e, qo'ysang-chi o'sha Qurakangni! U ovuldagi echki bilan yilqiga qirg'in keltirib, yurtni och-qursoq qilib tashladi-ku... Uning xatolarini Birakang tuzatmaganda, kommunizmga emas, to'ppato'g'ri xudoning margiga borar edik. Sening siyosiy savoding chalaligini o'qitayotgan bolalaringdan ham bilsa bo'ladi, deb baqirib tashlaydi O'tagan.

Maktab partkomi shunday deb turgach, odamda jon qoladimi, hamma tentirab, bir amallab turib ichaverardi... ichaverardi... Oxiri ichkaridan O'taganning "Oqsungil" ohanglariga yo'rtoqlagan tovushi chiqa boshlagach, odamlar: "ma'rakaning oxiri — shu" deyishib, uy-uyiga qarab tarqalishadi...

Ana o'sha O'tagan bugun oppoq soqol qo'yib olib, ovulning imom-mullasi bo'lib olgan.

— Har zamonga bir zamon... "Davring keldi, sur, begim" deganlari shu-da, tavba, — deb, ichdagi hovrini chiqardi Tilagan.

* * *

O‘tagan zamon bilan qo‘shila o‘zgargani bilan o‘rgangan odatini tashlamadi, birga qartaygan avvalgi shishadoshlari bilan ora-tura haliyam ko‘rishib, qadah qoqishtirib, tost aytishib turadi.

Bir gal payshanba kuni ular boshqalarni qo‘shmasdan gashtak o‘tkazib (ziyofatlashib), ertasiga juma namozida it-masxarasi chiqib qoldi. Kechagi birga qadahlashgan jo‘ralariga yana uch-to‘rt chol qo‘shilib, namozga yig‘ilishdan oldin O‘tagan mulla tik turgan holatda qiblaga qaramasdan jamoatga qaraganicha turib qoldi.

— Mullaka, qiblaga qarab turmaysizmi? Qibla orqangizda qoldi-ku, — deb jamoatdan ovoz berib ogohlantirdi kimdir.

— Kecha ko‘proq tashlavoribmiz, endi qiblaga qaraguday bet yo‘q...

— To‘g‘risini aytsang, xudoy ham kechirar, narigi tomonga qarab o‘qiyver, — dedi burun partkom paytida uning o‘rinbosari bo‘lgan geografiya muallimi.

Buni kechagi gashtakka qatnashmagan, bilmaganlar “jo‘ralarning o‘zaro hazillari bo‘lsa kerak”, deb yo‘ridilar. O‘shanda O‘tagan mulla juma namozining imomligini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a, bir amallab ijro qilib chiqdi...

Boshqa bir safar bundan-da battar itmasxarasi chiqqan. Ro‘za kunlari edi. O‘shandan beri u jo‘ralari bilan ziyofatlarni siyraklatib, o‘ng‘ayini topganda yakka o‘zi ichadigan odat chiqardi. Ovulning do‘konchisi, araq qahat yillari edi, O‘taganni o‘ta hurmatlagan bo‘lib dedi:

— Oqsoqol, butkul Qiziljarning xalqi ayozlasa ham tomoq chayishga-da topolmaydigan manovi “Qoratov”ni bitta o‘zingizga berayapman...

Shundan so‘ng do‘konga kirib araq so‘rashga uyalib yurdi. So‘ng esa bu zormandani Qo‘ng‘irotdan oldirtirib, uy to‘ridagi sandig‘ida saqlab yurdi.

O‘sha kuni bir yerdagi iftorlikdan so‘ng ichkarida oz-ozdan olaveribdi, olaveribdi va nihoyat charchab qolibdi. Ertalab boshini ko‘tara olmadi, saharlikka ham chiqmadi.

Choshkaga yaqin Qorajardan qayiq keldi. To'qsonga chiqib, nevara-yu duvara suyib ulgirgan Pirnazarning kampirining janozasini O'tagan mullaning o'zi o'qiyman deb va'da bergan edi...

— Evoh! — deb yonboshiga urdi O'tagan mulla boshini zo'rg'a ko'tarib. Janozaga aytib kelgan odamni ichkariga taklif ham etmasdan, kelini orqali ma'lum qildiki:

— Mulla ota og'rib qoldilar, bora olmaydilar. Lekin shu so'zlarni aytdi: "U xudoy bergan, tabarruk kampir edi. Oqibati shunday bo'lishini g'oyibona bilib, kampirning janozasini allaqachonlar o'qib qo'ygan edim, o'zli-o'zligingcha Qur'on o'qib, dafn qilaveringlar!

Kelin bu gaplarni otasining og'zidan chiqqanday qilib, juda ta'sirli aytganida, Qorajardan kelganlar yelka qisib, "qattiq yotgan bo'lsa, mulla og'ayam ketvorsa, uning janozasini kim o'qir ekan?" deyishib, hayron-u sargardon qaytib ketishdi.

O'sha "qattiq yotish" paytida O'taganga balo ham urmadi, ertasigayoq o'rnidan qaqanglab turib ketdi.

Hajga besh yilning ichida to'rt marta borib kelgani, shundan so'ng bo'lib yurgan voqealar.

Birinchi gal hajga borib kelganida "ziyorat qabul bo'lsin"ga ovul-el alohida, undan keyin tengdosh jo'ralar alohida yig'ildi. "Yurgan — daryo, o'tirgan — bo'yra" deganlariday, O'tagan o'zi burundan borgan-bormagan, ko'rgan-ko'rmaganlarini ushog'ini tushirmay aytib berishga usta emasmi — uydan qalay chiqqanidan boshlab, Nukusga qalay yetib borgani, so'ng samolyotda Toshkentga uchgani, hojilik kiyimlarini qandoq kiygani-yu, Makka-yu Madinaga qalay yetib borganlari, Baytullohni necha marotaba aylangani va shaytoni la'inga necha marta tosh otganigacha qoldirmay, so'yilgan qo'y sho'rvasining ko'pigi olinguncha gapirib o'tirdi. Eng g'ururlanib, ovozi yig'lamsiragan alfozda endi o'zining ismiga "hoji" degan atoq qo'shib aytilishi farz ekanini bildirib qo'yishni ham unutmadi.

— Ka'bada "hoji" degan unvon berilishi haqida biror hujjat taqdim etiladimi? — so'radi kimdir.

— Alloh taolo kimning borgan-bormaganini ko'rib turibdi-ku. Borganingning o'zi hujjat-ku. Endi, og'aynilar, meni avvalday

O‘tagan mulla deb emas, O‘tagan hoji deb chaqirmog‘ingiz vojib bo‘ladi.

— O‘teke[1], “imom” desak ham, “mulla” desak ham, mana endi “hoji” desak ham bo‘laveradi, baribir uchovining o‘rniga ham o‘taverasan, — dedi geografiya o‘qituvchisi. — Sen bir maktabga kelganingda bolalarga Qizil dengiz bilan Tur tog‘lari haqida aytib bersang...

— Menga qara, sen darsingni o‘zing o‘taver. Tur tog‘i deganda sen Musa payg‘ambarimizning yaratgan Alloh bilan diydorlashgan yerni aytyapsan-ku?

— Ayni ustidan tushding, jo‘ra. Ka’batullohga borsang, nar-yog‘i Qizil dengiz tayoq tashlaguday joy emasmi?

— Sen umr bo‘yi o‘zing ko‘rmagan yerlardagi narsalarni o‘qitib yurganingdan keyin, siyosatdan sirtda qolib qo‘ygansan. Qizil dengiz bilan Tur tog‘lari deganing Ka’batullohdan huv narida, Misr aymog‘ida emasmi?..

— O‘zing...

— Tarixdan o‘tgan darsingning qaysi bir voqeasini o‘z ko‘zing bilan ko‘rgansan?

— O‘rtoqlar, hoji bobo bilan bahslashavermanglar, unib-o‘sishlaringga ziyoni tegib qolmasin, — dedi O‘taganning etagini tutgan so‘fi-muridlarning biri. — Undan ko‘ra, Hoji hazratimiz Baytullohni aylanib yurganlarida boshlarida nima o‘ylar aylanganini so‘raylikay...

— Judayam o‘rinli savol bo‘ldi bu. Baytullohni aylanib yurgan ming-minglagan ziyoratchining xayolida yozg‘iz Alloh taolodan boshqa narsa bo‘lmaydi. Men ham to uydan chiqib, Ka’batullohga qadamim yetguncha kallamga Allohdan boshqa narsa kirib chiqqani yo‘q. “Yotqizgaysan yo Alloh, turg‘izgaysan insholloh, turar-turmas kun bo‘lsa, la iloha-illalloh!” deb, kunda aytadigan kalimamni aytaverdim... Hojilik — eng ulug‘ martaba, Allohga intilish qadami ekanligini tushundim...

O‘tagan hajga borgach, o‘zi ham obdan tushunavermaydigan savdo biznesi bilan shug‘ullanish yo‘lida sal sa’y-harakatlar qilib

[1] **O‘teke** — O‘tagan aka, demoqchi.

ko'rdi. "Bu nimasi?" deb hayroni chiqib qaraganlarga "Axir, payg'ambarimiz sallollohu vassallamning ham dastlabki kasblaridan biri — savdo edi-ku" deb, oqlamoqchi bo'ldi bu qadamini hoji og'ang. Birinchi borishida do'konlarda g'oz-qator bo'lib osilib turgan tasbehlarni ko'rib, ko'zlari o'ynagan edi. Narxi muftdan muft, bizning pulga chaqqanda bir so'm ham chiqmaydi. Birdaniga besh yuz tasbehni ko'tarasiga xarid qildi-da, ovulga kelgandan so'ng, o'ntachasini obro'li-obro'li odamlarga sovg'a qilib berdi. Qolganlarini 25 (yigirma besh) so'mdan xufya sottirdi. Tasbeh ta'rifini ham raso keltirgandan keltirdi: ularni naq Ka'batullohning o'ng qaptalidagi payg'ambarimiz sallollohu alayhi vassallamning ikkinchi oyog'ining o'rniga solingan magazindan olganlarini faxr bilan aytib yubordi deng! Yana, buning ustiga, tasbehning ilohiy qudratga egaligi ham og'zining qay bir burchagidan chiqib ketdi: ya'nikim, "bu tasbehda qichima illatining ham da'vosi borki, insholloh, boshqa dardlaringizning ham da'vosi topilib qolsa, ajab emas...", deb, yig'lamsiragan ovozda takrorlab ham qo'yardi. Shundan so'ng-ku, ovul-el orasida "O'taganning olib kelgan tasbehlarini ko'targan odamni chivin-chirkiy chaqmas emish, qaytanga, chaqqan chivinning o'zi salgina vaqtda tankayib tushib o'larmish-da-qolarmish, tasbeh bor xonaga chivin ham dorimas emish!.." degan gaplar tarqalib, olib kelgan tasbehlari bir oyga yetmay sotildi-ketdi. Boshqa tumanlardan, hatto Nukusdan ham kelib, yotib olib tasbeh so'rovchilar ko'payib ketdi. Endi O'tagan umra safariga otlandi. Ikki ming tasbeh olib qaytdi. Kelsa, barcha do'konlar tasbeh bilan to'lib, buning tasbehining narxi tushib ketadigan bo'lib turibdi. Biroq O'tagan shundayam qarab turmadi — do'konlardagi tasbehlarda ilohiy qudrat yo'qligi, ular manov Xitoydan kelgan soxta narsalar ekanligi haqida mish-mish so'zlarni tarqatishga zo'r soldi. Ishqilib O'tagan bu gal ham tasbehlarini o'ldim bozorda bo'lsa ham sotib ulgurdi.

Aytmoqchi, O'tagan to'rtinchi safar otlanganida, shahardagi bolasi ko'p yillardan beri Koreyada ishlab, uyiga pul yuborib turgan bir yesir ayoldan qarz olib ketgan edi. Bo'lib-bo'lib olgandan so'ng, avvaliga bilinmagan edi, endi qaytarib beraman desa, barchasini qo'shib sanasa, anchagina miqdordagi qarz chiqib qoldi,

ko'kpul bilan hisoblaganda qiriq mingdan oshib ketibdi... O'taganga bunday pullar o'yinchoqday gap edi, mana manov qarzing deb, bitta cho'ntagidan chiqarib bersa bo'lardi, biroq halqumdan o'tib ketgan narsani qaytarib chiqarish mushkul ekan. U qarzini uch-to'rt yildan beri qaytarolmay, mum tishlaganday bo'lib yuribdi. U pullarining hammasiga tumandagi auksionda arzon narxlarda sotilayotgan har yer-har yerdagi hammom, do'kon, kinoteatr kabi imoratlarni sotib olib, ularning barchasini hojatxonalarga moslashtirib qayta ta'mirlab tashladi. Bu biznesi ham ancha vaqtlar foyda keltirib turgandi, biroq so'nggi paytlarda hojatxona ko'payib ketdimi, yo odamlarvning maydonga (tashqariga) chiqishlari siyraklashdimi, haytovur daromad tushumi kamaydi.

Bor puliga imorat sotib olaverib, qarzlarini to'lashga hemiri ham qolmagan edi, uning tez-tez hajga borayotganligi Nukusdagilarda gumon uyg'ota boshlagach, u endi navbati bilan, kampiri, bolasi, qizi, kelinlarini ham hajga jo'natib, biznesini endi "zam-zam" suviga qaratdi. Biroq yiqqan-tergani o'zidan ortmay, yesir ayoldan haliyam qarzini uzib tugatolmadi. Ol, bor topganini maydalab qarzga bergan yesir, qatnay-qatnay O'tagandan fotihayi duodan boshqa hech narsa ololmay yuribdi. Oxiri, allakimning maslahati bilan prokurorga arz qildi.

— Qarz berganingiz borasida qanday hujjat bor? Tilxatmi, shartnomami, o'rtada nimadir bo'lishi kerak...

— Hujjat yo'q, o'rtada bir Alloh bor...

— Hov opa, xudoni guvohlikka chaqirolmaysiz-ku...

* * *

Tilagan manovi so'nggi chiqqan silab-siypalagich telefonga Hech o'rganisha olmayapti. Turtib chiqqan biror murvati bo'lsa ekanki, bu telefonni allaqachon o'rganib olardi-ya. Ol, manov yalpoq telefon bir jiringlasa, silab-siypalayman degunchayoq tovushi o'chib qolaveradi. Buni telefonni "zamondan ortda qolib qo'ymaslik uchun, otgan qadaming-u, qon bosimingni o'lchab turadi", — deb kuyov bolasi Musa sovg'a qilgan edi. Kuyov bola deganlari juda nozik bo'ladi, buning ustiga u ko'zga ko'rinib, elning boshiga chiqsami — oldini Xudo bersin, aytgani aytgan, degani degan

ekan. Xullas, bir haftadirki, manov telefondan allaqanday shiring-shiring ovoz chiqadi-yu, siypalayman deguncha o'chib qolishi jonga tegdi-da.

Kechqurun yana o'sha "shiring-shiring" degan ovoz eshitildi. Tilagan bu gal telefonga qo'lini tekkizmasdanoq to'qqizinchida o'qiydigan nevarasini chaqirdi. Nevarasi telefon degan baloning turli turining barchasini biladi, goh-gohida bobosining telefonidan allakimlar bilan gaplashadi ham. Bobosi tushunsa buyurmasin.

— Bobo, hokimiyatdan so'rayapti sizni... — To'lagan telefonini siqimlab ushlab qulog'iga tutdi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol. Men hokimning yordamchisi edim. Sizga bir xabar aytayin deyapman.

— Omonlikmi?

— Omonlik, omonlik, ota. Nukusdan hafta bo'yi sizga telefon qilib, hech tusha olmabdilar. Sizni kelasi hafta chorshanba kungi oqsoqollar kengashiga bir masala bo'yicha maslahatga chaqirish-yapti...

— Nima maslahat? Mendan maslahat so'raguday men kim bo'libman?

— Endi, oqsoqol, maslahatlashmasa bo'lmaydigan masala shekilli. Yuqoridan berilgan topshiriq deyishyapti. Chamasi Orol masalasida nimalar so'ramoqchi, naryog'ini bilmayman. Unutmay, biror qog'ozga yozib qo'ying, chorshanba kuni choshkada yig'ilasizlar.

Tilagan yana bir savolga og'iz juftlayotgan edi, telefon o'sha-o'sha eski kasali tutdimi, o'chdi-qoldi.

Nima maslahat ekan?

Tilaganning yodiga negadir kampiri keldi: "Uning ayfoni bo'lmasa ham, salgina siypalasang, manov qishloqning qaysi uyida nimalar bo'layotganining hammasini aytib berardi... Shu-shu, kampirini siypalayverib qiyda-chuv farzandlar orttirdi. Hozirgining yigitlari kaftlariga siqimlagan ayfonlarini siypalagani-siypalagan, shundan homila ko'targan birontayam ayfon yo'q".

Tilagan piqillab bir kulib oldi-yu, o'ziga keldi.

* * *

Huv avvalroqda Mo'ynoq tumanida birinchi kotib bo'lib, so'ng hokim bo'lib ishlagan oqsoqol yig'ilishda: "Orol qurib, baliq yo'qolib boryapti, endi bundan buyog'i baliqchilik o'zini oqlamaydigan turi bor. Anov Mo'ynoqdan Qo'ng'irotga borguncha oraliqdagi yoyilib yotgan to'rong'il-to'qaylikning o'rniga paxta eksak, qancha odamga ish topilgan bo'lar edi. Bir qarich ham tuzuv-tik o'smaydigan yovvoyi to'rang'ildan nima foyda?" deb umri yig'ilishlarda o'tib kelayotgan bir-ikki faol qariyaga gapini ma'qullatib, qolgan odamlarga qo'l ko'tartirib, yurtning roziligini oldi. O'shanda kechagi raykom, bugungi hokimni qoq belidan olib qaytargan shu To'lagen bo'ladi.

— O'rtoq og'aynilar! Orolda baliq kamayib borayotgani rost gap. Faqat bizning dengizdagina emas, anov keng-oydin okeanlarda ham baliq kamayib borayotgani borasida olimlar allaqachonlardan beri aytib kelayapti. Endi, paxta ekkanimiz ham durust chiqar, biroq eshitishimizga qaraganda paxtachilikning ham o'ziga yarasha mashaqqatlari, bizlarga noma'lum sirlari bor-ku. Baliqchilik — ota-boboyi qonimizga singib qolgan kasb. Mo'ynoqda tug'ilib-o'sib, yer ustidan ko'ra suv ostida nimalar borini yaxshi biladiganlardan usta paxtakor yo dehqon chiqadimi? Nukusda, Toshkentda o'qib yurgan bolalarimiz terimga borganlarida yurt yuz kilo tersa, bular atigi uch kilo paxta terib, masxara-kulgi bo'lib yuribdi-ku... Mayli, baliq-zavod yopilgan bo'lsa, yopilgandir, yopilgani bir tomondan yaxshi ham bo'ldi. Agar uni ishlataverib, go'shtdan konserva chiqaraverganimizda Qoraqalpoqda mol qoldirmay, bir-ikki yildayoq hammasini konservalab tashlagan bo'lar edik. Mana shu zavod ochilganda baliq chiqarishga emas, ol, generallarga tansiq toshbaqa go'shtini chiqarishga mo'ljallangan ekan: Ikki yil ichida Mo'ynoqda toshbaqa qirilib bitganidan keyin ilojsiz baliq konservalashga o'tganlar. Biz, nima, ota-bobolarimizning og'zi pishmagan xatoliklarni takrorlayverishimiz kerakmi? Sen, hokim yigit, paxta-paxta deb boshimizni qotirgandan ko'ra, avvalo "mol-hol boq" deganing jo'n edi. Umrinda yerga tuxum sepib ko'rmagan odamlarga sholi bilan paxta ektirish — yerni zo'rlash bilan teng-ku. Huv boyagida Urga shahrini Ravshanga ko'chirib olib borib,

jafo tarqamay sholi ektirib nima barakat topdik? Besh-olti telejka olgan sholining sadag'asi ketayin, quruq suv haydayverib, yerning quvvatini qochirdik, dengizga suv yetmay Oroldan ayrilib qoldik. Zo'rlikning oxiri yaxshilikka olib bormaydi... Agar xalqning farovon yashashini, bandligini o'ylasang, anovi Ustyurtdagi qurilishlarning boshlig'iga ayt, bizning bolalarni o'qitib, o'zlarining kasbiga o'rgatsin. Hozir qarasang, oddiygina "ko'tar-ko'tar", "uni obke, buni obke", degan xizmatlarga ham allaqaysi yurtlardan odam opkelib ishlatib qo'yibdi. Nima, shularning qilgan "ko'tar-ko'tar" ishlarini o'zimizning yigitlar qilolmaydimi?

Shunda odamlar olag'ovur ko'tarib, Tilaganni yoqlab, hokimning Nukusga yaxshi ko'rinish uchun paxta ekaylik degan tashabbusiga qarshi chiqqan edi. Shundayam, hokim hokimligini qilib, chorvador ovullarga tajriba uchun o'nlagan tanob yerga chigit septirib, kuzda to'qqiz sentner paxta terib oldi. Uning terimi ham qiyin bo'ldi. Avvali shanbalik deb aytilib, odamlar chin ixlos bilan bir marta terib chiqdilar... Yana bir haftadan so'ng qarasalar, otiz xuddi chag'alaylar qo'noqlaganday yana ochilib turibdi! Yana shanbalik chaqirildi. Yana bir telejka paxta terildi. Yana bir haftadan keyin chaqirilgan shanbalikka ovul oqsoqoli bilan hokimlik vakillaridan boshqa hech kim kelmadi... Ular uylarni oralab ham ko'rishdi, biroq baliqchi, chorvadorlar: "Bu paxta deganing bo'lmaydigan narsa ekan, bir terib chiqdik, tovsilmadi, ikkinchi marotaba terib chiqdik, yana tovsilmadi, endi, yana uyalmay-netmay qaytadan ochilib turganini qara", deyishdi. Vakil:

— Bul hokimning topshirig'i edi, — deganida, odamlar:

— Hokimga paxta kerak bo'lsa, o'zi tersin: manov to'rt telejkani to'ldirguncha it azobini ko'rdik-ku, — deb baqirishdi. Oxiri vakil ovuldagi maktabni yoptirib, muallimlar bilan o'quvchilarni uch hafta terimga bosdi. Xullas, shu yili Mo'ynoqning bor-yo'q undirgan paxtasi bir yerga tog'day bo'lib uyilgani bilan, o'lchab chiqilganda o'ttiz uch tonnadan oshmadi... Endi buni nima qilamiz, deyishib, Sho'raxon degan joydan usta paxtakorlardan odam chaqirtirishgan edi, u kelib: "Barakalla, gektaridan yetti sentner hosil olibsizlar. Bunday hosil olgan dehqon ochdan o'lmasa ham, bankrot bo'lishi aniq. Sizlarning omon qolganlaring-

ga shukur", — deb ketdi... Hokim biladiganlarga cho't qoqtirib ko'rdi: mo'ynoqning paxtasidan chiqadigan tovardan tikiladigan ko'ylak Antarktidada undiriladigan paxtadan ham qimmatga tushadigan bo'lib chiqdi! Hokim bu hisob-kitoblarni Nukusdagi oqsoqolga yetkazib edi, "o'sha dalalarga paxta ekmasang, Orolqumga o'zingni ekaman", degan tanbeh eshitib chiqdi. ...Shunaqa gaplar bo'lib o'tganidan xabar topgan Tilagan qariya hokimni ayab ketdi.

* * *

O'tagan hoji tabarruk safarlarga borib kelganidan beri obro'-e'tibori, dong'i butun Mo'ynoq, Qo'ng'irot tomonlarga yoyilib, Ustyurtdagi cho'ponlardan ma'raka-lozimlarga chaqiriqlar ko'paydi. Nikoh, janoza, osh-sadaqalarni hoji bilan kengashmasdan turib o'tkazmaydigan bo'ldilar.

Shu orada Bulanlidagi masjidning qurilishidagi dovning janjalga aylanib ketgani ayniqsa chatoq bo'ldi. Masjidni tadbirkor farzandlarining puliga hajga borib kelgan bir kampir soldirgan edi. Minora tepasidagi allaqanday arabcha yozuvmi, naqshmi, haytovur nimasidir Nukusdan kelgan komissiyaga yoqmay qolibdi. Uni buzib, boshqatdan to'g'rilab yozinglar deyishibdi. Komissiyaning qarorini ovul mardumlari bilan Nukusdagilar ham qo'llab-quvvatlabdi. Kampir ham anoyi emas ekan, komissiya bilan hokimlikdagilarni ham qo'shib sudga beribdi. Qo'ng'irot sudi uzoq vaqt bu voqealarni muhokama qilib-qilib, bechora kampirga jarima solibdi, "masjidni qurgan odamning o'zi buzib, qaytadan qursin" deb qaror chiqaribdi...

* * *

Biroz yillar burun Mo'ynoqda "Berdaqning haykali qay tomonga qarab turishi kerak?" degan masala ko'tarilgan edi.

Buyuk bobomizning yubiley to'yi oldidan Mo'ynoqda yangi solingan teatrga Berdaqning nomini qo'yib, teatr oldidagi maydonga Berdaqning tikka turgan haykalini, ol, avvalgi Berdaq nomli maktabning oldiga esa dutor chalib o'tirgan haykalini o'rnatish haqida qaror qabul qilingan edi. Teatrning chaqqon, basavlat di-

rektori quvonganidan haykalni bir suyib, haykaltaroshni bir suyib, yodgorlik o'rnatilgan kuni qo'chqor so'yib, to'y-sadaqa tarqatdi, mo'ylovli haykaltaroshga qoraqalpoqcha milliy chopon yopdi. Dastur bo'yicha yodgorlikning ochilish tantanalariga Toshkentdan, Nukusdan, Qo'ng'irotdan muhtaram mehmonlar chaqirildi.

Dasturxonga choydan avval araq qo'yilgan edi. Shishalarga yaltoqlanib-tamshanib o'tirgan haykaltaroshga choynak olib kelganlarida, u qaptalida o'tirgan odamga qarab: — Araq turganda choy ichib, ahmoqmizmi? — dedi hazil aralash to'ng'illab.

— Hozir quyaman, — dedi mehmon ham chaqqonlashib. — Avvalo oqsoqolning oldidan o'tib olaylik...

So'ng tovushini ko'tarib imomga qaradi-da: — Oqsoqol, uzoq yo'ldan chang yutib kelgan mehmonlarga qittay-qittay... changni yuvish uchun quysak, qalay bo'larkan? — deb so'radi.

— Juda ma'qul-da, — dedi hoji haykaltaroshga qarab qo'yib. — Berdaq bobomizning to'rqali[1] to'yida har qanday sadaqayam to'yga aylanib ketadi, hammaga teng quyavering... Shoir-yorug'likning kitobini yetti marta o'qib chiqqan odamga jannat yo'li ochiq deyishadi. Dastlabki tilakni Berdaq otamizning ulug' ruhi uchun oling... Iloyo, ruhlari shod bo'lsin...

Imomning o'zi qo'llab-quvvatlagandan so'ng boshqalarga ne turish, o'zaro qadah urishtirishlar bilan ma'raka qizib ketdi. Ko'pning orasidan quvroq bittasi chiqib, shunday dedi:

— Iloyim do'stligimiz orasidan qil o'tmasin deganday, tostlarimiz orasidan ham qil o'tmasin, quy, hay bola!.. — dedi. Izlizidan ichilayotgan araq ta'sir qila boshladi shekilli, bora-bora chetdagilarning g'ovur-g'uvuri ko'tarilib, yevropachalab (ya'ni tilak eshitib) ichishni ham kutib o'tirmasdan, har kim xohlagancha ichaverishga o'tdi... Lekin hammaning g'ovur-g'uvurini, shod-xurramligini oldiga qo'chqorning kallasi kelganda O'tagan hoji buzdi.

— Sizlar bir narsaga e'tibor berdingizmi, yigitlar? — dedi u salmoqli turda. — Dunyodagi barcha haykallar yuzlarini qiblaga qaratib turadi, ol, bizning Berdag'imiz nega orqaga qarab turibdi?

---

[1] **To'rqa** — qimmatbaho ipakning bir turi. To'rqali — bu yerda oliy darajadagi, ulug' degan ma'noda.

Hamma hayron bo‘lib bir-birlariga qarashdi. Hatto teatrning chaqqon direktori ham churq etolmay qoldi.

— Sadag‘ang ketayin Hoji degan, hamma narsani biladi-ya, qiblaning qayoqda ekanligigacha... Bobomizning qayoqqa qarab turganiga hech qaysimiz e’tibor bermabmiz-da, attang?! — deb, jimlikni buzdi boyadan beri imomning kalishini to‘g‘rilab yurgan bir o‘tog‘asi[1].

— Xudoning o‘zi ko‘kragiga solib turadi hojilarning, — deb qo‘llab qo‘ydi uni yana bir qariya.

— Berdaq bobomiz dengizdan chiqqan odam, u dengizga to‘g‘ri qarab turibdi-ku, dengiz orqa tomon (shimol)da joylashgan bo‘lsa, ilojimiz qancha? — dedi tarixchi.

— Berdaq bobomizning “Dengiz balig‘in bermadi” deb zorlangan she’ri ham bor. Berdaqning oroldan baliq so‘rab, dengizga qarab turgani yaxshi bo‘lgan... — dedi adabiyot o‘qituvchisi.

— Shu oydin-shalqar Orolqumda Berdaqning qayoqqa qarab turgani baribir emasmi?

Yo‘q yerdan yana olag‘ovur boshlandi. Jamoat uchga bo‘linib, biri haykalning shu turishida turishini ma’qullasa, ikkinchi bir guruh uni ortiga burib, qibla tomonga qaratib qo‘yish kerakligini aytadi.

— Buning nimasini dovlashib o‘tiramiz? Mana Berdaqning haykalini yasagan haykaltaroshning o‘zidan so‘rab ko‘raylik-da...

Haykaltarosh o‘tirgan joyida tili kurmalanib:

— Rostini aytganda otamizning qay tomonga qarab turishi men uchun baribir, tek uning yuziga yorug‘ tushib tursa bo‘ldi... Hov, tost sovub qolayapti-ku, quymaysizlarmi? — dedi-da, atrofni mast ko‘zlari bilan chalib, shilq etib tushdi. So‘ng uni hech kim silkalab ham, turtkilab ham uyg‘ota olmadi.

— Qo‘y, qo‘ya-g‘oy, bola, kuni-tuni tosh yo‘nish osonmi? Buning ustiga yo‘l ham charchatgandir, paqiray... Men boya aytdim-ku, yorug‘lik qibladan ko‘proq tushadi, sababi quyosh qiblada... — dedi O‘tagan hoji. — Shuning uchun bobomiz qiblaga qarab turishi lozim...

---

[1] **O‘tog‘a** — oqsoqol, hurmatli shaxslarga nisbatan aytiladigan so‘z.

— Shunda qalay, kinoteatrni ham Berdaqning ortiga ko'chiramizmi? — cho'chib ketdi qurilish boshlig'i.

— Ko'chirish shart emas, Berdaqning o'zini sal qiyalatib qo'ysak bo'lgani, To'qpoq ota tomonga sal... Qibla To'qpoq otaning naryog'ida-ku.

— Pay-pay, gap bilaman deb gapiraverasizlar-da, shunda qalay, Berdaq bobomiz teatrga kim keldi, kim ketdi deb qarab turadimi, shu turishida turavergani yaxshi edi-ku...

— Shu turishida u orqaga — dengizga qarab turibdi-ku...

Shu payt uyg'onib ketgan haykaltarosh:

— Shu qibla deganlarini shim... shim... shimolga o'zgartirsak nima qiladi? — dedi-yu yana qaytadan shilq etib tushdi.

* * *

Yoshi anchaginaga borib qolgan O'tagan mulla so'nggi paytlarda o'zining yengil hojatga chiqishi og'irlashib qolayotganini ko'pchilikdan sir saqlab, sezdirmaslikka harakat qiladigan bo'lib qolgan edi. Lekin qayerda sharillab suv oqib tursa, uni ko'zi bilan ko'rib qolsa yoki qulog'i sharillashni eshitib qolsa, darhol yengil hojatga chiqqisi kelib qolishi doimiy odatga aylanib qolmoqda. Hatto, mehmonlarning qo'liga suv quyish uchun qumg'on ko'tarib kelayotgan bolani ko'rsa ham, buning hojati qistab, "men bir shamollab kelmasam bo'lmaydi" deb irg'ib tashqariga chiqqisi kelib qoladi, biroq intilib hojatxonaga yetib boraman deguncha, ichidagi shitob pasayadi-da, endi ichkariga kirib borishni qulaysiz ko'rib, u-buga biroz alahsirab turgan bo'ladi, biroz suv oqizib, qo'lini yuvib tursa, yana o'sha ichdagi suv shitob qo'zg'alib hojatxona tomonga qarab yurgisi kelib qoladi... U o'zining bu beandisha, bema'ni odatini o'ziga yaqin odamlarga aytib, maslahat qilib ko'rgan edi, har kim har xil yo'l-yo'riq aytgan bo'ldi.

— Hoji aka, balki qovug'ingning manjeti ketgandir? — dedi umri bo'yi qayiqning matorlarini ochib-yopib yurgan bir jo'rasi.

— Manjeti nimasi, ahmoq, bu kasalni ilmda prostata deydi, — deb aniqlik kiritdi biologiya muallimi.

— Sening ilm-faning nom qo'yishdan boshqani bilmaydi. Juda bilag'on bo'lsang, ayt qani, uni qanday qilib davolasa bo'ladi?

— Uning davosi yo'q, — dedi biolog O'taganning yuragini shuvullatib. Yaqin Sharqdagi O'lik dengizida cho'milish, uning ham yahudiylar tarafidagi sohilida cho'milish — prostataning mingdan biri emish...

— O'tagan, sen nima, sho'r suv topolmay, cho'milolmay yuribsanmi? O'lik dengiz o'lgan bo'lsa o'lgandir, hozir nima ko'p — o'zlarimiz quritgan Orolning balchiq sho'rsuvi ko'p-ku, — dedi motorchi.

— Hay, sening qoqiriqday miyang bilan ilmning orasida osmon bilan yerday farq bor. Prostata deganlari sening fahmingdagi prokladka emas!

— Hoy olimsimoq, sen o'qigan kitobni men ham o'qiganman. Umring bo'yi "odamlar maymundan tarqalgan" deb yurgan eding, hozir Internetda "odamlar odamdan tarqalgan" deb yozayotir...

— Yaxshi qo'yinglar endi bu janjalni, — dedi anchagina ushlanib qaytib kelgan O'tagan. — Undan ko'ra, o'sha O'lik dengizda cho'milib, prostatadan sog'ayib kelgan odam bormikan, shundan gapiringlar...

— O'sha dengiz yoqasida qandaydir botqoq borga o'xshaydi, shu botqoqdan a'zoyi-badaningga yopib yotsang, yetmish ikki tomiring balqib ketarkan-da, manov ahmoqning manjet deb o'tirgan prostatitdan a'zoyi badaningda iz ham qolmaydi deyishadi... — dedi biolog.

— Sen olisga borib nima qilasan, avvalo manov o'zimizning Qoraumbatning tuziga tush, so'ng Orolqumdagi qumga tush, yetmish ikki tomiring ham balqiydi, miyang ham joyiga tushadi, — dedi motorchi.

Bu davom etgan tovsilmas dov siyosiy sergak Hoji og'ani ancha o'yga toldirdi. "O'zi hoji bo'lsa, borib g'ayridinlarning suviga cho'milib, botqog'iga botib yursa, mening obro'yimga munosib kelarmikan?" deganday o'ziga o'zi savol qo'ydi. Biroq savolga javob qayda?..

U o'shandan buyon kran yoki qumg'onli, xullasi sharillab oqadigan suvga qo'lini yuvmasdan, kichkina laganga iliq suv quydirib,

qo'llarini shunga botirib-botirib yuvadigan odat chiqardi... Hoji og'a ushbu voqealarni eslab turganida, sirtdan "ovqat sovub borayotir, suzaveraylikmi?" degan xabar uchinchi marta keldi.

Ol, Berdaqning qay tomonga qarab turishi lozimligi ma'rakaning oxirigacha yechilmay qoldi-da, oxirso'ngi haykalni shu turishida suratga olish, Nukusdagi Berdaqni tadqiq qilaverib bittayam qora sochi qolmagan akademikdan so'rab ko'rish kerak degan qarorga kelindi. Shu orada, odamlarning ko'kdan izlagani yerdan topilganday, eshikdan o'sha nukuslik akademikning o'zi tuman hokimi bilan birga kirib keldi. Hokim kelsa, yana uning yonida akademik bo'lsa, endi ular bilan jag' urishtirib bo'ladimi — hamma hayron bo'ldi va jimjit bo'lib qoldi. Lekin, akademik erta davrlarda, huv bolalik chog'larida Hoji og'alar bilan maktabda qator o'qigan ekan, ikkovi apoq-chapoq ko'rishdi...

— Hov, bizning Mikelanjelo Rafaelovichni nima qildinglar, shilqiyib qolibdi-ku, — dedi akademik haykaltaroshning xurragiga quloq turib.

— Xalq bilan qator ichib o'tirgan edi, ko'tarolmaganga o'xshaydi, tiliyam gapirishga kelmay qolgandi... — dedi kinoteatr direktori.

Endi ma'rakadagi rahbarlik imomdan akademikka o'ta boshladi. Hokim uni o'zining o'ng tomoniga o'tirishga taklif qilgach, mehmonning obro'yi ortgandan ortib ketdi.

— Qani, mullaka, sizni xudoning o'zi kechirsin, manov ziyofatni boshqarib o'tirgan ekansiz, davom etavering endi, — dedi akademik imomga qarab.

— Yo'q-yo'q, o'zingiz davom ettiraverasiz bu yog'ini — dedi hoji og'a o'ta kamtarinlik bilan. Ularning bir-biriga muloyimlik ila qilayotgan mulozamatlari hokimni ham ilhomlantirib yubordi:

— Ol, oqsoqollar, hammamiz ham mana shu Mo'ynoqdan chiqqan Orol farzandlarimiz-ku, sabab bilan mana shu Berdaq bobomizning ma'rakasida bosh qo'shib, birga to'ylayotgan ekanmiz, shu o'tirishni kelgan joyidan davom ettiraversak, nima deysizlar?

Hokimning bu taklifi yoqsin-yoqmasin, hammaga ma'qul keldi-yu, gashtak qaytadan boshlandi. Qadahlar qaytadan to'ldirilib, to'qishtirildi, izma-iz tostlar aytildi. Shu orada akademikning ko'zi piyoladagi choyni urishtirib o'tirgan hoji og'aga tushdi.

— Ye-iye, mullaka, siz nima quruq choyni urushtirib o'tiribsiz? Axir araqning nargi boshi ham dondan chiqqanligini bilasiz-ku, ora-tura qiblaga ters qarab turib qoqib yuboradigan odatingiz bor deb ham eshitganmiz...

— Ay, qo'yganmiz-ku u odatlarni, qo'ydik, qo'ydik.

— Qo'ysang-chi, qo'ysang qo'yibsan-da, bizlar shuncha yerdan ot choptirib kelib o'tirsak, sen bizni siylashing kerak emasmi?

— Ey, yo'q, menga mumkin emas...

— Shishadan qultullatib quya boshlagandan Hoji og'aning maydonlagisi kelib qoladi, manjeti ketgan buning... — hazillashmoqchi bo'ldi motorchi jo'rasi.

— O'tirsang-a tinchgina, do'zaxi!.. — achchig'i keldi Hoji og'aning.

— Ay, mayli, bizniki bir hazil gaplarov, — boyagi gaplarini yuvib-chaya boshladi akademik. — Axir musulmonchilikning ulug' farzlarining birini bajargandan keyin, uning uvol-savobiga ham javob berish kerak.

Hokim oqsoqollarning bu hazil-dalkaklari oxiri chinlashib ketmasin uchun, gapning boshini burdi:

— Endi, oqsoqollar, qoraqalpoqning Berdaq bilan Ajiniyozidan o'tadigan cho'qqisi yo'q. Berdaqning bu to'yi xudo berib mustaqilligimiz davriga to'g'ri keldi. Endi bu ma'rakani butun dunyoni lol qilguday ajoyib o'tkazishimiz kerak, ayniqsa uning tug'ilgan yurtida — Mo'ynoqda. Xudo xohlasa, ertaga kinoteatr oldida qo'yilgan yodgorlikni ochamiz... Katta majlis, katta tantanalar bilan o'tadi, katta-katta odamlar nutq so'zlaydilar. Jumladan, akademik oqsoqolimiz ham qotirib ma'ruza qiladilar...

— To'xta, to'xta, inim, ma'ruzani men emas, Berdaqni mendan ko'ra yaxshiroq biladigan olimimiz qiladi. Ol, men majlisning ochilishida o'zimning nomimdan qutlov so'zi gapirsam — shu yetarli. Nukusda maslahat qilib, shunday qarorga keldik...

— Bo'ldi, bo'ldi, oqsoqol. Nukus shunday degan bo'lsa, hammasi amalga oshadi, — dedi hokim gapni tamomlab.

— Aytmoqchi, oqsoqollar, shu ma'rakaga daxldor maslahat qilib oladigan gap chiqib qoldi, — dedi teatr direktori goh hokimga, goh akademikka yaltoqlanib. — Manov teatrning oldiga yodgorlik

o'rnatib qo'yganmiz. Ertaga shu haykalning ochilishi bo'lib o'tadi. Haykalning orqa tomonga — dengizga qarab turgani ko'pchilikka yoqmayapti. Shuni akademik oqsoqoldan so'raylik deb maslahat qilib o'tirgan edik. Xudoy haydab, mana o'zingiz kelib qoldingiz. Berdaq qibla tomonga — Ka'batullohga qarab turishi kerak, deydi Hoji og'a. Berdaq — dengiz farzandi, uning orqaga — shimol tomonga qarab turishi durust, deydi boshqalar. Shuni bir aniqlab bersangiz...

— Himm! — deb o'yga cho'mdi akademik. Uchib yurgan chivinlar ham dasturxon atrofiga yaxshilab qo'nib, o'ziq o'yli fikr egasining gapidan g'ofil qolmaylik deganday tinchib qoldilar. Tinchlikni akademik buzdi:

— Meningcha, bir yog'idan uning shimolga qarab turgani durust, sababi chekinib ketgan dengizimiz qaytib kelarov degan umid paydo qiladi. Ikkinchidan, uning qiblaga qarab turishi kerak degan gapida ham jon bor. Sababi, ulug' shoirimiz aytganday, "Orqamizda oqsoqolim Moskva..." degan zamonlar o'tib ketdi, hozir mustaqillik zamoni... "Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq" degan donolarning biri...

— Hay jo'ra, donolarning so'zlarini aytsam — dono sanalaman deysanmi? Hov, kecha "Berdaqning ateistik ko'z qarashlari" degan kitob yozib kandidat bo'lganing, endi mustaqillik deb, bechora bobomizni Qoraqum eshondan ta'lim olib, shoir bo'lgan, so'fiy deb yozganlaringni hamma biladi-ku, — dedi kuni bilan unsiz o'tirgan Hoji og'a negadir hozir birdan ovozini qattiq ko'tardi. — Sendan odamlar "Berdaqni qay tomonga qaratib qo'yaylik?" deb so'rayapti, shimolgami, qiblagami?

Hoji og'a olimning hazil aralash gaplariga boyadan beri zo'rg'a chidab o'tirgan ekan, uni yerdan olib o'tga tashalaganday qildi. Lekin akademik baribir jo'rasining betga aytgan haqiqatlaridan qandoq chiqib ketishning ilojini topganday bo'ldi.

— Poh, jo'ra, boyagi hazillashib aytganlarimga qattiq o'pkalagan ekansan-da, men jo'ram hazilimni ko'tarar deb, aytaqolgan edim. Bo'lmasa men sening hojiligingni manov akademik boshim bilan toshtepamga ko'taraman-ku!

Hoji og'a sal pastiga qaytdi.

— Sen, jo'ra, hazillashaman deb, o'yingdagilarni menga tekkizib aytganing malol keldi. Menga ichkizib kulli gunohga botayin deb bir qolding. Eski hadislarda "Ichganda gunoh yo'q, ichkizganda gunoh" deyilgan...

— Poh, poh, poh! Kuni kechagina partkom bilan, "Marks uchun bir olib qo'yaylik", "Lenin uchun bir olib qo'yaylik", "Brejnev ham quruq kaft bo'lib qolmasin" deb, dohiy qoldirmay, nomini tostga qo'shib yurarding... Mana endi, oq mullang chiqib... Aytmoqchi,bu ham mustaqilligimizning sharofati — partkomdan mulla chiqargan...

Tortishuvga hokim aralashuvga majbur bo'ldi.

— Oqsoqollar, so'zlaringizni ham, o'zlaringizni ham el siylagan yoshullilarsiz. Mayda gaplarni qo'yib, ma'rakamizning maslahatiga o'taylik...

— Shu Berdaqni orqaga ham, qiblaga ham qaratmasdan, osmonga qaratib qo'ysak nima qiladi? — dedi yana bir mast odam.

— Qo'ysang-chi, qayoqdagi gaplarni aytasanay! — deb tomog'ini qirdi akademik. — Osmonga qaratib qo'ysang, uning yuzini kim ko'radi? Pastga qaratib ham bo'lmaydi, ko'rganlar: "bu paqirning nima aybi bor ediki, boshini tik qarata olmasday?" demaydimi odamlar? Avlodi to'rt sahroning qurshovida qolganiga ota-bobolari aybdorday bo'lib qoladi-ku. Undan ko'ra, Berdaqni odamlar oz boradigan boshqa bir yerga ko'chirgan ma'qul...

Bu gap hokimga xo'b tushdi.

— Berdaq menimcha hokimlikning oldida turgani ma'qul. U shimolga ham emas, qiblaga ham emas, tikkalay xalqqa qarab turadi.

— Hov, unda manov teatrning oldiga nima qo'yamiz?

— Ajiniyozni qo'yaylik! — dedi uyqusidan chala uyg'ongan haykaltarosh gapga aralashib. — Men o'zi ertarakda Ajiniyozning ham haykalini ishlab qo'ygan edim, shuni... shuni ham qo'yaylik, Vatan uchun gonorar so'ramayman...

— Barakalla, azamat! Ajiniyoz ham Mo'ynoqning farzandi. U Berdaqdan ham savodliroq, — deb ma'qulladi akademik.

— Qancha ichgani bilan boshi ishlar ekan manovi haykaltaroshning...

"Berdaq qayoqqa qarasa shu yoqqa qarasin, lekin xalqining or-nomusini ko'tarib, she'rlarida kuylagani uchun uni hokimlikning oldidagi avvalgi proletariat dohiysining o'rniga qo'yish kerak" degan qarorga kelib, gashtak tarqadi.

* * *

Qariyani Nukusga chaqirtirib, o'g'li "samolyotda keling yo vertolyot yubortiraymi?" deganiga qaramay, u "el oralab borayin" degan o'y bilan yo'lmoshin qaradi.

Tilaganning birozdan beri Nukusga yo'li tushmagan edi.

"Yopirimay! Ko'zni ochib-yumguncha, bunchalik o'zgarib ketganiga qara!" "Agar kuyov bola Ko'naqal'ada moshini bilan kutib olmaganida, uning uyini topib borish ham noma'lum bo'lar edi..." — deb o'ylab keldi u yo'l-yo'lakay.

Uni vertolyot bilan Qiziljardan oldiraman degan o'g'liga: "Mening bitta o'zimga shuncha isrof, shuncha dabdabaning nima keragi bor? O'zim el ko'rib, yer ko'rib boraveraman", — degan edi u siypalama telefondan. Otasi bir nima dedimi — bo'lgani ekanini yaxshi biladigan o'g'li ortiqcha zo'rlab o'tirmadi.

Ota-o'g'ilning ochiq suhbati kechqurungi choy ustida o'tdi.

— Og'a, hozir zamon boshqa. Dunyo soat sayin o'zgarib turibdi. Agar biz dengizni o'zimiz sotib olmasak, ertaga undan butunlay ayrilib qolishimiz mumkin...

— Dengizning egasi o'zimiz bo'lsak, uni qalay, kimdan sotib olamiz?

— Og'a, siz o'tgan asr odamisiz, tushunmaysiz, sizlarning zamoningizda unday bo'lmagan. Endi mustaqillik olganimizdan so'ng ko'zimiz ochilib, dunyoga qarasak, dengizlar, orollar ham, daryolar ham, hatto anovi oyning yuzidagi dog'lar ham sotilayotir... Iliq dengizlarning sohillari barchasi deyarli xususiy mulkka aylanib borayotir.

— Qo'ysang-a, qayoqdagilarni bilchillama... (vaysama).

— Hov, og'a, illo-billo, sotilayotir. Manov o'zimizning Qoratovning marmar toshlari, mis va talk karerlari, tuz, gaz, neft konlari ham allaqachonlar sotilgan...

— Ol, shunda dengizning bahosi necha so'm?

— Endi uning chiqarilgan narxi yo'q... Auksionga solinib, kimoshdi savdosi bilan bahosini falon so'm deb narx belgilanadi-da sotilaveradi.

— Uni kim sotadi?

— Mulkning egasi sotadi.

— Mulkning egasi kim?

— Mamlakat.

— Mamlakat, nima, so'ramay-netmay sotaveradimi?

— Sotmaydi. U manov yerlarni uzoq muddatga ijaraga berganday, boshqa yerlarni ijaraga beradi. Ijara haqi qancha qimmat bo'lsa, budjetga shuncha ko'p mablag' tushadi... Agar ijara haqini to'lab, yerni sotib olgan odam o'zining shartnomadagi vazifalarini bajarmasa, hukumat yerni qaytib oladi-da, o'rtada to'langan pul kuyib ketadi. O'sha mablag' xalqning kerak-yarog'iga (muhtojiga) sarflanadi, farovonlikni ta'minlaydi.

— Ijara-pijara deganingni tushunmadim-u, sen o'sha dengizni Ustyurt bilan qo'shib olib nima qilmoqchisan?

— Ustyurtdan qazilma boyliklar izlaymiz, ol, Orolning sohillariga kurort quramiz...

— Odam yo'q joyda kurortga balo bormi?

— Anovi burungi maxfiy harbiy aerodrom bor edi-yu, shuning uchib-qo'nadigan yo'llarini qaytadan o'nglatib (ta'mirlatib) ulkan-ulkan samolyotlarni qo'ndiraman. Anov Moskvaga boradigan temiryo'lni Arnasoyni yoqalatib, Jizzaxdan Mo'ynoqqa to'g'rilatib, narigi tomonini Oqtumshuqdan o'tadigan qilaman... Xudo xohlasa, o'n yilning ichida Ustyurtdagi Oqtumshuqni tanimay qolasiz.

— Hay-hay-hay, bolamov, unda manavi Ustyurtda qishlaydigan, tabiiy tug'uriqxonasi Ustyurt bo'lgan sayg'oqlarning holi ne kechadi? Gazga to'g'on (to'ngg'irtqa? Bo'g'ov?) solinib, temiryo'l bilan asfalt yo'llar qurilib, boyoqishlar uch xil to'siq ichida qolib qo'ydi, anovi dasht-u cho'llardan odam o'tmasin deb kerib qo'ygan simto'rlaring — to'rtinchi to'siq. Hozir sahroni boshdan oyoq kezib, keng yoyilib yotgan Ustyurtdan boshi butun birorta sayg'oq topolmaysan. Bu jonivorlar burunlari qo'ramizdagi qo'ylar bilan qo'shilib o'tlardi...

— Poh, og'a, shungayam boshingizni qotirib o'tirasizmi? Sayg'oqlarni mendan avvalgilar quritib tindi-ku. Men, aksincha, sayg'oqlarga xovandorlik (g'amxo'rlik) qilmoqchiman...

— Avvali quritib tashlab, so'ng qilgan xovandorligingdan nima foyda bor?

— Sayg'oqlarni asrab-saqlashga bir million gektar yer ajratamiz, o'zimizda "qizilg'oz" deb ataladigan flamingo qushlari uchun Suvanli ko'llarini qo'riqxona qilishni mo'ljallayapman.

— Sayg'oq ham, qizilg'oz ham Orolda muqim yashamaydigan jonivorlar. Ular uchadi-qo'nadi, boradi-keladi, ketadi... Sizlar bundan ko'ra Orolga suv keltirishni o'ylamaysizlarmi? Avvalo odamlarni o'ylasang bo'lmaydimi? Boyagida "Sibir daryolarini olib kelamiz", degan gaplar bor edi, ular ham girdobga g'arq bo'ldi-ketdi...

— Og'a, bizlar nima qilsak ham odamlar uchun qilayotirmiz. Birinchi navbatda odamlarni ichimlik suvi bilan ta'minlaymiz, so'ng boshqa narsa bo'lsa, ko'raveramiz...

* * *

Zuhra oshxonada qora choy damlash bilan kuymalanib yurganida to'ng'ich nevarasi yugurib keldi:

— Buvi, buvi! Hozirgina televizordan savol berishdi, javobini topsangiz Nukusda bo'ladigan "Topqirlar, epchillar, ziyraklar"ga chiqaramiz, deyishdi!

— Nima savol ekan?

— Yigitning bo'yniga bir ilon osilib olarkan-da, so'ng butun tanasiga o'ratilib olarkan-da, uni bir quroli bilan himoya qilar ekan. Ikki so'zdan iborat deyishdi. Bu nima ekan?

— Men qaydan bilay, bolam? Otangdan so'ra, u yigit bo'lganku bir paytlar...

Otasi tong otar-otmas dengizga ketgan edi. U kechqurun qaytib kelganida nevara savolni unutgan edi. Biroq Zuhra unutmadi... Tunda choliga tiqilib yotar ekan, Zuhra uning qulog'iga shivirlab, nevarasining savoliga javob so'radi. Tilagan o'ylanib yotib-yotib, kampiri tomon ag'darildi:

— Poh, topishmoq bo'lganingga... Boyagi, yoshlikda bo'ynimga osilib, qaptalimdan o'tgan qizil shuberekli qizdan meni rashk qilib, qizg'anib yurganlaringni unutdingmi?

— Shunda nima, men — ilon ekanmanmi?

— Televizordagilar sandiraqlayveradi... Savolning javobi — muhabbat bilan rashk. Ilon deganing sirtdan qaraganda tusi sovuq ko'rinadi, ol, u o'ziga o'zi tusi sovuq ilon emas. Uyam xudoning yaratgan sup-suluv, ajoyib bir maxluqi...

O'zaro shivir-shivirlar g'ala-g'ovurga aylanib borayotganini anglagan To'lagen kampirini qattiqroq quchib tinchlantirdi.

* * *

Omonxona. Tabinboyning kampiri bilan Boysun tog'larining etaklaridan chiqib turgan buloq boshidagi shifoxonaga kelgani kechagina edi, bugun qarasa, shungayam hafta bo'libdi. Umr o'zi, yorug'lik, yildirimday jilislab (olislab) qanot qoqib borayapti...

Aslida, shifoxonaga yo'llanma bir odamlik edi. Tabinboy "kampirim bormaydigan bo'lsa, men ham bormayman" deb turib oldi. O'jar qariyaning hirsligini yaxshi bilgan tuman hokimi bu bahsga aralashib, cholning ginalarini tarqatib yubordi:

— Juft o'rinlik yo'llanmaga buyurtma berishmagan ekan manov bolalar. Sizning qirq yillik kampiringiz bilan doim birga yurishingizni bilmagan-da bu yoshlar. Kechirasiz endi, oqsoqol. Xohlasangiz, Zomin, Oqtosh, Xumson degan ajoyib shifoxonalarga yo'llama bor, almashtirib ketaverasiz...

— Yo'q! — dedi Tilagan. — Mening-ku olib ketayotgan kasalim yo'q. Tek, anovi "Alpomish" dostonidagi ota-bobolarimizning Jiydali Boysun degan yerlarini ko'rib kelsam bo'ldi.

Mo'ynoqning hokimi Boysunning hokimi bilan tillashib, Tilaganning yo'llanmasini juft qilib berdi...

Boysunning hokimiyam azamat yigit ekan. Va'daga vafo qilib, shaharga kiraverishdagi Alpomish bilan Barchinoyga qo'yilgan yodgorlik oldida kampir va cholni kutib olib, Omonxonaga o'zi olib kelib joylashtirib ketdi. Odatda ko'p gapiravermaydigan Tilagan Boysunga kelib ochilishib ketdi. Kim ko'rinsa, qoraqalpoqmisan deb turadi. Ba'zilari bilmaymiz deganday iynin qissa, ba'zilari

"bizlar — qo'ng'irotmiz, Alpomishning urug'laridanmiz", deyishadi. Maydalab urug' so'rashib, masala urug'-qabilaga, tiyra (toifa)ga taqalganda, barchasi deyarli bilmaydigan bo'lib chiqdi. So'ng ovul odamlari uni "urug'-toifaning barchasini yaxshi biladigan" ovul oqsoqoli Norboy og'aga tanishtirib, tinchlandilar. Norboy og'ayam Tobinboyning urug'idan ekan, ikkovi qayta-qayta quchoqlashib, kechqurun dasturxonga qora qo'chqorning boshi keltirildi. Boysundayam, xuddi o'zimizdek, mehmonning qorasi ko'rinishi bilan qo'chqorni ko'tarib urib, tandir kabobdan so'ng palov yegizmasdan qo'ymas ekan... Farqi, qoraqalpoqda tandir kabobning o'rniga sho'rva beriladi.

— Ol, Norboy qo'shshim, shunday qilib, Boybo'rining ovuli qayerda deding?

— Manovi tog'ning narigi etagida, ol, Boysarining ovuli huv anov cho'qqini ko'rib turibsanmi, shuning naryog'ida deyishadi. Bizning dostonda ular og'ali-inili bo'lgan...

— Qo'ysang-chi, qayoqdagini aytasan, aka-uka quda tushganmi shunda?

— Alpomish — og'aning o'g'li, Barchinoy — inisining qizi.

— Bay-bay, uyatini aytsang-a, birov eshitib qo'ymasin...

— Eshitish nari tursin, baxshilar allaqachondan beri kuylab yuribdi-ku... Oqsoqol, bu erta zamonlardan qolgan doston. Ota-bobolarimizdan qolgan "Yaxshini yotga yuborma", degan gap ham bor-ku.

— Bu durust chiqar, biroq bizlarda urug'dosh odamlar bir-biri bilan qiz olishmaydi.

...Cholining uzun-chuvay hangomasidan zerikkan Zuhra:

— Sizlar o'tiravering, men bir aylanib-yurib qaytaman, — deb, sirtga chiqdi.

Tog'ning sof havosi bilan daraxtlar va gullarning sof hidlari aralashib, anqigan uzun-chuvay tepalik (dumpachiq) etagidan ucha-boshiga qadar o'rmalay joylashgan shifoxonada, Zuhraning ko'nglicha, tog'ning tepasiga bir pasda yetvoladiganday tuyuldi. Biroq u daraxtlar orasidan solingan so'qmoqdan yuqorilab, o'nlagan qadam otgan edi, charchab qoldi-da, shu yerda — qaptalda yog'och o'rindiqqa o'tirdi. Sal narida oq sallali, oppoq soqoli

ko'ksiga yoyilgan ozg'inlov bir qariya o'tirgan edi. Zuhra nafasini rostlab, nigohi bilan atrofni kuzatib, oxiri shu cholning oyog'i orasidan jilislab-siljib borayotgan ilonga ko'zi tushdi. Ilon oqchil-bo'yra rangda, chaqqon harakatli edi. U uch-to'rt qadamday yerdan ortiga qayrilib, qariyaga boshini chayqab turib, so'qmoqdan o'rmalab-bilanglab, ko'k maysalar orasiga kirib ketdi...

Zuhra ilonning sovuq turqidan seskanib, atrofga alangladi-da, choldan so'radi:

— Haligi ilon qayoqdan chiqdi?

— Mening qo'ltig'imdan... — dedi oq sallali oqsoqol.

— Ilondan qo'rqmaysizmi?

— Nimasidan qo'rqaman, — qaytarib savol berdi oqsoqol. — Uni chaqirsam, kelib qo'ltig'imga tiqilib yotadi.

— Yo Alloh, yo tavba! — deb yubordi Zuhra tovushlab. Yodiga nevarasi Sulaymonning bergan savoliga cholining aytgan javobi tushdi. "Muhabbat va rashk..." Qiz yigitni sevib qoldimi, bo'ynidan boshlab o'ralib, butun tanasiga chirmatilib, bir umr uni yot ko'zlardan, yomon so'zlardan qo'rg'ab yashaydi. Aytmoqchi, bu tuyg'u o'zining ham boshidan o'tgan-ku... Talay-talay uyqusiz tunlarni dengiz yoqasida kezib, oy bilan sirlashib, seviklisini to'lqinlardan so'rab o'tkazdi-ku.

— Sen dengizda yurganingda meni sog'inmadingmi? — deb so'rardi Zuhra Tilagandan

— Sog'indim, ovdan chiqarayotgan sazanni ushlaganimdayam xuddi seni siypalaganday bo'laman. Talpinib, sirpanib, qo'lda turmaydiyov, zang'ar... Xuddi sening o'zing...

Zuhra o'shanday lahzalarda yigitining quchog'ida balqib borayotganini sezmasdan, allaqancha vaqtlardan keyin o'ziga kelib, shu quchoqdan chiqqisi kelmay yotaverardi... Yoshlik ekan-da.

— ...Sizlar qayoqdan keldingiz? — so'radi tovushini ko'tarinkirab oqsoqol, Zuhraning qulog'ini og'irroq deb o'yladimi.

— Nima? Bir narsa dedingizmi? — Zuhra xayolga botganidan qisinib, ichidan "uyat bo'ldi-ku", deb shivirlandi.

— Qayoqdan keldinglar deyapman?! — baqiribroq gapirdi oqsoqol. Uning tovushiga huv narida o'tib borayotgan yigit bilan qiz yalt etib qarashdi.

— Mo'ynoqdan, Mo'ynoq! — dedi Zuhra ham tovushini ko'tarib.

Uzoqlashib borayotgan yigit-qiz bir-birlariga shivirlashdi: "muhabbat qartaymaydi dedim-ku".

— Mo'ynoq dedingizmi?.. Mo'ynoq... Termizni ko'rdim, Toshkentni ko'rdim, Mo'ynoqni ko'rmagan ekanman. Mo'ynog'ing qalay, bizning Toshkentdan zo'rmi?

— Zo'r, zo'r! — dedi Zuhra ichidan ko'tarilgan kulgusini bosib jilmaydi. — Men Mo'ynoqdan oltmish chaqirim olis ovulda turaman, bizlar baliqchimiz...

— U qayoqda o'zi?

— Mo'ynoq Orolda, Orol Qoraqalpoqda... Mo'ynoq — yarim-orolning egilgan bir ko'chasining ikki bo'yiga joylashgan ajoyib qal'a...

— Manov Toshkentdagiday yerning ostida yuradigan poyezd bor-ku, oti nima edi, Mo'ynoqda shu bormi?

— Metromi, metro yo'q. Metro qurayin desa, yerning ostida neft bilan gaz to'lib turibdi, qazsa sirtga chiqib ketarmish...

— Mo'ynog'ingda ilon bormi?

— Ilon bor, turli xilidan bor. Biroq chaqadi-ku ilon.

— Ilon degan jonivor qarab turib chaqavermaydi. U qandaydir bir jabr ko'rmasa, chaqmaydi — dedi oqsoqol, — ya'ni turtmasang, chaqmaydi.

— Uni bilamiz, bizda uydan ilon chiqsa, boshiga qatiq quyib, chiqarib yuboramiz... Ol, o'zingiz ilondan nega qo'rqmaysiz?

— Men manov Qumqo'rg'ondanman. Jumanazar ilonchi deb so'rasangiz, hamma biladi. Onam paqirning aytishicha, qo'ndoqlamasdan burun menga bir ilon o'ratilib yotgan emish. Ikki kun yonimga kelolmabdi, so'ng qarasa, yolg'iz yotgan ekanman, olib qo'rqa-qo'rqa zo'rg'a emizibdi.

— Shunda nima, chaqirsangiz ilon kelib, ket desangiz ketaveradimi?

— Ba'zan keladi, ba'zan aytganimni qilmaydi, kampirimga o'xshab... Ba'zan esa chaqirmasam ham kelaveradi.

— Qani, bir chaqirib ko'ring-chi, boya ketib qolganini.

— Endi u emas, boshqasi keladi.

— Sadoqatli emasmi?

— O‘sha, o‘zi keladi, biroq boshqacha bo‘lib keladi...

— Chaqiring qani...

Oqsoqol kaftini osmonga ko‘lagaylab qancha qaratmasin, havoga qancha uxlamasin, qanchalab yerga yalinganday tikilmasin, ilon chiqmadi, qorasi ham ko‘rinmadi...

* * *

Shu orada uyda gaplashishga gap qolmaganday, Tilagan bilan Norboy o‘zaro so‘zlarni chuvalatib, bular tomon kelayotgani ko‘rindi. Ular yechib bo‘lmas bir narsalarni dovlashib, birini biri ishontirgisi kelganday, yo‘l bo‘yi to‘xtab gaplashib kelishardi.

— Yangamiz chaqqonginami deyman, qara, bir cholni topib olibdi, — dedi Norboy hazillashib.

— Chaqqon, chaqqon, — dedi Tilagan rashkini ichiga yutib. — Biroq, inim, boyagi gap, shu Boybo‘ri bilan Boysarining og‘a-iniligi sira narxga sig‘maydi-da... Qanday qilib Alpomish o‘zining otadosh qarindoshiga uylanadi?

— Uylanmay nima qilsin, yaxshi ko‘rsa? Xuddi bugun, og‘a, internetga kirib ko‘rsang, Rossiyaning anov Uzoq Sharq degan tomonidagi yoqutlar orasidagi, dunyo yuzidagi tkerek degan xalqdan to‘rt nafargina qolibdi. Ol, ana shular, siz aytganday xalqini saqlab qolish shart bo‘lsa, saqlab qolishi uchunoq bir-biriga uylanmay nima qilsin?

— Tilimdan bog‘lading, inim, — dedi Tilagan. — Bizda nomi yer yorib o‘tirgan To‘lepbergen degan bir xalq yozuvchisi bor, kitoblarining sarlavhasiga qoraqalpoqni qo‘shib yozaveradi. “Bu nima, oqsoqol, iste’dodingning g‘altak ipi tugab boshladimi, kitoblaringning nomi bir-biriga o‘xshab chiqyapti” desa, u: “bilasanmi, shunday bir zamonlar kelayotir, bora-bora odamlar kitobni oxirigacha o‘qimaydigan bo‘ladi. Tek sirtidan nomini ko‘rib qo‘ya qoladi. Shunday vaqtlarda mening xalqimning nomi unutilib qolmasin deb, kitoblarimning barchasiga xalqimning nomini qo‘shib chiqaryapman”, — degan ekan.

* * *

Tilagan kampirining boshiga Qur’on o‘qitish uchun O‘taganni emas, Bulanlining imomi Mahsumni chaqirishni o‘yladi.

Maqsum og'aning oti — jo'ni Maxsim, sahro bilan dengizning tutashgan yerida, Orol sohillariga yoyilib ketgan Urga elatidagi, tuxumning (uralskiy)lar xonadonida tug'ilib-o'sgan, tuxumning sarig'iday, ko'zlari Qoraumbatning tuzi kabi Sergey Sergeyevichning suluvgina bolasi edi. Uning bu dunyoga chiqib ko'rgan-bilgani — bor-yo'g'i o'n besh chaqirimcha chiqadigan Urga elatining narigi boshidagi maktab bilan klub, ol, yuqoriga chiqsa — kengyoziq Ustyurt bo'ldi. Urgadagi uralliklar otamzamonlardan beri qoraqalpoqlar bilan aralashib, tomir-shatoq chatishib ketgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Maksimni ham ota-onasi qoraqalpoq sinfida o'qitdi. Maktabda o'qib yurgan paytidayoq nomi-ismi hammaga qulayli Maqsum bo'lib ketdi.

Uralliklar o'zlarining urf-odatlariga, salt-dasturlariga juda sodiq odamlar edi. Yigitlari uylandimi, darhol soqol qo'yib, ota-bobosiga o'xshab oladi. Lekin Maqsum soqol qo'yib ulgurmasdan urushga ketdi. Ketishga ketdi-yu, yurt qatori qaytmadi, urushdan qaytishi boshqacharoq bo'ldi. Yo'lda kelayotganida poyezddan bir o'zini tushirib qoldirib, "Vatan uchun o'ngli (yaxshilab) urishmaganga o'xshaysan, endi Vatan uchun foydali mehnat qil" deb, Sibirga yog'och kesishga yuboribdi. Shundan o'nlagan yil ushlanib, yog'och kesib keldi, deyishadi. Ovulda yolg'iz o'g'ilning yo'liga ko'z tikib o'tirib, u kelavermagach, bedarak yo'qolganlar ro'yxatiga kiritilgandan keyin, butunlay umidi uzilgan ota-onasi u dunyoga ravona bo'ldi. Endi uni ovulda intig'ib kutib o'tirgan odam qolmadi. Otameros chatma (kulba)ning to'zish vaqti yetib, u yaqin qo'shnisi, boyagi partadoshi Tilaganning oilasini panaladi.

Urgada baliqchilikdan boshqa talab, ish yo'q edi. Maqsum burungi ota kasbi — baliq qoqlash bilan shug'ullanib ko'rdi, lekin miltiq bilan arraga o'rganishib ketgan qo'llar buni kelishtirolmadi. Oxiri, Ustyurtga geologlar, burg'ilovchilar ekspeditsiyasi kelganini eshitib, Maqsum ham shularga borib qo'shildi. Ular yarimoy xizmat o'rinda yotib, yarim oy ovulga qaytib, vaxta usulida ishlardilar. Avvaliga oddiygina qoravul bo'lib ish boshlagan Maqsum vaqtincha yumushda bo'lmay qolgan odamlarning ham o'rnida ishlayverib, burg'ilovchilarning deyarli barcha ixtisosliklarini o'zlashti-

rib oldi. Oxir so'ngida burg'ilovchining yordamchisi darajasigacha ko'tarildi.

Vaxta almashgandayam Maqsum almashmaydi, shu o'zining birdaygi qoravulchiligini qilib yuraveradi. Qolaversa, so'qqabosh odam, uyida yo'liga qarab o'tirgan bola-chaqa yo'q.

Taqdir girdobi chirpirak qilib aylantirgan yigit Urgaga qaytganida elatda uning ulusidan odam qolmagan edi: uralliklar (uralskiylar) Orol yoqalariga qachonlardir to'p-to'p bo'lib kelgan bo'lsalar, urushdan omon qolganlari so'nggi yillarda o'g'lini Urimga, qizini Qirimga qo'ndirib, tarqashib ketgan edilar. Ol, Maqsum mahalliy xalqning zaifalariga qiya boqmadi.

Bu yilgi bahorda yog'in-sochin ko'p bo'lib, Ustyurtdagilarning ko'zini ochirmadi. Yomg'ir yog'sa, cho'ponlar quvonib, "chorvaning nasibasi" deyishardi, biroq bunday yomg'ir-nasiba paxtakorlarga yoqmadi. Ular chigit ekishni endi tugatgan paytdagi shalabbo yomg'ir otizlarni qotirib tashlab, niholni o'stirmaydi, tuproq qatqaloq bo'lib qotadi. Maqsum Nukusdan kelganlardan bunaqa paytlarda dehqonlar yerni qayta surib, qayta chigit ekkanlarini ko'p eshitgan...

Bir kuni u qarab o'tirib ovulni sog'indi, bormaganigayam besh-olti oyning yuzi to'libdi. Boshlig'idan uch-to'rt kun muhlat so'rab Urgaga tortdi. Kelsa, Urga o'rnida yo'q, u yer-bu yerda xarobi chiqqan chaldevorlar, tepasi ochilib, quruq devori qolgan maktab, jarni tikka o'yib ishlangan baliq muzlatuvchi korxonaning lang ochiq darvozasigina turibdi... Maqsum urushda vayrongarchilikning turli turini ko'rgan edi, biroq manov manzara baridan oshib tushdi. Urgadan nebori o'n besh chaqirim yerda yurib, ovulning bu tunda ko'chib ketganini bilmay qolibdi. Qaydan ham xabar topsin, anov-manov gaplarni aytaveradigan radio ham bu gal misi chiqib jim bo'lib qolgan bo'lsa, eldagi har bir yangilikni og'izma-og'iz yetkazib turadigan sho'pir yigit ham Urganing ko'chirilgani haqida lom-mim deb og'iz ochmagan bo'lsa...

Tik jarlikning etagidagi qabristonda bir-ikki so'ppaygan qora ko'rindi.

Maqsumning chol-u kampiriyam shu qabristonga qo'yilgan edi.

Ustyurtning har bahorda bir gullab oladigan odati bor. Ayniqsa, may oyining oxirlariga kelib, keng-yoziq dala alvon gullarga do'nib, atrofni xushbo'y islar qoplaydi. Yozgi yaylovlariga yo'l olgan sayg'oqlar gullardan ko'klab (to'yib), tanov (burun)larini to'ldirib, tug'ilgan yerlarining xush anqigan havosidan simirib-simirib to'yib olib, ko'chiga ergashadi.

El ko'chgandan keyin avliyo, shayxchi ham, mujovur ham qolmas ekan, atrofiga alanglab-alanglab ko'ngli cho'kkan Maqsum otasi bilan onasining qabrlariga cho'kkalab o'tirib, qur'on o'qidi...

Ustyurtda Maqsumning obro'yi kun sayin desak lof bo'lar, soat sayin ortaverdi. Alqissa, Jasliq shahrining naryog'idagi dasht-u-biyobonda bir tadbirkor masjid qurdirish niyatini bildirganda, yangidan tashkil topayotgan ovulkengashning yaqin atrofida qur'on o'qiy oladigan yolg'iz odam — shu Maqsum edi. Burunlari bu aymoq (tuman, hudud), yangi ovulkengashga qaragani bilan, sochilib-sochilib qurilgan cho'pon uylarining mullasi yo imomi yo'q edi. Odamlar ekspeditsiyada ishlayotgan, o'zi uralskiy bo'lsa-da, qoraqalpoqcha so'zlaydigan, "la ilaha illallohu Muhammadan rasulullo" degan kalimaga tili o'rgangan Maqsumni topib kelishdi.

Ustyurtning qoq o'rtasidagi Bulanlida bir ertaroqda arablar yurtiga ko'chib ketgan kampirning urpog'i qurdirib, biroq, so'ng sudning qaroriga ko'ra buzib tashlangan masjidning o'rniga, Qo'ng'irotning hokimi o'zgargandan so'ng yangi bir masjid qad tiklagan edi. Ana shu masjidga Maqsumning imom bo'lganini eshitib O'tagan hojining mazasi qochib ketdi. U burunlari ustyurtliklarni ham o'zining masjid qavmiga qo'shib hisoblab, ora-tura cho'ponlarning ham ma'raka-lozimlarini ijro qilib yurardi. Endilikda u tomonlardan taklif tushmayotganligi hojining ensasini qattiq qotirdi. U endi qayerga bormasin, borgan joylarida, ma'raka-marosimlarda Maqsumning ustidan sip-sing (mish-mish, g'iybat) gap tarqatishni o'ziga odat qilib oldi. Har gapining boshida: "U mulla bo'lishdan oldin musulmon bo'lib olishi kerak edi. Musulmonchilikning bosh farzi — sunnat (xatna) qildirish ekanligini Maksim Sergeyevich biladimi? Kofirdan musulmon chiqdi, uyam mulla bo'ldi", degan gapni men o'zim eshitmagan edim, deb boshlab, gapining oxiri-

da ko'ylagining yoqasidan bir tugmani yechib yuborib ko'kragiga tupurardi hoji. U bilan duchlashib qolganida muntazam hazillashaveradigan bir jo'rasi uning bu xil sip-singlaridan zerikdimi yoki joniga tekkanidanmi, shunday dedi:

— Iye-iye, taqsirim, o'zingiz boyagida bir gapingizda: "Alloh taolodan Qur'oni karim nozil bo'lmasidan avval arablar orasidayam araqxo'r, buzuqlar bo'lgan ekan", degan edingiz-ku. Ustyurtdagi odamlaram chaqmoq chaqqandagina Alloh taolo yodiga tushib, qolgan vaqtlarda "yedi, ichdi, turdi, urdi" tarzida kun kechirib kelayotgan edi-ku... Musulmonchilik — belning pasti bilan emas, qilingan niyat bilan emasmi? Qalbida "Haq!" degan niyati bor odam musulmon bo'laveradi-da...

— Aslini olganda sunnat-u farz degan tushunik(tushuncha) Musa payg'ambarimizdan beri bor, — dedi O'tagan hoji. — Muso alayhissalomga ergashib qirq yil sahro kezganlarning barchasi — sunnat (xatna) qilinganlar edi.

— Ana, ana endi sal bu tomonga qaray boshladingiz, taqsirim, — dedi bahslashayotgan odam. — Kechagi urushda kofiring ham, qoraqalpog'ing ham "Yo Yaratgan!" deb savashga kirgan-ku axir. Hatto nemislar ham o'z tillarida "Yo Yaratgan!" deb, urushni boshlaganlar-ku. Yo aytganlarim g'alatmi?

— Hech g'alat joyi yo'q. "Qochgan ham, quvgan ham: Yo Alloh, o'zing yor bo'laver!" — deydi ekan. Alloh taolo ikkoviga ham madad beradigan o'xshaydi. Allohjonimning mo'jizalari ko'p-ku... — deb, bahsga nuqta qo'ydi hoji og'a. Aftidan bahslashishga endi uning qurbi yetmay qoldi, shekilli.

Maqsumning ortib borayotgan obro'yi baribir uni qiynab yubordi. Qo'ng'irotning hokimiga borib aytsamikan? Aytganda, u kofirdan chiqqan musulmonga nimayam qila olishi mumkin? Qaytanga, "Bir odamning musulmon bo'lishiga ulush qo'shgan odam to'ppa-to'g'ri behishtga boradi, degan gap yo'qmi kitobingizda? Ustyurtda masjid qurilsa-yu, unda yaqinda musulmon bo'lgan odam imom bo'lsa — quvonmaysanmi, oqsoqol?!" devorsa-chi!.. Yo'q, yo'q, yo'q! Yaqinda hoji atanib, oldida Mo'ynoq bilan Qo'ng'irotda bor qariyalar yer bag'irlab yuradigan darajaga yetganda bu gap kerakmidi?

Shularni bir fikr-mulohazasidan o'tkazgan hoji og'a boshqacha yo'l tutdi: Hokimga emas, Mo'ynoqqa bir yo'li tushib qolgan, yaqindagina Qoraqalpoqning qozisi bo'lib tayinlangan yoshgina yigitga: "Ustyurtda musulmonchilik buzilayotir" deb chaqimchilik qildi. Shundan so'ng asosiy maqsadiga o'tib, Ustyurtda yashayotgan odamlarni o'zining masjid qavmiga qo'shib berishlarini endi so'rayman deganida, yosh qozi ham anoyi emas ekan, hoji og'aga qaraganda ancha savodli ekanini namoyish qilib dediki: "hukumatning xalqni boshqarishga oid tartib-nizomlariga bo'ysunish hamma uchun qarz-u farz ekanini unutmagan yaxshi..."

Hoji og'a kalovlandi-qoldi. "Qaytanga, Bulanlidagi masjidga har kim har taraflama yordam bersin. Yo kofirdan chiqqan musulmonning duosi o'tmaydi, deb o'ylaysizmi?.."

O'zining aytgan gaplari yosh qozining og'zidan chiqayotganini eshitib, hoji og'a endi esankiray dedi...

* * *

Tilaganning tug'ilib, bu dunyoda ko'rgani — dengizning sohili-yu Orolning oq to'lqini bo'lgani bilan, Nukusga yetib borguncha xayoli "Orolni kim auksionga qo'yadi? Nega qo'yadi?" degan savol atrofida aylanardi. Mana shunga hech tushunmadi, tushunmadi.

Xayoli qay tomonlarga og'madi, deysiz. "Jasliq" shaharchasidagi cho'pon jo'rasining kampiri qazo qilganida, janozada Maqsum bilan o'tirib, o'zaro guftigo'y qilishgani esiga tushdi. Maqsum o'zimizning odam bo'lgani bilan ko'pni ko'rgan kishi, "ulug' bir millatning vakili, kechagi urushda Volga daryosi boylaridan boshlab, fashistlarni chiqqan yerigacha quvib borgan odam. U ko'p narsani biladi. Yana, qoraqalpoqchani naql-maqollari bilan keltirib aytganiga hayron qolasan. Hozirgi siyosat borasida gap ketganda-ku oldiga odam tusholmaydi.

— Tilagan jo'ra, sen dunyoga chiqib, ko'rganlaring — qayiqning ultoni, oppoq oydinlar, oq chag'alay bilan sariq sazan. Axir bunday tirikchilik bizning Oroldan boshqa yerlarda ham bor. Odamizod yaratilganidan beri o'ziga qulayli yerlarda makon bosib, yaxshi yerlarda yashashga harakat qilib keladi. Bizning tegaversin bobolarimiz ham Orolga inturist bo'lib kelmagan-ku. Uralskiylar

o‘z yurtidagi jabr-zulmga chiday olmay, emin-erkin, to‘q yashash uchun yurt oshib, uzoq-uzoqlardan kelib dengizni panalagan. Taras Shevchenkoning “Qo‘shorol” orolida aytganini bir esla: “Atrof — dengiz, o‘rtasi to‘la dard”, deydi. Odam bor joyda dard bo‘ladi. “Ishqsiz — eshak, dardsiz — kesak” deganga o‘xshash so‘zi bor Navoiyning ham. Ol, ertaroqdan aytsam, Orol uchun talash-kurash burundan bor edi. O‘tgan asrning o‘rtalarida Orolni ham, Tabiatni ham egasi Alloh edi, Amudaryo bilan Sirdaryo to‘lqinlari sohillarni o‘pirib, uzib olib, dengizni to‘ldirib turdi. Rus podshohi Petr I ning Hind okeaniga chiqish niyati asta-sekinlik bilan amalga oshib, u yo‘l-yo‘lakay qo‘shni aymoqlarni egallay boshladi. U paytlarda borish-kelish, qarim-qatnash uchun arzon ham qulay karvon yo‘li — suv yo‘li edi.

Inglizlarning Hindistonni boshqaruvi ham suv yo‘li orqali bo‘lgan. Boshqaruv tizimini yevropadan o‘zlashtirgan Rossiya Sharq siyosatida boshqaruvni Kaspiyga tutashgan Uzboy jilg‘asi orqali, Amudaryo suv yo‘li orqali amalga oshirib, Hind okeaniga yetib olishni maqsad qildi. Petr I ning o‘sha armonini Lenin amalga oshirdi. Lenin paqirning boy bilan kambag‘alni teng qilaman degani rost edi, biroq Alloh taoloning manglayga yozgani bo‘ladi-da, birov — boy, birov — kambag‘al deganday. Shunga qaramay, oxiri dunyoda adolat yengib chiqadi. “Bul dunyo dunyo bo‘lg‘ali podshoh odil bo‘lgan emas” degan Berdaq bobo ham ming marta haq edi. Axir Lenin adolat haqida yozganida, u hali podsho emas edi-da. Ol, podsho bo‘lganidan keyin esa u o‘zining fikriga qarshi amaliy ishlarni olib bordi.

— Sen, Maqsum, urushga borib, nemislarni yengib kelgan bo‘lsang-da, Leninga til tekkazma! Lenin-ku axir Orolni adolat bilan to‘ldirib turgan, ozodlik olib kelgan, — dedi Tilagan chidayolmay.

— Bu aytganlaringda ham jon bor, — dedi Maqsum, — biroq Lenin podshoh bo‘lib olgach, Orolga nimalar qilganini bilasanmi? “Volga bo‘yidagi ochlikdan qirilayotgan xalqqa mehr-shafqat ko‘rsating, yordam bering”, deb yalinib, xat yozib turib, oradan ikki yil o‘tmasdan, Turkistonda paxta yetishtirishni harbiy majburiyatga aylantirish haqidagi dekret bilan Orolni quritishga qaror chiqardi. Butun mamlakatni elektrlashtiraman deb, tabiiy suv

oqimlarini bo‘g‘ib, ulkan daryolarga bahaybat tarnovlar qurishga farmon bergan ham shu dohiy edi. Chap qo‘li bilan ishlagan ishlarni o‘ng qo‘li bilan bekorladi...

Ularning o‘shandagi hangoma do‘koni endi qiza boshlaganda, Maqsum og‘aga “janozaga qariyalar yig‘ila boshladi” degan xabari kelgandan so‘ng uzilib qoldi.

* * *

Tilaganni bolalari ham ko‘ndirolmadi. Kampiri Zuhra choliga aytganini qildira olmagandan so‘ng, o‘ziyam narigi dunyoga jo‘navordi. Tilagan Jo‘qori Kengisning monitor-ekranlar o‘rnatilgan majlislar zaliga kirganidan so‘ng, bu yerda Orolning savdosi amalga oshirilsa-da, o‘zining fikri bularni qiziqtirmasligini, so‘zi bu yerlarda o‘tmasligini sezdi. Xo‘p, buning aytganlari inobatga olinmasa, sariq chaqaga arzitishmasa, unda fikr so‘rashning nima qizig‘i bor edi?..

Auksionning elektron monitorida Orol dengizi paydo bo‘ldi. Avvaliga allaqanday tushunarsiz yozuvlar ko‘rindi, undan keyin dengizning suvga to‘lib turgan vaqtidagi tasvirlar chiqib keldi, izidan qanot yozib uchayotgan chag‘alaylar uchib ketganidan so‘ng, Orolning kosmosdan olingan tasvirlari ko‘rindi, so‘ng esa dengizning savdoga qo‘yilayotgani haqida xabar yozilib, ushbu savdoning boshlang‘ich narxi 1 so‘m ekanligi yozildi. Izidan ekranning jivir-jiviri ichida aralash-quralash allanimalar namoyish qilinib, 1 raqamining iziga qator-qator nollar kelib qo‘shilaverdi-qo‘shilaverdi. Bora-bora qo‘shilayotgan sonlar ekranga sig‘may ham qoldi-da, auksion savdo endi rublga, yuanga, ienga, to‘grikka, so‘ng dollarga, yevroga o‘tkazildi. Savdoning oxiri borib-borib bitkoin degan hech kim qo‘liga ushlab ko‘rmagan pul birligiga taqaldi. Dunyoning turli burchaklaridan biri-biridan oshib ketgan baholar chiqib kela boshladi. Shu orada ekran o‘chib ham qoldi. Odamlarning aytishlariga qaraganda, xaridorlar orasida dov chiqib, “suvi yo‘q dengizni qandoq qilib sotib olamiz? Sahro-cho‘listonlar o‘zimizdayam boshdan oshib yotibdi-ku!” deyishib, arablar bilan mo‘g‘illar savdodan chiqib ketibdi. Yaponlar “Orolning qumini ajratib olib, o‘z holicha qumning o‘zini alohida sotsalar — biz

xaridormiz" deyishsa, ruslar bilan xitoylar "bizga Orolning usti kerak emas, ol, ostini alohida savdoga qo'ysalar, o'ylab ko'rardik", deyishibdi. Okean ortidan allakimlar "bizga yerning usti ham, osti ham kerak emas, arzon-garov qilib tek osmonining o'zini sotishga qo'ymaysizlarmi?" — deb qiziqish bildirgan emish.

* * *

Bu xabarni eshitgan To'lagen "auksion deganiyam bizning mol bozorga o'xshagan bir narsa shekilli, faqatgina bir kam joyi — dallol ko'rinmas ekan-da", deb xayolidan o'tkazdi. Molning bahosini birov chiqaradi-da, kim qimmatroq narx qo'ysa, bosh ipini qo'lga oladi. Shunga o'xshab, Orolning ko'tara savdosiyam anchagacha qizib bordi-da, bo'laklab (ustama) sotishga o'tgandan so'ng, oxiri maydalashib ketdi. Har kim o'zining holiga, imkoniga qarab, bir ko'zi cho'ntagida bo'lib, kerakli bo'lgan joyini sotib olishga tirishayotir. Orenburglik bir biznesmenni faqat sayg'oqlarning shoxi qiziqtirar ekan — "shox sotila boshlandimi, shoxlarning hammasiga mana men xaridorman, bahosini aytinglar" degan xabar keldi. Janubiy Koreyaning bir kompaniyasi Ustyurtdagi Borsa-kelmas konidagi tuz zaxiralari bilan qiziqdi. Hindistonlik bir odam "sahroning sur ilonlarini men olaman, faqat samolyotga yuklash paytida yordam bersanglar bo'ldi", degan mazmunda usti-ustiga SMS yuborib turdi. Amerikalik biri dengiz o'rtasidagi Borsa-kelmas va Vojrojdenie atovlari (orollari)ni sotib olmoqchi bo'ldi. To'lagenning tushlik choydan voz kechib, qimirlamasdan o'tirgani peshindan keyinga kelib bir tiyin bo'ldi: kutilmaganda ekranga "Koronavirus" degan yozuv chiqdi-yu, negadir auksion to'xtadi-qoldi. "Orol sotilmaydi, Orol sotilmaydi!" deb yurgan minbar-parast azamatlarning ham Orol sotilayotgani — bu endi Xudoning ishi", deb yurgan O'tagan mullaning aytgani ham o'ngidan kelib, auksionning to'xtaganini ham Yaratganga taalluqli ish deb joriya qilganda, allakimlardir Yaratganga rahmatlar aytsa, yana kimlardir koronavirusga ham olqishlar yog'dirdi. O'tagan mulla hajga borib kelgandan so'ng "Orol quriganining bosh sababi — odamlarning osiy bo'lib ketganligi-yu, mast yurishlaridir. Odamlar Xudoni unutganlaridan keyin manmanliklar ko'paydi", deb gap tarqatgan edi.

Ajaboni qarangki, shundan keyin ovul-ma'rakalarda araq ichishlar o'z-o'zidan kamaydi, yaqin-atroflardagi yigitlarning yuzigayam qon yugurgilab, husnigul chiroy kelib qo'sha boshladi. "Azaldan tost aytgisi kelsa, "piyolaning ernagiga (atrofiga) qo'nib o'tirgan shaytonni uchirib yuborish uchun yaxshilab (qotirib) tost aytish, urishtirib ichish makruh emas", deb takrorlab kelgan Hoji og'aning endilikda o'zi bilan o'zi piyola urushtirib ichishday odatni chiqargani ana o'shanda edi", deb o'yladi Tilagan.

* * *

— Hozir hamma uxlab qoldi, hamma joyda "dengizning qurib qolganini ham payqamay, haligacha uxlab yotibsizlar!" — degan gaplar bo'layotir. Ol, sening uxlashingdan jamiyatga bir tuyur ham foyda yo'q, — dedi To'lagen ovuldagi befarzand podachiga. — O'rningdan turishing bilan araq ichishga jo'naysan. Bu xil uyqu hukumatga turishing bilan ziyon, tuni bilan televizoring sayrab turadi, ol, sen esa xir-xir uxlaganing uxlagan. Yana farzandsizlikdan noliysan. Hov, tursang — ichsang, yotsang — televizorga tikilsang, bunday holatda farzand xudoyning margidan tug'iladimi? Kelin bilan yotganingdayam anov siypalama telefondan qo'l uzmaysan shekilliyov. Sen juvornamak, telefonni siypalaguncha kelinni siypalasang bo'lmaydimi, shu vaqtgacha xudoyim beradiganini berardi. Anov yetmishga chiqqan yeraka sendan so'ng uylanib, kampirini siypalayverib, ikki farzandli bo'ldi. Sen haliyam podang o'tlab yurgan paytlarda ora-tura kelindan xabar olib turishing kerak. Erkaklikni manov katakxonadagi xo'rozdan o'rganganingda bir navi edi. U tong otgandan qiyqirib, katagi tugul butun ovulni uyg'otib harakatga keltiradi. Ol, senga esa tong otgani bilan botishining farqi yo'q, qachon ko'rsang pir-pir uxlaganing uxlagan. Ha, turganingda avval araqni urasan, so'ng kelinni urasan... Umr-bayoning (tarjimayi holing) "turdi, yurdi, urdi, ichdi, yedi, yotdi" dangina iborat...

* * *

Agar dunyoning yaratilishi Ustyurtdan boshlanadigan bo'lsa edi, bu dunyoda yashashning hech qizig'i qolmagan bo'lardi. Osmondagi tursang turib, yursang yurib sayraydigan poshshato'rg'ay

ham, izidan quvaversang quloqlari qizarib ketadigan gum-gum (kaltakesak) ham, quyon bilan saq-saq sichqon ham, pal-pallab uchib yurgan burgut ham, ishqiy mavsumdan boshqa vaqtlardagi fursati tur-da qoch bilan o'tadigan sayg'oqlar ham o'z dunyosi bilan baxtlidir balki, ol, biroq Ustyurtdan baxt izlab chiqqan odam bandasining aqliga hayronsan...

Oqshalaqdan[1] olti-yetti chaqirimdan shimoli-g'arbda Tobinboy ovuli joylashgan. Oti ovul demasang, besh-oltita yarim to'ladan iborat imoratlari kalta mo'risidan tutun chiqib turgani uchun ham bu yerda o'tiriqli (muqim) el borligi payqaladi.

...Tobinboy cholning uch kampiridan yigirma to'rt fanzandi bor edi. Uning ovulining barchasi deyarli bir otadan taralgan urpoqlar bo'lib, bir-birlari bilan yaxshiligini oshirib, yomonligini yashirib, mayda-chuyda gap bilan qariyaning boshini qotirmas edi.

Qator qilib solingan pastkaltak uch uyning o'rtasidagi yarim to'la, ikki qatlik hujrada Tabinboyning o'zi, ol, qaptaldagi uylarda ikki kampiri, kenjatoy o'g'il-kelinlari turadi. Boybichcha (katta ayoli) dunyodan o'tgandan keyin, undan tug'ilgan kenjatoy o'z oldiga (mustaqil) ro'zg'or qilib, o'tov tikib, Matayqum tomonlarga ko'chib ketdi. Qariyani "uyda bir o'zi" deganimiz bilan, mol so'yilsa shu yerda so'yiladi, qo'noq kelsa shu yerda mehmon qilinadi. Maktab bilan institutda feodal turmush tarzini butunlay qoralab o'tiladigan ta'limotlarga ham, zamonaga ham Tobinboy otaning turmushi tushuniksiz tuyuladi. Shahardagi qarg'ibov (galstuk) taqqanlar-ku hech qachon xotinining aytganlaridan chiqmaydi, agar anov-manov deb xotiniga sal ko'ndalang chiqib qolsa, masalasi byuroga qo'yilib, itmasxarasi chiqariladi. Ol, manov Ustyurtning kengligining sadag'asi ketayin, hukumat chiqargan zang-zakonlari (qonunlari) bu yerlarga "o'laman, sattor!" doriyvermaydi, doriganda ham tinkasi qurib, o'zining bu dunyoga chiqqaniga o'kinib, telba-teskarisi chiqib, o'ldimozorda yetib keladi. Yetib kelgani bilan uni yaxshi ko'rib turgan odam yo'q, bu yerliklarning barchasi — muallimlarning zo'rligi bilan boshlang'ich sinfni zo'rg'a bitirganlar. Sal savod ochganlari Qo'ng'irotga yo bo'lmasa O'risiyatga (Rossiyaga) hayt qo'yadi.

[1] **Oqshaloq** — manzil, shaharcha nomi.

Agar hukumatning chiqargan zang-zakonlariga qarasang, Tabinboyga o'xshaganlarni allaqachonoq feodalchilikda ayblab, taqdirini asfalasofilinga tiqib yuborgan bo'lardi. Ustyurtning kengligi bilan tengligi talay-talaylarni o'ziga sig'dirib-singdirib yuborayotir...

— Pah-pahay, kelganingiz yaxshi bo'ldi-da, inim, ichim pishib, keng dalaga sig'mayotgan edim, — dedi Tabinboy Maqsum bilan salomlashayotib.

— Etiging tor bo'lsa, dunyoning kengligidan nima foyda, Tabinboy og'a, — dedi Maqsum tengdosh jo'ralarday hazillashib. — Dunyo torilsayam, kampiringning quchog'i keng-ku...

— Hoy, Maqsum, manov bolalarning ko'zicha uyalmaysanmi? Uy, bola-chaqa, mol-jonning omonligini so'ray desam, jo'gilik qilgan bo'laman, senda ularning birontasiyam yo'q. Boyagida aytganimni qilib, O'takengning yesiri Aytgulning etagidan tutganingda, ortingda "og'am"lab yuradigan tuyoq qolarmidi? Poh-poh, ayolmisan ayol edi-ya, yorug'lik! Hoy, Maqsum, Oqshalaqni teshib-kovlayapsizlarmi?

— Endi uch yarimdan o'tayapmiz.

— Uch yarim deganing nima edi u?

— Uch yarim chaqirim, ya'ni shuncha kilometr teranlikdamiz...

— Ha... men metrmi deb o'ylabman. Judayam teranlayvermanglar.

— Bizlar qo'l bilan qazayotganimiz yo'q. Hozir shunday stanoklar bor, o'n chaqirimgacha tesha oladi...

— Eski kitoblarda: oxirzamonda yerdan Imom Mahdi chiqadi, osmondan Iso payg'ambar tushib, ikkovlon jin-shaytonlar bilan olishib-chayqashadi, deyilgan. Yaqinda bu gapni manov Mo'ynoqdan chiqqan shoir Tilovbergan ham aytgan edi. U otasidan eshitgan ekan. Shu Oqsho'loqning qibla tomonidagi Borsa-kelmasda o'sha Imom Mahdirlar xazinasi ham yashirilgan degan gap ham bor. Teranga teshaversanglar, oxirzamon ham yaqinlashaveradi...

— Tunov kuni gazetadan o'qidim, bir yigit Moskvada "Lenin va Sharq ayollari" degan kandidatlik dissertatsiyasini yoqlabdi. Ayollar Oktabr revolutsiyasidan keyin ozodlik olgan emish, u bu dunyoda ayol bo'lib tug'ilganiga pushaymon emish. Ayollarning

vazifasi — bola boqish, erkaklarning issiq-sovug'iga qarash emasmi, Tabanboy og'a? Sening kampiring ko'p-ku, gapirsang-chi, oqsoqol!

— Pah, Maqsim inimay, shu bilib turib so'raydigan jo'giliging bor-da. Meni siyosatga chatib, tilimdan bog'lamoqchimisan?

— Ay, yo'g'-ye, oqsoqol, ayollar bo'yicha tajribasi ko'p odam deb so'ragan edim-da, oqsoqol...

— Ertaroqda O'tagan mulla: "xotini tatarlar to'ppa-to'g'ri behishtga borarmish, bul dunyodagi ko'rgan azoblaring yetadi, endi bir marta sen ham rohat ko'rsang-chi, deb xotini tatarlarni behishtga kiritadi", degan edi. Gunohi ko'p odam sifatida yangangning kichkinasini Orenburgdagi tatarlardan olgan edim. Hozir ko'pincha o'sha bilan birga bo'layapman.

* * *

"Geografiya va biznes" internet-saytida "Orol xaridorlari" degan bir narsa chiqib, unga ko'pchilik fikr yozgan ekan, nabirasi Sulaymon telefondagi yozuvlarning harflarini kattartirib bobosiga o'qitdi.

Yapon:

— Bizga aslida Orolday bir hovuch ko'lning hech keragi yo'q. Agar sotmoqchi bo'lsalar bizga ko'llari qurigan ultonidagi qumni sotsa ham bo'laveradi. Biz Orolning ahvolini ko'rib qaytish uchun kosmosga Toexiro Aniyama degan yigitni uchirdik. Uning kosmosdan tashlagan nigohiga qaraganda Orol — sahroga tomon bir tomchi yanglig' ekan. Shusiz ham atrofimizda Tinch okeanning sunamilaridan suv otilib kelib turibdi.

Rossiya va xitoylik biznesmenlar:

— Bizlar ikkovimiz sheriklik bilan Orolning ustiga emas, ostiga qiziqamiz. Mayli, yaponlar savdoni boshlagan ekan, Orol qumini olaqolsinlar. Ol, qumning ostidagi 100 metrdan boshlab yura davri qatlamigacha bo'lgan oraliqning bahosini kelishsak, bizlar olmoqchimiz.

Amerikaliklar:

— Bizlar Rossiya bilan Xitoyni juda yaxshi ko'ramiz. Shular uchun ularga qiziqqan narsasini olishga imkon beramiz. Bizga

Orolning osti ham, usti ham kerak emas, tek dengizning osmonini alohida ayirib sotsalar, savdoga qo'shilib ko'rmoqchi edik.

Arab:

— Bismillohi rohmani rohim!

Orol dengizini birinchi bo'lib ochgan odam arab sayohatchisi Ibn Rustan bo'ladi. Hatto Iskandar Zulqarnayn ham shu yerlarga yaqinlashganda Qizilqumning naryog'ida sayg'oqlardan boshqa jon yo'q deb, ortga qayrilib ketgan ekan. Hozir qarasak, Orolning g'arbidagi Ustyurtda sayg'oq bilan tuya ko'p ekan. Tuvaloqlarning ko'pligini ayting, uchib-qo'nib o'ynoqlab yuribdi. Bulutlarga tayin yemtik (xo'rak). Bizlarga o'sha Ustyurt sahrosi ham bo'laveradi. Baribir odam oyog'i yetmagan biyobon ekan. Bersa, oqchasiga qarab o'tirmaymiz, og'ziga siqqan bavhosini aytsin, olaveramiz.

Turk:

— Orol, Orol deb, nega uni bir kichikkina xalqning nomiga tang'ib bog'layverasizlar? Orol aslida turk dengizi, unga sayohat qilib kelgan arab, forsiy, ingliz, xitoy yoki ruslarning bir tuyur haqqi yo'q. Axir qaraqalpoqlar suvdan chiqqan ixtiandrlar emas, ular Oltoydan tortib, Alp tog'larigacha bo'lgan yerni joylagan turkiy xalqlarning biri. Ularning dengiz deguday boshqa dengizi ham yo'q. Uni auksionga qo'yishga hech kimning haqqi yo'q. Turklar uning sotilishiga butunlay qarshi. Bu masalani shu atrofdagi barcha turkiy xalqlar maslahat qilib hal etishlari kerak.

BMT vakili:

— Shoshilmanglar, og'aynilar! Avvalo Orol dengizining statusini belgilab olish kerak edi. Tabiiy mulkni auksionga chiqarib sotishga hech kimning haqqi yo'q. Qolaversa, sayg'oqlar bilan tuvalaqlar xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan, ularning tabiiy halovatini buzib bo'lmaydi. Ustyurtni savdodan olib tashlash kerak!

Arab:

— Nega bo'lmas ekan?! Amerika bilan Yevropaga mumkin-u, bizga kelganda mumkin emasmi? Ana, Atlantika-yu Hind okeanidagi qancha-qancha orollar sotilyapti-ku. Sizlarga mumkin-u, bizga kelganda mumkin emas, deb chiqasizlar. Orol yoqasida tug'ilgan Berdaq degan shoir: "Borning kuni farmon bilan, yo'qning kuni armon bilan" deganiday, zamona zo'rniki bo'lib qolaveradimi? Bizlar musulmon mamlakatlari nomidan norozilik bildiramiz.

BMT vakili:

— Arab og'aynilar, sizlar to'qlikka sho'xlik qilishga uyalmaysizlarmi? Dunyolar barcha neft konlari sizlarda-ku!

AQSH vakili:

— Birlashgan Millatlar Tashkiloti so'nggi paytlarda o'zining vazifalarini bajara olmayapti. Tengsizliklar o'zi shu tashkilotdan chiqayapti. Masalan, BMTni asosan biz boqayapmiz. Xitoy bilan Rossiyaning qo'shayotgan ulushi BMTning nosvoy puliga ham yetmaydi. Biz hozir bu tashkilotdan chiqishni maslahat qilayapmiz. Kimga kerak bo'lsa, BMTni olaversin. Baribir bu tashkilot o'zining vazifasiga loyiq ishlarni bajara olmas ekan. Davlat sifatida tan olinmagan qancha-qancha millat-u xalqlar tashkilotdan sirtda qolayotir. Dunyoning tuzilishini boshqatdan ko'rib chiqish zaruriyati sezilmoqda.

BMT vakili:

— Xonimlar va janoblar! Biz dasturdan tashqariga chiqib ketmaylik. Bosh assambleyaga tegishli masalani hal qilishni o'zlariga topshirib, Orol ayksionini dunyoni qaytadan egallash majlisiga aylantirmaylik! Dunyoda savdoga solinmaydigan narsalar ham borligini unutmang!.. Shu payt kutilmaganda ekran jimirlay boshladi-da, "SOS, SOS, SOS! Coronavirus" degan yirik harfli yozuv paydo bo'ldi-da, ekran o'chib qoldi.

Tilagan nabirasini chaqirdi.

— Manavi ekranda talashayotganlarga men ham fikr qo'shsam bo'ladimi? — dedi.

— Bo'lmasam-chi! Qaytanga saytning tarqalishi ko'payadi-ku! — dedi nabira.

— Bunday bo'lsa, yoz: "Dengizga suv bermay, talon-taroj qilganlarga xudoy borib, "Tojlivirus" degan balo chiqibdi. Endi talashaveringlar. Men Tilaganman!" Ismimni, familiyamni, manzilimni aniq yozib qo'y, bolam...

(Tamom)

Sarigul BAHODIROVA

TO'MARIS HAQIDA QISSA

Adolat — hamma narsadan ustundir.
"Avesto" hikmati

1

Mitra oyi tugab, Apanam oyi boshlangan payt. Quyosh nayza bo'yi ko'tarilmasdanoq yer qozonday qaynay boshladi. Kunning issiqligidan tuproq tafti xuddi tandirdagi hovurday ko'tarilib, ko'zni ochirmaydi. Zardusht payg'ambar Mitra oyini — quyosh nuri, ochiq osmon va insonlar bir bitimga kelib, bir-birlariga yaxshilik tilaydigan muqaddas oy bo'lsin, deb tilak qilgan deyishadi. Apanam oyi esa — suv oyi emish, bu oyni payg'ambar — suvga mo'l bo'lsin, insonlar mo'l-ko'l rizq-u ne'mat to'plab olsin deb duo qilgan emish. Ammo karvon tortgan savdogarlarning aytishicha, bu yil Zardusht payg'ambar duo qilgan Apanam oyi kechikib kelayotgan emish. Umuman, endilikda savdogarlar yaxshi xabarlar keltirmayapti, ularning aytishicha, fors askarlari bu yoqlarga qo'shin tortib kelishayotgan emish...

Bu xabar massagetlar orasida tez tarqaldi. To'g'ri, massagetlar urush, jang sadolaridan vahimaga tushadigan xalq emas. Ammo, tinchlikka, osoyishta hayotga ne yetsin! Urush o'z oti bilan urush...

Massagetlar shohi To'maris barcha qabila rahbarlariga va satrap[1]larga yigitlar harbiy tayyorgarliklarni kuchaytirsinlar, deb xabar yubordi.

Massagetlar malikasi yuborgan bu buyruq bejiz emasdi, binobarin hamma qabilalarda urushga, harb-u zarbga tayyorgarlik qizib ketdi. Yaramay qolgan mo'ysafid chollar-u beshikdagi chaqaloqlardan boshqa hamma odam ishga yopishdi — temirchi-qurolsozlar o'q-yoy, qilich-qalqon, nayza, sovut, dubulg'a va boshqa urush anjomlarini yasashga kirishdilar. Tabiblar zaharli o'simliklarni terib

[1] **Satrap** — hokim, rahbar, boshchi.

keltirish uchun shogirdlarni ergashtirib dalalarga chiqib ketdilar. Yoydan otiladigan o'qlarga zahar surib qo'yishni ham massagetlar o'ylab topganlar, qaysi o'simlik zahari odamga yomon ta'sir qilishini, o'ldirishini faqat massagetlargina biladi. Ular bu sirni hali hech kimga ochganlari yo'q. Zero, zaharli o'q — jang taqdirini hal qiladigan sir bo'lgani uchun ham qo'shin sarkardalari sirni nihoyatda maxfiy saqlash lozimligini muntazam uqtiradilar. Bu o'q dushman askariga tegsa bo'ldi — har qanday yarador yer tishlab qolishga majbur, tabiblar uni davolay olmaydilar. Vatan tuprog'iga bosib kiradigan, uni oyoqosti qilmoqchi bo'ladigan yovga qiron keltiruvchi — mana shu o'q. Dushman necha yuz ming lashkari bilan kelmasin, To'maris zaharli o'qdan dushmanning har bitta askariga yetadigan qilib tayyorlashni buyurdi.

Kunbotardagi dengizlar qirg'og'ida yashovchi, Tanais va Boisfen daryolari yoqalarida umrguzaronlik qiluvchi odamxo'r androfarlar haqda xabar kelib qoldi: forslar, skiflar mamlakatiga bosib borganlarida androfarlar o'z qo'shnilari — skiflarga yordam bermabdilar. Demak, androfarlardan bundan buyon yordam kutish befoyda. Xo'sh, yaqin atrofda yashaydigan daxriylar-chi, ulardan yordam kutsa bo'ladimi? Sug'diylardan-chi? Baqtriyaliklardan-chi? Yo'q, ulardan yordam-imdod kutish — ko'kdan chalpak yog'ishini kutganday gap. Aytganday, baqtriyaliklardan biror narsani umid qilmasayam bo'ladi — ular allaqachon forslarga bosh egganlar. Sug'diylar ham taslim bo'lish arafasida emish. Boshlarida soch o'smaydigan argitpeylar-chi, massagetlarga yordam qo'lini cho'zarmikinlar? Finiqiyonlar-chi? O'jar Gellespon daryosiga birinchi bo'lib ko'prik qurgan, ochilib-yopiladigan ko'prikni kashf qilgan, ellinlarga xat yozishni o'rgatgan finiqiyonlar ham forslarga taslim bo'lgan, deyishmoqda.

Matein tog'laridan boshlanadigan Araks[1] daryosi Qizilqum sahrolarini kesib o'tib, Kaspiy dengizigacha yetib borgani bilan, baribir u massagetlarga himoya bo'la olmaydi. Aytishlaricha, Fors podshohi Kirning askarlari — baloyi ofatning xuddi o'zi emish, yo'lda uchragan har qanday asov daryo bo'lsa — bo'ysundirib, har qanday tog' bo'lsa teshib o'tib, o'rmalab borib bo'lsayam zabt qilar

[1] **Araks** — Amudaryo.

emish. Aytishlaricha, forslarning podshohi Kir (Kurush ham deyishadi)ning minib yurgan tulpori suvga oqib ketganida, askarlariga buyruq bergan emish, askarlari bir tunning ichida asov Tigr daryosini bo'g'ib, suvini boshqa o'zanga burib yuborishgan emish.

Ular Oksni ham bo'g'a olarmikinlar?

Nima bo'lgandayam-chi, massagetlar hali shu paytgacha bosib kelgan yog'iyga bosh eggan xalq emas! Har doim qaysidir bir hunari, qanaqadir hiylasi, bahodirligi bilan doim dushmanlarni kultolqon qilib kelgan.

Kunchiqar tomon xalqlarini titratib, ularni birma-bir o'zlariga bo'ysundirayotgan forslar mamlakatidagi otlarning dupuri anchadan beri massagetlar qulog'iga kelib turibdi. Shuning uchun ham endi massagetlar urush tayyorgarligini boshlab yubordilar — erkaklar, yigitlar, bolalar, ayollar, chollar — hamma-hamma xalq urushga tayyorlana boshladi.

Aytganday, massagetlarning hech qanday dushmandan yengilmasligining yana bir sababi ham shu — dushman bosib kelguday bo'lsa, katta-yu kichik hamma urushga otlanadi, hech kim o'zini chetga olib qochmaydi. Shuning uchun ham massagetlar dushmanni yengmay qo'ymaydi. Shuning uchun ham massagetlar yurtiga kekkayib qadam bosgan yog'iy askarlari qirg'in barot janglardan keyin qum misoli to'kiladilar yoki sharmandalarcha qochib qoladi. Qochib qayga ham borardi deysiz, o'ngga qarab qochsa — Qizilqum sahrosi, chapga qarab qochsa — Qoraqum sahrosi, oldinga qarab chopsa — dengizga borib tiraladi, shuning uchun ortga — kelgan yo'liga qaray lo'bkillaydi-da! Hayot-mamot kurashlarida hech bir xalq Oks bilan Yaksart daryolari dengizga quyadigan hududlarda yashovchi massagetlarday jipslashib urusha olmasa kerak. Har qanday to'siqni buzib o'tib kelayotgan dushman ham shu yerlarga yetib kelgach, holsiz yiqiladi.

Ammo bu gal forslarning harbiy tayyorgarligi juda kuchli emish. Xo'sh, bu mish-mishlar qanchalik to'g'ri yo noto'g'ri ekan — bilib bo'ladimi? To'maris o'zining zahmatkash xalqi yashab qolishi uchun ko'kdan madad yo bir ezgu bashorat o'tinganday osmonga boqdi. Mitra va Unxun deb nomlangan o'ttiz kunliklar oralig'ida tug'ilgan oyning barkashi — forslar bilan bu gal

bo'ladigan to'qnashuv beayov bo'lishini bashorat qilib turganday. Emishki, bu oylarda urush boshlagan xalqlarni suv ma'budalari qarg'aydi... Darhaqiqat, bu oylarda Oks daryosi to'lib-toshib oqadi, qirg'oqning ikki tomonidagi xalqni mo'l-ko'l obihayot bilan siylaydi, go'yoki yaratuvchanlikka, mo'l-ko'llikka, rizq-ro'zni but qilib olishga undayotganday. Albatta, mana shunday mo'l-ko'llik, rizq-u ro'zga shukrona qilmaydigan, bosqinchilik, talon-tarojni o'ylaydigan xalqni suv qarg'aydi-da! Massagetlar kelayotgan dushmanning qirg'in-barot qarg'ishga duchor bo'lishini tilab kun-u tun ibodat qilmoqdalar.

2

Yer yuzini changitib kelayotgan Kirning mo'r-malaxday askarlari Oks daryosi qirg'oqlariga kelib to'xtadi. Qaynab-toshib oqayotgan bo'tana suvga ular ancha vaqtgacha qarab turdilar. Keyin o'zlarini suvga otdilar — charchagan, cho'llagan qo'shin ot-poti bilan suvga intilib, xuddi umrida suv ko'rmagan odamlarday daryoni simira boshladilar. Askarlar ustlaridan sovutlarni yechar-yechmas suvga bosh tiqib, bir-birlariga suv sepishib, rosa miriqishdi. Otlar-u odamlar rohatlanib suv ichishar, loyqa-bo'tana suvning bu qadar shirin ta'mli bo'lishini endi ko'rib turganday, hayratlarini yashirmay qayta-qayta suvga bosh urishardi. Qancha daryolarni ko'rgan, qancha daryolarni kechib o'tgan, qancha daryo qirg'oqlarida savash qurgan Kir ham askarlarning qiyqirig'iga chiday olmay, o'zi otdan tushib daryoga engashdi.

"Oh, oh, oh, qanchalar mazali! Oks daryosining suvi xuddi buloq suviday ta'mli ekan! Maqtaganlaricha bor ekan! Bu zaminning qanday sehri, tarovati bor ekanki, dunyoni zir titratgan forslar mana shu suvning narigi tomonidagi xalqni bo'ysundirolmaganlar?! Yeri suviga, suvi tuprog'iga o'xshash, rangdosh bo'lgan bunday g'alati, go'zal diyorni endi ko'rishim. Aytishlaricha, bu diyorning tuprog'i ham juda serhosil emish. Bu zaminda o'sib-ungan meva-yu noz-ne'matlarni yegan kishi hech to'ymas emish, shirin emish, shakar emish... Ha, mayli, mana, suvini ichdim-ku, endi noz-ne'matlarini ham yeymiz-da. Bu diyor faqat mazali meva-yu

noz-ne'matlari bilangina emas, oltin, kumush, marjon toshlari bilan ham mashhur. Demak, mana shularning hammasi yaqin orada seniki bo'ladi, Kir!"

Kir qirg'oq bo'yida, suv yoqasida turib, daryoning narigi yoqasini ko'zdan kechirdi. Narigi qirg'oq ko'zga elas-elas ko'rinib, kishini o'ziga tortadi. Daryoning ikki qirg'og'i bo'ylab o'sib yotgan turang'illar ko'm-ko'k bo'lib, qip-qizil qumlarga ko'rk bag'ishlaydi. Sohillarning har ikki tomoni keta-ketguncha to'qaylik, yam-yashil chakalakzorlar. Qalin chakalakzorlarning tugaydigan joyiga ko'z yetmaydi. Shuni hisobga olganda, bu daryo bitta o'zandagina oqmasa kerak.

Kir chodirlar tikilsin, deb buyruq berdi. Sal o'tmay ikki yuz ming askarning chag'alay qush uyalariday chodirlari bo'y tikladi. Hammanikidan baland, harir chodir eng yuksak tepalikni tanlab qurildi — bu shohning qarorgohi edi.

— Kambiz, — dedi Kir lashkarboshiga, — Bugun To'marisga elchi yuboramiz. Javobini tez olib kelsin. Tinch yo'l bilan shartlarimizni qabul qilsa — daryodan o'tishga hojat qolmas...

— Massagetlarni ko'chmanchi xalq deyishadi. To'g'ri, ko'chmanchi xalqlar o'zimizning mamlakatda ham bor, ammo... Bunaqa o'jar xalqni hech ko'rmaganman. Bularni quyunday chaqqon deyishadi, bugun — bu yerda bo'lsa, ertaga — u yerda. — Kambiz massagetlarning ko'chib yuradigan kichik-kichik to'dalariga duch kelib talangan odamlardan eshitganlarini bir-bir eslay boshladi. — Kichik-kichik to'dalari ulkan-ulkan talafat yetkazib ketarkan.

Uzoqdan chopib kelib to'xtagan ot tuyog'ining ovozi eshitildi. Shoh va Kambiz tashqariga ko'z tashladilar — qora to'riq ot ustidan sakrab tushgan chavandoz bosh qarorgohga yaqinlashdi. Tantanali marosimlarda kiyiladigan choponga o'ralgan bu odam — elchi Spita edi.

— Yo'ling bo'lsin! — Kir o'z elchisiga berilayotgan topshiriqlarni yana bir bor takrorladi. — Massagetlarning ayol podshosi menga bo'ysunishi shart! Bilib qo'ysinki, biz mag'lub qilgan mamlakatning yengilganligining ramzi sifatida doim bir ishni qilib kelganmiz — ya'ni, mag'lub shoh tirik bo'lsa-yu, o'z ixti-

yori ila bizga bo'ysunsa, uning qizini o'z nikohimizga olamiz. Agar mamlakat podshohi qazo qilgan bo'lsa — shohning xotinini, qizlarini o'zimizga xotin qilib olamiz. Navbat endi To'marisga keldi, u taslim bo'lsin-da, nikohimizga kirsin. Agar aytganlarimizga ko'nmas ekan, jang maydoniga chiqsin!

Elchi, "ma'qul" degan ishorani ijro qildi-da, otini choptirib, daryo qirg'og'i bo'ylab kechib o'tishga qulay joy izlab ketdi.

— Josuslar nima xabarlar keltirishdi? — deb so'radi shoh lashkarboshidan. To'marisning mamlakati, bu diyorda yashayotgan xalqning hayoti, lashkar haqidagi ma'lumotlarni u yana bir marta eshitmoqchi edi. O'zga xalqlar ustiga bostirib borish oldidan u yerda yashaydigan xalqning hayoti, yashash tarzi, jangga qulay maydonlari, tog'-u toshi, to'qaylari, daryosi-yu quduqlarigacha barcha ma'lumotlarni to'plash — fors shohlarining odati. Kir o'zi hujum qilmoqchi bo'lgan mamlakatga da'vatchi-josuslarni ham yo'llaydigan odat chiqardi — bu josuslar o'sha mamlakatga yetib borishgach, dushman juda kuchli, ayovsiz, dahshatli ekanligidan gap ochib, xalq ichida vahima tarqatar edi. Darhaqiqat, vahimali gaplarning o'qdan, qilichdan, nayza va manjanaqlardan ham kuchliroq ta'sir etishini Kir juda yaxshi biladi. Mana taxtga chiqqaniga yigirma sakkiz yil bo'libdiki, shu yillar mobaynida Kir ne-ne saltanatlarning kulini ko'kka sovurmadi, ne-ne shaharlarni qamal qilib o'ziga bo'ysundirmadi deysiz. O'zi mansub bo'lgan pasargardlar qavmini birlashtirib, kichkina qal'alarni katta-katta shaharlarga aylantirdi, Fors mamlakatini kengaygandan kengaytirdi, tevarak-atrofdagi katta-kichik qabilalarni, xalqlarni, mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. Ko'chmanchi xalq bo'ladimi, o'troq xalq bo'ladimi — barchasini o'ziga qaram qildi, boyliklarini taladi, o'zining saltanatiga qo'shib oldi. Avvallari oz sonli xalq sanalgan pasargard (forsiyon)lar endilikda ulkan bir saltanatga aylandi.

Kir dastlab o'zlari bo'ysunib kelgan Midiya mamlakatiga urush ochdi. Uch yil davom etgach urushdan so'ng Midiyani bosib oldi. Fors yurti shundan keyin ulkan mamlakatlar qo'shilgan saltanatga aylana boshlanadi. Ishtahasi ochilib ketgan Kir kuniga uch-to'rt shaharni, qal'a-qo'rg'onlarni o'ziga bo'ysundirib qo'shib ola boshladi. Ko'p o'tmay Elam, Parfiya, Girkaniya, Lidiya, Bobil, Finikiya

mamlakatlari qulab, Kirning oyog'iga bosh urdi. Endilikda Kir Nil daryosi bo'ylarida yastangan go'zal va unumdor tuproqli Misr mamlakatiga yurish boshlamoqchi edi. Biroq bu orada shimol tomonda sak-massaget deb atalmish ko'chmanchi xalqlar Fors mamlakatiga tegib-qochib, qirib-talab, behalovat qila boshladi.

Kir josuslardan eshitganlariga qaraganda, saklar juda chavandoz xalq emish, ular ot ustida umr kechirib, dushmanga bo'ysunmasdan dunyodan o'tib ketarmish. Shu paytgacha birontayam xalq saklarni, massagetlarni bo'ysundira olmagan emish... Bu gaplarni eshitib o'tirib, Kirning juda jahli chiqdi, nomusi kelib, bo'zarib-qizardi. Sak-massagetlarni izlab qo'shin tortdi. Mana, necha kunlar yo'l yurib, sahro-qumlar oshib, massagetlar yashaydigan dengizga yaqinlashdi. Yo'lda uchragan o'nlab o'lka, mamlakat xalqlarini bo'ysundirib kelayotgan Kir o'zini oliy darajadagi hukmdor deb his qilar, mushugiga pish deydigan mard chiqib qolguday bo'lsa, uni bir yoqli qilmaguncha g'azabidan tushmasdi. Shuning uchun ham Kir mo'ljaldagi Misr istilosini tashlab, mana shu sahrolar qo'ynidagi o'jar-o'r massagetlarni tosh-tolqon qilib tashlash uchun bu yoqlarga keldi, axir! Yuborgan josuslari aytishdiki — sahro qo'ynida massagetlarning shaharlari bor emish, shirin-shakar mevazor bog'lari bor emish, oltin-kumush konlarining-ku son-sanog'iga hech kim yetolmas emish. Kir mana shularni zabt etish, o'ziga bo'ysundirish, o'ziniki qilish uchun keldi axir! Ammo bu tomonlarning xalqi ham, tabiati ham qiziq ekan. Kir qancha mamlakatlarni ko'rdi, ammo bunaqangi sirli-vahimali sahroni vatan qilib olgan xalqni endi ko'rishi. Qanchadan qancha daryolarni kechib o'tdi, ammo kishini dahshat-vahimaga soladigan qo'rqinchli Oks daryosiday daryoni ko'rmagan edi. O'zi bo'ysundirgan, taslim qilgan xalqlarni sanab tilga olaversa, nomlarini adashtirib ham yuboradi: kadusiylar, girkanlar, iberlar, kimmeriylar, kissiantlar, axeylar, georgillar, mosxilar, korsitlar, foristlar, rimfaklar, matianlar, tabaranlar — sanog'iga yetish qiyin ularning. Mana endi massagetlar, saklar, daxiylarga navbat keldi...

Bu o'lkalarning baland-pasti, odamlari, daryo-ko'li, tog'-u toshini josuslaridan bilib oldi. Bu zaminning boyliklarini, hosildor yerlarini ko'zi bilan ko'rmadi-yu, lekin ko'rganlardan eshitib

ishondi. Albatta, quloq bilan eshitgan boshqa ekan-u, ko'z bilan ko'rgan boshqa ekan. Mana shu Oks daryosini ham suvi loyqalanib oqadi deb eshitgan edi, lekin bunchalik bo'tana deb o'ylamagan edi. Bu mamlakatga quyosh ham mo'l-ko'l nur to'kadi deb eshitgan edi, lekin bunchalik qizdirib, qozonday kuydirib tashlaydi deb o'ylamagan edi. Massagetlarni ham bir qismigina dehqonchilik qiladi, asosiy qabilalari esa guruh-guruh, to'par-to'par, qavm-qavm bo'lib ko'chib yuradi, poda-poda mollarni, suruv-suruv qo'ylarni oldiga solib, yaylov bilan qishlovlarni almashtirib yashaydi deb eshitgan edi, lekin ularning ekan-tikiniga, dehqonchilikka ham bunchalar usta deb o'ylamagan. O'zlari ko'chmanchi bo'lib hayot kechirgani bilan, o'z-o'zini don-dun, meva-sabzavot bilan ta'minlashga moslashgan manov qavmlarning ko'm-ko'k ekin maydonlari Kirning zavqini keltirdi. Har bir ishga uquvli, epchil, yana jangovar bu xalqni o'ziga tezroq bo'ysundirgisi kelib, yuragi orziqib ketdi. Endi bosib olajak yerlari haqida josuslaridan, savdogar-u sayohatchilardan necha marta eshitgan bo'lsa ham, hozir yana bir bor eshitgisi keldi. Kambizga yuzlanib:

— Bularning... hunarmandchilikdan ham xabarlari bormi? — dedi. Kambiz ham xuddi shunday savolni kutib turganday tezda gapga tushdi:

— Hunarmandchilikda ularni juda usta deyishadi. Ayniqsa o'q-yoy, qilich-qalqon, bolta, gurzi, nayza kabi urush qurollarini yasashga juda mohir emish...

Qilich tutib, ot o'ynatib keladigan zo'ravon borki, u albatta raqibining urush qurollari qanaqa ekanligiga, nimadan yasalganiga qiziqadi. Qanday urushadi, hamma askari shu qurol bilan ta'minlanganmi, boshqa yana qanaqa qurol-aslahalari bor — bunaqa savollar lashkarboshilardan tortib, bosh qo'mondon — ya'ni, podshohgacha — hammani qiziqtirishi shubhasiz. Kir juda yaxshi bilardi, dushman askarlarining sonini, qanaqa qurol bilan urushishini bilish, bu — g'alaba uchun ilk qadam degan gap. U o'zini bu atrofdagi Baqtriya, Sug'diyona, Maroqand, Marg'iyona, Parfiya, Xorazm kabi davlatlarni ana shu tariqa sinchiklab o'rgangan, har bir o'lkaning odamlari-yu qo'shinlarini, urush uslublari-yu barcha katta-kichik sirlarini bilib olganman deb hisoblardi. O'zi bilan

nari-beri kuch sinashib, ayqashib-chayqashib, oxiri bo'yunsungan Baqtriyaga ham, boshqa o'lkalarga ham o'zining odamlarini hukmdor qilib belgiladi. Taslim bo'lgan mamlakatlar endi Kirga oltin hisobida soliq to'laydilar, ot, qurol-yarog', oziq-ovqat bilan ta'minlaydilar. Kir mana endi shu sahroyi xalqni — massagetlarni o'ziga bo'ysundirsa, bas, shundan so'ng Oksian ko'lining shimol tomonlaridagi skiflar ustiga borib qilich o'ynatajak!

Kir ana shunday ulug' niyatlar yo'lida toqatsizlanib turar, uning orziqib tipirchilayotgan qalbini nazarida mana shu daryo tushunib turganday edi. Oks daryosi qaynab yotgan ko'nglidagi armonlarni yanada jo'sh urdirib yubordi. Endi u ayol podshohga elchi yuborgani uchun pushaymon qila boshladi. Qo'shin tortib boraverganida yaxshiroq bo'lmasmidi? Dong'i dunyoni titratgan Kir allaqayoqdagi xotin podshohga elchi yuborib o'tiribdi-ya, shuyam ish bo'ptimi? Mana, endi elchining qaytib kelishini, nima xabar keltirishini kutib o'tirishga majbur. Eh, nazarida elchi kechikayotganday, shohning jahlini chiqarish uchun yoki toqatini sinab ko'rish uchun ataylab kechikayotganday...

Elchi tirikmikin o'zi? Uni o'ldirib qo'yishmaganmikinlar? Elchining o'zi-chi, daryodan o'taman deb yurib, bexosdan Oksning quchog'iga yiqilib, suvga ketmaganmikin?

Kim bilsin, kim bilsin?

Nima bo'lsa bo'ldi — elchi kelsa, kelar. Kelmasa — massagetlar ustiga yurish boshlanadi...

3

To'maris podshoning bugun elchidan olgan ruxsatining so'nggi kuni. U tunni kiprik qoqmasdan o'tkazdi. Yonidagi kanizak qizlarning ko'zlari yumilib, uyquga berilgani allaqachonlar. Podsho ichidagi gaplarni kimga aytishini bilmay alvirab o'tiribdi. Saroyga sukunat cho'kkan, xizmatkorlar qudratli, kuchli, dong'i dunyoga yoyilgan podshoning — o'zlarining himoyachisi deb bilgan bosh rahnamoning mana bundoq to'lg'onishlarini ko'rib, o'zlarini qo'yishga joy topolmaydilar, bir-birlari bilan imo-ishora bilangina gaplashadilar.

Bu saroyda talay-talay mamlakatlarning elchilari bo'lishgan, ular ichida yaxshi niyat, do'stona maslahat bilan kelganlari ham bor edi. G'arazli o'y-niyatda kelgan ikkiyuzlamachi, qalloblar ham bor edi, To'maris ularning barchasini ochiq yuz, pokiza ko'ngil bilan qabul qilgan, hammasiga ham yaxshi muomalalar qilib, sovg'a-salomlar bilan qaytargan, biroq To'marisoyim ularning birontasidan bunchalar qattiq g'azablanmagan edi! Bu zaminga kim kelmasin, niyatiga yarasha javob olgan — qilich ko'tarib kelganlar qilichdan qazo topgan, yaxshi niyatda kelganlar ishlari bitib, sovg'a-salomlar bilan qaytgan. Bu gal esa To'marisoyim ojiza bo'lib tug'ilganiga pushaymon yeb o'tiribdi. Xayolida sarvdek tim-tik qomati yoy kabi bukilib qolganday. Sababi — manov kelib o'tirgan elchilarning gapi. Nima emish, Fors podshohi Kir To'marisga oshiq bo'lgan emish, uni xotinlikka olish uchun kelganmish, To'maris uning aytganlarini qabul qilib, Kir bilan bir yostiqqa bosh qo'ysa, qo'ygan shartlariga ko'nsa, o'zini Kirga bag'ishlasa, Kirni massagetlar shohi deb e'lon qilsa — bo'ldi! Ana shunda urush ham bo'lmaydi, boshqasi ham. Agar ko'nmasa — urushga tayyorlanaversin. Bunda ham baribir Kir yengadi, demak — To'maris unga xotin bo'ladi. Nima qilganda ham Kir To'marisga uylanmaguncha bu yerdan ketmas emish...

Bu qo'yilgan shartlar To'marisning ayollik hamiyatiga tegdi. G'azabi qaynadi. U eri o'lganidan buyon mamlakatni boshqarib kelayotir, shu elni dushman otlarining tuyog'i ostida xor-zor bo'lmasligi uchun nima azob bo'lsa, bariga tayyor edi, har qanday qiyinchilik bo'lsa, unga qarshi kurashdi, savashlarga kirdi, xalqim erkin, ozod yashasin deb jonini ham ayamadi. Tangri inoyati ila xalqi farovon yashab kelayotir, ozod yashab kelayotir. Xalqining boyligi — mana shu saxiy zamin. Massagetlar o'zlarini yaratgan Tangri deb — Quyoshni biladilar, quyoshga, o'tga, olovga sig'inadilar, olovni va quyoshni muqaddas deb biladilar. Massagetlar qurgan uylarga, shaharlarga, binolarga atrofdagi boshqa xalqlar havas bilan qarashadi. Qo'shni mamlakatlarning boyliklariga ko'zi qizib, ularga egalik qilish uchun bosib kelgan podsholarning tishlari massagetlarga kelganda sinib qolaverdi. Sababi, To'marisning askarlari o'zlariga ola ko'z bilan qaragan dushmanlarni to'z-to'zon qilib, yer

tishlatib tashlardi. Massagetlarning hammani hayron qoldiradigan bir odati — ular har qancha botir, jangovar bo'lmasin, o'zga yurtlarga bostirib bormaydilar, bosqinchilik qilmaydilar. Mabodo kimlardir bularni bo'ysundirish maqsadida bostirib kelguday bo'lsa, yovuz niyatdagi dushman askarlarini kul-tolqon qilib tashlaydilar, to chegaradan chiqib ketgunlaricha izidan quvib boradilar, chegaradan chiqib, o'z yurti tomon qochib qoldimi — tamom, bular ham izga qaytadilar. Dushmanni jazolaganlari shu. Ammo bosib kelgan har qanday yov yovuz niyatiga yarasha jazolanadi, albatta! Shuning uchun ham, ko'pdan beri To'marisning mamlakatiga hech kim bosib kelmagan edi. Mana endi, tinch-totuv, obodon turmushga darz ketib, bu go'zal mamlakatga forslar kelib to'kilayotir.

Ayniqsa ularning podshohi aytgan gaplar, to'g'rirog'i, elchilar orqali qo'ygan shartlar To'marisning halovatni alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Dushman askarlari xuddi ko'kragi ustiga chiqib, ot dupurlatib yurganday, To'marisning g'azabi qaynadi. Kirning maqtanib aytib yuborgan gaplari-ku jon-jonidan o'tib ketdi, g'azablanganidan o'zini qo'yadigan yer topmay, yarador arslon kabi bezovtalandi. Bo'ysunmas, mard massagetlar kelib-kelib endi Kirga bosh egadimi? Talay dushmanni yer tishlatib, talay podsholarni taxtdan qulatgan To'maris endi Kirning quchog'iga kirsinmi? Kirning manmanlikka berilib aytgan so'zlari To'marisning yuragida xuddi qadalib qolgan o'qday azob berib turibdi.

To'maris endi Kir bilan yuzma-yuz turib, unga o'zining qaqshatgich javoblarini aytmoqni istardi. Qani buning ilojini topa olsa?.. To'maris shuning uchun ham qattiq bezovtalanib, kechasi bilan uxlayolmay chiqdi. Ko'pdan beri urush olovini tutatib, ikki mamlakat o'rtasida janjal chiqarishga ahd qilgan Kirning barcha niyatlari ayon. U o'z maqsadiga yetish yo'lida hech narsadan qaytmasligi ham shubhasiz. To'maris qo'shni Midiya, Lidiya, Bobil mamlakatlariga karvon tortib borib kelgan savdogarlardan ham ko'p gaplarni eshitdi. Massagetlarni bo'ysundiramiz deb qo'shin tortib kelgan midiyaliklar ham Kirga uch yil bo'yi qarshilik ko'rsatib, oxiri unga bosh egganlarini ham To'maris biladi. Kir midiyaliklarning poytaxtidagi hashamatli saroyiga kekkayib kirib boribdi, shu yerda o'zini "ulug' shahanshoh", deb e'lon qilibdi. Shundan

keyin forslar bu g'alabalardan jo'shib ketib, girkaniyaliklar ustiga bostirib borganlar. Tinch, osoyish o'tirgan midiyaliklar, parfiyaliklar fors bosqinchilarining ot tuyoqlari ostida qoldilar...

Bu yil Kirning taxtga chiqqaniga yigirma sakkiz yil bo'libdi. Shu yigirma sakkiz yilning birontasiyam urushsiz o'tgan emas. Kirning askarlari Erondan boshlab Hindiston, Marg'iyona, Sug'd, Baqtriya, Arey, Gedros, Sattagid, Araxos, Gandxaru mamlakatlarini bo'ysundirdi, u yerlardagi shaharlarni yondirdi, qiyratdi, aholisini qirdi, o'ldirdi, yigitlarini qul qildi, ayollarini tul qildi, boyliklarini olib ketdi...

Xullas, Kir qo'shinlarining dong'i hammaning esini olib qo'ygan edi. Lekin To'maris o'z eliga Kirni xuddi shu paytda — mana hozir bosib keladi, deb o'ylagandi. Axir odam urushni sira kutadimi? Odam bolasining yuragi azal-azaldan yomonlikni kutmay yashaydi-ku! Inson o'zi yomonlikdan ham yaxshilik tama qilib yashaydi.

Ko'pdan beri To'maris Vatanining tuprog'iga dushman otining iziniyam tushirmagan edi. Bugun esa, mana, dushman uning Vataniga bostirib kirmoqchi! Uyulib-to'kilib, "bosh egasan, bosh egmasang urush maydoniga chiq!" deb turibdi. Dushmandan yengilib ko'rmagan massagetlarga bu yomon botdi. To'maris achchig'ini kimdan olishini bilmay, g'azabga mindi. U mag'lub bo'lishidan g'azablanayotgani yo'q, kutilmaganda askarlari dushmanning shu muqaddas yerga — Vatan chegarasiga, daryo yoqasiga bostirib kelganini bilmay qolgani uchun alami kelmoqda. To'maris "birontayam dushman otining tuyog'i bu muqaddas zaminga bostirib kirolmaydi, yovga aslo yo'l yo'q!" deb Quyosh tangrisi sharafiga ont ichgan edi-ya...

Endi nima bo'ladi?!

4

— Kechir meni, Yaratgan egam, kechir, qudrati kuchli Kun tangrim! O'zing madad ber, o'zing yorlaqa, men o'sha o'ngmag'an Kirning qonga to'ymaydigan ko'zlarini qonga to'ydirib, urush ochmaydigan qilaman deb sening oldingda ont ichaman. Qalay

eshitganingda ham , eshitiladigan gap shuki — sen ham, men ham Onadirmiz. Bizlar qon to'kkimiz kelmaydi. O'zing madad ber, qudratli Kun tangrim! Yaxshiliklar tangrisi Axuramazda!

To'maris o'tovning o'ng tomonidagi muyushda yayrab-chirsillab yonayotgan olovning yoniga kelib, ikki bukilib o'tirdi. Boshini egib, shivirlay boshladi:

— Qudratli Kun tangrimiz, sendan boshqa suyanadigan tog'imiz, madad so'rashga kimimiz bor? Sen o'zing yorlaqa, dushmanning oldida boshimiz egilmasin, bizni dushmanga banda qilib, o'g'il-qizlarimizning qul bo'lib qolishlariga izn berma! Sening oldingda ont ichamanki, to qaro yerga kirgunimcha massagetlarni dushmanga talatib qo'ymasman... Ey tangrim, o'zing madad ber! Yerdagi tirikchiligimiz, bizning g'alabaga erishuvimiz — faqat sening qo'lingda. Sen bo'lmasang, yerda qanday tirikchilik qila olardik?! Sen bizni kuchli qilasan, sen bizni kechira olasan, bandalaringning gunohini kechir...

Men ertaga jangga chiqaman. Qancha onalar farzandlaridan ayriladi, yerga yastanib qoladi. Qancha kelinlar yesir qoladi — yesir qolishning nimaligini, farzand tug'ib, uni boqib-ulg'aytirish nima ekanligini men bilaman-ku. O'sha ko'z yoshlar meni qanchalar charchatib qo'yishini hozirdan his qilayapman. O'sha ayollarning ko'z yoshlariga men hozirdanoq cho'kib borayotgandayman. Ilojim yo'qki, ertaga yana jangga chiqishga majburman. Onaman, axir, shuning uchun ham yuragim qon yig'laydi. Biroq mana shu xalqning, yerning taqdiri mening qo'limda turibdi. Yovlar ot o'ynatib ustimizga kelgan ekan, ona Vatanni, xalqimni himoya qilish — mening burchim. Ey qudratli Kun tangrim! Yaxshiliklar sohibi Mitra! Obodonlik va to'qchilik ma'budi Nohit! Insonlarga tiriklik bag'ishlovchi Anaxita va Erho'bbi! Baxt-saodat va rizqi ro'z sohibi Huma! Urush va g'alabalar sohibi Mirrix! Sizlar ham bizlarga haq yo'lda madad beringlar! Massagetlarga madad bag'ishlanglar!

To'marisning ovozi qaltiray boshladi. U uchib o'rnidan turdi. Ko'zlarida g'azab alangasi yaraqladi. Qaddini tikladi, erkin nafas oldi, ozod gavdasida kuch paydo bo'lganini sezdi. Bo'yi o'sayotganday, yag'rinlari kengayib, manglayidagi ajinlar yozilib ketayotganday tuyuldi. Qo'llarida kuch paydo bo'ldi.

Qars chalgan edi, ostonada xizmatkor soqchi yigit ko'rindi.

— Elchini ushlab turmanglar, suhbatga tayyorlanglar!

— Xo'p bo'ladi, podshohim!

— Muloqotga hamma hozir bo'lib tursin!

— Xo'p bo'ladi!

Soqchi yigit tashqariga chiqishi bilan podsho maslahatchilari birin-ketin saroy qabulxonasi oldida to'plana boshladi.

To'maris oltindan ishlangan yarim oy surati manglayini bezagan, gavhar toshlar qadalgan shohlik tojini boshiga qo'ndirishga izn berdi. Kanizaklari tojni keltirib uning boshiga o'rnatdilar. Zarbof iplar bilan tikilgan, la'li-gavhar toshlar qadab bezatilgan choponini olib kelayotgan kanizaklarga "oq choponimni keltiringlar" deb imo qildi. U odatda elchilarni qabul qilganda qizil kiyim kiyar, oq choponni esa to'y-bayramlarda, xalqining oldiga chiqqan paytlarida kiyardi. Kanizaklar ham malikaning qachon, nima kiyishini yod bilar, kunduzlari ko'pincha ko'k tusdagi ko'ylakni kiydirsalar, kechqurunlari yashilga moyil ko'ylaklarni tayyorlab qo'yardilar.

Malika oq kiyinib, qabulxonaga kirganida, barcha maslahatchilar to'planib turgan edi. Ikki tomonidagi ikki kanizak qiz bosh egib orqada qoldi-yu, malika taxtga kelib o'tirdi. U kirishi bilanoq salom berishga shoshilgan maslahatchilariga bosh qimirlatib salomlashdi. Hammani birin-ketin ko'zdan kechirdi. Birpas taxt yonida gurullab yonib turgan olovga tikilib turdi. Oradagi sukunatni buzishga hech kim jur'at qilolmadi.

To'marisning o'zi oshiqmasdan so'z boshladi:

— Mana, va'dalashgan kunimiz ham keldi, qanday qaror qabul qilamiz? Yo men boshimni Kirga bog'lab, uning qo'liga o'z taqdirimni topshiray-da, shunday qilib sizlarni omon olib qolayinmi, yo jangga kirib, so'nggi nafasimiz qolgunicha dushman bilan olishib jonga-jon, qonga-qon deb urush qilamizmi? Axir Kirning o'zi "menga tegasan, menga xotin bo'lasan, seni olib yurtga qaytaman, tegmaydigan bo'lsang — jang maydoniga chiq", deb shart qo'ydi. O'zingizga ma'lum, Kirning qilichi ko'p o'lkalarni zabt qildi. U Midiyani, Liviyani, Bobilni ham qo'lga kiritdi. Endi uning oti ko'targan chang biz tomonga yetib keldi. Urishadigan bo'lsak, bu urush avvalgi qilgan urushlarimizga o'xshamaydi, endigi bo'la-

digan bu urush — haqiqiy qirg'in savash bo'ladi: yo birato'la yo'q bo'lib ketamiz, yo Kirni yo'q qilamiz. Men savashlardan, behuda qon to'kilishlardan bezor bo'ldim. Biroq Kirga ham bosh egib, xotin bo'lish istagim yo'q. Shunda, menga qanday aql berasizlar? Nima qilmog'imiz kerak? Savash qilamizmi yoki tinchlik yo'lini tanlab, Kir bilan qarindoshlik rishtalarini bog'lab, quda bo'lib yashaymizmi? Kirga albatta men kerak emasman. Unga bizning boyliklarimiz, oltin konlarimiz kerak. Kir menga "tinch yashayman desang — mening xotinim bo'l" degani bilan, u meni istab turgani yo'q, u tinchlik yo'li bilan ana shu boyliklarimizga, yerimizga ega bo'lib olmoqchi. U bir nechta shaharlarni urushsiz, o'ziga qaram qilib oldi. Endi biz ham uning makkorona so'zlariga uchishimiz kerakmi?

Maslahatchilari bir safga qator tizilib olib, so'zni nimadan boshlashlarini bilmay kalovlanishardi. Kim birinchi bo'lib so'zlaydi, so'z oqimini qay tomonga qaratib burish kerak?

— Qudrati kuchli Kun tangri, undan keyin sig'inadigan tangrimiz To'maris ruxsat bersa, men bir-ikki og'iz aytayin, — dedi bosh maslahatchi Osiarg. Uning alp tulg'asi[1] tebranib, guldiragan yirik tovushi gungranib, sekin-sekin gapira boshladi.

— Siz — massagetlarning urib turgan yuragisiz. Sizni ham dushmanga berib yuboradigan bo'lsak, bizning xalq bo'lib uyushib yashashimizdan aslo ma'ni yo'q. Shuning uchun, oxirgi qonimiz qolguncha, Sizni himoya qilib kurashishga biz tayyormiz!

Atrofdagi a'yonlar g'ovurlashib uning so'zlarini ma'qullashdi.

— Biz kurashga tayyormiz!

— Tayyormiz!

— Qudratli Kun tangri, suv tangrisi Anaxita, barining payg'ambari Zardusht hazratim, qudratli podshohimiz To'maris, ruxsat bersangiz, men bir aql qo'shsam, — dedi Artaks. U ko'kragini yopib turgan oppoq soqollarini qo'li bilan o'ynarkan, shoshmasdan davom etdi. — Kir askarlari boshimizga birdan kelib to'kildi, xabar bermasdan keldilar. Shunga qaramay, ularning oldiga bir shart qo'yishimiz kerak, deb o'ylayman.

— Qanaqa shart?

[1] **Tulg'a** — gavda, ko'rinish.

— Shart shundan iboratki, biz undan askarlarini olib ketishini so'raylik. Biz behuda qon to'kilishini istamaymiz. Bizning ham, ularning ham qoni to'kilmasin. Yaxshilik bilan jo'nab qolsinlar. Agar ortga qaytib ketmasalar, unda o'z jazosi o'zi bilan, Kirning shu kungacha erishgan shon-shuhrati, dong'i, obro'y-e'tibori sariq chaqalik bo'lmay qolishini ularga eslatib qo'yishimiz kerak. Ha, shunday bo'lajak, o'zlaridan ko'rsin!

Bu so'zlar massagetlar podshohiga ham ma'qul tushdi.

— Elchini chaqiringlar! — dedi u ovozini balandlatib.

"Nima qilganda qiyin vaziyatdan qon to'kmasdan chiqib ketar ekanmiz?" — deb, yo'l izlayotir To'maris. Shuning yo'li topilmayapti, topilsa edi — vaziyatdan urushsiz chiqish imkoniyatini qo'llamoqchi u — bunisi hammaga ayon. Ammo ustiga ot o'ynatib kelgan dushman bunga ko'nadimi? Demak, Kirni shu yo'l bilan irkib[1], salgina hayallata olsa, ya'ni qo'ygan shartini Kir o'ylab ko'radigan bo'lsa, To'maris ikki-uch kunga bo'lsa ham vaqtdan yutadi. Agar shu yo'l bilan urush bartaraf etilsa, lashkar to'xtasa — bu hamma uchun yaxshi. Buning uchun To'maris boshini berishga ham tayyor. Biroq Kirga To'marisning boshi emas, o'zi kerak, uning taxti kerak, boyliklari, oltin konlari, gavhar, inju toshlari kerak. Massagetlarni o'ziga qul qilib olish uchun u shuncha yo'llarni bekorga bosib kelib turibdimi? U axir dong'i yer yuziga yoyilgan Nabonidni ham jangda mag'lub eta oldi, u o'zining kuch-qudratiga ishonadi, uning qilichi hali biron marotaba qaytgan emas. Uning yengilmas qudratini ko'rgan Bobil mamlakati shaharlari jangsizoq taslim bo'lganlar. Kir shunaqa podshoh, qay mamlakatga qarab yuzlansa, shu mamlakatga baloyi ofat yuzlanar emish. Shuncha ko'p mamlakat-u o'lkalarni o'ziga bo'ysundirib, Forsiya degan ulkan saltanatni bunyod qildi u.

Albatta, bularning barini To'maris eshitib-bilib o'tiribdi. Axir dunyoning to'rt tomonidan, yetti iqlimdan kelayotgan karvonlar mana shu yurtdan — massagetlar mamlakati ustidan o'tadi. Karvonlar bu yurtdan o'tayotib, faqat oltin-kumush-u, ipak-zarbof matolarni xarid qilib qolmaydi, balki dunyoning qaysi burchagida nima voqealar ro'y berayotgani, qaysi mamlakat yo iqlimda nima

[1] **Irkib** — ushlab, hayallatib turish.

gap, qanaqa ob-havo ekani borasida ham axborot berib o'tadi. Shu desangiz, dunyoda nima gaplar bo'layotgani-yu, qaysi mamlakat odamlari qanaqa yashayotgani haqida yangiliklarni birinchi bo'lib massagetlar eshitadi. Karvon o'tadigan to'rtta darbandning egasi — mana shu massagetlar. Shunday ekan, Mag'rib-u, Mashriqda massagetlar boy va sermazmun yashamay, kim yashasin? Shunday ekan, dunyo xalqlari massagetlarga havas qilmay, kimga havas qilsin? Binobarin, shundan xulosa chiqarib fikr yuritganda ham, kimsan Kirday ulug' podshohning bir kunmas bir kun massagetlar yurtiga — Oks bilan Yaksart daryolari oralig'iga kelib tumshuq suqishini tasodif deb bo'lmasdi. Hasaddan ko'zi yongan, oltin-u kumushlarga egalik qilish hissi nafsidan ham g'olib chiqqan qudratli dushman bir kuni bu yurtga qo'shin tortishi turgan gap edi.

Mana shu kun keldi.

5

Qabulxona oldida elchi ikki odami bilan paydo bo'ldi. U to'g'ri kelib To'marisning oldida egilib ta'zim qildi. To'maris elchiga qarab, g'oyat vazminlik ila bosh tebratdi.

— Ulug' darajali Forsiya podshohi Kirning salomiga javobimiz tayyor, uning takliflariga bizning munosabat sababli sizlarni bu yerga tez chaqirtirdik. Biz podshoh Kirning birinchi takliflarini va bu borada qilgan manziratlarini mutlaqo rad qilamiz, — dedi u elchilarga vazminlik va muloyimlik bilan. — Podshohingizning ishqi bizga tushgan ekan, qo'shin yig'ib, ot surib emas, balki chin oshiqlarday yuragini qo'liga olib, qadimiy urf-odatlarimiz bo'yicha avval sovchi yuborib, so'ng o'zi sovg'a-salomlar bilan kelganida, ehtimol biz, "ha, niyati chin ekan", deb o'ylab ko'rgan bo'lar edik. U yesir qolgan ayolni ayttirib emas, balki bu ayolning mamlakatiga ko'zi qizib kelgan, bo'ysundirib qul qilish uchun kelgan. Biz buni yaxshi tushunib turibmiz. Biz yovdan qochib yurib kun ko'radigan xalq emasmiz. Podshohingiz dushmanlik yo'lini tutib, qilich ko'tarib, yomon niyatlar bilan kelgan ekan, biz ham urush qilishga, yovni qilich bilan qarshi olishga tayyormiz. Massagetlar hech qachon birovga qul bo'lmagan, qul bo'lmaydi ham!

Elchilar bir-birlariga qarashga ham hayiqib, jim turib eshitmoqda edi.

— Ol, podshohingizning ikkinchi sharti — urush qilmoq, bizni jangda yengib, g'alaba nashidasini surmoq ekan, biz bu shartga ham tayyormiz. Biroq, bir o'tinchimiz bor — Kir haliyam yomon niyatidan qaytib, qon to'kmasdan iziga qarab ketgani ma'qul. Yana takrorlayman, massagetlarni jangda yengib bo'ysundirgan lashkar bu atrofda ham, Buyuk ipak yo'li jabhalarida ham yo'q. Kir baribir yengiladi. Mening unga bildiradigan bittagina iltimosim shu — bekorga qon to'kmasin-da, yurtiga ravona bo'lsin.

Bosh elchi ikki tomonidagi yordamchilari bilan yer ostidan ko'z urishtirib, endi so'z aytish uchun og'iz juplayotgan edi, To'marisning ovozi endi yangradi:

— Mabodo urushmoqchi ekan, unda o'zidan ko'rsin, jang maydoniga chiqsin. Biroq oramizda hozir Oks daryosi oqib turibdi. Oksning qaysi sohili Kirning jang qilishi uchun qulay? Chap tarafi qulay desa, biz daryoni kechib, chap tomonga o'tamiz. Agar o'ng tarafi qulay ko'rinsa, daryoni kechib biz tomonga o'tsin. Kirning lashkari Oksdan o'tib olguncha, biz uch kunlik yo'lga ketib turishga ham tayyormiz. Daryodan bemalol o'tib olsin, keyin jang maydonini tanlaymiz.

To shu so'zlarni aytib tugatguncha To'maris taxtida qimir etmasdan qaddini tik tutib o'tirdi. Hozir unga tikilib turgan odam ham mana shu so'zlarni taxtda o'tirgan ayol aytayotganiga ishonmasdi. Elchilarning yerga ko'z tikib, indamay qolganicha bor ekan — podshoh ayolning har bir so'zi qilichday keskir, o'q misoli uchli ediki, gapirayotgan paytida ko'zlariga qarab bo'lmas — ulardan olov sachrab chiqayotganday edi.

Elchilar To'marisning gapiga biror og'iz ham so'z qo'sholmadilar.

— Ajab bo'ladi, ma'qul, yetkazamiz, — deb ming'irlaganlaricha ular tashqariga otilib chiqdilar. Viqor bilan aytilgan gaplarni nafas olmay eshitgan elchilar saroydan chiqqanlaridan keyingina ko'kraklarini kengaytirib nafas oldilar. Ularni massaget yigitlari shahar sirtigacha kuzatib qo'ydilar.

6

Kirning ikki yuz ming askari hali To'marisning javobini eshitmayoq bir tunda Oksdan o'tib oldi.

Kir uchun bir kun bir yilday sezildi. U yuborgan elchilarining bunchalik kechikayotganidan hayron edi. Shu paytgacha bosib olgan yerlarining birontasigayam elchi yuborib ko'rmagan, mag'lub bo'lishi kutilayotgan xalq rahbarlari, hukmdorlari bilan muloqot yuritib ko'rmagan edi. Kutilmagan yerda shaharga bostirib kiradi — tamom, mag'lub bo'lding, taxtdan ayrilding, bo'yin sunding — bosib kelgan bosqinchining vazifasi shu! Tinch yo'l bilan bo'yinsunasanmi yoki so'nggi nafasing qolgunicha kurashib o'lasanmi — bu yog'i endi mag'lub bo'lgan xalqning vazifasi. Bosqinchi deganlari o'z nomi bilan bosqinchi, u bo'ysundirish, boyliklarini talash, yeringni tortib olish, o'g'il-qizlaringni qul qilib haydab ketish uchun keladi. Bosib kelgan dushmanga darrov bosh egib, qo'ygan shartlariga ko'nsang, dushman qon to'kmayoq, mag'lub bo'lgan xalqni o'ziga tobe bo'lgan el deb sanaydi-da, keragini olib ketadi — urushning taomili shu.

Shu kungacha Kir qancha o'lkalarni, mamlakatlarni, qancha-qancha xalqlarni bosib olgan bo'lsa, barchasida mana shunday bo'lib kelayotir. "Bo'ysunmas" deb nom chiqargan qancha ellarni bo'ysundirdi, qanchasini qirib tashladi, qanchasini ko'chirdi. Shu tariqa chor-atrofidagi shahar-u qishloqlarni, o'lka-yu mamlakatlarni o'zining izniga solib, ulkan bitta saltanat qilib qo'yibdi. Oks va Yaksart bo'ylariga — ikki daryo oralig'i deb atalgan yurtga mana endi birinchi kelishi. Keldi-yu, hayron qoldi — hali shu paytgacha xotin kishini podsho qilib qo'yib, unga bosh egib yurgan xalqni uchratmagan edi. Kir erkak kishilar o'rniga ayollari qilich ko'tarib, elni qo'riqlaydigan ayollar saltanati haqida ham ko'p hangomalar eshitgan. U mamlakatda ayol kishilar o'ng ko'kragini yoshligidanoq kuydirib tashlar emish, farzand tug'ilsa, faqat bir ko'krakni emib ulg'ayar emish... Ajabo, bunday saltanatda yilda bir martagina — bahor oylarida u ayollar o'zlari sevgan yori bilan qo'shilib

yashab, muhabbat lazzatiga botar emish-u, ol, qolgan paytlarda esa ular xalqdan ajralib chiqib, bir chetda urush hunarini o'rganar emish. Kirning hayotidagi bir armoni — o'sha ayollar saltanatini qidirib topish, o'shalar bilan ham bir jang qilib ko'rish edi.

Butun yer yuzini asta-sekin bo'ysundirib kelayotgan qudratli shohga kimlar kelib arz aytmaydi, kimlar nimalarni gapirib bermaydi, deysiz. Masalan, u To'marisning eri ham podshoh bo'lib mana shu xalqqa rahbarlik qilganini, qaysidir bir jangda mardlarcha olishib halok bo'lganini, eri o'lganidan keyin esa xalqqa To'maris boshchilik qilayotganini, uning o'n sakkiz yashar bir o'g'li ham borligini eshitgan. Yigitcha endilikda pahlavon bo'lib yetishibdi, yaqin kunlarda uylanarmish, so'ng taxtga chiqib, el-yurtga rahbar bo'larmish. Mana, Kir bulardan ham xabardor. Nima bo'lsa-da, Kir ayol podsho bilan uchrashishni orzu qiladi. Shuning uchun ham bu mamlakatni tezroq zabt qilgisi kelayapti-da...

U otini o'ynatib, elchi keladigan yo'lga chiqib turganini sezmay ham qoldi.

"Kelayapti, elchilar kelayapti!" — degan gaplar yangradi. Yuragi bir orziqib ketdi. Nazarida, To'maris boshidagi toji-yu taxtini o'g'li tomonga otib tashlab, o'zi Kirning oldiga chiqib turganday sezildi. Elchilarga peshvoz chiqish uchun otini yeldirib-choptirganini bilmay qoldi. Elchi otdan tushdi-yu, o'zini podshoh oyoqlariga otdi.

— Tez gapir, qani, qanday javob olib kelding?!

— Olampanoh! To'maris biz ko'rgan-bilgan podshohlarday emas ekan. U urishishni ma'qul topdi! Sizga ortga qaytib ketishni maslahat berdi, qaytib ketmasangiz, yanchib-yo'q qilib tashlayman, dedi!

Kir bu gaplarning davomini eshitgisi kelmadi. Daryoning narigi qirg'og'iga tikildi. Ko'z oldiga "bosh egmayman" deb turgan ayol podshohning kelbati keldi. Shu ayolni bir ko'rsa edi...

— Jang qilamiz! Jangga kiramiz! — deb qichqirdi u g'azab bilan. O'zi esa To'marisga elchi yuborganiga o'kina boshladi: shoshmay tur, sen sahroyi malika!

7

Oks va Yaksart — Nuh payg'ambarimizning qizlari ekan. Orol dengizi — to'fon paytida Nuh payg'ambarimizning kemasi to'xtagan joy emish.

(Xalq afsonasidan)

Kir boshqa hech bir dengiz bilan aloqasi bo'lmagan ikki dengizning nomini karvon tortgan savdogarlar ham, o'zi yuborgan jonsiz (ayg'oqchi)lari ham adashtirib yuborganini tushuna boshladi. Ular Kaspiy va Girkan dengizlarining nomini almashtirib qo'ygan bo'lsa kerak. Bir jonsizi Kaspiy dengizi deb aytadi, bu dengizni o'n besh kunda suzib o'tsa bo'larmish. Ikkinchi biri jonsizi bu dengizni Girkan deb keladi, uni o'n kunda suzib o'tsa bo'ladi deydi. Yana bir kelganlari esa, ikkovini bir dengiz deydi, suzib o'tish mumkin bo'lgan muddatini ham bir xil deb aytadi. Shunda, bularning qaysi biriga ishonish mumkin? Kaspiy dengizining bo'ylarida o'ndan ortiq qavmlar yasharmish: bularni — sagartiylar, sarangiylar, famansiylar, utiylar, mikilar deyishadi. Ulardan soliq olib kelganlarida kam deganda saroyning yarmi liq to'lib qoladi. Bu xalqlar qo'y terisidan kiyim kiyar emish, qamishdan o'q yasar, yoy yasarmish, forslarning qalqon-qilichlarini taqib yurar emish... Kir ularning barchasini o'ziga bo'ysundirdi. Jonsizlarining aytishicha, Girkaniya — qip-qizil qiya qumliklar orasida yotgan, hech bir dengiz bilan bog'lanishi bo'lmagan alohida bir dengiz. Ko'pchilik sayohatchilar buni Skif dengizi deb ham aytadi. Aytishlaricha, bu dengiz — yap-yalang'och emish, atrofida na bir tog', na yakka bir daraxt bor emish, odamning kaftida turganday suv to'planib yotgan dengiz emish, boshqa hech bir dengizga o'xshamas emish. Maslahatchilari aytishdiki: "Ey shohim, bu dengiz shunchalar sirli bo'lsa kerakki, atrofidagi qavmlar ana shu sir tufayligina hayotda kuch to'plab, baquvvat bo'lib yashasalar kerak. Girkaniya dengizining sirli qudratini shundan bilsa ham bo'ladi — bu dengizning yoqasida o'sgan kiyiklar necha-necha to'qayzorlarni sakrab oshib o'tib, Skiflar dengiziga kelib, shu yerlardagi suvga cho'milib, yana o'sha cho'llar bag'riga qaytar emish. Ular bahor boshlanganda — barcha hayvonot-u nabotat namunalari ko'payishib, unib-o'sish uchun

moyillik kasb etgan bir paytda shu yerda gavdalariga homila orttirib oladi emish. Hayvon-ku hayvon, qushlarni aytmaysizmi, shohim, dunyoning barcha katta-kichik qushlari ham shu tomonga qarab uchib, Girkaniya dengizi bo'ylarini yoqalab qo'nib, bular ham o'sha sehrli-sirli dengizdan o'zlariga kuchmi-malhammi yuqtirib olar emish. Alqissa gap shuki, bu dengiz — dunyodagi barcha tirik jonivor-u uchar qushlarning, e, qo'yingki, barcha odamzodning, hayotning kindigi emish..."

Kir maslahatchilarining bu xil gaplariga avvallari kulibgina qo'ya qolgan edi. Ammo bir shamol esgan paytida, ko'pchilik: "ana, Skif dengizining hidi kelayotir!" degan gapni chiqardi-yu, Kir bu gaplarning chinligiga ishondi. Qip-qizil sahro unga hayotning lazzatini, tiriklikning g'animatligini so'zlayotganday tuyuldi. Tabiatning o'zi in'om mana shu yovvoyi go'zallikning ustiga qo'sha yana bir gapning rostligiga imon keltirdi: dunyoning to'rt tomonidan kelib, to'rt tomoniga qarab ketadigan savdo karvonlarining yo'li mana shu mamlakat hududlarida kesishar emish, ya'ni kunchiqardan kunbotarga yuraman desang ham, janubdan orqa tomonlarga o'taman desang ham mana shu yerlar senga tinch-bexavotir panoh bera oladi. Unday bo'lsa, bu mamlakatning obodligining bir sababi ham shu ekan-da, o'tgan-ketgan duo qilib o'tsa, nimadir olib, nimadir qoldirib ketsa, yana qaytib o'tishiga umid bog'lab yashasa, bu zamin — Yaratganning o'zi alqab-yarlaqagan joy ekan-da! Yo jannat deganlari shumikan?

Dengiz tomondan esib turgan shamolga qaraganda, bu dengiz — haqiqatan ham atrof-javonibga qon yetkazib borayotgan yurakka o'xshar ekan. Bu dengizga suv keltirib quyadigan daryolarning nomlarini maslahatchilar Oks va Yaksart deyishdi. Kir bu yerlarga yetib kelguncha necha stadiy[1] yo'l yurdi ekan? Aytganlari ham rostga o'xshayapti: 20 ming stadiydan oshiq yo'l bosibdilar. Yana aytishlaricha, Oks daryosi, bu yaqin iqlimlar orasida eng ulkan daryo emish, kattaligi-yu uzunligi jihatidan hatto Hind daryosiga ham tenglasha oladi deyishadi. Kir, mana, Oks daryosini ko'rdi-yu, uning qudratli, mahobatli o'zan ekaniga ishondi.

[1] **Stadiy** — qadimgi uzunlik va kenglik o'lcham birligi. Yunon olimlarining o'lchoviga ko'ra, 1 stadiy — 192,27 metrga teng bo'lgan.

Oksning Skif dengizidan Kaspiy dengizi tomon ajralib oqib ketadigan bir tarmog'i savdo karvonlarining kechib o'tishi uchun juda qulay deyishadi. Shu yerdan o'tib, Kaspiy dengiziga bora olsang, naryog'i — Albaniya. Undan ham o'tib orqa tomonga yuraversang, yana yangidan yangi mamlakatlar kelaveradi. Xullas, suvga mo'l, ob-havosi dehqonchilikka juda qulay yerlar ekan.

Kir, mana shu ikki daryo oralig'idagi hududlarni o'z saltanatiga qo'shib olsa — hayotidagi eng ulug' orzusiga erishgan bo'lar edi-ya... Ayniqsa, bu yerlarning Kunchiqar va Kunbotarni birlashtira oladigan qirli bo'g'oz ekanini aytsang-chi! Qir yo'li bilan suv yo'lining qanchalar ahamiyatli ne'mat ekanini hammayam biladi, ayniqsa hukmdor odamlar buning qanday muhim omil ekanini yaxshi tushunadilar. Axir davlatni idora qilish masalasida yo'l degani — juda ulkan siyosat, asosiy ustunlik-ku. Savdogarlar mana shu ikkala yo'ldan ham foydalanaverar emish.

Lekin hozir qir yo'lidan ham, suv yo'lidan ham qiziqarliroq bo'lib tuyulayotgani, bu — shu atroflarda yashovchi massagetlar! Vaqt o'tgani sayin ular Kirga tobora qiziq, tobora jumboqli va sirli xalq bo'lib tuyulmoqda. Manov jimjit dala, jimjit yotgan sirli sahro, shu sahroda yashashni baxt deb bilgan massagetlarni bu yerlarga bog'lab turgan narsa nima o'zi? Daryo-yu sahrolar qo'ynida yashirinib yotgan oltin konlarimi? Rostdan ham manov qip-qizil qumlarning tagi — yombi-yombi oltin bo'lsa-ya?! Kirni mana shular qiziqtiradi. Aytganday, otasi ham shu tomonlarga havas bilan ko'p marotaba tikilardi-ya! Bu bejiz emasdir axir. Ahdi shu — otasi yetolmay armonda ketgan shu sirning tagiga, mana, Kir yetadi! Sirli bu xalqning podshosi bo'lgan ayol esa "ketaversin!" debdi-ya. Ketib bo'pti, aksincha, mana shu sahro xalqini bo'ysundirish orzusi, mana shu oltin sochilgan qumlarga egalik qilish niyati Kirni tobora o'ziga tortib borayotir.

Massagetlarning dalasi sirli. Qip-qizil qiya qum bilan qurshalgan, lovullagan issiqning o'rtasida joylashgan, narigi boshidan bu tomonga suzib o'tishi bir oylik yo'l bo'lgan dengizi haybatli. Bularning hech biri Kir bosib o'tgan yo'llarga, oyog'ining izi tushgan dalalarga o'xshamaydi. Jonsizlari saklarning itini ham maqtagan edi: bu itlar kuch tomondan yo'lbarsni ham yenga olarkan, filni

ham uloqtirib tashlar emish. Sayohatchilar nomini turlicha qilib aytadigan dengizning o'zi ham boshqa dengizlarga o'xshamas ekan. Dengizning o'rtasida borgan odamni qo'yib yubormaydigan orol bor emish. Bu dengizda odamga kuch bag'ishlaydigan, turli-tuman xastaliklarga shifo bo'ladigan tuz bor emish, u uzoqdanoq yaltirab ko'rinar emish. O'sha tuzga yaqinlashib bo'lmas emish, yaqinlashsang — yutib yuborar emish. Lekin mana shu borsang yutib yuboradigan oroldan ham qaytib kelishning yo'lini topgan odamlar bor deyishadi, buning uchun yangi qulunlagan biyaning qulunini qoldirib, o'zini minib ketish kerak emish, quluni sohil tomonda qolgan biya dengizning cho'zgan qo'llariga tutqizmasdan, ustidagi odamni sohilga olib qaytadi, degan gaplar bor. Kela kelguncha ham, bunday odamlarning mingtadan bittasigina omon qoladi, deyishadi. Bu atrofda uchib yuradigan qushlarni ham ajoyib deb aytishadi: kattaligi tovuqning xo'roziday kelar emish, bu qushlarning pari dunyoda nechta rang bo'lsa, o'shancha rangda tovlanib turarmish. Yana bir xil qush bor emishki, uchgan paytida oyoqlarini bo'ynining ustiga ortib olarmish, ovoz chiqarsa, ovozi kuchukning ovoziday eshitilar emish. Bundan tashqari, echkiday ma'raydigan, qurbaqaday vaqillaydigan qushlar ham bor deyishadi. Ayniqsa, oltinday sariq tuxum tug'adigan qushni aytsang-chi! Mana shunday ajoyibotlar bor emish bu dengiz atroflarida. Boshqa hech bir dengizga o'xshamaydigan, ajoyib-u g'aroyib, ajabtovur jonivorlari mavjud bo'lgan dengizning tiriklik dunyosi, mavjudot olami — ana shunday jumboqlarga boy deyishadi...

Qani endi tezroq mana shu xalqlarni oyog'i ostiga yiqsa, salobatli shaharlarini yoqib, kul qilsa, botirligi bilan nom qozongan ayollarini gung[1] etib, askarlariga ulashtirib bersa, huv o'sha tomonlardagi sirli dengizni egallab, elaro ovoza bo'lib ketgan jumboqlarning tagiga yetsa, o'jar Oks daryosining qaysarligini yengib, o'ziga bo'ysundirsa. Ana shularni orzu qiladi Kir. O'ylab qo'ygan niyatlarining amalga oshishiga Kir ishonadi ham. Bari uning o'ylaganiday bo'lajak: o'jar daryo — yuvvosh suvlarga aylanadi, sirli voqealarga boy dengiz — oddiy dengizga, qahramon xalq — qulga,

[1] **Gung** — asira qiz-ayol.

boy tabiat — rangsiz, o'lik bir olamga do'najak. Kir mana shunday bo'lishiga ishonib kelayotir.

Ot ustida umr ko'radigan suvoriy ayollar bor emish bu mamlakatda... Bunisi qanaqa qo'shin ekan o'zi? Eshitgan odamni qulog'ini qizdirib, havasini keltiradi-ya bu so'z! U Semiramida degan ajoyib botir qiz haqidagi afsonani ham eshitgan edi. Semiramida — Suriya tangrisi Derketning qizi bo'lgan deyishadi, uni Simma tarbiyalagan emish. U qiz podshoning saroy xodimlaridan biri Onneyaga turmushga chiqib, ikki o'g'il ko'radi, keyin eri bilan birga qo'shin tortib, Baqtriyani bosib oladi. U doimo eri bilan birga bo'lib, uning harbiy-jangovar ishlarida yordam bergan, umri ot ustida o'tgan suvoriy ayol. Sarkarda Onneya halok bo'lganidan keyin podshoh Nin o'zi uni nikohiga oladi. Nin yoshi saksonga yaqinlashib qolgan chol edi. Semiramida unga o'g'il tug'ib beradi. Nin olamdan o'tgandan keyin o'g'li kamolotga yetguncha malika Semiramidaning o'zi mamlakatni boshqaradi. Bu ayolning taxtga chiqib podsholik qilish tarixi ham To'marisning tarixiga o'xshab ketarkan...

Bundan boshqa ham jangovor ayollar haqida aytilgan-to'qilgan afsonalarni dunyo biladi. Alban tog'lari etaklarida ot surib yashab o'tgan jangchi qizlar — amazonkalar haqida kim bilmaydi deysiz. Ular haqidagi hikoyalarni Kir ham necha marta eshitgan. Midiya mamlakatini o'ziga bo'ysundirganda, amazonkalarning tog' etaklarida harbiy mashq o'tkazib yurganlaridan Kirning askarlari xabar topgan edi. Lekin o'shanda Kir u tomonlarga qayrilmadi. Ol, Oks bilan Yaksartning dengizga quyiladigan yerdagi podshohi ayol bo'lgan qavm haqidagi hikoyani u Midiya podshohining o'zidan eshitgan edi. Sak-massaget qo'shinlarining jangovorligi, qo'rqmas botirligidan Midiya hukmdorining o'zi ham tashvishga tushib qolgan edi o'shanda.

Midiyada yigirma yil hukm surgan Artin, qirq yillab podsholik qilgan Astibar ham bu qavm bilan necha bor olishib ko'rgan-u, ammo yenga olmagan ekan. Ko'pgina qonlar to'kilib, ularga bas kelish qiyinligini bilgandan so'ng, ular bitim tuzadilar. Bitim bo'yicha, har kim o'z yurtida hokim bo'lib qoladi, lekin Midiya bilan munosabatlar do'stona bo'lishi kerak, ya'ni Midiyaga chetdan

yov kelib, tahdid soladigan bo'lsa, sahro qavmlari ham Midiyaga harbiy yordam berishlari kerak. Saklar Midiya mamlakatiga harbiy yordam berishga rozi bo'ldilar. Midiya hukmdorlari bitimga erishgan xalqlar orasiga ham boshliq qilib o'zlaridan satraplar jo'natar edi. Bu bitim shartlarining buzilmasligini ta'minlash, nazorat qilib borish uchun edi. Sak-massagetlar esa bitim tuzganida qon ichib bu bitimni mustahkamlar ekan. Ular uchun odam qoni — eng qadrli, muqaddas narsa ekan. Shuning uchun ham bunday mas'uliyatli pallada barmoqlarini kesib, mana shu chiqqan qon haqi va'dani buzmayman, degan ma'noda, o'rtaga qonni qo'shib ont ichar ekan. O'rtada qon qo'shilib shart qilindimi, endi buni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Shu paytgacha o'rtada qon bilan bitilgan bitimni saklar tomonidan buzgan odam bo'lgan emas. Ular bir marta ont ichdimi, shu ontga bir umr sodiq qolishadi. Saklarning o'z tartib-qoidalari bor. Ayniqsa, botqoqlik saklari deb nom chiqargan tigraxaudaslar, tiaydoralar, sakmauvarkalar juda urushqoq, dadil qavmlar hisoblanadi. Ular ontni buzganlarni ayab o'tirmaydilar, adolatli bitim tuzilsa-yu, kimdir shu bitimni buzishga jur'at etsa, butun xalq jang maydoniga chiqib ketar emish. Jangga kirganlarida oldilariga odam solmaydi, deyishadi. Ular hali jang-u jadal, urushda yengilib ko'rmagan emish. Erlari o'lsa, ayollari or-nomus uchun chopib, jangga kirib ketaveradi. Ayol kishiki qo'liga qurol olib, otga minib, maydonga chiqdimi — uni endi to'xtatib bo'ladimi? Midiya shuning uchun ham, garchi Sharqda eng katta davlatlarning biri bo'lsa-da, mana shu sak-massaget qavmlarini shu paytgacha bo'ysundira olmagan.

Bu janglar tarixini Kir bir necha marotaba eshitgan. Ayniqsa Midiya lashkarboshisi Striangay bilan sak malikasi Zarinalar orasidagi voqealar esidan sira chiqmaydi. Xalqning naql qilishicha, Zarina ham saklarga hukmdorlik qilgan, u eng odil, aqlli podsholardan bo'lgan ekan, katta-kichik shaharlar qurdirgan, bog'lar yaratgan... U podsholik qilgan davrda birortayam dushman saklar yurtiga bosib kirolmagan.

Sak ayollari erlari bilan tengma-teng turib janglarda ishtirok qilganlar. O'zi avvaldan saklarda ayollar elni himoya qilib, janglarda qatnashib kelgan, deyishadi. Bunisi endi jamiyatda ayol kishi

ustun bo'lib turgan vaqtlardan qolgan bo'lsa kerak. O'sha zamonlarda erkaklar uyda qolib, bola boqib o'tirgan, uy ishlariga qaragan, deyishadi. Ayollar esa bolalarini erlariga tashlab, o'zlari harbiy tayyorgarlik ishlari bilan shug'ullangan emish. Harbiy tayyorgarlik ishlarida ishtirok etish uchun bir necha oylab chetga — ovloq joylarga chiqib ketishgan. Lekin naslni davom ettirish, bola tug'ish ishlariga ham ruxsat berilgan. Bola tug'ilgach, ayollar yana yurt chegarasini qo'riqlash ishlariga chiqib ketavergan, bola parvarishi ishi esa otalar zimmasida bo'lgan. Ota — uy yumushlari, xo'jalik yuritish ishlari bilan, ona — uyni, yurtni, don-dunni qoravullash bilan shug'ullangan. Bahor oylarida ularga uy-uyiga borib kelish uchun ruxsat berilgan. Shu orada homilador bo'lib qolgan ayollar qorovullik ishlariga jalb qilinmagan, to farzandini tug'ib olguncha uyda o'tirgan. Farzand tug'ilgach, ayol yana safarga otlangan.

Qiziq davrlar bo'lgan ekan-da. U paytlarda hatto o'g'il bolalarning tug'ilishi ham ko'p hollarda man qilingan, deyishadi. O'g'il bolalarning o'sishi, kamolga yetishi faqat hisob-kitobli holda, ehtiyoj tufayli amalga oshirilgan. Ularni o'ldirib tashlab ketish hech gap emas edi, faqatgina avlodni davom ettirish uchun o'g'il bolalarni tirik saqlab qolganlar, bola o'sib, erkak bo'lib yetishmasa, nasl davom etmay qoladi-da. Ko'payib ketsa, yana tashvish — erkaklar saltanatni qo'lga olib qo'yishlari mumkin. Ana shunday urinishlar avvaldan yuz berib kelgan. Erkaklar ko'paysa — taxt uchun kurashga o'tadilar, bunisi endi yaxshilikka olib kelmasligi tayin. Shuning uchun o'g'il bola tug'ilganda, albatta podshoga xabar qilinib, uning o'ldirilishi nazorat qilib borilgan. Aytishlaricha, kunlarning kunida podshoh xotinining o'zi ham homilador bo'lib, o'g'il tug'ibdi. Shunda podshoh xotin bolasini o'ldirishga ko'zi qiymasdan, uni yashirib saqlashga buyruq beribdi. Bola er yetibdi. Podshoh bolasidan ham boshqa yashirib saqlangan o'g'il farzandlar ancha ko'payib qolgan ekan, ana shular og'iz biriktirib, podshoh o'g'li rahbarligida ayollar saltanatini ag'darib tashlash uchun harakat boshlab yuborishibdi. Ammo ayollar saltanatini ag'darish oson bo'lmabdi. O'sha jangda barcha erkaklar qirilib ketibdi-yu, sanoqligina erkak asirga tushib qolibdi. Erkaklar isyonining rahbari ham qo'lga tushgan ekan, uni ham podshohning oldiga

haydab kelishibdi. Ayol podshoh shu yerda o'z o'g'lini tanibdi. U taxtdan tushib kelib, o'g'lini o'z o'rniga o'tirg'izibdi. Nimaga bunday qilganini atrofdagilarga shunday tushuntiribdi: "Endi saltanatni erkak boshqarsin. Men ayollardan mamlakat hukmdori bo'lishini xohlamayman. Sababi, bizning har birimiz — onamiz. Onalar esa shafqatli bo'ladi, kerak paytida qattiqqo'llik qilolmay qoladi. Shuning uchun hukmdor erkak odamlardan bo'lsin", — deb qaror chiqaribdi va o'zi o'ziga xanjar urib o'lgan emish. Shundan beri taxtga er odam o'tirib kelgan, deyishadi...

Ey, bu To'maris ham o'sha ayollardan biri-da!

Kir mana shu ayolni ham, uning mamlakatini ham yaqin kunlar ichida zabt etadi!

8

Biz tiriklik tayanchi, odamzodning tayanchi bo'lgan Kun tangriga sig'inamiz. Kun bo'lsa, oting chopqir bo'ladi. Kun bo'lsa, baxting ochiladi, to'qchilik, mo'lchilik bo'ladi, uyingga qut-baraka kiradi.

AVESTO

Bugun harbiy-askariy mashg'ulotlarning so'nggi kuni. Ochiq maydonda, chodir ichida, ovloq o'rinlarda o'tkazilgan ikki oylik tayyorgarliklardan so'ng, endi ertaga barcha jangchilar uylariga qaytadi. Ularni o'z ellarida hosib bayrami marosimlari kutib turibdi. Bayramlar ichida hammani shodlantirib, xalq yuragini shukrona hislarga to'ldirib, baxt va farovonlik nashidasini baxsh etuvchi bayram bu! Hamma odam to'qchilik hissidan, baxtdan, kelajak kunlarning yanada quvonch bilan o'tishidan mamnuniyat tuyadi. Ikki daryo oralig'ida yashayotgan har bir odam, ayniqsa barokatli tuproqqa urug' qadagan dehqon bu bayramni — hosil to'planadigan kunlarni intiqib kutadi. Ochlik nimaligini bilmay o'sayotgan xalq shuning uchun ham hosil bayramini zo'r shod-u xurramlik bilan, qiziq-qiziq o'yin-kulgular bilan o'tkazishni orzu qiladi. Dasturxonlar shu kuni yer bag'ridan unib chiqqan turli xil meva-chevalar, ne'matlar unum, ziroatlarga to'ladi. Ikki ulug' daryo — Oks bilan

Yaksart oralig'ida o'smaydigan daraxtning, unmaydigan mevaning o'zi yo'q — shaftoli deysizmi, olma, uzum, o'rik, nok, anor, anjir deysizmi, bari bor. Bularning har birining shirasi, xuddi bolarining uyasidan tomib turgan asal kabi tomib-tomchilab turadi. Yana deng, bunday shirin-shakar mevalarning ta'mini dunyoning biron burchagida topa olmaysiz. Endi qovun-tarvuzlarning xil-xiliga kelsak, ularning shirasi, ta'mi, shifobaxshligi dunyo savdogarlarining tilida doston. Axir olti oy, to'rt oylab yo'l bosib kelib, mana shu qovunlarni tuya, xachir, otlarga yuklab olib ketish uchun atayin keladigan karvonlar bor! Xalq o'z yurtini mana shunday saxovatli, beqiyos, betakrorligi uchun ko'ziga surtib qadrlaydi. Ayniqsa massagetlar o'z ona tuprog'ini tug'gan volidasi kabi ko'rib sevadilar. Ona ko'kragidan sut berib tug'ilgan farzandini kamolga yetkazganiday, mana shu zamin ham to'shini kerib, bag'rini ochib, massagetlarni hayot sharbati, umr farovonligi, don-dun, ming turli meva-cheva, non-cho'rak ila siylaydi. Massagetlar tushunchasiga ko'ra, tuproq har yili bahor oyida xamir kabi iylanib, odamga aytar emish: "Ey inson farzandi, o'ng qo'ling bilan menga urug' qada, tashlagan bir dona doningni men senga kuzda ming dona qilib qaytaraman. Ozgina mehnat qilib, peshona teringni to'ksang, seni dunyodagi eng boy odamga aylantiraman. Agar don tashlamasang, hech narsa ekmasang — kuzga borib-bormay och qolasan, har eshikdan non so'raydigan tilanchiga aylanasan! Menga don tashla, urug' qada, men seni boqaman, kiyintiraman, boy qilaman!".

Tuproq odamga ana shunday deb yalinib yotar emish. Bahorda yerga urug' qadamagan, don tashlamagan, mehnat qilmagan, daraxt ekmagan odamni massagetlar "Kun tangrining qarg'ishiga uchragan odam", deb hisoblaydi. Axir osmondagi muqaddas quyosh ham bahor kunlarida "don tashla, dehqonchilik qil!" deb yerga yaqin kelar emish, bor nurini, mehrini mana shu qadalgan urug'ga bag'ishlar emish. Shuning sharofati bilan donlar bo'liq bo'lib unib, mo'l ziroatga aylanar emish. Shuning uchun ham ziroat bayramida — hosil to'yida dehqon odam, ekinchi-yu tikinchi, mehnatkash insonlar eng tabarruk odamlar deb ulug'lanadi, ularning sha'niga qo'shiqlar ijro qilinadi. Bu — barcha tirik jonlarning, vijdonli insonlarning bayrami. Chunki urug' qadab, don ekan odam Kun

tangri oldida o'zining vijdonini tozalab olar emish, yer va kun bir-biriga yaqinlashganda, to'plagan hosilini atrofdagilarga ko'z-ko'zlab, vijdoni poklanganini yana bir bor namoyish etarmish. Bu bayram ozod vijdonning pokligini ko'z-ko'zlaydigan bayram.

Shodiyona kunlar ikki haftagacha cho'ziladi. Nega deganda el oqsoqollari har bir qishloqda, har bir ovulda, har bir manzilda bo'lib, kimning qancha hosil olganini ko'rib, vijdoni pokligini tasdiqlab, kelasi bahorgacha betashvish, shod-u xurram yashashi mumkinligiga ishonch hosil qilib chiqishlari kerak. O'shanday tashrif lahzalarida Kun tangri ham el oqsoqollari bilan birga bo'lib, ularning suratiga kirib, dehqonlar orasida yurar emish, har bir xonadonga, go'shalarga, kulbalarga kirib, o'z farzandlari holidan xabar olar emish. Shunday deyishadi. Kun tangrisining arvohlarini mehmon qilmasdan, xursand qilmasdan jo'natib yubormaslik kerak, ularni har kim iloji boricha o'z qishlog'ida uzoq vaqt saqlab turishi kerak. Shuning uchun odamlar o'yin-kulgi qilib, vaqtlarini sho'x-shodon o'tkazib, bayram soatlarini ko'ngilli o'tkazishga harakat qiladilar, bazmlar uyushtiradilar, raqs tushadilar. Bari — Kun tangriga shukrona bildirish, el oqsoqollarini hurmatlash, kelajak kunlarga duo olish, kuch yig'ish uchun! Qurbonliklar shu uchun! O'yin-kulgi, kurash, poyga — bari shu xursandlik uchun! Bu bayramga qancha ko'p odam yig'ilsa, massagetlar shuncha quvonadi. Axir kimning qanchalik boy, qanchalik to'q ekanligi mana shu bayramda kimlar qatnashganligidan bilinadi-da. Farzandlarining to'q-farovon, shod-farovon yashayotganligidan xabar topgan Kun tangri ham xursand bo'lib, saxiyligi tutib, rizq-u ro'z xazinasini yanada keng ochib yuborar emish!

9

Allaqachon jiddiy harbiy tayyorgarlikni boshlab yuborgan massaget yigitlarining kayfiyati hosil bayrami yaqinlashgani sayin ko'tarilib bormoqda. Chunki hamma biladi: bayramda barcha yigitlarga ruxsat beriladi, yigitlar uy-uyiga ketib, har kim o'z eli, o'z qavmi bilan hosil bayramida ishtirok etishi kerak. Har qanday bayram ham yaqinlaring, og'ayni-tug'ishganlaring, tanish-bi-

lishlar, qizlar davrasida o'tgani yaxshi-da. Shuning uchun yigitlar bayram yaqinlashgani sayin uchadigan qush kabi qanotlarini sozlab, arg'umoqlarini yuvib-tarab, mashqlarni a'lo darajada bajarib, namoyish qilib, bayramga ruxsat beriladigan kungacha barcha-barcha topshiriqlarni taxt qilib qo'yishadi...

Faqat bir narsa kayfiyatni sal xira qiladiganday bo'lib turibdi-da, bu — bayramga ruxsat tegadimi-tegmaydimi degan savol edi. Ruxsat tegmasligi ham mumkin, nega deganda janubi-g'arb tomonlardan juda katta qo'shin bostirib kelish arafasida turgan emish, bu dushman son-sanoqsiz lashkarlar bilan kelayotgan emish, anov emish, manov emish...

Xullas, shunaqa gaplar. Yurt oqsoqollari podsho onamiz To'maris huzurida maslahat qurib, kelayotgan dushman lashkari oldiga sulh tuzish, jang qilmaslik borasida kelishish uchun elchi yuborish arafasida emish. Endi, kim biladi deysiz, shuncha g'ayrat-shijoat, jahd-u shiddat bilan kelayotgan qo'shin gapga-shartga ko'nib qaytib ketadimi-yo'qmi, yo jang boshlab yuboradimi — bu yog'i noma'lum emish, hammasi mana shu kunlar ichida, bayram oldidan ma'lum bo'lar emish...

Ammo bu gaplar jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazib yurgan yigitlarning kayfiyatiga zarrachayam ta'sir qilmadi. Yigitlarga nima kerak — mana shunday chinakam jang-u jadal shiddatini his qilishga, kuch-qudratlarini, mahoratlarini, epchilliklarini namoyon etishga to'la sharoit yaratib beradigan tadbirlar kerak, harakatlar kerak! Yigitlar o'zlarining jang qilish mahoratini, qilichbozlik san'atini, ot ustida turib dushmanni tor-mor eta olishdagi epchilliklarini sinovdan o'tkazib olishga shoshiladilar. Lekin jangning qachon bo'lishi noma'lum-da. Bayramga taqalib kelib qolgan dushmanni qaniydi hozirning o'zida abjag'ini chiqarib, tilka-pora qilib tashlasalar... Hammaning kayfiyatini jinday xira qilib turgan jihat — mana shu, xolos.

Sparangis bugun ham erta turdi. Askarlarini oldiga yig'ar ekan:

— Qani, yigitlar, turinglar bugun so'nggi kunimiz deb o'ylab, barcha mashqlarni yana qaytadan takrorlab chiqamiz! Biz tarqalib ketishimizdan oldin o'rganganlarimizni podsho onamiz huzurida namoyish qilishimiz kerak, axir! — deb qichqirdi.

Shahzodaning ovozini eshitib, yigitlar chodirlardan chiqdilar. Tezlik bilan qilich-qalqonlarini ko'tarib, safga tizila boshladilar. Dastlab ot ustida jang qilish mashqlari takrorlandi. Massaget yigitlari bunday mashqlarni bolalikdan beri bajaraverib, ustasi farang bo'lib ketganlar. Bunday "jang"larda ularning oldiga tushadigan odam yo'q edi. Otga minganda ular xuddi yerda yurganday, balki yerda yurganlardan ham chaqqonroq harakatlanib qilichlashadilar. Sparangis ularning bu hunariga har safar qoyil qolardi. Bu gal ham hayratini yashirolmay, hayqirdi:

— Ah-hay, barakalla! Endi nayzalashuv mashqlariga o'tilsin!

Yigitlar qilichlarini qinga joylab, qo'llariga nayza oldilar. Ular bu mashqlarda ham mahorat kasb etgan, mis nayzalarni goh o'ynatib, goh "yov" nayzasiga chap berib, o'zlarini olib qochishlarini ko'rgan odam qoyil qolib, "ah-hay!"lab yuborardi. Po'lat qalqonlar mis nayzalar bilan to'qnashganda uchqunlar sachrar, sharaq-shuruq ovozlardan quloq yorilay derdi. Ot ustida nayzalashishmi, yerda yugurib hujum qilishmi, tikka kelib qolgan nayzadan o'zini olib qochishmi — barchasini yigitlar qoyilmaqom bajara oladi. Na iloj-ki, qarshi tomondagi "raqib" — dushmanlardan emas, yo'qsa... Yigitlar buning ham yo'lini topishgan, yog'och-u g'o'lalardan, eski matolardan qo'g'irchoq odam yasab, ularning ichiga somon, xazon to'ldirib, shakl berib, tik qo'yib, shularga uzoqdan nayza sanchib, rosa mashq qiladilar. Quyosh tik kelguncha nayzalashuv mashqlari ham qiyomiga yetkazilib bajarildi.

— Endi ozgina hordiq olinglar-da, yakkama-yakka jang mashqlariga o'ting! Avvalo ot ustida kurash usullarini takrorlang, keyin yerda olishuv usullariga o'tamiz!

Ot ustida kurashish — yigitlarning jon-u dili. Umuman, massaget bolalari tug'ilishidanoq, o'tirishga o'rgangan kundan boshlaboq otga minib, ot ustida ulg'ayib, otda chopib er yetadilar. Ot ustida kurashishda, olishuvda, yakkama-yakka jang qilishda ularning oldiga hech tusholmaydi — ular bunga bolalikdan o'rgangan bo'ladi. Qay tomondan "raqib"ga yaqinlashishni, qanday qilsa ustidagi odam "raqib"ni uzib olishini hatto otlarning o'zi ham biladi, deyishadi. Ot ustida jang qilishgina emas, tamaddi qilish, hordiq olish, uxlab, pinakka ketish, panjalashish, pichoqlashish, ayqashuv,

poyga — bu mashqlar yigitlarga bolalikdan tanish bo'lgani uchun, barini kulishib-tortishib, yana bir bor sinovdan o'tkazishdi. Har kuni chiniqaverib, kuch to'playverib badani metinday qattiq bo'lib ketgan polvonlar bir-birlariga panja urganlarida hozir terilarini so'tib, suyaklarini sitib yuboradiganday qarsillagan ovoz chiqadi. Yana, bu mashqlarni ular kulib-hazillashib bajarganlari tufayli og'riqni sezmaydilar, og'riq jondan o'tib ketgan paytlarda esa sal chekkaroqqa chiqib, o'zlariga kelib olib, yana shu tariqa "jang"ga aralashib ketaveradilar.

Kunning ikkinchi yarmi o'q-yoy otish, tunda jang qilish, suv bo'yida olishish, raqibga ozor yetkazadigan og'riqli mashqlar kabi usullarga bag'ishlandi. Merganlik, mo'ljal olish, yaralanganlarga yordam ko'rsatish, "jasadlarni yig'ishtirish" kabi mashqlar haqida ham tushunchalar berildi. Kutilmaganda paydo bo'lib qoladigan vaziyatlarda o'zni qanday tutish kerakligi borasidagi ko'rsatmalarni ham yigitlar yaxshi o'zlashtirib olgan edi — bularning hammasini ular bekam-u ko'st bajarib chiqdilar.

Eng so'nggi mashq — kimo'zarga bag'ishlangan poyga, ya'ni otda chopadigan mashqlar edi. Yigitlar uchun eng qizig'i — mana shu. Bunda hamma yigit birvarakayiga, yoppasiga qatnashadi. Bu mashqlarning ham turi ko'p: "olomon poyga", "poyga", "kim o'zar", "ko'k bo'ri", "qo'y to'shi", "kim birinchi"... Kechqurunga belgilangan bu poyga turlarida hamma odam, istagan yigit qatnashishi mumkin bo'lgani uchun ham, uning qachon nihoyaga yetishini aytish qiyin, bir gal sovrunni ololmay qolgan bo'lsang, yanagi galdagi sovrundan umidvor bo'lib, yana ot minib, poygaga qo'shilaverasan, bu gal ham sovrun ololmasang, uchinchi gal, to'rtinchi gal, beshinchi gal... Bu yog'i endi qosh qorayguncha davom etaveradi.

Qum etaklariga kechqurungi salqin tusha boshlagan paytda uzoqdan ot dupurlatib, chang ko'tarib kelayotgan yolg'iz otliq ko'zga tashlandi. Saparangis uning yetib kelishini kutib turdi-da, otning jiloviga yopishgan yigitlarga qichqirdi:

— Tinchlikmi? Nima gap ekan?!

Bu — poytaxtdan kelgan chopar edi.

— Tinchlik emas-da, shahzodam... tinchlik emas! — dedi u tutilib gapirar ekan, kimdir tutgan ko'zadagi suvdan qult-qult ichdi, so'ng o'zini bosib olib, tez-tez gapira boshladi. — Yov qo'shini Oksdan o'ta boshlabdi. Shunga podshoh onamiz buyurdilarki... hamma qavmlarning lashkarboshilari tezda poytaxtga yetib kelsin deb!

Sparangis bu farmonni bir tuki ham qilt etmay, g'oyat vazminlik ila eshitdi. Xuddi ko'pdan beri kutib yurgan odamlari mana endi kelganday qiyofada edi. Tug'ilganidan beri jang-u jadal, harbiy o'yinlar, ot chopish-u qilichlashuv mashqlari ichida toblanib o'sgan Sparangis bu kelgan yovni ham avvalgilari singari "yo tavakkal" deb sinov uchun kelgan qo'shnilardir deb o'yladi. Shunday bo'lsa ham:

— Kim ekan u ajali boshlab kelganlar? — deb so'radi.

— Kir deyishadi, forslar emish...

— Kir deysanmi? Forslar?.. — qayta so'radi. — Shuncha yo'l bosib, bizlarni yenggamiz deb kelibdimi?

Sparangisning bu savoliga chopar javob qaytarib turmadi. Eshitganlar miyig'ida kulib qo'ya qolishdi: ana endi, mashq uchun qo'g'irchoq "yov" yasab yurishga hojat yo'q, mo'ljal olishga, qilich solishga munosib nishon o'z oyog'i bilan kelib turgan bo'lsa, juda yaxshi-da...

Hech kimning kayfiyatida o'zgarish yo tashvishlanish sezilmadi.

10

Sparangis urush xabarini keltirgan chopar xizmatkorni saroyda ilgari ko'rmagan edi. Keyin surishtirishicha, saklar qavmida yuzboshi bo'lib ishlagan, endi yaqindan beri saroyda xabarchi bo'lib ish boshlagan xodimlardan ekan. U o'zini tanishtirayotib, "xufya tarzda, faqat o'zingizgagina aytadigan gapim ham bor, shahzodam", dedi. Sparangis unga xotirjam boqdi.

— Gapiraver, nima deysan?

— Shahzodam... saroy maslahatchilari, aqlgo'ylar orasidan ham sizga salom aytib yuborganlar bo'ldi, — deb yana taysallandi chopar.

— Xo'sh-xo'sh, kimlar ekan ular?

— Odam yo'q yerda, faqat o'zingizga aytishim kerak.

— Bu tomonga yuring unda... sen qol, — dedi Sparangis ergashib kelayotgan tansoqchisiga.

— Men sizdan faqat narigi dunyodagina qolaman, shahzodam! — Dadil gapirdi tansoqchi. — Sizdan qolishga haqqim yo'q. Ulug' podshoh onamizga shunday va'da berganman.

Sparangis miyig'ida iljayib qo'ydi, nimayam desin, tansoqchidan xoli qolib gaplashishning iloji yo'q. Va'daga xiyonat — massagetlar uchun o'lim degan so'z.

— Gapiraver, — dedi u choparga. — Ko'ryapsan-ku... Bulardan yashirin sirim ham yo'q.

— Aytsam, — chopar talmovsirab atrofga qarab oldi. — Krat, Zaridorlar sizga katta salom aytib yuborishdi.

Krat va Zaridorlarning ismini eshitgan Sparangis kosa tagidagi nimkosa "nozik gap"ni darhol tushundi.

— Ular salom aytgan bo'lsa, yetar, buyog'i ma'lum, — dedi u tishlarini g'ichirlatib.

Krat — To'marisning bosh sarkardasi. Zaridor — maslahatchilar ichida yoshi ulug'i. Ular ikkoviyam To'maris saroyida ko'p yillardan beri xizmat qilib keladi. Sparangisning otasi — To'marisning marhum eri — shoh Parvon davrida ham shular saroyning eng suyangan tog'i, ishongan bog'i bo'lganlar. Onasi shularga ishonib mamlakatni boshqarib keladi. Bir kuni Krat Sparangis mo'ylovi sabza urib qolgan o'spirin vaqtida ot minishni, qilich chopishni o'rgatib yurib bir gapni shivirlabgina aytgan edi.

Emishki, yarador Parvonshoh jon topshirayotib, taxtining vorisi — endi tug'ilgan Sparangis ekanini Zaridorga uqtirgan. Zaridor esa bu gapdan bosh sarkarda Kratni xabardor qilgan. Ikkovining gapi-harakatlari bir joydan chiqib, go'dak shahzoda voyaga yetguncha, taxtni sohibjamol To'maris egallashi, so'ng Sparangis voyaga yetgach, taxtga o'zi o'tirib, mamlakatni so'rashi kerak, deb kelishganlar. Mana shundan beriyam o'n besh-o'n olti yil vaqt o'tdi. Shu davr ichida To'maris xalqqa chinakam ona bo'ldi, adolat bilan hukmdorlik qildi, massagetlar tuprog'ini yov oyog'i ostida

xor qildirib qo'ymadi. Endi shahzoda balog'at yoshiga yetdi, mamlakat boshqaruvini onasining qo'lidan olib, taxtga chiqish borasida o'ylab ko'rishi kerak. Negaki ayol kishi — baribir ayol. Bir kunmas, bir kun ko'ngli biror erkakka sust ketib qolsa — mamlakat taqdiri ham o'sha kishining ixtiyoriga o'tib ketishi mumkin emish...

— Sparangis, o'g'lim, o'zingizning qonuniy haqqingiz — taxt borasida o'ylab ko'radigan vaqt yetmadimikin? — degan edi o'shanda Krat. — To'g'ri, onangizning mamlakatni boshqarishdagi iqtidori yuksak, tajribasi ham katta. Ammo tevarak-atrofimizda kuchayib ketayotgan davlatlar paydo bo'lmoqda. Ular bilan elchi almashib, savdo-sotiq qilib, munosabatlarni yo'lga qo'yib olish uchun taxt egasi erkak kishi bo'lmog'i kerak. Yo'qsa, kuchli podshohlar ayol hukmdorni mensimaydilar...

Krat bilan bo'lib o'tgan o'sha maxfiy suhbat maxfiyligicha qolgan, bu haqda Sparangis onasiga aytib ham o'tirmagan edi. Nega aytmaganini o'zi ham bilmaydi. Aytsa, nima, Krat, Zaridorlar bilan onasi o'rtasidagi kelishuvga darz ketarmidi?! Orada har xil tushunmovchiliklar tug'ilib, mish-mish gaplar "bolalarmidi?!"

O'shandan beri Krat ham, Zaridor ham Sparangis bilan uchrashib qolganlarida, umidvor bo'lib shahzodaning og'ziga tikiladi, ammo shahzoda sir boy bermay o'tib ketadi, yo o'zi kabi yosh yigitlar bilan shikorga, harbiy mashqlarga chiqib ketadi. Bu gal ham massaget yigitlarining harbiy tayyorgarligini mustahkamlash ishlari bir bahona bo'ldi-yu, Sparangis onasidan ruxsat olib, jangchi yigitlarga qo'shilgan edi...

— Shahzodam, nega o'ylanib qoldingiz? — asta gap boshladi yana chopar. — Erta-indin boshlanadigan urush avvalgilarday bo'lmas emish. Bunisi — massagetlar uchun hayot-mamot janggi emish. Forslar to bu yerlarga yetib kelguncha, ko'plab mamlakatlarni o'zlariga bo'ysundirgan emish. Ularning asosiy maqsadi — bizning oltin konlarimizga egalik qilish. Bu urushda ayol kishi boshchilik qila olmaydi, deyishyapti. Har kimning o'z haddi, o'z qarashi bor emish. Har kim o'z o'rnida bo'lmaguncha oqsoqol Zaridor ham, Krat ham tinchib o'tirolmas emish.

Chopar yana nimalarni aytib ming'irlar, go'yo shahzodani yanada "nozikroq gap"larni olishga taklif qilayotganday edi-yu,

ro'y-rost aytolmay chuvalatmoqda edi. Demak, Krat ham, Zaridor ham, onasi ham shahzodaning saroyga qaytib kelishini intizorlik bilan kutmoqda ekan-da! Tezda yetib borish kerak, vassalom!

— Bo'ldi, yetar! — dedi shahzoda. Shahd bilan qilichini ko'tarib, choparning yelkasiga tiraganicha. Qilich qin ichida edi. Bu — "hozircha qilichim qin ichida, yana gapirsang, yalang'ochlanib yelkangni chopib tushadi", degani edi.

Chopar qolgan gaplarini ichiga yutib yubordi.

11

Krat — avlodma-avlod podshoh saroyida xizmat qilib kelayotgan lashkarboshilar sulolasidan. U Parvonshohga halol xizmat qilib kelayotgani uchun bir necha marotaba oliy mukofotlar bilan taqdirlangan, hatto podsho uni o'zining yaqin tug'ishganlaridan birining qiziga uylantirib ham qo'ygan. Parvonshoh halok bo'lganidan beri, uning yesir xotiniga — malika To'marisga xizmat qilib kelmoqda. Massagetlarning ayollari mardlikda, davlat boshqarishda, jangda ham erkaklar bilan teng turib xizmat qila oladi. Shuning uchun ham erkaklar ayollarini juda hurmat qiladi. Shu fazilatlari ayol kishining turmushdagi o'rnini, izzat-hurmatini ham belgilaydi. Mana, o'tgan-ketgan karvonlardan eshitadilar, bu yaqin atrof-javonibdagi birorta mamlakatda ayol kishi taxtda o'tirib, mamlakat so'ramagan. Massagetlarda esa bu — odatdagi hol. Boshqalar "Massaget erkaklari, botir yigitlar bu ahvolga qanday qaraydilar, nomus qilmaydilarmi?" — deb so'raydi. Ol, massagetlarning bunga nomusi kelmaydi. Sababi, ayol biylamaydigan, hukmi o'tmaydigan uyni massagetlar uy deb hisoblamaydilar.

Ayol farzand tug'adi, bola tarbiyalaydi, oilani tebratadi, xo'jalikni yuritadi, tirikchilikni o'ylaydi, xullas erkakdan ko'proq ish bajaradi. Shuning uchun ham massagetlarda ayolning xizmatlari yuqori baholanadi. Ayol — oilada oliy hurmat-izzatga ega. Buning ustiga, massaget qizlari ham harbiy tayyorgarlik, urush hunarlarini yigitlar bilan tengday yurib o'rganadi, kerak paytida tengday yurib urushgayam chiqadi. Erkak-u ayol yurtni teng himoya qilgani uchun, bu tuproqqa dushman bostirib kirolgan emas. Massaget qiz-

larining, ayollarining ot chopishini ko‘rsangiz, g‘ayrat-shijoatiga hayron qolasiz! Otgan o‘qlari benishon ketmaydi! Ot ustida ular qirg‘iyday o‘tiradi! Yakkama-yakka janglarda qilichni, qalqonni, nayzani o‘ynatishlarini ko‘ringlar. Bularning ot ustida nayza, qilich, bolta o‘ynatishlarini, qo‘lda jang qilishlarini ko‘rgan dushman “nimaga keldik bu yurtga o‘zi?” deb, vahimaga tushib qoladi. Nima bo‘lgandayam, massagetlarning ayol-qizlari erkaklar yonida turib, yo‘lbarsday hayqirib jang qiladilar. Shuning uchun ham massagetlar hayitni-da, urushni-da ayollarsiz ko‘z oldiga keltira olmaydi.

Avvallari Krat ham To‘marisning yurt boshqarishdagi hukm-farmoligini, ustamonligini ko‘rib, qoyil qolib yurdi. Keyin bu havas asta-sekin oshiqlikka aylanayotganini sezmay ham qoldi. To‘maris yesir qolgan kunlarda uning ham ona bo‘lib farzand boqishini, ham podshoh bo‘lib yurt so‘rashini uzoqqa bormas deb o‘ylagan edi. Yo‘q, To‘maris hammasini eplab ketdi. Shunda Krat massagetlarda ikkinchi xotin olish dasturi yo‘qligiga chin dilidan o‘kindi. Navjuvon To‘maris o‘sha paytlardayoq (yigirmadan endi o‘tgandi) ikkinchi bor turmush qurmasligini, qolgan butun hayotini xalqiga va o‘g‘liga baxshida qilishini taxtda o‘tiriboq ro‘y-rost aytgan edi. “Uvol emasmi? — deb o‘ylagan edi o‘sha paytlarda sarkarda Krat. — Bechora juvon bu dunyoda nima ko‘rdi? Qo‘lida chaqaloq bolasi hali voyaga yetib, otadan meros taxtga chiqquncha necha yil o‘tadi-yu, necha bahorlar kelib-ketadi. Bu yesir ayol esa tovlanib to‘shakda yotadigan paytida sochini yoyib, qora kiyinib taxtda yurt taqdiriga qayg‘urib o‘tiribdi. Tulumida tul qolib, qolgan umrida cho‘l lolasiday qurib-qaqshab umr o‘tkazadimi?..”

Ha, xuddi shu aytganday bo‘ldi. Mana, To‘maris hamon taxtda o‘tirgancha, erining boshlagan ishlarini davom ettirib kelayotir: yurt boshqaradi, kelajakning ta’minotini o‘ylaydi, xalqining baxt-saodati yo‘lida ish yuritadi. Qo‘shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq, bordi-keldi munosabatlarini ham yo‘lga qo‘ydi. Xalqim xalq bo‘lsin, yurtim yurt bo‘lsin deydi. Mingta tashvish boshida. Mana endi, ustiga ustak, Kir qo‘shin to‘plab kelayotir...

Krat endi boshqacha yo‘l tutmoqchi bo‘ldi.

To‘maris harbiy tayyorgarlikning muddati bitmay turiboq chaqirtirilgan jangchilar bilan omonlashib, ularni oralab chiqqanida,

Krat uning yonida yurmay, sal narida otini kishnatib, uyoqdan-bu yoqqa alanglab turdi. To'maris askarlari bilan omonlashib, ularni birim-birim ko'zdan kechirib chiqdi. To'marisning urush mahalida kiyadigan sovutda ekanini, boshidagi uchi bigizday to'sabit[1]ini ko'rgan jangchilar podshohning bekor bunday kiyinmaganini, u jang uchun tayyor ekanini tushundilar.

"Savashga bugun kiramizmi, ertagami?" Hamma askar shuni bilgisi kelardi.

Barcha jangchilar — hali o'n gulidan biri ochilmagan yosh yigitlar. Hammasining ham ota-onasi, tug'gan-tug'ishgani, ko'z ostiga olib qo'ygan sevar yori bor... Hammasiyam "uch!" desang, jang maydoni tomon ot solib uchishga tayyor. Shu bilan birga, ular uylariga borib, yaqinlari davrasida bo'lib, sog'inch to'la dil chanqog'ini ham bosib kelishlari kerak. Ha, ammo ne ilojki, vatan sarhadlariga yov oyoq bosaman deb turibdi. Yov ostonangga uyulib-to'kilib turganida, kim ham bemalol ochilib-sochilib o'tiradi?! Avvallari To'maris harbiy tayyorgarlikdan qaytgan yigitlarning oldiga chiqqanida ashulachi-yu xonanda, raqqos-u masxarabozlarni oldirib, yigitlarning charchog'ini yozish uchun o'yin-zavqning barcha turlarini namoyish qildirar edi. Bu gal esa podshohning qovog'i ochilmay saflarni aylanayapti — buni yigitlar el sirtiga kelib turgan yovdan ko'rishdi.

Shu payt lashkarboshilar tomonidagi saf orasidan:

— Dod! — degan ovoz chiqdi. — Dod! Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, sizga aytadigan arzim bor!

To'maris ot jilovini tortib, ovoz kelgan tomonga tikilib qaradi.

— Faqatgina o'zingizga aytmoqchi edim!

Boshdan oyoq sovutga o'ranib olgan yigitning ko'zlari mash'aladay yonib turar, o'zini tanib bo'lmasdi. To'maris yigitga qabulxonada kutishini aytdi. Yigit "aytmoqchi bo'lganlarimni podshoh hozir eshitishi kerak!" deganday, shart harakat qilgan edi, ulgurmadi. Endi qabulxona tomon yo'l olaman deb turganida esa shuvullab kelib qadalgan o'qdan ilkis silkinib ketib, yerga yiqildi. Podshohga aytmoqchi bo'lgan gapi esa noma'lumligicha qoldi.

[1] **To'sabit** — dubulg'a.

12

Voqea shu qadar tez, lahzalar ichida sodir bo'lgan ediki, hamma ang-tang bo'lib qoldi. To'maris qo'shin ichiga fitna oralaganini darrov sezdi. Demak, vaziyat tushunarli — lashkarboshilar ichida olaog'izlik bor! Bu qanday olaog'izlik? Bu nima sir? Podshohga aytmoqchi bo'lgan gapini yetkaza olmay jon topshirgan yigitning o'limi shubhasiz so'nggi voqealar bilan bog'liq edi.

– Krat! Men bilan saroyga yuring! — buyruq berdi To'maris.

Podsho uchun hech narsa maxfiy bo'lib qolmasligi kerak. Shularning barining sabablarini bilmoqchi, Kratdan izoh talab qilmoqchi bo'ldi.

Krat saf oldiga chiqib keldi-da, jangchilarga qahr bilan boqdi. Biroq... bir og'iz ham so'zlamadi. Uning jangchilarga g'azabkorona boqishining o'ziyoq vaziyatni aytib turganday edi. Bu sirli sukunat bilan hozirgina yuz bergan o'lim o'rtasida bog'liqlik borligi kunday ravshanlashdi. Endi o'sha aytilmay qolgan sirning mazmunini bilib olishgina qolib turibdi, xolos. Demak, hamma gap Kratning o'zida!

Kratning sariq-ola oti kishnab, podshoh mingan otga ergashdi. Shohning oti osmonga qarab-qarab o'qranar, unga ergashgan sariq-ola ot esa uning izini bosolmay, kishnab borardi. Shu payt shuvullagan ikkinchi o'q ovozi eshitildi. Bu o'q shoh otining oyoqlari ostiga kelib yerga qadaldi. Hamma hayron. Nima, Kirning askarlari kelib qoldimi?!

Krat o'qni olish uchun o'rnidan qo'zg'almoqchi edi, To'marisning amri yangradi:

— To'xta! Qimirlama!

Voqea hammaning ko'zi oldida ro'y bermoqda edi. Krat qimirlayolmay qoldi. To'maris yonidagi xos soqchilarining biriga imo qildi. Xos soqchi tezda kelib, ot oyoqlari yoniga qadalgan o'qni olib, podshohga uzatmoqchi bo'lib intildi. O'q uchida xat borligi ko'rinib turardi.

— O'qi! — Qahrli buyrug'i yangradi To'marisning. Hamma jim. Bu sukunat boyagisidan ham sovuq, hamma narsaga oydinlik kiritib beradigan sukunat edi. — Ovozingni chiqarib o'qi!

Kratning ichi it tirnayotganday o'rtanib-olovlanib borar, biroq harakatlana olmasdi — unga qimirlamaslik buyrug'i berilgan edi. Xos soqchining esa har bir qiymili[1] sodir etilayotgan ishning boshida kim turganini oshkor qila boshlagandi. Mana, hozir hamma sir fosh bo'ladi. Xos soqchining ovozi yangradi.

— "Ulug' martabali podshoh onamiz! Sizning massagetlar uchun qilayotgan ishlaringizni, xizmatlaringizni, barcha sa'y-harakatlaringizni biz yaxshi baholaymiz! Sizning davringizda hali biron marta xalq talanmadi, birontayam odam dushman qo'lida bandi bo'lib qolmadi, elning ustida yov otlarining oyog'i o'ynamadi. Siz doimo massaget xalqi bilan birgasiz. Kun tangrisi Sizga yor bo'lsin, umringiz uzoq bo'lsin. Biz jangchilar ham hamisha xalq bilan, Siz bilan birgamiz. Biroq yaqindan beri askarlar orasiga Ahraman[2] ruhi kirib olishga harakat qilib yuribdi. Ba'zi birovlar Sizni taxtdan olishga va hatto Sizni Kirga tobe qilish niyatida askarlar ichida targ'ib-tashviq ishlarini yuritish harakatiga kirishmoqchi emish. Bu gaplarni qo'zg'ab yurgan — lashkarboshi Kratning o'zi. Siz Krat boshlayotgan ishga hoziroq barham bermasangiz, ertangi kun u barchamizning Kir oldida bosh egib turishimizga sababchi bo'lishi mumkin. Kir esa unga Sizning taxtingizni va'da qilgan..."

O'rtaga og'ir sukunat cho'kdi. Go'yo hamma nafas olmay qo'yganday edi. Boyadan beri sichqon poylagan mushukday olazarak bo'lib To'marisga ergashgan Kir endi qimir etmasdan qotib qolgan, salgina qiymili sezilsa, manov askarlar uni pora-pora qilib tashlashga tayyor ekanini sezganicha tosh kabi jim turardi.

To'maris qiyin ahvolda qoldi — nima bu voqea? Rostmi shu gaplar yoki urush oldidan dushman o'ylab topgan hiylami? Rost bo'lsa-ku, Kratning qanday jazo olishi aniq — u qatl qilinadi. Lekin rost emas, hiyla bo'lib chiqsa-chi? Unda lashkar oldida begunoh bir odamni — naq lashkarboshining o'zini jazolagan bo'lib chiqadi-ku. Massagetlar — haqiqatparast xalq, ular shu ruhda tarbiyalangan. Haqiqatga sadoqat, to'g'ri so'zlik, adolat, halollik — ularning suyak-suyagiga singib ketgan. Buni Krat bilmaydimi? Hozir oq bilan

---

[1] **Qiymil** — ish-harakat, jahd, nimadir qilishga urunish.

[2] **Ahraman** — otashparastlar dinida yovuzlik, yomonlik xudosi.

qorani ayirmay turib, uni o'limga hukm qilib yuborsa — unda Krat o'lib ketadi-yu, ammo qoni To'marisning gardanida qoladi. Agar Kratni o'ldirmay qo'yib yuborsa — uning endi boradigan joyi yo'q, baribir Kirga yukunib borishga majbur. Biroq, massagetlar oldida sotqinni jazolamagani uchun yana To'maris aybli bo'lib qoladi. Qanday yo'l tutish lozim? Ustiga ustak, To'marisning bu darajaga erishib, xalqqa "podshoh ona" bo'lib yurishida Kratning ham ulushi bor axir, buni ham unutmaslik kerak. Agar Krat haqiqatan ham dushman tomondan berilgan va'dalarga uchib sotqinlik yo'liga kirgan bo'lsa, unda bu — massagetlar taxtiga darz ketganini bildiradi. Krat bosh sarkarda, qo'shin qo'mondoni bo'la turib, o'z askarlariga, podshohiga, xalqiga sotqinlik qilishi mumkinmi? Axir Kir uni taxtga o'tqazgani bilan, doimo birga qolmaydi-ku, yurtiga qaytadi. Kir yurtiga ketsa, massagetlar baribir Kratni o'ldiradi — chunki bu xalq sotqin odamni kechirmaydi. Vatanga xiyonat qilish degan gap yetti uxlab tushiga ham kirmaydi bularning. Har bir massaget sotqinlikdan ko'ra, o'zining bo'g'ziga o'zi qilich tortib yuborishni afzal biladi. Chunki xalq shunday tarbiyalanib kelgan — ota-bobolari shu intizom asosida tarbiyalangan, bular ham shunday. Nahotki, Krat buni bilmasa?

To'maris shularni o'ylab Kratga tik boqdi. Kratning ikki yuzi qizarib bo'rtgan edi. U ham nima qilishini bilmay, To'marisning bir qarorga kelishini kutib turibdi. Oxiri, To'marisning nigohidagi qahr o'tiga dosh berolmagan Krat otiga qamchi bosdi. Alami, uyati ichiga sig'may turgan jonivor shunday bir odamni ustiga mindirib yurganidan qoni qaynab ketdimi, pishqirib ko'kka talpindi, uyatdan uchib ketmoqchi bo'ldi, jon-jahdi bilan osmonga sapchidi. Krat yerga qulab tushdi, biroq ot ancha vaqtgacha tinchlana olmadi.

— Krat! — dedi To'maris keskin ohangda. — Saroyga bormayoq, bizning gapimiz shu yerda yakunlanadi. Xalqim sotqinlardan qanday nafratlanishini o'zing bilasan!

Krat uchun hech qanday yo'l qolmagan edi: na minib yurgan otiga, na Kir tomonga yetib olguday majol bor unda. Atrofda esa — ko'zi nafratga to'lgan jangchilar... Krat qilichini qinidan sug'urganini ko'pchilik ilg'amayam qoldi, u yaltirab turgan sovuq temirni bo'g'ziga tirab, bir talpinib, o'zining boshini kesib tashladi... Ot esa

egasining jonsiz-boshsiz gavdasidan ham nomus qilib kishnaganicha cho'l tomonga chopib ketdi.

Hammasi oydinlashgan edi. Qisqa vaqt ichida ro'y bergan ikki sirli o'lim To'marisning xayolini, aqlini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Ayniqsa Kratning bunday sharafsiz o'lim topishini u sira kutmagan edi. Nima bo'lsa, bo'lib o'tdi — biroq hozirgina ro'y bergan o'lim, egasining qilg'iliklaridan ori kelib cho'lga qochgan ot, kutilmagan ko'rguliklardan manov askarlar o'zlari uchun xulosa yasab olishlari kerak. Shularni o'ylagan To'maris o'zini bosib oldi.

— Farzandlarim! — xitob qildi u askarlarga qarab. — Qalbingizdan kechayotgan kechinmalarni sezib turibman. Hammangiz ham xiyonatdan nafratlanasiz. Kimda kim o'z xalqiga sotqinlik qilsa, xuddi Kratga o'xshab, o'z kallasini o'zi uzib oladi. Ostonamizda esa yov turibdi. Biz shu tuproqni, el-yurtimizni, Vatanimizni yovdan himoya qilishimiz kerak! Taxtga hamma odam o'tirmaydi, bir odam o'tiradi. Taxtga seni o'tqazadigan kuch — yov emas, xalq! Xalq esa seni munosib ko'rsagina, senga ishonsagina taxtga chiqaradi. Endi hamma gap ana shu ishonchni oqlashda. Kratning yov boshini emas, o'zining boshini kesishi esa — ko'rgulik. Undan ko'ra, yov bilan olishib o'lim topsa edi — u xalq sharafiga loyiq bo'lardi. Sizlar Vatan uchun, xalq uchun qurbon bo'lishday sharafli taqdirga intiling!

Uning ovozi "Vatan uchun, xalq uchun qurbon bo'lishday sharafli taqdirga intilamiz!" degan gulduroslar ichida ko'milib ketdi.

To'maris maslahatgo'y, kengashchilarni saroyga taklif qilishlarini xodimlariga topshirdi-da, o'zi shahar tomon ot choptirdi.

13

Kratning o'limidan onasi qattiq xafa ekanligini Sparangis tushundi. To'maris saroyga kirib olib, yoniga hech kimni qo'ymaslikni buyuribdi. Mana, chaqirtirgan aqlgo'ylari uning chiqishini kutib o'tiribdi. Hukmdor ular oldiga chiqishga hali tayyor emasmish.

To'maris xonasiga qamalib unsiz o'tiribdi.

Ishongan lashkarboshisi o'zini o'zi jazolab o'ldirdi. Lekin uning bu sharafsiz o'limi ham yosh askarlarga bir saboq bo'ldi —

sotqinlarga munosabat qanday bo'lishini bilib qo'ysinlar. Biroq, endi kimni bosh qo'mondon qilib tayinlaydi? Tubsiz o'y, uchi-oxiri yo'q xayollar bir-birini quvib, To'marisning gavdasini tik tutishga yo'l bermayapti. O'ylamaslikning, g'amga botmaslikning esa iloji yo'q... Rostdan ham, ayol kishi uchun podshoh bo'lish qiyin ekan. Undan ham qiyini — qo'lga qurol olib dushman bilan olishish. Sababi — ayol qon to'kkisi kelmaydi, dushmanni ham, aldab-suldab bo'lsayam, ortga qaytarib yuborgisi keladi. Axir tirik jon borki, yashash istaydi, tinchlik bo'lsin deydi, nasl qoldirsam, u ham rohat-farog'atda yashasa deydi. Ayol bola tug'adi, hech bir ayol "bolam urush qilsin" deb farzand o'stirmaydi. Bolasi urushga ketayotganda, onaning yuragi eziladi, nola qiladi, faryod chekadi. Birortayam ona bolasining o'limini ko'rib chidab turolmaydi, dushmanga bandi bo'lib ketayotganini ko'rsa, dod solib yuboradi. Farzandining o'rniga o'zi jon berib yuborishga rozi bo'lib turadi. Ha, Yaratgan egam ayolga shunday yurak berib qo'yibdi. Shu bilan onani Kun tangri o'ziga teng qilib qo'yibdi — Quyosh yerda hamma to'q yashasin deb, hamma baxtiyor yashasin deb nur sochgani, olov yuborgani singari, ona ham yerda tinchlik bo'lsin, barcha jonzot-jonivor o'z kunini ko'rsin deydi. O'lim doimo bor, doim mavjud, tirik jondor-u jonivor yoshini yashab, oshini oshab bo'lgach, o'lim uni izlab keladi, topadi va olib ketadi. Lekin mana shu eng ulkan beshafqat yov — o'lim kelib olib ketgunicha odamlar ham, jonivorlar ham, hasharotlar ham Kun tangrining siy-sovg'asi — hayotdan bahra olib yashashi kerak-ku. Nega Kun tangri bag'ishlagan umrni odamlar bir-biridan qizg'onadilar, biri ikkinchisining uyiga bostirib kiradi, biri ikkinchisini o'ldiradi, nega? Odamlar bir-birini nega ko'rolmaydilar?!

"Men ham onaman, men ham kun nuriga belanib yotgan tuproqman. Tangrimiz mangu nur sochib turgani, yerimiz barchani mangu to'ydirib kelayotgani kabi, men ham yer yuzida tinchlikning mangu barqaror bo'lib turishini xohlayman. Ko'kdagi Kun tangri ham, pastdagi yer ham o'z quvvatlarini o'lim uchun sarflamaydilar, ular hayot uchun, tiriklik uchun xizmat qiladilar. Men ham o'limni emas, tinchlikni sevaman. Ona, yerdagi mana shu hayot davom etsin deb bola tug'adi. Men farzandlarimni o'ldir-

moqchi, qul qilmoqchi bo'layotgan yovni qanday qilib ichkariga kiritaman?..

Men ayol podshohni erkaklar yoqtiravermasligini ham bilaman. Tevarak-atrofdagi mamlakatlarda ham ayol kishidan podshoh ko'tarilganini eshitmaganman. Bizning xalqda esa mamlakatni ayol kishining boshqarishiga qadim-qadimdan yo'l berib keladilar. So'nggi paytlardagina ayollar taxtdan tushib, mamlakatni erkaklar boshqaradigan bo'ldi. Hurmatli erim jangda bevaqt o'lmaganida men ham taxtga minmagan bo'lar edim. Erim halok bo'lgach, uning boshlagan ishlarini davom ettirish uchun, xalqimni yovlarga talatib qo'ymaslik uchun taxtga chiqishga majbur bo'ldim..."

Massagetlarda elini-xalqini dushmanlarga talattirib qo'ymaydigan odamgina podsholik qila oladi. Hukmdor erkakmi yo ayolmi — bunga qaralmaydi. "Xalqim — xalq bo'lsin, elim — el bo'lsin, boshqa bir xalqlarning oldida boshi egilib turmasin", deydigan podshoh bu yurtda ulug' hurmat qozonadi, hamma qatori olqishlarga, sharafga ko'miladi. Xalqimni ulug'layman degan podshoh jangga ham kirib ketaveradi qilich ko'tarib, yov bilan yakkama-yakka olishuvga ham tushib ketaveradi. Ayol podsholar ham shunday, erlari bilan teng qator jangda qilich ko'tarib, o'q-yoy otib, ot choptirib yuraveradi. Agar To'marisda ham shunday shijoat, pahlavonona yurak bo'lmasa, xalqi uni taxtga o'tirg'izib qo'yarmidi? Agar uning eri Parvonni bandilikdan qutqaraman deb qilgan mardona harakatlari bo'lmasa, xalqi To'marisni bunchalar ko'tar-ko'tar qilarmidi, uni quyoshga o'xshatib madhiya-qo'shiqlar to'qigan bo'larmidi? Albatta yo'q! Forslar yurtidan qaysidir bir qabila "massagetlar kuchli, baquvvat bo'larmish, massagetlarning qizlari chiroyli bo'larmish, massagetlardan asir olib ketamiz", deb bosqin uyushtirishibdi. Ana shu bosqinda podshoh Parvonning o'zi ham asirga tushib, yov qo'lida ketdi. Shunda To'maris erkaklardan yigirma ming, ayollardan o'ttiz ming askarlik qo'shin to'plab, yov ustiga bosib borgan, erini ham, boshqa tutqunlikdagi bandilarni ham qutqarib olib kelgan edi. Shundan beri To'marisning bu mardligi tildan tushmaydi, xalqning yodida — doston qilib ma'rakalarda aytadi, qo'shiq qilib to'ylarda kuylaydi. Eri o'lganda ham shu xalq "To'marisga ishonamiz!" deb, taxtga olib chiqqan.

O‘sha botir, o‘sha xalqparvar To‘maris bugun uyida qon qaqshab, tubsiz qayg‘uda to‘lg‘onib, bezovtalanib yotganini xalq tushunarmikan?!

14

Kratning o‘limi To‘marisni qattiq o‘ylantirdi. Haqiqatan ham u Krat bilan ko‘p ishlarni amalga oshirdi: yurtim obod bo‘lsin deb anhorlar qazdirdi, yo‘llarni sozlatdi, ekin ekiladigan dalalarni ko‘paytirdi. Shu orada Krat To‘marisga “falon mamlakatni ham qo‘shib olaylik, anov o‘lkada hosil yaxshi bo‘ladi, o‘zimizga bog‘lab olaylik, boyligimiz ko‘payadi” deb ham maslahatlar berar, To‘marisning o‘rinli e’tirozlaridan keyin esa u yana jim bo‘lib qolardi. Bunaqa maslahatomuz gaplar o‘tgan yillar ichida ko‘p aytilgan. Nima emish, Baqtriyaga, Sug‘dga, Daxtga qo‘shin tortib borilsa, massagetlar yurti dunyoda eng kuchli mamlakatga aylanarmish, xalq boyib, boshqa xalqlar oldida aytgani aytgan, degani degan xalq bo‘lar emish. Nima emish, Oks bilan Yaksartni boshlanishidan oyog‘igacha egallasak, suvimiz mo‘l-ko‘l bo‘lib, shahar-qishloqlarimiz yanada farovonlashib ketar emish. Nima emish, undoq emish, bundoq emish, falon mamlakatning podshohi bizlarga qarshi urush tadorigida emish, pismadon mamlakatning podshohi bizning qo‘limizdan karvon yo‘llaridagi biyligimizni tortib olmoqchi bo‘lib yurgan emish... Mana shunday niyatlari ko‘p edi Kratning. Rostdan ham massagetlar qaysi mamlakat tomon jahd aylab, yo‘lga tushsa, shu mamlakatni bo‘ysundirib qaytishi — bu bor gap. Massagetlar hech yengilib ko‘rmagan. Ammo ularning biron-bir mamlakatga bosib borib, zabt etib kelish, bosib olish, yo‘q qilib tashlash, boyliklariga ega chiqish niyati bo‘lgan emas. Massaget yigitlari, agar karvonboshilar iltimos qilishsa, karvon yuklarini qoravullab, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, uchinchisiga, to‘rtinchisiga, u iqlimdan bu iqlimga o‘tib, sayohat qilib kelishadi, lekin buni ular yordamga muhtojlarga yordam debgina tushunadilar, karvon manziliga yetib olgach, botir massagetlar ham izga qaytib, o‘z yurtida ekin-tikin bilan shug‘ullanadi. Ular hech qachon o‘g‘irlik qilmaydi, o‘zganing boyligiga olako‘z bilan qaramaydilar, boshqa mamlakat-

larni bosib olishni maqsad qilmaydilar. Shuning uchun karvonboshilar ulardan xursand.

Xalqining tabiati ana shunday ekanini To'maris ham yaxshi biladi. Shularning barini Kratga mirisidan-sirigacha aytib, ko'p bor tushuntirgan. Krat ham tushunib yetdim deganday, indamay ketib, keyingi gal yana boshqa bir gapni topib kelardi — Baqtriyani bo'ysundirib, meni hukmdor qilib o'tirg'izib qo'ysangiz, falon yilda xazinangizni falon martaga oshirib berardim... Endi o'ylab qarasa, Kratning dardi — massaget yigitlarining botirligidan foydalanib, dunyoning to'rt tomonini ham — Mag'rib-u Mashriqni, Janub va Orqani bo'ysundirib, juda ulkan saltanat tuzib, shu ulkan oraliqda mazza qilib yashash ekan.

Kratning bu xil xom xayollari amalga oshmagach, endi u niyatlarini Kir bilan baham ko'rish orzusiga tushdimikan? Nima bo'lmasin, To'maris yaxshi lashkarboshidan ayrildi.

Xo'sh, endi erta-indin boshlanay deb turgan urush qanday kechar ekan? To'maris shu paytgacha Kratsiz jangga kirib ko'rgan emas. O'ziyam Kratga rosa suyanib qolgan ekan, endi, mana, lashkarboshi qilib qo'yadigan odamni tanlab ololmay, boshi qotib o'tiribdi. Ayol shuning uchun ham ayol ekanki, sotqinligi fosh bo'lib, o'zini o'zi qatl etgan xoinga ham achinib, yo'qlay boshlarkan, xoinning qadr-qimmatini orttiradigan xislatlarini esga olib, yaxshiliklarini yodga ola boshlarkan. Agar uning o'rnida erkak podshoh bo'lganida xoinga ichi achib, qiynalib o'tirmasdi. Qaytanga, uni yanada og'ir jazoga mustahiq qilolmay qolganiga o'kinardi. Ha, erkaklar ayollarga qaraganda qattol, toshbag'ir, chidamli bo'ladi. Ular kechirimni bilishmaydi, ayniqsa o'ziga sotqinlik qilgan odamni o'ldiribgina qo'ymay, kulini ko'kka sochishga ham tayyor ular. "Biz ayollar unday qila olmaymiz. Ayol fe'li yumshoq bo'lgani uchun ham, tirik jonning bariga ona sifatida qarasa kerak-da..."

Mana, uning o'ziyam taxtni bolasiga topshirish haqida o'ylagan, lekin hal qiluvchi palla kelganida yolg'iz bolasini, ko'zining oq-u qorasini, hayotining yorug' yulduzini taxtga o'tirg'iza olmay, ish avvalgi holida qolib ketaverdi. Axir taxtda o'tirishning, yurt so'rash, ra'iyatning arz-u dodiga yetishning ham o'z mas'uliyati bor. Hukmdorlik degani — o'ta og'ir ish. O'n gulidan biri ochil-

magan bolaga, norasida erka Sparangisga mana shu og'ir yumushni qanday qilib beradi? Mamlakat taqdiri degan og'ir yuk bolasini ezib tashlamaydimi? Xalq ichida ming turli muammo paydo bo'lishi turgan gap — boshboshdoqlik, haromilik, jinoyat ro'y bo'lib qolsa, buning bari uchun o'n sakkiz yashar bola hukm chiqarib berishi kerak, eplay oladimi? Kulgigami, qahr-g'azabgami qolib ketmaydimi? O't bilan muz, o'lim bilan umr orasidagi jon talashgan izdihom-ku — bu saltanatning ishi. "Yana ozgina yurib tursin, teng-to'shlari bilan ov qilsin, o'ynab-kulsin, qayg'usiz, tashvishsiz yura tursin..." Har gal taxtni topshirish masalasi ana shunday yumshoqko'ngillik, ayash, farzandini haliyam bolasirash natijasida hal bo'lmasdan qolib ketaveradi. O'g'lini qachon taxtga chiqaradi, bolasi qachon er yetadi, jigarbandi qachon pishib yetiladi — buni To'maris bilmaydi.

Ha, aytganday, qadimgi ota-bobolardan qolgan bir udum bor: massagetlar er bolani ham, qiz bolani ham birinchi raqib qonini to'kkan kunidan boshlab er yetdi, kamolotga to'ldi deb hisoblar ekan. Bosib kelgan dushman qonini yuziga chaplasa, boshiga, qulog'iga, peshonasiga surib kelsa — o'sha kuni massaget yigiti yoki qizi balog'atga yetgan deb hisoblanadi. Shundan keyingina u oila qurishi, seviklisi bilan qo'shilishi mumkin. Buni qadimgilar "safimizga yana bir odam qo'shildi" deb, bayram ham qilishgan. Massaget yigit-qizlarni ota-onalar nikoh qilmaydi, ular o'zlari xohlasalar, yuqoridagi udumlar bekam-u ko'st bajarilsa, to'yda-ma'rakada kurash tushib, biri-birini yiqitib, shu bahonada oila boshlig'i kim bo'lishini aniqlab oladilar. Agar yigitning qo'li baland kelsa, qiz uning aytganlariga ko'nadi, agar qiz yengsa, qizning ixtiyori — qo'shiladimi yo oila qurishdan bosh tortadimi... Bu tartiblar ilgarigi zamonlarda bo'lgan. Hozir sal boshqacharoq: hozirgi yigit-qizlar harbiy mashq turlari bo'yicha musobaqalashadilar, ya'ni: otning ustida turib kurashish, yoydan o'q otish, qilichlashuv, yana allambalolar...

Yigit-qizlarning kuchini, epchilligini, mahoratini sanaydigan bunday o'yinlarda o'g'lining qatnashishiga hali To'maris biron marta ham ruxsat bergan emas. "O'g'lim hali yosh, turmush tashvishlarini yelkaga olishga hali yoshlik qiladi..." degan o'y-xayollar

bilan, o'g'lini haliyam bola sanab yuribdi. Mana shu savashda, erta-indin bo'ladigan jangda o'g'liga dushman qonini to'kishga, yuziga qon chaplashga ruxsat bermoqchi. Ana shundan keyin o'g'lining uylanishiga ham, taxtga chiqishiga ham ijozat beradi. Buning barini To'maris oltin kuz oylarida o'tkazishni mo'ljallab qo'yibdi. O'shanda bir to'y qilsin!...

Kuz — massagetlar uchun eng sevimli mavsum. Yerga bahorda urug' qadagan odam xuddi bolasining balog'atga yetishishini ko'zlari to'rt bo'lib kutgan ota-ona kabi, kuzni ham intizorlik ila kutadi, ya'ni o'z mehnatining mahsulini totgisi keladi. Massagetlar ichida kuzda don tashlamagan odam bo'lmaydi. Yerga urug' qadamaslik ular uchun ulkan gunohlardan hisoblanadi. To'maris podshoh bo'lgan paytidan boshlab hosildor yerlarning bir bo'lagini chorva uchun yaylov qilgan bo'lsa, bir bo'lagini bog' qilishga, ekin ekishga mo'ljallashni buyurgan. Ekin ekadigan dehqon uchun kuzdan qiziqroq fasl yo'q. Shuning uchun ham To'maris o'g'lining to'yini kuzda o'tkazishni niyat qilgan. O'g'li uchun qayliq qizni massagetlardan emas, Baqtriya yo Sug'd elidan, yoki Parfiya mamlakatidagi podshohlar sulolasidan tanlashni ham ko'z oldiga olib qo'yibdi. Nima bo'lsa ham, shu atrofdagi eng go'zal, eng aqlli, eng botir qizni o'g'li o'ziga qayliq qilib tanlasa bas.

...U hamon yoy kabi bukilib, o'ylanib yotibdi. Uchi-poyoni ko'rinmas dengizday xayolga botib qolgan u. Kratning bugungi o'limi uni yana o'ylanishga majbur etdi. Fitnani ochishga qaror qilgan jangchining o'q tegib halok bo'lishi ham — sirligicha qoldi. Ikkala o'lim ham bir-biriga bog'liq ekanini To'maris mushohada qilib ko'rishi, tagiga yetib borishi kerak. Balki, Kratning avvaldan aytib kelgan gapi — mamlakatni kengaytirish haqidagi fikrini To'maris ma'qullashi kerakmidi — buniyam o'ylab ko'rish kerak. Haqiqatan ham, xalqning kayfiyati o'zgarib ketgan bo'lsa, To'maris tutgan yo'ldan norozilik kelib chiqayotgan bo'lsa-chi? Balki xalqining o'zi podshohning Kirga o'xshab ulkan saltanat qurishni, qullarni ko'paytirishni, urush qilishni istab qolgandir — bularning bari hukmdorni o'ylashga majbur qiladigan savollar edi. "Men xalq orasiga bosqinchilik qilish kerakligi haqidagi gaplarni tarqatishga yo'l qo'ymay keldim. Bosqinchi odam biror mamlakatni zabt etish

uchun borar bo'lsa — albatta qon to'kiladi. Borgan joyingni kimdir himoya qilib chiqadi — qon to'kiladi, sen esa u yerni bosib olishing kerak, ya'ni sening ham qoning to'kiladi. Bosib olganingdan keyin ham tinchgina yashashga kafolat yo'q — yana boshqa bir serhosil yerli o'lkalarni zabt etish niyati, boshqalarni qul qilish orzusi urchigandan urchiydi. Yana jang bo'ladi, yana qon to'kiladi. U yoqdan ham, bu tomondan ham odamlar qurbon bo'ladi. Odamzod shunaqa ekan-da...

Ayol podsho hech kimni yig'latgisi kelmaydi. Urush degani — qon degani. Qon to'kishni esa hech qachon oqlab bo'lmaydi. Urush degani — qurbonlik degani. Kimdir qotil bo'ladi, odam o'ldiradi. Kimdir qurbon bo'ladi. Qurbonni ham, qotilni ham ayol tug'gan. Har ikkovi ham — onaning farzandi, ona ularni to'qqiz oylab qornida ko'tarib yurib tug'gan, onaning jigarbandlari ular. Shuning uchun bo'lsa kerak, ona farzand qonining to'kilishini istamaydi. Mana shuni xalq ojizlik deb tushunadi. Shu ojizligim xalqimga yoqmaydimi? Boshqa o'lkalarni zabt etmasak, mamlakat boyimas emish, podshoh katta-kichik ishlarni bemalol amalga oshirolmas emish... Undan ko'ra, izzatim borida taxtni topshirganim yaxshi".

Oldda xavf solib turgan urushdan qutulib olsin, taxtni o'g'liga topshiradi...

To'maris shunday qat'iy qarorga keldi va xodimiga o'g'lini chaqirtirishni buyurdi.

15

— Ulug' martabali onam, chaqirtiribsiz...

Bolasining do'rillab qolgan ovozini eshitib, To'maris quvonib ketdi. Bolaning voyaga yetib, er bo'lib ulg'aygani eng avvalo ovozining do'rillab qolganidan bilinadi. U o'g'liga ko'pdan beri ko'rmagan odamini uchratganday sinov ko'zi bilan qaradi. Bolasi anchagina yiriklashibdi, yag'rinlari kengayib, qaddi-qomatlari el boshqaradigan shohlarnikiga o'xshab qolibdi. Mo'ylovlari o'sib, ko'zga ko'rinadigan bo'libdi. Otasiyam xuddi shu yoshda taxtga chiqib yurt so'ragan edi. To'maris bilan Parvon ikkalasi kuch sinashib, kurashib yurganlari shu yoshda edi. O'g'li o'zining ko'ziga

hali kichik bo'lib ko'ringani bilan, yosh emas ekan, yigit bo'lib qolibdi.

— Bolam, men sening er yetganingni bilmay ham qolibman. Endi podsholik taxtini senga topshirsam ham bo'laveradi. Biroq bir shartim bor, uylanishing kerak.

— Kun nuridan tug'ilgan muhtaram onam, men sizning hukmdorlik vazifasini qoyilmaqom bajarib kelayotganingizni bilaman, buyruqlaringizga hamisha bosh egaman. Men hali sizday bo'lib el boshqara olmasligimni ham bilaman. Siz qancha-qancha dushmanlarni daf qilgan odamsiz. Massagetlar yurtiga hech qanday dushmanning tishi botmasligi barcha mamlakatlarga afsona bo'lib ketdi. Massagetlarga hunar o'rgatdingiz, yurtni farovon qildingiz, elni nasibali el qildingiz. Buni hamma biladi, aytib, duo qilib yuribdi. Shuning uchun ham har bir massaget sizning oldingizda ta'zim qiladi, hurmat qilib boshiga ko'taradi. Ayting-chi, men hozir shu yoshimda saltanat ishini sizday qilib yurita olamanmi, onajon?

O'g'lining biyron-biyron, dono-dono gaplarini eshitib, To'maris hayron bo'lib qoldi. Bunaqa mantiqli-ma'noli so'zlashni qachon, qayerda o'rgana qolibdi Sparangis? Balog'at deganlari shu bo'lsa kerak axir!

— Bo'ldi, bolam, shu so'zlaring bilan ham mening ko'nglimni to'ldirding, ham er yetib qolganingni bildirding. Demak, sen saltanat boshqarish ishiga ham yarab qolganing bu. Men doimo sening yoningda bo'laman. Avvalo Kirni bir yoqlik qilib olaylik. Undan so'ng seni uylantirish maslahatini qilamiz. Massagetlar butun Oks bilan Yaksartning bo'ylarini to'ldirib-yangratib to'y qiladi. Shu to'y sening uylanish to'ying bo'ladi, taxtga ham o'tirasan!

Sparangis onasining gapiga qarshi gap aytolmadi. To'maris ta'zim qila-qila chiqib ketayotgan o'g'lining pahlavonona kelbatiga quvonib qarab qoldi-yu, ko'nglining bir chekkasida g'imirlayotgan alammi, xafachiliknimi sezib, bezovtalandi. Quvongani — hayotining mazmuni, orzularining ro'yobi Sparangis otasining xuddi o'zi bo'lib er yetibdi, erta-indin mamlakatga podshoh bo'lib, onasining og'irini yengil qiladi, onasiga uyqu bermay qo'ygan zil-zambil mas'uliyatga yelkasini tutadi. Xafa bo'layotgani — el-yurtning,

mamlakatning, xalqning taqdirini endi u o'z vujudi, kuchi-quvvati bilan ko'tarishi kerak.

To'maris shularni o'ylab, beixtiyor xo'rsindi.

16

— Qudratli podshohim, bir notanish yigit sizning huzuringizga kirish uchun ruxsatingizni so'rayapti, — dedi posbon To'marisga. Kim bilan maslahat qilishini bilmay, to'qson xil xayolning ko'chasiga bir-bir bosh suqib chiqqan hukmdor ertaga bo'ladigan urushda kimning bosh qo'mondon bo'lishi kerakligini hali hal qilolmay, o'ylanib o'tirgan edi. Posbonning gapi unga yangilik bo'ldi.

— Olib kiringlar, — dedi darrov.

Ko'p o'tmay boshida uch qirrali bo'rk, turli ov hayvonlarining terilaridan ko'ylak-ishton kiygan barvasta yigit kirib keldi. Uni ko'rinishidan yosh yigit deb aytish qiyin edi. Manglayidagi, yonog'idagi ajinlarning anchagina teranlashib qolganiga qaraganda yoshlari ham o'ttizga borib qolganday tuyuldi To'marisga. Yigit ko'tarib olgan teri xurjunning ichida dum-dumaloq nimalardir borligi ko'rinib turardi. Yigit xurjunning og'zini ochib yubordi-da, To'marisga egilib ta'zim qildi:

— Podshohim, mana... dushmanning kallalari...

Massaget botirlarining qadim-qadimdan kelayotgan bir udumi bor — ular dushman askarlari bilan duch kelib qolganlarida o'ldirish bilangina cheklanib qolmaydilar, vatan sarhadidan hatlab o'tgan dushmanning boshini ham uzib olib keladilar — axir keltirilgan har bir yov kallasi uchun hukmdor sovg'a beradi-da.

To'maris minnatdorona bosh silkib, jilmaydi.

— O, azamat! Qayerda, qachon bularga duch kelding?

— Mening kasbim ovchilik, hukmdorim! Daryo yoqasida kiyik-qulon ovlab yurib, sohilda uyulishib-to'kilishib, hangoma qurib o'tirgan ko'p odamlarni uchratib qoldim. Qarasam, huv narida chodirlari ham tikilib turibdi. Tillari, gapirishlariyam bizning odamlarga o'xshamaydi. Biqinib yotib kuzatdim, hoynahoy, bizlarga kelgan yov askarlari shular, deb o'yladim. Shunday bo'lib chiqdi. Keyin ish bilan chetroqqa chiqib ketganlarini birin-ketin

saranjomlayverdim. Hozircha, mana, beshtasining kallasi... Biroq, mening na poylaganimni, na qon to'kkanimni dushman askarlarining biroviyam sezmadi.

To'maris qars chaldi.

— Manov ovchi o'g'lim keltirgan har bir kallani munosib baholanglar!

Ovchi yigit ikki bukilib, podshohning oyog'iga bosh qo'ydi.

— Ulug' hukmdorim, menga hech narsa kerak emas, — dedi qo'li ko'ksida.

— Tilaging ne, o'g'lim?

— Sizning jangchilaringiz qatoriga kirsam, podshohning tansoqchi-askari bo'lib, dushman bilan yuzma-yuz olishsam deyman. Men ovchilik kasbida hayvonlar bilan olishib yurib, shundoq mahoratga erishdimki, endi shu hunarim bilan sizning xos askarlaringiz oldida gerdayib yursam deyman. Har qanday yakkama-yakka jangda, dushmanlar bilan savashda o'z qahramonlik usullarimni namoyish etish orzuyim bor. Ana shu hunarlarimni ko'rsatsam-u, keyin, mayli, mening mahoratimni baholasinlar, hukmdorim! Men qahramonligimni sizning ko'z oldingizda — jangda ko'rsatmoqchiman!

Yigitning ko'zlari mash'aladay yonib, uchqun sochar, vujudi bilinar-bilinmas titramoqda edi.

Mamnunlik ila jilmayib turgan To'marisning yuzlari jiddiylashdi.

"Yo tangrim — Quyoshim! — xitob qildi u ichida. — Shunday yigitlarimiz bor ekan, yondiraman, kul-tolqon qilaman deb turgan yo'lbars yurakli erlar bor ekan, nega men dushmandan qo'rqishim kerak?! Tangrim, shunday qaytmas, or, nomusli yigitlarni biz — massagetlarga berib qo'ygan ekansan, har qanday dushmanni majaqlab tashlab, pora-pora qilmaymanmi?! Ammo... ammo..."

— O'g'lim, sen bizning "askar-askar" o'yinlarimizda qatnashmagansan-ku, men mashqlarda qatnashgan bolalarimning hammasini nomma-nom bilaman, seni esa eslolmayapman. Sen urush qonun-qoidalarini, hiyla-o'yinlarini ham bilmaysan. Urushning tayyorlik mashg'ulotlarida ham senga hech ko'zim tushgan emas. Axir, ov ovlash boshqa narsa-yu, dushman bilan jang qilmoq — boshqa-boshqa mashg'ulotlardir. Eshitganman, dushmani-

miz Kirning jangchilari ham necha-necha yurtlarni zabt etib, qancha-qancha urush-so'qish hiylalarini o'zlashtirib-o'rganib, katta tayyorgarliklardan keyin bizga qarab kelayotir. Qo'lda faqat sadoq tortib, ovga tekkizganing bilan mohir jangchi bo'lib qolmaysan, o'g'lim! — dedi To'maris yigitning yana nimalar deyishini eshitgisi kelganday.

— Men agar jangda o'zimni ko'rsatolmasam... — dedi yigit hayqirib, — unda... unda meni o'g'lim demang! Meni... o'ldiring, mana qilichim!

Haqiqiy massagetlar shunday qiladi — aytgan gapiga ishonmasalar, "mana qilichim, uz kallamni!" deb turaveradi.

— Mardligingayam, kuchinggayam ishondik, o'g'lim, — dedi To'maris taxtdan tushib kelib, yigitning yoniga keldi. — Oting kim, bolam!

— Otim Panay, — dedi yigit hovridan tushib.

Shunday dedi-yu, yonidagi yana bir xurjunining ko'zini ochib, titkilay boshladi. "Nima qilmoqchi?" — hayron tikildi To'maris. Yigit xurjundan izlagan narsasini — hayvon suyaklaridan bezak berib yasalgan qadahni ikki qo'llab uzatdi.

— Manov... mendan sovg'a... Bu, ikkinchi bir hunarim, ko'za, qadah, piyola yasayman.

To'maris yigit uzatgan sopol qadahni aylantirib tomosha qildi. Qadah sirtida Kun tangrining surati, quyoshni aylanib chopayotgan otlar tasviri bor edi. Otlarning hammasi qanotli qilib tasvirlangan. Bu sovg'a To'marisni quvontirib yubordi. Massagetlar uchun ko'kdagi Kun tangri — Quyosh — birinchi hisoblansa, yerda ot ham shunchalar muqaddas hisoblanadi. Kun — osmonda turib, odam bolalariga yaxshilik yo'llasa, ot odamning ostida turib yaxshilik keltiradi, dushmandan qutqaradi. Ot chopishining tezligini massagetlar Kun nurining tezligiga teng deb biladilar. Shuning uchun ham otni "chopadi, yuguradi" deb emas, "uchadi" deb gapiradilar.

To'maris uchun bundan ziyod sovg'aning keragi yo'q edi — Kun tangri bilan uchayotgan otlar surati solingan idishni u yaxshilik alomati, g'alabaga ishora deb tushundi, birdan ko'ngli yorishib ketdi! So'ralmagan joyda, o'zidan o'zi paydo bo'lib qolgan bu irim-

ning ma'nosi — mana, ertangi kungi jangdagi g'alabani bashorat qilib turibdi axir!

— Panay, bu suratlarni kim chizdi?

— O'zim o'yganman, podshohim. Bu yoqqa kelayotib ustaxonamdagi eng birinchi turgan idishga qo'l uzatdim — shu qadah, Kun tangrining otlari bor idish qo'limga ilindi. Sizga sovg'a qilaman deb ko'tarib kelaverdim... Podshohim, ot o'zi xosiyatli bo'lgach, otning surati ham xosiyatli bo'ladi, deyishadi. Biz otni sevadigan xalqmiz. Manov otlar aylangan doira — Kun tangrining surati. Kun tangrimiz yor bo'lsa, ertaga biz ham otlarimizga minib, yovga otlanamiz. Irim uchun opkeldim-da, podshohim, ola qoling, — iltimos qildi.

Yigitning soddaligi, to'g'riso'zligi, mardligi To'marisning ko'nglini bir ko'targan bo'lsa, uning manov sovg'asi uni ertangi g'alabani qo'shqo'llab tutganday quvontirib yubordi. "Bo'lajak savashda xalqim g'alabaga erishadi, barcha xalqlarning tarixida yozilib qoladi, ulug' g'alaba bo'ladi bu!" — deb qo'ydi u ichida ishonch bilan.

17

Kir o'zining so'nggi yuborgan ayg'oqchi-jonsizlarini kutmoqda edi. Jonsizlar ham kela qolmayapti. U qon sho'rg'alovchi qilichidan ham avval odamni so'z bilan zaharlaydi, bir necha yuzlab jonsizlarin o'zidan kamida uch kun oldin dushman tomonga yuborardi. Ayg'oqchi-jonsizlar borgan yerida —bozorda, shaharda yolg'on-yashiq so'z tarqatadilar, mahalliy aholining yuragini vahimaga obdan to'ldirib, chumchuq pirr etsa, yuraklarni shirr etadigan ahvolga keltirib qo'yadilar. Jonsizlar Kirni maqtashga kirishganlarida ham til mahoratini ayamaydilar — Kirni Osmon ma'budining yerga yuborgan vakili deb jar soladilar, uning borgan yeri, qadam bosgan joyi — gullolagul-chaman-u, otining tuyog'i tekkan yer — behishtga aylanadi. Unga qarshilik qilmasdan asir tushgan odamning o'zi Axiramuzdaning eng sevimli bandasiga aylanadi, deb gap tarqatadi. Ayg'oqchi-jonsizlardan talab qilinadigan vazifa shu — ular odamni targ'ib qilib, yolg'on so'zlarini

bozor-o'charda aytib o'tsalar, shuning o'zi bas. Hamma mamlakatdayam, shahar-qishloqlardayam devona bor, savdogar bor, bunday odamlarning esa qadami tegmagan joyning o'zi yo'q. Shuning uchun ham ularning el oralab yurganidan hech kim shubhalanib o'tirmaydi. Ana shundan keyin Kirning askarlari kelib, qaqshatqich jangga kirishadilar.

Biroq bu gal Kirning jonsizlari massagetlar yurtiga kirib-oralab ketganlaridan beri ulardan xabar yo'q, na o'zlari keladi, na bir xabar yuboradi. O'zlari tirikmi yo o'likmi — Kir shuni bilolmay hayron. Yunonlardan bir maqol eshitgan edi Kir: "Elchi kechiksa — o'ldirildi de, jonsiz kechiksa — zindonga tushdi de". Qamoqqa tushgan jonsizlarning qanaqa jazo topishini Kir yaxshi biladi, terisini sidirib tashlab somon tiqishar emish. Kechikayotganlarning sababi shu emasmikin? Endiyam ularni kutib o'tirishga Kirning toqati yetmayapti. Ertagayoq savashni boshlab yuboradi!

Massagetlarning qanaqa qurollar bilan jangga kirishishlarini Kir bu yerga kelibgina ko'rdi. Ular ko'chib-qo'nib yurganlari bilan yangi-yangi qurollar o'ylab topishda, yasashda juda mohir emish, bu borada ulardan o'tib ketish qiyin emish. So'yil, bolta, oybolta, gurzi, o'q-yoydan tortib, qilich, shamshir, nayza, shamqal, selebe degan yangi-yangi jang qurollarini o'ylab topgan, deyishadi. Jangga massagetlarning bari — erkak-u ayol birgalikda chiqaverar emish. Hech qanaqa qurol topa olmaganda ham, ular o'zlarini savashdan olib qochmas, qo'l jangiga kirishib ketaverar emish. Ularning jang qilishlarining o'zi g'aroyib tomosha bo'lishini Kir eshitgan edi. Kir shu tomoshani ham ko'rishni istardi. Xullas, u toqati toq bo'lib, savash boshlanishini kutmoqda. O'tayotgan har bir kun yilday tuyuladi unga.

Oks daryosining bo'yida bunchalik qolib ketarman deb o'ylamagan edi Kir. Dalada mol boqib yurgan odamlarda nimayam qurol bo'lsin, deb o'ylardi. Haliyam ishongani — o'z askarlarining qudrati! Forslarning mo'r-malaxday bosib kelayotgan askarlarini ko'rgandayoq ular qo'l ko'tarib asir tusha boshlasa kerak. Ha-da, axir, Kir qamal qilgan qal'alar uzog'i bilan bir haftaga zo'rg'a dosh beradi, lekin qal'a aholisi o'zlari chiqib tutqinlikka rozi bo'ladi, qal'a darvozasini ochib qo'yadi. Nomi olamga taralgan Bobil ham,

yer-ko'kka sig'mas boyliklarga ega bo'lgan Lidiya ham, Midiya ham Kirning oyog'i ostida qoldi. Uni aytasan, sevimli tulpori suvda oqib ketganida, butun boshli yefrat daryosini bo'g'ib tashlagan edi. "Agar biror ot oqib ketadigan bo'lsa, Oksni ham bo'g'ib, suv oqizmay qo'yaman!" deb maqtangan edi u. Yo'q, mana, Oksdan ham omon-eson kechib o'tdilar. Lekin bu daryoning yomon jinniligi bor ekan, shunisiga Kir hayron qoldi. Tep-tekis daladan oqib o'tayotgan suvning shiddati tog'dan ag'darilib tushayotgan tezoqar oqimdan ham qolishmaydi-ya...

18

Onaning hukmi — Xudoning hukmi.
"Kitobi dadam Qo'rqut" asaridan

Bugun To'maris lashkarboshilarni yig'ib, jang oldidan oxirgi kengashini o'tkazmoqchi. Kelishuv bo'yicha ertaga jang kuni. To'maris o'zini xotirjam tutgani bilan, ichida to'lg'oq boshlanganday hayajonda edi. Xalqim urush balosini ko'rmasin deb, yaqin-atrofdagi dushmanlarning barining unini o'chirib qo'ygan edi, qaydandir manov Kir degani paydo bo'ldi. Kirning aytganlariga esa To'maris ko'nmadi, To'marisning aytganlariga Kir quloq solmadi — mana endi To'marisning ishongan askarlari Kirning qo'shini bilan yuzma-yuz keladi. Ertaga necha-necha yigitlarning gulday umri xazon bo'lib ketishi turgan gap. Ayol bo'lgani, ona bo'lgani qursin, To'maris ertangi jangda shu tuproq deb jon berib, jon oladigan yigitlarning onalarini o'ylab qiynaladi. O'zicha toshday mustahkam, qattiq, temirday metin yurakli bo'lay dedi-yu, baribir, ayolning oti — ayol, onaning oti — ona ekan, farzandlarining surati ko'z oldidan ketmaydi. Ha, u o'z lashkarlari orasidagi har bir jangchini o'zining farzandiday ko'radi. Har birining o'z umri bor, tirikchiligi bor, taqdiri bor, har biri ham yashash uchun dunyoga kelgan. Bu dunyoning qizig'i ham — mana shu yoshlarda. Agar Sparangisi bo'lmasa edi, To'maris uchun hayot to'xtab qolganday tuyulmasmidi? Boshqa farzandlari — boshqa jangchilar ham o'z onalari uchun, To'maris uchun shunday. Ertangi jang balki To'marisning hayotidagi so'nggi savash bo'lar? So'ng To'maris taxtni o'g'liga

topshirmoqchi. Quyosh tangrisining nuri yog'g'ur otasi Parvon shuni vasiyat qilgan edi. "O'g'limni kamolotga yetkaz, aqlli-esli podshoh bo'lsin, so'ng uni taxtga o'tirg'izasan, yana ayolligingga borib, uni balog'atga yetmasdan burun taxtga o'tirg'izib qo'yma", degan edi. Demak, u ayolining aqlli, saltanat ishiga ham yetuk, botir ayolligiga ishongan ekan-da?!

To'maris bularning barini bugun qaytadan eslayapti.

U jang paytida kiyadigan sovutini ustiga kiyib, saroydagi maslahatxonada ko'rinish berdi. Bir qator bo'lib tizilib o'tirgan sarkardalar podshohni ko'rib, egilib salom berdilar. To'maris o't yonib turgan o'choqning o'ng tomonidagi taxtga kelib o'tirdi. Sarkardalarga "o'tiringlar!" deb ishorat qildi.

— Tinch o'tirgan elimizning boshiga savdo solmoqchi bo'lib yov keldi, — dedi gapni po'stkallasidan boshlab. — U bolalarimizni qul, qizlarimizni gung[1] qilib olib ketmoqchi, serhosil dalalarimizni kul qilmoqchi. U yerimizga bosib kirsa, kampir-qariyalarimizni dorga tortadi. Boshchanoqlarimizni tizib devor yasaydi. Massagetlarning qul bo'lib haydalib, sag'irlarimiz yetim bo'lganidan, suluv qizlarimiz dushman oti oldida bandi bo'lib, cho'l-u biyobon oshib, zor yig'lab yot ellarga ketgunicha — bizning qurbon bo'lib ketganimiz ming marta ortiq emasmi? Dushman esa biz shu paytgacha ko'rgan dushmanlarning barchasidan ming hissa kuchli. Yov — dunyoning 400 shaharini bosib-yanchib, zabt aylagan Kir! Men ertangi jangda dushman bilan olishganda, ota-bobolarimizning arvohini yer qilib qaqshatmasdan, dushmanni Vatanimiz tuprog'idan haydab chiqarishimizni shart bilib jang qilish kerakligini aytmoqchiman. Shu so'zlarni aytayotganda To'marisning ovozi qaltirab ketdi. Shusiz ham ertaga bo'ladigan savash hammani o'ylantirib qo'ygan edi.

— Bizning o'ttiz ming yosh yigitlarimiz oldida Kir boshlab kelayotgan ikki yuz ming lashkar albatta ko'p, — davom etdi To'maris. — Buning ustiga yer yuzidagi eng boy o'lkalarni o'ziga bo'ysundirib kelayotgan Kirning lashkarlarida qanchadan qancha qurol-yarog' bor, bularni ham hisobga olib jang qilishimiz kerak. Nima deysizlar?!

[1] **Gung** — asira, tutqin qiz yoki ayol.

— Bu jang sizlar avvaldan ko'rib yurgan janglar kabi bo'lmaydi, — gapini davom ettirdi To'maris. — Bunisi hayot-mamot savashi bo'ladi. Sababi, Kirning lashkari ikki yuz ming askar deb aytilayapti, bizning jang ko'rgan yigitlarimiz esa o'ttiz ming...

Hammaning diqqati podshoh aytgan sonlarni mushohada qilib ko'rish uchun yo'naltirilgan edi. To'planganlarning ko'zi To'maris yuziga tushdi — uning ajinlari chuqurlashib, qovoqlari shishib ketganligi bilindi. Bu — kechalari uxlamaslikning alomati.

— Biz bunga qadar bunaqa ko'p va qalin lashkar bilan jang qilmaganmiz. Buniyam hisobga olish kerak bo'ladi. Ol, Kir esa oldidan chiqqan xalqni qilich bilan qirib-yanchib, bosib kelayotgan bir yovuz. Midiya kabi eng ulkan, qudratli mamlakat ham Kir qo'shiniga taslim bo'ldi va yo'q qilindi. Bu gaplarni qayta-qayta takrorlashimdan maqsad shuki, uning qanday jang qilish usulini o'rganib, o'ziga qarshi ishlata olishimiz zarur. Jang maydonida Kir askarlari qanday harakatlarni qo'llaydi, Kir haqida kim, qanday xabarlar eshitgan — hozir bularning hammasiyam ahamiyatli. Ular jang maydonida qanday savash quradilar? Ular shu paytgacha bosib olgan yerlarida qanday jang usullarini qo'llaganlar? Bular haqida kim, qanday ma'lumot biladi?

— Qudratli podshohim, ruxsat bersangiz, men bilganlarimni aytib bersam, — dedi shunda qo'mondonlardlan biri Aksiart. U basavlat gavdasini yep-yengil tebratib o'rnidan turdi-da, podshohga egilib ta'zim qildi. So'ng yonib turgan o't yoniga bordi. — O'zingiz aytganingizday, Kirdan har xil hiyla-nayrangni kutsa bo'ladi. Uning shumligi, jang o'tkazish usullari, hiylakorligi, yovuzligi, makri hammanikidan o'zgacha. U axir taxt uchun kurash asnosida o'zining otasini ham yo'qotib, qurbon qilib yuborgan manfur kimsa.

O'tirganlar hayron bo'lib, bir-biriga qarab-qarab olishdi. Aksiart so'zida davom etib, Kir haqida eshitgan-bilganlarini hikoya qilib berdi.

19

— Ha, u o'z otasining jonini olib taxtga chiqqan mal'undir. U — aslida Midiya podshohi Astiakning nabirasi hisoblanadi. Astiakka bir bashoratchi "Mandana degan qizingdan tug'ilgan bo-

la — o'zingning nabirang seni taxtdan qulatib, saltanatni qo'lga kiritadi", deb fol ochadi. Bu folning ta'biridan qo'rqib, vahimaga tushib qolgan Astiak, bashorat ro'yobga chiqib qolmasligi uchun qizi Mandanani qo'shni mamlakatga — Forslar yurtiga, Kambiz degan odamga uzatib yuboradi. Shu yo'l bilan u oldda o'zini kutayotgan tashvishlardan, tug'ilajak nabirasining qonxo'r shaxs bo'lib yetishishidan qutulmoqchi bo'ladi. Uning tilagiga qarshi, Kir baribir tug'iladi. Shunda Astiak o'zining bir xizmatkoriga Kirni o'ldirib yo'qotish haqida buyruq beradi. Xizmatkor esa Kirni o'ldirmaydi-yu, uning o'rniga xotinining o'lik tug'ilgan bir bolasining jasadini ko'rsatadi va bolani o'zi saqlab oladi. Shunday qilib Kir oddiy bir xizmatkorning o'g'li bo'lib o'saveradi. O'n yoshida u bolalar bilan "podshoh-podshoh" o'yinini o'ynab yurganida, boylarning farzandlari uning buyrug'iga bo'ysunmay, "sen oddiy xizmatkorning bolasisan, podsholar naslidan emassan" deyishadi. Shuning ustida janjal chiqib, bolalar Astiakka murojaat qiladilar. Folchilar Astiakka mana shu bola — Mandananing o'g'li ekanini aytadilar va "u bola manovilar bilan o'ynab yurib, taxtga chiqish bashoratini o'tab bo'ldi, shu bilan endi u haqidagi eski bashorat ham o'z kuchini yo'qotdi, qo'rqmasang ham bo'ladi", degan gapni aytib, Astiakni tinchlantiradilar. Astiak shu yerda nabirasini saroyda olib qoladi. Astiak bolani o'ldirmagan xizmatkorni topdirib, buyruqni bajarmagani uchun xizmatkorning boshqa farzandlarini o'ldirib, go'shtini o'ziga yedirib, o'ch oladi. Kir ulg'ayib, Astiakka qarshi qo'zg'olonga rahbarlik qilib, uni taxtdan ag'daradi va o'zi podsho bo'lib oladi. U Midiyani ko'p kuch ishlatmasdan o'ziga qaram qilib oladi. Bir yil ichida Lidiyani zabt etadi. Bu paytda qudratli qo'shni Bobil mamlakatida olaog'izlik paydo bo'lib, ahli mamlakat ikki tarafga bo'linib yurgan edi, shundan foydalangan Kir bu mamlakatni ham o'ziga bo'ysundirib oladi. Baqtriya mamlakati urishmasdanoq o'zi taslim bo'ladi. Sug'diyonaliklar urush qilib yengiladi va bu mamlakat ham Kirning qo'l ostiga o'tadi. Undan keyin Parfiya ham taslim bo'ldi. Bu o'lkalarning hech biri Kirga qarshi turolmadi.

Kirning hayot yo'li, taxtni egallashi, qanday qilib kuchli davlat yarata olganidan bu yerdagi ko'pchilik yaxshi xabardor emas edi,

shuning uchun Aksiartning hikoyasini hamma diqqat bilan qiziqib tingladi.

— Shunday qilib Kir son-sanoqsiz boyliklarga, ulkan qo'shinga ega bo'lib oldi, — davom etdi Aksiart, — uning lashkari otliq, piyoda, tuyada ham, aravada ham yurib, jang qilaveradi. Kirning eng birinchi quroli — ayg'oqchilari. U qaysi o'lkani zabt etmoqchi bo'lsa, avvalo ko'p sonli ayg'oqchi-jonsizlarini yuborib, o'lka aholisi orasida gap tarqattiradi, vahima qo'zg'aydi. Shu yurtning taniqli kishilarini, xalqqa rahbarlik qila oladigan odamlarni qo'lga oladi. Shundan keyin shaharga turli tomondan hujum uyushtiradi. Shahardan oqib o'tadigan suv yo'llarini bo'g'ib qo'yadi. Shaharga kirib chiqiladigan yo'llarni bekitadi. Kutilmaganda hujum boshlaydi. U juda yirtqich, tulkiday ayyor, eshakday o'jar, burgutday o'tkir ko'zli. Qaysi o'lkani zabt etsa, uylarni yoqib, bog'-u bo'stonini xarobaga, gulistonini cho'listonga aylantiradi. Askarlari o'jar Gind daryosidan o'tolmay turganida, u daryoning uch yuz oltmish joyidan anhor qazdirib, daryo suvlarini bo'lib-bo'lib, kichkina, ojizgina daryoga aylantirib tashlagan. Yevfrat daryosini ham bo'g'ib, uning sohilidagi aholini to'z-to'z qildirib yuborgan. U qayerni zabt etsa, o'sha yerning aholisini iskanjaga olib qiynaydi.

— U baribir Oksni bo'g'a olmaydi! — deb qichqirdi o'tirganlarning biri.

— Bo'g'ishi mumkin. Daryolar ham elni odamlari kabi himoya etishini Kir yaxshi biladi. Shuning uchun ham eng avvalo suv yo'llarini kesib tashlashga, daryolarni bo'g'ishga kirishadi. Agar daryoni qum, loy, tuproq bilan bo'g'a olmasa, yuqorida aytganimday, daryo bo'yidan turli tomonga anhor qazdirib, suvni qochiradi. Daryo suvlari qon oqib turgan tomirlarday turli tomonga tarqalib ketgach, yuvosh tortib qoladi-da, Kirning oyog'iga bosh urib turaveradi, — dedi To'maris Kirning harbiy yurishlarida qo'llaydigan urush usullari qaqida eslarkan. — U ulkan xalqni — kichkina xalqqa, to'lib-toshgan daryolarni — ariqqa, yerni ko'lga, ko'lni — botqoqlikka aylantirishga juda usta. Biroq u hali massagetlar bilan to'qnashib ko'rmagan va biz uni tavbasiga tayantiramiz! — hayqirdi To'maris qat'iy qilib. Bu qat'iyat savashga tushish ishtiyoqida o'tirgan massagetlarning yuragidagi olovni qo'zg'ab yubordi, ular-

ning ko'zlarida uchqun alanga olayotgan edi. — Sababi, biz shu kungacha hech kimga bosh egmaganmiz, bundan buyon ham bosh egmaymiz! Bizlarni yenga oladigan kuch yo'q! Bo'lmaydi ham!

To'marisning bu so'zlari uchqun otayotgan ko'zlarni battar olovlantirib yubordi. O'tirganlar o'rinlaridan irg'ib turib: "Kun tangri! Kun tangri!" deb qichqira boshladilar. Yoylardan ko'kka qarata o'qlar otildi.

— Dushmanga la'nat bo'lsin! — qichqirishdi massagetlar.

— Yengilmaymiz!

— So'nggi tomchi qonimiz qolguncha jang qilamiz! — degan hayqiriqlar saroy ichini to'ldirib yubordi. Hayqiriqlar To'marisning beliga belbog' bog'laganday bo'ldi.

— Qani, bo'lmasa, Kun tangrimiz sharafiga qurbonliklar qilaylik!

To'marisning shu buyrug'ini kutib turgan saroy xodimlari darhol ishga kirishdilar. Kun tangrini ulug'lovchi madhiyalar yangrab, musiqa chalindi, massagetlarning eng sevimli hayvoni — otlar so'yildi. Ot qonini badanlariga surib, ruhlangan jangchilar piyolalarga qon to'ldirib ichdilar — massagetlar ot qonini ichdimi, endi bu yaqin atrofda ularga ro'para kelib qoladigan yovning holiga voy! Kun nuri bilan teng chopisha oladigan uchar tulporlar qoni, kuchi, ruhi va shiddati inson vujudiga singdimi — endi u inson oldidan tog' chiqsa ham pora-pora qilib tashlayajak! To'marisning barcha lashkarlari shu kuni ot qonidan totib, bir kuchlariga ming kuch qo'shilib, vujudlariga harosat[1] kirdi. Endi ular bu yovvoyi kuchni nafratga aylantirib, dushman ustiga sochajaklar!

20

— Qudratli podshohim! Qudratli podshohim! Kunning qizi oltin To'maris! — Nafasi ichiga tushmay jonholatda qichqirib chaqirayotgan odamning xirillagan ovozini eshitib, To'maris chodiridan sirtga qanday chiqqanini bilmay qoldi.

— Nima xabar?

— Kun nuridan yaratilgan hukmdorim! Arslon yurakli botir podshohim! — deb ayyuhannos soldi kelgan odam. To'maris unga

[1] **Harosat** — yovvoyi, notabiiy kuch-qudrat, shiddat ma'nosida.

ko‘zi tushishi bilan darrov tanidi: bu — ovchi yigit Panay edi. Uning bunchalik hayqirib-hayajonlanib kelayotganidan To‘maris noxush hol ro‘y berganini sezdi.

— Sparangisni Kir qo‘lga tushirdi! — dedi u chaynalib-chaynalib.

To‘marisning tepasidan yashin urganday bo‘lib, ko‘zining oldini g‘ubor bosib, esankirab qoldi. Manov sovuq xabarni eshitgunga qadar To‘maris uchun bu yorug‘ dunyo — jonli dunyo edi, bu xabarni eshitdi-yu, dunyoni zulmat bosdi. Dunyoning barcha qizig‘i, rangi-yu chiroyi Kir qo‘liga tutqun bo‘lganday tuyuldi.

— Qachon? — dedi bir payt zo‘rg‘a ovozi chiqib. — Qanday qilib asir tushadi axir?

U o‘zini tuproqqa otib, yer bag‘irlab yig‘lagisi keldi, ammo bu mumkin emas. Bor ovozini chiqarib, o‘kirgisi keldi, qani edi, yuzlarini yulib, sochlarini yoyib, yer yastanib, dunyoni to‘ldirib faryod cheksa! Biroq bu podshoh uchun mumkin emas. “Oldimda yursang — haybatim, izimda yursang — g‘ayratim, ko‘kka uchganda — qanotim, yerga tushsam — tiragim eding, jonim bolam, qulunim, tulporim, burgutim-a, dushman qo‘lida qay ahvolda ekansan, tirikmisan, tarlonim?” — deb emrandi ona yuragi. Biroq To‘maris ichidagisini sirtiga chiqarolmaydi.

— Ayt, qanday qilib asir tushdi? — U qo‘lidagi qamchini yerga tortib yuborgan edi, oltin sopli qamchining dastasi qoq bo‘linib ketdi.

— Mast qilib tushirdi...

— Mast qilib? — qayta so‘radi u.

O‘g‘lining dushman qo‘lida ekaniga bir hayron qolgan bo‘lsa, endi mast bo‘lib qo‘lga tushganligidan ikki bor hayron bo‘ldi. “Savashda yengilib qo‘lga tushmasligini bilardim, chunki uning o‘zi ham, o‘rtoqlariyam pahlavon yigitlar. Hayhot, bularning sharob ichishlariga nima sabab bo‘ldi ekan? “Bolaning bolaligi qolmaydi” — deganlari shu ekan-da? Yo‘qsa, sharob ichadigan paytmi hozir?!..”

— Sharobni qaydan olibdi?

— Voqea bunday bo‘libdi: Shahzoda o‘rtoqlari bilan ov qilib yurib, forslarga duch kelib qolibdi. Forslar bulardan qo‘rqib qocha

boshlagan. Ularning tashlab ketgan chodirlarida sharoblari, taom va yeguliklari qolib ketgan ekan. Bular yoshlik qilib, dushmanni qochirdik deyishib, tashlab ketilgan sharoblardan, taomlardan tanovul qilishgan...

— Yonida kimlar bo'lgan ekan?

— Patasman bo'lgan.

— U qayerda?

— U ham asir tushgan.

To'marisning badani qaltirab ketdi. Yana o'y girdobiga tushdi. Sparangis bilan Patasman qanday qilib forslarning chodiriga borib qoldi ekan? O'g'lining asir tushishiga sabab — faqatgina uning sharobga qiziqib, tatib ko'rishimikan yoki bu yerda yana boshqa gaplar bormi? Nima bo'lmasin, hozir o'g'lini qutqarib olishning yo'lini qilishi kerak! Qanday qilib u asirlarni qutqara oladi? Kir o'zi nimalarga qiziqadi? Agar u boylikka qiziqsa, massagetlarda boylik ko'p. Oltin kerakmi Kirga? Massagetlarning oltinidan saroy ham qurish mumkin.

U darrov muzokara yuritish uchun elchi tayyorladi.

— Sparangis uchun nima tilaydi? Mana shuni bilib kel!

Elchi oq bayroq ko'targan holda forslar egallab turgan tomonga qarab yo'l tortdi.

Elchining borishidan kelishi tez bo'ldi.

To'maris elchining oldiga o'zi chiqqanini bilmay qoldi.

— Ayt, nima tilar ekan?

Elchi podshohning o'zi tomon kelayotganini ko'rib, otidan tushib, unga qarab yugurdi.

— Ulug' podshohim! Kir sizning o'zingizni tilayapti! Tirik o'zingizni!

To'maris o'ylanib qoldi. Kir uning eng ojiz tarafini tanlab-bilib, shu joyini ushlagan edi. Ha, hozir To'marisning joni o'zida emas, Kirning qo'lida. Biroq podsholigi o'zida-ku!

— Kirning shunday deyishi ma'lum edi, — shivirladi u o'ziga o'zi. — O'g'lim uchun uning bu shartiga ko'naman ham. Biroq mening taslim bo'lishim massagetlar uchun halokat degani-ku! O'g'lim mening o'rnimga podshoh bo'lib qolsa, men Kirning ol-

diga bosh egib borishga roziman... Faqat xalqimga tegmasa bas ul mal'un, men hamma narsaga roziman!

— Elchi, yana Kir oldiga borasan — men uning aytganlariga roziman. Biroq kelishilgan shartimiz qat'iy bo'lsin: massagetlar taxtiga o'g'limning o'tirishi uchun imkoniyat yaratsin. Bolam taxtga chiqqanidan so'ng, men o'zimni Kirga bag'ishlayman. U meni olsin, biroq massagetlarga tegmasdan, meni olib yurtiga ketadi!..

To'marisning hech kim o'ylashmasdan bunday qarorga kelishi lashkarboshilarning g'azabini qo'zg'adi.

— Ulug' darajali podshohim! — dedi keksayib qolgan Aksiart. — Kirning sizni xotinlikka olishi — massagetlarning nomusini toptaganidir. Siz axir massagetlarning toj-u taxti, or-nomusining ramzisiz. Kir sizni olib, bizlarga tegmay ketgandayam, biz massagetlar bu isnoddan bosh ko'tarib yurolmay qolamiz. Bu degani — baribir Kirning yengib chiqqani.

— Men bolamni Kirning changalidan qutqarib olsam bas, o'sha kuniyoq Kir bilan yakkama-yakka jang qilishga kirishaman! Mening o'limim men uchun bolamning o'limidan ko'ra yengilroq bo'ladi. Agar bolam nobud bo'lsa, unda men qora yerni bosib yura olmasman. Sparangis tirik ekan, massagetlarni Kirning quli qilib qo'ymaydi.

Bu podshohning so'nggi so'zlari edi. Aksiart gapni cho'zmadi.

Elchi yana yo'lga chiqdi.

Kir lashkarlarining turgan qarorgohi bu yerdan uzoq emasdi. Elchi ham uzoq kuttirmadi. Kir, "To'maris xotinlikka rozi bo'lsa, men uning shartlarini qabul qilaman", debdi.

21

To'maris g'azablangan arslonday gungranib, xona ichiga sig'mas o'tiribdi. Elchining olib kelgan javobi uni obdan behalovat qilib qo'ydi. Yana o'lim uning ko'zi oldiga yaqin keldi. Podshoh bo'lgandan buyon necha marotaba o'lim bilan yuzma-yuz keldi, ammo hech qachon bugungiday o'zini ojiz sezmagan edi. Bu gal o'lim xavfi shoshilinch keldi. To'g'ri, avvallari ham o'lim unga muntazam, doimiy ravishda xavf solib yurar, podshoh bo'lganidan

keyin, bu xavf ostida yashashga ham, undan qutulib ketishga ham o'rganib qolgan edi. Bu galgi xavf — o'ziga emas, o'g'liga tahdid solayapti, uning xavotiri ana shundan. Tezroq jigarbandini bu xavfdan ozod qilgisi, Kir bilan yuzma-yuz uchrashgisi kelayotir. O'tayotgan har bir soniya-lahza Kir tomonga, Kirning foydasiga o'tib olayotgani, bolasi uchun har bir nafas azob-u uqubat ichida, qiyinchiliklar bilan o'tayotganini mushfiq ona sezib turibdi. Salgina vaqtni g'aflatda o'tkazib yuborsa, qaysidir bir qadamni noto'g'ri bosib qo'ysa, o'g'lining boshi tanasidan judo qilinishi, o'nglab bo'lmas fojia yuz berajagini ham biladi u. Nima bo'lgandayam bolasini yovuzlar panjasidan omon-eson olib chiqishi lozim. O'zi ishonadigan odamlardan tanlab-tanlab, Sparangisni ozod qilishning salgina imkoni topiladimi degan maqsadda qancha-qancha ayg'oqchilarni ham ketma-ket yuborayapti. Sparangis tutqun bo'lib yotgan chodirning atrofiga Kir qator-qator soqchi qo'yib, har bir qarich yerni qoravullatib qo'yganini ham To'maris eshitib o'tiribdi. Hozir To'maris hech narsani o'ylayotgani yo'q — bolasini o'sha xavfli to'rdan olib chiqishi kerak, tamom!

To'marisning ham, Kirning ham askarlari bugun dam olishda. Hamma muzokaralar qanday yakunlanishini kutmoqda. To'marisning ko'zlari to'rt bo'lib elchini kutadi — nima xabar olib kelar ekan-a? Elchi bu gal Sparangisning omon qolishini, qachon ozod qilib, qo'yib yuborilishini so'rash uchun ketgan.

Elchi ko'p hayallamasdan yetib keldi.

— Qachon qo'yvorishar ekan? — deb so'radi To'maris toqati toq bo'lib.

— Bugun, hozir. Biroq oldin siz Kirning chodiriga kelin bo'lib kirishingiz kerak ekan.

"Elchiga o'lim yo'q", deyishadi. Agar bu gapni boshqa bir odam aytganida To'maris uning tilini sug'urib olgan bo'lar edi.

U elchining yuziga hurpayib qaradi.

— Hiylakor tulki! O'ngmag'ur ahmoq! Meni chodirida kutayotgan ekanmi? Bor, borib ayt, meni yurtiga olib borib o'ng tomoniga o'tirg'izib qo'yib to'y bersin. Undan keyin chodiriga kiritadi. Birinchi shart shuki — bolamni qo'yib yuborsin! Er-xotinlik haqida keyin o'ylashib ko'ramiz.

Kirning shumligini To'maris tushunib yetdi. Ikkala podshoh ham makrda bir-birlaridan qolishmas ekan. Attang, ustunlik hozir Kir tomonda turibdi...

Elchi yana dushman qarorgohi tomon jo'nadi.

To'maris nima qilishini bilmasdan boshi qotib turganda, xodimlardan biri xat ko'tarib kirdi.

— Hozirgina olib kelishdi, Sparangisdan emish...

To'maris shosha-pisha xatni ochib, yutoqib o'qiy boshladi.

"Onajonim, mening uchun Kirga boshingizni bermoqchi bo'libsiz. Massagetlar bor ekan, menga o'xshagan farzandlar tug'ilaveradi, dushmanga oyoqosti bo'lgan xalqning or-nomusini esa hech kim tiklay olmaydi. Bitta meni deb butun xalqning ishonch-umidini yerga otmoqchimisiz? Bunday qilmang! Xalq bor ekan, o'lgan farzandlar o'rniga yana farzandlar tug'iladi! Ol, xalq nomusdan o'lsa, uni kim tiriltiradi? Podshohi dushmanga bosh eggan xalqni kim himoya qiladi? Meni farzandim desangiz, uyatga qoladigan ishni qilmang! Ozgina chidang, massaget yigitlari meni qutqarib olishadi. Kirning oldida sizning bosh egib yurganingizdan ko'ra, mening o'lib ketishim afzalroq. Otamning nomus-orini, taxtini, to'shagini bulg'ashlariga yo'l qo'yib bermang. Ulug' kun Tangrimizning hurmati, ulug' Axuramazda hurmatiga, ulug' onamiz Anaxita hurmatiga yalinib-yolvoraman: siz o'zingizni saqlang! Ozgina chidab turing, men albatta kelaman. Faqat Kirga bosh egaman deb shoshilmang, unda meni o'ldirgan bo'lasiz. Sizni asira holda ko'rish — men uchun, massagetlar uchun ham o'limdan battardir".

To'maris bolasining xatini o'qib, qovurg'alari so'tilib, bag'ri irib-chirib ketganday sezdi o'zini. Yonidagi maslahatchilarining barchasini sirtga chiqarib yuborib, o'g'lining xatini yana bir marta o'qib chiqdi va o'krab yig'lab yubordi.

"Qulunim-a, tirikmikansan? Kirning xotini bo'lishga men hech qachon rozilik bermasligimni nahotki bilmasang?! Sen o'lsang — mening o'lganim, sendan keyin men baribir yashay olmayman. Qanaqa yo'lni topib bo'lsayam, men seni dushman changalidan qutqarishim kerak. Mening massagetlar nomusiga dog' tushirmasligimni sen bilishing kerak edi-ku. Bugun — mana, ikki kundirki, men

savashga chiqolmay o'tiribman. Savash boshlay desam, Kir senga biror zahmat yetkazadimi, deb qo'rqaman. Men to hayot ekanman, dushman oldida xalqimning boshini egdirib qo'ymasman. Bolam, hozir mening qilib yurganlarim — dushman qo'lidan seni omon-eson olib chiqish uchun qilayotgan hiylalarim-ku, axir..."

To'maris o'rnidan og'ir turdi, tentiraklab ketdi. Bolasini qayg'uraverib-qayg'uraverib, qaddi ham ikki qarich pasayib ketganday tuyuldi o'ziga. O'ttizning o'rtasidan endi o'tgan bo'lsa-da, oltmishdan oshgan kampirday beli ikki bukilib, yarador arslonday qaltirab, bo'taday bo'zladi. "Kimdan aql so'rasam bo'ladi? Kim mening bolajonimni olib kelib beradi? Kim mening yaralarimga malham surib, alamzada yuragimni davolay oladi, kim?.." To'marisning boshiga yolg'izlik tushgan edi. Ulug' podshoh o'zining yolg'iz ekanligini hozirgina bildi. Agar bolasining otasi tirik bo'lganida edi, yolg'izlik kelib, uning yoqasidan ushlolmasdi. Hozir esa yolg'izlik uning yoqasidan tutib, o'ldirib tashlashga hozirlanayotganday tuyuldi. Mana, bechora podshoh, kim bilan dardlasharini bilmay, boshini qaysi toshga urishning yo'lini topolmay o'tiribdi. Atrofidagi odamlarning barchasi uning ko'zlariga sotqin bo'lib ko'rinmoqda. O'g'lini aldab olib borib, yov tashlab qochgan dasturxondagi sharob-sharbatni ichishga undagan odamning kimligini bir bilsa edi?! Attang, o'sha sotqin hozir To'marisning qo'lida emas!

— Jallod! — hayqirib yubordi To'maris.

Jallod kelgani bilan, hozir kimniyam jazolaydi — buni u bilmaydi. Kirning xalq ichida yurgan ayg'oqchi — jonsizlari haqida To'maris ham eshitgan edi. Aytishlaricha, Kir qaysi mamlakatni bosib olmoqchi bo'lsa, avvalo o'zining ayg'oqchilarini yuborar emish, ular har xil yolg'on so'zlar bilan xalqning ko'nglida, g'ulg'ula vahima uyg'otar emish. Mamlakatning aholisi dushmanning yolg'on-yashiq so'zlariga uchib, o'z podshohining gapiga qarshi chiqqanini bilmay qolar, shundan xalq orasida parokandalik ro'y berar emish. Ana undan keyin Kir lashkari bilan kelib, bu mamlakatni osongina zabt etib olar emish. Kir maslahatchilari bilan kengashib, odamlarni aldashning ana shunday ming-da bir usulini o'ylab topgan, deyishadi. Kirning yolg'on so'zlari, va'da-

lariga ayniqsa boshqa o'lkalardan asir-tutqun bo'lib kelib qolgan qullar tez aldanib tushar emish.

To'maris esa o'z xalqining yolg'on va'dalarga uchmasligini, dushmanga sotilmasligini yaxshi biladi. Kirning qo'liga birinchi bo'lib o'zining o'g'li tushib qolishini kim ham o'ylabdi?!

Endi Kirning qo'lga tushgan askarlarini xalqning ko'zi oldida jazolashdan boshqa iloj qolmadi!

— Xalqni Araks[1] daryosi bo'yiga to'plang! Sotqinlarni jazolashga tayyorlang! Dushmanlarni qanday jazolashimizni xalq ko'rsin! — dedi buyruq kutib turgan xodimlariga.

22

Podshoh buyrug'i hamma qabilalarga yetkazildi. Daryo sohiliga odamlar yig'ila boshladi. Oq soqolli mo'ysafidlar ham, o'rta yasharlar ham, kichkina bolalar ham bor edi.

Kun uyasiga botib, atrofni qorong'ilik bosa boshlagan payt. Quyosh shu'lalari o'choqdagi qo'zday[2] qizarib, kunbotar tomon qizil nurga belanib, yer yuziga qip-qizil shu'lalar qonday sachray boshlagan. Xalq quyosh botgan tomonga qarab, ikki bukilib, sig'inib, tilovat qila boshladi: "Qudrati kuchli Kun tangrim! Ertangi kunda ham bizni xuddi bugungi kun kabi omon saqlagin. Ertaga nurlaringni bugungidan ham mo'lroq qilib to'k. Bizlar — sening farzandlaringmiz. Sensiz bizning hayotimiz ne kechardi? Bizlardan yuzingni o'girma, bizdan olisga ketib qolma. O'zing bizni yaratding, o'zing bizni yorlaqa. Biz sensiz qop-qorong'i zulmatning xo'jayini Axramanga qul bo'lib qolamiz. Bizlarni Axramanning qop-qorong'i tunak quchog'idan o'zing qutqar!!!"

To'plangan xalq shahzoda Sparangisning dushman qo'liga asir tushganini allaqachon eshitgan, shunga ko'ra minglarcha odamlar valiahd shahzodaning omon-eson qaytib kelishini ham tilab duo qilmoqda edi. Podshoh To'maris esa kimga suyanishini, kimdan madad kutishini bilmay, yarador arslon yanglig' ingranardi.

[1] **Araks** — Amudaryo.

[2] **Qo'z** — qo'r, o'tinning g'ij-g'ij olov bo'lib turgan joyi.

— Kun tangrimizning bolalari bo'lgan aziz massagetlar! — dedi bir payt To'maris. — Kun tangrimizning amri ila biz yerga tushib, Oksiart bilan Oksning, Yaksart bilan Yaksning bo'yida istiqomat qila boshlaganimizdan buyon, dushman ming marotaba ot o'ynatib kelgani bilan, hali bizlarni yengadigan kuch bo'lgan emas. Biz har gal dushman kelganida, to so'nggi tomchi qonimiz qolgunicha urushib, yovni tirqiratib haydaganmiz. Sababi, bizning Vatanimizning tuprog'i — muqaddas tuproq, bu tuproqda Kun tangrining muqaddas farzandlari yashaydi. Shu paytgacha birontayam yov galasi ikki muqaddas daryomizning suvini ham, bu Vatanning tuprog'ini ham toptashiga yo'l qo'ymay keldik. Shuning uchun ham sak-massaget qabilalarining qahramonligi, botirligi hammani hayron qoldirib keladi. Parfiyaliklar, baqtriyaliklar, midiyaliklar, assiriyaliklar, sug'dlar, daxlar, livilar, iudlar, xettlar, elamlar — barcha-barcha xalqlar, Parvardigor tomonidan shu zaminga yashash uchun yuborilgan odamlarning hammasi, hali hanuzgacha bizning jangchilarimizning mahoratiga, botirligiga, jasoratiga hayron qolib kelmoqdalar. Mag'lubiyat nimaligini bilmaydigan xalq yerning yuzida bizdan boshqa yo'q! Chunki, Vatanni qo'riqlashda erkaklar bilan ayollar ham, yoshlar bilan mo'ysafidlar ham tengday qatnashadilar. Biz qonimizni shu tuproqqa to'kamiz, dushman qonini ham shu tuproqda ichamiz. Biz boylik izlab, oltin izlab, boshqa xalqlarni qul qilib olish uchun g'ayri yurtlarga bosib bormaymiz. Bizga o'z yurtimizning oltini ham yetadi. Biroq dushmanlarga ona zaminimizning oltin tuprog'ini toptatib qo'ymaymiz. Men taxtga o'tirayotgan paytimda Kun tangrimga shunday deb va'da berganman. Shuning uchun ham sizlar meni "oltin To'maris, arslon To'maris" deb ardoqlashingizni ham bilaman. Bugun mening o'g'lim dushman qo'liga tushdi. Dushman uni jang maydonida emas, ol hiylakorlik ishlatib, nomardlik qilib qo'lga tushirdi. Agar Kir mard bo'lsa edi, mening bilan jang maydonida yakkama-yakka jangga chiqishi kerak edi. Bu — Kirning ikkinchi nomardligi. Birinchi nomardligi shuki — u Oksdan o'tib bo'lgunicha biz mardlik qilib, uning askarlariga tegmadik, Kir bizning urush odatlarimizni tushunmaganga oldi. Massagetlarning qonidan to'ragan farzandlarimiz dushman qo'lida tutqin bo'lib qolmasligi kerak. Endi biz

savashga chiqishimiz kerak. Biroq savashga chiqqudek bo'lsak, Kirning qo'lidagi tutqun bo'lib turgan farzandlarimizga ziyon yetishi mumkin. Savashga chiqishimizdan oldin, men sizlarni onamiz — Kun tangri sharafiga qurbonliklar qilaylik, deb chaqirdim. Kir asir tushgan farzandlarimizni omon qoldirishi uchun evaziga mening boshimni so'rab, odam yuboribdi. Men farzandlarimiz uchun boshimni qurbon qilmoqchiman. Ha, men boshimni berishga rozi bo'ldim, ammo uning chodiriga xotin bo'lib kirib, unga tanamni bag'ishlamayman. Mening boshimni tanamdan judo qilib, unga eltasizlar, faqat shuni talab qilinglarki, mening boshim evaziga asir tushgan farzandlarimizning bir tola sochini ham to'kmasdan, sog'-salomat qaytarishi shart!

To'marisning mardona-mag'rur so'zlari chor-atrofda aks sado bo'lib taraldi.

Ko'pning ichidan soqoli ko'kragiga tushgan, yoshi saksonlardan oshgan qari chol chiqib, podshoh oldida yukundi.

— Kun tangrimning oltin qizi To'maris! Hamma gaplardan bizning xabarimiz bor. Ikki kundan beri savashga chiqa olmay, xayol girdobiga cho'mib o'tirganingni ham bilamiz. Qo'lingga qilich ololmay qolganing ham bizlarga ma'lum. Kir bilan olib borilayotgan muzokara — so'ylashiklaringning ma'nisi ham bizlarga ma'lum. Biz sening mardliklaringdan rozimiz. Biroq, qizim, buguncha ham savash boshlamay tur. Shahzoda Sparangis — bizlar ishonadigan massagetlar podshohining yolg'iz zurriyodi. Dushman bizning eng zaif joyimizdan ushlab turibdi. Sparangis o'lsa, biz kelajaksiz qolamiz. Shuning uchun Kir bilan tinchlik yo'lida, joy-farog'atlikda yana bir marta so'ylashib ko'rishga harakat qilaylik.

— Buni tinchlik yo'li bilan, joy-farog'atlikda hal qilish ilojini topa olmayapman, ota. Xalqim, ayting, qay tomonga qarab yurayin? Ular, "o'zingni bandi qilib bersang, bolangni omon qoldiramiz", deb shart qo'yganlar. Unday qilsam, massagetlarning nomusini manguga yer bilan yakson qilib, mulzam qilib qo'yamanku. Qandoq qilib xalqimning or-nomusini oyoqosti qilib qo'yayin? Bu sharoitda Sparangisni omon saqlab qolishning ham iloji yo'q. Mana shularning hammasiga javob topib berolmayapman.

U bugun o'zining qalbida kechayotgan onalik tuyg'ularining to'lg'onishlarini bosib tashlab, dushmanga bo'lgan nafratidan g'ayratlanib, yo'lbars shiddati ila yovga qarab chopishga shaylangan edi. U bugun yov tomonidan qo'lga tushgan asirlarni Kun tangri sharafiga qurbon qilib, qilichdan o'tkazib, kallalarini sadoqqa ilib, dushmanga sovg'a qilib yuborishga shaylangan edi. U bugun o'zining boshini ham dushmanlarga sovg'a qilib yuborishga rozi edi. Uni yana ra'ydan qaytarishdi. Kir bilan yana bir marta muzokaralar yuritishga urinib ko'rish niyatiga umid bog'lashni tavsiya etdilar. Bechora ona! Nomard Kirning hiylasi ish berib, yolg'iz farzandi, ko'zining oq-u qorasi, belining madori dushman qo'lida turibdi. U umid ko'zini yo'llarga tikib, yaxshilik xabarlarini kutayotir. Go'yo yaxshilik xabari mana hozir kelib qoladiganday, bolasi dushman changalidan omon-eson chiqib keladiganday, mana hozir quchog'iga otiladiganday edi...

23

Ona bechoraning ko'z oldidan bolasining kelbati ketmaydi. Bugun uning kiprik qoqmasdan tong otqizib o'tirganiga bir hafta bo'layapti. Bir haftadan beri urush to'xtab turibdi. To'maris yuragi g'alayonda. Oxiri savashni boshlashga ahd qildi. "Nomard Kir! Mening eng nozik, eng ojiz joyimdan ushlading-u, endi na savash maydoniga chiqasan, na men bilan yakkama-yakka jangga chiqasan".

U so'nggi, hal qiluvchi qarorini xalqqa e'lon qildi:

— Qudratli Kun tangridan unib-o'sgan xalqim! Mening eng so'nggi qarorim mana bunday; bu to'g'rimi yoki yo'qmi — o'zlaring baho berarsiz. Men Kir bilan yakkama-yakka jangga chiqmoqchiman. Bu jangda Kir meni yengsa, unda sizlar bilan qayta ko'risholmaymiz. Mendan rozi bo'linglar. Arvona[1]day bo'zlagan mehrli massagetlar, men ham sizlardan roziman. Men barcha kuchimni sizlar uchun sarflab yashadim. Hech bir dushman oldida sizlarning boshingiz egilmasin dedim, yovlarga talattirmadim, birov mushugingizga pisht deyolmadi, birov yaylovingizga bosib kelib, molini yoya olmadi...

[1] **Arvona** — ona tuya.

To‘marisning gaplarini hamma jim turib tingladi. Hammaning yurak-bag‘ri erib, ko‘zlariga yosh keldi. Bironta odam podshohning qalbiga tasalli bo‘ladigan so‘z topa olmadi.

To‘maris ertaga Kir bilan yakkama-yakka jangga chiqishini bildirib elchi yubordi: agar Kir shu jangda To‘marisni yenga olsa — Sparangisni taxtga o‘tirg‘izib, massagetlarni o‘ziga qaram qilib ketadi. Agar yenga olmasa — unda tuyog‘ini shiqillatsin!

Elchi To‘marisning so‘nggi qarorini olib, forslar qarorgohi tomon chivin kabi uchib ketdi.

24

Kir massagetlar podshohi To‘marisning tezroq bosh egib kelishini kutardi. Ayol podshohni juda go‘zal deyishadi. Shuning uchun ham bir ko‘rishning shaydosi bo‘lib, toqatsiz o‘tiribdi-da.

Bu xalqning dunyoga kelishining o‘zi qiziq ekan... Qani endi oltinga boy bu mamlakatni tezroq qo‘lga kiritsa-yu, ularning kelib chiqish tarixini o‘zlaridan eshitsa!

Keng dala-dashtlarning xo‘jayini hisoblanuvchi massagetlar o‘zlarini Quyosh kelgan birinchi odamlar deb bilar emish. Ularning otasi — Kun tangri, onalari — yer emish. Ularning afsonalariga qaraganda, yer yuzidagi birinchi odam — Targ‘itoy, uning bolalari Lipaksay, Arpaksay, Qalaqsay bo‘lgan. Targ‘itayning farzandlari uch nafar bo‘lganida, Kun tangri yerga osmondan oltin omoch, oltin oybolta, oltin bo‘yinturuq, oltin piyola tashlabdi. Targ‘itoyning katta ikki bolasi kelib, bularni olayin desa, oltinlar o‘sha zahoti eribdi-yu, qo‘lga ushlab bo‘lmabdi. Kichkintoy bolasi kelib, ushlayman desa, oltinlar avvalgi holiga kelib qolibdi. Katta og‘alari bularning barini xudoning buyrug‘i deb tushunib, oltin jihoz-u, asbob-uskunalarni kichik ukasiga tushgan meros deb bilibdilar. Qalaqsay oltindan ishlangan asbob-uskunalarni vaqti yetganida farzandlariga bo‘lib berib, ularga meros qilib qoldiribdi. Bir o‘g‘liga “sen dehqon bo‘l” deb — oltin omochni, yana bir o‘g‘liga “sen chorvador bo‘lasan” deb — oltin bo‘yinturuqni, uchinchi bolasiga “sen shularni qo‘riqlovchi botir bo‘lasan” deb — oltin oyboltani beribdi. O‘zi bilan qolgan kenja bolasiga oltin piyolani qoldiribdi. Yana kichkin-

toy bolasi akalarining qo'lidagi asbob-uskunalardan o'ziga kerakligicha yasab olgan ekan. Ular Orol dengizining atroflarini — qum va dashtlardan iborat oltin dalalarni o'zlariga makon qilib olishibdi. Massagetlar ana shu kichkina o'g'ildan tarqalgan emishlar. Shuning uchun massagetlar dehqonchilikda, chorvada, harbiy ishlarda ham juda mahoratli, usta bo'lar emish. Shuning uchun ularning yashashi farovon, rizq-ro'zi to'kis emish. Dehqonchilik qilaman desa — oltin dalalari, chorva boqaman desa — oltin dashtlari bor emish. Oltin — ana o'shanda, Kun tangri o'z bolalariga nasiba sochganida Qalaqsay urpoqlariga tekkan enchisi[1] emish. Massagetlar hozirgi obod-farovon hayotlarini Kun tangri nasiba qilib bergan uskuna-asboblaridan deb bilar emish. Oltin omoch, oltin oybolta, oltin bo'yinturuq bo'lmagan yerni jin-ajina makon qilib oladi, unaqa joyda ochlik-yo'qchilik hukm suradi, kasalliklar ko'payadi, deb tushunadi. Kun tangrining yerga tashlagan oltinlarining ko'pi mana shu atroflarga sochilib qolgan emish. Massagetlar mana shu oltin sochilib qolgan dala-dashtlarni, qumlarni qo'riqlayman deb jangovarlikni, harbiy ishlarni puxta o'zlashtirib olganlar. Massagetlarning harbiy ishlardagi mahoratlari ana o'sha zamonlardan qolgan. Ularning boshqa xalqlarning ustiga bostirib bormasliklari ham o'sha oltinlarning sharofatidan. Oltin asbob-uskunalar odamni to'ydiradi, ko'zini to'q qiladi, turmushini barakatli qiladi. O'zida mo'l-ko'l boylik va qanoat borligini bilgan odam boshqalarga xavf solmaydi, o'zgalarning yurtiga bostirib bormaydi, yaxshi yashayotganlarga hasad qilmaydi, dunyoning oltinini o'ziga yig'ish uchun yurtidan chiqmaydi. Axir o'zlariga yetadigan oltini bor. Kun tangrining o'zi bularga daryo-daryo suvni, balig'i mo'l dengizni, oralariga oltin sepib qo'yilgan sap-sariq qumlarni makon qilib berib qo'yibdi. Suv to'la anhorlarga boqsang ham — bu yurtning oltinlarini ko'rasan. Bu Tangrining o'z farzandlariga yuborgan nasibasi.

Kir bunaqa hayron qoladigan gaplarni ko'p odamlardan eshitgan. Daryo suvlari dengizga quyiladigan joyda necha-necha tog'lardan, necha-necha qumlardan oralab o'tib kelgan suv, o'zi bilan olib kelgan oltinlarni tashlab ketadi emish. Kirning armoni — o'sha suvga qo'shilib oqib keladigan oltinlarni o'z ko'zi bi-

[1] **Enchi** — otadan qolgan meros, mulk.

lan ko'rish, o'sha oltinlarni zarra qoldirmay terib olish, o'z yurtiga tashib ketish! Bu sehrli yurtga oyog'i yetdi, ammo oltinni egallab olgan manovi massagetlar uni bermoqchi emas.

Qanchadan qancha o'lkalarni, xalqlarni, mamlakatlarni zabt etib kelayotir, ammo massagetlarday vatanparvar, qat'iyatli, qo'rmas xalqni Kir hech qayerda ko'rmagan edi. "Oltinni parilar egallaydi, ularga parilar qorovullik qiladi, parilar egallagan oltinni odamlar ololmaydi, deyishardi. Bular — o'sha parilarmikin, magaram?! Bular parilar, Yaratganning o'zi maxsus yuborgan odamlari bo'lmasa, shuncha qaysar, qo'rqmas, o'jar bo'larmidi?!" Kirni mana shu savollar o'ylantiradi. Bo'lmasa, Kir o'zi bosib olgan xalqlar ichidagi barcha ko'zi ochiq bashoratchilarni, folbinlarni yig'ib ularning massagetlar haqidagi bilgan-eshitgan gaplarini ham to'plab, birma-bir elakdan o'tkazib chiqdi. Ular ham massagetlarning yengilmasligi sababini bilmas ekan-u, ammo hammalari bilgan-topganlarini aytib berishdi. Shunga qaraganda, massagetlarni yengib ham bo'lmas emish, qo'rqitib ham. Baribir, Kir uzoq yo'l bosib kelgandan so'ng, ikki barmog'ini burniga tiqib ortga qaytmoqchi emas. Ol, endi qaytmaganda nima qilish kerak?! Bularni hech yengib bo'lmasa?! Qayoqdan kelishini bilmay qolar emish odam. Arvohday, yerning yorig'idan chiqqanday oldingda turganini ko'rar emishsan...

Kir o'zining qo'shni mamlakatlarga hujumini boshlaganidan beri yaqin atroflarning chegaralari ham o'zgarib ketdi. Eng avvalo Midiya mamlakati uning oyog'i ostiga tushdi. Undan so'ng uch yil o'tib Lidiya quladi. Shundan keyin Bobil, Nabonid, Baltasar, o'zidan oldingilarning holini ko'rib pitillab qolishdi. Kir o'zining katta o'g'li Kambizni Bobil taxtiga o'tqazdi. Endi u massagetlarni yengsa, To'marisga uylanib, uning o'g'li Sparangisni taxtga o'tqazadi va forslarga qaram qilib qo'yadi.

Hali Kirning rejalari katta, oldinda uni Misr eli kutib turibdi. Faqat manov massagetlar bilan o'ralashib, shuncha vaqtini bekor o'tkazayotgani alam qilayotir. Bu yerda uzoq qolib ketarman deb o'ylamagan edi Kir. Hozir bir kun ham bir yilday cho'zilib ketayapti. Yunonlar massagetlarni Araksdan narida — Kaspiy bilan Skif (Orol) dengizi oraliqlarida yashaydi, deb yozgan edilar. Bularning

ko'pchiligi Oks bilan Yaksartning Skif dengiziga quyiladigan yerida ekan. Kaspiy bilan Skif dengizini tutashtiruvchi Oksning bir tarmog'iga ham bular xo'jayin. Bular — yerda ham, suvda ham yo'l topib yuraveradigan xalq ekan. Bularni savdo ishiga ham chaqqon deb aytishadi. Oksdan Skif dengiziga, undan nari Kaspiyga qarab suv orqali yuradigan savdo kemalari cho'listonlarni oralab o'tadigan savdo karvonlariga qaraganda manzilga tez borar emish. Agar Kir massagetlarni yengib, ularning oltin konlariga ega bo'lib olsa, unda Sharqdan G'arbga, G'arbdan Sharqqa yurib yurgan savdo karvonlari ham, suv kemalari ham Kirga soliq to'laydigan bo'ladi! Kir endilikda Janub bilan Shimol mamlakatlarini ham massagetlar orqali bir-biriga bog'lib, chorraha ko'llariga o'zi xo'jayin bo'lib olmoqchi-da. Ana shunda bu yo'l dunyoni egallash uchun tayanch vazifasini o'taydi.

Kir o'zini — Zevsning avlodi, Danaydan tug'ilgan Perseyning evaralaridan deb hisoblaydi. Kir o'zini ana shunday mashhur sulolaga voris deb biladi. Bu rivoyatning dunyo xalqlarini bosib olishdagi yordami qilichdan kam emas. U bosgan hududlarda, ehhe, qanchadan qancha xalqlarni ko'rdi: orakiylar, getlar, traslar — forslarga yonma-yon yashagani bilan, ularning har biri o'zining tiliga, madaniyatiga ega bo'lgan xalqlar ekan, ularning dasturlari forslarda yo'q. Getlar o'zlarini mangu xalq, o'lmaydiganlar deb hisoblaydi. Orakiylar odam o'lganda to'y qiladilar, marhumning jasadini o'rtaga olib, tevaragida qo'shiq aytadilar, hazillashadilar, shunday vaqtichog'lik ila marhumni narigi dunyoga kuzatib qo'yadilar; ol, odam tug'ilganda-chi, chaqaloqni tevaraklab, bu dunyoning tashvish-g'amlarini aytishib, uning tug'ilganini yig'i bilan nishonlaydilar. Orakiylar er odam o'lganda, uning xotinini ham qo'shib ko'madilar. Eriga qo'shilib ko'milmaslik — ayollar uchun eng og'ir jazo. Shuning uchun ham xotinlar o'zi bilan birga ko'mishni erlaridan iltimos qilib, oldindan shu mazmunda buyruq tayyorlatib qo'yadilar. Orakiylar yerga ekin ekishni past tabaqa odamlarining ishi deb biladilar. Ular harbiy-jangovar ishlarni o'zlariga obro' deb hisoblaydilar.

Xalqlar qancha ko'p bo'lsa, ularning urf-odatlari ham rang-barang bo'lar ekan. Ba'zi xalqlarda boy odam vafot qilsa, uch kunga-

cha yig'i-sig'i qilishadi-da, to'rtinchi kuni jasadni yoqib yuborishadi yoki go'shtlarini qushlar yeb ketishi uchun tepalikka chiqarib qo'yishadi. To'rtinchi kundan boshlab musobaqa e'lon qilinadi. Ko'p mol so'yiladi...

Mana, Prasad ko'lining bo'yida, Pangey tog'i yonbag'irlarida yashovchi doberlar, agrianlar, odomantlar, peonlar ham Kirning qo'l ostidagi xalqlarga aylandi. Bu xalqlarning ham har birining o'ziga xos urf-odati bor — birlari faqat baliq bilan oziqlanadi, qizlari baliq suyaklaridan taqinchoq taqib, baliq yelimi bilan yuzlarini bo'yab yuradi. Xorasmiylar, sug'dlar, paroyanlar, gandariylar, dodakiylar... Kir bularning hammasini oralab o'tib, o'ziga bo'ysundirib kelayapti. Ularning ko'pchiligining odatlariyam massagetlarga yaqin. Boshlariga kiyib olgan uchli qalpoq, dubulg'asidan ayirmasang, bir-birlaridan farqlash ancha qiyin. Lekin jangovar tayyorlikda ularning mahorati turlicha emish.

Mana endi To'marisning qo'ygan shartlari Kirning xayolida aylanib, o'z yechimini kutib turibdi. "Yakkama-yakka jangga chorlayapti meni bu ayol! Chiqaymi yo chiqmaslik kerakmi? Chiqsa-yu, yengsa — yaxshi, unda Kirning shuhrati yanada ortadi, massagetlar forslarning oyog'i ostiga o'zlari kelib yiqiladi. Mabodo, yengilib qolsa nima bo'ladi? Shuncha mamlakatlarni, shuncha xalqlarni o'ziga bo'ysundirib kelgan Kirday ulug' hukmdor bir ayol podshohdan yengilib, jazosini olibdi, degan gap butun yer yuziga tarqalmaydimi? Tarqalish ham gapmi, kitoblarga ham yozib qo'yishar hali? Shunday sharmandalik bo'yniga ilinib, tarixdayam qolsa-ya!!! Keyin bu dog'ni yuvib bo'ladimi? Kir-ku, To'marisning o'zini ko'rmagan, ammo uning erkaklardan qolishmaydigan mardligini, harbiy mahoratini, zabardast qilichbozligi, o'q otish, ot chopishdagi ustamonliklarini ko'p eshitgan. U ot ustida qirg'iyday olishib, yo'lbarsday haybat bilan raqibini ag'darib, qashqir kabi talab tashlar emish. Shuning uchun ham maslahatchilari yakkama-yakka jangga chiqmaslikka da'vat etib turibdi. Yakkama-yakka jangga chiqib, ayol kishining ostida omonlik so'rab yotgandan ko'ra, qo'shinni o'rtaga tashlab, jang maydonining o'zida taqdirni hal etish ma'qul deyishmoqda ular. Qanday jang qilish haqida reja ham tuzib qo'yishgan Kirning sarkardalari! Shulardan biri dedi:

— Ulug‘ podshoh! Piyoda jangchilarni oldga olib, ularning izidan suvoriylarni qo‘yib, manglayimizga Sparangisni tutib, jang maydonga kiramiz! Qani, ko‘raylik-chi, To‘maris yolg‘iz bolasini otishga buyruq bera olarmikan-yo‘qmi? Albatta, To‘maris shunday buyruq bergani bilan, massagetlar o‘qni chetga qaratib otaveradi, chunki ular o‘zlarining podshohi To‘marisni qanday sevsalar, valiahd shahzodaniyam shunchalar ardoqlaydilar. Qani, birontasi shahzodagi o‘q tekkizib ko‘rsin-chi! Mana bizga g‘alaba keltiruvchi omil! Qaysi tomondan o‘q ko‘p yog‘ilayotgan bo‘lsa, shu tomonga Sparangisni burib, uni pana qilib bosib boraveramiz. Avvalgi janglarda To‘maris ko‘rinmasdan yurib, askarlariga dalda berib, to‘dadan to‘daga ko‘chib-qo‘nib, o‘zini ko‘rsatmaslikning yo‘lini qilgan bo‘lsa, ana endi ko‘ramiz uning o‘g‘liga qarab talpinishini! Yaxshisi hozir elchini “biz yakkama-yakka jangga rozimiz” deb qaytarish kerak. Bo‘lmasa To‘marisni ko‘rolmaymiz, u askarlarining orasida yuraveradi...

Mana bu gaplar hammaga ma’qul tushdi. Kir To‘marisning elchisiga shu gaplarni aytib, ortiga qaytarib yubordi.

25

O‘n gulidan bir guli ochilmasdan turib, yoshlik qilib qo‘yib dushmanning qo‘liga tushib qolgan Sparangisning tutqun bo‘lib yotganiga bugun bir hafta bo‘ldi. Forslarda podshohni — Parvardigor avlodlaridan degan aqida kuchli ekan, shahzodalarga ham ular qo‘l qovushtirib, tavoze qilib turishadi, sidqidildan xizmat qilishadi. Buni ular oliynasab kishilarga hurmat deb bilishadi. Sparangis garchi dushman tomondan tutqun bo‘lib tushsa ham, u — shohlar avlodidan. Soqchilar unga hurmat-ehtirom ko‘rsatib, qo‘liga temirdan emas, zanjirlari oltindan yasalgan kishan taqib qo‘yishdi. Nomi “tutqun” bo‘lmasa, yeyish-ichishlar, hurmat-izzatlar — bari shohona. Faqat... kishanda. Sparangis onasiga ayg‘oqchilar orqali berib yuborgan maktubiga javob ololmadi, albatta. Qaniydi, bu xat volidasining qo‘liga yetib borgan bo‘lsa-yu, onasi uning aytganlarini inobatga olsa, o‘g‘lining yoshlik qilib, may-sharob ichib qilib

qo'ygan gustohliklarini kechirsa? Endi hammasi onasining qanaqa yo'l tanlashiga bog'liq bo'lib turibdi.

Bolasi uchun ona o'z jonidan kechib yuborishi so'zsiz. Buni Sparangis ham tushunadi. Shu paytgacha dushman ustiga bormayotgan yoki dushman askarlarini qo'lga tushirishga harakat qilmayotgan ekan, buning ham bir siri bo'lsa kerak. To'marisning joni massagetlarning taqdiri bilan bog'liq, jonini bersa — xalqini dushmanga bergan bo'ladi. Shuning uchun Sparangis onasiga hech qachon bolasi uchun boshini tutib bermasligini o'tinib xat yozgan edi. Mayli, ikkoviyam qurbon bo'lib ketsin, ammo massagetlarning taxtiga dushman o'tirmasligi, bu tuproqni yov oyoqlari toptamasligi kerak!

Sparangis onasining ojizlik qilib, o'z boshini qurbon qilishidan qo'rqadi.

— Onangiz mard ayol ekan. Kirni yakkama-yakka jangga chaqiryapti, — dedi soqchilardan biri. — Ertaga ikki podshoh birma-bir olishuvga chiqar emish...

Sparangis o'ylanib qoldi. U onasining kuchiga ham, jang qilish mahoratiga ham, qilichbozlik, nayzabozlik hunariga ham ishonadi, lekin ayol — nima qilsayam ayol, qizlik paytidagi g'ayrat-shijoati, bilagining kuchi, belining madori hamisha gavdada mavjud bo'lib turaveradimi? Buyam mayli-ku-ya, ammo onasi o'g'lim tirik qolsin deb, o'zini dushmanlarga tutib bersa-chi?

— Shart shunday emish: To'maris jangda yengilsa, Kirga tegadi. Sizni taxtga o'tirg'izib, o'zi Forslar yurtiga ketadi. Agar yengib chiqsa — biz ortga qaytib ketamiz.

— Buning uchun yakkama-yakka jangning hech hojati yo'q. Kirning bizlarga qo'ygan dastlabki sharti o'zi shu edi. Unday bo'ladigan bo'lsa, mana shu tun — hammasiga nuqta qo'yadigan, oxirgi kun ekan-da.

— Nega unday deysiz? Har qanday vaziyatda ham sizning podshoh bo'lib taxtga chiqish masalangiz hal bo'ladi. Yo Kirga qaram podshoh bo'lasiz, yoki mustaqil hukmdor bo'lasiz. Har qanday podshoh bo'lganingizdayam, meni yoningizda olib qolishga va'da bering.

Sparangis soqchining soddadilligidan kulib yubordi.

— Mayli, massagetlardan qiz olib ber desang, buni ham bajaraman. Forslar bilan massagetlardan tug'ilgan farzandlarni tarbiyalaymiz. Ko'raylik, qani, bunday odamlardan kelajakda nima chiqar ekan?

Uning aytganlariga soqchi tushunmadi.

— Meni shoh xazinasiga soqchi qilib qo'ysangiz bo'ldi. Massagetlarda oltinni tovuq ham cho'qimas emish. Bizda esa "massagetlardan uchib chiqqan qushni otib olib, ichini yorsang ham oltin chiqadi", degan gap bor. Forslar bo'lsa, oltin ko'rsa turolmaydilar. Sizlar oltinni farovonlikka, to'qlikka sarflaysizlar. Bizlar esa uni boylik deb saqlab qo'yamiz...

Sparangis soqchining gaplarini tinglagisi kelmadi. U og'ir o'ylar girdobida o'zi bilan o'zi olishmoqda edi.

Nega onasi yakkama-yakka jangni tanladi ekan? Nega savashni boshlamayapti? Axir massagetlar hech qachon urushda yengilmaganlar-ku. Dushmanni bir yoqli qilmaguncha, ular dam ham olmaydilar. Onasi farzand tufayligina urush ochmay turganini u tushunadi. Onasiga kuch-mador, g'ayrat, qalbiga tasalli bag'ishlayin deb, yovni yakson qilib, qirib tashlashga da'vat etayin deb xat ham yozgan edi. Xati onasiga yetib bordimikin? Yo onasi xatni olib o'qigach, fikr-xayollari battar chuvalashib qoldimikan? Patasmanning ahvoli qalay ekan? Uning ham na qutilganini, na tutilganini bilolmay hayron. Soqchilar ham bu borada miq etmaydi. Aytishmayaptimi, demak, Patasman yo sotilgan, yoki avvaldan dushman bilan aloqasi bo'lgan! Attang, nega shuni o'ylamabdi? Nega so'rab-surishtirmay, kim ekanligining tagiga yetmay u bilan do'st bo'ldi? Chodirni ko'rgandanoq, nega ichkari kirishga, maydan totib ko'rishga rozilik berdi? U yonida bo'lmaganida Sparangis forslar qoldirgan chodirga kirmas ham edi, yosh bolaga o'xshab, sharobxo'rlikka berilmas edi. Mana oqibati — go'daklarcha aldanib, asirlikda o'tiribdi. Aytganday, Patasmanning o'zi uni chodirga boshlab keldi-ku, o'zi dasturxonga, toamlarga taklif qildi, keyin sharobxo'rlik boshlanib ketdi. Shu yerdan omon-eson chiqib olsa, bas, Patasman tirik bo'lsa, o'zini topib, terisiga somon tiqadi, o'lik bo'lsa go'rini o'rtaydi. Sharobning nimaligini

ichib ko'rmagan Sparangis shuning qistovi bilan bir kosa ichdi-yu, ko'zining oldini tuman bosib, vujudini g'alati bir behollik o'rab oldi. Shundan so'ng forslarning kelib, qo'llarini orqasiga qayirib bog'layotganini biladi, boshqasi esida yo'q, qarshilik ko'rsatishga ham holi yetmay, o'zidan ketgan edi. Uning qo'lga tushishi shunday bo'ldi.

— Sizni so'rab bir yigit kelib turibdi, — dedi soqchi, Sparangisning hayrati oshdi. Dushman qarorgohiga yurak yutib,kim ham kelishi mumkin? Qanaqa qilib bu yergacha kira oldi ekan? Onasi yuborgan navbatdagi odammi? Massagetlar tomonidan Sparangisni qutqarish uchun yuborilgan odamlarning juda ko'pchiligi tutilgani, tutqin qilib ushlab turilganini u biladi. Bir nechtasining quloq-burni kesilib, qaytarib yuborilganini ham soqchilar aytishgan. Birontasi ham Sparangisning yoniga yo'lolmagan edi. Manov soqchilar ularni omon qo'yarmidi? Tavba, bunisi kim bo'ldi ekan? Tunning tinch halovatini buzib, ertaga savash degan kuni kelib turgan qanaqa dovyurak bu?

Soqchi ustiga qora kiyim yopilgan, fors satraplari kiyimidagi yoshgina yigitni ergashtirib ichkariga kirdi. Demak, mana shu kiyimda bo'lgani uchun soqchilar buni to'xtata olmagan ekan-da... Sparangis hayron boqib turganida, soqchi tashqariga chiqib ketgan zahoti, "satrap" ustidagi qora kiyimni uloqtirib tashladi — bu qaddi-qomati kelishgan qiz bola edi. Ikki ko'zi mash'aladay yonib turgan, ikki yuzi naqsh olmaday qizargan, bunday xavfli-xavotirli safarning dahshatini endi tushunganday bu yosh qiz biroz jim qolib, o'zini tutib, qaltirog'ini bosib oldi.

— Siz kimsiz?

— Meni tanimadingizmi? — dedi qiz qo'ng'iroqday ovoz bilan.

Qizning ovozi ham, ko'zlaridagi qop-qora tiniqlik ham Sparangisga tanishday tuyuldi. Qayerda ko'rgan ekan? Gapirish ohangiga qaraganda bu qiz massagetlardan emas. "Qayerda ko'rgan ekanman, tavba..."

Qiz shivirlab gapira boshladi:

— Men sizning tutqinda ekanligingizni eshitib keldim. Sizni qoravullab turgan soqchilarning hammasini sotib oldim. Forslar bir

mamlakatni bosib olganda qancha boylikka ega bo'ladigan bo'lsa, shuncha oltin berdim. Gap bunday, siz hozir qochishingiz kerak, hozirgi imkoniyat — bu eng so'nggisi, hozir chiqib qochsangiz, manovi kiyimda sizga hech kim "hoy" deya olmaydi. Ertaga qoladigan bo'lsa... Ertaga sizni o'lim kutib turibdi. Kir ertaga onangiz bilan yakkama-yakka jangga chiqmaydi. U g'oyat makkor odam. U onangizni aldab, sizni oldinga qo'yib, maydonga chiqmoqchi. Agar onangiz taslim bo'lmasa, Kir o'sha yerning o'zida sizni qilich bilan chopib tashlaydi. Endi qoching. Boshqa yo'l yo'q. Otam shunday dedi...

— Otangiz?.. Men sizni tanimadim...

— Baqtriya podshohining qizi Ozadaman-ku! Esingizga tushdimi? Unutib yubordingizmi? Oks bo'yida uchrashgan edik. Siz kiyik ovlab yurgan edingiz. Biz Oks bo'yida sayr qilib yurgan edik... Ha, mayli, otamning aytishicha, kecha u Kir bilan uchrashgan, harbiy maslahatda ishtirok qilgan ekan. Vaqtni o'tkazmang, hozir qochishning qulay payti...

Sparangisning endi esiga tushdi. O'tgan yilgi kiyik ovida shohona naqshinkor aravaga duch kelib qolgan edi. Sparangisning yonidagi yigitlar aravaga yaqinlashmoqchi bo'lgan, ammo baqtriyalik soqchilar ularning yaqinlashishiga yo'l qo'ymagan edi. Sparangis esa bu tomoshani uzoqroqdan tomosha qilib turgan, u paytlar yigitchilikning qiziquvchan ehtiroslari hali uyg'onmagan, aravadagi qizlarni ko'ra qolay degan ishtiyoqi yo'q edi. So'ng naqshinkor aravaning yonidan ot yo'rttirib o'tib borayotib, yuziga harir niqob tutib olgan mana shu qizga ko'zi tushgan, ular hatto tanishishga ham, gaplashishga ham ulgurmagan edi. Shunday bir malika qiz o'zining boshini o'limga solib, soqchilarni oltinga sotib olib, shu yergacha kirib kelishini... kim o'ylabdi?

Sparangis qizga qay tariqa minnatdorlik bildirishni ham bilmay, hayratda qotib turardi.

— Manov qurol ham sizga, kerak bo'lib qolar, manovi kiyimni yopinib oling. Tashqarida arg'umoq ot kutib turibdi. Sizga soqchilar yo'l ko'rsatib yuborishadi. Siz meni keyin izlab toparsiz. Hali uchrashamiz. Shundan boshqa gap aytolmayman, vaqt ziq, — dedi-da qiz o'qday otilib chiqib ketdi.

Sparangis ham bir qarorga kelolmay, qiz tashlab ketgan qilich-qalqon, kiyimlarni ushlab qotib o'tirardi. Tushimi bu, o'ngimi?! Osmondan tushganday, bu nima xabar? Bugun qochib, forslar qo'lidan omon chiqib ketolsa, ertaga onasi emas, Kirga qarshi o'zi jangga chiqadi! Mana bunisi asl qaror! Endi tezroq qochish kerak!

Kutilmaganda soqchi hovliqib kelib qoldi. U gapirolmay hadeb hansirardi.

— Nima gap? Gapirsang-chi!

— Yomon xabar... shahzoda, yomon xabar... — Soqchi so'zini aytolmay, Sparangisning oldiga kelib, ikki bukildi.

— Gapir! — Sparangis uni o'ziga qaratdi. — Bo'lmasa, hozir so'yib tashlayman! Gapir!

— Onangiz... taslim bo'lish uchun oq bayroq ko'tarib kelayotgan emish!

— Bu mumkin emas!

U soqchini tepib yubordi. Soqchi o'zini qutqarish uchun chiqib qochdi. Sparangis boya qiz tashlab ketgan qilichni izlab paypaslana boshladi.Onasi uni qutqarish uchun o'zini tutqin qilib bermoqchi, taslim bo'lmoqchi! Bu mumkin emas, mumkin emas axir! Uni to'xtatish kerak, lekin, qanday qilib? Kir makkor odam, baribir Sparangisni onasiga tiriklay bermaydi, aksincha uni ham aldab qo'lga tushiradi! Bunday sharmandalikka duch bo'lgandan ko'ra, o'lim yaxshiroq! Balki Sparangisning o'limi haqidagi xabar onasini asirlikdan qutqarar?

Sparangis qilichni ko'kragiga to'g'riladi. O'zining o'limi onasini to'xtatib qolishga, massagetlarning forslarga qarshi jangni boshlab yuborishlariga sabab bo'lishiga u ishonardi.

Chap ko'krakdan kirib borgan qilich o'zining ishini qildi: yerga chakillab qon toma boshladi...

26

To'maris kiprik qoqmasdan tongni kutib o'tiribdi. Shu o'tirishida kuydirilmagan o'ng tomon ko'kragining iyib borayotganini sezdi. Uzoqlardan bolasining "oh!" degan tovushi kelganday bo'ldi.

U o‘rnidan turib, telba bo‘lib qolganday u yoq-bu yoqqa borib kela boshladi. Qaytib o‘tirmasdan tik oyoqda tongni ottirdi.

Va’dalashilgan vaqt kelgan edi. Oldinda yuradigan jangchilarining to‘p-to‘p, guruh-guruh bo‘lib jang maydoni tomon ketishini kuzatdi. Avval qilich-qalqonli askarlar, ulardan keyin oybolta va gurzi tutganlar, ulardan keyin tuyada, yelmoyada jang qiladiganlar o‘rin olgan edi.

To‘maris hammadan oldinga o‘tib, Kir askarlari bilan uchrashadigan maydonga yetib keldi. U Kirning kelishilgan va’daga ham vafo qilmasligi, yakkama-yakka jangga ham chiqmasligi, Sparangisni oldinga chiqarib, o‘zi uni pana qilganicha jangga kirish niyati borligi haqida ham eshitgan edi. Albatta, dushmandan har qanday makrni kutish mumkin. Ammo u bolasining tirikligidan hamon umid qilib, minglab jangchilar orasidan uni izlaydi, ko‘zlari jovdiraydi, hech topolmaydi. Kirning bugungi jangga o‘g‘lini olib kelmasligini ham biladi. “Qayerdasan, o‘g‘lim?!” deb jangchilarni birma-bir nazardan o‘tkazadi, ammo o‘g‘li yo‘q, topolmaydi. Ko‘zining qorachig‘i, belining quvvati, jigarbandi bo‘lgan bolasi yo‘q edi, hech qayerda yo‘q edi, ko‘rinmasdi. Uning yuragi orziqib, to‘lg‘onib, jon-u jahonini zulmat bosib ketayapti, ammo...

Bolasi yo‘qmi — demak, buyog‘i tushunarli, ahvol ayon. Endi makkor va lo‘ttiboz Kirdan kelishuv bo‘yicha ish tutishini kutish behuda. Urushni boshlash zarur. To‘marisning imosi bilan massaget jangchilari savash maydoniga kirdilar. Bir lahzada yer ustidagi chang osmonga o‘rladi. Ikkala tomon ham bir-birlaridan qolishmasdan jangga kirishib ketdi...

Kirning yaxshi qurollangan ikki yuz ming jangchisi Qizilqum bag‘ridan vatan tutib, tinch-omon yashayotgan massagetlar ustiga quzg‘unday yopirildi. Ulardan o‘n barobar oz bo‘lsa ham, vatan uchun, tug‘ilib o‘sgan ona yurt uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lgan mard massaget jangchilari shu paytgacha misli ko‘rilmagan kuch-qudrat bilan bosib kelayotgan dushman askarlarining oldiga ko‘ndalang chiqdilar. Dastlab ikkala tomonning yoyandozlari, o‘z mahoratlarini ko‘z-ko‘zlayotgan kabi, bir-birlariga qarab tinmay o‘q otishdilar. Ikkala tomonning ham o‘qlari tugab bitdi. Endi piyoda askarlar bir-biri bilan to‘qnashdi. Qilichlar, shamshirlar,

nayzalar ishga tushdi, keng dalani sharaq-shuruq to'qnashayotgan temir ovozlari, ulardan otilib chiqayotgan olov uchqunlari qoplab oldi. Gurros solib intilayotgan, jon-jahdi ila kishnayotgan otlarning ovozi yettinchi falakkacha yetib bordi. Gursullab qulayotgan tulporlarning jonholatda kishnab yuborgan ovozi goh jangchilarning sasini bosib ketar, goh massagetlarning "ur-ho, ur!" ovozi dushman yuragini yorib havoga taralardi. Otlarga qo'sha, yelmoya ustida jang qilishning ham hadisini olgan massagetlar forslarni qashqirday talamoqda edi. Boshini olib, qay tomonga qochsa joni omon qolishini bilmay qolgan dushman askarlari hurkovuch qo'ylar kabi o'zini har tomonga urib ko'rar, ammo endi sog' qolishning iloji yo'q edi. Quyosh tik kelgunga qadar ikkala tomon ham olisha-olisha, kuchlar teng kelib, bir-birlarini yengolmayotgani sezilib turgan edi. Quyosh qoq osmonga chiqib olgan paytida massagetlarning "yo Kun tangrim, o'zing madad ber!" deb solgan ayyuhannos sadolarining bosimi kuchli keldimi, tuya va ot mingan askarlarning soni ko'proq ekanligi bilinib qoldi. Massagetlarning ham ot ustida, ham tuya ustida turib, ham piyoda yugurib borib jang qilishlari, ayniqsa nayza-qilichni o'ynatib savash qurishlarini ko'rib, yov qo'shinlari tiraqaylab qocha boshladi.

Massagetlarning ot ustida xuddi yerda turganday mahorat bilan jang qilishlarini hamma eshitgan edi, shu gap rost bo'lib chiqdi. Ularning bu hunarlarini o'rganib-o'zlashtirib olish uchun necha mamlakatlarning podshohlari o'z ayg'oqchilarini yuborgan — o'rganolmagan, necha mamlakatlar massagetlardan asir olib ketib qilichbozlik, nayzabozlik, yoy otish sirlarini bilib olmoqchi bo'lganlar — bilolmagan, sababi, massaaget yigitlari begona mamlakat askarlariga o'z hunarlarining sirini fosh qilishdan ko'ra o'limni afzal bilganlar. Shu sababli ularning bu jang qilish san'ati boshqalarga ma'lum bo'lmay qolavergan. Dushman bilan jang payti yakkama-yakka olishishga to'g'ri kelib qolganda ham baribir massaget jangchisi yengib chiqaveradi — buni qo'liga qurol tutgan har bir jangchi yaxshi biladi. Nima degandayam, ko'pning oti ko'p emasmi, boya otliq askarlar jangga chiqquniga qadar yer yuzini forslar qoplab olganday ko'rinib turgan edi, endi esa son-sanoqsiz ko'ringan dushmanning orasida massaget yigitlarining gavdasi

chinorday dinkayib, bo'y ko'rsata boshladi. Yer yuzi esa endi ayqashib-uyqashib yotgan dushman murdalariga to'lib ketdi.

Savash qizigandan qizib borardi.

Massagetlar ot ustida urisha-urisha, dushman saflarini ancha siyraklatib olganlaridan so'ng, endi o'zlari jang oxirlab qolganlarida ishlatiladigan so'nggi usulni qo'llashga kirishdilar. So'nggi usul — hal qiluvchi jang san'atining mohiyati bunday edi: massagetlar jonini o'limdan qutqargan kishi bo'lib, jang maydonini "tashlab qocha" boshlaydilar. Ularni qochdi deb o'ylagan dushman o'n nafar massagetning izidan yuz nafar bo'lib quvadi. Natijada dushmanning jangga kirmay turgan qo'shinining safi ham siyraklashib qoladi-yu, kuchi bo'linib-bo'linib ketadi. Ana endi ko'ring, "jo'rttaga qochishning" sirini: jang maydonidan dushmanning katta bir bo'lagini ajratib olib qizil-qiya qum tomonga olib chiqqan bir massagetning o'zi o'nlab dushman askarini tutday to'kadi, xohlasa qilich bilan to'g'raydi, xohlasa nayza sanchib turtkilaydi, xohlasa dubulg'a bilan zarba berib sulaytiradi. "Jang ichidagi jang", deb ataladigan bu savash usuli ishlatilganda, qum orasidan omon chiqqan dushman qolmaydi.

Bu gal ham shunday bo'ldi. Ko'z uchida yolg'ondakam "qocha" boshlagan massagetlarni forslar guruh-guruh bo'lib quvib, qum ichiga singib kira boshladi — qum ichiga kirib ketgan dushman askariga atrofdagi qizil qumlar ham quchog'ini ochib, ularni yamlab yutganday yuta boshladi. Raqibini quvib qumga kirgan dushman askari oqib borayotgan olomon qatori qumga singib kirardi-yu, qaytib chiqmasdi. Ularning qum bahrida topgan o'limini yurtiga borib aytadigan forsning o'zi qolmadi. Og'ir jang yakuniga yetay deb qolgan bir paytda:

— Kir qochdi! — degan gulduros yangradi. Buni eshitgan To'maris o'nlagan otliq suvoriylar orasida chivinday uchib borayotgan Kirning izidan ot soldi.

— Kirga tegmanglar, uni menga topshiring, o'zim hisob-kitob qilaman! — dedi To'maris yonidagi askarlariga. To'maris minib olgan tulpor yovning qochib borayotgan otini ko'rib, o'chakishgan kabi uning iziga tushib oldi. Shohni shoh quvlasa shunday bo'ladimi, To'marisning tulpori suvlig'ini tashlab yuborib, ko'pik sochib,

dushmanga qarab intilgani sayin, otgan har qadami yerga lorsillab tushar, Kir mingan otning esa qadami kesilib qolganday edi. To'marisning gijinglagan tulpori ustidagi egasining murod-maqsadini, ko'nglidagi kechinma-kayfiyatini lahzada tushunib oldi-da, qip-qizil qumliklar orasida ko'rinib-ko'rinmay yelib borayotgan Kirning izidan uchib, ha deganda yetib oldi.

— Kir, agar sen mard bo'lsang to'xta endi, to'xta! — buyrug'i yangradi To'marisning. — Baribir sen endi qutula olmaysan!

"Qochgan yov — to'kilgan sho'rva" bo'lishini tushunib yetdimi, noiloj qolgan Kir otining jilovini tortdi. Uning yonidagi askarlar ham to'xtadi.

— Qo'lingizdagi yaroqlarni yerga tashlanglar! Kirdan boshqa barchaning boshini o'ziga sovg'a qilaman!

Jonlariga omonlik e'lon qilingan askarlar qo'llaridagi qilichlarini yerga uloqtirdi. Otdan tushdilar. Ungacha To'marisning jangchilari ham yetib kela boshladi.

— Kir bilan o'zim hisoblashaman! — hayqirdi To'maris. — Men senga o'xshab nomardning ishini qilmayman yoki aldab tutib, dor ostiga ham sudramayman! — To'marisning amri tosh eshitsa so'zsiz bajaradigan alfozda yangrar, eshitgan odam ichidan zil ketib ado qilishga majbur bo'lardi. — Qani, Kir, chiq savashga! Sen mening tuprog'imga yomon niyatda qadam bosding, yurtimni vayron qilding, xalqimni qul qilmoqchi bo'lding, tinch yashayotgan odamlarning halovatini buzding, muqaddas sanalgan oltin tuprog'imga o'z lashkaringni boshlab kelib, qon to'kilishiga sababchi bo'lding. Sening yovuz makkorliklaring tufayli yolg'iz jigargo'sham o'z joniga qasd qildi, uni shunday qilishga sen majbur etding. U sening nomardlarcha qilg'iliklaringga, va'dabozligingga chiday olmay o'zini o'ldirdi! Sening bu qilmishlaringni Kun tangri kechirmagay! Kun tangri farzandlari — biz ham kechirmaymiz. Sen faqat o'limga loyiqsan va bu ishni bajarish mana mening chekimga tushdi.

To'maris qahrga mindi. U hali Kir bilan yakkama-yakka jangga kirishmay turiboq, qilichini bir sermagan edi, Kirning boshi qumga dumalab ketdi. Ustidagi egasining kallasi sapchaday dumalab ketganini sezgan ot qochmadi, kallani tepib-tepib, o'qranib-kishnab

aylanaverdi. To'maris va uning askarlari dushman kallasini qilichga ilib, qo'lga tushgan askarlarni haydab, jang maydoni tomon ot surdilar. Savash bo'lgan joyda dumalab, ayqash-uyqash bo'lib yotgan massagetlar-u forslarning murdalaridan yer ko'rinmasdi. Odam qoni suvday bo'lib, yog'gan yomg'irday bo'lib turli tomonlarga taralib ketgan edi. To'maris shu paytgacha qanchadan qancha janglarda ishtirok etmasin, hali bunaqasini ko'rmagan edi.

— Massagetlar, menga xum olib keling! — dedi u. Askarlar suv quyib olib yuriladigan katta xumni keltirishdi.

— Buning ichini anovi oqib yotgan qon bilan to'ldiringlar.

Ariq bo'lib oqib yotgan odam qoni bilan xumni to'ldirdilar.

— Mana, manov — forslarning ulug' podshohi Kirning kallasi, — dedi To'maris qahr bilan qilichining uchi bilan boshni ko'tarib, atrofdagilarga ko'z-ko'zladi. — Tirikligida qancha qon to'kdi, qanchadan qancha begunoh insonlarning, go'daklarning qoniga qoldi, qarg'ishini eshitdi, ammo bu kalla hech qonga to'ymadi! Endi sening qonxo'r kallangni qonga men to'ydiraman, ey mal'un!

Shunday deb u Kirning kallasini qon to'la xumga tiqib yubordi.

— Ey Kun tangrim! Xato ish qilgan bo'lsam meni kechir! Jonini ayamay Vatan uchun kurashgan yurtdoshlarim haqi, o'n gulidan bir guli ochilmay ketgan farzandlarimning begunoh joni haqi, kechir meni! Men yozilajak tarixlarda Kirni To'maris podshoh tomonidan o'ldirildi, deb yozilmasligini, balki Kirning boshi tanasidan judo qilinib, qon to'la xumga solindi, deb yozilishini istayman! Kotiblar, donishmandlar, ko'zi ochiq bashoratchilar, el kezgan savdogar-u tujjorlar, qalandarlar-u sayyohlar, dunyoning to'rt burchagiga shu xabarni yetkazingki, bu muqaddas zaminni egallayman deb kelgan har qanday bosqinchining holi ana shunday bo'lajak! Kotiblar, qon to'la xumga tiqilgan kalla haqida albatta yozinglarki, Kun tangrining farzandlari yovuz niyat bilan kelgan dushmandan ana shunday o'ch olajak! Kelajak avlodlar Kirning qanday o'lim topganini yodda saqlasinlar. Massagetlarning avlodlari ota-bobolariga munosib bo'lib yashasinlar. Kun tangrim, men ayol bo'lib farzandlarning qoni to'kilmasligini qancha o'ylasam ham, buning uddasidan chiqa olmadim. Shu zamin uchun qurbon bo'lib ketgan zurriyodlar haqqi-hurmati, meni kechira ko'r! Massagetlar, endi o'zlaringga pod-

sho saylab olinglar. Men podsho bo'lib yurt so'rayolmas ekanman. Lekin endi ayollardan podsho saylamang, bunday qayg'uni faqat erkak odamgina ko'tara olishi mumkin ekan. Men... men adoyi tamom bo'ldim! — dedi-yu, To'maris shilq etib yiqildi.

Uni o'g'lining o'limi, Vatan uchun qurbon bo'lgan yigitlarning o'limi ado qilgan edi. Farzand qayg'usi yoshi qirqqa yetib-yetmagan ayolni gulday qiyratgan edi. Yolg'iz farzanddan judolik hissi uni hamma narsadan, hatto yashash istagidan ham mahrum qilgan edi.

Massagetlar o'zlarining ayol podshohlarini mangu xotirlab yashashga qasam ichdilar. Ular Vatan ozodligini saqlab qololgan, xalqim deb, yurtim deb jon ayamay kurashganlarni ana shunday ulug' hurmat-izzat bilan yodlab yurajaklar.

Kenges SMAMUTOV

TONGGI SHUDRING KABI TOMCHILAR

(Elegiya-hikoya)

1

Kutubxonaning keng yorma eshigidan ichkariga qarab o'tayotganda qiz bilan to'qnashib qoldi. Ikki yuzi o'tday lovullab, qip-qizil bo'lib ketdi. "Kechirasiz, singlim!" — dedi titranib. Qiz dum-dumaloq qop-qora ko'zlarining kipriklarini mastona ko'tarib, "zarari yo'q, og'a!" — dedi. Ovozi qo'ng'iroqdaygina ekan. Shunday dedi-yu, yonidan o'tdi-ketdi.

Qidir beixtiyor uning izidan qarab qoldi. Qiz allaqachon ichkariga kirib ketgan edi.

Negadir shu qizning qop-qora ko'zlari, qayqi (tikka) kipriklari, xuddi haykalning qomati kabi chiroyli ko'rinishlari qalbiga muhrlanib qolganday hech xayolidan ketmayapti endi. U burun bunaqa andishani hech boshdan kechirib ko'rmagan edi. Tang qoladigan vaziyat ro'y berdi-da o'ziyam. Yuragi ilk bor xuddi qirga chiqib qolgan baliqday bir sapchib tushdi. Ko'zga ko'rinmas bir ajoyib shu'la baxmaldayin yumshoqlik ila butun vujudini siypalab, farog'at bag'ishladi go'yo.

Yotoqxonaga keldi. Keldi-da oshxona tomon o'tdi. O'tdi-da, ovqatlanib oldi, o'zi yashaydigan xonaga kirib, karavotga chalqancha tashladi. Qo'liga Pushkinning "Yevgeniy Onegin" romanini oldi. Boya kitobxonada o'qib to'xtagan joyidan boshlab, davom ettirmoqchi bo'ldi.

Kitobni ochdi. Ochdi-yu, bilmaydi, kitobning beti shamol yelpigan tiniq suvday to'lqinlandimi, tizilib turgan harflar ustiga boyagi qizning qayqi kipriklari, qop-qora ko'zlari qalqib chiqib, aniq-tiniq ko'rina boshladi. Qidir yaxshilab ko'rib olish maqsadida jon-dili bilan kitobga tikilgan edi, qiz g'oyib bo'ldi-da, sahifa yuzasida endi harflar paydo bo'ldi.

O‘sha kechasi Qidirning kipriklari tun bo‘yi ayqashmadi. Hamma yoq jimjit. Ko‘cha tomondan tushayotgan elektr nuri bo‘lmani ola ko‘lankalatib turibdi.

Xonadoshlari pishillab uxlayotir. Shiftga unsiz tikilib, jimjit o‘tirgan — bitta o‘zi.

Azonda boshi og‘rib uyg‘ondi. Yuzlari qalam tegmagan qog‘ozday oqarib ketibdi. So‘lg‘in yuzlarida yoshiga munosib kelmaydigan salmoqligina mungning soyasi bor. Ma’ruzalarni ham diqqinafas bo‘lib tinglab o‘tirdi. Domlalar nima deyapti, nimalarni tushuntiryapti — yodida yo‘q, tushunmaydi. Kimni ko‘rsa — og‘zi qimirlayotganday, allanimarsalarni gapirayotganga o‘xshaydi-yu, ammo tushunarsiz.

Odatiga ko‘ra, bugun ham kutubxonaga bordi. Odam ko‘p edi. Tanish bir chehraning yonidan joy topib o‘tirdi. Kitoblarini ustma-ust qo‘yib, shoshilmay varaqlamoqchi bo‘ldi, sal qimirlab qaptaliga qaragan edi... negaligini bilmaydi, yuragi shuv etib ketdi. O‘zidan salgina narida kechagi qiz o‘tirgan edi! Ayb ish qilib qo‘ygan odamday darrov pastga qaradi. Tanasini qaldiroq tutib, manglayini sovuq ter bosdi. Butun vujudini qo‘rquvga o‘xshagan bir his, allaqanday xavotir egalladi. Boshini ko‘tarolmadi.

Oradan yarim soatcha vaqt o‘tdi.

Yuragi dov bermasayam, vujudiga jur’at yig‘ib, qiz o‘tirgan tomonga ko‘z qiyig‘ini tashlagan edi... Iymoni tosh tepasiga urdi — qiz ketib qolib edi.

Qidirning mazasi qochdi. Kutubxona kutilmaganda azobxonaga aylanganday, zerikkanlar o‘tiradigan xonaga aylanib qolganday tuyuldi. U o‘ziga o‘zi jahl qilib, kitoblarni shitob bilan yig‘ishtirdi-da, shoshilinch topshirdi va ko‘chaga chiqib ketdi.

Kayfiyatsiz holda yotoqxonaga qaytdi. Uning tushkun kayfiyatini ko‘rgan xonadoshlari hayron, bir-biriga qarashib turishdi. Birontasi so‘z qotmadi, nimalar bo‘lganini so‘ramadi, so‘rasa edi, aytardi Qidir. Aytardi bir qizni kecha ko‘rganini, bugun ham ko‘rganini, indayolmay qolganini aytgan bo‘lardi...

Qidir kitoblarini stol ustiga qo‘ydi-yu, yana o‘zini karavotga tashladi va indamay chalqancha tushib yotaverdi.

Shu yotishdan yotaverdi, o'rnidan turmadi. Ovqatlanmadi. Xonadoshlar "bunga bir nima bo'lganov" deb kulishib qo'ya qolishdi.

Ertasi kuni boshi yaxshigina og'rigani uchun darsga bormadi. Xonada bitta o'zi edi. Turli xayollarga berildi. Hech narsaga arzimaydigan narsalarni o'ylamoqchi bo'ldi. Lekin shuniyam eplayolmaydi. Xayollari beixtiyor o'sha qiz tomonga og'ib ketaverdi, ketaverdi: katta-katta ko'zlari, ignaday tikrayib turgan kipriklar, go'zal va tip-tiniq chehra... Yigitning dardi qaqshatib qo'ygan, tonggi tumanday uyushib, ko'z oldini qoplagan mungli xayollar — shu ko'rinishlar edi. O'ylanaverdi. Qizning suratini yana qayerdadir ko'rganday bo'laverdi. Qayerda ko'rgan ekan-a? Eslayolmaydi.

Bir vaqt o'rnidan sakrab turib ketdi. Sakrab turib, shosha-pisha kiyina boshladi. Qizning suratini qayerdadir ko'rganligi yodiga tushganday edi. Ha, o'sha kitobda ko'rgan bo'lishi kerak! Xuddi shunday! Boshqacha bo'lishi mumkin emas.

Shaharning qibla tomonidagi kutubxonaga yo'naldi. O'sha yerdan — kutubxonadan topadi suratni!

Kutubxona — o'tgan asrlarning ajoyib me'morlik uslubida qurilgan eski imorat edi. Podsho zamonida kadet korpusi bo'lib xizmat qilgan. Hozir shaharning eng boy kitob xazinasi shu yerda joylashgan. Antik adabiyot, falsafa, umumiy gumanitar fanlarga taalluqli barcha asarlardan tortib, hozirgi zamondagi so'z zargarlarining durdona namunalari — bari-bari shu yerda bor. Sokrat, Platon, Sitseron, Plutarx, Dante, Shekspir, Xeminguey, Folkner, Selinjer, Golsuorsi, Knut Gamsun, Balzak, Mopassan, Merime, Tolstoy, Dostoyevskiy, Sholoxov...Ismlari dunyo madaniyatining tiniq osmonida mangu so'nmas yulduzlar kabi yarqirab turgan bu payg'ambarga barobar ulug'larning asarlari xuddi oltin yombilariday terib qo'yilgan, Qidir ularning barini varaqlab, o'qib, tomoshalab chiqqan edi.

Bu kutubxonaga Qidir kunda-kunora kelib turadi. Hozir Qidir shu xazinaga kiradi-da, o'ziga kerakli jildni buyurtma qiladi va o'sha suratni topib tomoshalaydi...

2

Bu yerda ishlaydigan qiz-kelinchaklar, hatto farrosh opalarning ham hammasi Qidirga tanish edi. Ko‘z ko‘rib yurib, salom-alik takrorlanib turgach, taniydi-da. Bir tomondan, kitob desa ichib o‘tirgan oshini yerga qo‘yib qo‘yadigan bu yosh o‘spirinni ayaydilar ham. Nayzaday tim-tik ingichka qomati uzoqdan ko‘rinishi bilanoq kutubxona xodimlari kelishgan bu yigitga kitoblarni topib berish uchun doimo tayyor turadilar. Gohida esa ba’zi xodima qizlar: “bunaqa qilib bosh ko‘tarmay kitob o‘qiyversang miyang bulamiqqa o‘xshab qolmaydimi?” — deb hazillashib ham qo‘yadilar.

Baxtiga qarang, kutubxonada odam siyrak ekan. Uni burundan taniydigan tatar juvon bir nuqtaga tikilib turgan edi, Qidirni ko‘rgandan qalin qo‘ng‘ir qoshlari dir eta qoldi.

— Salom, jurnalist, qalaysan?

— Yomon emas... O‘zingiz qalaysiz?

— Bizlarniki doimo yaxshi-ku...

— Menga Shekspirning uchinchi jildini topib berasizmi?

— Albatta-da.

Chiroyli tabassum qilgan juvon orqa tomondagi eshikka kirib ketib, birpasda Shekspirning g‘ishtday keladigan uchinchi jildini ko‘tarib chiqdi.

Qidirning yodiga shunda tushdi: eh, qaysi yilgi nashr ekanligini aytmabdi-ku! Bunisi ellik ikkinchi nashr edi.

— Kechirasiz, kechirasiz... — ovozi zo‘rg‘a chiqdi uning. — Menga keragi bu nashri emasdi...

— So‘rashni ham yaxshilab o‘rganib olsang bo‘lar edi, inimov... Qaysi nashri kerak?

— Brokgauz-Efron ensiklopedik nashri...

— Bo‘ladi. Sen uchun topib beramiz-da kerak bo‘lgach... — Xodima yana ichkariga yo‘naldi.

Yarim soatdan keyin so‘ragan kitobi qo‘liga tegdi. Xuddi shuning o‘zi. Salmog‘i og‘ir, qora kitob. Sirtida oltin bug‘iga tutilgan harflar yarqirab turibdi. Ruschalab “Брокгауз-Ефрон. Библиотека великих писателей. Шекспир. Том III” deb yozilgan.

— Zaldagina o'qiladi, uyga berilmaydi, — dedi juvon.

— Bilaman. Men shu yerning o'zidayoq darrov qarab beraman.

— Meni shuncha halak qilib, darrov o'qib tashlaysanmi?

Qidir uning so'nggi so'zlarini eshitgani ham yo'q, kitobni varaqlay boshladi. Qo'lidan darrov tortib oladiganday shoshilayotir. Yuragi durs-durs urayotir. Oxiri topdi-ya! Uch yuz qirq uchinchi bet... Qayqi kiprikli qora ko'zlari dumaloq go'zal qiz iyagining ostiga momiqday kaftini to'shab, manov yolg'onchi dunyoga mungli nazar tashlab turibdi... "Дездемона. Картина знаменитого английского живописса Фредрика Лейтона..."

Qidir bu nurlari qadimgi zamonlardan meros bo'lib qolgan suratlarni musavvirlarning xayolida tug'ilgan mulk deb o'ylardi. Axir hayotda odamlarni shunchalik hayratga soladigan, lol qoldiradigan go'zallarning bo'lishini mumkin bo'lmagan hol, xayolga keltirib ham bo'lmaydigan kashfiyot deb o'ylardi. Mana shu yoshga chiqib o'z ko'zi bilan ko'rdi — bo'lar ekan, ya'ni go'zallarning hammasi-yam qachondir bir paytlar yashagan insonlar ekan. Turmushda bor narsa esa san'at asariga mangulik bo'lib muhrlanadi.

— Shunday qilib, uyga berilmaydi deysizmi?

— Hovva, bu juda noyob kitob, o'zing bilasan-ku. Bir yo'qolsa, topilmaydi. Mamkin emas, tamom. Qo'lda tutib olib ketaverishga ruxsat yo'q.

— Menga juda kerak bo'lib turibdi-da.

— Bilib turibman... Biroq, iloj qancha? Qonun bor...

Yigitning bet-yuzi ajabtovur bo'lib o'zgardi.

— Xafa bo'lma, inim... Zalda o'tirib o'qisang bo'lmaydimi?

— Bo'ladi-yu... Men kimgadir ko'rsatishim kerak-da buni...

Qidir hafsalasi pir bo'lib, ketish tadorigiga kirishdi.

— Aytganday, gapimga quloq solgin-a, inim, shu atrofga yaqin yerda Vazgen Askanyan degan bukinist[1] bor. Shuning oldiga borib surishtirib ko'rsang-chi, balki topib berar... u qariyaning do'konida quyon sutidan boshqa hamma narsani topsa bo'ladi.

Qidirning ko'ngli birdan ko'tarilib ketdi. Juvonga minnatdorlik ila qayta-qayta rahmatlar yog'dirib, kutubxonadan chiqdi.

---

[1] **Bukinist** — eski kitoblar bilan savdo-sotiq qiluvchi.

3

Vazgen Askanyan uni xursand bo'lib kutib oldi. Xaridorlar siyrak bo'lganidan zerikib, ichi pishib o'tirgan qariya Qidir bilan xuddi eski tanishlarday apoq-chapoq hangomalasha boshladi.

— O, Brokgauz-yefron! — dedi ko'rsatkich barmog'ini osmonga cho'chaytirib. — birinchi millionerlar... Rossiyada ensiklopedik nashrlarni birinchi marta tashkil qilib, xalq uchun xolis xizmat qilganlar... Kommunistlarga til tekkizgani uchun Stalin ularning bosmaxonasini 1928-yili tarqatib yuborgan...

— O'shanda nima gaplar aytgan, ota?

— Ensiklopediya deganing so'z konining ma'nolarini odam tang qilgudayin usul bilan chaqib beradigan mulk-ku. O'shanda xaqiqatparast millionerlar kommunist degan so'zning asl ma'nosini ochib beradi-yu, manglayi quriydi-qoladi. "Kommunistlar — jamiyatchilik mazmunini burkanib olgan xasta xayolning sohiblari... Inson tabiatiga qarama-qarshi keladigan gaplarni targ'ib qiluvchi kasalvandlar..."

— Haa...

— Ol, bolam, senga keragi Shekspirmidi? Moskvaga ko'chib ketayotgan bir akademik o'zining kutubxonasini bizning do'konga o'tkazmoqchi edi... biroq...

— Nega biroq deyapsiz, ota?

— Kitob topilishga topilar-ku... Oqchasi ham ancha bo'ladi-ku... talabaning hamyoniga to'g'ri kelarmikan deyapman-da...

— Kitobga yetgudayin aqcha toparmanov...

— Qani, ko'raylik-chi...

4

O'n kun o'tib ketdi. Shu o'tgan kunlar ichida Qidir ko'pgina ishlarini bitirib oldi.

Qiz kutubxonada har kuni tushdan keyin soat oltigacha bo'larkan. Kimyo fakultetida o'qiydi. Ismi Oysara. Uning qaysi bekatdan ko'likka minib, qayoqqa borishigacha bilib oldi. Yashaydigan yotoqxonaning manziligacha belgili. Tek tilga kirib tanishuvgina

qolib turibdi. To'satdan uchrashib qolgan odamga o'xshab oldidan chiqib: "Salomatmisiz, Oysara singlim, o'qishlaringiz qalay?" desa, naryog'i o'z-o'zidan tizilishib ketavermasmikan? Lekin, bunga jur'at qayda? Qizga ko'zi tushishi bilan gap aytmoq tugul, tili tanglayiga yopishib, dim indayolmay qolaveradi.

Oysara yotoqxonada ikki dugonasi bilan yashaydi. O'qishga boradimi, kutubxonagami, ko'chadami — ko'pincha shular bilan birga yuradi.

Qidir Oysaraning yonidagi qizlarni ham oz-oz taniydi. Birovi — yuzini hakkaning moyagiday sepkil bosgan Cho'lpon. Oysaraning ovuldoshi. Ikkinchisi — o'zining otadosh singlisi, ko'rinishi, ko'z-qoshlari Oysaraga o'xshab ketadigan Savle (Shu'la).

Ikki kun avval Savle bilan sal-pal so'zlashganday bo'ldi. Biroq qizdan opasi haqida so'rashga jur'ati kelmadi. Sababi, Qidir u bilan gaplashayotgan paytda, Savle boshqa bir tomonlarga qarayverdi.

Qidir uch kun qatorasiga kutubxonaga Oysaradan oldinroq kelib yurdi. Yonidan o'rin olib qo'yadi. Kimdir "bo'shmi?" deb so'rab qolsa, "odam bor, band" deb, yolg'on javob beradi. Biroq, qiz buning yoniga yaqinlashmaydi.

To'rtinchi kun deganda Qidirning oyi o'ngidan tug'di — Oysara kelib, naq buning oldidagi ustalni band qildi! U qizdan ko'zlarini uzmadi, qiz bir necha marta qarshi oldidagi odamga qarasa, o'ziga ixlos ila berilib-tikilib o'tirgan yosh o'spirinni, suluv yigitni ko'raverdi.

Bir gal Oysara hayron bo'lib yigitga tiklanib qaradi. Qidir o'zining chegaradan chiqinqirab ketganini sezib qizarib ketdi. Darrov nazarini pastga oldi. Oz vaqtdan keyin (balki oz vaqt emasdir?) o'ziga o'zi jur'at berib, boshini tiklagan edi — qiz ketib qoigan ekan. Qidir qizning kelbatini yana bir marta ko'z oldiga keltirdi. Dezdemonaning xuddi o'zi, aynimagan! Go'zallarning go'zali...

Qidir bir narsani mushohada qilmasdan tura olmadi — tabiat shunchalik suluvlikni bag'ishlagan Oysaraning yuzlarida allaqanday bir mungning ifodasi bor ekan. Ketmaydi. Zarra kamaymasdan, yupqa parda singari ko'lagaylanadi-da, turaveradi, ketmaydi. Qidir yurak-yuragining to'rida qizga nisbatan achinishmi, qayg'udosh-

likmi uyg'onayotganini sezib turdi. Shunda u qizni — Oysarani mangu-mangulikka sevib qolganini his qildi.

Shanba kuni Vazgen qariyaning bukinist do'koniga bordi. Ovqatdan, yengil-yelpi kiyim-ko'nchikdan tejab saqlayotgan mablag'ining tiyin-tiyinigacha sanab, oqsoqolning qo'liga tutqazdi. Ulug' ingliz dramaturgi, insonshunosi Shekspirning g'ishtday-g'ishtday keladigan zil-zambil uch jildli to'la asarlar to'plamini sotib oldi. Mana, nihoyat bu jildlar uning qo'lida turibdi!

Qidir hech qachon o'zini bugungidek baxtiyor, xushnud holatda his etmagan edi. Uch jildni to'rxaltaga solib, yotoqxonagacha o'ldim-ozorda yetib keldi. Hech kimga ko'rsatmay, ulkan qizil jomadonga tiqib qulflab tashladi. Yolg'iz o'zi qolgandagina, xuddi o'g'irlik qilayotgan odamday yon-tevaragiga qarab-qarab jomadondan uchinchi jildni oladi-da, entikib-entikib uch yuz qirq uchinchi betni ochadi: endi shundan keyingi lazzatni ko'ring! Uch yuz qirq uchinchi betdagi Dezdemonaning aqlga-xayolga sig'mas darajadagi haddan ziyod go'zalligiga tikiladi-da o'tiradi.

Kutubxonadayam kitob o'qimaydi, kitobi oldida ochiq turadi-da, ko'zlari tek Dezdemonani, yanglishdim, yo'q, Oysarani izlaydi. Topsa, quvonib ketadi. Topmasa, xafa bo'ladi, ko'ngli cho'kib, kelgunicha zoriqib o'tiradi.

Oysaraning bu bilan ishi yo'q. Kirib keladi-da, "Neorganichnaya ximiya" degan yostiqday kitobni olib, sahifalarga tikilib o'tiraveradi.

5

Oradan to'rt oy o'tdi. Sessiyalar tamom bo'lib, hamma qishki ta'tilga chiqib, yon-yoqqa, uyli-uyiga tarqashdi.

Shularning orasida Oysara ham Talg'ar shaharchasiga jo'nadi.

Qidirning ovuli olis. Uch-to'rt tog', ikki daryodan oshib-suzib o'tish kerak. Yetti kunning ichida ham borish, ham kelish osonmi?

"Bir kunlik hayotim o'n yilda o'tdi, toqat qilolmadim, qarorim ketdi" degan she'riy satrlarni eshitganida: "shoiri tushmagur-ey, lofgo'ylikni ham juda oshirib yuboribdi-ku" deb kulgan edi. Endi tushundi. Ba'zan odam o'n yillarga barobar keladigan rohatli azob-

ni bir kunning ichida boshdan kechirishi mumkin ekan. Yetti kunlik ta'til Qidir uchun naq bir yillikka tatiganday bo'ldi. Kun chiqsa — botmaydi, botsa — tong otmaydi. Endiyam indamay yuraverishning keragi yo'q. Oysara ovulidan kelishi bilan dilini yoradi, xayolidagilarni ochiqdan ochiq aytadi. "Sensiz yashayolmas ekanman", deydi. "Doimo yonimda, men bilan birga bo'lmas ekansan, menga bu dunyoning keragi yo'q" deydi. Ha, xuddi shunday deydi.

Oysara Talg'ardan keldi. Keldi-yu, Qidirning mardligi xuddi qo'l bilan shilib-archib tashlanganday, ko'zni ochib-yumguncha, hapzamonda g'oyib bo'ldi-qoldi. O'sha-o'sha, yetim boladay yaltoqlanish... Biror ayb ish qilib qo'yganday betga tik qarayolmaslik... Yana kunlar burungiday o'zgarmasdan o'taverdi, davom etaverdi.

Sabr kosasi to'lib, chidami obdan chekiga yetgach, Qidir eng yaqin jo'ram deb Jamoliddinga ko'ngil yordi.

— Unday bo'lib yurganlar bitta sening o'zing emas, — dedi Jamoliddin. — Biz yigitlar hammamiz ham oshiqlikning tikanakli so'qmog'iga tushganmiz. Birovlar bor, sevgan qizi bilan qo'ltiqlashib yurib aylanadi, sayr qiladi. Birovlar bor, oq qayinning tagida jufti bilan kuppa-kunduzi yopishib olib o'pishadi. Birovlar bor... mayli, hammasini aytib o'tirmayman, o'zing tushunib olarsan...

— Men unaqa... qilolmayman. Qo'limdan kelmaydi.

— Gapira olasanmi? Shu qo'lingdan keladimi?

— Keladi... Biroq uning o'zini ko'rishim bilan indayolmay soqov bo'lib qolaman.

— Bunisi qiziq bo'ldi-yu... Sevgan qiziga gap aytolmaydigan yigit ham bo'ladimi? Oshiqlik, muhabbat deganlari yigit bilan qiz tillashib qo'yiladigan spektakl emasmi?

— Men unday qilolmayman. Qo'limdan kelmaydi.

— Qo'lingdan nima keladi?

— Qo'limdan... Qo'limdan...

Qidirning ko'zlarida g'iltiragan-mo'ltiragan yosh tomchilari paydo bo'ldi. Jamoliddin cho'chib ketdi. U Qidirning o'pishish, qiz bilan ko'rishish degan zaminiy sa'y-harakatlariga emas, balki bulardan-da yuksakroq, ilohiyroq bir tuyg'uga sazovor bo'lganini tushundi.

— Qani, kiyin, men bilan yur, qo'lingdan yetalab qizning naq oldiga olib boraman hozir...

— Yo'q, yo'q, bo'lmaydi...

— Kimdan qo'rqasan? Yuraver, qizni ko'rsat, naryog'ini o'zim bajaraman...

— Oysaraga unday muomala qilolmayman.

— Endi shunda nima qilmoqchisan o'zi?

— Bilmayman. Shuning uchun ham senga yorilyapman-ku.

— Bunday qilsang qanday bo'larkan: ichki sezimlaringni, hissiyotlaringni qog'ozga tushirsang, so'ng xatni qizning qo'liga berasan. Yoki she'r yoz, shuyam qo'lingdan kelmaydimi?

Qidirning ko'zlari porlab ketdi. Bu — uning so'nggi necha oylar ichida birinchi marta ko'ngli yorishib, xursandligini namoyon etishi edi.

— Rostdan ham-ay... Xat yozib bersam... Shu qo'limdan keladi-ku, axir...

Ana shu kundan boshlab Qidirning ish-harakatlarida ayricha bir o'zgarishlar paydo bo'ldi. Ma'ruzalarni tinglamas, undan ko'ra auditoriyaning derazalarini yashil yaproqlari bilan siypalayotgan oq qayinlarning ucha boshiga, qorli cho'qqilari shahar ustiga entarilay deb turgan Olatovga qarab o'tirib xayol surishni odat qildi. Uzoq vaqt qayinlarga, cho'qqilarga talmovsirab ser solib o'tiradi-da, birdan qog'oz-ruchkaga yopishadi, shatir-shutur yoza ketadi. Domlalar xursand, "bu gal ham ma'ruzani qotirdim, shekilli, bu yigitcha yana to'xtovsiz yozyapti, yozyapti..." deb. Hech kim uni tartibgayam chaqirmaydi, qaytanga, tabassum bilan boqadilar hamma domlalar Qidirga.

Bular-ku ma'ruza paytidagi gaplar, ol, undan keyin o'ziga ma'qul fikrlarni, olovli satrlarni, ko'zining yog'larini tomizib bitgan muhabbatnomalarini, ixlos yozilgan maktublarni Oysaraning qo'liga topshirishga otlanadi.

Qidirni izlaganlar endi kun bo'lsin, tun bo'lsin, vaqtning xohlagan paytida ximfakning yotoqxonasi tevaragidan topadigan bo'ladilar. Jo'ralar-u, yotoqxonadoshlari orasida endi u "ximfakning shtatsiz qorovuli", degan laqab orttirdi. Ammoki, yigit yozganlarini qizning qo'liga hamon topshirolmay ovora. Shu ishni

hech kelishtirolmadi-kelishtirolmadi. Ol, boshqa birovni o'rtaga solishni esa o'zi istamaydi.

Yotoqxonadagilar kechqurunlari jo'rovozlikda qo'shiq aytishni odat qilishgan edi. Qidir ham bu ajoyibotdan chetda qolgani yo'q. Ayniqsa bastakor Abulahad Eshboyevning "Hali esimda" degan qo'shig'ini hamma birgalikda kuylash juda urf bo'ldi. Bu qo'shiq Qidirga ham yoqadi. Mungli kuy, latif soz, qayg'uga yo'g'rilgan mardona ovozlar birikib, uzukka qosh qo'ndirganday jo'rovoz bo'lsa bormi, har qanday yurak erigandan erib, mungga qorishib, dard-u g'amga botib-cho'mib rohatlanadi. Yurak goh eriydi, goh jimirlab-titrab hazz topadi. Musiqasining nozikligini, yoqimliligini ayting! Osmonga qush suluvi ko'garchinday pal-pallab ko'tariladi-da, muallaq holda turib-turib, birdan yerga yoprilganday... Bu yoprilish ham xuddi idishdan sirqib tomayotgan tomchilarni eslatib yuboradi. Shu sirqib tomayotgan tomchilarga yurakning potillab-erib oqayotgan parchalarini qo'shing. "Taqdir bizni olislatdi, qo'shmadi, siri-ku bu ikkimizday talayning...", — deb faryod chekadi, shingshiydi kuy. Qo'shiqning shu yeriga kelganda Qidirning ko'zlaridan tomchilar shirillab-shirillab oqadi.

6

— Sen jurnalist bo'lishning o'rniga jinni bo'lib ketmasang go'rga edi, — dedi Jamoliddin. — Bunaqa sarsonkesakka o'xshab engrab yurguncha Yusuf oqinning yoniga bormaysanmi?

— Yusufing kim?

— Kim deganing nimasi? Qoraqalpog'istondan manavunday oqin kelgan, ana, "Olatov" mehmonxonasining 36-xonasida turadi. Kecha, restoranda tanishdik. Minazi (xarakteri) ipakdayin eshilgan yigit ekan. Sening dardlaringga davo bo'lguday bir maslahatini berar axir, yurtdoshing-ku!

Qidir bir o'ylandi, ikki o'ylandi, qayta-qayta o'ylandi, ammo Yusuf degan shoirni eslayolmadi... "Qanaqa jurnalistsan sen shu shoirni bilmasang!" Abboz, Sodiq, Jo'lmirza, Tilovberganlarni ko'p o'qiganman... Ol, Yusuf...Yusuf... Yo'q, eslayolmadi... eshit-

magan ekan. Lekin qoraqalpog'istondan bo'lsa, borib ko'rishim kerak, albatta borishim kerak. Sirlarimni aytsam, sevib qolganimni aytsam — biror maslahat berar. Ha, hammasini aytadi, kerak bo'lsa saboq, ma'ruza paytida yozgan xatlarini ham ko'rsatadi. Shoir ekan-ku, bir yo'lini aytar axir, tushuntirar. Hoziroq boradi!

Uni hindular turmushini tasvirlaydigan kinofilmlardagi aktyor Goyko Mitichga o'xshaydigan uzun bo'yli, kelbati kelishgan qorato'ri yigit qarshi oldi. Chuqur qora ko'zlarining tub-tubida boshqa hech kimlarda uchrayvermaydigan nozik mung bor. "Shoirning ko'zlari shunday bo'lsa kerak", deb o'yladi Qidir.

— Yusuf og'a, men sizni izlab kelgan edim...

— Kelavering, — deb miyiq tortdi shoir. — Men Ibroyim Yusupovman...

Shoirning odamni begonasiramaydigan kengfe'lligi, umr bo'yi o'zini o'zi tarbiyalashdan charchamaydigan nag'iz (chin) ziyoli, izzatli minaziga qoyil qoldi. Endi tortinmay, bexijolat ko'ngil ochsa bo'ladi.

Ibroyim shoir Qidirning har bir aytgan so'zini diqqat bilan tinglab o'tirdi, gapini bo'lmasdan eshitdi.

Eng oxirida:

— Baliq uchungan o'ladi, — dedi. — Muhabbatdan uchungan odam shoir bo'ladi. Ya'ni ichi to'la dard-u hasratni oq qog'ozning betiga to'kaveradigan kasalga chatiladi. Bunday kasalga em ham qo'nmaydi. Bundan tek o'lib qutulasan. Mana shunday, inim. Dard-u hasrat ko'zga ursa — yig'latadi, tilga ursa — so'zlatadi. Sening darding tilga urgan ekan. Agar darding ichingga urganida shoir bo'lar eding. Ichingga tushgan dard jo'shqin she'rga aylanib, sirtga oqib chiqar edi. Dunyoda gapga ko'nmaydigan, tavalloga turmaydigan ikki narsa bor. Biri — ajal, biri — muhabbat. Sen javobsiz muhabbatga uchragan ekansan. Buni endilikda sendan boshqa hech kimning boshiga solmasin. Cho'rtanbaliqni suvga tashlab mantiqtirish (nafas oldirmaslik) qanchalar qiyin bo'lsa, javobsiz muhabbatning yuzini o'zingga qaratish ham shunchalar qiyin masala. Shuning uchun ham sening bu azobli rohatga to'lgan darding ichingga tushsin-da, sirtga chiqib she'rga aylansin... Sen shoir bo'lasan, inim.

Qadim zamon ulamolarining savash maydoniga otlangan azamat jangchilarga bag'ishlagan fotihasiga o'xshab ketadigan manov salmoqli so'zlardan keyin Qidir sal bo'lsa-da yengil tortdi.

— Qizga yozgan xatlarim bor edi, og'a, — dedi sipoyi tovush bilan. — Shularni ko'zdan o'tkazib bera olasizmi? Aytadigan so'zlarim qog'ozga ham tushgisi kelmaydiganday tuyulaveradi.

— Mayli, inim... Lekin bunaqa xat odamning boshqalarga bildiravermaydigan xufiya xazinasi-ku, nonday qadrli va bedaxl tuyg'u...

— Men sizga tanho o'zim berayapman-ku, Ibroyim og'a...

— Unday bo'lsa mayli...

7

Qidirning eng qadrdon odamiga aylangan Ibroyim Yusupov shu kuni kechqurun uni teatrga taklif qildi. O'sha kuni sahnada "Birjan — Sara" operasini tomosha qildilar. Sahnadagi mung bilan sug'orilgan ovozlar, chungrangan qayg'uli ohang Qidirning yuragini birdan jizillatib yubordi. U ko'z yoshlarini tiya qoldi. Shunday paytlarda Ibroyim shoir uning yag'riniga iliq kaftini qo'yib, tasalli berib o'tirdi.

Tanaffus paytida shoir Qidirning ko'nglini ko'tarib, unga aql bag'ishlovchi so'zlar aytdi.

— Shuncha odamning ichida ikki qoraqalpoqmiz. Birimiz tovush chiqarib, ikkinchimiz uni yupatib o'tirganimiz bo'lmas, unday qilma, inim. Men sening minazingni mustahkam desam, ko'ngling echkining tivitiday yum-yumshoq ekan-ku.

Ibroyim shoir Qidirni chetroqqa olib chiqib: "Anovi go'zalga qara", dedi past ovozda.

— Qani?

— Ustiga uzun qora-ko'kish ko'ylak kiygan qizni ko'rayapsanmi? Yaxshilab qara. Teng-toyi yo'q nag'iz suluvning o'zi-ya!

Qidir shoir imlagan tomonga qaradi-yu... Yuragi sapchib, xonasidan chiqib ketayozdi — u tomonda bir necha qizlar bilan Oysara joyfarog'at (bemalol, yayrab) kulishib turgan edi.

— Ko'rdingmi?

— Ko‘rdim.

— Sevsang, mana shundayidan saylab olib sevish kerak, inim! Shunda bu yolg‘onchi dunyodan armonsiz o‘tasan!

Qidir shoir og‘asiga: “Men sevib qolgan qiz o‘sha”, deb aytolmadi. Aytishga holiyam kelmadi. Yiqilib ketmaslik uchun o‘zini zo‘rg‘a tutib turardi.

Ertasiga mehmonxonaga yana keldi.

Shoir uni quvonch bilan kutib oldi. Qarshi oldiga o‘tqazdi-da:

— Tingla! — dedi. — Kecha teatrda ko‘rib qolgan go‘zalning jozibali sharofati qog‘oz betiga manov qatorlarni sochqiday sochib yubordi. Tingla! “Suluv ekan Olmaotaning qizlari”:

Oltin yaproq, oq boldirli qayinlar,
Yoqdi sizni qo‘ng‘ir kuzning hislari.
Bul so‘zimni osmon bo‘ylab yoyinglar,
Suluv ekan Olmaotaning qizlari.

Olma ko‘z, bo‘tako‘z, qo‘y ko‘z, qora ko‘z,
Qay bir qizning bet-yuzining bari ko‘z,
Miyig‘ida kulib aytsa bitta so‘z,
Erib ketar Olatovning muzlari.

Qaramasdan imosiga, so‘ziga,
Men o‘g‘rincha qarayverdim yuziga,
Oshiq bo‘lib Sharqning go‘zal qiziga,
Tinchin olgan qay yigitning so‘zlari?

Ishga soldim qoraqalpoqcha so‘zimni,
Goho bilinmasa, goho bilindi.
O‘nlab timsol bitta ipga ilindi,
Ko‘zim qizda, ko‘ngil esa bo‘zladi.

Gulin Ko‘kchatovning terganmi deyman,
Dala qizg‘aldog‘in berganmi deyman.
Ipin Bayan suluv o‘rganmi deyman,
Abaymasmi naqshlarini chizgani?

Qozoq qizi, bovrim deyman, ne deyin?
Husning bor jahonga ko'rk bo'lgudayin,
"Yangam" degan bol og'zingdan suyayin,
Yorim yodga solding, ko'nglim ozmadi.

Mening yorim Amuning oq moroli,
Yodga tushdi uning oyday jamoli,
Qayda bo'lsam, unga ketar xayolim,
Chorlaganday meni sog'inch guzari.

Azamat qayinlar, guvoh bo'larsiz,
Shoirning joni pok, tillari orsiz,
Yor sevgan ko'ngilda sizlar ham borsiz,
Olmaotaning olma yuzli qizlari.

Qalam yozganni bolta kesmaydi. Yaxshi she'r vaqt o'tgani sayin eskirish o'rniga sof oltinday yarqirab turaveradi.

(Oradan bir-ikki yil o'tib, bu she'r qo'shiqqa aylanadi va qozoq xalqining eng atoqli go'yanda (xonanda)larining repertuaridan barqaror o'rin oladi. Shunday qilib g'aroyib mungli kuy suluv shaharning qora-ko'kish osmonida mangu yoshlikning ovozga aylangan shakli sifatida qalqib, hammani hayratga soladi. Birovlar jonlanadi. Birovlarning ko'nglini tuzi bosim mung to'rlab-egallab oladi. Oshig'idan ayro tushganlar endi binoyi umrlarida o'zlari uchun qaytib kelmaydigan to'ng'ish muhabbatning shinshigan saslariga tebranib turganday tuyuladi. Shoir Ibroyim Yusupovga, qozoq bastakori Asat Beysevovga ming-minglab olqishlar yog'iladi).

8

Hozir esa Ibroyim ham, talaba Qidir ham sodda satrlardan quralgan she'rning hali vaqti kelib shunchalar ulug' cho'qqilarni zabt etishidan, osmonlarda qushday pal-pallab qanot qoqib turishidan bexabar edilar. Qidir-ku bu mo'jizakor asarning birinchi tinglovchisi bo'lganligini hatto xayoliga ham keltirmasdi.

Ibroyim Yusupov Qidirning yuziga qarab turib:

— Ol, sen burun she'r yozganmisan? — dedi.

— Maktabni bitirayotganda adabiyot bo'yicha... Yozganman, — dedi Qidir kulimsirab. — Boshqa yozmaganman.

— Yozgan bo'lishing kerak. Shuning uchun so'radim-da.

— Buni qayerdan bildingiz?

— Qizga bag'ishlangan xatlaring qadimgilarning elegiyalarini esga soladi. Elegiyaning mazmunini bilsang kerak?

— Albatta. Yunoncha "mungli qo'shiq" degan ma'noni anglatadi.

— To'g'ri...

— Siz xatlarni o'qib chiqdingizmi?

— Hov-va... Biroq hozircha hech narsa deyolmayman. Xatlar hozircha menda tursin. O'zimning o'ylaganlarimni Nukusga borganimdan keyin yozib yuborarman... Yaxshimi?

— Yaxshi.

— Aytmoqchi, yoningda rasming bormi?

— Bor.

— Juda yaxshi. Menga ber, kerak bo'lib qolishi mumkin...

Qidir qo'yin cho'ntagidan pasportini, pasport ichidan kichik suratni olib shoirga uzatdi.

— Suratga dastxat yozib beraymi?

— Men esdalik uchun olayotganim yo'q-ku...

Qizga bag'ishlangan xatlarning nima uchun kerak bo'lib qolganiga Qidirning aqli-fahmi yetmay turgandi. Endi uning manov so'ziga yana hayron qoldi. Surat esdalik uchun berilmasa, nimaga beriladi?

— Men ertaga Nukusga qaytaman, inim, — dedi shoir. — Maxtumquli haqida ilmiy tadqiqotlar olib borayapman. Ashxoboddan kelayotib Olmaotani ham ko'rish istagi tug'ildi. To'g'ri qilgan ekanman, sabab bilan senlarni ko'rdim, diydorlashdik. Yomon yigit emassan. Menga yot quloqlardan ehtiyot qiladigan xatlaringni o'qishga berding. Demak, menga ishonding. Hurmat-izzat qilding. Rahmat, inim! Aytmoqchi...

Ibroyim Yusupov kastumining kissasiga qo'lini yugurtirib, bir bet oq qog'ozni sug'irib oldi.

— Manov she'rni kecha qoralagan edim... Men yodingga tushgan paytlarda o'qib chiqarsan. Tingla, qani, qalay ekan:

Oshiqlik bilan ko‘p o‘ynama, bola,
Aql-u hushing biylab olar muhabbat.
Dardsiz ko‘nglingni sen qiynama, bola,
Sog‘ boshingga savdo solar muhabbat.

Sen ko‘rmagan bog‘da yemish pishganday,
Sanamlar qo‘lingdan sharob ichganday,
Quruq tomiziqqa uchqun tushganday,
Tutunsiz, yolinsiz yonar muhabbat.

Ehtiyot bo‘lmasang, taxtga mindirib,
Hukmsizoq aytganiga ko‘ndirib,
Ahmoqlarga aql, insof endirib,
Aqllini majnun etar muhabbat.

Oshiq Ayoz hazil-chini aralash,
Boymi-faqir, kimligiga qaramas.
Qaysi ovul qizisan deb so‘ramas,
Oyog‘iga seni yiqar muhabbat.

9

Hamma narsa o‘zgarayotganday. Hamma narsa gullab-yashnayapti, qulf urib, ochilib borayapti-yu, o‘zgarmagani — birgina Qidirning o‘zi. O‘sha-o‘sha turishi. Leksiyalarni berilib tinglaydi go‘yo. Oysaraga uzundan uzoq xatlar yozadi. Yozganlarini qizning qo‘liga berolmaydi. Ba’zan qat’iyati qo‘zib ketadi-da, dadillik ila qizning yoniga bormoqchi bo‘ladi. Lekin qizga ko‘zi tushgan zahoti birdan jur’ati so‘nadi-da, bo‘ynini tortadi, pasayadi-qoladi. Shundan ximfakning yotoqxonasini aylanib yurib-yurib, qizning derazasiga tikilib-tikilib, tunning bir mahalida uxlash uchun qaytib keladi.

Qidirning bir payqagani shuki — Oysara o‘zgara boshladi. Biroq bu o‘zgargani boshqalarga o‘xshamaydi, o‘zgacha tamoman. Shusiz ham tolning chivig‘iday qaddi-basti ingichkalashib borayapti. Ko‘zlari burungidan ham qop-qorayib, obdan kattalashib borayotir.

Qalin sochlari qalam tegmagan qog'ozday oppoq yuzlarini yanada ochib ko'rsatadi. Tikilib to'ymaydi odam. Go'zal, go'zal! Suluv!

Yozgi imtihonlar oyoqlanib qoldi. Qidirning nomiga Nukusdan qalin banderol[1] keldi. Ibroyim Yusupovdan ekan.

Markaziy pochtaning qoq ro'parasida quyuq soyali teraklar bilan burkangan xiyobon bor edi. Shu xiyobonning xilvat bir burchagiga borib o'rnashdi. O'rnashdi-da, shoshmasdan banderolni ocha boshladi. Ocha boshlagan edi, ichidagi buklab tiqilgan gazetalar orasidan bir bo'lak qog'oz ajralib pastga tushdi. Olib qaradi. Shoirning salomnomasi ekan. "Muvaffaqiyatlar tilayman. Mo'ljallagan dovoningdan aslo ortga qaytma, inim! Hurmat bilan Ibroyim Yusupov".

Qanaqa muvaffaqiyat bo'lsin?!

Qidir banderolning ichidagi qog'ozlarni birma-bir ko'ra boshladi. Qog'oz emas ekan, gazeta, gazetalar. Uch dona. Hech narsaga fahmi olishmay gazetalarni varaqlay boshlagan edi... boshining ichida momoqaldiroq gumburlaganday bo'ldi: dastlab o'zining suratiga ko'zi tushdi. Boyagi, shoirning o'zi so'rab olgan surat! Kiprik qoqmasdan tikilib turibdi. Keyin gazetaning past tomoniga shoshib ko'z yugurtirdi: "Qidir Nasrullayev!"

Keyin esa yana boshlanish tomonga ko'zi uchub bordi-da, shu zahoti "hov!" deb baqirib yuborganini o'zi sezmay qoldi! "Egasiga topshirilmagan xatlar. Elegiya".

Yozgan xatlari gazetaning uch sonida izma-iz bosilibdi! Shu o'tirgan joyida qo'zg'almasdan hammasini o'qib chiqdi. Xatlarning biror joyiga qalam tekkizilmagan, tahrir qilinmagan edi. Faqatgina Oysara degan ism "Go'zallardan go'zal qiz" deb aniqlashtirilgan.

Qidir kutilmaganda qushday silkinib, o'zini yengil his qila boshladi. Hayotida ilk bor haqiqiy baxtning, quvonchning qanday bo'lishini his qildi.

Gazetalarni qaytadan banderolga joyladi. "Bu quvonchni Oysaraga ham bildirish kerak", degan xayolga bordi. Endi hayallashning keragi yo'q. O'rtadagi hamma gapni ochiqdan ochiq aytadi.

Parvardigordan shiddat, jur'at so'rab, o'rnidan turdi-yu, xiyobonning kirish tomonidagi ovloq bir yerda o'tirgan Oysaraga

[1] **Banderol** — pochta orqali yuborilgan jo'natma.

ko'zi tushdi. Qiz yolg'iz bir o'zi. Dezdemonaday iyagining ostiga kaftini to'shab, allaqanday teran o'ylarga botib o'tirgani ko'rinib turibdi. Suluv yuzlari oppoq bo'lib ketgan. Qidir uning yoniga hozir yaqinlasha olmasligini his qildi. O'yga tolgan, o'z xayoli bilan o'zi band bo'lib o'tirgan go'zal qizning, mahliqoning oldiga borib, sukut qushlarini uchirib yuborish mutlaqo mumkin emas — qattiq o'ylanib o'tirgan qiz qo'rqib ketishi aniq...

Oradan uch kun o'tganida Qidirning qo'llariga ulug' shoira Anna Axmatova haqidagi esdaliklar kitobi tushdi. Kitobning o'ttiz oltinchi betida quyidagi so'zlar Qidirning rahmdil qalbiga juda ta'sir qildi: "Ulug' shoir Nikolay Gumilyov o'zining qallig'ini, yuz tuzilishi, qadimgi yunon, go'zallariga o'xshab ketadigan Anna Axmatovani ko'rish uchun Moskvadan Peterburgga keladi. Qizning yashaydigan manzilini darrov topib bordi. Birdaniga ichkariga kirib borishga yuragi dov bermay, dala-hovlini qurshab olgan baland devor eshigidan asta mo'raladi va... Annaga ko'zi tushdi. U sersoya yerga qo'yilgan to'qima o'rindiqda o'zincha bir shirin xayollarga botib o'tirgan ekan. Xalaqit bergisi kelmagan shoir shul kuniyoq poyezdga minib, Moskvaga qaytib ketdi..."

Demak, Qidirning harakatlaridayam noqislik yo'q. Sevgan qizining huzurida ulug' odamlarning o'zlariyam nima qilishni bilmay dovdirab qolar ekan-ku! Shunday ekan, Qidirning jonsarakligini ham qiz tushunar axir, bugun bo'lmasa ertaga tushunib yetar. Har narsaning o'z navbati bor. Hali vaqti keladi. Oysara ikkovi bu g'alati andishalarni kulib esga olib o'tiradilar.

10

Yozgi ta'til boshlandi. Qidir ta'tilni shirin xayollar bilan shavq ila o'tkazdi. Qayerga bormasin, qayerlarda yurmasin, Oysaraning nurga belangan siymosi yonidan qolmay, ergashadi-yuradi. Mana ikkovi qo'l ushlashib sayr etib yuribdi. Suv bo'yi sohil yoqasida qushday chug'urlashib so'zlashmoqdalar. Qidir ko'zi to'ymay tikiladi. Bu go'zal chehraga, xumor ko'zlarga to'yib bo'ladimi?! Qizning qop-qora sochlarini asta silaydi. Oysara nimalarnidir aytganday bo'ladi. Yigit esa uning tovushi-

ni eshitmaganday. Lekin yaxshi gaplar aytayotgani uchun, yana qayta-qayta so'raydi...

Qizga uzundan uzoq xat yozishni to'xtatmadi... Qoraqalpoq tilidagi eng asl, qudratli so'zlarni terib oldi. Ovloq yerda yolg'iz yurganida titragan mayin ovozda shu so'zlarni takrorlaydi. Shunday betakror, noyob lahzalar qarshisida qora sochli, dilbar-dilrabo Oysaraning o'zi turadi. Qidir uchun eng baxtli-saodatli damlar — shu damlar.

Olmaotaga kelganidan buyon yozgan xatlarini, gazetada bosilgan elegiyalarini kattakon konvertga solib, yelimlab tashladi. Hozir qizning oldiga boradi. Boradi-da, shularni qizning qo'liga ushlatib, ortiga zip burilib ketadi-qoladi. Ko'nglida joylashgan yaxshilik urug'lari nish urib, qiz bu xatlarni o'qib chiqsa — shunday kelishgan, pahlavon yigitni qiynab kelayotganini tushunar axir. Ol, tushunmasa-chi?.. Yo'q, tushunadi, so'zsiz tushunadi. Dunyoda o'zini jonidan ham ortiq sevadigan, ardoqlaydigan inson borligini bilib qo'ysin-da...

Avvaldan yurib o'rganib qolgan yo'l bilan tez-tez qadam bosarkan, bir burilishda oldidan chiqib qolgan qizni ko'rib ko'zlariga ishonmay qoldi: Oysaraning otadosh-ovuldosh singlisi!

— Salom, Savle! — dedi Qidir birinchi marta shunchalar dadillanib. — Oysara ko'rinmaydi-ku yoningda...

Qiz qotib qoldi. Qidirning yuziga tik qarab:

— Oysarami? Oysara... — dedi past ovozda. — U...

Savle so'zining davomini aytmay yuzini yerga qaratdi.

Qidir endi angladi — qishi-yozi yalangbosh yuradigan Savle boshiga qo'ng'ir-qora ro'mol tortgan edi.

— Siz Oysarani tanirmidingiz?

— Albatta-da, tanimay bo'larkanmi sizlarni?

— Unday bo'lsa, bilasizmi... Oysara so'nggi oylarda to'satdan em qo'nmaydigan (davosiz) kasalga chalingan edi... O'zingiz ham payqagan bo'larsiz, yuziga mudomi mungli parda tortilganday bo'lib yurardi...

— Kasalxonaga tushdimi...

— Yo'q... u...

— O'zi qayerda hozir?

— Oysarami?.. Oysara... bir oycha bo'ldi-ku qaytish qilganiga!

Qidirning ko'z oldida chaqmoq chaqib, yashin urganday bo'ldi. Boshi chirpirak bo'lib aylandi. "Qaytish qildi de... — ovozi xirillab chiqdi. — Shundaymi?.. Oysara... O'ldimi?.."

U trotuarga o'tirib qolganini ham sezmay ikkala qo'li bilan yuzlarini yopib, xuddi injiq-erkatoy boladay o'krab yig'lab yubordi.

Qo'rqib ketgan Savle shu yerdan o'tib borayotgan qizni chaqirib, ikkovlon Qidirni qo'ltiqlab-suyamalab chetroqdagi o'rindiqqa eltdilar. Qidir hamon ich-ichidan qaynab chiqayotgan o'krikni bosolmay zor-zor yig'lar, "Oysara... nega o'ladi axir, nega..."lab, gapini davom ettirolmay halloslardi, ko'z yoshlari qaynab chiqmoqda, qaynab chiqmoqda edi.

— Oysara degani bu yigitning kimi edi? — deb so'radi notanish qiz. — Singlisimi?

— Hov-va... — pichirladi Savle. — Shunaqa shekilli...

Oradan uch kun o'tdi. Universitetning ikkinchi kurs talabasi Qidir Nasrullayev oilaviy sharoitining yomonlashuvi natijasida akademik ta'tilga chiqdi-yu, tug'ilgan ovuliga birato'la ketib qoldi. Oysaraning qabri boshiga bormadi...

* * *

Hozir Qidir Nasrullayev o'zi tug'ilib-o'sgan "Orolboy" ovulida yashaydi. Uch farzandi bor. Ikki o'g'il, bir qiz. Qizining oti Oysara. Maktabda o'qiydi.

Yoshlar Qidirni ferma ishchisi deb biladi. Burundan shu yerda ishlasa kerak, deb o'ylaydi. Ol, yigit og'asi bo'lib qolganlar uning bir paytlar universitetda o'qiganligidan xabardor. Hatto uning bir paytlar "Egasiga topshirilmagan xatlar" deb nomlangan elegiya deydimi, hikoyasinimi o'qiganlar ham ovulda topiladi. Ular: "Qidir, sen nega yozishni qo'yib ketding-ay?" — deb so'rab ham qo'yishadi. Shunda Qidir: "Yozayotgan ko'p-ku", — deb yo "Yozib yuribman", — deb kulib qo'ya qoladi.

Yozishga harakat qilganligi rost. Oldiga qog'oz yoyib, qo'liga qalam olib ko'rdi. Yozolmadi.

Qidir kitob o'qimaydi. Tek onda-sonda to'rgi tomning ichidagi javondan Shekspirning uchinchi jildini qo'liga oladi. Oladi-da,

kitobning uch yuz qirq uchinchi sahifasini ochadi. Uzoq vaqt tikilib o'tiradi. Tikilib o'tiradi-da, og'ir xo'rsinib, kitobni o'rniga olib borib qo'yadi. Uning bu odatini uydagilar ham, boshqalar ham sezmay kelayotir. Faqat bir marta... Yetti yashar qizi Oysara otasining qarab o'tirganining ustidan chiqib qoldi. Ustidan chiqib qoldi deganimizning ma'nosi shuki, Qidir bu ishni boshqalardan yashirin holda qilardi.

— Papa, nima bo'ldi? Yig'lab o'tiribsizmi? — so'radi qizi.

— Men yig'layapmanmi? Men yig'layotganim yo'q, qizim...

— Ko'zlaringiz suv-suv bo'lib ketibdi-ku...

Oysaraning ko'zlari Qidirning oldida ochiq yotgan kitobga tushdi. Dezdemonaning katta suratini ko'rdi.

— Manov... kim?

— Oysara...

— Mendan boshqayam Oysara bormi?

— Bor edi, qizim...

— U qayoqda hozir?

— Umi, u... Oysara... Oysara...

Qidir so'zini davom ettirolmay selkillab yig'lab yubordi.

QADR KO'RMAY

Hay do'stim, nimasini aytasan! "Bu dunyo — yolg'onchi dunyo" deganlari rost ekan. Kichkinaligimdanoq, dunyoning torligimi, taqdirning manglayga yozganlarimi yoki keng dunyoning qizig'iga to'ymay ketgan ota-onaning dardlarimidi bu — bilmadim, yoshligimizdan to'rt inim, ikki singlim bilan yetim qoldik. Mening yoshim o'n oltida, qolganlari bari "bersang — yeyman, ursang — o'laman" deganday yalangoyoqlar de. Eng kichkintoylarimiz Oyjamol bilan Guljamol maktabning boshlang'ich sinfida o'qirdi. Shangg'aroqning[1] borliq og'irligi mening bo'ynimga tushdi-qoldi. Shu sababdan, o'qishga borgan kunlarim borib, qolgan kunlarim qolib yurdim. To'g'risini aytsam, kimlar bilan sinfdosh bo'ldim, maktabni qalay bitirdim — esimdayam yo'q. Qo'shni ovuldagi ajag'am[2]ning ham kun ko'rishi, shangg'arog'ining barakati bizlarnikidan salgina g'ovroq[3] edi. Shuning uchun ham nonsuv so'rab unikiga hadeb boraverish ham qiyin.

Taqdirning gardishi bilan kunlardan bir kun dehqon xo'jaligiga ishga joylashdim. O'sha paytlarda azonli-kech umrim ovulzordagi Berdiboy brigadirning qo'lida o'tdi. Brigadaning a'zolari hammasi yoshlari katta bo'lganligi uchunmi, oilali-xo'jalikli odamlar bo'lgani uchunmi, bilmadim, brigadir og'amizning ikkala ko'zida ham, so'zida ham men edim. Otiz boshiga qoplab-xaltalab to'gin (go'ng) tashishga ham, stansiyaga borib, vagondan yuk tushirishga ham men, qovun-tarvuz yuklash-tushirishga ham men ketardim. Ukalarimni boqish uchun bir oyligim bir oyligimga zo'rg'a yetardi, ora-orada ko'pincha ovulimizdagi Qalboy do'konchiga, qo'ni-qo'shnilarga qarzdor bo'lib qoladigan kunlarimiz esa son-sa-

[1] **Shangg'aroq** — o'tovning tepa qismining asosiy bo'lagi. Bu yerda: oila, xo'jalik degan ma'noda.

[2] **Ajag'a** — aziz og'a, otaning ukasi.

[3] **G'ov** — yaxshiroq, rivojlanganroq.

noqsiz. O'sha yillari shangg'arog'imizdan qut-baraka uchib, qayg'u makoniga aylanib qoldi. Lekin bora-bora inilarim o'qishga borib, bo'ylari, o'y-o'rishi o'sib, mengayam qo'l ko'magi tegib, och-u yalong'och, kir-chir o'saverdik. Inilarimning hammasini uy atroflaridagi qiytoq yerlar (tomorqa)ga ekin ekishga, dehqonchilikka o'rgatdim. Kunlarning birida ajag'am navqaslanib, to'shak tortib qoldi. Bilmadim, bu kasallik tuxum quvalaydimi yoki otalarimiz oz savob ishlaganmi, xullas ularning hol-ahvoldan xabar olib turish ham mening bo'ynimda edi. Yangam bechora bir Bibi Fotimaning nag'iz qiziday halol, mehnatkash, mehribon ayol edi, "qo'y og'zidan cho'p olmaydi" deganlariday. Shangg'arog'ida kichik-kichik bolalari bor. Markazdagi shifoxonaga qancha qatnamasin, tabiblarga qancha guruch-bug'doy sochmasin, foydasi tegmadi — ko'p o'tmay ajag'amni tuproqqa berdik. Qayg'umning ustiga qayg'u yamaldi. Brigadir bilan tabelchining menga munosabati yana o'zgarib, kun ko'rishimiz yomonlashgandan yomonlashaverdi. Kolxoz ishi og'ir, uydagilarni boqish mashaqqati og'ir, kun ko'rish qayg'usi erta tongdan qora kechgacha bo'yinda. Qalay yotib, qalay turyapman — o'zim ham bilmayman, boshqa birov ham bilmaydi.

Kunlarning birida Tajetdin inim maktabni bitirib, qaptalimga dehqon bo'lib o'rnalashdi. Shundan keyin sal-pal yengil nafas oladigan bo'ldim. Endigidan bu yog'i bizlarni ham ovulning to'y-ma'rakasiga, yig'inlariga chaqiradigan bo'lishdi. Elga aralasha boshlaganimizga juda quvondim. Inim bo'lsa, brigadirning so'zidan chiqmay, so'zini uqib, otiz ishlarimi, uyining ishlarimi kirishib, qo'noq-qo'shni keladigan bo'lsa, supir-sidir, suv quy, u-bu ishlarigayam qarashib yuradigan bo'ldi. Oylikdan boshqa qo'shimcha ish haqi, mukofot puli deganlarini olib turamiz. Bu brigadirimizning menga, ukamga bo'lgan-qilgan yaxshiliklari edi. Ukalarim, singillarim bilan oylik olgan, uyga pul kirgan kunlarni bayram qilib o'tkazadigan bo'ldik. Oradan yillar o'tib borardi. Tajetdan kichkinasi Majet maktabni bitirdi. Ikkoviyam o'qishga borishni maqsad qildi. Men bunga quvondim, sababi, bizning oilamizda bo'lsin, og'ayni-tug'ganlar ichida bo'lsin, o'qish o'qigan odam yo'q edi. O'qiganlar boshqalarga qaraganda qanday yaxshi yashashini ko'rayapmiz-ku. Maslahatlashib, bu yilcha Tajetni

o'qishga yuboradigan bo'ldik. Tajetdan keyin Majid, Sadetlar ham o'qiydigan bo'ldi.

Tajed o'qishga ketdi-yu, Majed, Sadetlar ham kamolga kelib, qo'lga ilinadigan bo'lib qoldi. Biri fermaga, ikkinchisi ustaxonaga ishga kirdi. Biroq ota-onamiz yo'qligidan bo'lsa kerak, shangg'arog'imizning baribir nimasidir kami, xuddi bir tomoni og'ib borayotgan aravaga o'xshardi. Kutilmaganda aka-ukalar ahil-ittifoq bo'lsa, kutilmaganda arzimas bir narsalarga tortishib, malollik boshlanib ketardi. Biriga gapirsang, ikkinchisi o'ziga oladigan, ikkinchisining ko'nglini olsang, birinchisi xo'mrayadigan odatni chiqarishdi.

Nimayam qilardik, yetimlik yuki og'ir bo'larkan. Ma'rakalarda, o'zingdan kichiklardan ham pastda, eshikning yonidagina o'tirasan, hech kim "joying buyoqda, to'rga chiq!" demaydi. Yoshullilarning diqqat-e'tiboridan chetda, ko'zga ilinavermaysan, elashtirmasiz[1] birovga aylanasan.

O'qishni bitirib kelgan Tajed o'zining suyganiga — boyagida uy xizmatkori qilib qo'ygan Berdiboy brigadirning qizi Gulshodga uylanadigan bo'ldi. Endi to'y xabarini eshitgan ovul-el, tomosha uchun xalq yig'iladi-ku. Kelgan qo'noq-qo'psini qo'ni-qo'shnilar bilan birga mehmon qilgan bo'ldik. Eng ko'p xizmatni — tushir-yukla, olib bor-olib kelni men — uylanolmay yurgan aka qilgan bo'lsam kerak, juda charchadim. "Xalpananing kattasini tuya so'yilganda ko'r" deganlariday, to'yning tamoshasi shundan keyin boshlandi. Gulshod kelinimiz bemazaroq bo'lib chiqdi. Menga indamagani bilan jini ukalarimga tushardi. Shangg'arog'imizda har kuni ikki-uch marta janjal chiqadigan bo'ldi. Bundan xabar topgan qo'ni-qo'shnilar uydagi ahvolni Berdiboy brigadirga yetkazibdi. Berdiboyning o'zi kelmadi-yu, biroq xotini kelib hammamizning jonimizni olib, jon xaltaga soldi. Ikki oy muhlat e'lon qilib, inilarim — uylanadigan (o'qishga ketish qayda?), singillarim — turmushga chiqadigan bo'ldi. Xullas, uyni bo'shatishimiz, har birimiz o'z kunimizni o'zimiz ko'rishimiz shart emish! Shu-shu, bir narsalarga yo'liqib qolmaslik uchun yangi kelinning qosh-u qovog'iga

[1] **Elashtirma** — e'tibor qilmasa ham bo'laveradigan odam.

qaraydigan bo'ldik — kulsa, kulamiz, qovoq uysa, jimjit bo'lib, pusib qolamiz.

Baribir foydasi bo'lmadi. Uch oy deganda qudag'ay kelib, mendan boshqa hammadan uyni bo'shatib qo'yishni, yo'qsa kelinni olib ketishini e'lon qildi. Yana ikki oyga ruxsat so'rab, qudaxolani iziga qaytardik. Ne iloj?! Inilarim uydan chiqib ketishga, voyaga yetmagan singillarim turmushga chiqishga rozi bo'lishdi. Hozirgacha inilarimning uylari har tomonda. Ustiga ustak, singillarimni ham so'ramay-surishtirmay uzatib yuboraveribmiz, tushgan joylari zolim odamlar bo'lib chiqdi.

Hay, inim, nimasini aytay endi. Har kunlik qayg'u-vahimalarning ta'sirimi yoki yoshlay turmushga chiqqan singillarimning ko'z yoshlarimi, yoki yoshligimdan og'ir mehnat-mashaqqatlarga o'zimni uraverganim uchunmi, bilmadim, oradan ko'p o'tmay o'zim ham navqaslanib qoldim. Shifoxonaga bir tushsam, haftalab, oylab qo'yib yuborishmaydi. Qilgan muolajalarning foydasi bo'lmaydi. Gulshod kelin ovulimizdagi bolalar bog'chasida, Tajet esa maktabning labaratoriyasida ishlaydi. Navqaslanganim jonimga botib, kundan kunga holdan toya boshladim. Uyimizning sirtqi eshik tomonida hujrada yotaman. Qo'shnilar hol-ahvolimni ko'rib rozi-rizolik so'rashib ketadi. Ularni ko'rgan Gulshod kelin jini tirishib, endi ular bilan urishadigan odat chiqardi. Qo'shni bilan ham urishib-janjallashib bo'ladimi? Nima emish — "hozirgina supurib-artib qo'ygan edim, yana chang qilibsizlar uyning oldini! Boringlar, kavushlaringni tozalab kelinglar!" emish.

Mening ahvolim esa kundan kunga pastlab, oyoq-qo'llarimda hol-darmon qolmadi.

Bir kuni Gulshod kelin Tajedga ovozining boricha: "Shundan kasali bolalarga yuqsa, holimiz ne kechadi? Shu yoqlarini o'ylamaysanmi? Qani, anavini omborxonaga chiqarib tashla, shu yoqda taxtatokchada yotsin!" — deb baqirayotganini eshitdim. Ko'zimning oldi tindi-ketdi. Shu kuni kechasi bilan uxlolmadim, omborxonani ne qiyinchiliklar bilan tiklaganim, qaysi shoxni qayerdan topib kelib, tomini yopganlarim, ukalarimni majburlab ishlatib, loy tashiganlarim — bari-bari ko'z oldimdan o'ta boshladi. Mening Tajet bilan aytishib, insofga chaqirguday holim bormi, kelinga "qo'y"

deb aytishga — yo'q, yo'q, yo'q!.. Oxiri o'zaro kelishib-birikib, meni omborxonaga — don, ekin-tikin saqlanadigan pastak xonaga chiqarib tashlashdi.

Shundan keyingi ko'rgan azob-aziyatlarim baridan o'tib tushdi. Kekirdagimdan havo, tomog'imdan osh o'tmadi, ichadiganim bir piyola choy. Shuyam birda bo'lsa, birda yo'q.

Bir kuni Gulshod kelin azon bilan omborxonaning eshigini ochib: "Tajet, hoy Tajet, anovi haliyam tirik ekan, boyagi choyni olib kel!" dedi. Kelin Tajetning olib kelgan choyi bilan bir tishlam nonni yonimga qo'yayotib, "ma, manovini ye-da, o'laqolsang edi, qutulardik", dedi vajohat bilan. Ko'zlarimdan yosh quyildi.

Ular eshikdan chiqishi bilan men o'tgan umrimni achinib eslay boshladim. Umrimni mana shu ukalarimga tarbiya, osh-non topib berish bilan o'tkazganimga, jonimni jabborga berib, shular uchun har qanaqa mashaqqatga, xorlik-zorliklarga chidaganim, ukalarim-singillarimni o'ylab, o'zimni o'ylamaganim, shularni deb vaqtida uylanmaganim... hamma xato-kamchiliklarimga alamim kela boshladi. O'tkazayotgan kasalim yana boshqatdan boshlanayotganday tuyuldi. Ikki kuncha narsa totmadim, havo yetmayotganday edi, nafasim siqdi. Shu orada omborxonaga kimlar kelib, kimlar chiqib ketayotganini bilmadim. Uchinchi kuni qattiq chanqadim. Xabar oladigan jon yo'q edi. O'zimni majburlab, u yoq-bu yoqqa alanglab qarasam, qo'lim yetguday derazaning oldidagi shisha idishda qandaydir bir suyuqlik turgan ekan. Shunga qo'l uzatib, amallab oldim, nima bo'lsa bo'lsin deb bir ho'plam og'zimga oldim. Zaharday achchiq narsa ekan. Shuni ichsam-u, qani endi o'laqolsam deb ham o'yladim. Qarasam tomog'im ochilayotganday, nafas olishim yengillashayotganday sezildi. Yana nima bo'lsa bo'lsin dedim-u, endi ikki marta ho'pladim. Tanglayimdagi qotib yotgan qoqiriq qo'zg'aldi. Xullas, shu ichimlikning foydasi tegdiyov, shekilli jonim omon qoldi.

Endi Tajetning bolalari olib kelgan nondan yeydigan, choydan ichadigan bo'ldim. Beshinchi kun deganda o'rnimdan tiklanib, o'tiradigan ahvolga keldim. Azon bilan omborxonaga un olishga kelgan Gulshod kelinning ko'zi menga tushib, qo'lidagi tovog'i daranglab tushib ketdi, qo'rqqanidan baqirib ham yubordi. Yugurib

kelgan Tajed bolalari bilan meni suyab, avvalgi o'rnimga olib borib, tovuq sho'rva ichirdi. Shundan keyin o'zimga kelib, sog'ligim tiklana boshladi. Mana, ko'rib turibsiz, hozir xudoga shukur, ancha yaxshiman. Omborxonada yotgan paytlarimda menga ko'rsatgan qilg'iliklari, yetkazgan aziyatlari, hatto o'lib ketishimga rozi qilgani uchun kelinga bir og'iz gap yo kinoya qilmay, o'sha deganlarini behush holda yotganim uchun eshitmay qolgan kabi tutdim o'zimni. Gulshod kelin o'sha gaplari uchun ancha vaqtgacha qisinib yurdi, ammo men bildirmadim. Menga yana uy ichidan joy qilib berishdi, oldimga dasturxon yoyadigan, ovqatning mazali joyini, go'shtning yog'li, lahm joyini beradigan bo'lishdi.

Nima dey endi. Omborxonada yotgan paytlarimda xabar ololmagan ukam, menga yomon kunlar tilagan kelin bundan keyingi kunlarda o'zli-o'zli ahil bo'lib yashayversa, bolalarini, qizlarini kamolga yetkazsa deyman-da. Shu tomonlarini o'ylab, yana ularga yaxshi kunlar tilayman.

Ha, aytganday, Tajed hech kim yo'qda menga Gulshod kelinni, Gulshod esa Tajedni yomonlaydigan odat chiqarishdi yaqindan beri. Men ularga tasalli beraman, hali zamon yanada gullab-yashnab, yetishmovchiliklar barham topib ketishini uqtiraman. Umidsiz bo'lmanglar deyman. Rost-da, ko'rayapmiz-ku, eshityapmiz-ku dunyoda nimalar bo'layotganini. Uyda janjal bo'ladimi — ro'zg'ordan baraka qochaveradi. Bugungi yo'lga chiqishimdan maqsad — kichik inilarim — Majed bilan Sadedni ko'rib kelish, "qol" desa, ularning birining uyida qolish. Mayli-da endi, Tajet bilan Gulshodlar o'zlariyam mensiz bir yashab ko'rsinlar. Ichimdagi sirlarimni hali hech kimga ochiq-oshkora aytgan emasdim. Begona bo'lganing uchun senga aytyapman, xolos.

Hov, sho'pir ulim, men tushadigan bandargi (bekat) kelganida bir to'xtatib olarsan, tag'in o'tib ketmay, xo'pmi?!

Shunday deb qariya tushib qolishga taraddud ko'ra boshladi...

Abdimalik XO'JANAZAROV

TO'RT SHOXLI ODAM

(Hikoya)

O'zimni qo'y og'zidan cho'p olmaydigan yuvoshgina odamman deb yurardim. Endi bilsam to'rt shoxli odam ekanman. Bilganimdan keyin hayron qoldim. To'g'risi, o'zimdan o'zim uyalib ketdim.

O'tamish degan qo'shnim bor. Yoshiyam oltmishning asqar cho'qqisida. Ikkimiz tengdoshmiz. Bir ovulda tug'ilib, o'ynab-o'sdik. Yana, o'n yil birga o'qidik. Harbiy xizmatgayam birga ketdik. Kelgandan keyin ham ovulning keng otizlarida o'ttiz besh yil birga o'roq o'rib, bel tepib deganday, bu yil nafaqaga chiqdik. Xullas, kiygan kiyimimiz ham bir xil, jonimiz jondosh. Qil qiymas do'stmiz. Jo'ra. Qarichilik. Kunda-kunora ma'rakaga chiqib, qarilikning gashtini suramiz. Bo'yingda-yu o'yingda nimalar borligini dastlab mana shunday yaqin odaming tez payqab-anglab olarkan, tavba.

Hali choshka bo'lmay O'tamish bugun ham uyda o'tiribdi. Salom-alik, fotihadan so'ng:

— Hov, O'tagan jo'ra, juda bemalol o'tiribsan-ku — dedi O'tamish. — Orqadagi Oqterak ovulidagi Marqaboy jo'ramizning nevarasining sunnat to'yiga borib kelmaymizmi?

— Ol-a, sal bo'lmasa xayolimdan ko'tarilay debdi... Mayli, borib bir orqa-bo'yinni yozib kelaylik. Men kiyinib chiqaman, — dedim-da, o'rnimdan turib ichkariga kirib ketdim. Yo'lga tushish oldidan cho'ntaklarimni birma-bir ushlab, hech narsani unutmadimmi deb, tekshirib chiqish odati hamma qariyada borligini bilasan. Men ham shundaylardan. Bir cho'ntakni tintib ko'rdim, qo'l ro'molim — bor. To'yda ro'yxatdan o'tish uchun yetarli pulim bor. Iye, nosvoyxaltam qani? Cho'ntaklarimni boshqatdan yana bir-birlab tintishga kirishdim. Yo'q, nosvoyxalta, yo'q!

O'tirgan joyimdagi ko'rpachalarning taglarini qarab chiqdim, yo'q! Choy ichib o'tirgan ikki nevaramga qaradim.

— Sizlar biror yerga olib qo'ymadinglarmi? — dedim ovozimni ko'tarib.

— Yo'q, yo'q, ota! Bizlar nima qilamiz nosvoyni? Achchiq-ku, kallani aylantirib tashlar emish...

— Hov, unda qayoqqa yo'qoladi?

— Bilmasak...

— Sizlar bilmasalaring, men bilamanmi. Ichi yangi nosvoyga to'lgan yostiqday nosvoyxaltam qayoqqa ketadi? Yer yutdimi yo?

Ovozim tobora ko'tarilib borardi. Bu — achchig'im chiqa boshlaganining alomati. Nevaralar bir hovuch bo'lib muyushga tiqildi. Ularning qo'rqayotganini ko'rib, sal yumshadim.

— Mayli, men kelaman deguncha qarashtirib topib qo'yinglar.

Keyin O'tamishga qarab so'radim:

— Sening nosvoying bormi?

— Bor, bor. Orqayin bo'laversang-chi.

— Borib kelgunimizcha yetadimi?

— Yetadi dedim-ku. Bolalarga nega baqirasan-ay...

Jo'ramning kelgan paytdagi poti yo'q, shitddati tushgan edi. Nosvoyxaltaning yo'qolgani uni ham xafa qilib qo'ydimi, indamay qoldi. Shu kayfiyatda ancha yurdik. Bunaqa paytda nosvoy otvormasang o'zingga kelmaysan. O'ng qo'lim kastumning chap tomonidagi sirtqi cho'ntakka kirib ketdi. Qarasam, yetim qo'zining qorniday to'mpaygan nosvoyxaltam hovuchimga joylashib turibdi. Otdim. O'tamish ko'zining qiyig'i bilan qarab qo'ydi.

— Otasanmi?

— Yo'q, o'zingga buyursin!

Bilib turibman, boyagi baqirib gapirganlarimga achchig'i kelib qolgan edi, shu tarqamayapti. Shundayincha bir-birimizga til qotmasdan yana ancha yurdik.

— Senga ham shox chiqayin deb qolibdi-da, — dedi O'tamish bir payt jimlikni buzib.

— Nima deysan?

— Sengayam shox chiqay deb qolibdi!

— Esing joyidami? Nima qilib yurgan shox? Qanaqa shox? Shox deganing ho'kizda, sigirda, echkida, qo'chqorda bo'lmaydimi? Odamda shox nima qilsin? "Iskandarning shoxi bor..." degan ertakni bilaman, boshqa shox-poxdan xabarim yo'q. Yo meni Iskandar podsho deb, ustimdan kulmoqchimisan?

— Gapim rost. Odamda ham shox bo'ladi, birov emas, to'rtta shox bo'ladi. Shu shoxlar sendayam paydo bo'libdi. Bir emas, ikki emas, to'rtta shoxing bor.

Hovliqib qolganim shunchalik, boshimdagi taxiyamni qo'limga olib, manglay atrofimni qayta-qayta siypalab ko'rdim. Qo'limga turtiyib turgan shox bilinmadi.

— Nega bunaqa deyapsan-ay? Menda, senda shox nima qilsin? Odammiz-ku axir.

— Senga shox chiqqaniga ancha vaqt bo'libdi. Biroq o'zing shuni sezmagansan. Odamning shoxi ho'kizning, takaning, qo'chqorning shoxi kabi harriyib ko'zga ko'rinib turmaydi. Odamdagi shoxlarni fikr-o'yi sezgir, zehni o'tkir odamlargina ko'ra oladi.

— Ay, jo'ra, gapingni jumboq qilavermay tushuntiribroq aytsang-chi! Odamda to'rt shox bo'ladi, deysan, turtiyib qo'lga ilinmaydi deysan. U shox qanaqa shox o'zi — qo'lga ilinmasa, ko'zga ko'rinmasa?!

— Mayli. Bilging kelib turibdimi? Aytaman, deyapman-ku, ko'nglingga og'ir olma biroq.

— Bo'pti-bo'pti, tushuntir qani...

— Boya sen kastumingning sirtqi yon cho'ntagida turgan nosvoyxaltangning qay cho'ntagingda turganin bilmay hammaga baqirding. O'tirgan-yotgan ko'rpa-to'shaklarni ag'dar-to'ntar qilib qarab chiqding. Hamma narsani qayerga qo'yganini unutib yuradigan odamni xalq nima deydi?

— Unutuvchan...[1]

— Ana, ko'rdingmi — unut-shaq. "Shaq" degan so'z bormi? Bor. Shundan so'ng achchig'ing chiqib nabiralaringga baqirib tashlading. Shu odating qayta-qayta takrorlanaversa nima deymiz?

[1] Qoraqalpoqchada "unutshaq" deyiladi (so'z o'yini qilinyapti).

— Jahldor — ya'ni achuvchoq...[1]

— Achuvshaq. Bundayam shox bormi? Bor. Xo'sh, anovi bir kuni, bizning Jetpisboy og'amning kampirining janozasi kuni, pul topolmay qolib, sendan so'ragan edim, sen puling bo'la turib bermaganding. Bu odatni nima deymiz?

— Qo'ysangchi, jo'ra. O'sha paytda yonimda pulim yo'q edi. Bo'lganida, nima, sendan qizg'anarmidim?

— Lekin, shunaqa ahvol ro'y berib qolsa, puli bo'la turib qizg'ansa, shunday odamni nima deymiz?

— Qizg'anshaq[2].

Bu safar uyalganimdan tovushim zo'rg'a chiqdi.

— Bu uchinchi shox. Bildingmi?

— Shunda to'rtinchi shox qanday bo'ladi?

Savol berdim-u, o'ylanib qoldim. U yana mening o'zimdan misol keltirib, uyaladigan voqeani aytib tashlasa nima bo'ladi deb, betiga qarayolmay kelayapman.

— To'rtinchi shox qanday bo'ladi deysanmi? Uyam boshqa shoxlardan ko'p farq qilmaydi. Senga bir misol keltirib o'tayin. Avvalgi kun bizning uyga mehmon kelgan edi. Birga hangomalashib o'tirding.

— To'g'ri, bor edim.

— O'shanda sen mehmonlarning kayfiyatini ko'tarish o'rniga, bo'lmag'ur gaplarni, allaqayoqdagi narsalarni aytib maqtanganlaringni eslaysanmi?

— Nima deb maqtanibman?

— Esingda yo'qmi, ikkovimizning bir paytlar baliq ovlaganimizni aytib maqtanding. Men ham o'zingga o'xshab qartayganim bilan, hali anov-manov narsani unutaveradiganlardan emasman. O'sha voqeani ham ap-aniq eslayman. Ikkovimiz "Qattioqar" kanalidan baliq ushlaganmiz. O'shanda sen besh-olti kilo chiqquday laqqani sanchqi bilan sanchib olib, "vah-ho-hoo"lab, yugurib, qiyqirib uyinggacha ko'tarib borgansan. Sen shu voqeani meh-

---

[1] **Achuvchan, ashuvshaq** — qoraqalpoqlarda tez achchiqlanadigan odamni "ashuvshan", "ashuvshaq" deyiladi.

[2] Qizg'anchiq, qizg'anchoq.

monlarga aytayotib laqqa baliqning og'irligini ellik-oltmish kiloga chiqarib yubordingiz, otda ko'tarib keldik, deb lof urding. O'zi keyingi paytlarda sen qo'shib gapiradigan, lofini keltiradigan bo'lib qolding. Xohlaysanmi, bir-ikkita misollar aytaman.

— Keragi yo'q.

— Nega keragi yo'q ekan. Senga to'rtinchi shoxning kelib chiqishi haqida tushunik (izoh) berishim kerak-ku.

— Tushundim. Maqtan-shaq.

— Ana, ko'rdingmi? "Mening shoxim yo'q, menga shox chiqib, nima, men ho'kizmanmi?" deb o'pkalaysan. Xalqning so'zlari bular. Men faqat senga tushunarli bo'lsin deb, o'zingdan misollar keltirdim xolos. Qani, aytib-sanab chiq-chi: Umit-shaq (unutib qo'yuvchi)... Ashuvshaq (tez achchiqlanadigan)... Qizg'anshaq... Maqtanshaq... O'zingga ko'rinmasayam, boshqalarning ko'ziga harrayib-hurpayib ko'rinadigan temir muyiz — to'rtta shox-da bular.

— Shunda men rostdan ham to'rtta shoxi bor odammanmi?

Manglayimdan oqayotgan terni supurdim. Bu harakatlarim ham manglayimdan ko'ra harrayib ko'rinadigan shoxlarni tekshirib ko'radigan odamning harakatlariga o'xshardi. O'tamishning esa men qanchalar izza bo'lib kelayotganimdan xabari yo'q, tinglayotgan quloq borligi uchunmi, hamon ko'pirib o'zinikini ma'qullab kelayapti.

— Yosh paytlarimizda nimaning nimaligini bilmay, unchalik e'tibor beravermas ekanmiz. Odam yoshiga qarab, mulohaza qilib ko'rmaydi, yuraveradi o'ynab-kulib. Yuqorida men aytib o'tgan "shox"lar kuch-quvvat ketgandan so'ng, yosh ellikdan o'tib, oltmishga taqalib borgandan so'ng, faqat tilga-jag'ga suyanadigan bo'lib qolganingdan so'ng paydo bo'ladi. O'zimiz ko'rar ko'zlarga yaxshi, xushxulq, chin inson bo'lib ko'ringanimiz bilan, o'sha shoxlarning turtkisi tufayli paydo bo'ladigan malollar hech kimga yoqmaydi, albatta, lekin shu taxlit o'zimizni o'zimiz boshqalarga yomon ko'rsatib qo'yamiz. "Unutshaq" bo'lsak — eng zarur narsalarni unutamiz, topolmay ovora bo'lamiz. "Ashuvshaq" bo'lsak — holimizga qaramay, kim birov "ha" desa, "ma!" deb, musht

ko‘tarib yurishdan ham toymaymiz. “Qizg‘anshaq” bo‘lsak — hamma narsani bag‘rimizga bosib, xalqni, odamlarni o‘ylamaydigan, so‘ksanaydigan xasisga aylanamiz. “Maqtanshaq” bo‘lsak, gapimizni “biz” deb boshlab, faqat o‘zining qilganlarini maqtayverib, o‘zgalarning kulgi-mazoqiga qoladigan ezma chollarga aylanamiz...

Men esa O‘tamishning shundan keyingi gaplari qulog‘imga kirmay, o‘z xayolim bilan o‘zim band bo‘lib, o‘sha “shox”lardan qanday qilib qutulish yo‘llari haqida o‘ylab ketdim.

Murodboy NIZANOV,
Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi

HAVO KEMASIDAGI IKKOVLON

Qissa

Kuz fasli bo'lsa ham charaqlab chiqqan quyosh tushda havoni isitib yuboradi. Bunday paytda quyosh yozdagidan ham kuchliroq qizdiradi. Odamlar qanaqa kiyinishni bilmay, boshlari qotadi. Ko'ylakchang yursang, kuzgi ob-u havoga ishonch yo'q. Ertalab kun charaqlab tursa, choshgohda osmon chelaklab yomg'ir quyib berishi mumkin. Shuning uchun yosh ulug'roq kishilar terlab ketsalar ham kastum va qalpoq kiyib olishgan. Yoshlar esa, o'z bilganlaridan qolmay, bu paytda ko'ylakchang bo'lib ko'chaga chiqishgan yoki bo'lmasa, yupqa pidjaklarining yoqasidagi ilgagidan barmog'ini o'tkazib, ust kiyimni kiymay, yelkasiga tashlab yurishibdi.

Nurjamol samolyotga chiqib, o'rindiqqa o'tirganidan so'ng sumkasining bog'ichlari orasiga tashlab qo'yilgan yengilgina nimchani olib, egniga kiydi. Havo kemasining ichi salqin edi. Konditsionerning quloqqa ozor bermaydigan gurullashi sekin eshitilib turibdi.

Nurjamol uyali telefonini qo'liga olib, soatni ko'rsatuvchi raqamlariga qaradi. Parvoz belgilangan vaqtdan biroz kechikmoqda. Biroq samolyot hali o'rnidan jilgani yo'q. Trap yig'ilgan emas. O'zi odam bolasi hamisha shoshilib yuradi. Uydan chiqqanidan so'ng aeroportga yetgunicha shoshiladi, yetib kelganidan so'ng samolyotga chiqquncha, havo kemasining bortiga ko'tarilganidan so'ng "ucha qolmaydimi, endi" deb iluminatordan tashqariga qaray-qaray qistalang qiladi. Aslida Nurjamolning unchalik shoshilinch ishi yo'q. Kechgacha manzilga yetib borsa bo'ldi. Shunday bo'lsa ham samolyotning tezroq uchgani yaxshi-da.

U iluminator oynasidan pastga qaradi. Trap hamon samolyotning biqiniga tiralgancha turibdi.

Uzoqroqda aeroport xodimi orqasidan entikib yugurib kelayotgan yirik gavdali bir ayol ko'rindi. Uning samolyotga zo'rg'a ulgurib kelayotgani hovliqqanidan sezilib turibdi.

Stuardessa qiz kechikkan yo'lovchi ayolni ergashtirib kelib, to'ppa-to'g'ri yettinchi qatorga, Nurjamolning yoniga o'tirg'izdi.

— Uhh, uchib ketishingizga sal qoldi-ya, — dedi ayol hansirab. — Sog'-omon yuribsanmi, qarog'im?

Nurjamol u so'rashganidan so'ng o'zidan yoshi katta ayolga birinchi bo'lib salom bermaganiga xijolat bo'ldi. Lekin ayol bu holatga e'tibor ham bermadi.

— "Nimjon o'rdak burun uchadi" deganlaridek, uyimdan ancha vaqtli chiqqandim, yo'lda taksining balloni yorilib qoldi, buning ustiga mashinaning zaxira g'ildiragi ham yo'q ekan. "Qirq kunligini o'ylamagan xotindan bez, qirq yilligini o'ylamagan erkakdan bez" deb to'ng'illab-to'ng'illab tushib ketdim. Haydovchi menga olayib qaraydi, menga qaraguncha mashinangni sozlab hayda!

— Opa, sumkangizni yuqoridagi tokchaga qo'yaylikmi? — dedi Nurjamol unga.

— Qo'y, singlim, turaversin. Kambag'alning moli ko'z o'ngida turmasa, barakasi qochadi. O'ziyam mana bu o'rindiqni ham mening gavdamga va sumkamga moslab o'rnatishgan ekan. Yoki oynadan mening kelbatimni ko'rib, o'tirg'ichni biroz kengaytirdingmi?

Nurjamol kulib yubordi.

— Avval bunday samolyotda uchib ko'rmaganmidingiz?

— Voy, singlimov, qayoqda deysan. Biz tong otsa dalaga qarab uchamiz. Qosh qorayganda uyga qarab uchamiz. Yerda uchamiz biz. Uchoqqa minmaganimga ko'p zamon bo'ldi.

Samolyot osmonga ko'tarildi.

— Nimaga minmaganimga ko'p zamon bo'ldi, dedingiz? — hali chala eshitgan gapini qaytadan so'radi.

— Uchoqqa!

Nurjamol piq etib kuldi.

— Ha, nimaga kulding?!

— Bu so'zni avval eshitmagan ekanman.

— Yoshsan-da, qarog'im! Bizning ota-bobolarimiz gapga usta bo'lishgan. Samolyotni uchoq, poyezdni otasharava, velosipedni shaytonarava deyishgan... Mana, faqat sen bilan men qolganmiz laqab qo'yilmagan.

Ayol ochiq chehrali, gapdongina xotin ekan. Nurjamol uning teskarisi edi. Gap so'rasang, javob berar, so'ramasang, xayol surib o'tiraveradiganlar xilidan edi. Shuning uchun ham notanish ayol bilan osh-qatiq bo'lib ketavermadi. O'rtaga sukunat cho'kdi. Bu paytda samolyot osmon-u falakka ko'tarilib bo'lgan, fazoda bir tekis uchishda davom etar edi. U uchib borayaptimi yoki bir joyda muallaq turibdimi, xullas, qilt etmas, faqatgina matorning "ing-ing-ing" degan ovozi quloqqa chalinadi.

— Anavi bulutlarga qara, — dedi ayol Nurjamolning oldiga gavdasini tashlab, oynadan pastga qarayotib. — Xirmon joyga yoyib qo'yilgan paxtaning xuddi o'zi-ya?

Nurjamol indamadi.

— Kuzda paxtani yoyib quritishganini ko'rganmisan?

— Iim! — Nurjamol yo'q degandek.

— Voyvo-yey! Shaharda o'sgandirsan-da?

Nurjamol ma'qullab bosh irg'idi.

— Shaharda o'sgan qizlarga juda rahmim keladi. Tabiatning mo'jizasidan bebahra qoladi ular. Kuz bo'lsa biz mazza qilib yayraydigan joy — yoyilgan paxtaning ustida o'ynash edi. Onang qavib bergan par to'shak ham unday yumshoq bo'lmaydi. Birbirimizga paxta otib o'ynaymiz. O'zimizni paxtaga ko'mib yashirinamiz. Omborchi bizni yolg'ondakam koyib quvadi. U quvlagan sayin "tu-tu" desang, aylanib kelaveradigan shayton tovuqday ko'p uzoqlab ketmaymiz-da yana paxtaga yumalaymiz. Qalay, ko'z oldingga keltirdingmi?

Nurjamol ko'ngil uchun miyiq tortdi. Ayol borgan sari zavqlanar, o'qtin-o'qtin samolyot oynagidan pastga — boshi-keti yo'q oppoq bulutlarga ko'z tashlab qo'yar edi.

— O'shanda shumtaka bolalar ustimizga bor bo'yi bilan o'zlarini tashlab yuborishardi. Bilmayman, mushtdekkina bo'lib bunday qiliqni qayoqdan o'rganishgan ekan. Keyin o'kirib yig'lab yuborishardi.

— Ha, nega yig'lashardi? — dedi Nurjamol hayron bo'lib.

— Hov, qayta-qayta pand yeyaveramizmi, bir-ikki marta shunaqa qilishaverganidan keyin paxtaning orasiga kosaday-kosaday kesaklarni yashirib qo'yardik. O'zlarini ustimizga tashlab yiqilishgan paytda qochib qolamiz. O'shanda kesak ko'kragiga botadi-da. Keyin qorovul bizlarni rostakamiga quvardi. Ana shunda ketmasang bo'lmaydi. Uradi.

— Oting kim? — dedi ayol ro'yxushlik beravermaganidan keyin bolaligini eslashni bas qilib.

— Nurjamol.

— Vohhaa! Ota-onang "jamolingdan nur yog'ilib tursin" deb ismingni shunday qo'ygan ekan-da!

— Sizning otingiz kim?

— Shahzoda!

— Sizning ismingizni nimaga qiyoslab qo'yishgan ekan?

— Nimaga qiyoslashar edi. "Qizlarning podshosi bo'lsin, kissasi pulga to'lib yursin" deb niyat qilishgan-da!

Nurjamol kulib yubordi.

— So'zingiz tilingizning uchida turar ekan, opa. Gapirmaydigan odamni ham gapirtirib yuborasiz ekan.

— Bizning xo'jayinning gapini aytding-yey. "Seni morgga kirgizib yuborsa, bir-ikkita marhumni tiriltirib, orqangdan ergashtirib chiqasan", deydi menga.

Stuardessa qiz sharbat ulasha boshladi.

Fanta, kola, sprayt...

— Kagor ichasanmi yoki oqidan ko'rasanmi? — dedi Shahzoda stakanlarga qo'l uzatib.

— Menga sarig'idan bera qoling, — dedi Nurjamol.

— Oh-oh-oh! — Shahzoda stakan to'la fantani burniga tutib iskab ko'rib, Nurjamolga uzatdi. — Gazi bijillab sachrab turibdi. Bir simirib, bo'shatib qo'y!

O'zi spraytdan birini, koladan birini oldi. Ikki qo'lida ikki stakan ushlagan haybatli ayol Nurjamolga juda kulgili ko'rinib ketdi. Lekin o'zini tutib o'tirdi, kulmadi. Baribir buni Shahzoda sezdi.

— Shuncha gavdaga bir qultim suv nima bo'ladi, bo'ynimizgacha chiqsa, to'larmiz-da! — deb Nurjamolga ko'z qirini tashladi-da, spraytni simirib yubordi.

Shu payt samolyot birdan pastlab ketdi. Shahzoda o'rnidan turib ketayozdi. Qo'lidagi ikkinchi stakandagi sharbat sal chayqalib, tizzasiga tomdi.

— Ko'ziga qarab haydasa bo'lmaydimi, yuragim oshqozonimning ichiga kirib ketayin dedi-ya! — deb to'ng'illadi u o'zini o'nglab olib.

— Osmon ham o'ydim-chuqur bo'ladi, opa!

— Shuning uchun tekis joyni mo'ljallab haydash kerak.

— Turmushga chiqqanmisan? — dedi bir mahal Shahzoda tuyadan po'stin tashlaganday.

— Yo'q, — deb Nurjamol yuzaki jilmaydi.

— Ha?! Nima qilib yuribsan?!

— O'zim yuribman!

— Dunyoning qizig'idan bebahra qolgan ekansan-ku!

— Dunyoning qizig'i faqat shundami?

— Ha-da!!! — Shahzoda hech nimaning farqiga bormaydigan odam bilan gaplashayotganidan norozi bo'lgandek teskari qaradi. So'ng yana Nurjamolga burildi. — Kuyov degani... bilasanmi qanday...? Eh! Qovun yeb ko'rmagan odamga gurvakning mazasini maqtagandek bo'ladi-da!

Nurjamol indamay oynadan pastda to'da-to'da bo'lib suzib o'tayotgan oppoq bulutlarga hissiz tikilib o'tirdi. Birozdan so'ng Shahzoda uni tirsagi bilan turtdi.

Nurjamol nigohlarini oynadan oldi.

— Xafa bo'ldingmi? — dedi ayol tabassum qilib. — Mening og'zim yomon o'zi. Ko'pincha tilimdan pand yeb yuraman.

— Yo'q, xafa bo'lmadim! — dedi Nurjamol chehrasi yorishib. — Unday asov toychoqlik davridan o'tdik-ku, axir!

— No'xta solindi, desang-chi! — Shahzoda uni gapidan ilib oldi.

— Iih! — deb Nurjamol boshini chayqadi.

— Unda o'zim senga no'xta soldiraman! Avval solingan no'xta ham bo'laveradimi yoki tutilmagan, yangi no'xta kerakmi?

Nurjamol chiday olmay, kulib yubordi.

— Bilmayman, opa! Bilmayman. Unaqa narsaga tushunmayman!

— Ha, tushunmaysan-a! Ichingda jon-jon deb turibsan-ku. Har qalay, yanga bo'lib borsam, uyaltirmaysanmi?

— Avvalo, Xudo poshsho.

— Shu gaping kerak bizga.

Agar boshqa birov bunaqa qilib tavbasiga tayab so'rayverganida Nurjamolning allaqachon jahli chiqib ketgan bo'lardi. Biroq Shahzodaga achchiq qilmadi. Unga jahl qilish bir pul ekanini sezdi. U boshqa ayollarga o'xshamas, qanaqadir dovdirroqmi, orqasi bormi, xullas ro'para kelganingda bir yo'la "tiqini ochilib" ketadigan qizmi yoki o'jar xotinmi ekanini tushundi. Tushungani uchun uning gaplariga e'tiroz bildirmadi. Qaytanga asta-sekin uning shu fe'li Nurjamolga yoqa boshladi.

Endi Nurjamol o'zini Shahzodaga yaqin tutgisi keldi. Ochilib suhbatlashishni xohladi. Uning har bir gapi hammaning ham ko'nglida bor, lekin boshqalar ochiqchasiga aytavermaydigan, dangal, dag'al bo'lsa ham to'g'ri gaplar edi.

— Borganingdan so'ng qayoqqa qarab yurasan? — dedi Shahzoda o'zining sho'x qiliqlarini biroz yig'ishtirib. — Toshkentni unchalik yaxshi bilmayman. Yo'limiz bir bo'lsa, hamroh bo'larmiz.

— Sanatoriyaga, — dedi Nurjamol.

— Sanatoriyagaa?! — Shahzoda birdan sevinib ketdi. — Aytdim-ku, men o'zi omadi kelgan xotinman-da. Nukusda samolyotni uchirmay qo'yganimdan bilmadingmi.

— Siz ham sanatoriyagami?

— Ha-da!

— Qaysi?

Shahzoda sanatoriyaning otini aytdi.

— Unda hamroh bo'larkanmiz.

Shahzodaning ko'ngli joyiga tushdi. Ertalabdan buyon alag'da bo'layotgani bosildi.

— Avval o'sha sanatoriyada bo'lganmisiz, yaxshimikin? — dedi. — Ovqati qanday ekan? Tomoq qurg'ur uncha-muncha ovqat-

ga qanoat qilmaydi. Bilasan-ku traktorning ham kattasi solyarkani bochkalab ichadi.

— Avval qaysi sanatoriyaga borgan edingiz?

— Voy, singlimay, bizga sanatoriyaga yo'l bo'lsin! Bizning sanatoriya "Idora", "Partiya kengashi"... Uy... Og'ilxona...

Nurjamol noiloj jilmaydi.

— Biroq, yolg'on bo'lmasin, maktabni bitirgan yili opam bilan pochchamga ergashib, Kislovodskiyga borganman. O'shanda samolyotda issiq ovqat berishganiga hayron bo'lganman. Tushayotganimizda ko'zlarim bilan oshxonani izladim, biroq qayerda ekanini topolmadim.

— Baribir borib ko'rgan ekansiz-ku.

— Ha. Senday... — Shahzoda yana sherigining turmush qurmaganiga ishora qilib bir gap aytmoqchi edi, Nurjamolning qovoq chimirganini sezib, tilini tiydi.

— Tarozining miliday sal narsaga o'zgarar ekansan, singlim?! — dedi birpasdan so'ng. — Necha yoshdasan o'zi?

— Nechaga kirganga o'xshayman? — dedi Nurjamol kulimsirab.

— O'zing aytaversang-chi, qarog'im! Mening xotinlarni o'lchaydigan sinchiligim yo'q. Erkak bo'lganingda seni hayron qoldirib, aytar edim nechaga chiqqaningni.

Nurjamol indamay bir necha daqiqa sukutga cho'mdi.

— O'ttiz to'qqizdaman, — dedi so'ng.

Shahzoda daf'atan hayron bo'ldi.

— Rostdanmi?!

— Rostdan.

— Yo'g'-ey?! Hali tol novdasidaysan-ku. Mana, meni aytsa bo'ladi o'ttiz to'qqizda deb. Ajabo! Kun bo'yi "qarog'im, chirog'im, singlim" deb o'zimni kampir sanab o'tirsam, tengdoshim ekansan-ku.

Hayratlanish navbati Nurjamolga o'tdi.

— Siz-a?! Siz ham o'ttiz to'qqizdasizmi?

— Qari ko'rinaman-a? — Tinmay bulbulgo'yoday sho'x sayrab kelayotgan Shahzoda birdan shalvirab qoldi. — Ovulni bila-

san-ku, non yopaman, sigir sog'aman, kir yuvaman, bola tug'aman. Ana shulardan ortsam, erning minnati...

— Yo'q, men sizni u darajada yoshi kattasiz deb o'ylayotganim yo'q! — dedi Nurjamol xijolat chekib. — Sizning sho'x-shaddodligingiz...

— Fe'l boshqa, chiroy boshqa. Og'ang chiroyimga qarab bilgan ekan-ku charchab yurganimni. Shuning uchun "Mening o'rnimga sen dam olib kelaqol" degan, achinib.

— Yo'llanma xo'jayiningizniki edimi?

— Ha-da! Dalada kesakka to'qishib, oyog'i chalkashib yurgan mendek faqirga yo'llanma qayda. Ustoz va murabbiylar bayramida shu yo'llanmani unga mukofotga berishgan ekan. Hozir ularni gijinglab o'ynab yuradigan payti emas. Tushgacha o'qish, tushdan keyin paxta...

— Og'a yaxshi odam ekan, — dedi Nurjamol. U haligi yosh surishtiruvdan so'ng Shahzodani avvalgi sho'xligiga qaytara olmay ovvora edi.

— Menga solishtirganda-ya? — dedi Shahzoda zaharxanda kulib.

— Uhh! Qo'ysang-chi endi!

— Hazillashib aytayapman, dugona. Yomon odam bo'lganida tegarmidim. Voy, suratini olib chiqsam bo'lar ekan. Ko'rsang, yoqtirib qolasan. Suqsurday. Ertalab ishga ketayotganida orqasidan qarab turaman. O'zimning erim ekani esimdan chiqib, yaxshi ko'rib qolaman uni.

Ikkalasi miriqib kulishdi. Tovushlari balandroq chiqib ketdi shekilli, yon atrofdagi odamlarga hadiksirab qarab qo'yishdi. Bularning nima haqda so'zlashayotganlari bilan hech kimning ishi yo'q edi.

— Voybo'yy, Toshkent deganlari ham juda katta shahar ekanyey! Bu yerga biznikiga o'xshagan o'nta Chimboy joylashib ketadiyov?! — dedi Shahzoda oynaga intilib.

Nurjamol avvallari samolyotda uchganida vaqtni o'tkazolmay qiynalar edi. Bugungi yangi tanishgan hamrohi yo'lni ikki-uch barobarga qisqartirdi. Birdan samolyotning g'ildiragi yerga "dirr" etib tekkani sezildi.

2

Ular taksida ancha joygacha jimjit ketishdi. Nurjamolning nazarida samolyotdagi Shahzoda boshqacha, taksidagi Shahzoda boshqacharoq edi. Ko'rinishidan og'ir, bosiq ayolga o'xshab qolgan.

— Shahzoda, — dedi allaqancha vaqtdan keyin Nurjamol unga qarab, — o'zingga o'xshamay qolding-ku?

— Og'zimda tolqonim bor, — dedi Shahzoda uning nimani nazarda tutganini tushunib.

— Yutib yubor.

— Avvalgi mashinaning shofyori o'rindiqdan bir chaqirim olisda edi, bunisiniki iyagimizning tagida o'tiribdi. O'tgan-ketgandan lof uraversam...

— Gapiravering, men eshitmayman, — deb kuldi haydovchi.

— Ana, ko'rdingmi? Eshitmagani shu bo'lsa... — So'ng haydovchiga qarab gap otdi. — Qoraqalpoqning yigitlari dangal, qizlari gapga chechan bo'ladi. Ayb qilmaysiz-da endi?

— Yo'g'-ey, nima deyapsiz. Men institutda qoraqalpoq qizlari bilan o'qiganman.

— Institutda o'qiganmisiz?

— Ha-da.

— Unda nega kirakashlik qilib yuribsiz?

— Tirikchilik.

— Siz bilan o'qigan qizlar qanaqa edi?

— Nima desam ekan... Uyatchan, kam gap... Ammo kezi kelganda bir gap bilan yopishtirib tashlar edi.

— Shundan qo'rqqaningiz uchun bizga jezda bo'la olmabsiz-da?

— Nima, nima?!

— Pochcha bo'la olmabsiz-da, deyapman.

— Ha-ha, bu armon bo'lib qolgan. Lekin niyat yo'q emas.

Nurjamol Shahzodaning tizzasiga mushti bilan turtib kuldi.

— Aytdim-ku, senimi, shoshmay tur, — Shahzoda Nurjamolni chimchib oldi.— Gap bilan qitig'ingni o'ldirib olaman, deb...

Haydovchi hazilni davom ettirishga haddi sig'madi. Suhbatlashgisi keldi-yu, biroq ayollarning kulgidan tezda tiyilishganini ko'rib, gap otishga botinolmadi.

— Borganimizdan so'ng ikkovimiz bir xonaga joylashamizmi? — dedi Shahzoda. — Begona hamxona bilan tanishib, so'rashib o'tirmaymiz...

U samolyotda choygundek qaynab kelgani bilan ilgari ko'rmagan sanatoriyaga qandaydir noma'lum ovulga borib qoladiganday yotsirab borayotgan edi.

— Buning iloji yo'q bo'lsa kerak, — dedi Nurjamol uning umidini chippakka chiqarib.

— Ha, nega?

— Mening joyim bir kishilik. Avvaldan band qilib qo'yilgan.

— Bir kishi sig'gan joyga ikki kishi ham sig'adi, ikkalamiz yotaveramiz-da.

— Bir-birimizga yelkamizni o'giribmi? — deb kuldi Nurjamol.

— Yo'q, yuzimizni yuzimizga qaratib, quchoqlashib yotamiz-da.

— Opalar, keldik, — dedi haydovchi darvozaning ro'parasida to'xtab.

— Nima deydi bu?! — Shahzoda birdan cho'chib tushdi. — Biz hali opa bo'lib qoldikmi? Kampirga o'xshaymizmi?

— Yo'q-yo'q, nimalar deyapsiz? Sizlarga hurmat yuzasidan shunday gapirayapman.

— Shunaqa deng! Meni-ku qo'yavering, mana bu turmushga chiqmagan dugonamning ko'ngli cho'kib ketdi-ku.

— Radiodan e'lon qilishing qoldi, — zaharxanda jilmaydi Nurjamol.

— Nimani?

— Mening turmushga chiqmaganimni.

Ikkalasini yo'llanma bo'yicha sanatoriyaga qabul qilinishiga yarim soatlarcha vaqt ketdi. So'ng bir-birlariga "xo'p, hozircha xayr" deyishib, ikkisi boshqa-boshqa binoga qarab yurishdi. Shu bo'yicha kechki ovqat vaqtida uchrashishdi. Nasibasi tortib, yana bir stolga o'tirishdi. To'rt kishiga mo'ljallangan stolga ikki kishiga loyiq piyola va qoshiqlar qo'yilgandi.

— Hujjatlarni rasmiylashtirayotganimizda pasportingga qaramabman-da, — dedi Shahzoda bir narsani esidan chiqargandek to'satdan sergaklanib.

— Nimaga edi?

— Sen meni samolyotda aldamaganmiding?

— Nima deb?

— Kim aytadi seni men bilan tengdosh deb, qaddi-qomatingga qara, beling ingichkaligidan sinib ketgudek bo'lib turibdi, peshonangdan qovog'ingga to'kilib turgan sochlaring o'n olti-o'n yetti yashar qizlarnikiga o'xshaydi.

— Gapniyam rosa opqochasan-da. Yigirma olti-yigirma yetti yashar desang-chi hech bo'lmasa, — deb kuldi Nurjamol.

— Yo'q, rost aytayapman. Yuzaki maqtab, senga xushomad qilay deb o'lib turibmanmi? Yuzingni sut bilan yuvib, qaymoq surtib qo'ygandek. Labingdan bir bo'sa olgan yigit bir oy o'ziga kelolmay yuradi.

— Qo'ysang-chi, shoirmisan yo musavvirmi?

— Adabiyotchining xotiniman, erimdan yuqqan.

— Ammo siz ham samolyotdagi Shahzodaga o'xshamaysiz.

— Taksidagi Shahzodaga o'xshaymanmi?

— Yo'q, unga ham o'xshamaysiz.

— Gapingga qaraganda, men buqalamun bo'lib qoldim-ku.

Ikkalasi birdaniga kulib yuborishdi.

— Rostini aytsam, ochilib ketibsiz. Miriqib dam olganingiz yuzlaringizdan bilinib turibdi.

— Seni qara-yu... Shunaqa degin. Shu tobda bizning Baxtiyor ko'rganidami meni, nima qilardi, bilasanmi?

— Nima qilar edi?

— Quchoqlab olar edi.

— Haliyam uni sevasizmi?

— Ha, muhabbat degani yillar o'tgan sayin totli bo'lib boradi-ku...

Nurjamol ko'zi bilan orqadagi o'rindiqlar tomonga ishora qildi. Shahzoda sal o'girilib qaragan edi, orqalarida o'tirgan to'rt kishining birovi bularning gapini qiziqib tinglab o'tirganini sezdi.

—O‘li-yey, Shahzoda! — “uyat” degandek ko‘rsatkich barmog‘i bilan yuzini chizdi.—Ovqatingni tez-tez yeb ol. Tashqarida gaplashaylik. Begonalar og‘zimizni poylab o‘tirishib...

Ular tashqariga chiqishdi, u yoqqa-bu yoqqa qarab, qulay joy izlashdi. Biroq bemalol so‘zlashib o‘tirgudek o‘rin topisholmadi. Barvaqtroq ovqatlanib bo‘lganlar barcha skameykalarni allaqachon band qilishgan edi. Ular noiloj yo‘lak bo‘ylab odimlashdi.

— Mening yonimda bir o‘ris kampir bor ekan, — dedi Shahzoda arzi hol qilib. — Xudodan tilab kelayotgandim, iloyo, yonimda hech kim bo‘lmasin yoki bo‘lsayam zeriktirmaydigan ayol bo‘lsin deb. “Tilaganga uchig‘i bilan puchug‘ini beradi” deganlari rost ekan. Baxtga qarshi menga bir garang kampir hamxona bo‘lganini ko‘rmaysanmi. Bor bisotimdagi ruscha so‘zlarni qo‘shib-chatib gapirsam, “A-a? Che govorish?” deydi-ya kuydirib.

Oxiri ters o‘girildim-da ko‘rpaga o‘ranib, uxlab qoldim. Bir qarasam, qop-qora terga botib yotibman.“Onangni otangga bepardoz ko‘rsatma” deganlaridek kechki ovqatga qizdek qilpanglab borayin deya rappa raso bir soat vannada o‘tirdim.

— Samolyotdagi Shahzodaga o‘xshamaysan deganimda mana shu turishingni nazarda tutgandim-da, axir. Yur, mening xonamga boraylik. Ko‘zguga qarab, o‘zingga o‘zing mahliyo bo‘larmikinsan?!

Ular Nurjamolning xonasiga kirishdi.

— Voybo‘yy!— deb Shahzoda bo‘sag‘adayoq angrayib qoldi. Mana shularning bari senikimi?

— Ko‘pmi?

— Xonning malikasi bo‘libsan-ku! Manavi divanda bir emas, to‘rt kishi yumalab-o‘ynab yotsa bo‘lar ekan.

Keyin divanning bir chetiga o‘tirib, yumshoq o‘rinda tebranib, uchib-qo‘nib huzur qildi.

—Qattiqroq sikinsam, boshim shiftga tegib qaytadi-yey! — dedi kulib.

—Yotib ham ko‘rsang-chi! — Nurjamol uni ikki yelkasidan orqasiga qarab itarib yubordi. Shahzoda uzala tushib cho‘zildi. Oyoqlarining tizzasidan pasti yerga osilib qolgani uchun qiynalib qaddini tiklab o‘tirdi.

— Buni qayoqdan o'rgangansan? — dedi mug'ambirona kulib.

— Nimani?

— Odamni chalqanchasiga yiqitishni.

— Tur yo'qol-ey! Sira ham ovulning sodda ayoliga o'xshamaysan. — "Tur yo'qol-ey!" degan so'z Nurjamolning og'zidan birinchi marta chiqishi edi. U bu so'zni har doim dugonalaridan eshitsa ham o'zi umuman aytmagandi. Shuning uchun Shahzodaning xafa qilib qo'ydim deb o'ylab, xijolat bo'ldi. Biroq xafa bo'lish Shahzodaning xayoliga ham kelmagan edi.

— Men ham shu xonaga ko'chib olsammikin? — dedi Shahzoda avvalgi gapini takrorlab. — Mana bu keng o'ringa ikkimiz bemalol sig'amiz-ku, axir. Bir-birimizning pinjimizga kirmay, orqayin ag'nab yotaveramiz.

— Ag'nab yotadigan hamrohim bugun-erta keladi-da.

— Hamrohing erkakmi, ayolmi?

Nurjamol o'zini bu gapni eshitmaganga soldi.

Ikkisi yotoqxonadan yumshoq oromkursilar qo'yilgan dam olish bo'lmasiga o'tishdi.

— To'xtamay, gapiraversang-chi! — dedi Nurjamol quvlik bilan.

— Nimani gapiraman? Nukusdan chiqqanimizdan buyon labim labimga tegmay, jag'irib kelayapman. Tegirmon navbati bilan, sen ham so'zla-da endi.

— Nimani so'zlayman? Menda gap yo'q.

— Nima, mening gap zavodim bormi?

— Gapiraversang-chi. Pochcha bilan qanday qo'shilganingni ayt. Men sendan tajriba o'rganayin.

— Ovulda yashaydigan qizning muhabbati bilan shaharlik qizning muhabbati bir-biriga to'g'ri kelmaydi-ku.

— Ovulda yashaydigan qizlarning muhabbati qanday bo'ladi?

— Ohh! — deb ko'zlarini shiftga qadab xayol surdi Shahzoda. — Oshiq G'arib bilan Shohsanam, Alpomish bilan Oybarchin sevgisi bizni ovulning hayotidan olingan-ku.

— Yo'g'-ey?!

— Himm!

— Sizning ovulingizdagi Oshiq G'arib kim edi?

— Seni es-u hushing G'aribda! Shohsanamni so'rasang-chi, Shohsanamni!

— Ana, so'radik?

— Bizning opachamiz Shohsanam edi.

— Uning G'aribi kim edi?

— Mana, ko'rayapsanmi, tiling aylanib G'aribga boraveradi. Axir, u bizning pochchamiz-da.

— Xo'sh?

— Nima xo'sh?

— Keyin nima bo'ldi? Tezroq aytsang-chi.

— Keyin nima bo'lganini kitobdan o'qi... Hazillashaman-da senga, shu zamonda G'arib bormi, Shohsanam bormi? Bugun tanishishadi, ertaga turmush qurishadi, indiniga bolali bo'lishadi.

— Baribir aytilmagan bir gap qoldi, shundoq tilingning uchida turibdi, — deb kuldi Nurjamol.

— Beshta bola tug'gan ayolning tilining uchida qanday gap qolar edi.

— O'zing-chi? O'zing ham Shohsanam bo'lmadingmi?

— Shohsanam bo'lish qayda? Bir ko'rgandayoq tegib oldim-da, qo'ydim.

— Xo'sh-xo'sh, undan keyin-chi?

Shahzoda kulib yubordi.

O'ch oladigan odamdek, menga yopishib oldinga, ta'qib qilishni bas qil.

— Senda ilohiy muhabbat tuyg'usini sezib turgandekman. Shuni eshitgim kelayapti.

— Yo'g'-yey, bizning muhabbat keyin uyg'ondi. Men "endi bo'y yetgan qiz bo'ldim, yigitlarga va'da bermay nooz etib yuraman" desam, allaqachon ikki xonadon bir-biriga qo'l berishib qo'yishgan ekan. Hali attestatimni ololmay yursam, eshigimizdan ikki yigit kelib turibdi.

— Bular kim bo'ldi? — dedim onamga.

— Seni so'rab kelishgan.

— Nima, men buyummidim?

— Qizim, qo'y shu kinoyalaringni. Undan ko'ra o'xshatib palov damlab ber. Qo'li shirin, pazanda ekan deb ketishsin.

Men palov emas, shavla pishirdim. Ha, issiqlay yeb, tanglayi kuyib qolsin dedim. O'zi kuyov deganini burundan sinash odati bormi, odamning belidan bir o'rab olishga yetadigan cho'zma kespas[1] pishirib qo'yishibdi. Ovqatini oldiga qo'yib, bir tomoshasini ko'rayin deb edim, yo'q, bu darajagacha yetib bormadi. Endi qaynayotgan qozonga guruchni solaman deb tursam, birov simanglab chiqib keldi. Bildim bu zang'ar kuyov bo'lmish edi. Tovoqni tashlay sola tomni aylanib qochdim-ku. Biroq muyulishga borib to'xtadim. Naryoqdan aylanay desam, og'am qovun polizni ketmonlab yuribdi.

— Shahzoda, men seni deb keldim, — dedi yigit.

Men og'zimga suv ho'plab olganday hech indamay turaverdim.

— Yulduzimiz yulduzimizga yarashsa, turmush qursak.

Men hamon tirnog'imning uchiga termilib turaveraman.

— Onamlar sizni juda maqtadi.

Menda sas yo'q.

— Xo'p desang, otamlar jovchi[2] yuboradi.

— "Jov" deganlari ruxsat so'rab kelarmikan? — dedim zo'rg'a so'z qotib.

Yigit quvonib ketdi. Bizning muhabbatimiz bor-yo'g'i shu. Ikki-uch oydan so'ng to'yimiz bo'ldi.

— O'qimadingmi?

— O'qish qayda, malikiyavmiddin qayda. Yumalatib qora yumaloqlarni etagimdan otib chiqarib tashlayverdim...

— Bas! Choy qo'yayin. So'zning oxirini bo'zib borayapsan, — deb Nurjamol o'rnidan turdi.

— Qaytgunimizga qadar seni o'zimdan nusxa ko'chirgandek qilmasammi, hali qarab tur! — deb sharaqlab kuldi Shahzoda.

Ikkalasi bor-u yo'g'ini dasturxonga qo'yib, choy ichishdi. Birovi qo'shnilari haqida gurung berdi, birovi ishxonasidagilar to'g'ri-

---

[1] **Kespas** — lag'mondek uzun xamirdan tayyorlangan qaraqalpoqcha taom. Qizlar qo'lini so'rab kelgan yigitga yeyish qiyin bo'lishi uchun uzun xamirdan ovqat pishirib, uni yashirincha kuzatib turishadi. Agar yigit kespasni yeyolmay og'zidan tushirib yuborsa, "bu yigit ro'zg'orni eplay olmaydigan, bo'sh va uquvsiz ekan" deb, qizlar rad jovobini berishadi.

[2] **Jovchi** — sovchi.

sida hangoma aytdi. Xullas, quyosh botmasdan choyga o'tirgan ikki ayol uyqusirab, esnay boshlaganlarida suhbatning quti qochganini anglashdi.

— Bo'ldi, endi men ketayin, — dedi Shahzoda o'rnidan turib. — Gapimizning "Boshi Maxtumquli, adog'i shiptirinqi" bo'lib boryapti.

— Biroq G'arib oshiqlar haqida gapirmading-da...

— Uni odatdagi gaplarga aralashtirib bo'lmaydi. Xudoning kuni ko'p.

Shahzoda ketganidan keyin Nurjamol choynak-piyolani yig'ishtirishni etalabga qoldirib, to'shakka cho'zildi. Lekin haligi esnashlar endi uni tark etgandek edi. U shirin xayollar og'ushida to'lg'anib, uzoq vaqtgacha uxlay olmay yotdi.

3

Nurjamol ancha kech uxlagan bo'lsa ham erta tongda uyg'ondi. Lekin undan ham erta turadiganlar bor ekan. Laboratoriyaga qon topshirishga beshinchi bo'lib navbatga turdi.

"Bu odamlar shu joyda yotib qolishganga o'xshaydilar" deb o'yladi ichida. Agar Shahzoda bo'lganida buni o'ylab o'tirmas, dilidagini shartta ularning betiga ochiqchasiga aytardi-qo'yardi.

Oshxonaga borganida o'ziga o'xshab qon topshirib kelganlarning har yer-har yerda kalning sochidek so'ppayishib o'tirishganini ko'rdi. O'zi ham o'shalarning biriga aylanib, kechagi joyiga kelib o'tirdi. Stolda Shahzoda ikkalasiga atalgan qoshiq-sanchqi, sariyog'lar qo'l urilmasdan turgan ekan. Demak, Shahzoda endi keladi.

Oshxona bekalari eshikdan kirgan odamni poylab turganday o'tirar-o'tirmasdan barkashda yarim kosa so'kgo'ja, ikkita qovurilgan sosiska bilan bir choynak choy keltirib qo'yishdi.

So'kgo'ja sal soviganroq, buning ustiga sutning ta'midan boshqa ishtaha ochadigan mazasi yo'q edi. Nurjamol avvaldan so'kdan pishirilgan go'jani yoqtirmas, bunday holatlarda sariyog' bilan nondan amallab nonushta qilar edi. Bu gal ham shunday qildi. Biroq ikkita sosiskani yedi.

U Shahzoda ketganidan keyin allamahalgacha uxlay olmadi. Shirin xayollar og'ushida entikdi. O'zi ko'rmagan va eshitmagan kishilarning "G'arib oshiqligi" uni qiziqtirmadi. O'z hayotining so'nggi yillaridagi o'zgarishlar xayolini band etdi. Muhabbatmi, havasmi, xullas, so'nggi paytlardagi uchrashuvlar lazzatli xotiraga aylandi.

... Ularning yoshi orasida biroz farq bor edi. Shunga qaramasdan u boshqa erkaklarga qaraganda yosh ko'rinar, yurish-turishi ko'rkam, xuddi yosh yigitlarga o'xshar edi. Sochlarida bir tola ham o'sgan soch bo'lmas, tevaraklari har kuni ertalab kuzalgandek tep-takis, shimining pichoqdek qirralari esa qora tuflisining uchi bilan to'ppa-to'g'ri kelib turar, ko'pincha egniga havo rangli ko'kish kastum kiyar edi. Xullas, uning e'tiborsiz kiyinganini hech qachon ko'rgan emas. Buning ustiga rahbar bo'lishiga qaramasdan kamtarin edi. "Sizga tushuntira oldimmi, imkoniyatingiz bo'lsa, mana shuni tezroq tayyorlab bersangiz", deb topshiriq berar, agarda yuzingizda sal so'lg'inlik sezsa: "Sog'ligingiz yaxshimi?", "Uy ichingiz tinchmi?" deb tug'ishganlaringizdan ham kuyinchaklik bilan g'amxo'rlik ko'rsatib so'rashar edi. Nurjamolga balki, shu tomonlari yoqdimi, xullas, beixtiyor uni o'ziga yaqin tuta boshladi.

Nurjamolning har qanday ilmiy masalalarni yaxshi tahlil qila olishi rahbarga yanada yaqinlashtirdi. Ko'pincha ish vaqti tugashiga yaqin shoshilinch yumush topshirar, shu ishning bitishi uchun kechqurun olib qolardi. Ko'nglida gumon tug'dirmaslik, eng asosiysi, ishxonada gap-so'z bo'lmasligi uchun uning yonidagi ikki-uch qizga ham topshiriq berib, uyga qaytayotganda ularni o'z mashinasida uy-uyiga olib borib qo'yar, Nurjamolni esa eng oxirida tushirar edi. O'shanday paytlarda Nurjamolning yuragi gupullab ketar, o'z-o'zidan qo'rqinch paydo bo'lar, to'satdan bilagidan ushlasa, butun vujudida titroq tuyadigandek vahima qilib o'tirardi. Biroq rahbari bunday qilmas, indamay mashinadan tushirar, uyiga kirib ketgunicha kutib turar edi. Shundan so'ng kun bo'yi qo'rqinch tug'yon urgan yuragini endi ko'ngilsizlik egallardi. "U nega indamadi? Nega erkakka o'xshab bir nima demadi?! Yoki men turqi sovuq, xunuk qizmanmi?" Shu kabi xayollar uni qiynar va xafa qilar edi. Tun bo'yi o'z rahbarining yomon taraflarini izlar, yoqimsiz qiliqlarini

o'ylab topgisi kelardi. Kelgusi safar ish topshirsa, ishni bajarmaslik va kech qolmaslikka o'zini ruhan tayyorlar edi. Lekin tongda bu o'ylarning barchasi suv yuzidagi ko'pikdek tarqab ketardi.

— Nurjamol, charchab qolmadingmi? Ministrlikdan birdan so'rab qolishdi, yo'qsa sizlarni bezovta qilish niyatim yo'q edi, — degan paytda tundagi xayollaridan o'zi uyalib ketardi.

Bora-bora ish vaqti tugashiga yaqin chiqib qoladigan ana shunday "shoshilinch topshiriq"larni kutib o'tirishga odatlandi. Topshiriq bo'lmagan kuni ishxonasida bir narsasini unutib qoldirganday orqasiga qaray-qaray uyiga qaytar edi. Xayolida rahbari oynadan qarab:

— Nurjamol, kechirasan, shoshilinch ish chiqib qoldi, uyingga o'zim eltib qo'yaman, — deb chaqirib qoladigandek.

Baxtga qarshi derazalar berkitilgan, konditsioner parragi qutticha ichida bir maromda aylanar edi.

Bunday holat deyarli bir yil davom etdi. Boshlig'i uni bir necha marta uyiga olib borib qo'ydi. Lekin hech ham qo'l tekkizmadi. Biroq bora-bora gap otishlar, xushomadlar paydo bo'ldi. Yonidagi qizlar uylarida tushib qolganlaridan keyin:

— Nurjamol, oldingi o'rindiqqa o'tib ol, — der edi rahbari.

Bu esa "ha, nega?" deb so'ramaydi. So'rashga botina olmaydi, uyaladi.

Oldinga o'tganidan keyin bilib-bilmay bir-biriga qo'llari tegib ketar, gohida tizzalari suykalishib qolar edi. Ikkisi ham hech narsani sezmaganday, bildirmas edi. Biroq Nurjamolning tomiridagi qon birdan muzday bo'lib miyasiga chiqib jimirlab ketadi. Oyoq uchidan sochining tolasigacha titrab ketadi. "Hozir bilagimdan ushlasa" deb o'ylab qo'rqadi. "O'shanda nima qilaman, nima qilishim kerak? Qo'lini itarib tashlayinmi? Yo'q, uyat bo'ladi. Asta-asta o'ziga tortsa, nima qilaman? Yo'q. Unaqa qilmaydi! Unaqa qilishga haqi yo'q. Qo'rqaman! Qo'rqaman erkak kishidan!"

Nurjamolning umidi puchga chiqadi. Rahbar hech narsa sezmaganday uni uyining oldiga mashinadan tushirib ketadi. Nurjamolning ko'ngli yana xira bo'ladi. Yangasining suzib bergan ovqati yana dasturxonda qoladi.

Rahbar uni shunday ko'niktirdi. Sabr kosasini to'ldirib yubordi. Endi nima gap aytsa ham "yo'q" deb e'tiroz bildirmaydigan darajaga yetkazdi. Buni Nurjamol ham sezdi. Biroq o'z ixtiyoriga ham qarshilik ko'rsatolmasdi. U rahbarni yaxshi ko'rib qoldi. Sevib qoldi uni. Shu tufayli uning yoshi o'zidan ancha katta ekanini ham, oilasi, bola-chaqasi borligini ham umuman o'ylamasdi. Qiz uchun dunyodagi yagona erkak o'sha edi. Bu dunyoda boshqa erkak yo'q edi. U yakka-yu yolg'iz. U tanho. Faqat Nurjamolning muhabbati uchun yaratilgan.

Bir gal odatdagidek uyga qaytishayotganida u Nurjamolga yupqagina bir konvert uzatdi.

— Bu nima? — deb so'radi Nurjamol.

— Uyingga kirib ochganingda ko'rarsan, — dedi rahbar.

Nurjamol xonasiga kirib, shoshilmasdan konvertni ochdi. Unda kimgadir umidvor bo'lib boqib turgan sirli surat bor edi. Bu rahbarning surati edi. O'sha kuni Nurjamol tonggacha uxlay olmadi. Bir-birining izidan ketma-ket bostirib kelayotgan xayollar og'ushida qoldi...

Tongda oynaga qarasa qovoqlari shishib ketgan ekan. Bu holatda rahbarining ko'ziga ko'ringisi kelmadi. Tushgacha ishga bormadi.

— Ha, tobing qochdimi? — deb rahbari uni dahlizda kutib oldi.

— Yo'q, o'zim... — deya uyalib yerga qaradi.

Har kungidek unga salom ham berolmadi. Uyaldi. Bir varaq qog'oz ularning visol onlari vazifasini bajargan edi.

Ularning orasi asta-sekin tobora yaqinlasha boshladi. "Shoshilinch topshiriqlar" ham ko'payib ketdi. Bir kuni rahbar Nurjamollarning ko'chasining boshida mashinasini o'chirdi. Nurjamol indamadi. "Nega to'xtadingiz?" deb so'ramadiyam. Rahbarning bir qo'li uning yelkasidan quchdi. Nurjamol o'z-o'zidan dir-dir titrardi. A'zoyi badani qizib ketdi. Rahbar chap qo'lining barmoqlari bilan Nurjamolning yuzini o'ziga burdi. Nurjamol qarshilik ko'rsatolmadi. Qarshilik ko'rsatgisi ham kelmadi. Qaynoq lablar bir-biriga qovushdi. So'ng chirmashishlar, chirmashishlar, entikishlar...

— Bo'ldi, ketaylik! — dedi Nurjamol ancha vaqtdan keyin. So'ngra intilganida g'ijimlanib yig'ilib qolgan ko'ylagining

etaklarini to'g'riladi. Ularning ikkisi ham ishq lazzatidan mast edilar.

Oqshom Shahzoda uning xonasini tark etgandan keyin o'sha ilk bo'sani, so'ngra tez-tez davom etgan ishqiy uchrashuvlarni esladi.

Bir gal ular pinhona joyda uchrashishdi.

O'shanda bir-biriga chirmovuqdek chirmashib ketishlar eng oxirgi chegarani ham buzib o'tishiga oz qoldi. Biroq Nurjamol o'zini qattiq ushladi. Ixtiyorini butunlay berib qo'ymadi. Rahbar o'pkaladi. Chindan ham xafa bo'ldi. Tushkunlikka tushdi. Nurjamolning unga ichi achib, rahmi keldi. Go'yo yetim bolaga ozor yetkazgandek sezdi o'zini.

Lekin qiz bolalarga xos takabburligi ustun keldi. Rahbarni yoniga itarib tashlab, tashqariga qochdi. Biroq bo'sag'a hatlayotganida orqasiga qiyo boqib, nozli tabassum qildi.

Bu holatdan rahbarning yuzlari yashnab ketdi. Bir haftadan keyin mana shu sanatoriyaga yo'llanmani va samolyotda borish-kelish chiptasini Nurjamolning qo'liga tutdi.

— Nurjamol, sizni ko'p qiynab yubordim, borib dam olib keling, — dedi samimiyat bilan.

U buning "shudgorga tashlab qo'yilgan quyruq" ekanini bildi, bilsa ham atayin oldi. Ehtimol... to'g'ri qilgandir.

4

Shahzoda tushlikka ham chiqmadi. Nurjamolning ko'ngliga birdan g'ulg'ula tusha boshladi. "Unga bir nimadir bo'lgan. Nimadir bo'lgani aniq. Oyoq-qo'li bog'lab qo'yilsa ham, shu paytgacha yerning tagidan bo'lsa ham chiqib kelar edi..."

So'ng o'zini o'zi ayblay boshladi. "Bunchalar befarqman-a! Bechora ayol men bilan tug'ishgandek qadrdon bo'lib qolgandi. Men esa... Agar men shu paytgacha uning ko'ziga ko'rinmaganimda bormi, butun sanatoriyani ostin-ustin qilib tashlardi u".

— Nega bezovta bo'layapsiz? — uning betoqat bo'layotganini sezgan bir dasturxonda o'tirgan sherigi Halima.

Nurjamol ular bilan hozirgina tanishgandi. Shovotlik Matniyoz bilan Halima degan er-xotinlar edi ular.

— Ovuldosh ekanmiz-ku, — deyishdi ular tanishganlarida. — Yaxshi bo'ldi, birga ovqatlanamiz, birga shaharni aylanamiz.

Nurjamol ularga "ha" yoki "yo'q" deb va'da bermadi. Lekin dam-badam eshikka ilhaq bo'lib qarayverib, ko'ngildagidek ovqatlanavermaganidan keyin er-u xotin unga shunday deyishga to'g'ri kelgandi.

— Ertalabdan buyon hamrohim ko'rinmayapti, — dedi Nurjamol vaziyatni tushuntirib.

— Xonalaringiz boshqa-boshqa edimi?

— Boshqa-boshqa edi.

— Unda borib xabar oling. Bu yerda o'zing borib xabar olmasang, shifokorlar ha deb birovning xonasiga kirib, odamni bezovta qilavermaydi.

— To'g'ri, xabar olishingiz kerak, — dedi Matniyoz ham ayolining gapini ma'qullab. — Kecha kelgan bo'lsang... Kim biladi, havo almashgani yoqmay qolgan bo'lishi mumkin, yoki...

O'zi shundoq ham zo'rg'a o'tirgan Nurjamolga bu gaplar qamchi botgandek ta'sir qildi. Qo'lidagi sindirgan nonini dasturxonga qaytarib qo'ydi-da, o'rnidan turdi.

— Uni qo'rqitib yubordik-ey, — Halimaning afsuslangan so'zi eshikka yetganida qulog'iga chalindi.

Haqiqatan ham u vahima qila boshlagandi.

Shahzoda joylashgan binoning birinchi qavatidan tez-tez yurib o'tdi. Bu qavatda rasmiy xonalar joylashgan ekan. Ikkinchi qavatdagi ba'zi xonalarning eshigi ochiq, biroq ichida odam yo'q edi.

— Hamma tushlikda ekan-da, — deb o'yladi Nurjamol.

Uchinchi qavatga ko'tarilgandayoq devorga shap-shap urilgan chivin urgichning tovushi eshitildi.

— Ну, зараз, все равно я тебя поймаю!

— Topdim! — deb xursand bo'lib ketdi Nurjamol ichidan. — Bu Shahzoda ta'riflagan o'sha qulog'i og'ir o'ris kampirning tovushi edi.

U asta eshikni ochdi. Deraza oldida chivin quvalab yurgan kampir buni sezmadi. Biroq o'ng tomondagi divanda eshik tarafga boshini qo'yib yotgan Shahzoda sezdi. Ko'zini tepaga olaytirib qaradi.

— Ha, keldingmi, bevafo! — dedi inqillab. — Ertalabdan buyon ikki ko'zim to'rt bo'lib eshikka qarayverib, yurak-bag'rim ezilib ketdi-ya.

Nurjamol kulib yubordi.

— Nima qilib yotibsan?! — dedi uning boshi uzra cho'zgan qo'liga shappatilab.

— Ko'rib turibsan-ku, o'lay-o'lay deb yotibman!

— Tur, yo'qol-ey! O'zi sening og'zingdan durust so'z chiqmaydi.

Ularning gangur-gunguridan kampir orqasiga o'girildi.

— А ты кто такая?! — dedi Nurjamolni yoqtirmay.

— Я её подруга.

— Забери её, если подруга. Она такая... — Kampir gapining davomini yamlab, aytmadi.

—Ana, ko'rdingmi? Yetmishga chiqqan kampir ham meni yoqtirmayapti. Ovulga qaytganimdan keyin erim tashlab ketmasa bo'ldi, ishqilib.

Nurjamol Shahzodaning yoniga kelib o'tirdi.

— Gapira qol endi! — dedi kechagidek quvnoq ohangda kulimsirab. — Nima bo'ldi, nima qo'ydi?..

— "Tanasi boshqa dard bilmas" deganlari shu bo'lsa kerak. Nima bo'lar edi, sen bilan chaqchaqlashib o'tirib, soat o'n ikkidan oshganini bilmay qolibmiz. Kelsam, bir-ikkita qog'oz qo'yib ketishibdi, tongda laboratoriyaga deb. Shu bilan tongda uyg'onadigan Shahzoda qayda. Manavi kampirning shappillagan chivin urgichining tovushini eshitib, choshgohda zo'rg'a turdim. Qarasam, soat o'n bo'libdi. Erinib yotsam shifokor bir hamshira bilan kelib qoldi. Uni so'radi, buni so'radi, keyin yopishadigan ayilini bilagimga o'rab yel berib ko'rgan edi, ko'zlari tostepasiga chiqib ketdi.

— Ha? — dedim hovliqib.

— Qimirlamang! Qon bosimingiz ko'tarilib ketibdi, — dedi shifokor.

— Necha bo'libdi?

— Bir yuz saksonga yuz.

— Voy bo‘y, bizning ovuldagi fermerlarga shunday raqam kerak ekan, bechoralar kech kuzgachayin yuzga yetolmasdan yurishadi, — deb kuldim.

Mening hazilimni qaydan bilsin, apil-tapil dori tayyorlab, ukol qilishdi. Shunday qilib boshimda yarim soat o‘tirishdi. So‘ng mana bu garang kampirga tayinlashdi. Yonidagi hamshira qiz zuv-zuv yugurib kelib, qarab turdi.

— Bugun yotib dam oling, ertaga uyingizga javob beramiz, — deb ketdi hali shifokorning o‘zi kelib.

— Himm, uyga qaytib bo‘pman, — deb qo‘ydim ichimdan. “O‘lganda ko‘rgan bir tepadosh ayira ko‘rma, jo‘rajon” degan ekan burungi zamonda bir janjalkash kishi. Shunday deganlariday...

— Keyin ham qayta-qayta o‘lchab ko‘rishdimi? — dedi Nurjamol Shahzodaning tomirini ushlab.

— O‘lchash qayoqda. Qo‘rqishadi. — Tomir urishini aniqlayotgan Nurjamolning qo‘liga, keyin yuziga qarab savol berdi. — Men sodda, qishloqi xotin deb o‘ylab bir nima undirmoqchidir, balki. Shuncha shifokor turganda senga ko‘rinamanmi endi?

— Бабуля, у вас тонометр есть?! — dedi Nurjamol.

— A? — Kampir qo‘lini qulog‘iga qo‘yib, qaytadan so‘radi.

— Tonometr? — Nurjamol qo‘li bilan qisib dam solgandek ishora qildi.

— A-a, тонометр? Есть у меня? Я двадцать лет медсестрой работала.

Keyin u qaysi shifoxonada ishlaganini, qanday mashhur-mashhur kishilarni davolaganini ayta ketdi. Uning nima deyotgani bilan Nurjamolning, o‘zini tinglayaptimi —tinglamayaptimi, bu bilan kampirning ishi yo‘q edi.

— Sening rostdan ham qobiliyating bormi o‘zi? — dedi Shahzoda hiringlab. — Shuncha joydan ovora bo‘lib sanatoriyaga kelib yurganimdan ko‘ra, senga ko‘rinsam ham bo‘lar ekan-ku.

Nurjamol jimjit o‘tirib, Shahzodaning qon bosimini o‘lchadi.

— Tur! — dedi keyin bilagidan shirt etkizib tasmani yecharkan. — Qon bosiming umuman yo‘q...

— Unda nega do‘xtirlar...

— Tunda yaxshi uxlamagansan. Charchagansan. Buning ustiga pochchamni o'ylagan bo'lsang kerak.

— Voy, u o'ylamaydigan yigitmi, axir?

— Tur-tur! Hovlida aylanamiz. Tong-sahardan buyon bir o'zim... Yo'laklarning uzunligini qadamlab o'lchab ham bo'ldim.

— To'g'risini ayt, qon bosimim rostdan ham joyidami?! — Shahzoda endi behazil so'radi.

— Rostini aytayapman. Joyida deyapman-ku, hammasi joyida.

— Ko'rolmading-a?!

— Nimani? Kimni?

— Meni-da.

— Seni nima uchun ko'rolmayman?

Kattalarning kasalligi bilan og'riganimni ko'rolmayapsan-ku. Shundaymi? To'g'risini aytaver, ammo?!

Nurjamol miyig'ida kulib qo'ydi, biroq javob bermadi.

— Bo'pti, chiqib tur, ko'ylagimni almashtirib olayin, — dedi Shahzoda o'rnidan turayotib.

— Mendan ham uyalasanmi? — Nurjamol kulib.

— Nega uyalmayin, uyalaman-da! Yalang'och badanimni Baxtiyordan boshqa tirik banda ko'rgani yo'q shu paytgacha.

Birozdan so'ng ular sanatoriyaning hovlisiga chiqishdi.

Shahzoda qancha sho'xtabiatli bo'lgani bilan qon bosimi ko'tarilgani haqidagi tashvishli xayollardan hamon qutula olmadi. Sababi, bunday kasallikni ko'p ko'rgan, o'zining qaynog'asi choy ichib o'tirgan joyida "ketib qolgan" edi.

— Nurjamol? — dedi u qavog'i solinib. — Meni aldading-a?

Nurjamol uni ishontirolmay, xunob bo'ldi.

— Kecha kelgan paytingda qabul bo'limida o'lchashgandi, to'g'rimi?

— Unda qon bosimim me'yorida edi.

— Me'yorida bo'lmaganida qabul qilisharmidi?

— Unda bir kechada meni nima jin urdi?

— Shahzoda, qon bosimi deganlari... Qanday tushuntirsam ekan... Xo'sh, menga qara, mana bunday, qozonda sut pishirasan-a?

— Pishiraman.

— O‘shanda, sut qaynaganda toshadimi?

— Toshadi.

— O‘choqdagi o‘tni tortsang, yo gazning qulog‘ini burab pasaytirsang, sut avvalgi o‘rniga qaytadimi? Qon bosimi ham ana shunday. Doktor “sutning toshib turgan” vaqtida kelgan, hamshira “gazning qulog‘ini burab, olovni pasaytirgandan keyin” bosim asta-sekin o‘z joyiga qaytgan. Endi tushundingmi?

— Tushunishga tushundimku-ya... Biroq kunlarning birida sut yana toshib ketsa, to‘kilib gazni o‘chirib qo‘yadi-ku. O‘shanda men “naryoqqa” ketaveramanmi?

— Hech qayoqqa ketmaysan. Menga ishonaver.

— Sen Quleke tabib[1]ning jiyanimisan?

— Jiyaniman. — Nurjamol hazilni yig‘ishtirib, so‘zida jiddiy davom etdi. — Men shu kasallik bo‘yicha fan nomzodiman. Endi ishondingmi?

— Astag‘firullo! “Tagini so‘rayversang, qo‘yningdagi xotining ham bo‘lang bo‘lib chiqadi” deganlaridek... Men tongdan buyon vahima qilib, qo‘rqib yotibman. Maboda sutim toshib ketsa, “gazning qulog‘i qaytmay qolsa”... Baxtiyor nari borsa, yilim o‘tguncha kutar, so‘ng qabrimning boshiga borib: “Kechir, Shahbozim, bolalarning issiq-sovug‘iga, kir-chiriga qaraydigan birov bo‘lmasa, qiyin ekan. Sen hamisha yuragimdasan”, deb tursa. “Men yuragingdaman, ammo to‘shagimda boshqa birov yotibdi-ku?!” deb o‘rnimdan turib aytolmasam. Ana shundan keyin ikkinchi marta o‘laman-ku, men, axir.

— Nega kuyovingga ishonmaysanmi?

— Eyy, shu zamonda ayolining etagiga namoz o‘qib yurgan erkak bormi?

— Unda opachangni Shohsanamga, pochchangni G‘aribga tenglashtirganing bekor ekan-da?!

— Qo‘y-qo‘y, pochcham bilan opachamga til tekkizma. Agar dunyoda bitta vafodor erkak bo‘lsa, o‘sha mening pochcham, ikki-

---

[1] **Quleke tabib** — qadimda shu nomli afsonaviy tabib o‘tgan. Uni Luqmoni Hakimdek bilishgan. “Quleke tabib buyurdimi?”, “Quleke tabibning jiyanimisan?” degan iboralar qoraqalpoq tilida hazil-mutoyiba ma’nosidagi maqolga aylangan.

ta bo'lsa ham, birovi mening pochcham bo'ladi. Kerak bo'lsa, uni bechora G'aribga tenglagim ham kelmaydi.

— Dostondagi G'aribni aytayapsanmi? Bu gapingni boshqa birov eshitmasin. U oshiqlikning timsoli-ku.

— Ey, qachon qarasang, faqat qo'shiq aytib, ko'z yosh to'kib yuradi. Buning o'rniga qulay fursatni topib, Shohsanamning yo'lini oq "Neksiya" bilan to'sib chiqmaysanmi?

Nurjamol bor ovozi bilan kulib yubordi. Keyin kulgisi barala eshitilib ketganidan xijolat bo'lib, og'zini kafti bilan to'sdi.

— Vey, gapni olasan-da senam, Shahzoda. G'aribning zamonida "Neksiya" bormidi?!

— "Neksiya" bo'lmasa, ot bor-ku. Oh-voh qilib yurgandan ko'ra orqangga mingashtir-da, olib qoch!

— Xonning lashkarlari uning odimini oshirarmidi?

— Voy-yey! Duxtir bo'lsang ham kino ko'rmas ekansan-a? — dedi Nurjamolga ensasi qotgandek qarab, — qiz olib qochadigan zang'ar avvaldan xon lashkarlarining otlarining ayilini kesib chiqmaydimi, axir?!

— Qo'y, Shahzoda u bechoralarni o'z holiga qo'yaylik.

— Unda kimni gapiraylik? — dedi Shahzoda kulib.

— Hech kimni.

— Hech kimni gapirmasak, yorilib ketamiz-ku.

— Bo'lmasa pochchang haqida gapirib ber, juda farishta deb ko'klarga ko'tarding-ku.

— Yo'q, gapirmayman.

— He?

— Qizg'anaman.

— Kimdan?

— Sendan-da. Kuyov topolmasdan ko'zing ko'karib yurgan qiz bo'lsang. Aylantirib olsang, opacham quruq qoladi-ku.

Shahzodaning bu gapi Nurjamoning ko'ngliga qattiq tegdi. Jim bo'lib, indamay qoldi.

— Arazlab qoldingmi? — dedi Shahzoda uning ko'nglini olmoqchi bo'lib.

— Yo'g'-ey...

— Qo'ysang-chi endi! Bir kul! Qani-qani? Shahzoda uning tomog'ini barmoqlari bilan yengil qitiqladi. Nurjamol chidolmay kulib yubordi.

— Ana, anaa, quyosh chiqdii! — dedi Shahzoda xursand bo'lib.

— Baribir, sendan o'pkaladim, — dedi Nurjamol nigohlarini olib qochib.

— Haligi uchunmi?

— Bir gapning uchini chiqarib, davomini aytmaysan. Meni yalintirishni istaysanmi?

— Birovning muhabbatining birovga nima qizig'i bor?

— Kitobdan o'qiganda ham birovning muhabbatini o'qiysan-ku.

— To'g'ri-yu, biroq... Bir kishining gunohini o'zingga olib, g'iybat qilgandan yaxshiroq-ku, a?

Nurjamol boshini qimirlatib ma'qulladi.

— Unda boshlayverayinmi?

— Boshla.

— Alqissa... — Shahzoda sharaqlab kulib yubordi-da so'ng darrov o'zini tutdi. Yaxshiyam, tevaragida hech kim yo'q ekan. — Jirov, baxshilar shunday deb boshlamaydimi, axir?

— Sen baxshi emassan-ku.

— Rostdan ham, mening opacham bilan pochcham tanishgan kunidan boshlab bir-biriga intiq bo'lib yashashdi. Juda ilhaq bo'lib turishardi.

Opacham turmushga chiqqanidan keyin pochchamdan qo'rqib yurdi. Kelin bo'lib tushgan yillari onamga shivirlab so'zlayotganini eshitib qoldim.

— O'lib qoladimi, deb qo'rqaman, — dedi u o'shanda onamga.— Har kuni tongda turib menga "O'zimni tungi uyqudan ham qizg'anaman, sababi, uyg'onaman degunimcha seni sog'inib qolaman" deydi. Siz aytardingiz-ku odam o'layotganda shunaqa qilib birovning diydoriga zor bo'lib yuradi, deb.

— Soddasan-da, qizim. Kuyoving firibgar emasmikin? — dedi onam.

Opacham shundan so'ng toshdek qotdi-da qoldi. Ko'ngli hech ochilmadi. Ikki kun qo'nib qolaman deb kelgan odam tong otgandanoq tugunini ko'tarib yo'lga chiqdi.

— Pochchang hali ham shu fikrdamikin? — dedi Nurjamol qiziqsinib.

— Shu fikrda. Buni o'zim ham eshitdim. Biroq har kuni aytavermasa kerak. O'sha yillari men ham qo'rqib yurdim, pochcham o'lib qoladimi, deb... O'shandan buyon qancha yillar o'tib ketdi... Hamon sog'-salomat.

— Yur, anavi yoqqa o'tib o'tiraylik, — dedi Nurjamol hovli etagidagi emanning tagiga qo'yilgan skameykani ko'rsatib.

— Qo'ysang-chi, men bir ertakchi kampirmanmi?! Ertalabdan buyon to'shakda yotaverib, zerikib ketdim. Birpas oyoq yozaylik. Yurib gapirib beraman.

— Pochchangni qizg'anmay qo'ydingmi?

— Sendan qizg'anaman, deb hazillashgandim. "Dunyoda vafodor erkak bitta bo'lsa ham, ikkita bo'lsa ham o'sha mening pochcham bo'ladi" devdim-ku, axir. Xudo saqlasin, opacham o'lib qolmasin, agar o'lib qolsa ham qolgan umrini yolg'iz yashab o'tadi.

— Rost aytayapsanmi, Shahzoda? — dedi Nurjamol uni o'ziga qaratib. — Sening mana shunday ta'riflashingdan keyin opachangni va pochchangni ko'rgim kelib qoldi. Ularga havasim kelayapti.

— Ovulga qaytaylik, hali borishamiz, kelishamiz, xudo xohlasa, qadrdon og'ayni bo'lib ketamiz. O'shanda opachamni ham, pochchamni ham ko'rasan.

— Mening opacham ovuldagi qizlarning eng oldi bo'ldi, — deb so'zida davom etdi Shahzoda. Uning yuz-ko'zlarida qandaydir bir mag'rurlanish sezimi balqib turar edi. — Uzun bo'yli, qomati yirik, yirik bo'lgani bilan mendek do'mboq emas.

— Sen do'mboqmisan? — deb uning gapini bo'ldi Nurjamol.

— Opachamga qaraganda chiroyli emasman-ku. Xullas, uni ko'rgan yigit "meniki bo'lsa ekan" degudek edi. Biroq, qishloq joyni o'zing bilasan, bir urug' bir ovul bo'lib o'tiradi, bordi-yu bir-ikkov boshqa urug'dan bo'lsa ham ovuldosh bo'lgandan so'ng qarindoshidek ko'rib, suv bilan yutib yuborgudek qiz bo'lsa ham, erkaklar unga sira qiyo boqib qaramaydi. Ovulning ana shu odatini yaxshi ko'raman-da. Bu odat hamon saqlanib qolgan.

Shuning uchun ovulning qizlari baxtini sirtdan kutadi. Mening opacham o'rta maktabni bitirgandan boshlab, eshigimizdan sovchilar uzilmadi. Bugun bir tanishning o'g'lidan, ertaga boshqa tanishning o'g'lidan, indiniga qudaning qudasining qarindoshidan odam kelaverdi. Opacham hech birini xohlamadi. Hatto gaplashishga ham chiqmadi. U paytda mening yoshim kichkina edi, to'qqizdamanmi, o'ndami, har holda, chamasi shunday yoshlarda edim.

— Jon qizim, o'tiraverasanmi endi, — dedi bir kuni onam opachamga. — Qiz bolaning vaqtida turmushga chiqqani yaxshi. "Tanlab-tanlab, tozini topibdi" degan gap bor, ertaga yoshing o'tganda bu yigitlarning tirnog'iga ham arzimaydigan bir kishining tengi bo'larsan.

Opacham onamning gapini jim eshitib bo'lgandan so'ng, qanorni qo'ltiqlab tashqariga chiqdi.

— Shahzoda, eshakni olib kel! — dedi menga. Onamga "ha" yoki "yo'q" deb javob qaytarmadi.

Biz dalaga eshak minib borar edik. Eshagimiz eshakmisan eshak, zo'r hangi eshak. Biroq opachamni ko'rsa, yuvosh bo'lib qoladi. Erta tongda kun chiqar-chiqmas dalada paydo bo'lamiz. Menga eshakning arqonini ushlatadi-da o'zi paxta terishga tushib ketadi. Men eshakni bo'ynini cho'zganda o'tga yetadigan darajada bog'lab kelib, birpas uning paxta terishini kuzatib turaman. Opachamning qo'llari juda tez ishlaydi. G'o'zaning tubidan boshlab yuqoriga lip-lip o'tadi-yu oppoq ochilib turgan paxtadan qup-quruq qoraygan chanoqlar qoladi, xolos. Choshgoh bo'lmasdan, bir katta qanor to'ladi.

— Shahzoda, eshakni olib kel! — deydi menga. O'rganib qolgan eshak qanorning yoniga kelib, o'qariqqa tushib, yag'rinini tutib turadi. Opacham bir qanor paxtani tizzasi bilan bir siltab ko'tarib, ariq cheliga qo'yadi. "Hoop" deb yana bir siltaganda qanor eshakning beliga ortiladi. So'ng men eshakni yetaklayman, u qanorni bir chekkasidan ushlab boradi. Taroziga tortishganida xuddi o'lchab qo'yilgandek 62-63 kilogramm chiqaveradi. Ertasi kuni, indiniga ham shunday holat takrorlanadi. Tushdan keyin-

gi paxta unchalik barakali bo'lmaydi. Tongda hafsala bilan paxta terganga ne yetsin.

Shunday qilib u maktabni bitirgandan keyin ovulda uch yil paxta terdi. Birinchi yili o'qishga topshirgan edi, yiqilganidan keyin yana qaytib borishga ko'ngli chopmadi.

Kunlardan bir kun ovulimizga hasharchi talabalar kelishdi.

— Eshitmadim, demanglar, ovulga yigirmata qiz kelibdi, — degan shov-shuv tarqaldi bir zumda. — Uylanmagan yigitlar bo'lsa, uylanib qolishsin.

Go'yo ular o'zlariga yigit izlab kelishgandek. Ammo ora-orada uylanadiganlar ham topilardi. Gohida talabalarning muallimlari ovulimizning qizlarini olib ketib qolishardi. Xullas, paxta terimi mavsumida bir yangilik ro'y bermasdan qolmaydi.

O'shanda men uchinchi sinfda o'qirdim. Opacham yigirmaga chiqdi. Biroz to'lishdi. U ovulimizga kelgan hasharchilarga ham, muallimlarga ham e'tibor bermasdi. To'g'risi, ular bilan do'stlashmasdi ham. Bir kuni mahalliy terimchilar, hasharchilarni ham o'n gektarlik bir paxtazorga yonma-yon egatga solishdi. Paxta jonivor chag'alaylardek oppoq chaman bo'lib yotibdi. Mening opacham paxta terishda chevar, talabalar egat boshiga kelgunlariga qadar bir qanor paxtani tap-tarang qilib to'ldirib qo'ydi. Bu gal har kungi mo'ljaldan ko'proq terdi. Qanorning bo'g'zidagi iplar to'rdek shishib, ancha paxta tashqariga chiqib, toshib qoldi.

— Yetmishdan oshadi-ya? — dedi opacham quvonib.

— Ihim, — deb uning fikrini tasdiqladim.

— Eshakni olib kel! — Eshakni o'qariqqa ko'ndalang qo'yib, qanorni endi ortamiz deb turganimizda hasharchi qizlarning muallimi kelib qoldi.

— Qizlar, nima qilayapsizlar? — dedi u bizga. Ikkimiz ham "yalt" etib unga qaradik. Voy, endi ishonasanmi, yo'qmi, bilmadim, bunday chiroyli erkak kishini birinchi bor ko'rishim edi. Qaddi-qomati juda kelishgan. "Puflab og'izga solgudek" deyishadi-ku bizning xalqimizda. Ko'zi, qoshi, burni... barcha-barcha a'zosini mohir haykaltarosh uyg'unlashtirib jonli yasagandek edi. Sochlarini aytmaysanmi, shamol esganda ariq bo'yidagi qiyoqlar selkillab turadi-ku, xuddi shunday selkillaydi-yey...

— Voybo‘y, ishqilib pochchangga oshiq bo‘lib qolmadingmi o‘zi? — dedi Nurjamol bilagidan chimchib.

— Yo‘qol-ey! Biz pochcha-boldizdek emas, aka-singildekmiz. Shunday qilib, bizning opachamiz haligi yigitga ko‘zi tushgandanoq ikki beti lovullab qizarib, tirnog‘ining uchiga qaradi-da qoldi. Men esa hali yosh bolaman-ku “Qanorni eshakka ortayapmiz” dedim bidirlab.

— Bunday qilib, netasiz? — deb kuldi u. Balki mening gapim qiziq tuyilgandir.

— Taroziga olib boramiz.

U eshakning qoziqqa bog‘langan boshvog‘ini qo‘liga oldi.

— Kuching yetadimi? — dedi menga qarab.

— Yetadi, — dedim men.

— Unda paxtazorning bir chekkasiga olib borib, bog‘lab kel. Tilsiz jonivorni bunday qiynash yaxshimas.

— Paxtani nima bilan olib boramiz? — dedim men. Opacham esa lunjiga suv to‘ldirib olgandek jimjit.

— Hozir eplaymiz, — deb u yon-atrofga qaradi. — Ey, jo‘ra! Sen, ha, sen, beri kel.

U paxtakorlar bilan hasharchilarga egat bo‘lishayotgan Ko‘makboy tabelchining o‘g‘li Odilni chaqirdi. U yonimizga kelib, avval muallim, so‘ng opacham bilan ko‘rishdi. Meni ham esdan chiqargani yo‘q.

— Oting kim? — dedi muallim.

— Odil, — dedi u.

— Yo‘q, sen odil emas ekansan, — dedi muallim hazillashib. — Agar odilliging rost bo‘lsa, mana bu qanorni tarozigacha olib borishga yordamlash. Tarozigacha necha metr chiqadi?

— Ikki yuz metrcha bor, — dedi Odil dimog‘idan so‘zlab. Muallimning susi bosdimi, birpasda yerga qarab kalovlanib qoldi.

— Ikki yuz metr bo‘lsa, — yuz metrgacha sen ko‘tarasan, naryog‘iga men. Qiz bolaga yordam berishimiz kerak.

Odil ma’qul degandek so‘zsiz boshini egdi-da, yerga o‘tirib, yelkasi osha ikki qo‘llab qanorni ushladi.

— Qani, ko'tarishib yuboraylik, — dedi muallim opachamga. Opacham hech nima demay qo'lini uzatdi. Ikkovlashib qanorni Odilning yelkasiga ortishdi.

— Sen qiz, nima qilib turibsan? — dedi so'ng menga qarab. — Eshagingni boylab kelsang-chi. Ana, ko'rayapsanmi, paxtani yeyapti.

Eshak hech qanaqa paxtani yeyayotgani yo'q edi. U meni bu yerdan uzoqlashtirish uchun shunday deyotgandi. Qiz bola deganlari shayton bo'ladi-ku, mushtdekkina bo'lsam ham uning nimani o'ylaganini darhol sezdim.

— Mahkam bog'la, tag'in bo'shalib ketmasin! — deb qichqirdi opacham ham muallim bilan egat oralab yonma-yon ketayotib.

Men ich-ichimdan g'alati bo'lib qoldim. Eshakni har kuni o'zim bog'layman-ku. Qachon bo'shalib ketib edi. Qara-ya, birpasda allaqanday muallim unga mendan ko'ra yaqin bo'lib qolibdi.

Men eshakni bir tup tikanli butaga qo'lim tirnalib bog'layman degunimcha ular paxtazorning boshiga chiqishlariga biroz qolibdi. Yugurib zo'rg'a yetib oldim. Lekin judayam yaqin bormadim. Muallimning gaplari menga goh tushunarli, goh tushunarsiz bo'lib eshitilib turdi. Opacham esa gap qo'shmaydi, biroq muallimning har so'ziga piq-piq etib kuladi. "Buning gapi shuncha qiziq ekanmi?" deb mening jahlim chiqadi. Anchayinda tishining oqini ko'rsatmaydigan opacham bugun uchib-qo'nib yuribdi-ya, yo tavba. Rostini aytsam, opachamni qattiq qizg'andim. Bu begona kishi qayoqdan paydo bo'ldi o'zi?! Kelishgan bo'lsa, o'ziga. Opachamni olib ketib qolsa, nima qilaman? Uyda qizlardan bir o'zim qolamanmi? U ketsa, akam menga eshakni ham ushlatmaydi. Paxtaga ham yubormaydi.

— Ismingiz nima? — dedi bir mahal muallim opachamga.

— Bekzoda, — dedi u asta.

— Ismingiz chiroyli ekan!

— Rostdanmi?

— Rostdan! Ma'nosiga qarang, ham Bek, ham Zoda! Ismingizni qo'ygan odamlar juda aqlli ekan.

Endi mening otimni so'rasa kerak deb tez-tez yurib, ularga yaqinlashdim.

— Ha, keldingmi? — dedi muallim menga qayrilib qarab. Opacham ko'z qiri bilan bir qarab qo'ydi. Lekin muallim ismimni so'ramadi.

Odil yelkasidagi qanorni yerga tushirmay, tarozigacha bir o'zi ko'tarib bordi.

— Qarzdorman, do'stim! — dedi muallim kulib. — Keyingi safar men orqalab kelaman.

Qanordagi paxta 69 kilo chiqdi. Opachamning "yetmish" chiqsa kerak" degan mo'ljali puch bo'ldi.

— Shuncha paxtani bizning qizlar terishganida bormi, yiqilib qolishardi, — dedi muallim kulib.

Opacham unsiz tabassum qildi, unga muallimning xushomati yoqayotgan edi. Mening achchig'im chiqdi.

— Yur endi, ketaylik, — deya opachamning qo'lidan tortdim.

— Ha, namuncha shoshasan? — deb opacham sochimni siladi. Men uning qo'lini siltab tashladim. U achchiqlanganimni sezdi. Bo'shagan qanorni qo'ltig'iga qistirdi-da, — Yur! — deb qo'limdan yetakladi.

— O'zim yuraman, — deb qo'limni tortib oldim.

Ancha joygacha bir-birimizga gap qo'shmay, jim ketdik.

— Aldamchi ekan, — dedim men birozdan keyin xo'mrayib.

— Kim? — dedi opacham kimni aytayotganimni bilsa-da, go'yo bilmagandek.

— Haligi muallim-da.

— Ha, nimaga?

— "Yuz metrgacha sen ko'tarib bor, naryog'iga men ko'taraman", degan edi-ku Odilga. Qani ko'targani?!

— Odil "charchadim" demadi-da. Buning ustiga muallim mehmon bo'lsa.

— Mehmon dalada yuradimi?! — dedim men.

Opacham javob topa olmadimi, indamadi.

— Oti nima ekan? — dedim men opam xafa bo'lmasin deb. Aslida muallimning oti nima ekanini menga sira keragi yo'q edi.

— Bilmayman.

— Unda sen nimaga unga otingni aytding?

— So'ragandan keyin aytdim-da.

— Nega uning oldida og'zing qulog'ingga yetib, nuqul kulaverding?

— U qiziq gaplar aytdi-da.

— Hech qanaqa qiziq gap aytgani yo'q-da. Menam eshitdim-ku!

Opacham meni hech nimani tushunmaydi deb o'ylab yolg'on gapirgani uchun xijolat chekdi. Dami ichiga tushib, indamadi.

— Sen uni yaxshi ko'rib qoldingmi? — dedim birozdan keyin.

— Nima deding?!

U mening gapimni eshitmadimi yoki bu so'zni yana bir marta eshitgisi keldimi, qayta so'radi.

— Sen uni yaxshi ko'rasanmi?

Opacham birpas sukut saqlab turdi.

— Agar yaxshi ko'rsam, nima bo'ladi?

— Unda seni opa demayman!

Ikkimiz bir-birimiz bilan bahslasha-bahslasha paxtazorning sirtiga chiqdik.

— Eshakni minib, ketaver, — dedi menga.

— Sen-chi?

— Men piyoda boraman.

— Agar meni jo'natib, uyga bormasang, onamga aytaman, muallim bilan qoldi, deyman.

— Xavotir olmay qo'ya qol, sendan avval yetib boraman.

U endi huv uzoqdan bizga qarab turgan muallimning ko'zicha eshakka minishga uyalgan edi. O'sha kundan boshlab eshakni faqat bir o'zim minadigan bo'ldim. Bechora bir yo'la paxta tashishdan ham qutuldi. Opachamning qanori to'lishi bilanoq qayoqdandir darhol muallim paydo bo'ladi, Odilni yoki punktga paxta tashiydigan G'aybilni chaqiradi. Ular ham yugurib kelaverishadi. Bu mening g'ashimga tegadi. Nega ular Nukusdan kelgan begona kishining aytganini bajarishaveradi?! Ilohim, opachamning paxtasi o'lchanmasdan qolsin! Olib borma! Yoki muallimdan qo'rqishadimi, bilmayman.

Muallim bilan tanishganidan buyon opacham ham negadir kamgap, o'ychan bo'lib qoldi. Avvallari ovuldagi xotinlar bilan yonma-yon egatga tushganida:

Paxta tersam, o'n barmog'im o'ynaydi,
Gullar shoxasinda bulbul sayraydi, —

deb hammani yondirib qo'shiq aytar edi. Endi umuman qo'shiq aytmay qo'ydi.

O'n barmog'i indamay o'ynaydigan, bulbul esa tovushini chiqarmay sayraydigan bo'ldi. Ovul ayollarining yonidan egatga tushgisi kelmaydi. Toki boshqa birovlar ularning yonidan egat olmagunlaricha qanorining choklari so'tilgan joylarini tikkan kishi bo'lib, shoshmay kutib turadi. Qanorga aslida jin ham urgani yo'q. Bahona qiladi. Mendan ham ancha uzoqlashdi. Faqat uyga qaytayotganida esiga tushaman. Chunki, yo'lda hamrohlik uchun kerakman-da.

Talaba qizlar ham muallimni yaxshi ko'rib qolishganga o'xshaydi.

— Shahzoda, sen bir o'zing ko'pam uzoqlashib qolaverma, opachangni muallim opqochib ketib qoladi, — deb meni qo'rqitmoqchi bo'lishadi.

— Sizlarni-chi, sizlarni opqochmaydimi? — deyman men ham bidillab.

— Bizlar ko'pmiz-ku, — deydi ular.

— Bizlar ham ko'pmiz. Ana, ovulning ayollari bor, tabelchilar bor...

Yosh bola bo'lsam ham yuragim sezib turardi, bu gapi bilan qizlar muallimini opachamdan qizg'anayotgan edilar. Qizg'anishsa, nega Nukusiga olib ketishmaydi uni?! Bizning ovulning paxtasini termay qo'ya qolishsin. Paxtamiz qor-yomg'ir ostida qop ketsa ham mayli, ularning yordami bizga kerakmas.

— Qizlar, sizlar kino san'ati paydo bo'lgan paytda suratga olingan hujjatli filmlarni ko'rganmisiz? — dedi bir kuni muallim talabalarga. Biz ham ularning yonida paxta terayotgandik.

— Ko'rganmiz, — deyishdi qizlar gapning davomini eshitishga qiziqishib.

— Unda odamlar qanday yurishadi? Multfilmdagidek yugurib-yugurib yurishadi-ya?

— Ha, ha, — deyishdi qizlar.

— Bekzodaning paxta terayotgan qo'llariga qarasangiz, xuddi o'sha filmlardagidek tez yuguradi, paxta chanog'iga qanday borib kelayotganiga ko'zingiz ilashmay qoladi.

Qizlar labini tishlab, jim bo'lib qolishadi. Muallimning bunday gaplari ularga yoqmaydi.

— Hoy-hoy, muallim bola, bizning oppoq qizni ko'zing bilan otib yiqitasan! — deydi Turdish degan yangamiz.

— Otib yiqitsam, o'lja mo'ljalga tekkizgan merganniki bo'ladi-da! — deya tagdor gapiradi muallim.

— Yiqittirib qo'ymasmiz! — deydi Qurbon checham bir yondan turib, — "Oy bo'lmasin, kun bo'lsin" deb asrayotgan biykech[1]imizni ota-tegi noma'lum birovga berib yubora olmaymiz!

Opacham o'zi haqida aytilayotgan gaplardan uyalib, tez-tez terib, o'zib ketadi.

Opamga yoqish umidida aytgan hazil gapi muallimga qimmatga tushdi. Ovulning ayollari yuz-ko'zing demay uni qayirib tashlagani bir bo'lsa, bu ham yetmaganday talaba qizlar endi undan tortinmay, etaklaridagi paxtalarining ustiga o'tirib olishdi. Ularga turinglar deb buyruq berolmadi. Opachamning yoniga boray desa, ko'nglidagi niyati otning qashqasidek hammaga ma'lum bo'lib qolgani uchun uyalib, noiloj qo'liga g'ijimlab olgan gazetasini ochib, bir nimalarni ko'z yugurtirib o'qigandek bo'lib, tarozi tomonga ketdi.

Bilmayman, o'shanda negadir muallimga mening rahmim keldi. Uning noqulay ahvolda qolgani opachamga og'ir botadi, deb o'yladimmi, xullas, tashqaridan qarab turib, o'yinga qo'shila olmaganiga xafa bo'lib, uyiga ketib borayotgan bolaga o'xshatdim uni.

Qizlar bir-ikki yildan buyon shaharda yurib, beti ochilib ketgan ekan. Yo muallimlari yosh yigit bo'lgani uchunmi, unga ilmoqli gap otib o'ynagisi keladi. Muallim ham ularga bo'sh ketmaydi.

Biroq u mening opachamni yaqinlashganini sezib qolsa, darrov osongina taslim bo'ladi. Qizlar buni payqashadi. Bila-tura "bir gapdan qolib" o'tirganiga g'azabi qo'ziydi ularning.

Shu damda muallim bir-ikkita qizning paxtani chala terayotgani uchun tergagan bo'ladi-da, g'o'zalardagi bir chigit paxtalarni

---

[1] **Biykech** — qaynsingil.

tozalab terib olib, kafti to'lganda opachamga beradi. So'ng ular yo'q yerdan gap topishib, boshqalardan o'zib ketishadi. Men ham chanoqlardagi paxtani chala terib, shoshilgancha ularning izidan quvib boraveraman. Opachamga ehtiyot bo'lmasam, onamdan gap eshitaman. "Sen qayoqda eding?" deydi menga.

— Magnitofoningiz juda uzoqdan yozib oladimi deyman?! — dedi bir kuni muallim opachamga.

Opacham kuldi:

— Yaponlarniki-da, — dedi.

Ular qaysi magnitofonni gapirishayotganini tushunmadim.

Men yaqinlashganimda ular juda sipoyi so'zlashardilar. Hangomalari kino, artistlar, o'qigan kitoblaridan nariga o'tmaydi. "O't yoqqichdan dono chiqadi" deganlariday men ham ularning gapiga quloq tutaverib, anchagina qo'shiqchilarning otini bilib oldim.

Bir kuni talaba qizlardan biri muallimning ko'krak cho'ntagiga uchchanoq ko'rak soldi.

— Hoy muallim qaynim, endi nima qilasiz?! — dedi buni ko'rib qolgan Qurbon yangam.

— Bu qizlar balo ekan, kelganlaridan buyon meni angda qoldirish payida edilar, oxiri tushirishdi, — deb kuldi u. Xullas, muallim bir gashtakni bo'yniga oldi.

— Nasiyaga ko'nmaymiz, domla, aniq vaqtini ayting! — deb talab qilishdi qizlar.

— Men maosh olayin...

— Oo! — deb chuvullashdi qizlar. — Unda uchchanoqni qaytarib bering.

Uchchanoqni qaytarib berish yigit kishiga uyat. Muallim ko'z ostidan opachamga qaradi. Menimcha, qizlarga ziyofat berishga opachamdan tortinib turgandek edi.

— "Arslon izidan qaytmaydi, yigit so'zidan", — dedi Qizlargul ismli shaddot yangamiz. — Bunday bahona bilan qiz bolalarning oldida nomardlik qilmang!

— Bo'ldi, bo'ldi! Men taslim bo'ldim! Kelgusi shanba kuni kechqurun bo'ladimi?

— Bo'ladi! — deb chuvillashdi qizlar.

Gashtak Mingboy traktorchining uyiga belgilandi. Muallim shu uyga qo'ngan edi. Opacham ikki-uch kun avvaldan onamdan ruxsat so'rab yurdi.

— Talaba qizlarning ichida senga nima bor? — deb jerkib berdi onam.

— Ularning hammasi bilan dugona bo'lib qoldim... — deb yolg'on gapirdi opacham. Aslida opacham talaba qizlarning hech biri bilan dugona emas edi.

— Ordona qolsin! — deb onam baribir ro'yxushlik bermadi.

Keyin opacham yangamni ko'ndirdi.

— Enaa, oy qiz birpas ko'nglini chog' qilib kela qolsin, anchadan buyon uydan chiqmay yuragi siqilib ketdi. Yoniga kichkina qizni qo'shib yuboraylik...

Onam bir-ikki daqiqa indamay turdi-da:

— Shaharlik qizlarga qo'shilib ko'p hiringlayverma, qiz bolaning ovozini chiqarib kulgani ayb bo'ladi! — deb gashtakning boshlanishiga bir-ikki soat qolganda zo'rg'a ruxsat berdi.

— Qizim, sen opachangning yonidan bir qadam ham nari jilma, ko'z-quloq bo'l! — deb tayinladi menga.

Endi opachamning ixtiyori menda. U menga qattiq gapirolmaydi. Hatto xo'mrayib qarolmaydi ham. G'ashimga tegsa, bo'lgan-bo'lmagan gaplarni qo'shib-chatib aytib beraman.

Opacham ruxsat olganiga uchib-uchib quvondi. O'zidan avval meni yasantirdi. Sochlarimni taradi, yangi kuylagimni kiydirib u yoq-bu yoqqa aylantirib ko'rdi. Men tayyor bo'lganimdan keyin o'zi oynaning oldiga qadalib oldi.

Mingboy og'aning uyiga odam odamni ko'rar-ko'rmas paytda yetib keldik. Mirzagul yangam katta qozonga to'ldirib ovqat osayotgan ekan. Qozonga qaraganda muallim bechora bir echkiga tushdimi deb o'yladim.

— Keldingmi, Bekzoda? — deb muallim bizlarni ayvon ro'parasida kutib oldi. So'ng yonidagi o'rta yoshlardagi ayolga tanishtirdi. — Ovulning "paxta mashina"si mana shu qiz.

— Assalomu alaykum, — dedi opacham ayolga, biroq qo'l berib ko'rishmadi. Uyaldimi, bilmayman.

— Sog‘-salomat yuribsanmi? Manavi qiz nega salom bermaydi? — deb menga qarab o‘zi qo‘lini cho‘zdi.

— Oting nima? — dedi.

— Shahzoda.

— A?

— Shahzoda!

— Oo! — deb ayoldan avval muallim hayratlandi. — Qizlarning podshosi bu yoqda ekan-ku!

Opacham menga xushomad qilishayotganiga kulib turdi.

— Bu kelinchak men bilan o‘rin almashishga kelgan muallima, — dedi so‘ng. — Ismi Liza. Men ertalab shaharga qaytadigan bo‘ldim.

Opacham dami ichiga tushib, indamay qoldi. Unga muallimning ketadigan bo‘lgani yoqmadimi yoki uning o‘rniga kelgan muallima yoqmadimi, xullas, men o‘shanda buning farqiga bora olmadim.

Tashqaridagi ovqatning qachon pishishi bilan hech kim qiziqmadi. Qizlar muallimdan, muallim qizlardan uyaldimi, har holda dasturxondagi narsalarni ham yeb yolchitishgani yo‘q. Biroq men uyda tansiq bo‘lgan yeguliklardan yeb-yeb oldim. Bu yerda mening uyaladigan hech kimim yo‘q.

— Qani, qizlar, o‘yinga tushasizlarmi? — dedi muallim bir payt.

— Ha-ha! — deb qizlar quvonib ketishdi.

Muallim magnitofonni qo‘ydi. Quloqni qomatga keltiradigan sho‘x misiqa yangradi. Musiqa bilan birgalikda xuddi oyquloqning labidek yaltiroq nurlar xona ichida o‘zgacha jilvalana boshladi. Qizlarning birovi chiroqni o‘chirdi. Shunda kimning kim ekanligini ajratish qiyin bo‘lib qoldi. Liza bilan muallim qo‘l ushlashib o‘nashdi. Buni aniq ko‘rdim.

— Hoy qiz, isming nima edi?

Opacham uchun muallim javob berdi:

— Bekzoda.

— Bekzoda, tur, hamma raqsga tushayotganda chetda bir o‘zing o‘tirganing yaxshi emas.

— Men raqsga tushishni bilmayman.

— O‘rganasan, tur, tur!

Liza muallimning qo'lini qo'yib yuborib, opachamni tortib o'rnidan turg'izdi. Opacham asta-asta dasturxondan uzoqlashib, g'ira-shira qorong'ulikka singib ketdi.

Men ko'zlarimga zo'r berib o'sha ko'lankalarning ichidan opacham bilan muallimni izlay boshladim. Lekin juda yaqin bormasang, u yerdagilarning kimligini farqlash mumkin emasdi. Raqsga tushayotganlarga yaqinlashib borishga uyaldim.

— Ha, podsho qiz, o'ynamadingmi?! — dedi Mirzagul checham mening tashqariga chiqqanimni ko'rib.

— Himm! — deb boshimni qimirlatdim. — Hammasi depsinib yotibdi, shovqindan boshim og'rib ketdi.

Qozon-o'choq boshidagilar kulib yuborishdi.

— Ma, sho'rva ichib ol, mana bu yerga o'tir. — Mirzagul checham yog'och o'tirg'ichni go'sht to'g'ralayotgan xontaxta yaqiniga qo'yib meni o'tirg'izdi. Oldimga bir kosa qaynoq sho'rva qo'ydi. Oshtaxta ustiga piyoz, o'pka-jigar to'g'rab qo'yilgan ekan. Undan har kim qo'l uzatib, olib yeb turishibdi.

— Ma, qizim, mana bu o'pkadan ye, — deb Mirzagul checham menga ikki-uch bo'lak go'sht olib berdi. Sho'rvada qaynab pishgan o'pkaning ta'mi haligacha og'zimdan ketmaydi. Yumshoq, biroq chaynagan sayin yana qaytadan o'rniga kelaveradigan go'sht ekan u.

— Tabelchi bola, sen nega ichkariga kirib o'ynamayapsan? — dedi o't yoqib, samovar qaynatayotgan Odilga Mizagul checham.

U tabelchi bola emas, tabelchining bolasi edi. Checham yanglishib aytdimi yoki atayin hazillashib so'zladimi, bilmayman.

— Men o'ynab bilmayman-ku, — dedi Odil uyalib. — O'ynayman deb qizlarning oyog'ini bosib olsam...

— Qaniydi shunaqa qilsang! Oyog'ini bosganing yaxshi-ku, tezroq to'y yerdik. Nukusdan kelgan muallim yigitga qara, "arpa ichidagi bir bug'doy" bo'lib, boshog'i chiqib yuribdi.

Ichkaridagilar o'yinning zavqi bilan vaqt o'tganini payqashmadi, biz qozonning boshidagi hangomaning qizig'i bilan.

— Bor, podsho qiz, ayt endi bas qilishsin, — dedi checham menga.

— "Bo'ldi, bas qiling!" deymanmi?

— "Ovqat pishdi!" deb chiroqni yoqib yubor.

Menga ham shu kerak edi. Yugurib ichkariga kirdim-da devorni siypalab chiroqni o'chirib-yoqadigan tugmani topib oldim. Chiroq yarq etib yondi. Hamma o'yindan to'xtadi.

— Ovqat pishdii! — dedim chinqirib. Shu payt opachamning belini ushlab turgan muallimni ko'rdim. Ko'rdim-u g'alati bo'lib ketdim. Yig'lagim keldi. "Men tashqarida nima qilib yuribman? Onamning tayinlagan gaplari qayoqqa ketdi? Endi men nima deyman ularga?!"

Mening bezraygan turqimga ko'zi tushib, ikkovi ikki tomonga ajralib ketishdi...

— Onam uyga qaytinglar deb chaqirayapti! — dedim opachamga qichqirib.

Opacham cho'chib tushdi. Indamasdan yerga boqib, devor yoqalab tashqariga intildi.

— Bekzoda, qayoqqa ketayapsan?

— Ovqat yeb ketsang-chi!

Lizaning ham, boshqalarning ham taklif va qistovlari javobsiz qoldi. Biz hammaning gapiga qulog'imizni berkitib, yo'lga tushdik. Tashqarida Mingboy og'a ham, checham ham, Odil ham bizlarning ketayotganimizni bilmay qoldi. Olar tovoq tuzash bilan ovora edilar.

— "Onam rostdan ham chaqirdimi?" deb so'rab qolsa, nima deyman degan o'y bilan uygacha hadiksirab keldim. Lekin opacham bu gapni so'rashga botinolmadi.

— Keldingizmi, qizlarim? Kela qoling, ovqatingizni yeb oling. Birovning uyida berilgan tomoq o'sha uyning bo'sag'asida qoladi, — deb onam bizlardan aylanib-o'rgildi.

Shundagina opacham menga g'alati qarab qo'ydi. Lekin yolg'on gapimni isbotlashga harakat qilmadi. Sababi, men bilan tortishadigan bo'lsa, o'ziga yaxshi bo'lmasligini bildi. Axir, unga hali ko'p kerak bo'laman-da.

5

"Hayotning fayzi — yigit bilan qiz" deb qadimgilar bilib aytishgan. O'sha paytda mening murg'ak qalbim bilan sezganim — dalaning fayzi ham yigit bilan qiz ekan. Ovuldan muallim ketdi-yu,

dala huvullab qoldi. Hech kim hech kimga tegajoqlik qilib, so'z otmaydi, hazillashmaydi. Kulgi yo'q. Ovul ayollarining ham ermagi shu edi, endi shu ham yo'q. Uning o'rniga kelgan ayol avval ochiqqina bo'lib ko'ringan edi, qayoqda, qovog'ini osib, tishining oqini ko'rsatmaydi. Qaddi-qomati kelishgan, kulsa, yarashadigan juvon. Biroq qovog'idan qor yog'adi-ya. Qizlar ham tergan paxtasining ustiga o'tirib, dam ololmay qolishdi. Har biriga qirq besh kilodan norma belgilandi. Shu talabni bajarsa, bajardi, bajarmasa, oy yog'dusida o'rnidan turg'izadi. Mavsum oxirida bunday paxtani o'ynab yurib opacham teroladi, Qurbon checham teroladi, Qizlargul checham teroladi. Biroq Turdish terolmaydi, engashib biroz tergan bo'ladi-da "Huyip-pay, belimay, besh bola topgan yerimay", deb paxta terayotgan etagini orqasiga qayirib to'shab, o'tirib oladi.

— Baraka topkur, shu qo'shig'ingni o'zgartirsang-chi, ortimizdan kelayotgan yoshlardan uyalsang-chi! — deydi Qizlargul checham har safar.

— Men nima, har kuni qo'shiq yozib, gazetdan pul olib yuribmanmi? Qizlik vaqtimda ovuldagi yangalarimdan yodlab olgan qo'shig'im bu. Bu nima deganing, tavba! — deb u ham bo'sh kelmaydi.

Paxtaning barakasi qochdi. Birinchi terim muallim ketaman deb yurgan paytlarda tugagan edi. Ikkinchi terim to'rt-besh kundan uzoqqa cho'zilmadi. Endi uvatga chiqib qarasang, chag'alayday oppoq paxta, biroq yoniga yaqin borsang, chanoqning yarmida osilib turgan pardaygina paxta yoki sovuqda tirjayib ochilgan ko'rak. Ko'rakni yorib, ichidagi paxtani olaman deguningcha barmoqlaringning uchi tilka-tilka bo'lib shilinib ketadi. Hasharchilarning terimi unmasligining sababi shunda edi.

Opacham ham choshgohgacha qanorini paxtaga to'ldirolmay qoldi. Qanor avvalgiday tarang emas, salqiroq, shalpayganroq ko'rinadi. Biroq shunda ham kechgacha oltmish-yetmish kilo paxta torttiradi.

— Chaqqon qiz, sal sekinroq tering, aylanayin, manavi Jupsavsoq qaynag'a seni o'rnak qilib ko'rsatib, holi-jonimizga qo'ymayapti-ku! Uyda chol-kampir bor, mol-holga qarash degan-

day, tongdanoq sen bilan bir paytda dalaga chiqolmasak, — deb yalinadi ovulning xotin-xalaji.

Opacham indamay kulib qo'yadi. Ozroq terishga va'da bermaydi. Qurbon chechamning "Jupsavsoq qaynog'a" degani brigad, oti Qo'shbarmoq.

Ikki gapning birida so'kinmasdan gapirolmaydi. Shuning uchun ham uning so'kinishining ham, baqirishining ham kuchi yo'q. Shunday bo'lsa ham ayollarning undan indamay gap eshitgisi kelmaydi.

Muallim ketgandan keyin eshagimiz yana o'zining avvalgi vazifasiga egalik qildi. Paxta tashiydigan bo'ldi. Ammo minishga kelganda uni faqat men minaman. Opacham minmaydi. Kutilmaganda muallim kelib qoladi deb o'ylasa kerak. Haqiqatan ham shunday. Paxta mavsumida kechgan o'n besh-yigirma kunning ichida ular bir-birini yaxshi ko'rib qolishgandi. Muallim bor paytida opachamni undan qizg'anib yurardim, endi men ham uning qaytib kelishini qo'msay boshladim. Sababi, u kelsa, ovulga fayz kiradi. U kelsa, talaba qizlar qah-qah urib o'ynab-kulib, paxtazorni boshlariga ko'tarishadi. U kelsa, opachamning qovog'i ochiladi. Afsuski, hozir esa... Kechqurun dasturxon boshida xo'mrayib o'tiradi. Gap so'rasang, javob beradi, so'ramasang, yo'q. O'zi hecham gapga qo'shilmaydi. Uning nega bunaqa bo'lib qolganini faqat men bilaman, uydagilarning esa hech vaqodan xabari yo'q.

— Ochilib-sochilib o'tirsang-chi, qizim, — deydi onam o'qtin-o'qtin unga qarab. — birov ro'parangda qovog'iga tosh osib o'tirsa, yegan-ichganing tatimas ekan. Yoki kimdir asabingga tegdimi?

— Yo'g'-ey, o'zim...

— Charchagan bo'lsang, bir-ikki kun paxtaga bormay qo'ya qol. Tog'alaringning uyiga qidirib borib, yayrab kel. Qirov tushgandan keyin paxtaga pul berib ham yolchitishmaydi.

U tog'asining uyiga borgisi kelmaydi. Boshqalar tog'alari bilan apoq-chapoq, biroq biz unaqa emasmiz. Chiqisholmaymiz. Tog'alarimizning o'zlari sovuq. Maboda onam uyda yo'q paytida inilaridan biri qidirib kelib qolsa, onamni chaqirib kelishga meni yugurtirishadi.

— Ona, uyimizga iningiz keldi, — deyman borib.

— Ha, shunaqami, nemis keldimi? — deydi onam achchiqlanib. "Tog'am" demay, "iningiz" deganimga g'ashi keladi. Yomon ko'rgan kishisini "nemis" deb aytadigan odati bor edi onamning. Lekin bizlar bundan xafa bo'lmaymiz. Chunki, onamning bizdan uzoq vaqt gina qilmasligini bilamiz.

Opacham onamni tinchlantirish uchun o'zicha "ochilib-sochiladi", biroq buni sira eplolmaydi. Rostakamiga ochilmayotganini onam ham sezadi.

— Chol, ominni ayting, ovqatlangan bo'lsangiz, qizlar o'zining xonasiga borsin, — deydi.

Omin qilganimizdan keyin ikkovimiz o'ringa kiramiz, onam qozon-tovoqni yuvishga unnaydi. Otam, onam, akam o'zlari allamahalgacha gangur-gungur qilib o'tirishadi. Nima haqda gaplashayotganlarini anglamaymiz, qiziqmaymizam.

Opacham joyimizga kelganimizdan so'ng sochini yozib taraydi. So'ng oynaga qaraydi. Kecha taragan bo'lsa ham tarayveradi. Yashil, sariq toshlar aralash munchog'i bor, shuni bir taqadi, bir yechadi.

Ushlab ko'rmoqchi bo'lib, qo'limni cho'zsam:

— Tegmasang-chi! — deb jerkib beradi.

Men hech nima demasdan indamay sumkamni olaman-da dars tayyorlashga kirishaman. Shu bilan to yotgunimizcha so'zlashmayman.

U ikkalamizga to'shak soladi.

— Kel, yot endi, tongda ertaroq uyg'onib, dars qilasan, — deydi menga.

Men javob bermayman.

So'ng asta yonimga kelib, bo'ynimni barmog'i bilan qitiqlaydi. Qitig'im kelib, kulib yuboraman.

— Yur endi, yotamiz, — deydi so'ngra, — tushdan keyingacha hammasiga ulgurasan.

Ovulda maktabimiz kichkina bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarga joy yetmay, tushdan so'ng o'qirdik. Lekin men yalqovroq bo'ldim. Tez-tez maktabga bormay qo'yardim.

— Ertaga maktabga bormay qo'ya qol, non yopib olaylik, — degan gapni eshitsam, sevinib ketardim.

Yangam shaharga qatnab ishlardi, hamshira, uni olib qololmaydi. Opacham bir gal qolsa, o'rni bilinib qoladi. Brigad eshigimizga ot o'ynatib keladi. Shuning uchun hech kim so'ramaydigani faqat men.

Chiroq o'chgandan keyin allamahalgacha uxlamay yotamiz.

— Opacha! — deyman shivirlab.

— Ha? — deb asta javob beradi u.

Men indamay qolaman.

— Nima deysan?

— Hech narsa!

— Ayt, ayt, nima demoqchisan? — deb menga yaqinroq surilib yotadi.

— Qo'rqaman.

— Kimdan? Nimaga?

— Urishasan-da.

— Gapiraver, urishmayman, — deb yelkamni silaydi.

— Rostdan urishmaysanmi?

— Urishmayman dedim-ku!

— Uni sog'indingmi?

Opacham seskanib ketgandek birdan yelkamdan qo'lini tortib oladi. Jonim chiqib ketadi.

— Meni urishasan deb aytmovdimmi?! — deyman xafa bo'lib.

— Bo'ldi endi, uxla! — deydi-da menga teskari o'girilib, yotib oladi. Murg'ak qalbim bilan sezaman, u mendan xafa bo'layotgani yo'q edi, muallimni eslayotgandi. Uni eslayotganini nafas olishidan sezib qolmasligim uchun naryoqqa o'girilib yotib oldi-da atayin.

Bu savolni muallim ketganidan keyin opachamdan ikki martagina so'radim. Biroq ikki safar ham javob bermadi. Meni ona suti og'zidan ketmagan go'dak deb bilib, mensimadi. Baribir bu savolim unga yoqardi. Yoqqani uchun meni baqirib urishmasdi.

Bir kuni kutilmaganda muallim paxta dalasiga keldi.

— Oo, muallim keldi! — deb qizlar qichqirib yuborishdi. Bu gal ular Lizadan tortinishmadi ham.

U daladagilarning hammasi bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Meni yerdan ko'tarib olib, osmonga irg'itib erkaladi.

— Voybuy, bo'ying o'sib ketibdi-ku! — deb qo'ydi.

Men esa o'n-o'n besh kunning ichida o'sib ketganimga ham hayron bo'ldim, ham sevindim.

— Muallim, endi paxtadan qaytgunimizcha biz bilan birga bo'lasizmi?— deya qizlar chug'urlashdi.

— Yo'q, bugun qaytaman!

— Nega, muallim?

— O'n kundan keyin sizlar ham qaytasizlar. Terim mavsumi tamom!

Qizlar chapak chalib yuborishdi.

— Bugun sizlarning so'nggi yigirma kunlikda tergan paxtangizning pulini olib keldim.

Dalada yana chapaklar va qiyqiriqlar yangradi.

— Qani, hammangiz bu yoqqa kelinglar. G'uncha, fartugingni berib tursang-chi!

G'uncha degan qiz fartugini berdi. Muallim uni yerga to'shab o'tirdi.

— Pulni endi G'unchadan boshlab berasan-da! — dedi Liza kulib.

— Albatta.

— Qizlar dasta-dasta pul olishdi. O'sha yillarda pul o'zgargan, u puldan ham ko'ra rasmli qog'ozga o'xshardi. "So'm-kupon" deyishardi odamlar.

— Ana endi g'ayrat bilan terimga tushinglar, — dedi muallim talabalar qo'l qo'yishgan qog'ozlarni sumkasiga solib. Muallim sumka bilan qo'shib ko'tarib kelgan qopcha bo'shab qolgan edi.

Muallim mening yonimga kelganda cho'ntagiga qo'lini solib, beli buklanmagan bitta o'n mingtalik pulni qo'limga tutqazdi.

— Buni nima qilaman? — dedim men.

— Ol, olaver! — dedi u.

— Nega?

— Aqlli qiz bo'lganing uchun.

U mening gapimga e'tibor bermasdan paxta terayotgan ayollarga "hormang" deya opachamning yoniga shoshildi. "O, muallim keldi" deya qizlar chuvillashganida men opachamning yonidan shovqin-suron bo'layotgan tomonga ketib qolgan edim. Men ham muallimning orqasidan yugurib opachamning yoniga yaqin bordim.

— Lizani almashtirmaysizmi? — dedi opacham muallimga.

— Qani edi iloji bo'lganida, bir umr makonimni ham almashtirar edim. Direktorimizning o'rinbosari ko'p yillardan beri bemor edi. Shu birato'la ishdan bo'shadi, uning vazifasini menga yuklab qo'yishdi. U yoq-bu yoqqa chiqishim qiyin bo'lib qoldi.

— Amaldor bo'libsiz-da, — deb kuldi opacham.

— Sizga ancha vaqtdan buyon o'ylab yurgan bir fikrimni aytayinmi? — dedi muallim.

Opacham savol nigohi bilan unga qaradi.

— Siz yuzingizni ko'rsatib turgan oynaga issiq bug' purkalganda qanday bo'lishini kuzatganmisiz?

— Yo'q, e'tibor bermabman.

— Oynaga issiq bug' urilsa, oppoq bo'lib, hech narsa ko'rinmay qoladi.

— Nega bu gapni aytayapsiz?

— Bu gapni aytayotganimning sababi, men sizni sog'ingan vaqtimda butun dunyo bug' purkalgan oynaning ortida qolganday tuyuladi. Hamma yoq oppoq cheksizlikka aylanib ketadi.

— Oshirib yubordingiz! — dedi opacham kulib.

— Chin so'zim!

— Ana u yoqqa qarang, Shahzoda sizning xayolparastligingizdan kulayapti.

Opacham ularning gapini allaqachonlardan buyon eshitib turganimni endi sezib qoldi shekilli muallimning dil izhoridan uyalib ketib, iyagi bilan menga imo qildi.

Muallim yalt etib menga qaradi. Men uning orqasidan yetib kelganimdan bexabar ekan.

— Shahzoda, borib eshagingni olib kel, bir marta opachangning paxtasini taroziga eltishga ko'maklashib ketayin, — dedi menga iltimos qilib.

— Paxtani olib boradigan vaqt bo'lgani yo'q-ku?! — dedim men.

— Bo'lmasa ham olib boraveramiz.

— Olib kelayinmi? — dedim opachamga.

U ma'qullab bosh irg'adi. Bilib turibman, ikkalasiga ham mening ketganim yaxshi. Shuni sezganim uchun eshakka borgunim-

cha ham, kelgunimcha ham oyog'imni "bosayinmi, bosmayinmi" deb qadam tashlab, allaqancha vaqtda yetib keldim. Ular menga "nega tezroq kelmading?" deyishgani yo'q. Qaytanga shu paytda olib kelganimning ham keragi yo'q edi. Qani endi, eshak qo'limdan bo'shalib keta qolsa... Men ushlay olmay quvalab yursam...

Xullas, o'sha kun bizning opachamiz uchun ko'ngildagidek kun bo'ldi. Hamma qizlar uchun shunday bo'ldiyov menimcha.

Aytganday, o'n kundan so'ng hasharchilar qaytishdi. Keyin dalaga chiqqan chiqdi, chiqmagan chiqmadi. Noyabrning boshlarida tongga yaqin yupqagina qor yog'di. Bu ovuldagilarga yaxshi bahona bo'ldi, dalaga mol haydab yuborishdi.

6

Bilishimcha, opacham muallim bilan va'dani bir joyga qo'ydi. Uyda ham, tashqarida ham xushchaqchaq yuradigan bo'ldi. Men bilan u yoqdan, bu yoqdan gaplashadi. O'qigan yaxshi kitoblarining unchalik qalin emaslarini menga beradi.

— Badiiy kitoblarni ko'p o'qisang, gapga chechan bo'lasan, — deb qo'yadi.

Bir kuni yashil-sariq toshlar aralash munchog'ini mening bo'ynimga taqib ko'rdi.

Men quvonib ketdim.

— "Zanjir" olganimdan so'ng beraman, — deb yechib oldi.

Bir sevintirib, o'sha zahoti xafa qildi meni. U "zanjir"ini qachon oladi hali?! Bizning ovulning qizlariga turmushga chiqqanidan keyingina ota-onasi olib borib taqadi bunaqa zeb-ziynatni. Shunda ham imkoniyati borlar.

— Muallim bilan qochib ketmoqchimisan? — dedim o'sha kunni tezroq yaqinlashtirgim kelib.

— Ha! Aqling joyidami?! — deb ayamay chimchib oldi. Turgan joyimda sakrab-sakrab tushdim. Yig'layin desam, uyaldim. Keyin u "birov eshitib qolmadimi" degandek shoshib-pishib yon atrofiga qaradi.

— Munchog'ing kerak emas! Ma, ol! Sumkamda "o'qi" deb bergan "yetti xat" degan kitobi bor edi, oldiga otib yuborib, chiqib ketdim. Kechqurungacha qo'zi-uloqlarni boqib yuraverdim. Opachamga yaqinlashmadim. Oqshom yotish paytida zo'rg'a yupatib oldi.

— Opa-singil degan bir-biri bilan inoq bo'lishi kerak, — deb sochlarimni chiroyli qilib taragan bo'ldi.

— Yotayotganda soch taralmaydi! — dedim unga.

— Taraganning ziyoni yo'q. Tongda sochlaring to'zg'ib turmaysan.

Men baribir qovog'imni ochmadim.

— Qo'ysang-chi, Shahzoda, endi chimchimayman!

— Urasanmi?

— Urmaymanam.

— Baqirmaysanmi?

— Baqirmayman.

— Agar baqirsang, ko'rasan! Hammasini aytib beraman. "Hammasi" deganda so'nggi marta orqasidan bildirmay borib, eshitgan bir-ikki og'iz so'zdan boshqa hech narsani bilmayman. Biroq shunda ham bu gap ulkan ehtiyotkorlik siyosati edi.

Noyabr oyida yog'ingarchilik mo'l bo'ldi. Bir ochiladi, yarim kun yog'adi, yarim kun ochiladi, bir kun yog'adi.

Shunday kunlarning birida tush paytida uyimizga muallim kirib keldi. Onam uydagi bor qattiq nonlarni to'g'rab:

— Yog'inli kunda non sho'rva yaxshi ovqat, — deb non sho'rva pishirgan edi. Haqiqatan ham ovqat mazali bo'ldi. Nonning shirasi chiqqan sho'rvani ishtaha bilan ichdik.

Muallim kelgan paytda unga "ovqat yeng" deyishga ovqat ham, "non yeng" deyishga non ham yo'q edi. Onam yanggamga qarab, qayta-qayta labini tishladi.

— Inim, qayerning bolasisan? — dedi otam omon-esonlik so'rashishgandan keyin. — Seni bu atrofning bolalariga o'xshatmay turibman...

— Og'a, men shu ovulga paxta mavsumida hasharga kelgan qizlarning muallimiman, — dedi u otamga o'mgani bilan sal engashib.

— Ha, shunday de. Hasharchi qizlarning qaytishganiga ko'p vaqt bo'ldi-ku?

— Bilaman, og'a. Qizlarning keyingi tergan paxtasining pullari bilan hisob-kitob qilayin deb kelgan edim. Qarasam, brigad adashganmi, hisobchi adashganmi, mana bu Bekzoda qizingizning puli bizning qizlarimizning hisobiga qo'shilib ketibdi.

— Astag'firullo! — deb murtidan kuldi otam. — Yaxshi niyatga bo'lsin, qizlaringizning hisobiga qo'shilib, qaniydi o'qishga ham kirib keta qolsa.

— O'qitaman desangiz, yordam beramiz, — dedi muallim gapni chinga aylantirib.

— O'qitmay nima qilamiz. O'zi bir yiqilgandan keyin yuragi betlamay qoldi. Bo'lmasa, mana, Erjonning qizi kirdi, birga o'qigan, Qarliboyning qizi kirdi, O'tamishning qizi kirdi. Buning bir o'zi qoldi, xuddi men bundan molimni qizg'anayotganimday.

— Qo'ya qoling, chol, bor-u yo'q dardingizni dasturxon qilavermay, — deb onam otamni zo'rg'a to'xtatib oldi.

Ovuldagi anavi qiz kirdi, manavi qiz kirdi deganiga ori keldimi, opacham sochiqqa qo'lini artib, o'rnidan qo'zg'aldi.

— Hay-hay, hay qiz, o'tir, qayoqqa ketyapsan? — deb otam uni to'xtatdi. — Omin qilaylik, axir... "Uyida otasi yo'q, oshining fotihasi yo'q" bo'lmasin yana.

Dasturxonga omin qilinib, qo'l yuvildi. Opacham imzo chekib, ancha pul oldi.

Muallim ketdi.

— Bundan ko'ra mening o'lganim yaxshi-yay! — deb onam muallim chiqib ketganidan keyin tizzasiga mushtladi. — Bir tishlam nonsiz o'tiradimi xotin kishi. Haligi bolaga "non ye" deb ayta olmadik-ku!

— Kelin, xamir iyla! — dedi so'ng shaxt bilan. — Chetidan darrov ikkita jayman[1] yoyib yubor. Sen qiz, ukangni ergashtirib, butazorga bor, o'tin terib kel. Tik turgan cho'p tez sergiydi. Poxolning suvi sho'rg'alab turgan bo'lsa kerak hali.

---

[1] **Jayman** — ko'ptirilmagan xamirdan qozonda qovurib pishiriladigan non, chalpak.

Uyimizning janub tomonida bir paxta dalasining maydonidek chakalakzor bor edi. Tomorqamizga keladigan ariq shu to'qayning qoq o'rtasidan oqib o'tadi. Ariq har yili qazilaverib, ikki yoqasidagi uvati odam bo'yidan ham baland bo'lib ketgandi. To'qayning ichi chuqurlik bo'lgani uchunmi, fevralning yarmi, qantar ovganidan boshlab ariqning bo'yida sutilmak chiqib ketadi. Og'zimiz sutdan shira bo'lib, ertalabdan barra sutilmaklarni terib-terib yeymiz. Biroq u ham o'n-o'n besh kundan ortmaydi. So'ng qizilmiya o'sib chiqadi. Qizilmiya sutilmakka kuch bermaydi. Iyul oylarining o'rtalarida qizilmiyaning uzunligi novcha odamlarning ko'kragidan keladi. Meva tukkanda katta-katta donalari munchoqdek terilib turadi, tebratib yuborsang, qo'ng'iroqdek chingillab sado beradi. Avgustning o'rtalarigacha otam qizilmiyaga o'roq solmaydi. "Doni pishsin, doni pishsa, qizilmiya shirin bo'ladi", deb payt poylab yuradi.

Ancha yil ilgari Davxon degan rahbar shu chakalakzorni paxta maydoniga qo'shaman deb ekskavator olib keldi. Otam yo'lini to'sgan edi ustiga qarab haydayverganidan keyin qochdi. Lekin ekskavator to'qayni tekislay olmadi. Bir jiyda butasini qo'pormoqchi bo'lganida ekskavatorning cho'michi sinib ketdi. Singan joyida bir hafta yotdi. Ana o'shanda otamning yilqisi baland tog'ga chiqdi.

— Bizning ota-bobomizning arvohi bilan o'ynashasan-a?! Bular qushning tezagidan ko'kargan butalar emas, otam ekkan jiydalarning tomirlaridan o'sib, butazor bo'lgan, bildingmi? — dedi u rahbarga iddao qilib. "Jiyda qarisa jigildik bo'ladi, qushning yomoni digildik bo'ladi".

Rahbar otam bilan dahanaki janjallashib o'tirmay, kelgan yo'liga ravona bo'ldi.

Zovur bo'yidagi qizilmiyalar kuzda o'rib olingandan keyin qishi bilan poyasi quvrab, terak qalamchasidek bir tekis o'tinga aylanadi. Tubi chirib qolgan poyacho'plarni qisimlab-qisimlab uzib olaverasan. Ob-havo namgarchilik bo'lgani uchun onam bizlarni o'sha o'tinlarni terib kelishga yuborgandi.

— Hormanglar! — uvatning bo'yidan cho'p terayotgandik, yalt etib qaradik. Zovurning ichidan muallim kelayotgan edi. Men hayron qoldim. Onam bizlarni atayin o'tin terishga yubordimi? Yo'g'-ey! Unda muallim bizning bu yerdaligimizni qayoqdan bil-

di? Yoki opacham bizga bildirmay, muallim bilan pinhona ko'z urishtirdimikin?! Meningcha, bu kutilmagan hodisa edi.

— Qani, men ham yordam berayin, — deya yeng shimarib, ishga kirishdi u.

— Qo'ying, ustingiz kir bo'ladi, — dedi opacham.

— Bekzoda, bu yoqqa kel, bu yoqda cho'plar to'lib yotibdi, — deb muallim ancha oldinga chorladi.

— Qani? — deb opacham ham uning izidan ergashdi. Zovurning qayrilgan joyidan nariga yurishganida ular menga ko'rinmay qolishdi. Men ularning orqasidan bormadim. Bilaman, u yoqda hech qanaqa cho'p to'lib yotgan emas. Maqsadlari mendan uzoqlashish. Surishtirib, haligi "yapon magnitofoni" ham men ekanimni bilib olgandim. Shuning uchun bu safar "magnitofon" bo'lgim kelmadi.

Ular zovur ichida allanarsalarni gunk-gunk qilib gaplashishdi. Ko'nglim g'alati bo'ldi. Muallimni ilk uchratganimdek yana yomon ko'ra boshladim. "Ovulga kelib, opacham bilan yashirincha uchrashishga qanday haddi sig'di?!"

— Bekzoda-yuvv?! — onamning chaqirgan tovushi eshitildi.

— Onam chaqirayapti!!! — deb qichqirib yubordim birdan.

Opacham yugurib chiqdi.

— Haligi gap esingdan chiqmasin, yaxshimi? — deya orqasidan shivirlab qoldi muallim. — O'shanda ikkimizga ham yaxshi bo'ladi.

Opacham bilan men har birimiz bir orqadan o'tin ko'tarib, uyga qaytdik. Muallim qayoqdandir yo'l topib, ko'rinmay ketdi.

— Haliginda nimani "esingdan chiqmasin"deb aytdi? — deb so'radim kechqurun opachamdan.

— Hech narsani! — deb to'g'risini aytgisi kelmadi.

— Aytmasang, aytma, — dedim men ham ko'zlarimni chaqchaytirib. — Ertalab onamga aytib beraman.

— Vaxx! — o'zini majburlab kuldi opacham. — Sen nima yosh bolamisan?! Kap-katta qiz bo'lib qolding-ku. Bir narsa bo'lsa, darrov "aytib beraman-aytib beraman" deysan...

— Unda nega mendan yashirasan?

— Xo'p yaxshi, gap bunday, sen mening yonimni olasanmi?

— Qanday qilib?

— Mening aytganimga qo'shilasan.

Men xo'p degandek bosh irg'adim.

— Keyingi hafta otamga "uyga telefon o'rnataylik" deb aytaylik.

— Uni kim qurib beradi?

— Montyor.

— Pul olmaydimi?

— Oladi. Haligi mening pulimga qurdiramiz.

— Haa! Muallim telefon ulatish uchun bergan ekan-da o'sha pulni, a?

— Seni qara-yu! Hamma narsaga tushunadigan bo'lib qolgansan-a... Telefon jiringlaydi. Sen olasan, keyin "opacha, telefonga" deysan menga.

— Uydagilar "kim u?" desa, nima deyman?

— "Ovulga hasharga kelib-ketgan qizlar" deysan.

— Ikkimiz ham yolg'onchi bo'lamizmi endi?

— Bu vaqtincha. Endi yotib uxla, yaxshimi?

Ko'p o'tmay uyimizga telefon o'rnatildi. Telefon hamma ishni tezlatdi. Yozda katta qora "Chayka" bilan muallim opachamni tushirib olib ketdi.

— Bizning biyqizning baxtini qara, xudoyga shukur, katta amaldorlar mingan mashinada uzatildi! — deb tanglayini qoqishdi ovulning ayollari.

7

Opacham ketganidan keyin uyimiz huvullab qolgandek bo'ldi. Dasturxon boshida ham gurungimiz unchalik qovushmas, hammamiz biron-bir qimmatli narsamizni yo'qotib qo'ygandek, ko'nglimiz allanechuk bo'lib yurardik.

Onam o'z-o'zidan opacham haqida gapirgisi kelaveradi.

— "Qiz bola borgan joyini isitadi, ketgan joyini sovitadi" deganlari rost ekan... Tun yarmida yuragimni qalampir achitgandek bo'lib uyg'onaman. Nima ekan desam — qizimning sog'inchi.

— Bugun tushimda biykachni ko'ribman, — deb gapni ilib ketadi yangam. — "Yangaa" deb quchog'ini ochib hovlidan yugurib kelayapti.

— Aylanayinay, uyni sog'inib yurgandir, balki, — deb xo'rsinadi onam.

Yangam opachamni tushida yo ko'rgan, yo ko'rmagan. Shu bahona bilan onamga yoqish uchun o'z "tush"ini aytmoqda. Onam ham buni biladi, biroq bilsa ham kelini "qizini tushida ko'rgani" moyday yoqadi.

Bunday payt otam hecham indamasdan tashqariga chiqib ketadi. Akam ham uning izidan qo'zg'aladi.

— Oyqizning uyda yaxshi ko'rib kiyadigan ko'ylaklari bor edi, olib borib bersak bo'larmidi... — deb yangam onamga ikkilanib qaraydi. "Olib bora qol" desa, g'izillab uchadi. Lekin onam uning bu gapiga ro'yxushlik bermaydi.

— O'sha ko'ylaklar unga uyda yarashar edi, ular boshqa ostonaga yarasharmidi?! — deydi zarda bilan.

Haqiqatan ham opachamning ko'krakburma qilib tikilgan chiroyli ko'ylaklari bor edi. Kiygan paytida qomatiga juda yarashib turardi. Lekin to'yiga borganimizda uning kelin bo'lib kiygan asl kiyimlarni ko'rib, onam ich-ichidan xijolat bo'lib ketdi. Yuzidan bilinib turdi xijolat bo'lgani. Unga quda tomon kiydirgan kiyimlarni ko'rib, qizligidagi chala to'zgan shtapel ko'ylaklarini olib borib, obro'y ololmasligini biladi-da u.

Opachamni hammadan ham ko'proq men sog'indim. U jahli chiqsa, chimchib-chimchib olar, shod bo'lsa, erkalab "singilcham men bilan tenglashib borayotir-ku", deb oynaga qarab, bo'yimni bo'yiga o'lchardi. Uni ko'rgim kelib, orqasidan borishni juda istardim-u, biroq borishga jur'at qilolmas edim. Ularning uyiga kirsam, bo'sag'adan boshlaboq muzeyga kirgandek bo'laman. To'shagan gilamlariga qadam bossam, oyoqlarim ko'milib ketadi. Kiraverishda katta ayvon bor. Hamma eshiklar shu yerdan ochiladi. Har eshikning yonida devorga romlari marmar toshdan o'yib ishlangandek katta rangtasvir suratlar osilgan, ro'parada esa odam bo'yidek baland soat qo'yilgandi. Kapgiri oltinmikin, mismikin deb ushlab ko'rmoqchi bo'lsam, u uzun oynali shkafning ichida turgan ekan. Hammasiga havasim keladi-yu, yana o'zimni noqulay his etaman.

Odam bo'yi gullar, mitti daraxtlar gultuvaklarning ichida o'sib turibdi. To'rdagi katta mehmonxona eshigining yonida qizg'ish-qo'ng'ir mato to'shalgan stol, stol ustida to'rtburchak shisha idish, idishda tip-tiniq suv, suvning ichida ertakdagidek oltin baliqlar suzib yuribdi. Suv tubida har xil rangli yaltiroq toshlar orasida ukropga o'xshagan mayda yaproqli maysalar o'sgan. Baliqlar goho toshlar uyumidagi kovakka kirib, ko'zdan yashirinadi, birozdan keyin qaytib chiqadi. Baliqlar loy yeb, semiradi deyishardi, bu shisha idishdagi baliqlar olmosdek tiniq suvning ichidan qanday yemish topishiga hayronman.

Bir xonada uch oyoqli qip-qizil royal turibdi. Hech kim "ting" etkizib chalmaydi. Shunday bo'lsa ham keng-mo'l joyni bu matoh bilan band qilib qo'yishganiga ajablanaman. Xullas, u uyda hech narsani bemalol ushlab ko'rish mumkin emas. Tushirib yuboramanmi, sindirib qo'yamanmi deb qo'rqasan.

Ovulda hamma narsa boshqacha. Emin-erkin nafas olasan. Opachamning shu diqqinafas uyda oyoq uchida ehtiyot bo'lib yurganiga rahmim keladi. Biroq uning o'zi taqdiridan norozi emas. Qachon qarama, yuzlari gul-gul yashnab yuradi.

Shunday qilib, bora-bora uning uyda yo'qligiga ko'nikib ham qoldik. "Odam uch kundan keyin do'zaxga ham o'rganadi" der edi onam. Oradan ikki-uch oy o'tib, u go'yoki olisdagi qarindoshimizdek bo'lib qoldi. Faqatgina onamning tilidan uning nomi sira tushmaydi.

— Bekzodaa, Sulton, keliinaa, Shahzoda! — deb birimizni chaqirish kerak bo'lsa, hammamizning otimizni birvarakayiga aytadi. O'shanda ham birinchi bo'lib onamning tiliga uning ismi keladi.

Kechga tomon men ham, onam ham telefonga umidvor bo'lib, bir-birimizga bildirmay qarab-qarab qo'yamiz. Ikki-uch kun qo'ng'iroq jiringlamasa, onam:

— Qizim, anavinga qarab ko'r-chi, sim-pimi uzilib qolmadimikin? — deydi menga.

Bu opachang qo'ng'iroq qilmayapti-ku, deb ilhaq bo'lgani edi. Xuddi shuni poylab turgandek telefon ham birdan "jiringg" etib qoladi. Hammamiz bir seskanib tushganimizni bilmay qolamiz. Al-

batta, telefonga eldan burun men yetib boraman. Kutganimizdek opacham qo'ng'iroq qilgan bo'ladi. U odatdagidek qo'li bo'sh bo'lganda, ko'pincha qozon-tovog'ini yig'ishtirgandan keyin allamahalda qo'ng'iroq qiladi. Biz ham uni kutib uxlamay turamiz. Hech ish bo'lmay, bekor qolsak, onam turli gap-so'z topib o'tiradi. Qo'ng'iroq opachamdan ekanini bilishgandan so'ng otam bilan akam o'rinlariga ketishadi. Bizlarning mayda gapimiz ularga yoqmaydi.

Opacham meni telefonda aylanib-o'rgilib erkalaydi. U hali ham meni eshakni o'qariqqa bog'lab keladigan kichkintoy qizaloq deb biladi. Men kun sayin o'sib borayotgandim-ku. Buning ustiga u ketgandan keyin birdan aql-hushli bo'lib, esim kirib qolgandim. Endi men ham bir uyning katta qiziga aylangandim. Shunda ham birov aylanib-o'rgilib, yalab-yulqib o'tirgandan keyin go'dakdek erkalanging kelar ekan.

— Opachaa, qachon kelasiz? Sog'inib ketdim! — deb kichkina qizaloqdek xarxasha qila boshlayman.

— Boraman, shukrim, boraman!

So'ngra u uydagilardan boshlab, ovuldoshlarimizning barini so'rab chiqadi. Yomon ko'radigan odamlariniyam qoldirmaydi.

Go'shakni qachon menga berar ekan deb kuta-kuta charchagan onam:

— Bo'la qol, qizim, gapingni tugat! — deb tapamda turib qistaydi.

Ana shunda telefon go'shagini onamga beraman. Ularning gurungi juda uzoq cho'ziladi. Lekin har safar tugamay qoladi. Telefonning o'zi "bo'ldi-da endi" deganday suhbat ayni qizigan paytda aloqa uzilib qoladi.

— Qurib ketgur telefonning mana shunday qilig'i jonimga tegdi, — deb go'shakni menga beradi. — Yo qaytadan terib ko'rasanmi?.. Bo'ldi, qo'ya qol, uyat bo'ladi.

Bir gal otam shu telefon tufayli onamni qattiq koyidi.

— Shu odatingni bas qil! — deb tutaqib baqirdi. — "Chiqqan qiz chiydan tashqari", degan. Qaynotasi bor, qaynonasi bor, ular nima deb o'ylashadi? Uyat emasmi!

Hammamiz yelkamizni qisib qoldik. Yugurib borib telefonni olaverganim sababli xayolimda o'zimni gunohkorday sezdim.

— Shahzoda, otangning baqirganini opachangga aytib yurma, — dedi onam uxlashga yotayotganimizda. — O'pkalab, qo'ng'iroq qilmay yuradi.

Shuni bilgandek opachamning qo'ng'iroqlari ham ancha siyraklashdi.

Bir kuni u qaynsinglisini ergashtirib qidirib keldi. Uyimizda bayram bo'lib ketdi. Semirib yurgan katta kurkamiz bor edi, otam o'shani so'ydi.

O'zimizning oilamiz a'zosiga ham tuyatovuq so'yishar ekan-ey, — deb ichimda o'yladim.

Biroq shu qurib ketgur xo'rozdan qutulganimga quvondim. Bu xo'roz barcha kurkalarimizning ichida eng kattasi edi. Kurkaning xo'rozi kattarsa, yomon bo'lar ekan. Egnimga qizil kiyim kiyib tashqariga chiqolmayman, orqamdan yugurib kelib qo'shoyoq-lab gurs etib tepadi. Yiqilishimga sal qoladi. Pixi qayrilib ketgan tirnog'i bilan tepib, necha marta boldirimni yara qildi. Qo'shnilarimizning bolalarini bezor qilib yubordi, uyimizga qadam bosisholmaydi. Odatda odamlar itdan qo'rqishadi, bizning uyda esa xo'rozdan qo'rqishadi.

Opacham bilan kun bo'yi tuzukroq gaplasholmadik. Mehmon bo'lib kelgan qiz ham xuddi birov tishlab oladigandek opacham uyga kirsa, uyga kiradi, dalaga chiqsa, dalaga chiqadi yoki u ham haligiday "yapon magnitofoni" xizmatini bajararmikin...

Kechqurun onam chorasini topdi.

— Kelin, qudacha qiz bilan Shahzodaga o'zingning xonanga joy sol, Sultonga otangning yoniga o'rin sola qol, men bugun qizimni bir oqshom hidlab chiqayin, — dedi.

Yangam qozon-tovog'ini yig'ishtirgunicha mehmon qiz bilan to'shakda yonma-yon yotdim. Lekin u ham, men ham bir-birimizga lom-mim deb og'iz ochmadik. Men nima deb gapiraman, uni tanimasam. Yoki u mening tanigan odamlarimni tanimasa. Xayolimda u ham mendek ahvolda edi. Tezroq tong ota qolsa-yu uyiga qarab uchsa. Lekin u ovora bo'ladi. Opacham kelgan vaqtida onamga "ikki kun qo'naman" degan.

Allamahalda yangam o'rniga kelib yotdi. Kunduzi beshikda uyqusi qongan chaqalog'i ingalay boshlagan edi biroz emizib, bir-ikki tebratgandan so'ng qaytadan uxlab qoldi. Ro'zg'or yumushlaridan charchagan yangam ham bir zumda pish-pish etib uyquga ketdi. Sekin razm soldim, qudacha qiz uxlayaptimi, uyg'oqmi? Bilinmaydi. Nafas olgani ham sezilmaydi. "Hay mayli, men o'g'irlik qilmoqchi bo'layotganim yo'q-ku" dedim-da, mushuk yurish bilan xonadan chiqib, opachamning yoniga keldim. Ular hamon shivir-shivir qilib gaplashib yotishgan ekan.

— Bolamay, haliyam uxlamay yuribsanmi? — dedi onam menga mehribonlik bilan.

— Mehmon qiz qayerda?

— Allaqachon tosh bo'lib qotib qoldi! — dedim yoqtirmay.

"Kel, mening yonimda yot" deyishning o'rniga nega mendan mehmonni so'raydi! Qaynsinglisi unga mendan ko'ra yaqin bo'lib qolibdimi!?

Men kelganimdan keyin onam bilan opacham gapning mavzusini o'zgartirishdi. Lekin gurungi bir-biriga sira qovushmadi. Birining javobi, birining savoliga mos kelmasdi. Bildim, bir-biriga aytgan gaplarini mendan sir tutishardi. Unda men dushman ekan-da, balki. Mendan gap yashirishdi deb chiqib ketayinmikin? Hech vaqoni anglamaydigan fahm-farosatsiz qizdek indamay yotaverdim. Bir mahal jo'rtaga xurrak ota boshladim.

— Sen buni kimdan eshitding.

— Marhum bo'lib ketgan qaynonam hayotligida oldiga chiqqan burundiq qizi bor ekan, shu aytdi.

— U kelib-ketib turadimi?

— Borish-kelishi yo'qmi, deb o'ylab qoldim. Yana bir-ikkita qo'shnilarning mish-mishlaridan eshitdim. "Qaynonang bechora Bibi Fotimaning chin qizi edi, boyoqish darddan o'ldi-ku, axir, keyingi paytlarda uni bir tomga qamab qo'yishdi, esi kirdi-chiqdi bo'lib qolgandi", deyishdi. Bu gapni eshitib a'zoyi badanim seskanib ketdi.

— Ammo qudamiz unaqa birovga ozor beradigan odamga o'xshamaydi, — dedi onam. Opacham bu gapdan quvonib ketdi.

— Ha, kattaga ham, kichikka ham birday xushmuomalali. Menga hech "kelin" demaydi, "qizim" deb gapiradi.

Onam bir zum indamay o'ylanib qoldi.

— Qayoqdan bilayin, chirog'im, odamning olasi ichida deyishadi-ku, tili moyli, dili g'ayri bo'lmasa go'rga edi.

— Yo'g'-ey, ona!

— Yo'g'-ey dema, qizim, axir, sen uning ichiga kirib chiqqaning yo'q-ku? "Shamol bo'lmasa, darxtning uchi qimirlamaydi". Mening xavotirim shundaki, o'g'il otasiga, qiz onasiga tortadi", deganlaridek sening kuyoving ham otasining izidan yurib, yarim yo'lda dardisarga duch kelmasang go'rga edi.

— Qo'ysangiz-chi, ona, — dedi opacham o'zini xafa bo'lgandek ko'rsatib. — Faqat aytishga uyalaman-da, kuyovingiz har kuni tongda uyg'onib, "Bekzoda, yoningda yotsam ham tonggacha seni sog'inib chiqaman" deydi. Shunday degan odamdan bevafolik chiqadimi?!

— Ana shunday gapdan qo'rqqulik. Biz ham otang bilan bir-birimizni shunday yaxshi ko'rib, turmush qurdik, biroq otangdan "seni sog'indim", degan gapni haligacha eshitmadim. Kuyoving o'ziga suv yuqtirmaydigan firibgar bo'lmasin yana.

Opacham nafasi ichiga tushib, jim bo'lib qoldi.

— Ha, xafa bo'ldingmi? — dedi onam xijolat bo'lib. — O'zingga ehtiyot bo'l, oshingga chivin tushmasin deyman-da!

Opacham gapirmadi. Shu bilan gap tamom-vassalom. Ikki kun yotib qolaman deb kelgan odam tongda chala-chulpa choyini ichib, yo'lga tushish tadorikini ko'rdi.

Onam uning nega to'satdan qaytgisi kelib qolganini sezsa ham, qol deb qistamadi. Uyimizning ostonasida jimgina kuzatib qoldi.

8

O'sha kundan boshlab onam opacham haqida hadeb gap qo'zg'ayvermaydigan bo'ldi. Telefonga o'qtin-o'qtin intiq bo'lib qarayverish odatini ham bas qildi. Shuni bilgandek telefon ham pechkaning yonida mulgigan qora mushukdek jimjit. Yangam ham endi qaynsinglisini avvalgidek tushida ko'rmaydi.

Otam gap orasida:

— Quda tomondan anchadan buyon sado yo'q, hol-ahvol so'rashmaydiyam. Gaplashaman desa, mana, Xudo bergan telefon bor, — deydi.

Ammo uning gapiga hech kim javob qaytarmaydi. Onamning lablari uchib-uchib turadi-da, bildirgisi kelmay gapni boshqa yoqqa burib yuboradi. Otam har gal qudasi haqida gapirganida kampirining chiroyi ochilishini bilar edi, ammo negadir endi kampiri bu gapni xushlamaydi. "Bu kampirga nima bo'lganini" otam tushunmay hayron.

O'sha yili kuz erta keldi. Barvaqt sovuq tushdi. Ekinning pishganini ham, pishmaganini ham sovuq urib ketdi. Paxtaning birinchi navli terimi o'n kun davom etdi, xolos. Sovuqda hamma ko'raklar tirjayib ochilib ketgandan so'ng qay chigit pishgan, qaysinisi pishmagan ayirish amrimahol edi. Fermerlarning aytishiga ko'ra, o'sha yili paxta vaqtliroq tugaydiganga o'xshardi.

Ovulda hasharchilar ko'paydi. Biroq ular har galgidek ovuldagilarning uylariga taqsimlab joylashtirilmadi. Ertalab kelishib, kechqurun qaytishadi. Paxtazor chetida avtobuslar bir qator tizilib turadi. Yuzlab kishi birvarakayiga egatga tushar, ularning izi chigirtka tushgan daladek qop-qora bo'lib qolar edi. Hasharchilarga juda rahmim kelardi. Biz tushda uyga kelib, kamida ikki soat dam olamiz. Ular esa egatlarning chetida fartuklarini yerga to'shab, dasturxon qilar, termoslarida qaynog'i o'chgan, iliq choyi, kimdir konserva, kimdir bankada olib kelishgan qovurilgan kartoshkasini o'rtaga qo'yib, tamaddi qilishardi. Taom yeganga ham, yemaganga ham o'xshamasdi. Biroz cho'zilayin desa, tevaragida nuqul tegirmontoshidek kesak. Oxiri noiloj egatga tushishadi. Paxta maydonini qancha vaqtli tozalashsa, shuncha ertaroq shaharga qaytishlarini bilishardi.

Xullas, o'sha yilgi kuz opacham bor paytdagidek fayzli bo'lmadi. Ilgari bizlar tong otgandayoq tezroq paxtazorga ertaroq yetib borishga shoshilardik. Egatlarda qizil-yashil libosli qizlar. Ularning orasida bo'lajak pochcham savlat to'kib yurardi. Bu yilgi kuz esa... Shuyam kuz bo'ldi-yu. Quti qochgan fasl bo'ldi bu fasl.

Ovul odamlari paxtaga deyarli chiqmay qo'yishdi. Besh qo'noq[1]dan burun o'rib ulgurgan jo'xorilarining boshini qayirishadi, dala ichida xirmon qilishib, eshak tuyoqlari bilan jo'xori so'talarini tuyishardi. Fermerlar ham ularga indashmasdi. Ko'rsa ham ko'rmaganga olib ketaverishardi. Yozi bilan dalada yurganiga bir so'm bermaganidan keyin odamlardan tili qisiq.

Shuning uchun qani g'ing deb ko'rsin-chi.

— Ertaga tongda Nukusga ko'chib ketmasam, otimni boshqa qo'yaman! — deb baqirib berishadi yuz-ko'zingni demay.

Hammasi Nukus bilan qo'rqitishadi. Nukus bizning ovul odamlarining "doyi yurti".

O'sha yili bizning jo'xorimiz barvaqt pishdi. Boshi egilmagan uzun jo'xorilar odam bo'yidan baland edi, otam poyalarini tubidan "tup-tup" etib o'rdi. Jonivorning har boshi telpakday bo'ldi. Uydagi hangi eshak bilan jo'xori donini tuydik. Meni eshakka yaqinlashtirishmadi. "Qiz bolaga uyat bo'ladi" dedi otam. Akam yetakladi, otam qamchi bilan orqasidan haydab yurdi. Biz onam bilan ikkalamiz xirmonning chekkaga chiqib qolgan so'talarini o'rtaga tashlab turdik. Bechora hangi har aylanganida bir qamchi yer edi. Bunga o'zi sababchi, nafsi yomon. Boshi bir engashsa, bir bosh jo'xorini og'ziga solib chaynaydi. O'sha so'tani ming qamchi yesa ham yerga tashlamaydi, oxirigacha yemasdan qo'ymaydi. Otam buning chorasini topib, boshiga to'rva ildi. To'rvaning yarim belidan arqon bilan bo'g'ib qattiq bog'lagan edi hangi osmonga sakradi, bechora nafas ololmay qolgan ekan. Xullas, uch kunda jo'xori donlarini sitib bo'ldik. Qirq xalta jo'xori doni chiqdi. Bir xaltasini kechqurun eshakka ortib mullaga eltib berdi akam.

— Har o'n xaltadan bir xalta berishimiz kerak edi, qurg'ur ko'zimiz qiymaydi, — dedi otam kechki ovqat ustida.

— Shu kunda zakot-pakotni tugal qilib yurgan kishi bormi? — deb qo'ydi onam ham. Unga ham ortiqcha chiqim yoqavermaydi.

---

[1] **Besh qo'noq** — ekinni sovuq urishi. Shimol tomonlarda sentabrning oxiri, oktabrning boshida besh kun qattiq sovuq bo'ladi. Yerga qirov tushadi. Sovuq yegan ekinlar pishmay qoladi. Ba'zida besh qo'noq yengilroq bo'lib ham o'tib ketadi. Besh qo'noqda sovuq urmagan sabzi qor yog'guncha chidaydi.

— Qizimizga bir xalta beraylik, — dedi otam.

— Qaydam, — deb labini qimtidi onam, — bu qudangiz jo'xoridan ovqat qilib yermikin?

— O'zi yemasa, tovug'iga soladi, qizimizning ham ulushi bor-ku.

Shu bilan gap tugadi.

So'ng beda g'amladik, kartoshka kovladik. Faqat sabzi chidamli ekan, besh qo'noq unga zarar yetkizolmabdi. Qirov yegan sayin sabzi mazali bo'ladi, deydi otam. Biroq qovunlar suv bo'lib oqib ketdi.

Kuz erta kelsa, qish ham uning izidan oyoq tirab turar ekan. Noyabrning dastlabki haftasidayoq yupqa qor yog'di. Uy ichimiz bilan sabzi kovlashga chiqib, sabzilarni qorning orasidan qoqib oldik. O'sha kuni mollar ham dalaga haydab yuborilgandi, lekin bizning qo'y-echkilarimiz sabzi barglariga mazaxo'rak bo'lib, o'zimizning tomorqadan nariga ketmadi. Barglarning orasida bitta-yarimta sabzi qolib ketgan-da, axir. Bu ular uchun go'sht solib damlangan palovdan ham afzal edi. "Qor yog'di deb quvonma, ayozi bo'lar izidan" degan gap rost ekan, yupqagina yog'gan qorning sovug'i hammani qaltiratdi. Bo'g'cha-yu tugunlardagi qalin kiyimlarimizni topib kiydik. Yozi bilan ko'ylakchan yurish badimizga urganmikin, odam issiq kiyimlarni ham sog'inarkansan.

Uyning bir burchagida bir xalta jo'xori bilan ikki xalta sabzi turibdi. Bular opachamning ulushi. Olib borib berishga hech kim botinolmaydi yoki o'zi kelib olib ketmaydi. Ular bilishmaydigandek edi bizning opachamning haqini saqlab qo'yganimizni.

Bir kuni buning payti keldi. Yangi yilga uch-to'rt kun qolganda otam bilan onamni qudasi uyiga chaqirdi. Tuman markazidan bir mashina ushlab, uch xaltani yuklab, Nukusga qarab yo'l tortdikay. Qudasi otam bilan onamni chaqirgan, lekin men qolamanmi?! Bir uyning ham kichkina qizi, ham katta qiziman. Bormay qolsam, baribir opacham so'raydi.

Quda tamon uy ichi bilan darvozaning oldida bizni kutib olishdi. Men chiqayotganimizda opachamga qo'ng'iroq qilgan edim. Otam quda bobo bilan quchoqlashib ko'rishdi. Ovulimizda bunday

odat yo‘q edi, qudasi quchog‘ini ochib kelganidan keyin otam ham majbur bo‘ldi.

Qudamiz opacham aytganiday jilmayib yuradigan xushro‘y yuzli kishi ekan. Kiygan kiyimlariga ham havasing keladi. “O‘z uyida bekday bo‘lib yuradi” deganlari shu bo‘lsa kerak. Egnida sur yoqali, ko‘krak cho‘ntakli pidjak. Shalvori ham zamonaviy. Boshida sportchilar kiyadigan ola chiziqli qalpoq, pidjakning ichida futbolka. Xotini o‘ziga qaraganda ancha yosh ekan. Yuzida dog‘ yo‘q, oq qog‘ozday. Tomog‘ining tagida bir qavat buqog‘i bor. Bo‘ynida oltin halqali zanjir.

Pochchamiz otam bilan maxsumlardek qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salomlashdi. Kiraverishdagi ayvonga yumaloq stol va oltita stul qo‘yilgan. To‘yga borganimizda ular yo‘q edi. Shu yerda omin qilishdi.

— Quda, bolalar choy damlaguncha sizga uyni ko‘rsatayin, — dedi quda bobo.

— Hov, haligi... mashinadagi xaltalarni tushirib olib, haydovchiga yo‘lkira pulini berish kerak edi, — dedi otam taraddudlanib. — Tashqarida dilgir bo‘lib o‘tirgandir. Uni unitib qo‘yibmiz-ku.

— Hammasi joyida. Haydovchingiz allaqachon yarim yo‘lga yetib qoldiyov.

Qudamizning oti Ubaydulla, qudag‘ayimizning oti Azima ekan. Uyimizda ham bu ismlarni aytib yurishgandir, biroq men eslab qolmagan ekanman.

Ubaydulla og‘a hamma xonalarni birma-bir ko‘rsatdi. Bir xona boshqa xonaga o‘xshamaydi, har birida to‘shaklar ham, mebellar ham boshqa-boshqa edi. Aytishlaricha, ularning avvalgi uyi yangi qurilayotgan ko‘chaning o‘rniga to‘g‘ri kelib, buzilib ketibdi. Bu uyni qurishganidan keyin bir paytlar yaxshilik ko‘rgan inilari, shogirdlari har xonani bitta-bittadan bo‘lib olishib, jihozlab berishgan ekan. Bunday bo‘lmaganida shuncha xonani narsa bilan to‘ldirish oson emasdir, balki. Lof bo‘lmasa, bizning tumandagi bog‘chaning yarmisicha bor. Royalni madaniyat ministri bo‘lgan bir inisi sovg‘a qilibdi. “Bizning uyimizda buni chaladigan kishi yo‘q-ku” desa, “Turaversin, og‘a, chiroy bo‘lib. Bu hozirning modasi” debdi haligi ministr.

Oltin baliq bilan zang chalib turadigan soatni kim olib berganini aytmadi. Biroq men shuni bilishga qiziqqandim.

Kechki ovqatdan keyin Ubaydulla og'a hammamizni bir xonaga yig'di. O'g'illari, qizlari bilan birin-birin tanishtirdi.

— Men kimman? — dedi pochchamga.

Pochcham o'rnidan turib, javob berdi.

— Otamsiz.

— Bu kishi kim bo'ladi? — deb otamni ko'rsatib.

— Otam.

— Barakalla! Xo'sh, bu kishi kim?

— Onam.

— Yonidagi-chi?

— U ham onam.

— Barakalla! Shuni o'ng qulog'ing bilan ham, chap qulog'ing bilan ham eshitib ol — endi sening ikki otang, ikki onang bor, zinhor-bazinhor birovini ikkinchisidan kam ko'rib yurma. Agar shunday qilsang, seni farzandim demayman.

Pochcham qo'lini ko'ksiga qo'yib, tik turib turdi. So'ng bu imtihon opachamga ham takrorlandi. U ham shu uyning tartibiga ko'nikib ketgan ekan, pochcham qanaqa hurmat ko'rsatgan bo'lsa, u ham aynan shuni takrorladi.

— Endi, quda, — dedi Ubaydulla og'a. — Xudodan yashirmaganni bandasidan yashirib bo'lmaydi. Ko'rib turibsiz, qudag'ayingiz ancha yosh. To'g'risi, mendan yigirma to'rt yosh kichik. Avvalgi qudag'ayingiz to'rtinchi qizini tug'ayotganida dardga chalinib, vafot etdi. Bolasi ham nobud bo'ldi. Ko'rsatmagan tabibim, olib bormagan shifokorim qolmadi. Dardiga davo topilmadi.

Oting surinsa, izidan gap-so'z ko'payarkan. Elning aytishicha, u meni rashk qilganidan kuyib o'lgan emish. Bu g'iybatchilar shu ayoldan bo'lgan ikki qizim bilan oramizni sovitdi.

Azima o'sha paytda endi o'ninchini bitirib, ishxonamda kotiba bo'lib ishlayotgandi. Mening avval bolaligida nobud bo'lgan qizim o'n ikkiga kirgan bo'lardi, undan keyingi qizlarimning biri sakkiz, birovi to'rt yoshda edi. O'zim qirq ikkini to'ldirib, qirq uchga chiqqanman. Ayoli o'lgan erkakning ahvoli qalay bo'lardi. Bir kuni shu Azima oldimga kirib, hech indamay turib oldi.

— Ha, Azima, nima gap? — dedim. Indamaydi.

— Ayt, birov xafa qildimi?

— Yo'q.

— Unda nima?

— Aytsam, xafa bo'lmaysizmi?

— Yo'q, aytaver.

— Menga shimingizni yechib berib, o'zingiz ichkaridagi xonada birpas o'tirib turing, — dedi tortina-tortina.

— Nega?

— Shimingizning qirrasi ikkita bo'lib ketibdi.

Ustimga bunday razm solsam, haqiqatan ham shunday.

— Qizim, bunday qilmaylik, — dedim Azimaga. — Ishxonada mening yalong'och o'tirganim yaxshimas. Buning ustiga dazmolni qayerdan olasan? Yaxshisi uyga boraylik, o'sha yoqda dazmollab berasan.

Xullas, shim uyda dazmollandi. Azima uyni yig'ishtirishni istab, kechgacha biznikida qoldi.

Kechqurun uyga qaytsam, mening hamma kiyimlarim, qizlarimning kiyimlari ham yuvilgan, dazmollangan, uy chiqarilgan, pollar artilgan. Bir so'z bilan aytganda, hamma yoq saranjom-sarishta, qiz bolaning qo'li sezilib turibdi.

Bu holat bir yilgacha davom etdi. Bir kuni ishxonada Karima opa degan opay bor edi, shu oldimga kirdi.

— Boshliq qaynim, qarshi bo'lmasang, bir gap bor, — dedi.

— Ayting.

— Bu zamonda erkaksiz ayol ochdan o'lmaydi, biroq ayolsiz erkakning kun ko'rishi qiyin bo'ladi. Buning ustiga qiz o'stirayapsiz. Siz uylaning.

Men indamay qoldim.

— Yanga bo'laylikmi? — dedi u kulib.

— Bo'ling, bo'ling! — dedim hazillashib.

— Yangaligimizni yangalik deb bo'lmasov, — dedi u o'zini tutib olib, — bizsiz ham o'zlaringiz bir-birlaringizga o'rganib qoldingiz. Mana bu Azima qizlaringizning boshini silasa, qalay bo'lar ekan?

— Azima?! U hali... — Keyin qanday vaj aytishimni bilmay qoldim.

— Yoshmi! — dedi Karima. — Erkak kishi parvarish yaxshi bo'lsa, qarimaydi. Azima sizga juda mos.

Xullas, shunday qilib turmush qurdik. Azima bizga uch o'g'il, to'rt qiz tug'ib berdi. Shunda ham haligi yolg'on el orasida bor. Bir kun bo'lmasa bir kun yomon odamlardan eshitib, "Qudamiz nopok kishi ekan", deb yurmang yana. Xudoga shukur, el ichida obro'yim yomon emas, do'st-u yorlarimning bari rahbarlik lavozimlarida ishlagan, o'n ikki burundiq qizim[1] bor. Bugun, mana, yangi yilga to'rt kun qolgan bo'lsa, birinchi sizlarni chaqirdim. Ertaga birga ishlashgan ulfatlarim kelishadi, undan keyingi kunda qo'shnilar... Har yili shunday o'rganishgan hammasi. Biroq yangi yilga o'tar kechasi o'zimiz oilaviy o'tiramiz, shampan ochamiz.

Ubaydulla og'aning shu gaplaridan keyin yuragim chim etdi. Opacham uyimizga kelganida onam bilan tortishib qolganining sababi bu yoqda ekan-da. Biroq qaysi haq, qaysi nohaq ekanini men umuman bilmas edim.

— Endi, quda, sizga atalgan sarpoy bor, — dedi Ubaydulla og'a o'rnidan turib. — Avval kelganingizda elning odatini buzmayin deb el qatori sarpo kiydirgandim. Biroq bu galgi siylig'im o'zgacha.

U orqadagi kiyim javonini ochdi. Undan kiyimilgichga ilingan Toshkentning qovuniday sap-sariq, chip-chiroyli po'stin chiqardi.

— Mana bu po'stin qimmatbaho, juda noyob, — dedi po'stinning yelkasidan ushlab silkib. — Qarang, odatdagiday qo'y teridan tikilgan zilday po'stin emas. Bu sur teri — qamari.

Haqiqatan ham po'stinning ichida qo'zining juni tovlanib, turli rangda taralayotgan nurlari kamalakdek jilolanib turar edi.

— Qani endi egningizga kiying.

Kiygan edi, otamga loppa-loyiq keldi.

— Endi mana bu telpakni kiying. Cho'girma tikdirmadim. Hozirgi kunda hech kim cho'girma kiymaydi.

---

[1] **Burundiq qiz** — eskidan qolgan udumga ko'ra, nikoh to'yi kuni bir oila yosh kelin-kuyovning oldiga chiqadi, ya'ni ota-onasi etib saylanadi, shundan so'ng kelin o'sha oilaning qizi, kuyov o'g'li bo'ladi.

U tepasiga qo'ng'ir mo'yna qoplangan ko'k qamari telpakni mushtiga kiyib, silkib-silkib yubordi. Mo'ynalar yanada hurpaydi, yanada chiroy ochdi.

Telpak ham otamning boshiga loppa-loyiq keldi. Qudamiz xuddi o'ziga yangi kiyim olgandek quvonib qarab turdi.

— Po'stinni bir yarim millionga, telpakni uch yuz mingga tiktirdim, — dedi u ko'zlari sevinchdan porlab.

— Tangri yorlaqasin, quda, qani, qo'lingizni ochib duo qiling.

— Shoshmay turing, qudag'ayga alohida sarpo ataganmiz.

Xullas, onam lama palto, men shuba kiyib, tongda yo'lga chiqdik. Pochcham taksini eshikning ro'parasida ko'ndalang qilib qo'ygan ekan.

Otam bo'sag'ada shunday duo qildi-shunday duo qildi, go'yo qudaning suyagi allaqachon tuproq bilan bitta bo'lib ketgan otasi tirilib kelib, rahmat aytadigandek tuyulib ketdi menga.

Yo'l bo'yi otam og'zidan bol tomib qudasini maqtab keldi. O'lan qo'shig'ining mavzusi shu bo'ldi. Lekin onam bir og'iz yaxshiyam, yomonam demadi. Men onamga tushunmay qoldim. Egniga kiydirilgan lama butun ovulimizda, hatto boshqa qarindosh-urug'larimizda ham yo'q edi. Shunda ham onam sira yumshamadi. Bilaman, u qizidan o'pkalayotgan edi. O'shanda u onasiga bo'lishmay, qaynotasining tarafini oldi-da, axir. Shuning uchun opachamning qaynotasi kiydirgan sarpo qanchalik yoqsa ham sira yumshamasdan, toshday qotib kelayotgandi.

Bir kuni ovulimizdagi Oyzoda checham yo'l ustida birrov qayrilib, onamning gumonini birato'la oydinlashtirib ketdi. Uning aytishicha, qudamiz xotinining tirikligidayoq Azima bilan yurgan, hatto uyiga ergashtirib kelib, ayoliga ovqat pishirtirib, ikkalasi boshqa xonada yeyisharmish. Ayolini "Sen qiz tug'ishga o'rganib qolgansan, bu menga merosxo'r tug'ib beradi" deb ayblab, kamsitar emish. Shu tufayli homiladorligida rashk o'tida yonib, jinni bo'lgan. Eri ayol bechorani bir xonaga qamab qo'ygan. Er ishga ketganidan keyin ayolning qizlari eshikni ochisharmish. Vaqt-vaqti uning hushi joyiga kelarmish. Shunday paytlarning birida oshxonaga kirib, bir shisha sirka ichib, o'z joniga qasd qilganmish.

Bu xabar onamning shubha-gumonini ro'y-rost tasdiqladi. Lekin onam mo'ljalining to'g'ri chiqqaniga quvonmadi. Oyzoda chechamning gaplarini ma'qullamadi ham, darrov "Voybo'y, buzoqlarga beda solmabman-ku", deya undan avval o'zi o'rnidan turdi. Bu "aytib bo'lgan bo'lsang, keta qol" degani edi.

Onam qudasiga qanchalik gumon bilan qarasa ham, ich-ichidan bu voqealarning tuhmat bo'lib chiqishini istardi. O'shanda onamga juda rahmim keldi. Tashqaridan qarab turib, Oyzoda chechamni azozilga o'xshatdim. "Bizning uyimizga shayton kelib ketdi, dedim o'zimcha. U Oyzoda kampirning qiyofasida keldi. Onamni battar xafa qilib ketdi. Iloyim, qaytib uyimizga qadamini bosmasin!"

9

Vaqt hamma nasani joy-joyiga qo'yar ekan. Qudamiz haqidagi mish-mishlar ham bora-bora eskirdi. Endi bu gaplarning hech kimga qizig'i yo'q edi.

Eng muhimi, onamning qabog'i ochildi. Qudasi to'g'risida gap ketsa, avvalgiday aftini bujmaytiravermaydi. Ora-orada qudag'ayi bilan telefonda guringlashib qoladi.

Gohida pochcham biron ish bilan biz tomonga yo'li tushib, uyimizga kirib o'tsa, "tovuq ushlang" deb hammamizning tinkamizni quritadi. Ovora bo'lib ushlaganimiz bilan pochcham baribir so'ydirmaydi. Yana bir kelaman deb onamni zo'rg'a ko'ndiradi.

Xullas, ikki tomonning inoqligi yaxshi. Quda xotirjam, qudag'ay tinch.

Opacham kelgusi yili muallimlar institutiga sirtdan o'qishga kirib, to'rt yilda bitirdi. Biroq hech joyda ishlagani yo'q. Ishlashga uning qo'li tegmas edi. Lof bo'lsa ham u uyida kuniga to'rt-besh marta qozon osardi. Bir taomning idish-tovog'i yuvilmasdan burun ikkinchi qozon qaynab turardi. Mehmonlar bo'zchining mokisiday tinmaydi.

— Mehmon ham yediradigan oshing bo'lsa, keladi-da, — deydi onam qizining to'kin-sochin uyga kelin bo'lib tushganidan mag'rurlanib.

Haqiqatan ham ular o'zlari oilaviy bo'lib kamdan kam o'tirishardi, bir kun qaynotasining do'st-u yorlari, bir kun qaynonasining dugonalari, yana bir kun pochchamning ulfatlari... Ayniqsa, mehmonning ko'pchiligini pochcham ergashtirib kelardi. U hecham bir o'zi tushlik qilmasdi. Hech odam topmaganda yonida haydovchisi bo'lardi. Aytmoqchi, u allaqachon bir mahkamaga boshliq bo'lib olgan edi.

Opacham turmushga chiqqanidan ikki yil o'tib qizli bo'ldi.

"Hayallab qoldingay, bolam, hozirgi yoshlar to'shagi bilan ko'taradi" deb nolir edi onam har gal opachamni ko'rganida. Vaqti-soati bor ekan, u bir kuni uyimizga ko'krak burmali ko'ylak kiyib keldi. Oy-kuni yaqinlashganidan keyin uyimizga umuman kelmay qo'ydi. Otam bilan akamdan uyalardi. Yana ikki yil o'tib, o'g'illi bo'ldi. Bolasining otini Alpomish deb qo'ydi. Qizining otini qaynonasi Nurzoda deb qo'ygandi, o'g'lining ismini qaynotasi qo'ydi.

Alpomish ikki yoshga to'lgan kunlarda opacham uyimizga keldi. Shoshilib turgan ekan, pochchamning ishxonasidagi xizmat mashinasida yo'lga chiqqan ekan.

— Shahzodani o'n-o'n besh kunga o'zim bilan olib ketish uchun so'rab keldim, — dedi u onamga ko'p ikkilanmay.

— Ha, nega?

— Sanatoriyaga olib ketmoqchiman.

— U yoqda nima qiladi bu?! — deya hayron bo'lib so'radi onam.

— Alpomishga qaraydi.

— Haaa... — Onam unga "yosh bolangni olib ketib nima qilasan" demoqchi bo'ldi-yu, biroq ra'yini qaytarishni istamadimi. — Qaydam, o'zi nima deydi, — deb mas'uliyatni menga yukladi.

Men attestat olib, endi o'qishga hujjat topshirishga tayyorlanib yurgan edim. Lekin imtihonlarga deyarli tayyorgarligim yo'q hisobi. Bo'lajak kuyovim hafta sayin o'g'rincha kelib, "o'zim o'qitaman" deb ishontirib ketardi. Shuning uchun o'zimga ham o'qishdan ko'ra turmush qurish qiziqroqday tuyulardi.

— Gapir, opang seni so'rab kelib turibdi, — dedi onam menga.

— Qaydam...

— Qaydami nima? Yo boraman de, yo bormayman de.

Bu hal qiluvchi gap edi, "bormayman" desam, opacham arazlab ketib qoladimi, deb qo'rqdim.

— Pulim yo'q-ku, — dedim ikkilanib.

— Senga pul xarajat qildirmaymiz.

Xullas, opacham, pochcham, men va kichkintoy Alpomish Toshkentdan Minvodaga uchdik. O'shanda ilk bora samolyotda issiq ovqat berishganini ko'rib, hayron qolganman. Biz opachamning bir kunda uch-to'rt marta qozon osgani bilan maqtanib yursak, ko'rdingmi, hukumatning oshpazlari osmonda ovqat pishirishar ekan, qoyil-ey. Pastdagi qalin bulutlarni tomosha qilib, manzilga kelib qolibmiz.

Aeroportdan chiqishimiz bilanoq ro'paramizdan taksi haydovchilari yugurib chiqishdi.

— Куда едете? Ессентуки?

— Пятигорск?

— Кто на Кисловодск?

— Elektrichkada ketamiz, — dedi pochcham. — Taksi aylanib boraman deguncha poyezd to'g'ri yo'ldan bir zumda yetkazadi. Yo'l-yo'lakay Kavkazning tabiati bilan tanishtirib boraman.

Pochcham bu tomonlarga ko'p marta kelgan bo'lsa kerak. Har bir tepalik, har bir daraning nomini yaxshi bilar ekan. Yo'l bo'yi bir-ikki manzilda mollar, qo'ylar podasini ko'rdik. Qo'ylarning yunglari oppoq, hatto ko'zlari ham ko'rinmaydi, yungi ustiga keksalarning momiq po'stini astari ag'darilib yopishgandek oyoqlari kaltagina bo'lib ko'rinar edi.

— Bular ipak yungli qo'ylar, ayollarning tiviti bir qisim bo'lib qoladigan jun ro'mollari shundan to'qiladi, — dedi pochcham. — Qaytishimizda ikki onamizga ham sovg'aga bittadan tivit ro'mol olamiz.

Yessentuki bilan Pyatigorsk bekatlarida ko'p odam tushdi. Biroq poyezdga chiquvchilar kam bo'ldi. Odam oz bo'lsa, narigi tomonga yurmasa kerak, deb o'ylab xavotir olgandim, yo'q, bunga qaramas ekan. To manzilga yetmagunicha poyezdning iziga qaytadigan yo'li yo'qqa o'xshaydi.

Yo'l-yo'lakay pochcham ko'p voqealarni hikoya qilib berdi. Bu yurtdagi tog'larning buloqlaridan ma'danli suvlar tinimsiz oqib

turar ekan. O'sha suvlar juda issiq bo'ladi deyishadi. Maxsus tozalangandan so'ng do'konlarga yuborishar ekan. Har bir qoyadan irmoq bo'lib oqqan suvlar to'planib-to'planib daryoga aylanar ekan. Lekin daryolar tizzadan oshmas, etiging bilan kechib o'tib ketaverarkansan. O'shanda men o'zimizning Amudaryo bilan juda maqtangim keldi. Lekin kimga maqtanaman? Opacham bilan pochchamgami?

Bizning ro'paramizdagi o'rindiqda ikki ayol yuzma-yuz o'tirib kelishdi.

Oyog'idagi poyabzalidan boshlab, boshidagi ro'moligacha hamma kiyimlari qop-qora edi. Qora lozim, qora ko'ylak, qora peshonabog'... Hatto qoshlari, kipriklari, ko'zlari ham qop-qora edi. Kipriklari etik moyi qalin yopishgan poyabzal cho'tkasining tuklariga o'xshardi. Biroq o'zlari oppoq edi.

— Qorachoy qizlarimisiz? — dedi pochcham ularni gapirtirmoqchi bo'lib.

— Iim! — deb inkor ma'nosida boshini chayqashdi ular.

— Balqar?

Ular yana avvalgi imo-ishorani takrorlashdi.

— Ha, mayli gaplashgisi kelmayapti, qorachoylar-ku, — ishonch bilan dedi bizga pochcham. — Bular boshqalarni pisand qilishmaydi, lekin tilimizni yaxshi tushunishadi.

— Hov, anavi tog'ni ko'rayapsizmi? — dedi pochcham o'ng tomonimizdagi baland cho'qqini ko'rsatib. — Bu mashhur Ma'shuq tog'i.

Tog' etagiga kelganimizda Pyatigorskka yetganmidik yo yetmaganmidik, hozir esimda yo'q.

— Bu tog'ning nega Ma'shuq deya atalishining o'z tarixi bor, — deb so'zini davom ettirdi pochcham. — Qadimda, balki besh yuz yil yoki ming yil avval Ma'shuq nomli cherkas yigit Achuk ismli qorachoy qizini sevib qolgan ekan.

U bu so'zlarni aytib, ro'paramizdagi qora ko'ylakli qizlarga yana bir marta ma'noli qarab qo'ydi. Lekin qizlar unga e'tibor berishmadi. Pochcham bizning oldimizda ich-ichidan xijolat chekdi. Bizning tilimizni bilishadi deb yolg'on gapirgandek bo'lib qoldi o'zicha. Ular juda mag'rur ayollar edi. Shuning uchun gap

nimadaligini tushunishsa ham sir boy bermay o'tirishgandir, ehtimol.

— Achuk bilan Ma'shuqning sevgi-muhabbati shu qadar ekanki, — deb davom etdi pochcham. — Ma'shuq sevimli yorini ko'rgisi kelib tun yarmida shartta uyqusidan uyg'onsa, aynan shu mahalda Achuk ham uyqudan sapchib uyg'onar ekan. Ularning yuraklarining dukurlab urishi mana shu baland tog'larni teshib o'tib, bir-biriga eshitilib turar emish.

Kunlarning birida ikkovining ishq-u muhabbati ota-onalariga ma'lum bo'libdi.

— Men qizimni g'ayridinga bermayman! — deya osmon bo'yi sapchibdi qizning otasi.

— Men qorachoy qizini kelin qilmayman! — deb Ma'shuqning otasi ham qahrlanibdi va o'g'lining yoniga qirq yigitni hamroh qilib, uzoq o'lkalarga safarga jo'natibdi. Ularning yo'li juda uzoq va xatarli ekan.

Qiz esa yigitni o'ylay-o'ylay kundan kunga gulday so'lib, holdan toya boshlabdi. Ota-onasi unga kishmish qo'shib bol bersa ham, sira tatimabdi. Hech kim uning dardiga davo topolmabdi.

Bir kuni qiz Ma'shuqning tushida namoyon bo'libdi.

— Sevgilim! Meni shu bugundan qoldirmay g'am-g'ussadan ozod qil. Bo'lmasa, ikkimiz tongla-mahsharda uchrashamiz! — debdi-da ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Yigitning ko'z o'ngida tog' bag'ridan sizib oqqan ikkita chashma elas-elas ko'rinibdi. Bu qizning ko'z yoshlari ekan.

Yigit cho'chib uyqudan uyg'onsa, tong bo'zarib otayotganga o'xshaydi. Yonidagi qirq yigiti mast uyquda ekan. U qirq yigitga bildirmasdan uydan chiqibdi-da yaylovda yayrab yurgan yilqilarning biriga sakrab minib, yorining visoli sari qushday uchibdi. Ma'shuqning mingan oti Duldul ekan.

Quyosh o'z oshyonidan chiqqan mahalda Ma'shuq qizning eshigi ostonasida paydo bo'libdi. Ayni shu paytda ovul yigitlari ham qizning otasiga: "Qizingizni o'z ixtiyoringiz bilan bizlarning birimizga xotinlikka bering, yo'qsa uni majburlab olib ketamiz!" — deb bo'sag'aga ot qo'yib kelib turgan ekan.

Ota-onasi uchun javob berishga Achukning o'zi chiqibdi. Shu vaqt Duldul mingan Ma'shuq paydo bo'libdi-da, qizni otiga o'ngarib, qushday uchib ketibdi.

Ovulning yigitlari ularning orqasidan ot solib quva boshlabdi. Ma'shuqning mingan oti Duldul emasmi, mana shu tog'ga kelganda uch sakrab, tog'ning eng tepasiga chiqib olibdi. Pastda esa ovul yigitlari yuqoriga bo'ynini cho'zib, ularga "pastga tush" deb dag'dag'a qilisharmish. Lekin Achuk bilan Ma'shuq pastga tushishni xayollariga ham keltirmasmish.

Ovul yigitlarining ichida burgutning ko'zini poylab otadigan mohir mergan yigit bor ekan. U Achuk bilan Ma'shuqning pastga tushmasligini bilgach sadog'idan o'q chiqarib, yoyiga joylabdi. Achuk yori uchun ko'ksini qalqon qilib, chapdastlik bilan ishqirib uchgan o'qdan Ma'shuqni himoyalabdi. Lekin mohir mergan bundan sira o'zini yo'qotmay, chiranib yoyni tortib yuborganda o'q Ma'shuqning ikki qoshi o'rtasidan teshib o'tib, boshining yarmini o'pirib ketibdi. Ma'shuq toshdan toshga urilib ovul yigitlarining otlarining tuyoqlari ostiga kelib tushibdi. Biroq ularga Ma'shuq kerak emasdi.

— Achuk, yerga tush! Oramizdan xohlagan yigitni tanla! Kimni o'zingga munosib ko'rsang, o'sha yigit butun umri davomida yuzingga shamol bo'lib tegmaslikka ont ichadi! — deb qichqirishibdi yigitlar.

Javobning o'rniga oq qushdek qanot yozib, pastga qarab enib kelayotgan Achuk ko'rinibdi. Yigitlarning hammasi qizni ushlab olish uchun tog'ga qarab ot qo'yibdi. Lekin hech kim tutib qolishga ulgurolmabdi.

Achuk havoda uchib kelayotgan zarbi bilan tog' etagiga tushibdi-da, shu zahoti tushgan yeriga singib ketibdi. Shunda Achuk singib ketgan chuqurdan tiniq suvli buloq otilib chiqibdi. Yigitlar biroz vaqtdan keyin es-hushlarini yig'ib olishib, bo'lgan voqeani qizning ota-onasiga aytishibdi. Ular buloq boshiga kelib, zor-u zor yig'labdi.

— Jigarbandim! Sado ber! — deya oh uribdi onasi.

Shunda buloq suvi baland imorat bo'yi favvoradek osmonga otilib, yana avvalgi holatiga qaytibdi.

— Qizim, meni kechir, gulday hayotingga va baxtingga zomin bo'lgan zolim otangni afu et! — deya boshini toshlarga urib yig'labdi otasi.

Buloq bir zamon tinib qolibdi. Go'yo qiz tirmashib chiqib chiqib keladiganday hamma chuqurga intilibdi. Lekin qizdan darak bo'lmabdi. So'ngra tiniq suvning o'rniga za'faronday sarg'ish rangli suv otilibdi. Suvning ta'mi taxir, achqimtil ekan.

— Qizimizning ko'z yoshlari bu! — deb uvvos tortishibdi otaona. — Qizimiz yig'layapti!

Keyin buloq yana avvalgidek tip-tiniq oqishda davom etibdi. Ovuldagilar buloqning suvini yetti kecha, yetti kunduz kuzatishibdi. Oxiri qizdan umid uzishib, uy-uylariga tarqalishibdi. Buloqdan qaynab chiqayotgan suv ingichka soy bo'lib, tog'ni aylanib oqaveribdi-oqaveribdi.

Soy asta-sekin daryoga aylanibdi. Shu atrofda yashayotgan odamlar qiz bilan yigitning chin muhabbatiga tan berib, tog'ni Ma'shuq deya, daryoni Achuk deya nomlashibdi. Ana, muhabbatning kuchi! Haqiqiy muhabbatga hech narsa to'sqinlik qilolmaydi. Balkim bizning tilimizdagi oshiq-ma'shuq so'zlari ham o'sha yigit-qizning muhabbati timsolidan olingandir.

Men bu afsonani nafasimni ichimga yutib tinglagan ekanman, pochcham aytib bo'lganidan so'ng chuqur xo'rsinib nafas oldim. Opacham ham berilib tingladi. Lekin qora ko'ylakli qizlar hech narsaga e'tibor bermasdan avvalgidek o'zaro gurunglarini davom ettiraverishdi. Demak, ular bizni tushunishmadi.

Kislovodsk tevarak-atrofi tog'lar bilan qurshalgan vodiydagi shahar ekan. Biz sanatoriyaning baland binosidan ayricha qurilgan pastak kulbaga o'xshagan sopol tomli alohida uychaga joylashdik. Uyning bo'sag'asidan eman, archa, qarag'ay daraxtli o'rmon boshlanib ketar edi. Mening e'tiborimni tortgan dastlabki narsa — mushuk boladek daraxtdan daraxtga sakrab o'tib o'ynab yurgan olmaxonlarning raqsi bo'ldi. Ancha vaqtgacha bularni kim boqar ekan deb, yon-atrofimga alanglab qarab yurdim. Keyin bilsam, ular shu yerda tug'ilib-urchiydigan yovvoyi jonivorlar ekan. Biroq bu olmaxonlarni yovvoyi deb bo'lmasdi.

So‘qmoqda sayr etib yurgan sayohatchilar barmoqlari bilan imlab chaqirsalar, yugurib bilagiga chiqib olishadi-da odamning kaftidagi pistalarni mitti qo‘llari bilan terib-terib chaqa boshlashadi. Bu tomosha rohat! Pochcham bilan opacham davolanishga ketishganida Alpomish bilan ikkimizning ermagimiz o‘sha olmaxonlar bo‘ldi. Alpomish dastlabki paytlarda ulardan qo‘rqib, yelkamga tirmashib qochib yig‘lar edi. Keyinchalik ko‘zi o‘rgandimi yoki mushuk bola deb o‘yladimi, ushlab ber deb xarxasha qiladigan bo‘ldi.

Mening sanatoriyadagi asosiy vazifam — bolaga qarash. Evaziga ular meni tushdan keyin xohlagan joyimga olib borib, tomosha qildirishadi. Lekin men endi bola emasman-ku, xizmatimni minnat qilmayman. O‘zlari qayerni ko‘rgilari kelsa, men ham o‘shanga rozi bo‘laman.

Bizlar ko‘pincha tog‘ga chiqishga ishqiboz edik. Pastdan turib qarasak, yuqorida bo‘g‘lanib, tog‘ga suykalib o‘tayotgan bulutlarni ko‘ramiz. Lekin bulutlar har kuni chiqavermaydi. Bulut yo‘q paytda faqat tuman ko‘rinadi. Bulut nima o‘zi? Suvmi, bug‘mi, momiqmi? Jug‘rofiya darsida ko‘z o‘ngimga keltira olmaydigan tabiatning bu tilsimini endi yaqindan ko‘rishga, kerak bo‘lsa, qo‘lim bilan ushlash baxtiga muyassar bo‘lgan edim.

Ilonizi so‘qmoq bo‘ylab yuqoriga chiqa boshlaymiz. Uch yuz metr... To‘rt yuz... Alpomish injiqlik qiladi. Har yer-har yerda yo‘l chetiga qo‘yilgan skameykalarda o‘tirib dam olamiz. Hammamiz ichimizda Alpomishga rahmat aytamiz. U yig‘lamaganida o‘tirib dam olish qayoqda edi? Charchadim deyishga bir-birimizdan tortinamiz.

Yana yo‘lda davom etamiz. Sakkiz yuz... Bir ming bir yuz... Xullas bir ming besh yuz metrlik ko‘rsatkichdan keyin tog‘ning tepasiga chiqamiz. Qarasam, yuqorida bir parcha ham bulut yo‘q. Pastga nazar tashlayman. Qoyalar girdida tutinday bug‘lanib suzib yurgan oppoq bulutlar ko‘rinadi. Biz ularning ichidan qachon, qanaqa qilib o‘tib ketdik? Hayronman. Yaqiniga borganimda nega ushlab ko‘rmadim? Suv edimi, bug‘ edimi?! Xullas kalom, tabiatning bu tilsimi menga o‘z sirini ochmadi.

Sanatoriyaga borgan kunlarimiz pochcham er-u xotin tanishlari bilan topishib qoldi. Erining yoshi elliklardan oshgan, peshonasidan boshlab tostepasigacha sochi tushib ketgan, turqi sovuqroq odam edi. Xotini esa eriga qaraganda ancha yosh, boqishlari ziyrak, hech kimni nazar-pisand qilmaydigan, kamgap, ayyor ayolga o'xshaydi. Xo'jayini unga o'ta xushomadgo'y edi, bir so'z aytib, ayolining qosh-u qabog'iga qaraydi. Xotini qoshlarini kerib, sal jilmayib o'tirsa, gapini davom ettiradi, qovog'ini uygudek bo'lsa, darhol to'xtaydi. Bunday paytda bizning pochchamiz xayolga kelmagan yoqdan boshqa mavzuda gap topib, vaziyatni yumshatishga tirishadi. Rostini aytganda, ularning hamrohligida yurish zerikarli edi. Shuning uchun ko'pincha biz xonamizda qolib, yolg'iz pochchamning o'zi sayrga chiqardi.

Bir kuni pochchamning qistovi bilan beshalamiz shahar chekkasidagi bir restoranga bordik. Restoran chuqur dara yoqasidagi qoyaning tagida edi. Xuddi qoya yemakxona binosining ustiga minib turgandek qurilgan edi. Ichkariga kiriladigan eshikka yetib borguncha sakson yettita zinapoyasi bor ekan. Qiziquvchanlik bilan sanab chiqdim.

— Yo'ldoshboy og'a, avval bu restoranga kirganmidingiz? — dedi pochcham stulga o'tirayotib.

— Ha, nimaga edi? — deb qovog'ini kerdi u. Pochchamning bu savoli unga yoqmadi. Yosh xotinning oldida o'zini kamsitilgandek sezdi. — Men restoranma-restoran yuradigan araqxo'r emasman-ku, oshna!

— Kechirasiz, og'a, sizga to'g'ri tushuntirolmadim shekilli, — deb tilyog'lamalik qildi pochcham. — Men ham bu restoranga avval hech kelmagan ekanman. Faqat bir marta sayohatchilar bilan kelganimizda bo'sag'asidan qaytganmiz. O'shanda bizga yo'lboshlovchilik qilgan shu yerlik ayol bu restoranning tarixini aytib bergan edi.

U bu gaplarni aytaturib Yo'ldoshboy og'aning navqiron xotiniga qaradi. Ayolning bu tarixni bilgisi kelayotgani sezildi. Pochcham o'zini xijolatpazlikdan xalos bo'lgandek his etib, yengil tortdi.

Bu orada ofitsiant qiz kelib, marmar toshdan va sopoldan yasalgan idishlarni stolga qo'yib ketdi. Qiziq. Choynak-piyolalar,

pichoq va sanchqilar[1]ning ham toshdan yasalgani meni ajablantirdi. Bu narsalar restoranning tarixi haqidagi hikoyani eshitishga hammamizning qiziqishimizni yanada oshirdi. Tabbiyki, pochchamning ko'ngli ko'tarildi. Yo'ldoshboy og'aning ham qovog'i ochilgandek bo'ldi.

— Qadimgi zamonda shu tog'lar orasidagi vodiyda Dmitriy degan knyaz yashagan ekan, — deb o'z hikoyasini boshladi pochcham. — Uning oy desa yuzi bor, kun desa ko'zi bor Varvara ismli qizi bo'lgan ekan. Qiz rusga ham, kavkaz qizlariga ham o'xshamas, lekin tomirida tog'li xalqning qoni jo'sh urgan, qora ko'zli, qora qoshli, sarv bo'yli, suluv jonona ekan.

— Ishq dardiga mubtalo bo'lib qolmadingizmi, yigit?! — dedi Yo'ldoshboy og'aning ayoli kulib. — Buncha og'zingizdan bol tomib ta'riflayapsiz ayol zotini! O'zingizni zo'rg'a tutib turgandeksiz-a?

— Yo'g'-ey, yanga! Men bir muhabbatli yigitman. Ishonasizmi, yo'qmi, bilmadim. Mana shu kelinigizga uylanganimga yetti-sakkiz yil bo'lib qoldi. Buni qarang-ki, haligacha kechqurun u bilan bir yostiqqa bosh qo'yib uxlab, tongda uni yana sog'inib uyg'onaman.

O'shanda bir mahallar onamning opachamga aytgan so'zlari esimga tushdi. "Kuyoving o'ziga suv yuqtirmaydigan firibgar bo'lmasa, go'rga edi?!" degan edi onam o'shanda. Onamning bunchalar badgumon ekanligiga qaraganda yoshligida otam ko'p kuydirganga o'xshaydi.

— Ko'rdingizmi? — dedi ayol eriga noz bilan boqib. Odamlar o'z ayolini naqadar yaxshi ko'rishadi?!

— Men-chi, seni sog'inib uyg'onmaymanmi?

— Sizni o'zim zo'rg'a uyg'otib olaman-ku.

Hamma gurr etib kulib yubordi. Yana Yo'ldoshboy og'aning yelkasi qisilib qoldi. Biroq bu gal pochcham uning ko'nglini ko'tarishga harakat qilmadi. Uning ayoli xursand edi. Pochcham o'shandan mast bo'ldi.

---

[1] Men bu restoranda bo'lganman, haqiqatan ham u yerda idish-tovoqlar, pichoq-sanchqilar sopol va toshdan yasalgan. U yerda chinni va temirdan bo'lgan bironta idish-tovoq, oshxona anjomi yo'q. *(Izoh bizniki — M. Nizonov)*

— O'sha knyazning qiziga Afanasiy degan kulol yigit oshiq bo'lib qoladi. Knyaz qizimni kulolga bermayman deb oyoq tirab turib oladi. Niyatiga erisha olmagan oshiq-ma'shuqlar qo'l ushlashib mana shu baland qoyadan pastga sakrashgan ekan.

Knyaz qizi bilan kuyovining xotirasini abadiylashtirish uchun ularning jasadi tushgan yerga mana shu restoranni qurdiribdi. Unga "Mangu muhabbat" deb nom qo'yibdi. Kuyovining hurmati uchun jamiki idish-tovoqlarni toshdan va sopoldan yasattiribdi.

Pochcham aytgan bu afsonani tinglab, Oshiq bilan Ma'shuq yana ko'z o'ngimga keldi. Ularning fojiali muhabbatini unutishga qayta-qayta harakat qilib, eslamay yurgandim. Yana ana shunday qayg'uli muhabbat tarixi lop etib ro'paramdan chiqdi. "Tavba! Nega bularning hammasi o'zlarini tog'dan tashlab, o'lib ketishaveradi. O'z joniga qasd qilish jasoratmikin?"

— O'z joniga qasd qilish, bu — mardlik emas! — dedi pochcham. Men xayolimdagi fikrni tovushimni chiqarib aytib yubordimmi, deb cho'chib tushdim. — Muhabbat uchun kurashish kerak. Ota-ona baribir kechiradi. O'z jonlariga qasd qilgan sevishganlar — irodasiz kishilar. Irodasiz insonlardan mard avlod to'ramaydi[1].

Kechqurun opachamdan pochcham mehmon qilgan kishilar kim ekanligini so'radim.

— Sudya bo'lsa kerak, — dedi opacham.

— Xotini nega o'zidan yosh?

— Birinchi ayoli vafot etgan.

— Pochcham nega unga xizmat qilaveradi?

— Bilmayman... Pochchang rahbar, — dedi opacham menga jo'yali javob bera olmaganini niqoblamoqchi bo'lib. — Rahbar kishining dushmanlari ko'p bo'ladi. Biror muammo chiqqanda Yo'ldoshboy og'a kerak bo'lishi mumkin...

— Unda pochchamning ayblari bor ekan-da?!

— Unaqa dema, pochchang eshitsa, xafa bo'ladi. "Yagona Parvardigor beayb" deydi xalq.

O'shandan keyin men Yo'ldoshboy og'ani ham, uning ayolini ham uchratmadim. Pochcham ko'pincha biz bilan birga bo'ldi.

---

[1] **To'ramaydi** — tug'ilmaydi.

Shu gap sabab bo'lib ovulga qaytganimizdan keyin ko'p vaqtga qadar pochchamning ishini o'ylab, dushmanlari unga qarshi bosh ko'tarishlaridan xavotirlanib yurdim. Lekin bunday voqea bo'lmadi.

Tez orada meni kelin qilib tushirib ketishdi. Shundan keyin pochcham va opacham to'g'risidagi barcha gap-so'zlar men uchun o'tmishga aylandi.

10

Pochchamning muhabbatga sadoqati, ayniqsa, opachamga vafodorligini isbotlaydigan yana bir voqeaga guvoh bo'lganman.

Bundan ikki yil burun namozshom paytida telefon jiringladi. Hamma tashqarida mol-holiga qarab yurgan vaqt. Men sigir sog'gan chelagimni gazning yoniga qo'yib, endi sutni pishirishga unnayotgan edim. Uyda mendan boshqa hech kim bo'lmagani sababli o'zim telefon go'shagini ko'tardim.

— Hoy, qiz! — deb hovliqib gapirdi yangam telefondan. — Biyqiz birdan qattiq og'rib qolibdi. Enam bilan akang taksi ushlab ketishdi. Senga qo'ng'iroq qilishimni aytishdi.

— Opacham qayerda o'zi, uyidami?!

— Yo'q, tez yordam bo'limida.

Boshqa savol so'rashga toqatim qolmadi. Darrov ko'ylak almashtirdim-da momomga bir og'iz nima gapligini tushuntirib, yo'lga chiqdim. Xudoga shukur, hozirgi zamonda taksidan ko'p narsa yo'q, boshingni qashisang, g'iyq etib yoningga kelib to'xtaydi. Yo'lda mashina kutishga ko'p vaqtim ketmadi. Shunday bo'lsa ham Chimboy deganlari ozmuncha yer emas. Yetib borgunimcha qorong'i tushdi. Kelsam, onam, akam, pochcham, opachamning qaynonasi eshikka o'yib o'rnatilgan tuynukka termilib o'tirishibdi.

— Opacham yaxshimi? — dedim entikib.

Onam yig'lab yubordi.

— Ko'rsatishmayapti, bilmaymiz. Yaxshi deyishadi yoki ko'nglimiz uchun aldashadimi? Mana bularga gapisam, tinglashmayapti. Qizginamning jasadini tig' bilan yorishmasa, mayliydi.

— Qo‘ysangiz-chi, ona! — deb akam jerkib berdi. — Qayoqdagi gaplarni gapirasiz-a! U tirik! Komada yotibdi. Bildingizmi?!

— “Koma” degani nimasi?

— Behush bo‘lib, uxlab yotibdi, opa, — deb onamning tizzasiga qo‘lini qo‘ydi qudag‘ayimiz. — Xudo xohlasa, yaxshi bo‘lib ketadi hali.

— Aytganingiz kelsin, chirog‘im.

Bir payt oq xalatli shifokorning oldiga tushib, qudamiz keldi. Hammamiz o‘rnimizdan turdik.

— Ubaydulla og‘a, siz shu yerda kutib turing, men o‘zim kirib, ko‘rib chiqayin, — dedi haligi shifokor.

Shifokor jonlantirish bo‘limiga kirib ketdi. Men borib Ubaydulla og‘aga salom berdim.

— Qudag‘ay, buncha qattiq qayg‘urmang, hali otdek bo‘lib ketadi, — deb tasalli berdi u onamga.

— Iloyim, shunaqa bo‘lsin-ey, bechora bolam hali nimani ko‘rdi!

Birozdan keyin shifokor yonimizga chiqdi.

— Ahvoli yaxshi, ko‘zini ochibdi, o‘ziga kelgan. Mendan “Qachon kasalxonadan chiqaman?” deb so‘radi.

— Xudoyim-ey, rahm-u shafqatingga shukur, Xudoyim-ey! — Onam yengi bilan ko‘zini to‘sib, yig‘lab yubordi.

— Hoy, qo‘ying, opa. Ertaga palataga ko‘chirishadi. Hozir uyingizga borib, dam oling. Buguncha unga ovqat kerak emas.

Ubaydulla og‘a shifokorning qo‘llaridan ushlab o‘tindi:

— Inim, qizini bir ko‘rmagunicha bu kampir tinch-xotirjam uxlay olmaydi. Xonasiga kirishning hech iloji bo‘lmasa, g‘ildirakli karavoti bilan manavi tuynukning oldiga olib kelib, bir ko‘rsating.

Shifokor birpas o‘ylanib qoldi.

— Oqsoqol, o‘zim bularga har kuni tong-sahardan tartib-intizomni saqlang, deb buyuraman, yana...

— Kam bo‘lmang, inim, martabangiz baland bo‘lsin, bir martagina...

Shifokor chuqur nafas olib, oxiri ichkariga qaytib kirdi. Biz hammamiz bo‘ynimizni cho‘zib tuynukka intildik. Birozdan so‘ng

marmar to'shalgan yo'lakdan g'ildirakning shig'illab kelayotgan tovushi eshitildi. Hammamiz onamga yo'l berdik.

— Chiro-g'im! Chiro-g'im! Tirikmisan? Xudoyim joningni qaytib bergani chin bo'lsin!

Onam gapirolmay, bo'g'ziga xo'rsiniq tiqilib qoldi. Biz ham torgina tuynukka mo'raladik. Opacham qattiq qo'rqib ketgan ekan.

— Yaxshimisan?!

— Sog' omonmisan?! — deb birin-ketin chuvillab bergan savollarimizga faqat boshini qimirlatadi. Ko'zlaridan oqqan yoshlari sel bo'lib, qulog'iga qarab oqardi. Bir zumda rang-ro'ylari o'chib, yuzlari cho'lda qolgan guldek so'linqirab qolibdi.

— Endi ko'p bezovta qilmang, biroz damini olsin, — dedi haligi shifokor.

O'sha kuni ovqatlanib kelganimizdan so'ng onam, men va pochcham uchalamiz tong otguncha tuynukning oldida bedor o'tirdik.

Ertasi kuni opachamni palataga ko'chirishdi. Menga uning yonida qolishimga ruxsat berishdi. Onam qizining yaxshi tomonga o'zgarganini, kerak bo'lsa, avvalgi holatiga kelib qolganini ko'rib, ko'ngli xotirjam bo'ldi-da, uyimizga qaytdi. Akam tundayoq ketgan edi. Axir, otam uyda yo'l qarab o'tirgandi-da. Uni borib tinchlantirmasa, jondan aziz farzandi kasal bo'lsa, ich-etini yeb o'tiradi-ku.

O'sha kuni kechqurungacha opacham bilan ikkimiz ko'p gurunglashdik. U kelin bo'lib tushgan xonadonidagi men bilmaydigan yangiliklar haqida mag'rurlanib so'zlab berdi. Opachamning o'z turmushidan ko'ngli juda to'q edi.

Hamshira qizlar belgilangan soatlarda bir necha marta uning tomiriga igna sanchib, dori yubordilar, osma dori quydilar. Davolab, xasta vujudni og'riqsizlantirish payida bo'ldilar.

Qosh qoraygan paytlarda dovolovchi shifokor keldi. Ayol kishi ekan.

— Qalaysan, singlim?! — dedi opacham yotgan karavotning chekkasiga o'tirib. — Hammani qo'rqitib yubording-ku.

— Kechirasiz.

— Yo'g'-ey, kechirim so'rama. Bemorni davolash — bizning burchimiz.

U bo'yniga osilgan fonendoskopni qulog'iga qo'yib, opachamning qon bosimini o'lchadi.

— Yaxshi, — opachamning bilagiga bog'langan tonometrning damini chiqarayotib.

— Necha ekan? — dedim men.

— Buni bilishing shart emas.

— Endi, singlim, senga bir gapni aytishim zarur, — dedi opachamga qarab. — Odamda ikkita buyrak bo'ladi. Tabiatning xatosi tufayli ayrim odamlarda uchta buyrak bitadi, hatto to'rtta buyragi borlar ham uchraydi. Lekin bu yaxshi holat emas. Inson sog'lom yashashi uchun ikkita buyrak kifoya. Hayotda shunday holatlar yuz beradiki, ba'zan bitta buyrak ishdan chiqib, uni olib tashlashga to'g'ri keladi. Tirikchilik hamma vaqtlarda ham xamirdan qil sug'urgandek oson kechavermaydi. Buni hayot deydilar, axir.

— Mening bir buyragim ishdan chiqqanmi? — dedi opacham shifokorning gapni uzoqdan aylantirib kelayotganiga toqat qilolmay.

Shifokor allaqancha vaqt jim bo'lib qoldi.

— Aytavering, ishdan chiqqanmi?!

— Shunday desak ham bo'ladi, biroq hozircha sog'! Ammo yana bir marta shunday og'riq tutsa, oqibati qayg'uli ahvolga olib kelishi mumkin.

Opacham hech nima demay ko'zlarini yumdi.

— Endi nima qilish kerak? — dedim men chiday olmay.

— Sen kimi bo'lasan?

— Singlisiman.

— Singlisi bo'lsang, tushuntirib ayt, rozilik bersin, bitta buyragini olib tashlash kerak. Rozi bo'lsa, jarrohlik bo'limiga ko'chiramiz.

Shundan so'ng ortiqcha gapirishni istamadimi, o'rnidan turdi.

— Umuman qo'rqma, — dedi u eshikka yaqinlashib. — Bitta sog' buyraging ikkalasining ham vazifasini bajaraveradi. Tabiatning o'zi shunday.

Shifokor chiqib ketgandan keyin opachamning yoniga o'tirdim. Qo'llarini barmoqlarim orasiga oldim. Peshonasiga kaftimni bosib ko'rdim. Issig'i yo'q. Tovushsiz yig'layaptimi deb yuzlarini,

qovoqlarining ostini siladim. Negadir ko'z yoshlari qotib qolgandek, kipriklari qup-quruq edi. U onda-sonda kiprigini qoqib qo'yar, gohida ko'zlarini ochib-yumardi, lekin u ayni damda og'ir ahvolda emas, chuqur o'y-xayollar og'ushida ekanligi sezilib turardi.

— Opacha, nima qilasiz? Bitta buyrak ikkalasining ham xizmatini bab-baravar bajaradi, deyishayapti-ku...

Opacham savolimga javob bermadi.

Bir soatlardan keyin pochcham keldi. Keliboq opachamning yoniga o'tirdi. Opacham zo'rg'a turgan ekanmi, ko'z yoshlarini yum-yum to'kdi.

— Yig'lama, yig'lama! — dedi pochcham tovushi titrab. — Shifokordan hammasini eshitdim.

— Payti kelib ikkinchi buyragim ham ishlamay qolsa, nima bo'ladi?

— Unday bo'lmaydi, Bekzoda! Unday bo'lmaydi!

— Hammangiz meni aldaysizlar. Hammangiz! Shifokorlar ham, sizlar ham...

Men ularga tasalli berish uchun bir so'z ham aytolmadim. O'sha ikkinchi buyrak ishlamay qoladigan kun xuddi ertaga keladiganday qayg'u tog'i ikki yelkamni og'ir ezib boraverardi. Ona-otam, akamlarning bu ahvoldan xabarlari yo'q , ular kechagi shodlik va shukronalik bilan bemalol yashayotgan edilar.

O'sha kuni opacham yarim tungacha yig'lab chiqdi. Mening ovutishlarim, tavallolarim ta'sir qilmadi. "Uxlamasang, qovoq yomon" degandek allamahalda ko'zim ilinibdi.

— Shahzoda! Shahzoda! — deb takror-takror chaqirgan tovushdan cho'chib uyg'ondim.

— Ha! Ha! — deb opachamning yoniga yugurib bordim.

— Qo'rqib ketdingmi?

— Yo'q-yo'q. Uxlab qolibman.

— Men o'lib ketsam, pochchangning ahvoli nima kechadi?!

— Qayoqdagi sovuq gapni qo'ysangiz-chi, kim aytadi sizni o'ladi deb?!

— Bilaman, bular mendan yashirishayapti. Shifokorning uzoqdan talmovsirab gapirishiga qaraganda ikkinchi buyragimda ham xastalik borga o'xshaydi.

— Unday o'ylamang...

— Bilasanmi, singlim, pochchang menga shunday o'rganib qolgan: "Qayerda ichsam ham hech bir choy sening damlaganingday bo'lmaydi", — deydi. Men bir damlam choyni bir cho'mich suvda qaynatib, keyin choynakdagi qaynagan suvga quyaman. So'ng uni sochiq bilan dam chiqarmay o'rab qo'yaman. Besh daqiqadan keyin piyolaga quysang, haligi choy sariq yog'dek tovlanib turadi. Mening o'rnimga kelgan odam shunday qiloladimi?

— Hech kim kelmaydi sizning o'rningizga! O'rningiz o'zingizga buyursin! Bu o'rin — abadiy o'zingizning o'rningiz!

— Pochchang ishdan kelganida ostonada kutib olaman. Dastlab bosh kiyimini, so'ng plashini yechib kiyim ildirgichga ilaman. Boshmog'ini tozalab, joyiga qo'yaman. Yuvinayotganida sochiqni bilagimga solib, yonida turaman.

— Uni namuncha erkalatmasangiz? — deyman opachamga yolg'ondakam qovog'imni uyib.

— Erkak kishi yosh boladek bo'ladi, unga alohida parvarish kerak.

— Siz undan qanday izzat-hurmat ko'rasiz?

— U ham meni shunday hurmat qiladi. To'y-hashamlarga borganda ust kiyimimni yechib, javonga iladi, qaytayotganimizda egnimga kiydirib qo'yadi. Bizning bir-birimizga ko'rsatgan mehribonligimizga ko'pchilik havas bilan qaraydi. Lekin... shunday xushvaqt kunlar nihoyasiga yetib bormoqda. Mening kunim bitib qolgan, Shahzoda! Sezib turibman! Sen ham meni aldamay qo'ya qol.

— Bo'ldi, bas! Aldamayman! Tong otsa, uyimga ketaman!

— Mendan o'pkaladingmi! Qo'ysang-chi, avvalgi o'pka-ginalaringni ham unutdim, deb ayt!

— Aytmayman! Nima, sen rozilik so'ramoqchimisan?! O'pkaladim! O'pkaladim! Hali ko'p o'pkalayman!

Opacham chidolmay, miyig'ida kuldi. Bu kulgi quvonchdan emasdi.

— Shukurim! Seni shunday telbaliging, o'jarliging uchun yaxshi ko'raman. Mayli, o'pkalay qol. Sening o'pkalaganing ham menga yoqimli.

Xullas, opacham bir kuldi, bir yig'ladi, ne azob bilan tong otdi. Choshgohda pochcham keldi.

— Shifokorlar bilan gaplashdim, — dedi u. — Ikkimiz birvarakayiga jarrohlik stoliga yotamiz. Sening xasta buyragingni olib tashlashadi, o'rniga mening buyragimni qo'yishadi.

— Nima, siz bittagina buyrak bilan yashaysizmi? — dedi opacham ajablanib.

— Menga bitta buyrak ham yetadi. Men doimo mashinada yuraman, idorada o'tirib ishlayman. Sen esa... Og'ir mehnatning bari sening zimmangda, shahbozim. Sen kir yuvasan, ovqat pishirasan, bola boqasan, qolaversa, meni ham parvarishlaysan. Senga albatta, ikkita buyrak kerak.

— Yo'q, men bunga rozi emasman! — dedi opacham tutoqib. — Rozi emasman! Menga sizning sog'lig'ingiz kerak! Men taqdirning hukmiga roziman.

— Unday dema, Bekzoda! Sen menga keraksan! Sen farzandlaring uchun yashashing kerak.

— Hoy, bu yerda nima gap bo'layapti? — Eshikdan kechagi shifokor ayol kirib kelmaganida ularning "sen yashab qol, men ketaman" deb bir-birlariga yalinib-yolvorishlari yuragimni ezib yuborgan bo'lardi.

— Nima, buyragi og'rimagan odam bormi?! — dedi doktor ikkalasini ham koyib. — Siz nima, erkak kishi bo'la turib, xotiningizni ko'ndirishning o'rniga uni besh battar xo'rsintirib o'tiribsiz. Tamom, nima bo'lganda ham shikastlangan buyrakni olib tashlashimiz kerak. Bo'lmasa, u turgan joyida chiriydi. O'lik a'zo tirik a'zo bilan yashay olmaydi.

Oradan ikki kun o'tib pochcham dimog'i chog' bo'lib eshikdan kirib keldi.

— Kelgusi oyning boshida Hindistonga ketamiz! U yoqda buyragini almashtiradigan donorlar bor ekan.

Dabdurustdan aytilgan bu gapga tushunmay, opacham ham, men ham angrayib qoldik.

Pochcham bamaylixotir o'tirib, bizga hijjalab tushuntirdi.

Shunday qilib ular Hindistonga borib kelishdi. Barcha qo'rquvlar-u, barcha tashvishlar, rozi-rizolashuvlar endi ertakdek bo'lib,

o'tmishga aylandi. Opacham pochchamning xizmatlari uchun judayam minnatdor edi.

Buyragi hindiy, o'zi qoraqalpoq,
Xudo qaytib berdi bizni yorlaqab! —

deya pochcham ko'p vaqtlargacha hazillashib yurdi...

— Shahzoda! Hoy, Shahzoda?! Qayerlarda yuribsiz?! — Binoning yonidan kelayotgan hamshira qiz kuyib-pishib qichqirdi. — Sizni qidirib bormagan joyim qolmadi.

— Men borman. Qochib ketmaganman, mana, yonimda "kuyov"im bor, — dedi Shahzoda avvalgidek hazilkashlik bilan Nurjamolni ko'rsatib.

— Axir, sizga doktor nima deb tayinlagan?

— Doktorim ham yonimda, mana.

— Qo'y, unaqa dema, bor, seni chaqirishayapti.

— Yuring, qon bosimingizni tekshirishim kerak.

— Xo'p, unda men ketdim, dugona, — dedi u Nurjamolning yelkasiga sekin urib. — Orqamdan yasovul keldi-ku.

— Ertaging shu bilan tamom bo'ldimi?

— Tamom bo'ldi. Xuddi bilgandek vaqtida keldi-yey hamshira. Hangomaning beliga tepmadi.

— Yuring, yuring, — dedi hamshira qistab.

— Qalay, ertagim yoqdimi?

Nurjamol miyig'ida kuldi, biroq indamadi.

— Ha, yoqmadimi?!

— Ertaga aytaman. Bor, seni kutib qolishdi.

Shahzoda Nurjamoldan bunday javobni kutmagandi. Kulimsirab turgan chehrasi darrov jiddiylashdi. U xuddi bir narsani unutib qoldirgandek hamshiraning orqasidan noiloj ergashib borar edi.

11

Hamshira hikoyaning beliga tepmagani bilan "xulosa"ning beliga tepgan edi. Shahzoda pochchasi bilan opachasini bugungi kunning G'aribi va Shohsanami bo'lishdi deb maqtanib qo'ygan-

dan so‘ng buni isbotlash uchun hikoyasini kitobiyroq qilib, ba’zi o‘rinlardan haqiqatdan ko‘ra oshirinqirab so‘zlab bergan edi. Negadir u Nurjamoldan kutgan javobini ololmadi. Vaqt-vaqti bilan nazar solganda uning oddiy gapni tinglagandek bee’tibor quloq solayotganini sezdi. Shahzoda suhbatdoshim “hozir ta’sirlanadi, hozir hayron qoladi”, deb hikoyani so‘zlashda davom etardi. Lekin unday bo‘lmadi. Hatto pochchasi jarrohlik stoliga yonma-yon yotib, bitta bo‘takasini ayoliga bermoqchi bo‘lganida ham hayajonlanmadi. Buni ham odatiy hol sifatida qabul qildi. Nurjamol samolyotda kelgan Nurjamol emas, xonasiga xavotirlanib izlab borgan mehribon dugona emas, qandaydir bir sovuqqon va qahrli ayolga, bir so‘z bilan aytganda, tushunarsiz bir jumboqqa aylanib borayotgan edi.

— Pochchangga rahmat, opachangga havasim kelayapti, — deb bir og‘iz so‘z aytganida olam gulistòn edi. Yo‘q, u bunday demadi. Ertaga aytaman deb Shahzodaning ko‘ngliga g‘ulg‘ula solib ketdi. “Nimani ertaga aytadi?”, “Hikoyasining qayerini xato aytdi?”, “Maqtayman deb lof qilib yubordimikin?” Mana shunday o‘ylar unga sira tinchlik bermasdi.

Ertasiga ertalab uchrashganlarida u: “Voy, kechagi hikoyang menga qattiq ta’sir qildi-yey”, — deb salomlashishdan ham avval to‘lqinlanib fikrini aytishini kutdi. Yo‘q, unday bo‘lmadi. Aksincha, ikkalasi har galgidan ko‘ra sovuqroq so‘rashishdi.

Choy ichayotganlarida Nurjamol bunga e’tibor ham bermadi. Ro‘parasidagi xorazmlik er-xotinlar bilan allaqanday bo‘lmag‘ur gaplarni gurunglashib o‘tirdi. Hozir buning mavridi emas edi. Shahzodaning tepa sochi tikka bo‘ldi. Tashqariga chiqishsin, ko‘radiganini ko‘radi! Shahzoda birovdan pand yeb yuradigan xotin emas.

Lekin buning mavridi kelmadi. Choyni ichib bo‘lib, endi ovmin qilamiz deb taraddudlanayotganlarida Nurjamolning qo‘l telefoni jiringladi-da, uni qulog‘iga tutib, tashqariga shoshildi. Shahzoda unga ergashmoqchi bo‘ldi, biroq ro‘parasida bir dasturxon atrofida o‘tirganlardan uyaldi. Shunda ham sheriklaridan avvalroq fotiha qilib, tashqariga chiqqan edi, Nurjamol yo‘q. Kalxat olgan jo‘jaday hech qayerda ko‘rinmaydi.

Tushlikda ham ahvol shunday bo'ldi. Nurjamol Shahzodadan o'zini olib qochishning turli yo'llarini topdi. "Turmush ko'rmagan bo'lsa ham, yurt ko'rgan shum ayol ekan" deb Shahzoda unga sirtidan baho berdi.

U kechki ovqat paytida vaziyatni qo'ldan boy bermadi. Eshikning bo'sag'asida kutib turdi. Endi qutulib bo'pti.

— Ha, qiz kutgan yigitga o'xshab nima qilib turibsan?! — deb zo'rma-zo'raki iljaydi Nurjamol eshikdan chiqaverishdayoq.

— Hoy qiz, sening mendan ololmay yurgan qasding bormidi?! — Shahzoda uning bilagidan qo'lini o'tkazib olib, yo'lak yoqasidagi skameykaga qarab tortdi.

— Senda qanaqa qasdim bo'lsin, axir? — Nurjamol uning nima demoqchi bo'lganini bilib tursa ham, jo'rttaga o'zini tushunmaganga soldi. Bu Shahzodaga qattiq botdi.

— Unday lo'lilik qilma! Bu senga yarashmaydi. Men sening fe'l-u atvoringni samolyotda kelayotganimizdayoq suv qilib ichib olganman. Ayt qani, nega mendan nuqul qochib yuribsan?

— Qanaqasiga qochib yuribman? Ertalab sen bilan birga nonushta qilsam, tushda birga ovqatlansam, kechqurun...

— Oliftagarchilikni qo'ysang-chi, hoy xotin?

— Birovning uydan chiqmagan qizini xotin dema!

— Unday tovlamachilik qilma! Men ham bir kam qirq yoshni beshikda yotib yashaganim yo'q. Senga mening hikoyam yoqmay qoldimi, hali? Ayt, pochcham yoqmadimi, opacham? Ertaga aytaman deganding-ku!

— Menga yoqqan-yoqmaganini bilishing shunchalik zarurmi?

— Zarur! Men bekordan bekorga shuncha jagurganim yo'q! Senga turmushga havas uyg'onsin, muhabbat lazzatini ko'z oldingga keltirgin dedim. Sen esa... radiodan so'nggi xabarlarni eshitgandek bo'lding, xolos.

— Balkim, menga shu tarzda ta'sir qilgandir.

— O'hh! Shunday odamlarni yomon ko'raman-da. Ichimdagini top deb turgan. Menga o'xshab dangalini ayt-da qo'y!

— Xafa qilib qo'ysam, nima qilasan?

— Xafa qilsang, qilibsan-da! Osmon uzilib, yerga tusharmidi?

— Yur, o'tiraylik.

Shahzoda uni jinday bo'lsa ham yumshatganidan ko'ngli to'lib, darov yaqinidagi skameykaga o'tirishga hozirlangandi, Nurjamol qo'lidan tortib qoldi.

— Nariroqqa boraylik.

Ular dam oluvchilarning qadamidan xoliroq xilvat joyga borib o'tirishdi. Shahzoda dugonasiga "Endi gapiraver" demoqchi edi yana taltayib ketmasin deb indamadi. Tabiatiga yot sabr bilan Nurjamolning gaplarini kutdi.

— Sizning otangiz shunday yaxshi odam ekan, — dedi Nurjamol o'tirishgandan keyin biroz o'tgach. — U juda oqko'ngil, samimiy va sodda qoraqalpoq. Akangning kimligini ayta olmayman. U haqda yetarli so'z gapirmading. Yangang qaynonasiga yoqaman deb, o'z fikri, o'z ichki qiyofasini yo'qotib qo'ygan ayol.

— Mening onamni nima, juda shafqatsiz deb o'ylaysanmi?

— Yo'q, unday emas. Onangizni o'ta aqlli, yetti o'lchab, bir kesadigan, avval o'ylab, keyin so'ylaydigan, har bir voqeaga ziyraklik bilan baho beradigan aql-farosatli ayolga o'xshatdim. Sizlar negadir onangizga tortmagansizlar. Opachang bilan ikkovingiz — quyib qo'ygandek otangizning o'zisiz. Sal narsaga ta'sirlanasiz, oddiy narsaga quvonasiz, xafa bo'lishingiz ham oson. Sizlarni aldash — yosh bolani aldagandek oson.

— Yo'g'-ey!

— Bu bilan sizlarni yomon deyotganim yo'q, sizlarning beg'ubor, oqko'ngil ekaningizni aytayapman.

— Pochchamga o't, pochchamga!

— Pochchang... Aynan o'sha odam opachangga munosib emas.

— Ha, nega?! — Shahzoda qo'rqib ketdi.

— Onang birinchi marta Bekzodaga aytgan-ku "Kuyoving suv yuqtirmaydigan firibgar bo'lmasa, go'rga edi", deb. U pochchangning kim ekanligini o'shandayoq bilgan. Lekin pochchang haqida men boshqacharoq fikrdaman. Suv yuqtirmaydigan firibgarning fe'li-xulqi sirtiga chiqib turadi. Uni bir-ikki gaplashgandayoq bilib olasan. Sening pochchang esa, Ikkinchi jahon urishi paytidagi o'ris josusiga o'xshaydi. Ularning josusi kinolarda oxirgi damgacha nemislarga o'zini sezdirmaydi-ku. Pochchang ham shunday. Biroq u — ayol muhabbatining josusi. Pochchang bilan bir-ikki marta

suhbatdosh bo‘lgan ayol uni yaxshi ko‘rib qolganini o‘zi sezmay qoladi. Uni ko‘rmasa, sog‘ina boshlaydi. Lekin pochchang quvonchini oshkor etmaydi. Ayolni intizor qilishda davom etaveradi. Ayol aldanib qolsa ham uni gunohkor qilmaydi, o‘zini ayblaydi. U esa, tinib-tinchimas baliqchiga o‘xshab hali bir ko‘lga to‘r soladi, hali boshqa bir daryoga qarmoq tashlaydi. Uning to‘ri hech qachon suvdan o‘ljasiz chiqmaydi.

— Unda g‘irt buzuq bo‘ldi-ku.

— Unday gap og‘zimdan chiqqani yo‘q. Seni o‘shanda nega kurortga olib ketishgandi? Bu fikr dastlab kimdan chiqqandi?

— Opachamdan.

— Hecham-da. Unga pochchang aql bergan. Sababi sen o‘sha vaqtda endi palakning ostidan sarg‘ayib ko‘zga tashlanib kelayotgan xushbo‘ygina handalak eding. Sen uviz eding! Sen qaymog‘i olinmagan sut eding! Shuning uchun u yuragingga qo‘l solib ko‘rgisi keldi. Senga dam olish kunlari davomida yoqib qolishni o‘yladi. Kelajakda uning uyida yotib, o‘qishga kirishingni kutdi.

— Yo‘qol-ey! U mening tug‘ishgan pochcham-ku.

— Hayotda shundaylar yo‘qmi?

— Bo‘lsa, bordir! Lekin mening pochcham unday odam emas. Yuqmaydigan qorakuyani surtaverma!

— Mayli, men seni ishon deb majburlamayman. Bu mening odamni sinash borasidagi yagona fikrim. Baribir, senga shuni aytishim kerak, pochchang bir o‘q bilan uch-to‘rtta quyonni ota oladigan mergan. U senga yoqish bilan birga poyezddagi qorachoy qizlarga ham ta’sir qilishga ulgurdi. “Borgan yerimda uchrashib qolarman, bo‘lmasa gapga qo‘shilar” degan yomon niyat bor edi uning o‘yida. Shuning uchun u yo‘q joydan Achuk bilan Ma’shuq afsonasini o‘ylab topdi.

Kavkaz xalqida bunday afsona yo‘q. Hech qanday daryo Ma’shuq tog‘ini aylanib oqmaydi. Podkumok degan birgina daryo bor — Achuk emas. Qolaversa Ma’shuq — qiz bolalarga munosib ism. Bunga pochchang e’tibor bermagan.

— Buncha tirnoq ostidan kir izlamasang! Kin va g‘araz bilan gapirasan-a! Sen o‘zi men bilan kelgan Nurjamolmisan, yoki...

— O'shaman, o'shaman! Aytma, desang, aytmay qo'yaveraman.

— Aytaver, endi aytmagan nimang qoldi. Qo'ling bilan borib ushlab isbotlamasang, boshqa hammasini aniqlading-ku... Sudya bilan osh-qatiqligini qanday ta'riflaysan? Bu ham ayoli sabablimi?

— Ha-da! Aslida u sudya emas, sudya deb opachangni aldagan.

— Buni qayoqdan bilasan?

— Sudyalar noqonuniy hamda odamlarga erish tuyuladigan ishlarni qilmaydilar. Pochchang uni to'satdan ko'rib qolgan. Qarasa, ayoli juda yosh. Orasida yigirma-o'ttiz yosh farq bor. Baribir bu ayol unga qanoatlanmaydi, unga vafodor emas, degan xayol kechgan ko'nglidan. Shuning uchun ularga yaqinlashib, birga sayr qilgan, birga ulfatchilik qilgan. Uning maqsadi yosh ayolning yuragini zabt etish edi.

— Seningcha zabt eta oldimi?

— Zabt eta oldi.

— Sen pochchamni birato'la ko'k eshakka chappa mindirding-ku. Uni bevafoga chiqarding. Men so'zlaringning hech biriga ishonmayman. Agar opachamning muhabbatiga sodiq bo'lmaganida jarrohlik stoliga yonma-yon yotib, bitta buyragini berishga rozi bo'larmidi?!

— Sen shunga ishondingmi?

— Ha, nega ishonmayin?

— Opachang hammi?

— Opacham ham!

— Bilaman, opachang sendan ham soddaroq. Lekin bir narsani bilib qo'ying, hali bu masala bizda tajribada umuman uchramagan.

Shahzoda bir zum so'zsiz qoldi. Pochchasiga nisbatan Nurjamolning nazari bilan qarab ko'rdi. Lekin nima bo'lganda ham uni yomon ko'ra olmadi.

— Sen nimaga uni yomon ko'rib qolding? — dedi u Nurjamolga achinib. — Senga hech qachon yomonlik qilmagan-ku. Kerak bo'lsa, dunyoda Nurjamol degan ayolning borligidan ham bexabar bo'lsa u!

— Mendan xabari bo'lmagani yaxshi. Meni bilganida men ham uning gipnoziga tushib qolarmidim.

— Sen qaytib yomonlasang, shunday yomonlayver, men baribir pochchamni yomon ko'rolmayman. Agar opacham boshqa birovga tekkanida bugun bitta buyragini oldirib, yana bir falokatli kunda ikkinchi buyragi ham shikastlanib, hayotdan bevaqt ko'z yumishiga sababchi bo'lur edi. Pochcham esa, opachamning umrini uzaytirdi. Hindistonga olib borib, besh ming dollarga buyragini almashtirib keldi. Yo'l xarajatini aytib o'tirmayin. Bu nima? Bu ham ko'zbo'yamachilikmi?

— Ko'zbo'yamachilikmas! — dedi Nurjamol ajablanmasdan. — Pochchangda pul ko'p. Bekzodaning buyragi bahonasida o'zi ham chet ellarni ko'rib kelishiga quvongan.

— Bas qil! Sendan voz kechdim! Senday dugonam yo'q mening! Sening tilingda ilonning zahari yig'ilgan ekan!

Shahzoda achchiqlanib o'rnidan turib ketdi. Ikki qadam yurib, to'xtadi. Nurjamolning kechirim so'rashini kutdi. Lekin unday bo'lmadi. Nurjamol "Dugonamni xafa qilib qo'ydim", deb o'ylamadi. U shunchaki haqiqatni betga aytgandek aybsizligini his etib, parvoyi falak o'tirardi. Shahzoda bir oyog'ida aylanib, orqasiga o'girildi.

— Otasi to'g'risida ham bir nima dersan?

— Otasi haqida nimayam derdim? Keksa kishi bo'lsa?

— Yo'q, aytaver! "Yomon chinini aytaman deb, sirini aytadi", deganlar. Men hammasini qo'lga tushirib, aybini ushlab berdim-ku. Ayt! Aytaver! Aytganday, bizning hangi eshak haqida hech nima demading-ku!

— Men sening mana shunaqa xafa bo'lishingni bilib, o'zimni opqochib yurgan edim. O'zing orqamdan ergashaverib, holi jonimga qo'ymading. Meni Xudo shunaqa qilib yaratgan. To'g'risini aytaman. Birovlarga o'xshab, ko'zingcha maqtab, izingdan g'iybat qilmayman.

— Xo'sh, bizning qudamiz qanaqa odam ekan?

— Yana dard ustiga chipqon bo'lsinmi?

— Bundan ham battari bormi hali! Aytaver, bo'laring bo'ldi-ku o'zi!

— Qudangiz haqida Oyzoda chechangizning fikriga qo'shilaman.

— Bu g'iybat-ku!

— Har qanday g'iybatning tagida haqiqat yotadi. Bo'rttirib aytilganda u g'iybatga aylanadi.

— Demak, u ham suv yuqtirmas firibgarmi?

— Firibgarmi, firibgarmasmi, bilmadim, lekin uning ham ayol yuragining "josus"i ekaniga ishonchim komil. Azima opa yaxshi ayol, lekin u dovdiragan paytida ilonning og'ziga o'zi borib tushgan palaponga o'xshaydi.

— Mayli, u yog'i bilan ishim yo'q. Lekin u kishining saxiyligi, mehmondo'stligini jinday bo'lsa ham tan olarsan?!

— Tan olmayman! U saxiy emas. Otangga qimmatbaho qorako'l mo'ynali po'stin kiyg'izganiga saxiy deyapsanmi? Hecham-da! Axir, u po'stinni otangga kiyg'izmay, ko'chaga uloqtiradimi? Po'stinni unga atab tiktirgan emas, qorako'l telpakni ham. O'sha sarpolar qudangizga pora uchun sovg'a qilib berilgan. Qudangiz o'z vaqtida katta amaldor bo'lib ishlagan. Birovlarning ishini bitirib bergan. Shuning minnatdorligi edi bu buyumlar. Hozir hech kim po'stin kiymaydi. Bozorga chiqarib sotishga uyaladi. Shuning uchun otangning egniga yopib, yaxshi otli bo'lgisi kelgan. Lama paltolarning ham tarixi xuddi shunday. U pul sarf qilib, narsa sotib oladigan odam emas.

Shahzoda orqasiga qaytib kelib yana skameykaga o'tirganini sezmay qoldi.

— Balki...

— Bilaman, u yana yangi yil oldidan to'kin-sochin dasturxon yozib, mehmon kutar ekan. Bu, seningcha, saxiylikmi?

— Unda nima?

— Bu sadaqa! Qudangiz birinchi xotinining o'limi tufayli vijdon azobida yashamoqda. To'g'ri, uning qo'li qon emas. Lekin uning yuragi qon bo'lib yotibdi. U qarigani sayin bilib-bilmay qilgan gunohlari uchun Xudodan qo'rqayapti. Buni o'zicha tavba-tazarru qilib, sadaqa bilan yuvmoqchi. Lekin minnat bilan berilgan sadaqa qabul bo'lmaydi. Bilasanmi, bir kun emas bir kun bunday qismat pochchangni ham kutib turibdi. O'shanda menga "avliyo ekansan" deb aytasan.

— Senday avliyodan o'rgildim! — Shahzoda shaxt bilan o'rnidan turdi. — Ishtonimning ichidagi targ'il mushugim ortiq! Og'zim bor deb sannayverasanmi?

U tez-tez yurib Nurjamoldan uzoqlashdi.

— Shahzoda!

Shahzoda eshitdimi, eshitmadimi, har holda javob bermadi.

Nurjamol skameykada biroz o'tirib qoldi. Shahzodaning ko'nglini qavartirganidan asta-sekin pushaymon bo'la boshladi. Shahzoda bu haqiqatni bilmay yashagani afzal edi-ya. U hamma odamlarni o'zidek ko'radigan, hech kimdan shumlik kutmaydigan, oqko'ngil, halol ayol edi. Nurjamol uni hayotga ogohlik bilan nazar solishga o'rgatmoqchi bo'ldi. Lekin misolni yomon joydan oldi. Axir, bu misol adabiyot emasdi-da. Jonli hayot edi u. Farishtadek pokiza deb bilgan pochchasini odam suratidagi shaytonga aylantirdi. Otasi umri davomida yelkasiga kiymagan po'stinni sarpoga bergan qudasini nima qildi. "Sen noto'g'ri ish qilding, Nurjamol! Dugonang ich-etini yemasin desang, ortidan bor! Kechirim so'ra! Yo'q, so'ramayman! Unda men o'zimga o'xshamay qolaman! Unda men yuzaki Nurjamolga aylanib qolaman!"

Nurjamol qosh qorayganda xonasiga kirdi. U eshik ostida o'zi uch-to'rt kundan buyon intizor kutgan odamini ko'rdi. Ko'rdi-yu quvonib ketdi. Agar boshqa payt bo'lganida quvonmas edi. Bugun uning ko'ngliga malham bo'ladigan birov kerak edi.

Bu mehmon uning xayolida alg'ov-dalg'ov bo'lib yotgan og'ir xayollarni tumandek tarqatib yubordi, daf'atan ko'zlari quyoshdek charaqlab ketdi.

12

Erta tongda Nurjamolning eshigi taqilladi. Ochdi. Ostonada safar sumkasini ko'targan Shahzoda turar edi.

— Ha, tinchlikmi? — dedi Nurjamol hayron bo'lib.

Shahzoda javob bermasdan ichkariga kirdi.

— Sendan kechirim so'ragani keldim, — dedi divanning yoniga sumkani qo'yib.

— Nega?

— Kecha senga yomon gap aytdim. Targ'il mushugimga teng qildim.

— Men sening o'rningda bo'lganimda undan ham og'ir gap aytgan bo'lardim.

— Umuman mening o'rnimda bo'lma. Men — og'zi polvon, bir qop yong'oqdek shaqillaydigan ayolman. Sen el ko'rgan ekansan! Odamni sinab bilar ekansan! Senga havasim keldi! Men tun bo'yi ko'ksimni yerga bosib, o'ylanib chiqdim. Ular xayolimda spektaklda rol o'ynayotgan aktyorlarga o'xshab ketdi. Hammasi yasama bo'lib tuyuldi. Sen meni shunga ishontirding. Gapirayotgan paytingda seni itning etidan battar yomon ko'rdim. Lekin aql tarozusiga tortib ko'rib, sening haq ekaningni angladim. Angladim-u opachamga rahmim keldi. "Bir kun bo'lmasa bir kun pochchangni ham shunday isnod kutib turibdi", deding-ku. Tuni bilan "ilohim, shu isnodni eshitmayin", deb Xudoga iltijo qildim. Albatta, bu nomussizlikni ko'zim bilan ko'rmayman-ku-ya. Biroq eshitishning o'zi ham menga juda og'ir.

— Bu gaplarni qo'y, Shahzoda. Haqiqatni gapiraman deb men ham shafqatsizlik qilibman. Haqiqat qalampirga o'xshaydi, dugona. Lekin u ham me'yordan ortiq bo'lsa, yuragingni o'rtaydi. Ovqatga borganimizda men ham sendan kechirim so'ramoqchi edim.

— Men ovqatga bormayman.

— Ha?

— Ko'rib turibsan-ku, uyga qaytayapman.

— Nega? Tinchlikmi?

— Tinchlik. Tunda opacham qo'ng'iroq qildi. Bonka yopishga yordam ber, dedi. Ikki yuzta bonka tayyorlab qo'ygan ekan. Pochchang kelgandan keyin ikkovimiz Antaliyaga boramiz, dedi.

— Pochchang qayoqqa ketibdi?

— Bir haftaga Favqulodda vaziyatlar bo'yicha malaka oshirishga ketibdi. Andijonga. Dugonajon, ovulga qaytganingdan so'ng uyimizga qidirib bor. "Yo'lga chiqdim" desang, bas. Chimboyning YPX postida kutib olaman. Bordi-keldi qilaylik. Sen menga juda yoqib qolding. Ovulda men bilan borishli-kelishli xotinlar ko'p. Lekin barini bir joyga yig'sang ham sendek bo'lisholmaydi. Ular havo desang, havo deydi, navo desang, navo deydi.

Birdan vannaxonada suvning shovullashi eshitildi. Shahzoda cho'chib tushdi.

— Kim bor?

— Birov, — deb kuldi Nurjamol.

— Keldimi? — deb shivirladi Shahzoda.

Nurjamol kulib boshini egdi.

— No'xtalanibsan-da!

— Iihm!

— Baxtlimisan?

— Baxtliman! Kechikib bo'lsa ham...

— Muhabbatning erta-kechi bo'lmaydi. — Shahzoda vanna tarafga o'g'rincha qarab-qarab qo'ydi. — Endi senga aytadigan gapim — uni umuman qo'ldan chiqarma. Sening yoshingda boshi ochiq erkak topish qiyin. Eng muhimi — izingdan bitta qora yumaloq ergashtirib ol. Yurt nima desa, deyaversin. Aytib-aytib, oxiri unutadi.

Gap-gashtaklarda aytiladigan bir qo'shiqni bilasanmi:

Kishi yori kishiligin etadi,

O'ynab-kulib o'z yoriga ketadi!

Ana o'shanda qora yumalog'ing yoningda qoladi. O'sib-ulg'ayganidan so'ng kelin tushirib, nabira suyib o'tirasan.

Vannaxonaning eshigi ochildi. Shahzoda darrov hayrat barmog'ini tishladi. Belidan yuqorisi yalang'och erkak kishi qo'lidagi kichkina sochiqning chetini barmog'iga o'rab, boshini pastga egib qulog'ini chuqalab kelaverdi.

Shahzoda unga beixtiyor nigohi tushganida birdan ko'zlari xonasidan chiqqudek olayib ketdi.

— Pochchaa!!! — dedi allanechuk ovozi bo'g'ilib.

Erkak turgan joyida toshdek qotib qoldi. Nurjamol hayron bo'lib, bir rahbariga, bir Shahzodaga tikildi.

Shahzoda sumkasini yerdan yulqib ko'tardi.

— Sen avliyo ekansan! — dedi Nurjamolga nigohlarini pichoqdek qadab. — Oxiri gipnoziga tushibsan-da!

U eshikni tizzasi bilan bir tepib ochib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

* * *

Aeroport xodimi kechikibroq ro'yxatdan o'tgan o'ntacha yo'lovchini havo kemasiga olib chiqdi. Ular qo'llaridagi ro'yxatdan o'tkazilgan chiptalari bo'yicha o'z o'rinlariga joylasha boshlashdi. Nurjamol qo'lidagi chiptaga qaradi. O'rni 21 "S" ekan. Ne ko'z bilan qarasaki, 21 "V" joyda Shahzoda o'tirardi. Nurjamolga ko'zi tushdi-da, yuzini teskariga o'girdi. Nurjamol bo'ynini cho'zib mo'ralab, samolyot ichidan boshqa bo'sh joy qidirgandi, bari band ekan. Noiloj o'z joyiga kelib, omonatgina cho'kdi.

Samolyot havoga ko'tarilib, o'z yo'nalishiga tushgandan keyin Shahzoda o'rnidan turib, hojatga chiqadigan odamdek salonning orqa tomoniga ketdi. Shu ketgani bo'yicha to manzilga yetgunicha o'rniga qaytmadi.

Bir-birlarining sirini o'zlarigina tushunadigan ushbu ikki ayol yelkalarini zildek yuk bosib, samolyotdan tushishdi. Ular Toshkentga borishguncha rosa osh-qatiq edilar, endi esa bir-birini ko'rgani ko'zi yo'q. Hozirgina havo kemasidan tushgan ikkovlon nogahonda yuzma-yuz kelib qolmaslikni ich-ichidan tilab kelishar edi.

ORTIQ PUXTA

Ortiqboyning laqabi "puxta". Haqiqatan ham puxtalikda ovulda uning oldiga tushadigani topilmasa kerak. Puxtaligi shunchalikki, gugurt chaqishdan oldin uchquni biror yerga tushmasin, deb hovuchida suv tayyorlab turadi. Kechqurun ishdan ketishdan oldin xonasidagi telefon apparatini seyfga solib, qulflaydi. Uyiga kelgach, tuflisini yechib, ichiga sichqon o'ldiradigan dori sepib qo'yadi.

Xotini non yopadigan tandir qarshisiga olti bochka suv to'ldirib qo'ygan. Har kuni ertalab turib, ulardagi suvni tovuq, chumchuqlar ichib, kamaytirib qo'ymadimikan, deb tekshirib ko'radi.

Ortiqboyning uylanishi ham qiziq bo'lgan. Ovuldagilar buni haligacha gapirib yurishadi. U juda puxtalik bilan uylangan. Bo'lajak qaylig'ining qanday kiyimlarni yoqtirishi haqida ma'lumot to'plagan. Uning uyiga qandaydir bahona bilan borib, pishirgan ovqatini yeb ko'rgan. O'qigan maktabiga borib, muallimlari bilan suhbatlashgan. Ishxonasiga borib, gap-so'zlarga quloq tutgan. Pochtaga kirib, unga qayerlardan xat, otkritkalar kelib turishi bilan qiziqqan. Qizning tanishlari-yu, qo'shnilari bilan maslahatlashgan. Faqat shundan keyingina to'yni boshlagan.

Ortiqboy kichikroq mahkamada xo'jalik mudiri bo'lib ishlaydi. Shkafdan sal kattaroq alohida xonasi bor. Xona oynasi bir qavat ekan, ikki qavat qildirib, temir panjara o'rnatdi. Qorovuldan iltimos qilib, deraza tagiga changal bostirdi. Xona eshigining mustahkamligini ko'rib, yoqangizni ushlaysiz. Eshikni Arzimbet ustaga buyurtma qilib, maxsus o'rik yog'ochdan tayyorlatdi. Xullas, uning xonasiga o'g'ri u yoqda tursin, hatto pashsha ham kirolmaydigan bo'ldi.

Ortiqboyning ertalab ish boshlashi ham qiziq. U eshikni ochib, avval xonadagi buyumlarni bir-bir ko'zdan kechirib chiqadi. Kalendar varag'ini sanaydi, qalam, ruchkalarning har birida yozib

ko'radi. Kechqurun, ishdan qaytishda seyfga berkitib ketgan telefonni chiqarib, xotinining ishxonasiga qo'ng'iroq qiladi. Bugun ham xuddi shunday bo'ldi. Kerakli raqamlarni tergan edi, go'shakdan xotinining tanish ovozi eshitildi:

— Labbay, eshitaman...

— Oltinoymisan?

— Ha.

— Bugun kun salqinroqqa o'xshaydi, paltongni kiyganmiding?

— Ha.

— Tuya junidan to'qilgan jemperni-chi?

— Uniyam kiyganman.

— Tunov kuni shahardan sovg'aga olib kelgan sharfimni o'radingmi?

— O'radim.

Ortiqboy go'shakni qo'yib, yengil nafas oladi.

Oradan yarim soatcha vaqt o'tgach, boshliq kotibasi shoshilib kirib:

— Sizni boshliq chaqiryapti,—dedi.

— Tinchlikmi, ishqilib?

— Shoshilinch Toshkentga uchar ekansiz. Bizga jo'natilgan yuk qaysiyam stansiyada turib qolibdi. Samolyotga chipta olingan.

Ko'p o'tmay boshliq uni mashinasida aeroportga yetkazib qo'ydi. Ortiqboy soatiga qaragan edi, hali uchishga yigirma daqiqa bor ekan. U telefon budkasiga g'izilladi, shoshilib uy raqamini terdi.

— Allo, Oltinoymisan?

— Ha.

— Men ikki kunga Toshkentga komandirovkaga ketyapman. Uydan chiqqaningda vodoprovod kranini mahkam berkitgaysan.

— Xo'p.

— Gazni ham o'chirishni unutma.

— Yaxshi.

— Tovuqlarga suv quyishni unutib yurma. Ikkita xo'rozni alohida-alohida katakka qama. Urushib, bir-birining tojini cho'qib tashlaydi.

— Xo'p bo'ladi.

...Ortiqboyning puxtaligi oshib ketib, ayoliga bundan boshqa ham topshiriqlarni bera boshladi. Faqat bir narsaga puxtalik qila olmay qoldi. U topshiriq berib bo'lgunicha samolyot havoga ko'tarilgan edi.

"TUG'MA QOBILIYAT"

Ba'zilar birovlarni yomonlashni oson, deb o'ylashadi. Men bu fikrga qo'shilmayman. Ochig'i, odam yomonlashdan qiyin ish yo'q. Keyin u har kimning qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ham alohida tug'ma qobiliyat kerak.

Yana shuni ham aytish kerakki, o'zgalarni yomonlovchi mutaxassislar tayyorlaydigan kurslar shu paytgacha hech qayerda ochilmagan. Buni har kim o'zicha, mustaqil o'rganishga majbur. Mustaqil o'rganish uchun bu hunarga qiziqish zo'r bo'lishi, ya'ni yuqorida aytganimday, tug'ma qobiliyat kerak.

Mana kaminangiz birovlarni yomonlashni maktabda o'qib yurgan kezlarimdan boshlaganman. O'shanda yettinchi sifnda o'qirdim. Dars tayyorlamay kelib, onamni muallimimizga "Dars tayyorlatgani qo'ymay, ertadan kechgacha buzoq boqtiradi", — deb yomonlaganman. Bir kundan keyin esa, muallimimizni onamga: "Maktabga pul olib bormasak, "ikki" qo'yadi", deb yomonladim.

Qon bilan kirgan jon bilan chiqar, deb bekorga aytishmagan ekan. Maktabni tugatganimga qancha yil bo'ldi, birovlarni yomonlash, tuhmat qilishni kanda qilmay kelyapman. Bu borada tajribam yildan yil oshib, bir kunda kamida ikki-uch odamning nomini yomonga chiqarib tashlayman. Ilgarilari bir kunda bir odamni yomonlagunimcha tinkam qurib bo'lardi.

O'zgalarni yomonlash, tuhmat qilishni qotirib qo'yadigan boshqa kimsalar ham bordir-u, lekin, hozircha, bu atrofda menga teng keladiganini uchratganimcha yo'q. Har bir ishxonada bizga o'xashagan qobiliyat sohiblari bo'lsa kerak. Lekin bu hunarni endi

o'rganayotganlar ham yo'q emas. Ana shunday havaskor shogirdlarga aytadigan ikki og'iz nasihatim bor. Eng avvalo, birovni yomonlashdan oldin uning sirlarini bilib olish kerak. Odam yomonlashni erta nahordan boshlagan ma'qul. Zero, ertalab miya ancha tiniq bo'ladi. Saharda xotinni turtib uyg'otib, ishni yon qo'shnilardan birini yomonlashdan boshlash ham maqsadga muvofiqdir.

Yana maslahatim, ish vaqtidan unumli foydalanish kerak. Ertalab ishga keliboq Pirimbetni yomonlasang, tushlikka yaqin Palimbetni yomonla, tushlikdan keyin Qulimbetni qoralashga kirish. Eng muhimi, birovlarni yomonlashda, mish-mish, uzunquloq gaplardan ijodiy foydalan.

Yomonlash xilma-xil turlarga bo'linadi. Masalan, birovning ishdagi muvaffaqiyatini ko'rolmay yomonlash, boshqani amal kursisini egallamaslik uchun yomonlash, hamkasbingni shirin orzusiga hasad qilib yomonlash, qo'shni yigitning kelajagini qirqish uchun yomonlash, odamlarni bir-biri bilan urishtirish uchun yomonlash, shunchaki, qiziqchilik, ermak uchun yomonlash va hakozolar...

Eng yaxshi yomonlash—ishxonada hamkasblarning birini ikkinchisiga yomonlashdir. Ana shunda ertalabdan kechgacha zerikmaysan. Masalan, mana, men bir darvozasi yo'q mahkamada qorovullik qilaman. Qorovullik juda yaxshi kasb. Ishlayapti, degan nomi bo'lgani bilan ertalabdan kechgacha eshikdan kirib-chiqqan odamlarni choy ho'plab, tomoqni ho'llab, yomonlab o'tirishdan boshqa ish yo'q.

Bugun ham xuddi shunday bo'ldi. Ertalab ishga keliboq kimni yomonlasam ekan, deb o'ylay boshladim. Shu payt tagimdagi taxta kursi g'ichirlab ketdi. Yomonlaydigan odam topilganidan quvonib, o'rnimdan sapchib turdim. Mana shu kursini yasagan ustani yomonlayman, dedim o'zimga. Nega deysizmi? Bo'lmasa nega kursi g'ichirladi. Demak, usta bu kursiga mo'ljallangan mixning yarimini yoniga urib qolgan. Hoziroq boshliqning oldiga kirib, shularni aytib xumordan chiqaman.

Boshliq xonasida ekan, meni ko'rib:

— Xo'sh, xizmat?—dedi ko'zoynagini to'g'irlab.

— Xo'jayin, bir yaramas duradgor ustidan arzim bor,—dedim hayajonimni bosib.

— Qanaqa arz?

— Qorovulxonadagi kursiga o'tirib bo'lmaydi, uni yasagan usta o'g'ri, kursiga mo'ljallangan mixdan urib qolgan. Shunga chora ko'rsangiz.

Boshliq o'rnidan sapchib turib, ko'zidan ko'zoynagini yulqib oldi-da:

— Yo'qol bu yerdan! — deb baqirdi.

— Nega? — dedim bo'sh kelmasdan.

— Sen o'zi qanaqa odamsan?! Yomonlayotgan odamingni kimligini bilasanmi o'zi?!

— Yo'q, kim ekan u?

— Nodon, u o'zingni otang bo'ladi! U avval bizda duradgor bo'lib ishlagan!

Men boshliq xonasidan qora terga botib chiqdim.

Shalvirab borib, kursiga cho'kib, o'zimcha o'ylandim. Haqiqatan ham odam yomonlash qiyin ekan. Qizishib ketib, o'z otamni yomonlab qo'yibman. Hayronman, endi kimni yomonlasam ekan?

YANGI FIKR

Bir zo'r hikoya yozib, ijodimdan elni manzur qilayin deb, uni qo'ltiqlab adabiy gazeta tahririyatiga kirib bordim. U yerda meni gazetaning adabiy xodimi, yoshgina yigit qabul qildi. U mening ikki yarim betgina hikoyamga bir qator ko'z yugurtirib chiqdi-da, so'ng tomoq qirib:

— Hikoya juda yaxshi yozilibdi, — dedi, — qalamingiz ancha pishiq...Durust, durust...Muntazam mashq qilib turganingiz sezilib turibdi. Faqatgina uning bir yerida ozgina kamchilik bor!

— Qayerida? — so'radim hayajonlanib.

— Hikoyada kampir tezak yoqib uyni isitdi, debsiz. Shu xususda miyamga yangi fikr kelib qoldi. Menimcha, kampir tezak yoqishi etikagayam, zamongayam to'g'ri kelmaydi. Yaxshisi u saksovul yoqsin. U tezakka qaraganda madaniyatliroq.

Hikoyani, adabiy xodim aytganiday, qayta ishladim. Shunday qilib, asarimdagi kampirimga bir quchoq saksovul yoqtirib, uyini

isitdim-da, gazetada bo'lim boshlig'ining huzuriga kirdim. Bo'lim boshlig'i hikoyamni g'oyat qiziqish bilan o'qib chiqdi, so'ng:

— Menga hikoya juda yoqdi,—dedi jilmayib.—Qishloq hayotini haqqoniy tasvirlabsiz. Ammo kichkinagina kamchiligini sezib turibman. Xabaringiz bor, saksovul bugungi kunda "Qizil kitob"ga kiritilgan, uni yoqish jinoyat hisoblanadi. Saksovullarning qirqilishi cho'lda qum ko'chkisini keltirib chiqarar ekan. Shundan kelib chiqqan holda, kampirga saksovul yoqtirmasdan, butunlay boshqa narsa yoqtirish kerak. Bunga nima deysiz, ma'qulmi?

— Ma'qul...Lekin nima yoqtiramiz?

— Menimcha unga ko'mir yoqtirish kerak. Ko'mirning tutuni oz, keyin cho'g'i anchagacha o'chmasdan, uyni isitib turadi.

Hikoyani yana qayta ishlashga to'g'ri keldi. Kampirga bir tog'ora ko'mir yoqtirib, isintirdim-da, gazeta mas'ul kotibining huzuriga kirdim.

U hikoyani boshini ko'tarmay o'qib chiqdi-da:

— Tabriklayman! Ajoyib asar yaratibsiz! Bravissimo! —dedi qo'limni siqib.—Bu hikoya o'quvchini maftun etib, xayollarini uzoq-uzoqlarga olib ketadi. Ayniqsa, hikoyaning kirish qismi ajoyib. Faqatgina bitta joyiga jinday tuzatish kiritish kerak. Bu mening fikrim, albatta. Kampirga ko'mir yoqtirish kerak emas. Chunki ko'mirni o't oldirish oson emas. Uni tinmay puflab turish kerak. Kampirning esa uzoq puflashga quvvati yetmaydi. Bundan tashqari, ko'mirdan is gazi chiqishini unutmaslik kerak. Kampirga ko'mir o'rniga gaz pechka yoqtirsak bo'lmaydimi? Bu bilan asarda yangi turmush gashtini surayotgan qishloq kampirining siymosini gavdalantirgan bo'lasiz!

Hikoyani qayta ishlab, "yangi turmush gashtini surayotgan kampir siymosini gavdalantirdim", ya'ni unga gaz pechkani yoqtirib, uzoq isintirdim. Shundan so'ng uni qo'ltiqlab, muharrir muovinining huzuriga kirdim. U hikoyani o'qib chiqib, quvonch bilan dedi:

— Mana bu hikoyani tarjimonlarga berib, boshqa tillarga tarjima qildirish kerak!—dedi u mamnuniyat bilan.—Ajoyib, hayajonlantiruvchi hikoya! Bunday pishiq hikoyani o'qimaganimga ancha bo'luvdi. Ammo, unga bitta e'tirozim bor. Kampir deganlari,

odatda hech narsani yoqtirmaydigan, loqayd bo'lib qoladi. Loqayd kampir nima qiladi?

— Bilmadim?

— Menimcha, qari kampirni qiynab, gaz pechka yoqtirish kerak emas. Biz uni uyning oldiga chiqarib, oftobga isintirsak, ishonarli chiqadi. Bu fikr qalay, ma'qulmi?

Muharrir muovini aytgancha hikoyani qayta ishlab, tahririyatga topshirib, bir oycha chop etilishini kutib, natija bo'lmagach, tahririyatga surishtirib borsam, oftobda isinib o'tirgan kampir ham, hikoya ham muharrirga ma'qul kemabdi.

QARZ

Satilla tong bilan yon qo'shnining ko'k darvozasini taqillatdi. Ichkaridan itning hurigani, keyin kimningdir o'qtin-o'qtin yo'talishi eshitildi. Sal o'tmay kimdir shippagini shap-shup qilib, darvoza yoniga kelib, uyquli, bo'g'iq ovozda "Kim u?!" dedi zarda bilan.

— Qo'shni, eshikni oching, menman...

— Satillamisan?

Darvozaning kichik eshikchasi g'iyqillab ochilib, Ko'limboyning ustarada qirilgan yaltiroq boshi ko'rindi.

— Ha, tinchlikmi, saharlab yuribsan?

— E, Ko'limboy, bir zarurat bilan kelib turibman. Bozorga tushmoqchi edim, uyda bir tiyin aqcha qolmabdi. Bolalarga mayda-chuyda olmoqchi edik. Shunga ikki yuz ming qarz berib tursang. Bir haftada qaytaraman.

Ko'limboy yaltiroq boshini chayqadi, so'ng eshikka yopishgan tugmaday loyni tirnog'i bilan qirib tushirar ekan, achinib:

— Voybo'y, qo'shni, ikki yuz ming deysan, uyda shu tobda ming so'm bo'lsa buyurmasin! — dedi. — Kecha, shanbada ikki joyga chaqiriqqa bordik... Anovi Esamurod qizilning uyidan so'rab ko'r, unda bo'lishi kerak...

Satilla hovliqib borib Esamurodning darvozasini taqillatdi. Esamurod maykachan ichkaridan mo'ralab, so'ng derazani ochib, xinaga bo'yalganday qizg'ish sochli boshini tashqariga chiqarib:

— Ha, qo'shni, saharlab yugurgilab yuribsiz, tinchlikmi?— dedi.

— Qo'shni, senga ishonib keldim, ikki yuz ming zarur bo'lib qoldi, bir haftaga berib tursang...

— E, Satilla og'a, uyda pul paydo bo'ldi, deguncha xotin deganning oyog'i chiqib, do'konma-do'kon yurishi boshlanadi,—deb arzini boshladi Esamurod.— O'tgan hafta ikki million maosh olib keluvdim, kecha ulfatlar bilan bo'ladigan o'tirishga borish uchun yuz ming so'm so'rasam, xotin tushmagur ko'zini lo'q qilib, "Pul tugadi", deydi. Nima deysiz endi. Anovi Idris xabarchidan so'rab ko'ring-chi...

Satillaning baxtiga Idris darvoza tashqarisiga shlangda suv sepayotgan ekan. Ikkalasi uzoq ko'rishishdi.

— Ha, Sake, tong bilan uyma-uy kezib yuribsan?

— E, qo'shni, ikki yuz ming zarur bo'p qoldi. Bir-ikkita qo'shni-qo'rondan so'radim, yo'q, deb berishmadi, endi umid yolg'iz sendan.

— Qancha?!

— Ikki yuz ming.

— Sake, uydagi pulimiz o'n mingga ham yetmaydi... Ikki kun avval ancha pulimiz bor edi, xotin aksiya degan baloni o'ynabdi, hammasi shunga ketdi.

Satilla erinmasdan yana ikki qo'shninikiga bosh suqib chiqdi, lekin ular ham qarz bergisi kelmadi. U uyiga xunobi oshib qaytdi.

— Nima qildingiz, topdingizmi?—deb so'radi xotini oshxona derazasidan tashqariga mo'ralab.

— E, bu noinsof, beoqibat qo'shnilar qarz berarmidi?! Ulardan qishda qor so'rasang berishmaydi! Endi nima qilamiz, xotin?

— Xudoyim ularga kuningni solmasin!—dedi xotini po'ng'illab. — Berishmasa bergusiz qolishsin! Iloyim ularning boriniyam yo'q qilsin! Bular birovga yordam qo'lini cho'zsa, qo'li uzilib tushadi! Nima, qarzni bermasdan mahalladan ko'chib ketarmidik?! Bilib turibman, o'sha "yo'q" deb bermagan qo'shnilaringiz pulning hidiga tunlari uxlolmay chiqishadi. Iloyim, sholcha tagida taxlanib yotgan pullari chirib ketsin! Endi gap bunday, dadasi, bolalardan pulni ayamaylik. Sandiqdagidan olsak bo'lmaydimi?

—Voybo'y, onasi, sandiqdagini butlab, o'n million qip qo'yuvdim-a! Yigirma millionga yetkazaman, deb shuncha tirishaman, har safar taxi buziladi! Bunaqa xasis, oqibatsiz qo'shnilarning boridan yo'g'i yaxshi!

Satilla javray-javray, ichkariga, sandiq turgan uyga kirib ketdi.

MONTYORNING MONOLOGI

—Assalomu alaykum, yaxshilar! Meni tanidinglarmi? Men, o'sha, "Kuygan ko'prik"lik Xolboy montyorman. Ovuldan ko'chib ketganimga ancha bo'ldi, hozir shaharda yashayapman. Ovulga montyor kerak bo'lmagandan keyin— tirikchilikni shaharga ko'chirganman.

Voybo'y, men sizlarga aytsam, o'shanda montyorlarning qo'rasi temirchilarnikiday bir gurullagan. Sovxozda bizi obro' partkomnikidan kam bo'lmagan. Bizi ko'rganda sovxoz direktoriyam iyak qoqib, salom berib o'tardi. To'y-ma'rakalarda "mullaning haqi", deganlariday "montyor haqi"ni telejkada uyga tashlab ketishardi.

Xullas, ovulda kimsan — Xolboy montyor bo'lib davr surganmiz. Qaysi yili edi-ya, 82 yo 83 midi, ishqilib, saksoninchi yillarning o'rtasida, ovuldagi O'taboy do'konchi kenjasiga sunnat to'yi qildi. O'taboy po'kakmiya bizi mensimasdan— "montyor haqi" jo'natmabdi. Montyorning kimligini sanga ko'rsatib, ko'zingni moshday ochay, deb mehmonlar endi stolga o'tirishganida butun sovxozning svetini shartta o'chirdim. Ana undan keyin ovulimizdagi so'ztegarlarning ostonamga kelib yalinishlarini ko'rsangiz. Hatto, ovulning oqsoqoli Nurjon og'agacha oraga tushdi. Uniyam tinglamadim. "Buzilgan" transformatorni tuzatgan bo'lib, chiroqni tongga yaqin arang yoqdim. Bechora O'taboyning to'yi rasvo bo'ldi.

Ikki yildan keyin o'sha O'taboy to'ng'ichiga kelin tushirdi. Yurak oldirib qo'ygan ekan, to'ydan bir kun oldin, qarasam, uyning oldidagi transformatorga "montyor haqi" deb bitta to'qol echki bog'lab ketibdi.

Rahmatlik Xo'jaboy sariq, mastlikda suvga cho'kib o'lganidayam tomosha ko'rsatganman. Xo'jayboning kenjatoyi bizni o'g'ilni urib, burnini qonatib yuboribdi. Jahlim chiqqanidan, o'lganniyam ayab o'tirmadim. Chiroqni shartta o'chirib tashladim. Ana undan keyin ta'ziyaxonadagi bosa-bosni ko'rsangiz. Qorong'ida qancha kalish almashgan, birovning tuflisini birov kiyib ketgan. Mapirza kampir mullalarga sho'rva deb chelakdan yuvindi quyib taratgan. Qodirboy qorong'ida tahorat qilayotgan O'tan mullani it deb o'ylab, kesak bilan tushirgan.

O'zimizning otalashimiz Olloboy qiyshiqning to'yidiyam rosa qiziq bo'lgan. Xotin boyoqish ertalabdan kechgacha, oyoqda tik turib qilgan xizmati evaziga olti ming so'm to'yona yozdirib, uyga kelib dasturxonni ochib qarasa, to'rtta suvi qochgan non bilan erib, bir-biriga yopishib ketgan konfet ustiga ikki metrgina, bir tomoniga yog' tomgan shipon qo'yishibdi. Xotinning jahli chiqib: "Bor, o'chir svetni!" —desa bo'ladimi. Xotin aytgandan keyin bizda jon bormi! Bir deganda butun ovuldagi chiroqni o'chirib tashladim. Mahalla raisi uyga g'izillab yetib kepti. "Montyorning xotini odam emasmi, nega hurmatini qilib, yaxshiroq tugun berishmaydi?!"—dedim alam bilan. Bir vaqti, deng, to'yga dasturxonchi bo'lgan ayolning o'zi xotinga uch metr gulli kremplin mato, menga bir uzun yengli ko'ylakni gazitga o'rab kelib turibdi. Ana shundan keyingina yumshab, borib chiroqni yoqdim.

Endi u kunlar bir tushday bo'lib, o'tdi-ketdi! Mana endi nasibamiz shaharga sochilgan ekan, ishqilib, bir-bir terib, yeb yuribmiz.

Tog'boy degan sherigim bor, ikkovlashib, ba'zan "ovga" chiqib turamiz. Qanday "ov" deysizmi? Ikkalamizda "shahar elektr tarmog'ining inspektori", degan guvohnoma bor. Ana shu guvohnoma bilan shaharning chekka mahallalariga borib, bir boshdan uylarning elektr hisoblagichini tekshira boshlaymiz. Birovlar ikki oy, birovlar uch oy, birovlar to'rt-besh oy chiroq pulini to'lamagan bo'ladi.Shundaylar chiqsa, qancha yalinib-yolvormasin, chirog'ini simog'ochdan kesib ketaveraman. Shunday qilib, mahallaning bir boshidan kirib , oxirigacha qarzdorlarning simini qirqib, hech narsa bilmaganday, yo'limga ketaman. Oradan yarim soat o'tar-o'tmas-

dan, biz simlarni qirqib ketgan ko'chadan, velosipedining orqasiga simyog'ochga chiqadigan "changal"ni qistirib, Tog'boy o'tadi. Chiroqsiz qolib, dovdirab qolgan odamlar o'z oyog'i bilan kelgan montyorning yo'lini to'sib, yalinishga tushishadi.

— Inim, baraka toping, bir noinsof montyor chirog'imizni kesib ketdi. Ulab bering...

— Ulab bera qoling, televizorda serial boshlanib qoladi...

Xullas, mahalladagi jami xotin-xalaj borki, yalinishga tushadi. Natijada, men kesib ketgan simlarni odamlarga "rahmi kelib", Tog'boy qaytadan ulab, mahalladagilarning ham pulini, ham duosini olib, izimdan uyga yetib keladi. Ana undan keyin "tushum"ni arra qilib, tong otguncha "shaqalbazm" qilamiz!

...Aytmoqchi, gapga tushib ketib, "ishga" kechikay debman-u. Tezroq bormasam, ortimdan Tog'boy velosipedini jiringlatib kepqoladi! Ha, darvoqe, bu gaplar o'rtamizda qolsin-a, o'raga sichqon tushdi, guldur-gup! Yana ishimiz ommalashib ketib, bizniyam simimizni kesib ketishmasin!

Kengesboy ALLAMBERGENOV,
Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi

KUCHUK VA BOLA

U tong endi otayotgan paytdagina o'zining shahar chekkasidagi ko'chalarning eng oxirida — uyulib yotgan tog'-tog' tashlandiq-axlatlar orasida yotganini angladi. Kuchuk bu paytda tashlandiq narsalarning — lagan-lagan kirning suvi (mag'zava), chuvatilib to'zigan latta-puttalar, oyna siniqlari, yonib kul bo'lgan o'tin qoldiqlari, yozuvlari yoyilib ketgan qog'ozlar, turli xil metall parchalari, burishib yotgan pomidor, piyoz-kartoshkalarning po'sti, kesak kabi tashlab yuborilgan oppoq-oppoq non bo'laklari, suyak-sayaqlar ekanini ham bilgani yo'q.

Yumilgan ko'zlarini asta ochib, erinchoqlik bilan tepalikni bir aylanib chiqdi. So'ng, endi nima qilsam ekan, deganday, qizarib kelayotgan osmonga tikilganicha turib qoldi.

Atrof yog'dulanib, quyosh arqon bo'yi ko'tarilgan paytdagina u bu yerda bir o'zi emasligini payqadi. Allaqayerlardan parlari-yu tumshuqlari ifloslanib qolgan bir to'p chumchuqlar uchib kelib, uyundilarni cho'qib, titkilay boshladi. Hademay yoqimsiz izillashgan chivinlar ko'payib, kuchukning og'zi-burniga qo'nib, obdan mazasini qochirdi.

Chumchuqlarning topgan ozuqalarini cho'qilasha yotganlarini kuzatib turgan kuchuk shu lahzalarda o'zining ham qorni ochligini sezdi. Tomoqdan o'tguday nimadir ozuqa izlab, o'rnidan sudralib turdi. Bir-ikki bo'lak non topdi, chala g'ajilgan suyakni uzoq yalab yotdi. Qorni biroz to'yinganday bo'lib, oxiri uyundilardan olislab borib, cho'zilib yotib oldi. Chumchuq va qarg'alarning onda-sonda eshitilgan tovushlari bo'lmasa, atrof jimjit edi. Izli-izidan kelib, axlat to'kib ketayotgan odamlarning ham u bilan ishi yo'q. Shu paytda shahar tomondan esgan shamol kuchukning burniga yoqimli is olib keldi. Beixtiyor ba'zi narsalarni yodiga solganday bo'ldi.

U bir intilib o'rnidan turmoqchi edi, chap tomon qovurg'asi zirqirab og'rib, o'rniga qaytadan yotishga majbur qildi. Shunda u kechagina beshafqat kaltaklangani, manglay atroflariga tekkan zarb, tepki, so'qqilarning og'rig'ini qaytadan his qilganday bo'ldi. Quyrug'ini asta-sekin bir-ikki silkib qo'yib o'rniga qaytadan cho'zildi. Tashlandiq narsalarning aralash-quralash hidlari uning ichini aynitib yubordi. Yana o'rnidan turmoqchi bo'lib bir intilib ko'rdi-da, eplayolmay tag'in qaytadan yotdi.

Dastlabki bir-ikki kun shu taxlitda o'tdi. Kuchuk bora-bora bunaqa holatlarga ham ko'nika bordi. Chivinlarning izillashlariga ham, yoqimsiz hidlarga ham, hattoki axlatlar orasida topilib turadigan nasibasiga ham jirkanmay qaraydigan bo'ldi. Kelib, axlat to'kib ketuvchi odamlar ham uni endilikda taniydigan bo'lib qoldi. Kuchuk ham ularning qaysi biri nima olib kelishi mumkinligigacha ayirib ola biladigan bo'ldi. Tong azonda hassasini taqillatib keladigan qariyaning chelagida qog'oz parchalari-yu, supirindidan boshqa narsa bo'lmaydi. Burni qarg'aning tumshug'iday cho'zilgan ko'zoynakli ayolning to'kkan narsalarini hatto iskab ham turmaydi, miyani aylantiradi...

Kunlarning birida azon bilan axlat to'kmoqqa kelgan bir bola chelagini chetroqqa qo'ydi-da, kuchukka tikilib turib qoldi. Bolaning o'ziyam avvalgi xo'jayinning kenja o'g'liga o'xshab ketar ekan. Kuchuk bunaqa ahvolotni kutmaganligi tufayli qo'rqib-qaltirab qoldi. Yaxshiyam bolalar urishmaydi. Manov bolaning ham yaxshi niyatda ekanligi ko'rinib turibdi. Biroq, uning ota-onalarining minazi, atvor-xulqi qanaqa? Kuchukning jarohatlangan yerlari yana zirqirab og'riy boshlaganday bo'ldi. Oyoq uchida bosib, asta yaqinlashayotgan bolani yotsirab, axlat tashlandiqlariga qaray qochdi. Bolakay kuchukni izlab topolmasligiga ko'zi yetdi shekilli, bo'shagan chelagini ko'tarib, uyiga jo'nadi.

Kuchuk bola ketishi bilan zip etib, tashlandiqlar oldiga keldi-da, turib oldi. Tashlandiqlar orasida yeyishga yaroqli hech narsa ko'rinmadi. Qizg'ish tortgan qog'ozlarda qop-qora chivinday harflar.

Attang, kuchuk bu qog'ozda nimalar yozilganini tushunmaydi. Agar, tushunganidami, bu qog'ozdagi manavi so'zlarni o'qigan bo'larmidi:

"Har bir fransuzning tashlandiq narsalar tashlaydigan chelagida har kuni bir kilogrammga yaqin qoldiq axlatlar to'planadi. Boshqa Yevropa mamlakatlaridayam ahvol shunday: ya'ni bu mamlakatlarda har yili har bir fuqaro Daniyada — 230 kg, Luksemburgda 400 kg, Angliyada 272 kg miqdorda maishiy chiqindini yaratadi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, yevropaliklarning chelagidagi axlatlar orasida tashlandiq narsalar miqdori quyidagicha: 10–30 foizgacha — oziq-ovqat qoldiqlari, 20–40 foizgacha qog'oz, kartonlar, qog'oz mahsulotlari, 1–6 foizi — latta-putta, cho'bitlar, 2–6 foizi — metall siniqlari bo'ladi.

Bizning asrimizning eng yaxshi kimyoviy mahsuloti bo'lgan plastmassa tashlandiqlaridan qanday qilib manfaatli tarzda foydalanish mumkin? Yoqib yuborilsa-chi? Bu — havo qatlamlariga xavfli, zaharli gaz massalarini havoga yuborish degan so'z. Shusiz ham yer shari ulkan axlatxonaga aylanib borayotir..."

Kuchuk bu so'zlarning bariga tushunmagani uchun afsuslanganday mung'ayib turdi-da, umidlari puchga chiqqan odamday quyrug'ini bilanglatib, nari ketdi...

Bir payt kuchuk bolaning shovqinli ovozidan uyg'onib ketdi, birdan qochib qolmoqchi bo'ldi-yu, o'zining qopcha ichiga tushib qolganini sezib qoldi. Tipirchiladi, g'ingshidi, oxiri yangi xo'jayiniga bo'yinsunib, tovushini pasaytirdi-da, atrofga qarab boraverdi. Bolaning esa ikki ko'zi quvonchdan porlar, o'zicha allanelarni aytib, g'ururlanib so'zlab ham qo'yardi.

Mana bolaning uyi. O'zining oldiga har turli ovqat, yeyimlik olib kelib, uchib-qo'nib yuribdi. Kuchuk to'satdan kelib qolgan bu baxt alomatlariga ishonishni yoki ishonmasligini ham bilmay qolgan odamga o'xshab, oldidagi ovqatlarni kimdir tortib oladiganday, apil-tapil yamlab-yutayotir. Rohat deganlari shu bo'lsa kerak!

Bola bilan kuchukning do'stligi ana shunday boshlanib ketgan edi. Ular shu kuni kechgacha uy oldidagi maydonchada biri-birini quvib, kurashib o'ynadilar. Charchoq, zerikish deganning nimaligini unutib yubordilar. Biroq kuchuk uchun quvonchli bo'lib boshlangan bu kun ham ko'ngilsizlik bilan yakunlandi. Maydonchada to'satdan paydo bo'lgan ayol bolaga baqirib, qo'lga ilingan tayoq

bilan kuchukni ura boshladi. Bechora kuchuk endi nima qilsin, iloj-siz axlatlar tashlanadigan tepalik tomon vang'illab qochdi.

Ertasiga bola kuchukni izlab yana tashlandiqlar uyundisiga keldi. Avvaliga kuchuk boladan qochinqirab turdi-yu, keyinchalik uning kechagi mehribonliklarini eslagan kabi, yoniga kelib, erkala-na boshladi. Bola ham uni ayricha bir mehr bilan quchog'iga oldi. Kuchuk bo'lsa dastlab bolaning qo'llarini, so'ng yuzlarini yalay boshladi.

...Yana shaharga qaytib bordi. Kechgacha bola bilan avvalgi-day bir-birini quvalab o'ynadilar, kurashib-yiqilishib, ag'anashib yotdilar. Bu gal bola kuchukni burungi o'rniga ergashtirib keldi-da, so'ng o'zi iziga qaytib ketdi.

Ertasiga, indinigayam birga o'ynadilar. So'ng... birga o'ynash bular uchun odatga aylanib ketdi.

Yozning issiq kunlarida tashlandiqlarning axlatxonasi, bu yer-ga uyulib qolgan "minora" obdan islanib, nafas olish qiyinlashib qolardi. Kuchuk bul vaqtlari tong-azondan to kechgacha bolaning uyi atrofida aylanib yuradigan bo'ldi. Boyagi baqiroq ayol yo'q paytlari-ku bola bilan xumori tarqaguncha birga o'ynaydi. Agar bola uyidan chiqmagan paytlari kuchuk bir chetda cho'nqayib, uni kutgani-kutgan.

Bir kuni ertalab boshlagan yomg'ir tush mahaligacha to'xtamas-dan, chelaklab quyganday yog'ib turdi. Bolaning uyi yonidagi ga-rajni panalab, u yoq-bu yoqqa kezib yurgan kuchuk ham yomg'irda obdan bo'kdi. Tushdan keyin kun chiqib, havo isib ketdi. Biroq negadir boladan darak yo'q edi. Kuchuk uzoq kutdi. Bola kelaver-magach, chopqillab bir o'zi o'ynay boshladi. Bola bilan kurash-ga tushayotgandagi harakatlarni kuchuk bu gal ham takrorlar, shu harakatlar asnosida u xavotirni ham unutib, bolaning eshigiga yaqin kelib o'tirdi. Ichkaridan tanish tovushli ayolning yig'layot-gani qulog'iga tol-tol kelib turdi. Qulog'ini tikraytirib, diqqat bi-lan tinglay boshladi. Bolaning ingirsigan, biroq o'ziga juda aziz bo'lib ketgan tovushini eshitganida chidayolmay vovullab yubordi. Shu payt eshik pot bilan qarsillab ochildi-da, eshik oldida paydo bo'lgan ayol vajohat bilan unga tayoq uloqtirdi. Og'ir zarbaga

chidamagan kuchuk vanq-vanq ovoz chiqarib, boshi oqqan tomonga qochib qoldi.

Kechqurun bolaning uyi oldiga qizil belbog'li mashina kelib to'xtadi. Odamlar bolani ko'tarib chiqib, mashinaga solayotganda, kuchuk chidayolmay, g'ingshib ularga yaqinlashdi. Bola boshini ko'tarib, unga qaradi. Bir kunda so'lg'in tortib qolgan bolaning ko'zlarida quvonch uchqunlari porlab ketganday bo'ldi. Kuchukni sezib qolgan odamlar uni yana tayoqlab quva boshladi.

Bolani olib ketishdi. Shundan so'ng undan darak bo'lmadi. Kuchuk ko'zini yo'ldan uzmay uni kutmoqda edi...

Kuchuk har kuni bolaning eshigi oldiga kelib, mehribonini kutar, bola chiqmagach, holi qurib, burungi o'rniga qaytardi. To'g'ri, ko'chada bolalar ko'p edi, lekin ularning hech biri-da o'sha ikkinchi xo'jayinning o'rnini bosolmaydi. Xayolidan ko'zlarida mehribonlik shu'lasi porlagan o'sha bola ketmas edi.

Bugun ham kuchuk odatdagidek bolaning uyi tarafga yo'l oldi. Uy oldida to'xtab turgan qizil belbog'li mashinani ko'rib, kayfiyati ko'tarilib ketganday qadamini tezlatdi. Lekin, birdan qulog'iga ayolning yig'lagan tovushi eshitilganday bo'ldi. Kuchuk bir narsani sezganday, quyrug'ini qisib, beriroqda to'xtadi-da, yana o'sha quyosh tomonga tumshug'ini cho'zib, ayanchli g'ingshidi. Shu kuni kuchuk to qorong'i tushguncha uy atrofida kezib yurdi. Biroq u o'z istagiga erisholmadi — bola qaytib chiqmadi.

Kuchuk har kuni azonda uy oldiga kelishni kanda qilmas, bolaning chopqillab tashqariga chiqishini, bag'riga olishini, erkalashlarini qo'msar edi. Bu umidi ancha vaqtlargacha uzilmadi, lekin oxiri u kutishni qo'ydi, yana o'sha axlatlar uyundisidan ko'tarilgan tepalikka ko'nikishga majbur bo'ldi. Biroq, uni endi bu yerdagi chumchuqlar va qarg'alar, chivinlar-u qurt-qumursqalar unchalik qiziqtirmasdi. Butun xayoli kelib-ketib turgan odamlarda edi.

Kuchuk bir buta tagida cho'zilib yotganicha uchinchi xo'jayinni kutmoqda edi...

Beknazar YERNAZAROV

YEDIGE

(Ertak-qissa)

Yedigening tug'ilishi

Qadim-qadim zamonda, qirontog'-Kerder tomonda el-u yurtda taniqli, g'arib-qashshoqlarga mehribon, saxovatda tengi yo'q, chechan va oqil, chavandoz Boltaqiya ismli bahordir elga biylik qilgan ekan. Uning hotamtoy va dangalchiligi ayrim kimsalarga yoqmas ekan.

Kunlardan birida Baltaqiya ko'zdan g'oyib bo'lib qolibdi. Bu haqda el ichida har xil gaplar tarqalibdi. Xullasi uning sirli yo'qolishi jumboqligicha qolaveribdi. Ilgarilari yaqiniga yo'lashga botina olmaydigan uning g'animlari biyning uyur-uyur yilqilari-yu, otar-otar qo'ylarini, sigirlarini aldab olib ketishibdi.

Erining mol-dunyosidan ayrilgan Oltinsoch suluv kimsasiz qolib, hech kimga bildirmasdan bir oqshomda g'oyib bo'libdi.

Qornidagi olti oylik homilani omon saqlab qolish uchun bosh olib ketgan Oltinsochda quyundek uchadigan ilohiy xosiyat hosil bo'libdi va u goh Qirontog'da, goh dengiz sohillariga zumda uchib borarkan.

U qaylarda uchib yurmasin, kechasi narigi otasi "Tukli Aziz" makon tutgan boyterak tagida tunab chiqarkan. Chunki ona o'sha terak tagida sof havodan nafas olib, joni rohat toparkan.

Vaqt-soati yetib, Oltinsoch suluv qo'chqordek o'g'il tug'ibdi va shu zahoti jon taslim qilibdi.

O'g'il tug'ilganligini sezgan pari uchib kelib, chaqaloqni yo'rgaklab, quyosh nuri bilan emizibdi. Tashqi xavf-xatardan qo'riqlab o'tiraveribdi.

Umrida birovdan shirin gap eshitib, mehr ko'rmagan, taqdiriga armon bitilgan Qutliqiz cho'ri har kungi odatiga ko'ra dalaga tezak tergani chiqadi. Bugun har kungidan ko'proq tezak terib, Boybichiga yoqmoqchi bo'lgan cho'ri ovuldan olislab ketadi. Nari-beri yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, horib-charchab, Oltinsoch ona tunaydigan boyterak tagiga borib qolib, soyasida dam olib o'tirganida, qulog'iga norasidaning bo'g'iqqroq ovozi eshitilgandek tuyuladi. Atrofiga qarasa hech nima ko'zga tashlanmaydi. "Bunday keng yaydoq dalada norasida nima qiladi, shunchaki qulog'imga chalingandir-da" degan xayolga boradi.

Shunday xayol surayotganida qulog'iga birovning gapirgani eshitilibdi.

— Nima qilayapsan? — Norasidaning tovushi chiqadi. —E'tibor bermading. Odam ham shunchalik loqayd bo'ladimi? Yon-veringga qara,— debdi ovoz.

— Qutliqiz qo'rqib ketibdi. "Meni jin chalay deb turgan bo'lsachi? Shu yetmay turuvdi o'zi. Jinnini kim ham uyiga kiritardi. Bu kunimdan ham ajrasam?.. E, Xudoyim, dalada qolib, ochimdan o'lmagayman-da", — deya darhol o'rnidan turib, atrofga alanglab qaradi.

Allamahalda ko'zi adl terakning novdasida osilib turgan bir nimani ko'rib, qo'rquvdan qotib qoldi. "Ko'zimga har balo ko'rina boshladi. Chindan Xudo urdi chog'i", — deya ichidan g'udrandi.

Boyterakdan anchagacha ko'zini olmadi.

— Nega qaqqayib turibsan. Ko'zingga ko'rinib turgan norasidani olgin-da, bag'ringga bossang-chi, — dedi o'sha ovoz.

Bu ko'zga ko'rinmay turgan parining gaplari ekanligini cho'ri anglamadi.

"Mayli, ko'rganim bo'lsin", deya cho'ri siljib borib qo'l cho'zdi. Do'mboqqina bir chaqaloqning yo'rgakda yotib, kulayotganini ko'rib, es-hushidan ayrilay dedi. —Xudoga shukur. Tangrim mening ko'z yoshlarimni ko'ribdi, dodimni eshitibdi,— deya chaqaloqni bag'riga bosibdi.

Quvonchdan ko'z yoshi to'kibdi, siynasi yumshab, oppoq sutga to'libdi.

Boyning cho'risi dalaga tezak tergani ketganida go'dak yolg'iz qolardi. O'shanday paytda pari ko'zga chalinmasdan kelib, boladan xabar olib turardi. Uning uchib kelib-ketishini hech bir zot payqamas edi.

Qutliqiz daladan qaytganida go'dakni o'z ovqati bilan ovqatlantirishga har qancha urinmasin, bola yolchitib, ovqat yemas, bundan cho'ri "go'dak betoblanib qolmadimikin" deya tashvishga tushar, ammo bolaning tinchgina uxlashi, sog'lomligini ko'rib, xavotiri tarqab ketardi.

Qutliqiz bolani hech kimga aytmasdan mehr bilan parvarishlay berdi.

"Ertangi yorug' kunlarim, baxt-u iqbolimga shu bola bilan erishaman", degan shirin orzu, ezgu niyatlardan sarmast holda yashayverdi.

Sultonning shubhasi

O'ziga dushman sanovchi Boltaqiyadan qutulgan Ismoil sulton yer-mulkini oshirib, shod-hurram yashayverdi. Bir kuni olamda nimalar yuz berayotir, kelajakda nimalar yuz berishi mumkinligini bilish maqsadida bashoratchidan so'z so'rab, folbinga fol boqtirdi.

Dunyoda bir farzand tug'ildi. O'z yo'rgagi bilan tug'ilgan bola onasidan judo bo'lgan. Biroq o'sha bola elingga xavf tug'diradi. Ajaling shu bola qo'lidan bo'ladiganga o'xshaydi, — tug'ilgan zahoti onasidan ayrilgan, — debdi folbin va bashoratchilar.

—Mening davlatimga xavf soladigan kim ekan u? Sandiroqlamasdan to'g'risini ayt,— debdi takabbur Ismoil sulton ularga g'azabini sochib.

Sultonning g'azabidan bashoratchi o'zidan ketibdi. Folbin qaytadan fol ko'ribdi.

— Bir qoshiq qonimdan kecching. Men folga tushganini aytayotirman. Boshqacha bo'lishi mumkin emas, — debdi dag'-dag' titrab folbin.

— Xo'sh, unda o'sha bola qayerda? — debdi sulton qahrga minib.

— Qirontog'ning kunchiqar tomonida ko'rinadi.

— Aniq ayt. Unday bola kimga nasib qilibdi?!

— Aniq bilolmayman. Davlatli bir xonadon atrofida ko'rinadi. Eski-tuskilar orasida...

Barchasini aniq-tiniq qilib aytishga parining folbinning ko'zini bog'lab tashlagani yo'l bermayotgandi.

Ismoil sulton jon-joniga o't tushib, Qirontog'ning yon-verini, Kerder qal'aning kunbotarini ko'z oldiga keltiradi. Tulim xoja ko'z o'ngida namoyon bo'laveradi.

Tulimning uyiga hujum

O'sha atrofda Tulim xojadan boyroq kim bo'lishi mumkin. Lekin folga ilingandek bola undan nima qilsin: uning besh ayoli ham tirik. O'lganida mozori bo'lardi.

Tavakkal o'sha joyni qidirib ko'rishimiz kerak, deya sulton yigitlari bilan Tulim xoja uyiga bostirib borib, uy ichini ag'dar-to'ntar qiladi. Cho'rining yotoqxonasigacha tintadi, biroq hech nima topa olishmaydi.

Xavfni sezgan pari uchib kelib, bolani ko'ra olmasday qilib, ularning ko'zini bog'laydi.

Hech nima topa olmagan sulton va yigitlari horib-charchab orqalariga qaytishadi.

G'azablangan sulton yana folbinga boradi.

—Sen nimaga bizni aldading. Navkarlarimiz hech nima topa olmasdan qaytib kelishdi. Yaxshiroq qara, — debdi.

—Navkarlar topishga yaqin qolishgan. Nimagadir fol aniq ko'rsata olmayotir, — debdi folbin.

Shundan so'ng Ismoil sulton Yana odam yo'llab, topib o'ligini olib kelinglar, deb buyuribdi.

Tulim xoja askarlarning bevoshligidan qattiq achchiqlanib, ularga qarshilik ko'rsatibdi. Ammo askarlar ko'plik qilib, uyni tinta boshlabdi. Xojaning o'rasi, qo'rasigacha birma-bir tintibdi.

Bu gal ham xavfdan xabar topgan pari ona bolaning yonida paydo bo'lib, askarlarning ko'zini bog'lab, bolani qutqarib qolibdi.

Sultonning nojo'ya harakatlarining izi katta dovga aylanib, qon to'kishgacha boradigan bo'libdi.

Qahrga mingan Ismoil sulton:

— Bizni aldab, qirilishtirmoqchi bo'layotgan hiylakor folbinning tilini sug'urib oling, — debdi yigitlariga.

Folbin o'ziga to'ngan xavfni oldindan sezib qochib ulguribdi. Bashoratchi kampir esa u dunyoga otlangan ekan.

Tulim o'g'illik bo'ldi

Yoshulilarning aralashuvi bilan o'zini bosgan Tulim xoja birdaniga unuta olmabdi.

Kun-u tuni o'ylab, oxiri besh ayolning kattasi boybichaga yorilibdi.

— Ismoil sulton bekorga uyga ot choptirib yurmagan bo'lsa kerak. Bashoratchining o'limi, folbinning birdaniga g'oyib bo'lishi ham jumboqli. Bu yerda bir gap borga o'xshaydiyov?

— Mening ham aqlim hayron. Bu sultonning hiylasimi yoxud ko'zi ochiqlarning tug'iladigan farzand deyishga bizning hech birimizning bo'yimizda yo'q.

O'sha gapdan keyin boybicha birdaniga o'ylanib qolibdi. "To'qollarimdan biri sir tutib, xojani birdan quvontiray deb yurgan bo'lsa-chi? Agar shunday bo'lsa o'sha to'qol oldida qadrim qolmaydi-ku. Bularni bir aniqlab boqay-chi", deb o'ylabdi.

Boybicha makkorlik bilan oldiga chorlagan to'qollarning har birining ko'ngliga qo'l solib ko'rdi, ammo gumon qilgulik hech nima aniqlay olmadi.

Tun yarmida tashqariga chiqayotib to'satdan norasida kulgisini eshitib qolibdi.

Norasida xususida ko'p o'ylaganim bois, menga shunday tuyulgandir-da, degan xayolda bunga ko'p ham e'tibor bermagandi, yana bir gal o'sha hodisa takrorlandi.

Boybicha hech qachon boshini suqmagan cho'rining kulbasiga qanday borib qolganini o'zi ham sezmay qoldi.

Ko'zi oldida xon o'g'lidek chiroyli yo'rgaklangan bola ko'tarib, qovun qo'riqchisidek qaqqayib Qutliqiz cho'ri turardi. Nigohlar unsiz to'qnashdi.

Saldan keyin boybicha tilga kirdi.

— Bu bolani qayerdan olding? — deya so'radi o'zini qo'ygani joy topa olmasdan.

— Opa, bo'yimda bor edi... — dedi cho'ri og'ziga boshqa so'z tushmay.

— Aldayotganing yo'qmi!

— Rost aytyapman opa...

— Sen tugul menga ham nasib etadigan bolaga o'xshamaydi bu. Tilingni chaymasdan rostidan kel.

— Opajon, bir qoshiq qonimdan kechgin, — deya cho'ri go'dakni yoniga yotqizib, boybichaning oyoqlariga yiqildi. So'ngra go'dakka bog'liq voqeani oqizmay-tomizmay bir boshdan so'zlab berdi.

— Shunaqa bo'lsin-da, — deya boybicha biroz hovuridan tushdi.

— Bu sizga munosib, — deya bolani qo'shqo'llab boybichaga uzatdi.

— Ma'qul, — dedi boybicha go'dakni qo'liga olarkan, — shuncha to'polonda bu bola qayerda edi. Ismoil sulton qanday ko'rmagan.

— Bilmadim opajon, bilmadim. Doim shu yerda yotardi, o'zi yo'rgaklangan. Boybicha chindan ham bolada bir karomat bor degan o'yga keldi.

Tulum xojani xursand qilib, bolani o'z etagiga solibdi.

— Qariganimda o'zimning tug'ganim, — deb ko'pchilikni ishontiribdi. Ismini azon aytib, Yedige qo'yadi.

Soplining qo'li singanida

Yedige kundan kunga o'sa boshladi. Tengdoshlaridan hech biri bel tutib kurashganida unga bas kela olmadi. Bolalar o'rtasida kimsan Yedige polvon atanibdi. Buni eshitgan Boqonlining o'g'li Sopli ismli katta yoshli bola uni kurashga chaqiradi.

Qo'rquv nimaligini bilmaydigan Yedige bu taklifga rozi bo'lib, u bilan kurashga tushibdi. Ko'z ochib-yumguncha Sopli chalqancha tushib, jo'ralari oldida rosa izza bo'libdi.

Bundan orlangan Sopli:

— Sen g'irromlik qilding. Yiqitganing hisobmas. Boshqatdan kurashamiz, — deya turib olibdi. Jo'ralarining "Yiqildingmi, bo'ldi-da endi", degan gaplariga quloq ham osmadi. Yedige uni yana bir bor chalqanchasiga tushirganida yerdan ko'tarilgan chang aralash Soplining "voy eshnim" degan chinqirig'i havoga ko'tarilibdi. Bolalar voy-voylayotgan uni yerdan ko'tarib, uyiga olib boribdi.

Boqonli boy erkatoyining qayoqdagi Yedigedan yiqilib, egni singanini bilgach tilini tishlashdan o'zga chora topa olmadi. Axir mushtdek boladan yiqilganiga qanday ham dov ayta olardi.

Soplining yiqilganidan orlangan jo'ralari Yedige bilan birma-bir kurash tushsalar-da, hech biri uni yiqita olmadi. Qaytanga burunlari buzulib, uy-uylariga tarqashibdi.

Yedigening merganligi

Yedige yolg'iz o'zi to'qayga kelib, sadoq (kamon) yasab, quyon, qirg'ovul ovlashni odat qilibdi. Uning bu odatini payqagan ovul bolalari unga xursand bo'lishibdi.

Soplining o'rtog'i Ersidiq "Oyqovoq" otish tadbirini tashkil etibdi. Ovul o'rtasidagi katta maydonga yog'och ustun o'rnatib, tepasiga qovoq ilibdi. Har bir kishiga uch o'qdan otish sharti qo'yilibdi. Va kimki yengilsa, eshak bo'lib hanrgrab berishi e'lon qilindi. O'zlarini mergan sanab yurgan uch bola o'rtaga chiqibdi. Birinchi navbat Ersidiqning tengdoshiga berilibdi. Uning otgan ilk o'qi nishonga tegmabdi, ikkinchi o'qi qovoqning og'zini uchiribdi. Uchinchi o'q bazo'r qovoqqa qadalibdi.

Barchaning ishonchini qozonishga hozirlangan Ersidiq sadoqni tarang tortib yuborib qolganida o'q qovoqqa sanchilibdi, dalda beribdi. Ikkinchi o'qi ham nishonga bexato tekkanidan manmansingan Ersidiq bolalarga maqtanchoqlik bilan alanglab turib, uchini xato ketkizib qo'yibdi. Hamma jimib qolibdi.

Ersidiq Yedigening uchala o'qini tengdek nishonga tekkizishiga o'zini ishontira olmasdi. Shu bois ham kayfiyati tushkun emasdi.

Yedigening dastlabki o'qi qovoqni teshib, ikkinchi tomoniga sanchilgandi.

Ikkinchisi ham xato ketmadi. So'nggi o'qi qovoqni butunlay teshib o'tdi.

"Qoyil, Yedige!" degan ovozlar yangrab ketdi.

Yengilgan bolaning o'rtani aylanib, eshak bo'lib hangrashi bolalarni kulgiga to'ydirdi.

"Yiqilgan kurashga to'ymas" deganlaridek, endi Ersidiq bolalarni "Qadamachoq" o'yinini o'ynashga ko'ndirdi.

O'yin qoidasiga binoan har bola qo'liga ermani shingildan yasalgan nayza olib, u bilan o'n qadam naridagi somondan ishlangan tulibga (kap) qo'lidagi nayzani uloqtirib qadashi shart edi.

Kimki yengilsa, o'yin shartiga muvofiq burniga, yuziga qora kuya surkalgan holda o'rtada qo'shiq aytib yurishi kerak edi.

Qadamachoq musobaqasida ham Yedige g'olib bo'ldi. Mag'lub o'rtada yurib, bolalarga tomosha ko'rsatdi.

O'yinqaroq bolalar "qosharmanto'p" o'ynashga kirishib ketishdi. Charchaguncha uzoq o'ynashdi. Oxirida Yedige olgan dovdan uchib ketgan to'p qalin bukning orasiga tushib, barchasi qidirish bilan ovora bo'lishdi. To'pni topolmasdan "ertaga qidirib toparmiz", deyishib uy-uylariga tarqab ketishdi.

Yedige bolalar boshlig'i

Yedigening bolalar o'rtasida obro'si oshaverdi. U bolalarni ketiga ergashtirib, to'qayga borib, sadoq, nayza yasadi. Bilmaydiganlariga o'rgatdi. Keng maydonda har xil o'yinlar uyushtirardi. Ayniqsa to'qqiz tumoloq o'yinida unga bas kelish mumkin bo'lmadi.

Ota-onalariga dastyorlik qilayotgan bolalarni mullaning darsidan ozod bo'lgandan keyin o'zlariga qurol-yarog' yasattirib "urush-urush" o'ynagani ergashtirib ketaverib ovulni bezor qildi.

Bu haqda ovul odamlari Tulum xojaga shikoyat qilishdi.

— Namuncha betarbiya, beodob bo‘lmasang, — dedi Tulum xoja, — seni nima qilishni bilmay qoldim.

— Ota, hech nima qilmay qo‘ya qoling, — dedi Yedige boshini tik tutib. — O‘qish, savodim bor... Endi yilqi boqsam devdim...

— Yilqi boqsam degin...

Xoja hayronlik bilan bolaga tikildi.

— Ha, ota, yilqilarni juda ham yaxshi ko‘raman-da.

— Kimning yilqisini boqmoqchisan. O‘zimizda ham yilqilar bisyor. Yo‘q bo‘lgandayam shuncha yilqini senga ishonib topshira olmasdim.

— G‘am yemang ota. Jonmurod otamning yilqisi yaylovga sig‘may, yilqichilar qiynalib yurganmish.

Birovning qo‘lida ishlasa, tarbiya ko‘rib, aqli kirar degan niyatda kelishim berdi. Uning ish haqiga berilajak yilqining o‘z yilqisiga qo‘shilishini ham yodidan chiqargani yo‘q.

Yedige Jonmurod biyning yilqiboqari sifatida yilqichi, cho‘pon, podachilar safiga qo‘shildi.

Yedige tush ko‘rganida

Kengliklarda yoyilib yurgan yilqilar uyuri Yedigening xayollarini band etib, unda har birini minib chopishiga havas uyg‘otdi.

Yedige yilqilar bilan tezda til topishib ketdi. Ularning harakatlaridan fikrini anglay boshlaganini payqaydi.

Baland tepalikning boshiga chiqib, oftob ro‘yada xayol surib yotib, pinakka ketadi. Uxlayotib tush ko‘radi. Tushida oppoq soqolli qariya bilan osmonda uchib yurganmish. Choponi barlarini ikki qanot qilib uchib yurgan mo‘ysafid Yedigega shunday dermish:

— O‘g‘lim, sen bunaqa yurib, yosh umringni yilqi ketida yurish bilan o‘tkazib olma. Sening o‘rning xon saroyida. Hali sen bu yog‘i bilan u yog‘iga olti oyda odam zoti arang yetdigan katta sahroning sohibi bo‘lursan. Chunonchi, narigi bobong Mang‘itlarning otasi Qo‘yildir bobo g‘oyatda chechan, xalqiga odil va g‘amxo‘r bo‘lib o‘tgan. El boshqargan dono kishi bo‘lgan. Temirchining o‘zi undan maslahat, yo‘l-yo‘riq olib yurgan. Tukli bobong ham karomatlili-

gi tufayli yurtda "Karamat aziz" deb nam qozongan. Sen shunday yaxshi zotlar urug'idirsan. Yilqichi otadan so'nggi yilqilar piri bo'lasan, o'g'lim. To'xtamishning zulmidan aziyat chekayotgan xalqing seni kutayotir. Seni hamisha yaratgan egam qo'llaydi.

Yedige cho'chib uyg'ondi. Anchagacha o'ziga kelolmay yotdi. "Men qanday qilib yurtga og'a bo'la olar ekanman", deya o'y surdi. Shunday bo'lsa-da adolatli xon bo'lishdek armon uning qalbida o'rnashib qoldi.

Yedige ucha oladi

Uning xayolini ayg'irlarning qiyqirib-kishnashgan ovozlari bo'lib yubordi. Qarasa, ko'z uchida uyur boshchilari — ikki ayg'ir urushayotgan ekan. U ayg'irlarni ajratib qo'yishga chog'lanib, yugurayotganida, o'zining qushdek uchib borayotganini payqab qoldi. Go'yo ikki qo'ltig'idan nimadir ko'tarib borayotgandek.

— Sen hayron bo'lmagin, — dedi ikki birdek ovoz jo'rlikda. — Sen ucha olasan. Bizlar seni hamisha qo'llab turamiz. Bobongning rafiqasi bo'lgan pari onang parilar podshohining qizi bo'lganligi sabab yonigga har doim parilarni xizmatingga yuboradi. O'zi ham bot-bot sendan xabar olib turadi.

Ovoz to'xtagan paytda Yedige o'zini ayg'irning ustida ko'rdi. Urishayotgan ayg'irlarni ajratib qo'ydi. Umrida ustiga jabduq tegmagan ayg'irlar ustiga mingan odamzoddan qo'rqib, ikkovi ikki tomonga tiraqaylab qochib qolishdi.

Ko'p vaqt o'tmasdan yilqilar Yedigening buyrug'iga to'liq bo'ysunishdi. Bitta qichqirishi, hushtak chalishi bilan tarqoq yilqilar atrofiga to'planib, saf tortib turishadigan bo'lishdi.

Yedigening ilk hakamligi

Laylakko'l sohilida ot boqayotgan Yedige dovlashayotgan ikki kishiga duch kelib qoldi.

— Uchrashganing soz bo'ldi, yosh bo'lsang ham odamsan-ku. Bizlar bir dovni yenga olmayapmiz. Bu atrofda vaj ayta oluvchi odam ham yo'q ekan, — deydi dovlashayotganlar.

— Nimani dovlashayapsizlar? — deydi Yedige.

— Men atoqli mergan edim, — deydi birinchisi. — Ko'lda yolg'iz o'rdak suzib yurgan ekan. Endi otmoqchi bo'lib turganimda, manavi odam kelib, shunqori bilan ilib oldi.

— Shunqor turganda, o'qqa balo bormi, — dedi Yedige, — O'rdagini ber. O'lja shunqor egasiniki.

— Bunga rozi bo'lmayman. Nega otgan o'rdagimni yo'ldan o'tayotgan allakimga berishim kerak.

— Mayli, mening gapimga ko'nmasang, shunqorning egasi anavi tepaning boshiga chiqadi. Uning boshiga bitta olma qo'yaman. Unga tekkiza olsang, o'rdak seniki bo'ladi. Tekkiza olmasang o'limga mahkumsan, — deydi Yedige.

Bunga ikkoviyam rozi bo'lishadi.

Mergan olmaga bexato o'q tekkizib, o'rdakka egalik qiladi.

— Dovni adolatli hal qilding , rahmat senga odil hakam. Bu ishing mukofotiga o'rdakni senga tortiq qildim, — debdi mergan bolaning donoligiga qoyil qolib.

Yedige o'rdakni olib ketayotsa, uning bir ko'zidan yosh, bir ko'zidan qon oqayotganini ko'rib rahmi kelibdi va yarador o'rdakni mehr-la silab qo'yib yuboribdi.

O'sha o'rdak umri davomida o'z xaloskori Yedigega yaxshiliklar qilib kelgan deyishadi.

Ona-bala topishishdi

Yilqilariga baraka doridi. Endilikda Yedige yilqilar ketidan uzoq kun yurishni bas qildi. Tugallashni istasa qichqirsa bas, hammasi yetib keladi. Sanab tugalligini bilgach, yana yaylovga haydab soladi.

Yedige yilqilarini bir qur ko'zdan kechirib, yaylovga haydab kelayotganida olisda ikki ayolning allanimalar ustida tortishib kelayotganini ko'rib, yo'lini ular tomonga burdi. Qarshisiga yetib ke-

lib salomlashgandan so'ng: —Opalar, sezib turibman. Nimanidir tortishayapsizlar, — deb so'raganida ulardan biri: — Chirog'im. Bizlar da'vogarlarmiz. Xonga ham arzga bordik, ammo tayinli javob ololmadik.

— Bolamni yo'qotganimga to'qqiz oy bo'lgandi, — dedi ikkinchisi, — o'zga bir yurtdan manavi ayol topib, asrab olibdi. Bolamni so'rab borsam, "bola meniki, o'zim tug'ganman", deydi. Nima qilay axir, bolamni tanib turgan bo'lsam...

— Xon va qozining yecha olmaganligi rost. Bola meniki bo'lgandan keyin qanday yecha olsin. Bu bo'lsa ketimdan qolmaydi. O'zim tug'gan bolani unga qanday berayin, — deya ikkinchi ayol qarshi dov aytarmish.

— Unda bolaning ikki qo'lidan ikkingiz ushlab turinglar, — dedi Yedige, — uni ikkingizga tengdek bo'lib beray. Shunday deya og'ir va o'tkir qilichini qinidan sug'urib, ko'tarayotganda ayollardan biri chinqirib yubordi.

—Yo'q, yo'q, ko'z oldimda bolani chopa ko'rmang. Qayda bo'lsa ham tirik yursa bo'lgani. Mayli bola manavi ayolniki bo'la qolsin. Faqat chopib tashlamang, — deya qilich tig'iga o'zini tutibdi.

Yedige qilichini tushirib, bolani qilich tig'iga o'zini tutgan ayolning qo'liga ushlatibdi.

Tulki kimga tegishli?

Laylakko'lning sof havosini yutib har kungi odatiga binoan Yedige ovul bolalarini nayzalashish, qilichlashish va merganlik sir-asrorlariga o'rgatib, to'qaydan qaytayotganida mushtlashayotgan ikki odamni uchratib qolib, ulardan:

— Elsiz joyda bu nima janjal? —deb so'rabdi.

— Umrim bo'yi ovchilik bilan tirikchilik qilib kelaman, — deydi ulardan biri, — hozirgina bitta tulki otgandim, iniga kirib ketdi. Qazib olay desam manavi odam qo'ymayapti.

Yedige savol nazari bilan ikkinchi odamga qaradi.

— Qanday qazdiray, axir. U mening ko'z ostimga olib, har kuni qo'riqlab yurgan tulkim edi. Shu sababli qazishga qarshilik qilayapman.

— Unda gap bunday, — dedi Yedige. — Erkak tulki bo'lsa, boshiga xavf to'nganida, favqulodda vaziyatlarda inga kiradi. Urg'ochi tulki esa ini atrofidan uzoqqa ketmaydi. Jinsini aniqlash uchun inni qazinglar. Tulki erkak chiqsa, ovchiniki, agar urg'ochi bo'lsa, qorovullik qilib yurgan odamniki bo'ladi.

Inni qazib, tulkini chiqarishsa urg'ochi ekan, uni qorovullab yurgan odamga beribdi. Bunday adolatli yechimdan ovchi ham rozi bo'libdi.

Azlarkent qal'adagi to'y

Yedige ovul bolalarini yaylovga chorlab, otlarga mindirib uloq (ko'pkari), ot ustida tortqilashmoq o'yinlarini o'ynashadi. O'zi esa bolalarning havasini keltirib, otdan otga, toydan toyga minib, sakrab-sakrab o'ynaydi. Lekin uning bunday qaltis o'yinlarini eng epchil bolalar ham uddalay olishmaydi. Taqlidchilar asov otlar ustidan tapa-tappa qulab qolaveradilar. Lekin ular Yedigeni pari qo'llab, ikki qo'ltig'idan ko'tarib yurishini bilishmasdi. Yedige ham bu sirni hech kimga oshkor qilmasdi.

Shunday kunlardan birida bolalar Azlarkent qal'ada kata to'y o'tkazilib, unda ot poygasi, ko'pkari, polvonlar kurashi, oltin qovoq ottirish va hokazo tomoshalar bo'lajagi haqidagi xabarni Yedigega yetkazishadi. Ayniqsa kurash va ot poygasini eshitib, Yedige bu to'yni sabrsizlik bilan kutadi. Darhol Jonmurodning sariq toyini poygaga hozirlay boshlaydi. Mazkur sariq toyning xufiya xislati borligini Yedige bilardi. U to'yga ovuldan o'rtoqlarini ergashtirib kirib borganida maydon to'la olomon, oltin qovoq o'yini boshlanish arafasida ekan. Yedige odamlar orasidan arang o'tib, o'yinboshining oldiga borib:

— Og'a, meni ham ro'yxatga tirkab qo'ysangiz, — deya iltimos qildi.

O'yinboshi uning aftiga, ustidagi kiyimlariga ko'z tashlab qo'ygach: —Hoy bola, bu yer sen o'ynaydigan yer emas, yaxshisi balandroq joy topib, tomosha qilishni bil, — dedi.

— Rost aytyapman. Men ham baxtimni sinab ko'rsam devdim, — dedi Yedige yalinchoq ohangda.

— E, nimalar deyapsan, bola. Bu yerga uchgan qushning ko'zidan otadigan merganlar kelishgan. Ular oldida senga yo'l bo'lsin. Bor, vaqtimni olma. Musobaqani boshlashimiz kerak,— dedi o'yinboshi.

—Men ham quralayning ko'zidan otishga qodirman. Osmonga qarang, anavi uchayotgan qarg'aning qaysi ko'zini ko'zlab o'q uzay.

Ko'z ochib-yumguncha qarg'a o'rtaga to'p etib tushdi. Chindan o'q qarg'aning o'ng ko'ziga qadalgan edi.

O'yinboshi hayratdan dong qotib qoldi, boladan ismini so'radi.

— Yedige.

— Yaxshi. Hisobga oldim. Navbatingni kut, — dedi bunaqasini kutmagan o'yinboshi.

Oltin qovoq otish musobaqasi boshlanib, manaman degan merganlar o'zlarini sinab ko'rishdi. Ammo hech birovi oltin qovoqqa aniq tekkiza olishgani yo'q. Pari onasi bunga yo'l qo'ymadi. Yedigega navbat yetdi.

Yedige bamaylixotir, hayajonsiz oltin qovoqni nishonga oldi. Olomonning nigohi oltin qovoq ilingan ustunga qaratildi. Yedige otgan o'q oltin qovoqqa aniq tekkanida olomon birdan jonlanib, qiyqirib yuborishdi.

— Bu kim? Kimning zurriyodi ekan?

— Padaringga rahmat.

— Ofarin bola mergan.

Shunday g'ovur ostida Yedige o'rtaga chiqib bosh sovrinni oldi va qo'sho'rkachli tuyani yetaklaganicha qurdan chiqib ketdi.

Zanjirli polvon bilan kurash

To'y-tomoshalari biridan so'ng biri davom etdi. Navbat polvonlar bellashuviga yetib keldi.

Yedigening bu kurashga aralashuvi ham oson kechmadi. Polvonlar kurashiga hakamlik qiluvchi Sotim polvon Yedigeni qaysi polvonga chiqarishni o'ylab boshi qotdi.

— Bu yerda bizdek keksalarga hakamlik qilish, sendek bolalarga esa kurashni tomosha qilish yarashadi. Bu polvonlar ichida sening vazningga mos tushadigani yo'q, — dedi.

— Siz ko'rsatgan polvonga tusha beraman, — dedi Yedige.

— To'g'risi, o'g'lim, seni bola polvonga ham munosib ko'rmayapman. Mayrilib qolasan, bola.

Yedige orlanib, — ota, meni zaif deb o'ylamang. Bugungi to'yning bosh polvoni bilan bel tutishaman,— dedi ishonch bilan. Chunki uni narigi otalari ruhi, pari onasi ko'z oldida turib qo'llayotgandi-da. Gavdasida ilohiy kuch-g'ayrat jo'sh urib turardi.

Sotim polvon xalqqa kulgili tomosha ko'rsatishni ko'zlab, o'rtaga zanjirli bosh polvonni chaqirdi.

Zanjirli polvon mushtdek bola Yedigeni ko'rdi-yu, g'azabi qaynab ketdi.

— Ey, Sotim! O'zing kurashni qo'ygandan keyin, polvonlarni masxara qilishga o'tdingmi. Mening tengim manavi norasida bo'libdimi, — deya Yedigeni jimjilog'i bilan turtib, qurdan haydab yubormoqchi bo'ldi.

Barmog'i "chim" etib og'riganida ko'zidan yosh sho'rg'aladi.

Zanjirli polvon kurash qoidasiga zid amal qo'llanib, imijimida raqibini uzoqqa uloqtirib yuborish niyatida yog'rinidan qattiq burdi. Ammo bu bolaga chivin chaqqanchalik bilingani yo'q.

Orlangan zanjirli polvon zanjirini shaqirlatib, ikki qo'li bilan yoqasidan tutdi. Boshidan oshirib uloqtirishni ko'zlagandi. Biroq Yedige o'rnidan qo'zg'almadi. G'azabga to'lgan zanjirli polvon raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortib, ichdan chalish usulini qo'llaganida ham Yedigeni qimirlata olmadi.

Olomonning nigohi qur o'rtasidagi bolaga og'di.

Zanjirli polvonning ko'nglida "bolada karomat yo'qmikan", degan shubha uyg'ondi.

Shunday bo'lsa-da "Buning bo'ynini uzib tashlay, bugun paymonasi to'lgan shekilli", deya unga yaqinlashdi. "O'limdan uyat

kuchli", deydilar. Umrida kuragi yerga tegmagan katta polvon nomus-ordan yurak-bag'ri o'tdek kuyib, bolaning boshiga osildi.

— Og'a, — dedi Yedige vazminlik bilan, senga uch marta muhlat berdim. Endigi navbat bizniki bo'lsin!

"Qo'lingdan nima ham kelardi" degan xayolda zanjirli polvon go'yo nevarasiga belini tutgandek taltayib turib oldi.

Yedige o'tgan ota-bobolari ruhi va pari onasiga sig'inib, raqibining yo'g'on sonining pastrog'idan mahkam quchoqlab oldi. Undan balandiga bo'yi ham yetmasdi.

Yedigening "Haa" degan tovushi eshitilgani hamona yangi to'shalgan kigiz ustida chang ko'tarildi.

Odamlarning chuvullashi olamni tutdi.

Chalqancha yotgan polvonni keragaga solib, o'rtadan olib chiqishdi.

Ko'pkarida

Ko'rimsiz sariq toyiga minib, ko'pkarida uloqqa talashayotganini ko'rib ko'pchilik Yedigeni mazaxlab kulishdi.

—Mingan otiga qarang! Ilohiy kuch otida ham bor deb o'ylaydi shekilli.

Nomi yurtda mashhur chavandoz Egamberdi taqimidagi og'ir uloqni hech kimga oldirmay chopib bormoqda. To'p-to'p uloqchilar orasiga bir kirib, bir chiqadi. Oxiri chavandozlarni ermak qilishgacha bordi. Uloqchi otlarning aksariyati qora terga tushib, o'zlarini qurdan olib qocha boshlashdi.

Yedige otlar to'plamini qoq ayirib o'rtaga dadil kirib keldi. Egamberdi bilan yonma-yon ancha yelib yurdi. Uloqchi oti goh yaqinlab, goh uzoqlab, hiyla ishlatib Yedigening qo'lini ko'pkariga tekkizmadi.

Qahrlangan Yedige ota-bobolari arvohiga, pari onasiga sig'inib Egamberdi chavandozning beliga qo'l soldi.

Zumda quloq eshitib, ko'z ko'rmagan hodisa ro'y berdi. Yedigening oldida bo'ktarilgan otning oyog'i salanglab borardi. Yedige Egamberdini oti bilan qo'shib to'y egasi va el biylari oldiga otib urdi.

Ko‘pchilik esankirab qolishdi.

Yedige sovrinlarini do‘stlari oldiga solib, o‘zi yilqilari oldiga jo‘nab ketdi.

Yedige xonlikka munosib

Yedigening to‘yda ko‘rsatgan karomati el og‘alarini bir joyga to‘planib, maslahatlashishga majbur etdi.

Birovlar uning chechanligini, odilligini, hakamligini aytsa, boshqalar polvonligi bilan chavandozligini doston qildi. Bu bola ovulimizning peshonasiga sig‘adigan bola emas deyishdi.

El og‘alari, biylar yig‘ilishib, Tulim xojani o‘rtaga olishdi.

Bu bola sening, ovulimizning peshonasiga sig‘maydi. Aslida bu bola xonlikka munosib, otadan ortiq tug‘gan bola ekan. O‘z bolang bo‘lganida ham xon xizmatiga yaragulik farzandni xonga tuhfa qilish Xudo bergan baxt, obro‘. Kimning o‘g‘li, Tulim xojaning o‘g‘li deyishadi.

Tulim xoja ko‘pchilikning ra’yini yiqa olmay, Yedigeni xon saroyiga olib borib berishga rozi bo‘ldi.

El og‘alari tong otishini sabrsizlik bilan kutayotganida, Yedige kelgusi hayotini ko‘z oldida tasavvur qilib uyg‘oq yotardi.

—Xudo nasib etib, qo‘limga xonlik tegsa, bu zamonni qo‘y ustida to‘rg‘ay yumalaydigan qilib qo‘yardim. Yurtimni, xalqimni jabr-zulmdan qutqarib, nohaqlikni yo‘qotib, erkin zamon yaratardim. Asrlar bo‘yi xalqim faxrlanib eslab yurarlik davron yaratardim.

Bola xayoli shunday ezgu orzular bilan band edi.

KICHIK HIKOYALAR

QIZIL SUV

Daryoda muz yorilib, muzning ustidan oqqan suv "Qizil suv" deb ataladi. Qish kuni daryo adog'idan boshiga qarab qaytsa, suv o'zandan toshadi, muz qarsillab yoriladi. Xarsangday-xarsangday muzlar suv yuzasida yumalab oqa boshlaydi. Kechagina muz qotib turgan soylarning o'zani birdaniga oqin suvga to'lib toshadi. Dastlab muz yoriladi, yoriq asta-sekin kengayib, muz sathida odam hatlab o'ta olmaydigan ariq paydo bo'ladi. Girdoblarda "jiluv" deb ataladigan suvi muzlamaydigan oqimlar uchraydi.

Qishning so'nggi kunlari edi. Biz maktabga "Tinch yop" deb ataladigan zovur ichi bilan chanada yelib boramiz. Maktab zovurning adog'ida. Tushdan so'ng o'qiganimiz uchun bir tutam qish kunida quyosh juda erta botib, tezda qosh qorayadi.

Bir kuni darsdan so'ng men, Pardaboy, Bekbo'sin, Bekbergan — to'rtalamiz chanalarimizni yeldirib, "Tinch yop" ichi bilan ovulga qarab shamoldek uchdik. Birimiz oldinda, qolganlar ketma-ket orqada, chanamiz zuvillab mashinada kelayotgandekmiz. Kim o'zarga poyga o'ynab, shamolning qarshiligini kesib o'tish uchun chananing ustiga engashib yotib olib, tezlikni tobora oshiramiz.

Pardaboy hammadan o'zib, oldinda borayotgan edi. Bir payt u "Voy!" deb baqirib yubordi. Engashib chana haydaganimiz uchun qorong'ida ko'rmay qolibmiz, zovurning muzi ikki metrlar chamasi kenglikda ayrilib ketibdi. Tush payti bu yerda atigi yarim qarichdek yoriq bor edi, xolos.

Katta tezlikda kelayotganimiz uchun to'rtalamiz ham chanamizni to'xtatolmay, bor bo'yimiz bilan "shalop-shalop" etib suvga tushib ketdik. Jon-jahdimiz bilan muzga tirmashib, osilib turibmiz. Yelkamizdagi sumkalarimiz, egnimizdagi qishki kiyimlarimiz suv-

ga bo'kib og'irlashib, qo'l-oyoqlarimiz harakatini qiyinlashtiradi. Og'irligimiz bilan suvga botib-botib ketamiz.

Bekbo'sin:

— Hoy, kim bor? Biz girdobga tushib ketdik! — deb baqirdi.

Uning tovushi baland aks sado berib, olis-olislarga taraldi.

Biz suzishni bilganimiz uchun suvda tishimiz-tishimizga tegmay sovuqda qaltirab moltib, zo'rg'a chidab turibmiz.

Bir payt zovur yoqasida qora otini choptirib kelayotgan Qobilbek muallim ko'rindi. U bizning yonimizga yaqinlashib, otdan tushdi. Otning chilvirini zovurga tashladi.

— Chilvirni ushlanglar, chilvirni! — dedi u tashvishli tovush bilan.

U to'rtalamizni ham suv ichidan tortib olib, uy-uyimizga eltib qo'ydi.

O'sha kuni biz qizil suvdan omon qoldik.

JAYIN

O'quvchilar yozgi ta'tilga chiqdi deguncha "Tiniq ko'l" bo'yiga yugurishadi. O'tovning egilgan tayoqlariga boylangan qarmoqlarini ko'lga tashlashadi. O'zlari qum tepalarining o'rkachlariga minib olib, qarmoqning po'kagidan ko'z uzmay poylashadi. Ba'zi bolalar quvlashmachoq o'ynaydi.

Bolalardan ikkitasi po'kaklari qalqib, suvga botib-botib lip-lip etayotgan qarmoqlariga tushgan baliqlarni chiqarib, ularning oyqulog'idan ip o'tkazib, turong'i butalariga boylashmoqda. Ipga tizilgan baliqlar pitirlab, suvni loyqalatadi.

Pardaboy ipakdan eshilgan yo'g'on ipga boylangan, katta baliqlarga mo'ljallangan qo'rg'oshin "langar"li qarmog'iga bir qarichcha keladigan sazanni xo'rak qilib ildirib, ko'lning o'rtasiga uloqtirdi. Qirg'oqda ko'lga tomon engashib o'sgan turong'ining shoxiga ipning bir uchini qoziq bog' qilib bog'ladi.

Ko'lning Pardaboy qarmoq tashlagan tarafi juda chuqur. Suvning gum joylarida katta sazanlar, jayinlar suzib yuradi. Kattaligi uch metrdan oshgan ulkan laqqabaliq jayin deyiladi. Ko'l yo-

qasida esa bilakdek-bilakdek baliqlar o'zlarini ko'rsatib, suvning sirtida sakrab o'ynaydi. Katta yoshli baliqchilar qayiq bilan to'r solib, baliq ovlashadi. Faqatgina bolalar baliqni qarmoq bilan tutishadi.

Bolalarning aksariyati qum ustidan juva terib yurishibdi. Juva qumda o'sadigan mayda piyozga o'xshagan o'simlik. Ko'l yoqasida qarmoqlarga termilib o'tirgan Baxtiyor birdan baqirib yubordi:

— Pardaboy, qarmog'ing ketdi!

Hamma ko'lga qarab yugurdi. Ko'lda yashil yaproqli turong'ining shoxi u yoqdan bu yoqqa suzib yuribdi. Bu Pardaboy qarmog'ini boylagan turong'i daraxtining ulkan tanasi edi. Ko'p o'tmay, bus-butun turong'i daraxti ko'lning o'rtasiga qarab zing'illab suzdi. U keng oydinga chiqib, o'ngga burilib ketdi.

— Bahaybat jayin! — deya chuvullashdi bolalar.

Pardaboy to kun botib, qorong'i tushgunicha ko'lning o'rtasidan ko'z uzmay qarab turdi. Biroq turong'ini ildizi bilan sug'urib, suvga tortib ketgan jayindan dom-darak bo'lmadi.

BEKBO'SIN BALIQCHI

Bekbo'sinni hamma "baliqchi" deydi. U juda chaqqon. Suvda suzib yurgan baliqni qo'li bilan tezda ushlab oladi. Gum suvga sho'ng'ib ham baliq tutadi.

Bir kuni biz maktabdan kelayotganimizda "Ulton yop" zovurining ichida sakrab suzib borayotgan "oq amur" balig'ini ko'rib qoldik. Bekbo'sin ham biz bilan birga maktabdan kelayotgan edi. U poyabzalini yechdi-da, ko'kragi bilan suvga otildi. Suv uning belidan kelar edi.

Bekbo'sin goh sakrab, goh sho'ng'ib borayotgan baliqning ustiga o'zini tashladi. Ikki-uch bora quloch otib, suv ichiga sho'ng'ib ketdi. Birozdan so'ng u baliqning oyqulog'idan ushlab, quchoqlab ko'tarib chiqdi. Suv yoqasiga chiqqanida baliq qattiq pitirlab, Bekbo'sinning qo'lidan sirpanib chiqib ketdi. Biroq suvga emas, ekskavator qazigan tuproq uyumining qiyaligiga qarab yumaladi.

O‘zidan o‘zi bir necha bor sakrab, biltanglab tipirchiladi. Oltindek tangalari qizg‘ish-qo‘ng‘ir. Suzgich qanotlari, dumlari qumga belandi.

Baliq og‘zini katta-katta ochib-yumadi. Baliqqa suv, odamga havo yetmasa shunday bo‘ladi. Bekbo‘sinning ham, bizning ham baliqqa juda rahmimiz keldi. Uni Pardaboylarning uyi yonidagi hovuzga qo‘yib yubordik-da, suv ichida sakrab o‘ynaganiga zavqlanib qarab turdik.

QAZA

“Tiniq ko‘l”ning qiziqarli ajoyibotlari bor. Quvonch jarmadan boshlangan zovur tiniq ko‘lga kelib quyiladi. Tip-tiniq ko‘lga kelib quyiladigan zovurning loyqa suvida baliq ko‘p. O‘sha tarafda bizning ovul bor. Odamlar yulg‘unning qizil novdalaridan qaza to‘qib, suvga tashlab qo‘yishadi. Qaza novdalardan chetan devordek tikka qilib to‘qiladi-da, o‘sha “chetan devorlar” xuddi labirintday qilib suvga tikka qadab qo‘yiladi. Ko‘lning chuqur joylaridan kelgan baliqlar qazaga kiradi. Katta baliqlar qazadan iziga qaytib chiqolmay qoladi. Qazaga tushgan baliqni istagan paytingda osongina ushlab olaverasan. Ovul odamlari biri-biridan baliqni qizg‘anishmaydi. “Ko‘rmagan ko‘lning balig‘ini qizg‘anadi” degan maqolni bizning ovuldoshlar to‘qishgan. Ko‘lga yo‘li tushgan kishi qazalarga qo‘l solib, yeyishga yaraydigan baliqni bemalol olib ketaveradi.

Yoz kunlari edi. Baxt, Jo‘ldas, Bekbo‘sin uchalasi qarmoq bilan baliq tutishga chiqishdi. Ularning ovi baroridan kelmay, uyga qaytayotganlarida qazaga qo‘l suqib ko‘rishdi.

— Voyy!!! — Bekbo‘sin nogahon qichqirib yubordi.

Uning qo‘liga bilakdek keladigan cho‘rtanbaliq yopishib chiqdi. Cho‘rtan Bekbo‘sinning bosh barmog‘ining etini yulib olganidan so‘nggina juda qiyinchilik bilan ajraldi. Bekbo‘sinning barmog‘idagi o‘sha jarohat chandig‘i hali ham bor.

AVSTRALIYA

Yakshanba kuni ertalab Nurzoda televizorda Avstraliyani ko'rdi. Yaylovda qo'ylar suruvi yoyilgan, itlar qo'ylarni boqib yuribdi. Ko'l bo'yida daraxtlar, yam-yashil maysazorlar. Kichikroq ko'l o'rtasida qayiqda suzayotgan odamlar ko'rinadi.

— Avstraliya uzoqdami? — deb so'radi Nurzoda opasi Zamiradan.

— Yo'q, yaqin, — deya hazillashdi u singlisiga. — Bugun Taxtako'pirga ketayotganimizda yo'l-yo'lakay u yerda to'xtab o'tamiz.

Tush vaqti Davlat akasining mashinasida Taxtako'pirga otlanishdi. Xalqoboddan o'tgunga qadar atrofni tomosha qilib borayotgan Nurzoda charchab uxlab qoldi. Qorao'zakdan o'tishayotganda ko'l bo'yida to'xtashdi. Otasi va akasi biroz nafas rostlab, ko'lda cho'milib olishdi. Nurzoda uyqu aralash ko'zlarini ochib, ularning suv yoqasida yurishganini ko'rdi. So'ng yo'lda davom etishdi.

Nurzoda Taxtako'pirga yaqinlashgan payt uyg'onib, buvijonisining uyiga hammadan avval chopqillab kirib bordi. Buvijonisi uni quchoqlab oldi-da, uni hech kimga bermay, tizzasiga o'tqizdi.

Choy ichishayotganida Nurzoda buvisining qulog'iga shivirladi:

— Buvijon, biz Avstraliyaga bordik. Otam bilan akam Avstraliyadagi ko'lda cho'milishdi. Ko'lning bo'yida qo'ylar o'tlab yuribdi. Ko'l o'rtasidagi qayiqda odamlar suzib yurishgan ekan. Men sizni sog'inganim uchun tezroq yoningizga yetib borayin deb, mashinadan tushmadim.

Buvijonisi "shirinim" deb, nabirasini quchoqladi-da, yuzidan o'pib erkaladi.

NOVELLALAR

KO'K YOMG'IRDA EZG'ILANGAN TUYG'ULAR...

Manov qizning kirgan zahoti kulimsirab turib aytgan bir og'iz so'zi bag'rimni ezib, dilimni qon-qon yig'latdi. Meni o'n uch-o'n to'rt yillar nariga surib tashladi. U paytlar endigina "qirqqa chiqamiz" deb yurgan kezimiz edi. Ol, bu qiz hali o'ttizgayam chiqmagan, bir yil oldin turmush o'rtog'idan ajrashgan, men esa rafiqam bilan goh ajrashib, goh qayta qo'shilib yurgan paytlarim, bu qiz mening qo'l ostimda xizmat qildi, so'ng boshqa sohaga ishga o'tib ketdi... U xonadagilardan tortinmadi, ko'p yillik sog'inishlardan zerikkan ko'nglini issiq kuyukka aylantirib kela meni quchoqladi. So'ng, uyalish yo'q, hammaning ko'zicha meni o'pa boshladi... Payqab ulgurganim — uning doimo kulib turuvchi o'ynoqi ko'zlari nam edi. Ha-ha, mayli ichidanmi yo sirtidanmi u yig'lamoqda edi. Men esa... avval hech tushib ko'rmagan holatda edim. Shu lahzalarda, oniy lahza ichida yana bir holat yuz berdi — ko'kragimning chap tomoni simm etib ketdi, bilinar-bilinmas uh tortdim.

— Qalaysiz, akajonim?

Albatta bu uning o'zimga o'zimni anglatdi.

— Yaxshi, — deb bosh silkidim.

— Yo'q, meni butunlay unutibsiz... O'pkaladim sizdan!

Bu so'zlarni ham u bo'limimizdagi qizlarga hazillashib aytayotganday, turli ko'rinishlarda aytdi.

Sirtdan qaraganda uning so'zlari rostdan ham eng yaqin akasini, qarindoshini ko'pdan beri ko'rmagan singilning o'pka-ginasiga o'xshab ketardi.

— Voybo'y, singiljonim, seni unutib bo'larkanmi? — Tilimning uchidagini hazil aralash aytmoqchi bo'lsam ham, kelishtirolmay qolamanmi, deb ichimga yutdim. Ko'pdan beri ko'rmagan sin-sumbatiga, qaddi-bo'yiga, tepasiga turmaklab qo'yilgan

sochlariga, hecham o'zgarmagan yuz-chehrasiga qarayman. Bir paytlar... ha, bunisi hozircha muhim emas. O'zimni o'zim yupatib, ichim isiy boshlaydi...

— Mayli, mayli... Men uchinchi bo'limni aylanishim kerak edi. Ketib qolmaysizmi?

"Ketib qolish degani nima? Senday qizlar bilan yana bir marta uchrashish imkoni paydo bo'lganda nega ketib qolar ekanman?" — degan gaplarimni ko'zlarim allaqachonoq aytib solgan ham bo'lsa kerak.

U yengil qadamlar bilan dahlizga chiqib ketdi. Xonamda hayron qolib, goh tanglanib, bu voqeaning rost yoki yolg'onligini ajratolmay o'tirar ekanman, birga ishlaydigan qizlarning ham oldidagi xizmat ishlarini unutib qo'yganlarini ko'rdim.

* * *

— Sen meni butunlay unutib yuboribsan, axir qancha vaqt o'tdi...

— Qo'ying-ey, — u menga tiqilinqirab yurdi. Ikkovimizdan boshqa dahlizda hech kim yo'q, uning belidan tutib kelayapman.

— Bilasizmi, o'shanda siz meni tashlab ketdingiz... Umuman aytganda, siz meni quvib soldingiz-ku, allabirovday ko'rib...

U bo'lgan voqealarga to'la fikrlarini kuyunch bilan, siniq-siniq so'zlab kelayapti... Tovushi qaltirab-qaltirab eshitiladi, ko'z yoshlari sizilib oqadi. Men yuraksizman, o'g'rincha boqib kelayapman, tikilib qarashga qo'rqaman, yig'lab yuboradimi deb...

— Axir undan beri...

— Hovva, undan beriyam o'n to'rt yil o'tdi. — U darhol gapni ilib oldi-da, menga yalt qaradi. Ko'zlarining tevaragiga surilgan ko'kchil bo'yoq yoyilinqirab qolgan ekan. — Daje... o'n to'rt yil, besh oy-u yigirma yetti kun...

Nega shunchalar aniq? Hatto kunlarigacha qat'iy sanab yurgan ekan-da... Men shunda ildamlik ila hisoblash matematikasi kursining maxsus lemmalari yordamida bu gaplarning bexatoligini miyamning bo'sh yacheykalaridan birida zudlik bilan hisoblab chiqdim — to'ppa-to'g'ri! Eh! O'kinch tuyg'ulari ko'kragimni ezib-ezib yubordi. O'n to'rt yil, besh oy-u... to'ppa-to'g'ri!

— O'pkalagan bo'lsang, o'pkangning yoziladigan vaqti bo'lmadimikan? Axir vaqtni hamma dardlarning davosi deyishadi-ku...

— Yo'q, o'pkam ham, bovrim ham qovrilib bo'lgan! — Bu gal uning ovozi o'ktam eshitildi.

"Hoy, men yarim asr yashasam ham, siringni sira tushunolmagan poyonsiz dunyo, bu ne ahvol bo'ldi?! Ayol muhabbati sobitliligini qarang-a, agar shu yo'lda xiyonat qilib, vafosizlik ko'rsatsang, unda ayol erkakni bir umr kechira olmas ekan-da? Biz erkaklarni kuchli deb atashlari ham bekor gap ekan-da? Kuch-qudrat deganlari bu sening pay-muskul go'shtlaring metinligi bilan emas, ol, bebaho tuyg'u — muhabbat tuyg'usiga sadoqating bilan, ishonching bilan o'lchanar ekan, biroq odimzod bu o'lchamlarni ko'pincha mikrokosm dunyosining bo'lakchalari deb qabul qiladi. Bu xato ekan-da...

Shu behalovat fikrlar xayolimda g'ir-g'ir aylana boshladi.

— Akajon, men shu yerda yana bo'limga kirib ketaman, yaxshi unda... U kutilmaganda labini yuzimga bosdi-da, ichkariga kirib ketdi. Men esa birov kaltaklab tashlagan odamday, ko'rganlarimning tushim yoki o'ngimda bo'layotganini anglayolmay karaxtlanib turaverdim...

* * *

So'nggi yillarda aprelning yog'in-sochinli kelishini hamma biladi, tan oladi. Bu yil ham shunday bo'layotir... Marshrut-taksida kelayotib, bugungi to'satdan yuz bergan voqeani emas, ol, bu vaziyatni keltirib chiqargan o'n to'rt yillikdagi yaqin tarixning ikki-uch kunini birin-birinlab ko'z oldimga keltirmoqchi bo'laman, negadir bu haqdagi xotiralarda o'sha qizning siymosi sizib chiqaveradi... Yo'l bo'yini tomosha qilib ketmoqchi bo'laman, tashqarida svetoforning qizil-yashil-sariq chiroqlari xira buldirab ko'rinadi.

Kutilmaganda qo'l telefonim g'irillab qoldi. E'tiborsizlik ila yoqar-yoqmas qarayman: notanish raqamlar.

— Allo... — Tovushim o'zimga bir turli eshitildi.

— Akajon?

Ang-tang bo'lib, kalovlanib qoldim.

— Hovva, — dedim zo'rg'a tilga kelib.

— Qayerdasiz?

— Yo'lda... marshrutkadaman...

— Ketib qolibsiz-da?.. — Ayolning o'pkalagan horg'in ovozi, xo'rsinig'i, tashqaridagi shovqinlarning bari-bari aralash-quralash eshitildi. — Boya aytgan edim-ku ketib qolmang deb...

— Men... men... qaydan bilay...

— Hozir qayerga yetib bordinglar?

— Stoyankaga kelib qoldik.

— Unda meni shu yerda kutib turing...

Qisqa gudok. Ekranda yetti sondan iborat noma'lum nomer yonib-o'chib turardi...

"Damas" so'nggi bandargida[1] to'xtadi. Men mashinadan tushayotib qarshi oldimda qo'liga shamsiya (soyabon) ko'targan qizni uchratdim. U oramizda hech qanaqa bo'shlik — o'n to'rt yil-u besh oylik masofa bo'lmaganday tarzda darhol qo'lidagi soyabon bilan ikkovimizni panaladi-da, meni ko'pchilikning orasidan qo'ltiqlab sudrab olib ketdi.

— Yuring tezroq... Aprelning yomg'iri sovuq bo'ladi, ayozlab qolmang tag'in... Bu ajoyib-g'aroyib yaratiqda — muhabbatni ham ardoqlab, ham hurmatlab, ham baholab biladigan, bir lahzada sog'intirib tashlay oladigan qizning til ostida qanchalar kuyunish, kim bo'lsa-da bir eshitgandan tushunavermaydigan og'irdan og'ir sir yotibdi! Faqat buni endi qirqdan o'tgan, uning muhabbatiga, hurmatiga sazovor bo'la olgan, ammo muhabbatni qadrlayolmagan yo baholab bilmagan menday bir raddi bedavo odam tushuna olarmikan? Men endi u bilan dunyoning xohlagan burchagiga borishga tayyor edim. Sababi, men hozir har qanday qiynoqlarga, ushbu dardli azobga, kerak bo'lsa, takrorlanadigan xatolarga o'z oyog'im bilan, ixtiyoriy ravishda shoshilib bormoqda edim. Xuddi tush ko'rayotgandayman, tushimda to'rt tomoni qibla bir qiz uchib yurganday bir yengil qadamlar ila allanarsalar deb so'zlab kelayotir, so'zlab kelayotir...

---

[1] **Bandargi** — so'nggi bekat — mashinalar to'planadigan joy, bandargoh.

Ichkaridagi o'zaro so'zlashik (munozara, muhokama, munoqasha)larning ko'rsatkich darajasi kulminatsion yuksaklikka yetdi. O'tirganlarning nerv tolchiqlari (tolalari)ning nozik turlari taranglashib ketgan... Hammaning manglaylarida ter tomchilari yiltiraydi. Ol, prezidiumdagi majlis boshqaruvchisi bilan eng chetdagi pastga qarab o'tirgan odamning-ku burun uchlarigacha ter bosgan. Xonadagi kislorodning og'ir birikmalari bu yerdagi muhokama bo'layotgan ahvolotga aralashib, ichdagilarni birato'la charchatib yuborgan.

Yig'ilish boshqaruvchisi o'z maqsadiga to'liq yetishish uchun bugungi siyosiy ahvolni ham aralashtirib gapiryapti. Zaldagilarning ko'pchiligi bul gaplarga e'tibor berayotgani yo'q.

Minbardagi odam so'zini yakunladi-da, o'zini qo'llaguvchi, so'zini ma'qullaguvchi, taklifni davom ettiruvchi kimdir-birov bormi deganday, o'tirganlarni kuzatib chiqdi. Biroq davom ettiruvchi topilmadi. Bunisiga qaradi — u beparvo, yana birisiga qaradi — unga baribirday. O'tirganlarni yana bir marta kuzatib, ko'z yugurtirib chiqdi. Shunda majlis boshqaruvchisi tomog'ini qirib: "Qani, kim gapiradi endi?" — deganday irkilib (hayallab) turdi.

Ko'pchilik bilan aralashib o'tirgan, ko'p yillik tajribaga ega yoshulli odam shoshilmasdan o'rnidan turdi. Dastlab tomog'ini yopgan jun sviterining ustidan kiyilgan bulg'ori yengsiz kamzulining bir sadafi (tugmasi)ni yozdirib, tomog'ini qirdi. Shunday qildi-da, o'rtaga tomon yurdi. Hamma unsiz kuzatib o'tiribdi. Uning keng yag'rinlari tobora prezidiumga yaqinlashyapti. Kutilmaganda u cho'ntagidan bir shoda kalitni brelogi (jamlamasi) bilan oldi-da, ustalning ustiga — o'tirganlarning oldiga otib yubordi. Uning bu tovushsiz soqov harakatlari o'z-o'zidan: "ol, keraging shu kalitlarmidi? Olaqollaring kalitlarni, shuyting-da, mashinalarimizni o'zlaring haydalaring! Agar bizning aytganimiz bo'lmasa, o'sha injener bola nachaynik (boshliq) bo'lib kelmas ekan, men bu korxonada ishlamayman!" degan ma'no bor edi. U eshik tomon yurdi... Biroq

bu qulaysiz holat uzoqqa cho'zilmadi. Har yer-har yerdan o'rnidan turib, cho'ntak kovlayotgan, kalitlarini sharaqlatib ustal tomonga yaqinlashayotganlar ko'paya boshladi. Oradan ko'p o'tmay katta zal bo'shab qoldi: yuk tashish boshqarmasining boshlig'i o'rinbosari, viloyat va shahar partiya qo'mitalarining vakillari, avtobazaning partiya, kasaba uyushmasi tashkilotlarining boshliqlari va shu avtobazaga endi tayinlangan erkatoy yigitgina majlislar zalida edi.

Zalda qolganlar dastlab bir-birlariga qarashib, alvirab o'tirdilarda, nima qilishlarini bilmay, u yoq-bu yoqqa qo'ng'iroq qilib, oxiri tarqalishdi...

Ertasi kuni azon bilan kechagi mehmonlar yana ikki mashina bo'lib kelishdi. Bu gal boshliqlar xonasida yig'ildilar, shu korxonaning injenerini chaqirtirdilar. Hujjatlar qaytadan yozildi. Avtobazadagi kechadan beri qo'zg'almay turgan yuk mashinalari xodlanib (yo'lga tushib), o'z yo'nalishlari bo'yicha reysga chiqib ketdilar. Shu kundan boshlab, avtobazada ko'p yillar injener bo'lib ishlab yurgan yigit jamoaning boshlig'i bo'lib tayinlandi.

Bu o'tgan asrning to'qsoninchi yillarida bo'lib o'tgan voqea edi. Qaysi oyda bo'lib o'tganligini aytishning zarurati bo'lmasa kerak?..

BIROVNING TAQDIRI

— Uni sen bilan men belgilayvermaymiz, tug'ilgan paytidanoq manglayiga yozib qo'yiladi taqdir deganlari... Ne bir olov bo'lib yonib yurganlarning pisqib kul bo'lib qolganlarini ko'rganmiz. Ne bir indamas odamlarning ham, borib-borib qizil tilli orator bo'lib ketganlarini ko'rdik o'zimiz, — deb bunday tez-tez bo'lib turadigan gaplarga unchalik ham aralashavermaydigan Jangaboy og'a diqqatimizni o'ziga qaratdi shu bir og'iz so'zi bilan. Shunaqa bir hikmatli gap yo voqeani to'satdan aytib hammamizni o'ylantirib qo'yadi.

Asli, kuni bilan har kimning ishdagi xizmatiga aralashib, hamma bilan kirishib ketaveradigan, hali turmushga chiqmagan, cho'rt-

kesar, shaddod Nabiyra degan qiz ustida gap bo'lib turgan edi. Bu qizni ko'pchilik "borgan joyini obod qiladi bu qiz", deb maqtasa, yana birovlar o'ylanib: "hali nasibasi qay uyga sochilganini kim biladi, tushgan uyida ham shunday o't-olov bo'lib yura oladimi?" deb qo'yardi.

Ol, o'zining kelajagi borasida kasbdoshlari bosh qotirib so'z aytayotganidan bexabar bu qiz narigi bo'limda telefonda allakimlar bilan ish yuzasidan qattiq-qattiq baqirishib so'zlashmoqda. O'tirganlar uning bu harakatlariga ham har turli munosabat bildirishdi.

— Sinfimizda manov qizdan ham o'tgan, olov bo'lib yonib turgan bir qiz bor edi... — deb gap boshladi yana Jangaboy og'a. — Ruschaniyam qotirardi, o'ziyam chaqqon, qora parangdan kelgan suluv qiz edi. Darslarda judayam bilgichlanib qatnashavermagani bilan, ayrim fanlardan yaxshi o'qirdi. Ana shu qiz to'qqizinchi sinfda "men lyotchik bo'laman" degan gapni chiqardi. Biz uning aytganlariga ishonardik, negaki u aytgan gapining ustidan chiqadigan qiz edi. U paytlar uchuvchi degani, kosmonavt-fazogir degani, o'hho', juda odamni dovdiratadigan kasblar edi-da. Ana, shunday qilib, o'ninchi sinfni ham bitirdik.

Jangaboy og'a bir to'xtab oldi. Xonadagilar endigi voqeaning davomini eshitmay qolmay yana degan intiqlik ila oldidagi ishlarini ham qo'yib, erkak-u ayol, yigit-u qiz — hamma Jangaboy og'aning og'ziga tikildik. Telefonlar ham jiringlashni qo'yib jim qolishdi.

— Biz (men demoqchi) Moskvaga ketdik, yana birovlar Toshkentga tortdi, ikki qiz Samarqandga... Klara esa, aytganday, o'sha qizning ismi Klara edi, ay... bilmadimay qayerga hujjat topshirdi ekan... Maktabdan keyin ko'pchilik sinfdoshlar bilan aloqayam uzilib qoldi. Har kim har yoqda deganday... Oradan ko'p yillar o'tib ham ketdi. Burnog'i yili Sho'manayda xizmat safarida bo'ldim. O'sha yerda do'stim O'rozboy bilan hokimiyat binosidan chiqib kelayotsak, pochtaning yonida besh-olti ayol yo'lni kesib o'ta boshladi. Shu ayollardan biri bizga qarab, quchog'ini ochib yugura boshladi deng. "Jangaboy, o'zingmisan, Jangaboy!" deydi. Yaxshi-

yam men shu lahzada ovozidan tanib qoldim. Hayron qolib turdim. Aytayin deganim, odamning ko'zi bilan burni hech o'zgarmas ekan. Ehhe, axir oradan o'ttiz to'qqiz yil o'tib ketgan edi-da. Ustiga eskiroq palto kiygan, qalin jun ro'mol o'rangan, uch-to'rt temir tishi bor, ozg'in, qorato'ridan kelgan bu ayol — boyagi bizning sinfning lideri (yetakchisi), bo'lajak uchuvchi, yuragida olov lovullagan qiz Klara edi. U bu yoqdagi mening qarindosh-urug', og'aynilarning hammasini so'rayotir, qani javob berolsam. Ota-onam, o'g'il-qizlarim, ishim, hamma-hammasini nomma-nom so'rab chiqdi. "Kimlarni ko'rib turasan?" deydi. Men bu savollarga nimalar deb javob berganimni o'zim bilmayman. O'zim ham ora-orada savol bergim keladi. Nimalarni so'rasam ekan? "Buyoqlarda sen nima qilib yuribsan?" — deymi? "Boyagi stratosferada uchib yuradigan Klara qayerda, qayoqda o'sha o'n yetti yashar Nukusning o't-olovli qizi?" — deb so'ragim keladi. U esa... mana shu savollarni ko'zimdan o'qib oldimi, bilmadim, yerga qarab oldi. Uning o'sha o'tli yuragining epkini atroflarida mayda ajinlar paydo bo'lgan ko'zining qarashlarida allaqachonlar so'nib bitgan edi... Shunday qilib, bizlar yengilgina xayrlashdik.

— Uyga boringlar, manov O'rozboy biladi uyni, — dedi so'lg'in tortib til uchida. — Hammaga salom aytib qo'yinglar, — dedi yana...

Yo'l-yo'lakay O'rozboy Klaraning og'ir kun ko'rishini oz-kam gapirib berdi. Nimayam derdik?! Inson deganlari boshdan oyoq sirku. Kimning qay taqdirga borib qul bo'lishi, kimni nima kutayotgani, har kim taqdirini qandoq qarshi olishini kim bilib o'tiribdi? Taqdir boshingga shunday kunlarni solmoqchi ekan, qani, kurashib ko'r-chi! Sizlar esa boshqa birovning sirtidan fol ochib, kelajagini belgilab bermoqchi bo'lasizlar. Undan ko'ra yumushlaringni ishlab, tushlikka nima yeyishingiz haqida o'ylagan yaxshi emasmi? — deb yoshulli so'zining oxirini hazilomuz ohangda tugatdi.

Hamma o'zining ishi bilan bo'lib ketdi. Kuni bilan sirtidan taqdiri muhokama qilinayotgan Nabiyra esa hech nimadan xabarsiz kabinetga uchib kirdi-da: "Menga hech kim telefon qilmadimi?" — deb so'radi. Unga hech kim javob qilgisi kelmadi, band

edi. Qiz hayron bo'lib qarab turdi-da, yelkasini qisib, xonadan chiqib ketdi.

SEN MENI KUT

— Biybinoz, — deb hovuchini cho'zib o'zini tanishtirdi. Men ham kuni bilan aprelning ko'k yomg'irida sovugan qo'limni cho'zayotib, otimni aytdim. O'sha birinchi tanishgan kezda men uning top-toza ko'z qarashlarida muhabbat degan salmog'i bir necha million, mikron bo'lgan tuyg'ularini ap-aniq ko'rdim — ozgina ko'zsizlik qilib bejo harakat qilguday bo'lsang, chatnab-sinib ketadiganday juda bir nozik xilqat edi u! O'sha yillariyoq biz poytaxtimizning Jumanazarov va Lmumba ko'chalarining kesishma joylarida yengil oyoqkiyimlar bilanoq iz qoldirgan bo'lsak, ajab emas. Axir qancha vaqtlargacha o'sha joyda uchrashib yurdik! Men o'sha uchrashuv joylaridagi ko'rishganlarimizni hanuz eslayman, hatto tushlarimda ham topib bora olaman...

Uyga ahyon-ahyonda tepasini ko'rsatib mehmon bo'lib ketadigan olis-tomir opamiz kelib o'tirgan ekan. To'rda terlab-pishib qorachoy ichib o'tiribdi. Shimoliy tumandagi yaqin og'ayni-tug'ishganlar haqida labi-labiga tegmay gapirib o'tiribdi. Mehmonning tinchini buzmaslik uchun, ko'rishib bo'lgan zahoti chiqib ketish payida eshikka yo'nalgan edim, onam bir og'iz so'z bilan meni to'xtatib qo'ydi:

— Opang bilan gaplashib o'tir!

Odatda, uyga kelgan mehmonning ustiga kirmasdik. Onamning amirona gapiga hayron bo'lib turib qoldim. Mehmon opa esa iyagi bilan o'rin ko'rsatib:

— O'tir, senda gapim bor! — dedi tovushini pasaytirib, xonadagi elektrchiroq yog'dusida nihoyatda go'zal ko'rinayotgan rangini sovitinqirab. Oldindan gaplashib qo'yganmi, opa shartta turdi-da, borib eshikni ehtiyotlab yopib keldi.

— Shunday qilib, o'qishni tugatayapman, de. Imtiyozli diplom olayotgan emishsan?..

— Hovva. — Ko'ngilda hech kirim yo'q, yengillik bilan dasturxon atrofiga cho'kdim.

— Ol, boradigan yering bo'lsa, men ushlab o'tirmayman. Bir gap eshitgandayman... Shu, rostmi?

Opaga yalt qaradim-da, nima gap ekanini darhol angladim.

— Demak, rost ekan! — dedi-da, opa o'tirishini tuzatib, ikkinchi tizzasiga qo'nib. — O'zing bilasan, bizlar uy ichimiz bilan avvaldan og'aynilashib ketganmiz. "Qarg'atomir qoraqalpoq..." deganlariday. U paytlarda sizlar hali tug'ilmagan ham edinglar. Hovva. Endi esa qartayib boshladik, bundan buyog'i sizlar baxtli bo'lsanglar bo'ldi. Yaxshi joylardan qiz olsangiz, otang-onang yaxshi bir ko'rganli odamlar bilan quda bo'lsa, deymiz-da... Ol, nima deysan, bolam? — U javobimni eshitish uchun, ham bet-yuzimdagi bir-biriga qorishgan rang-bo'yoqlarni ko'rish uchun menga tikildi. — Shuning uchun, endi bekor sang'ib yurishlarni to'xtat butkul! Turimbetning qizi bilan yurar emishsan, qo'y u qizni! Otasi xuddi moxovday kasalsimoq odam. Bizlardan bir ko'cha oldinda turadi, qo'shnimiz-ku. Opalarining tushgan yerlari ham o'ngli emas. O'ziyam bo'limsiz, chullikday qizov.

"Axir ularning uyida qiz ko'p bo'lsa, qaysi biri bilan gaplashib yurganimni siz qayerdan bilasiz?" — shivirlashimni xuddi ichimga kirib-o'qib chiqqanday bilib borayapti...

— Kimni aytib yurganingni bir qaragandanoq bildim. Chiroyli deyguday chiroyi ham yo'g'ov, faqat bo'yanganini aytmasang... Yana bittasi bor, o'rtanchasi... Bibinoz!.. Topdimmi? — U menga qarab, ko'z uzmay turdi-da, mushtini xontaxtaga urib-urib qo'ydi. O'zim senga "voo!" degan qizlardan topib beraman, — deb bosh barmog'ini ko'tardi opam. — Opang bunday ishlarni qotirib qo'yadi! Ot-obro'yimiz ham yetarli!

Bir narsalarni rejalashtirib, menga shularini im bilan tushuntirmoqchi bo'lgan onam ham quvnoq opayning og'zidan chiqqanlarini ma'qullaydi, ora-orada menga ham qarab qo'yadi, agar men o'sha lahzada unga qaray qolsam, shu aytilganlarga rozi bo'lishga majburlamoqchi. Men esa unga tik qaramaslik uchun tek ko'z ostimdan o'g'rilanib qarayman. Ko'ndirishlar uzoq davom etmadi, men o'rnimdan turdim.

— Aytganlarim yodingda bo'lsin! Birinchi o'rinda — onang! Onang rohatlanib, yumshab (xizmat buyurib) o'tirsin uchun, qo'l-oyog'i yengil, yengil uchib-qo'nib turgan, bardamli yerning qizi bo'lishi kerak! Hovva!.. O'zing shuncha qizning ichida yolg'iz bolasan! Shu tomonlarini ham o'ylanib, taroziga tortib ko'r, bo'ladimi?..

* * *

Mana, Bibinoz! Bizlar shu tariqa boshqalarning so'ziga kirib, ajrashib ketgan edik! Sen dastlab uchrashuvlarga kechikib keladigan bo'lding. So'ng-so'ng esa, faqat mening gapirishimni kutib, dim oz so'zlaydigan bo'lding. Aytadigan gaplarimning mazmunini ham uyingdagilardan eshitgandirsan? Men esa bularni doimo hurkib turadigan ko'zlaringdan payqardim. Endi uchrashmaslik haqidagi og'ir gaplarni aytolmasdan cho'zib yuraverdim... Diplom ishimni yoqlash muddati ham tobora yaqinlashib qolgan edi. So'nggi paytlarda "tomir opamiz" ham uyga tanda qo'yib olgan edi, tez-tez kelardi. Uning har gal kelishi ikkimizning oramizni tobora uzoqlatardi. Uy ichidagilar ham uni oshiqib kutardi. Sababi, ular mening kelajakdagi o'ttiz yillik umrimga ta'mal toshi qo'ya boshlagan edilar. Maqsadlariga erishmoqchilar!

"Avgustning o'n sakkizida ham guldurmomo bo'laverar ekanda", — deyman men o'zimga o'zim Bibinozning nam bosgan ko'z qorachiqlarining tubida chaqmoqning yalt-yult etgan tasvirini ko'rib. Bundan keyin ha demay guldurmomoning qaldiragan ajabtovur ovozi butunlay Nukusning bir tutash bo'lagi — Chimboy choyxonaning tosh tepasidan arava tasir-tusur qilib o'tganday bo'ladi-da, bulutlardan qora yomg'irning muzday tomchilari tartibsiz ravishda sitilib-to'kila boshlaydi... Bibinozning sochining uchlari namlanib, yuzlariga yopishgan, ko'z atroflariga surtgan yashil bo'yoqlar yoyilib ketgan... Qo'lidagi yomg'irpo'shini ham ochmasdan, hali indamay turibdi. Men esa sal-pal oldinroq uyda bo'lib o'tgan voqealarning ushog'ini tushirmasdan unga aytib berayapman...

— Bibi... — deyman unga yutoqib. Faqat mengina unga shunday deyman ismini erkalab. — Meni har kuni shu yerda kut...

Albatta, u "qayerda kutay?" deb so'ramagan. Agarda Yaratganning bizga bergan omonat tirikchiligi bekor bo'lmasa, bu besh kunlik yolg'onchida oshiqlarning bir-biriga bo'lgan muhabbat sezim (tuyg'u)lari rostdan ham bor bo'lsa — bizlar albatta uchrashajakmiz, Bibi! Kut, ketib qolma, bizlar uchrashamiz yana! Hammasi biz kutganday bo'ladi hali!

"BU YER MAYXONA EMAS!.."

— Ming yil bo'lgan chiqar ko'rishmaganimizga? — dedi u ikki chekkasi qulog'iga yetib. Yarashmaydigan yolg'on gapniyam xuddi yarashadiganday qilib aytyapti-da. Endi qirqdan o'tgan, qirq ikkiga kirayotgan yigitlarning ming yil beri ko'rishmagani axir kurakda turadigan gapmi? Yoki biz odamlar shunday yolg'onlarga, oshirib aytilgan gaplarga o'rganib qolganmizmi? Shunday bo'lsa kerakov, men ham undan battar qilib lofning bobosini ko'rsatdim:

— Million yil desang-chi, jo'ra!

— Hav? — dedi u ko'zlari do'ngalanib. — Qandoq qilib bugun boshlaringiz birika qoldi? Omonlikmi?

— Yangi ish, lavozimlaring bilan tabriklash uchun kelyapmiz-da hammamiz!..

— Juda yaxshi! — U shoshmasdan, hammamiz o'rganib qolgan bemalolchilik bilan qo'l berishib-olishib, ko'rishib-so'rashib chiqdi-da, boshi bilan imo qildi. — Men hozir ichkariga kirib bir og'iz aytib chiqay unda.

Maqsad hozirgina chiqib kelgan eshikka ildam kirib ketdi. Uzun dahlizdagi e'lon va reklamalarni o'qib turganimizda, Alevat bilan Asan haligacha Maqsadning uyi qayerdaligini bilmasliklarini tan olishdi. So'ng ikkovi menga qarashdi.

— Sen bilasanmi?

— Yo'q, men ham bilmas ekanman. Eslaringda bormi, beshinchi kursdaligimizda onasi qaytish bo'lganida uylariga borganmiz, lekin

u paytda bular eski uylarida edi. So'ng bir ko'rishganimizda yangi uyga ko'chib kelganini bir aytuvdi. Otasi bilan birga turarkan, otasi nafaqada shekilli. Rostdan ham ming yil bo'lib ketibdiyov...

— Haliyam bolasi bo'lmabdi, — dedi Alevat.

Bundan hammamiz xabardor edik...

— Qirq ikki yashar yigit, bo'lib qolar, bo'lib qolar, deyishdik. Shundayam...

— Rahmat-e esga olib, tabriklash uchun kelganlaringga! — dedi Maqsad chiqishi bilan, so'ng yana yolg'on gaplarni boshlab yubordi. — Ming yil, million yil bo'lib ketdi o'ziyam ko'rishmaganimizga!

Shu yerdan chiqdik-u, universitetni yigirma yil avval bitirgan 4 o'rtoq kursdoshlar Nukus ko'chalarining birida paydo bo'lgan kafe-uylarning biriga kirdik. Diydorlashuvimiz — Maqsadning yangi lavozimga ko'tarilishi sababidan tashkil topganiga qaramay, bizlar ham qarab turmadik, ulus qo'shamiz deb turib oldik, Maqsadning "qo'ying-qo'ying, o'zim-o'zim..."iga qarmadik.

Ko'p o'tirdik. Yigirma yillar narida qolib ketgan talabalik yillarimizda bo'lib o'tgan voqealarni eslashdik. Endi hozir barchamiz uyli-joyli bo'lib, ishga sho'ng'ib ketganmiz. Bosh qo'shib yig'ilib turishimiz qiyin. Baribir, mana, uchrashdik. Odam ishni bahona qilib, tashvishlarni bahona qilib yursa yuraverarkan. Mana, ish bor joyda ko'tarilish bor ekan, o'tiribmiz mazza qilib, shuning bahonasida...

Lekin o'sha oltin davrdagi to'porimiz to'liq bo'lishi uchun yana ikki yigit yetishmayapti. Ularni yodga oldik. Bemahalda, kutilmaganda ketib qolishgan... Ularni sog'inib qolganimizni tan oldik. Nachora endi.

— Yigitlar, hozir hammamiz bizning uyga boramiz! Zebo ishda bo'lsa kerak-u, biroq, yuz-yuz gramm ichib olgunimizcha uyam kelib qoladi... Yoki yaxshisi, telefonda chaqirtiramiz, — dedi Maqsad kutilmaganda. Turayotgan paytimizda aytilgan bu gaplar hammamizni o'ylantirib qo'ydi. Biroq bugungi mehmondorchilikdan ko'ngli to'lmayotganligi uning beozor ko'zlaridan ko'rinib turardi. "Yo'q!" deb keskin aytib ham bo'lmaydi. Lekin uyi qayer-

daligini uchovimiz ham bilmaymiz, rostdan. Ko'rib qo'ysak yomon bo'lmasdi, albatta.

Dastlab bizlar Maqsadning otasini ko'rib chiqmoqchi bo'ldik. "Ko'ramiz-u... salomlashamiz-da, ketamiz!" Qarorimiz qat'iy edi.

— Og'am hozir uyda dam olib yotibdi, xalaqit bermay qo'ya qolaylik, manov xonaga kiramiz! Marhamat! — dedi u uyning sirtqi eshigi yonidagi xonani ocharkan. "Bugun o'zi kursdoshlar uchrashib mazza qiladigan kun ekan!" degan kayfiyat bilan hammamiz ichkariga gangur-gungir gap bilan kirib, bitta-bitta ko'pchin (yostiq)ni olib, yonboshlab oldik. Tashqariga chiqib ketgan Maqsad bir shisha araq ko'tarib kirdi.

— Rostdan ham Zebo hali ishdan qaytmabdi, no men telefon qilib chaqirtirdim. Hammasi hozir gul-lolagul bo'ladi! — deb bosh barmog'ini ko'tarib ko'rsatdi. Shishani dasturxonga qo'ygan zahoti eshik tars etib, bor bo'yiga taraqlab ochilib ketdi! Bo'sag'ada uzun bo'yli, gavdali bir kishi paydo bo'ldi — Maqsadning otasi shu odam bo'lsa kerak. Boshida do'ppi-taxiya, zar chopon yopingan, salobatli. Hammamiz o'rinlarimizdan turib, yuz-ko'zlarimizga jiddiylik berib, bu ko'rinishi sovuqqina odam bilan borib ko'rishdik. Omonlashayapmiz. Har holda katta odam, katta ishlarda ishlagan, falon-falon idoralarni boshqargan deyishardi. U esa bizlar bilan qo'l uchida istar-istamas, sovuqqina ko'rishdi-da, shu paytgacha birortamiz eshitib ko'rmagan manov so'zlarni aytib, yuraklarimizni zirqiratib yubordi:

— Ol, yigitlar, bu uy mayxona emas, araqni boshqa joyda ichasizlar!

Shunday dedi-yu, oqsoqol odam iziga burildi. Bunaqangi sovuq so'zni eshitib ko'rmaganimiz sabablimi, bizlar na o'tirishimizni, na chiqib ketishimizni bilmasdan serrayib qoldik. Bir og'iz so'z-a!

— Og'a... Og'a, — deb, Maqsad unga ergasha boshlagan edi, otaning qo'llari havoga qilichday shiddat bilan ko'tarildi.

— Nima dedim senga!

U bu so'zni Maqsadga aytgani bilan bizga ham tegishli ekanligi aniq edi. Nafaqat biz to'rtovimizga, balki butun insoniyatga qarata aytilganday so'zlar edi bu, nazarimda. Umri bo'yi buyruq

berib, gapini bajartirib kelgan odam, gapi bajarilmay qolsa, qo'lini ishga solib kelgan odam, mana endilikda uyida yakkamoxovlanib qolgan, jamoaga qo'shilolmaydigan, allaqaysi bir yot, zolim bir davrning yetkazib bergan mahsuloti edi u — boshqa nimayam deysan?

Maqsad do'stimiz, kursdoshimiz qaysi bir o'tirishdami, boshqo'shma, yig'indami yig'laguday bo'lib qamsinib[1], "yigitlar, meni tushunmaysizlar, ahvolimni bilmaysizlar, onam ham... opam ham... shu darddan..." deb hiqillab turganining ma'nosini mana endi anglab yetdik.

Nima, bizlar — ko'chada ichib-tebranib turadigan, gapini it ham eshitmaydigan, uyini topolmay, ariq-solmalarda dumalab yotaveradigan odamlarga o'xshaymizmi? Birimiz — vazirlikda bosh mutaxassis, birimiz — bosh injener, yana birimiz — kafedra boshlig'i bo'lsak, uch-to'rt yilda kursdoshlar bir yig'ilib qolsak-u...

— Og'a... Og'a... Mening yoshim qirqdan o'tib ketdi, shu paytgacha bironta do'stimni uyga boshlab kelolmadim... bugun...

Narigi xonadan cholning murdanikiga (men shunday o'yladim) o'xshagan ovozi xirilladi:

— Bo'ldi! Men bir marta aytaman!

Men o'zim qaltirab ketdim. Boshqa kursdoshlarimni bilmayman. Ular ham uydan qanday chiqib ketishni bilmayotganday ediyov nazarimda. Uyning erkatoyi bo'lgan yolg'iz farzand o'z uyiga mehmon boshlab kelolmasa, uyning guli bo'lib yuradigan ayol bunaqangi zulmga chidayolmay ichga yutaverib-yutaverib, kasal topib o'tib ketgan bo'lsa, balki Yaratganning o'zi bu uyga endi tirnoq deymizmi, vorismi, avlod deymizmi, shu ulug' quvonchni munosib ko'rmayotgandir?! Bo'lmasa, shunday dorilomon zamonda ham, tibbiyot hamma kasalga davo topib berayotgan asrda ham qursoq ko'tarmay (homila qilmay) yurgan kelinchakning aziyatga to'la qismatini nima deb baholash mumkin? Bu zolim yetmishdan o'tgan shu yoshigacha necha-necha odamlarni tili bilan, qilig'i bilan, avzoyi bilanoq zaharlab, o'limi tomon otlantirib yuborgandir? Nima bo'lgan bo'lmasin, qariyaning hozirgina aytib ketgan gaplari

[1] **Qamsinmoq** — aytadiganini aytolmay dami-gapi ichida bo'lib turmoq.

shu yerdagi har birimizga ignaday sanchilib, azob berayotgani shubhasiz edi... Nima qilishimizni bilmaymiz, kursdoshlarining ko'zlariga qarayolmay jovdirayotgan Maqsadni yupataylikmi, uyga mehmon kelganligini eshitib, yo'l bo'yi anov-manov xarid qilib ko'tarinib-uchib kelayotgan kelinni kutaylikmi yo... chiqib ketaveraylikmi? Bilmadim, bilmadim, lekin mening ko'zimning oldiga hozir jo'ralarim bilan uyga kirib kelganimda har bir do'stimni quchoqlab o'padigan, topganlarini dasturxonga to'kib tashlaydigan, qo'noqlarni o'tirg'izishga joy topolmay aylanib-o'rgiladigan, mehmonni ko'rib boshi ko'kka yetguday quvonadigan ota-onam ko'z oldimga kelib, ularni sog'inib ketdim.

Otasining so'nggi so'zlaridan oq-u qorani aniq ajratib, ahvolni tushunib yetgan bizlar Maqsadni xoli qoldirib, uydan chiqdik. Tashqarida qulaysiz dovul boshlangan, beayov chang'it-to'zon ko'z ochirmasdan savalashga kirishgan edi...

Pardagul XO'JAMUROTOVA

YOLG'IZLIK DARDLARI KO'P BO'LAR EKAN...

(Hikoya)

— Tozagul opa siz bo'lasizmi?

Eshikdan kirib iymaninqirab turgan qizga yalt qaradim.

— Hovva, menman.

— Gulzabiyra opa sizga yuborib edi. Otim Guloyim.

Gulzabiyraning kim ekanligi ha degandan yodimga tushavermadi. Kelgan qiz esa uning kasallanib qolgani-yu, shu xabarni yetkaz degan o'tinchi tufayli bu yerga kelganini aytib chiqib ketdi.

Opa bilan xizmat yuzasidan tanishganimiz so'ng yodimga tushdi. Tahririyatimiz bir paytlar so'qqabosh bo'lib qolgan insonlarni homiylik yo'li bilan gazetaga obuna qilgan, o'shanda so'qqabosh mushtariylar nomidan shu ayol tahririyatimizga kelib, biz xodimlarga minnatdorlik bildirgan, ana shunda men bu ayol bilan tanishib, biroz vaqt suhbatlashib o'tirgan edim. Bo'ldi-bo'ldi, o'shanda Gulzabiyra opa bizlarni duo qilgan, ketish oldidan esa yig'lamsirab: "Xudoyim, hech bir bandani yolg'izlikka duchor etmasin", deb fotiha qilgan edi. Uning yuragida lipillab turgan o'kinch-u qayg'ulari ko'zidan ham, so'zidan ham ayon bo'lib, bilinib turgan edi.

— Seni qizimday ko'rib qoldim, — dedi u bir gal ko'chada duch kelib qolganimda. — Seni ko'rishni niyat qilib yurgan edim o'zi. Hammagayam aytavermaydigan bir sirimni eshit, so'ng... o'tinchimni bajarasanmi, bajarmaysanmi — ixtiyor o'zingda.

U atrofga bir qarab oldi va unsiz turdi-da:

— Ellik yoshdan narigi yog'idagi bir dostonga sig'masday hasratimni aytib boshingni qotirmayin, — dedi. — Shundan bu yog'idagi taqdirimni o'zgartmoqchi bo'lib qilgan harakatlarim benishon ketayapti. Narastamga uvoli tegadiyov...

U yana gap to'rkinini aytmay qolganday sezilaverdi.

— Tug'ishganlarim yo'q, — dedi u birozdan keyin. Bordi-keldi qilib, qatnashib o'tirgan bir-ikki og'aynimning ham joni achiydigani chamali. Ellikka chiqqunimcha manglayimga yozilgan hasratlarim bilan yashab kelayotgan edim. Endi esa yolg'izlik jonimni yeb boshladi. Ne bir azoblar bilan tug'uruqxonadan bir norasta bola olib saqlaganman. Bor ixlosimni berib o'stiryapman. Hozir besh yoshda. O'ylab qarasam, umrimning shu norastaga bag'ishlagan besh yilinigina baxtli yashagandayman. Endi bo'lsa...

Boshlagan hikoyasi negadir yana uzildi. Ko'ziga qarasam, kiprigini qoqsa to'kilib ketadiganday yosh osilib turibdi.

— O'tinchim bor degan edingiz. Qo'limni cho'zsam, hamma narsaga yetadigan odam emasman-da. Eplay olgunimcha yordam beray.

— Bolam esini bilib kelayapti, bog'chaga boradi. Falonchining otasi keladi, falonchining opasi keladi, mening izimdan esa faqatgina sen kelasan degan vaqtlarda, seni o'ylab qo'yaman. "Mening hech kimim yo'q", degan gapni norastaga qalay aytaman? Sendan o'tinchim shu — qo'ling tekkanida bolamning bog'chasiga borib "men sening opangman, seni ko'rishga keldim", desang, bir borib ko'rsang, bola bechora quvonib qolarmidi degandim. So'ng qiyomatlik bo'lib bordi-keldi qilarmidik...

U yonidan pul olib menga uzatdi.

— O'yinchoq olib borarsan.

— Olib qo'ying pulni. Opa-singil bo'ladigan bo'lsak, oramizda pul yurmasin. Bozorlikni o'zim olib boraman.

U mening roziligimni ko'rib, chehrasi gul-gul ochilib ketdi. Bolaning ismi, bog'chaning manzili yozilgan qog'ozni qo'limga ushlatdi.

Ishning bosa-bosi bilan bo'lib, oradan uch-to'rt kun o'tib ketdi. Gulzabiyra opa har kuni kechqurun bolasining "mening ham opam bor, u keldi!" deb qanotlanib uchishini kutib yurganini bilaman. Bir kuni ishimdan ertaroq chiqdim-da, bog'chani izlab ketdim. Madadni topib olishim qiyin bo'lmadi. "Men — opangman, ulg'ayibsan, meni tanidingmi?" deb bag'rimga tortganim bilan yopishavermadi. Olib borgan o'yinchoqlarim, bozorliklarni ko'rganidan keyin ko'zlari sal kulimlab, yonimga kelib o'tirdi. Onasini, bog'cha

opalarini so‘rab gapirtirgan bo‘ldim. Norasta bola kam-kamdan ochilisha boshladi. “Endi onang bilan birga mening uyimgayam kelib tur”, dedim ketarimda. U boshini silkidi. Ko‘nglida hech gudik (shubha, gumon) yo‘q norasta o‘rtoqlariga maqtanganday qarab-qarab qo‘yadi.

Ertalab ishga kelsam, Gulzabiyra opa bolasini bog‘chaga olib borib qo‘yib, meni kutib o‘tirgan ekan.

— Kecha bolam bog‘chaning sirtqi darvozasida kutib oldi. “Mening ham opam bor, u keldi!” deganday, quvonganidan yuraklari yorilguday, o‘yinchoqlarini bolalarga ko‘rsataveradi. Xudoyim, baxting yotmasin. Seni duo qilay, fotiha beray deb keldim. “Opamning uyiga boraylik” deb, sakrab-tushib yuribdi.

Gulzabiyra opaning yuzlari menga so‘lg‘in ko‘rindi. “Kasallandingizmi?” deb so‘ramoqchi edim-u, quvonib kelgan odamga negadir bunday deyolmadim. Shundan keyin opadan ancha vaqt darak bo‘lmadi. Kundalik tashvishlari bilan bo‘lib, men ham izlab bora qolmadim. “Kasallanib qolsam” deb bugun odam yubormaganda erta-indin ham izlab borish xayolimda yo‘q edi.

Meni o‘ziga yaqin ko‘rib chaqirtirgandan keyin chidab o‘tira olmadim. Ertasigayoq ishdan erta chiqib, xabar keltirgan qiz aytgan manzil bo‘yicha Gulzabiyra opaning uyini topib bordim. Eshikni taqillatganim bilan hech kim chiqa qo‘ymadi. Itarib ko‘rsam, eshik ochiq. Bosh suqsam, odamsiz uyday tim-tirs, huvullab turibdi. Gulzabiyra opa ichkari xonada yotgan ekan. Ko‘rdim-u, bir turli bo‘lib ketdim. O‘zi avvaldan ozg‘in ayol, quv suyak bo‘libdi-qolibdi. Meni ko‘rib kulimsiraganday bo‘ldi.

— Sening oldingga borgan o‘sha kunlariyoq tinkam qurib yurgan edim, — dedi u omonlik-esonlik so‘rashib bo‘lgach holsizgina. Bir ko‘rgandanoq aytgim kelavermadi. Ahvolim o‘zimga ma’lum. Kasalxonada yotay desam, bolam g‘arib bo‘lib qoladi, qaraydigan hech kim bo‘lmagach. Bir kun bo‘lsa-da uning yonida bo‘lay deb, Xudoning qilganiga qoyil bo‘lib uyda yotibman. Madad bog‘chasiga qo‘shnilarning bolalari bilan borib-kelib yuribdi. Bugun uyda, tashqarida yurgan bo‘lsa kerak. Qo‘rqadimi, bilmadim yonimga kelavermaydi. Eshikni o‘zi ochib-yopishga bo‘yi yetavermaydi. Kun-tuni eshigimiz ochiq.

Shularni aytib bo'gunchayoq u charchab qoldi. Shifokorga olib borayin, deb qancha o'gitlaganim bilan bo'lmadi, ko'nmadi.

— Uzoqroq bo'lsayam og'ayin-tug'ishganlaringiz bormi? — deb so'radim oxiri. — Topib boraman, mumkin ahvolingizni aytsak, tushunar, oyoqqa turib olguningizcha qarashib turar.

Bu gaplarim unga qo'nishmagani bilinib turardi.

— Nevara inim bor. Biroq u o'z tug'ishganlari bilan sovuqrov. Kelib qarashadi deb, undan umid qilmayman. O'g'illari ko'p. Oila qurgan bir bolasini shu yerga ko'chirib opkesa, Madadni bag'riga bosib omongarlik ko'rsatsa qani edi, bolam mendan keyin ham shu yerda kirib-chiqib yursa deyman-da...

Ovulining nomini aytgani bilan, ularning telefon raqamlarini bilishga qiziqmagan opayning og'ayinlarini topib aytish oson bo'lmadi. Xo'jalik rahbarlariga telefon qilib, "xabarni yetkazamiz", degan va'dasini olgan bo'ldik.

Ora-orada keladigan sotsial ta'minot bo'limi xodimlaridan boshqa hech kim bosh suqmaydigan bu xonadondagi ahvol juda qo'rqinchli edi. Bolasi uchun kuyib-pishib yurgan, eng oxirgi damgacha yonida bo'laman deb yotgan odamga "bolangni olib keta qolay", deb ham bo'lmas ekan. Madad-ku kunduzi o'ynab yurar, kechalari nima qiladi?! Bo'lmas ishlar bo'lib, yuragi cho'rchinib yursa...

Shunday o'ylar etagida qo'shni uyga kirdim. Ko'zgu oldida uzuklarini bir barmog'idan olib, bir barmog'iga solib, o'zining chiroyiga o'zi mast bo'lib o'tirgan kelinchak "keling" deyishning o'rniga menga qoshlarini chimirib qaradi.

— Manavi qo'shningizning tanishi edim. Kasallanib qolgan ekan. Qo'shnilarning xabari bormikan deb kirgan edim.

— Nega xabarimiz bo'lmas ekan! Bolasi bizning bolalar bilan o'ynab yuribdi. Kasalxonaga bor desak, bormadi. Kun-tuni uning yuz-ko'ziga qarab o'tiradigan qo'shnini qayerdan topamiz? Joni chiqayin deb turgan odamning yoniga borib yot, deb kimga ayta olasan? So'qqabosh bo'lsa, shu paytgacha hech kim bilan borishmagan bo'lsa, qatnashmasa... Qilib o'tgan ishlariga javob beradigan payti yetgandir-da...

Uning so‘nggi aytganlaridan cho‘chib ketdim... “Yaxshi” dedim-u, bu uydan chiqquncha oshiqdim.

— Seni ketib qoldimi deb o‘ylagan edim, — dedi Gulzabiyra opay qaytib kirganimda. — Qayoqdan ham tanishdim deb... Qiynalib yuradimi deb... aytsammikan-aytmasammikan deb o‘ylanib yotgan edim. Masjidga... Masjidga borib ahvolimni aytsang, mulla yuborsa...

Men yo‘q demadim. “Hali sog‘ayib ketasiz, opay” deb yurib xo‘shlashdim.

Masjidga ertasi kuni tushlik mahali borib, ahvolning shunday-shunday ekanligini aytdim.

— Joningga savob ish qilib yurgan ekansan, qizim, — dedi qayoqqadir ketishga tayyorlanayotgan ulamo odam. — Hozir sening yoningga odam beraman, betobning o‘tinchini bajo keltiradi. Bizlarga muhtojlik bo‘lsa, mana masjidning telefoni, qo‘ng‘iroq qilarsiz. Hozir bir chaqiriqqa chiqib borayotgan edim. Sizlarni yaqinlashtirib ketay...

Masjiddan mulla olib kelganimni ko‘rgan Gulzabiyra opayning quvonganiga qarab o‘tirib, tabiatning ba’zi qonun-qoidalariga, mulla Qur’on o‘qiy turib, umr bilan vidolashmoqchi bo‘layotgan, shu holidayam quvonchi qalay tug‘ilayotganligiga qarab, hayron bo‘lib turdim.

— Manov qizni Xudo yetkazdi, — dedi u kelgan kishiga qarab. — Imonsiz ketamanmi deb yotgan edim. Ol, boshlayvering...

— Issiq jon og‘riq uchun. Hali yaxshi bo‘lib, tuzalib ketasiz. Lekin, to‘g‘ri qilibsiz. Imoni o‘qilgan odamlarning bari u dunyolik bo‘lib ketavermaydi. Bu narsaning o‘zi yurimi borga em, yurimi yo‘qqa imon bo‘ladi ekan.

Bu so‘zlar navqas (bemor)ning ko‘nglini olish uchun aytilayotganini hammamiz bilib turibmiz.

Mulla ketganidan so‘ng ham opayning yonida biroz o‘tirdim. Uning oyoqlarining uchlari qalqib boshladi.

Qaytmoqchi bo‘lib tursam, u yana gap boshladi.

— Ko‘rib turibsan, chaqirtirgan bilan nevara inimdan xabarotar yo‘q. Ko‘p yillardan beri ko‘rishmagan bir og‘ayni-singlim bor. Shuni top sen. Bir bolasiga men bor paytimda manov uyning

orderiga kirib olishiga yordam qil. Bolamning boshini saqlasin, mehribonlik qilsa, bolam uydan kirib-chiqsa...

Men opayning ko'ngli uchun yana "xo'p" deganimni bilmay qoldim. O'zi bir oyog'i bu yoqda to'rda bo'lsa, bir oyog'i naryoqda turibdi, so'nggi damlari yaqinlashib qolgan bo'lsa, men qachon uning singlisini topib beraman-u, u qachon bir bolasini bu uyga orderga qo'yadi? Shu xayollar bilan uyga yetib keldim

Ertasi kuni ishga ketayotib, xabar olib o'tay deb kirsam — Xudo haydab keldimi, xabar yuborgan inisi ham, kechadan beri aytib o'tirgan singlisi ham kelib o'tiribdi! Gulzabiyra opay bo'lsa ana ketdim-mana kettimda yotibdi.

— Qo'shnilarning aytib o'tirgani senmiding? Biroz vaqtlardan beri opangning uyini bir nochor (zaifa) aylanchiqlab yuribdi, deyishdi...

— Ha, menman o'sha. Bilsangiz, sizlarga xabar yuborib o'tirgan ham men. Tanimaydigan odamlarni aylanchiqlatib qo'yguncha, g'aribangizdan o'zlaringiz xabar olib turganda, opangiz bu darajada yotmas edi.

— Men hech kimi yo'q g'aribman, dedimi?

Men ular bilan adi-badi aytishib o'tirmadim-da, maqsadga ko'chib qo'ya qoldim:

— Opangiz, singlim uylangan bir bolasini shu uyning ro'yxatidan o'tkazib, anovi kichkintoyga homiylik qilsa, degan edi.

Singilning chehrasi sal ochilganday bo'ldi.

— Barakat top, qizim. Qarasha olmaganimiz-ku rost. Bizlar — ovulning odami, qayoqqa borishni, kimga xabarlashishni bilmasak. Sen o'qigan-bilgan qiz ko'rinasan, chirog'im...

Boyadan beri bu gaplarni unsiz tinglab o'tirgan ini birdan boshini ko'tardi.

— Bolaga qaraydigan odam bizdayam topiladi. Uylangan o'g'lim bor, shuni opkelaman. Manov qo'shnining qo'lidan kelar ekan, orderga kiritishda ham hech kimning yordam-pordami kerak emas.

Singil ro'molining uchini tishlab jim qoldi. Men gap qo'shmadim. Bemor-ku gap qo'shadigan ahvolda emas. Unday qilinglar-bunday qilinglar deyishgayam chamasi yo'q. Qo'shnisi katta bir mahkamada ishlashini, manov inisi ovuldan kela-sola darhol u

bilan xabarlashganini, bu masala hal bo'lganini, endi bular faqat mendangina gumonlanayotganining ma'nisini sal-pal tushunganday bo'ldim. Oradan ikki kun o'tdi, chidamay yana bordim. Singlisining bitta o'zi o'tirgan ekan.

— Ko'p hayallamadi, manov qo'shnining mashinasiga minib hayt qo'ydi. Shundan beri darak yo'q, — dedi inisini so'ramasam ham. — Ertalab birrov kirib ketay, ahvolni bilib ketayin deb edim. Mening ham shuncha bolam yo'lga qarab o'tiribdi. Paxtaning o'tog'i bir tomondan. Inim kelsa ketarman deb, ilojsiz o'tiribman.

Bu uydan chiqa qochgisi kelib o'tirgan ayolga hech narsa demadim.

— Ulmish, bormisan?

— Eshikdan gapirib kirgan kishiga — kechagi iniga, ikkovimiz yalt qaradik.

— Borman, bor... Seni kutib o'tiribman. Xabar-atarsiz ketganing nimasi?

— Menga tinchlik qayda, azonda ovuldan tong ota chiqdim. Manov inichak bugun kel degan kuni edi. Kechagi masalani bitirdik.

— Notarius kelmadi-ku, — dedim, masalani qanday yo'llar bilan bitirganini taxmin qilgan bo'lsam ham. — Opayni ko'rmaydimi? Guvohlar kerak emasmi?

— Pay, qarog'imay, dovsiz bo'lsa, bo'ldi-da.

— Orderga kirgizgan bolangiz bilan keliningizni olib kelmadingizmi?

— Dim qiziq ekansiz. Shu kunlari ovulda qo'li bo'sh odam bormi? Paxta, uyning ekinlari, tuyatovuqlarning jo'jasiga ham bir odam kerak. Ko'ramiz, ovulga olib ketamizmi hali...

O'lim to'shagida tilsiz yotgan opani ertalabki zarb bilan bir ko'rib ketmay, ishini bitirib yurgan odamga nimayam deysiz.

U bir aylanib kelishini aytib, bizlarga qo'shila chiqdi.

...Opayning qaytish bo'lganini biroz vaqtlardan so'ng eshitdim. Shu tomonlarga yo'lim tushganida marhuma chiqqan uyga fotihaga kirib chiqdim. Uyida o'n yoshlar chamasidagi qiz, mayda bolalargina bor ekan. Madad meni tanib yugurib chiqdi-yu, so'ng hurpayishib turgan boshqa bolalarga qaradi-da, ularning qatoriga borib qo'shildi.

Allanazar ABDIYEV,
Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi

BURGUT CHO'QQI

Hikoya

Tog' boshidagi baland cho'qqida bir juft burgut ko'p yillar mobaynida tinch-totuv, baxtli va to'q yashadi. Ona burgut necha marta tuxum bosib, palapon ochdi. Ota burgut palaponga parvona bo'lib, tarbiyalab, mustaqil hayotga uchirma qildi. Ular oshyon qurishgan tog' tabiati juda chiroyli, fayzli va osoyishta edi. Odamlarning qadami yetmaydigan bu joylarga ovchilar ham yaqinlasha olmasdi. Noyob dorivor giyohlarga, yovvoyi mevali daraxtlar-u butalarga boy bo'lgani uchun bu yerni turli parranda-yu darrandalar makon aylagan: tulki, quyon, shaqal, qirg'ovul, bedanalardan tortib, marol, bug'u, tog' echkilarigacha izg'ib yurishadi.

Yeldirimday yillar o'tdi. Ikki burgut ham qaridi. Ayniqsa, Ona burgut holdan toydi. Endi cho'qqidan pastga tushib, mayda hayvon va qush ovlashga majoli yetmay qoldi. Ota burgutning bir o'zi pastga o'qdek sho'ng'ib, biror jonivorni ushlab cho'qqidagi uyasiga olib borib qartaygan jufti bilan baham ko'rib yurdi.

Vaqt-soati yetib, Ona burgut qazo qildi. Uzoq yillar birga yashagan juftidan ayrilib qolgan Ota burgutga bu dunyo tor ko'rindi. Dod-faryod solib oh-u nola chekdi. Uchi qarmoqdek qayrilib turgan o'tkir minqorini, baquvvat changalini, xanjardek tirnoqlarini toshlarga urdi, qayradi, tirnadi, cho'qidi. Otashin quyoshga, qahraton ayozga, metindek qotirib qo'yuvchi muzga, bo'ralab yog'gan qalin qorga, izg'irin dovulga necha asrlab bardosh bergan toshlar Ota burgutning zarbalaridan ushalib sindi, o't chaqnadi, yorildi, teshildi. Biroq uning yori tirilmadi.

Barcha qushlar, parranda-yu darrandalar ta'zim qilib, ehtirom ko'rsatishini sezib turgan bo'lsa-da, olamdagi barcha jonzotlar osmon hukmdori Ota burgutning ko'ziga qadrsiz ko'rindi: uning uchun o'z suyuklisi — Ona burgut bir dunyo, bir yon, tarozining

ikkinchi pallasiga butun dunyoni qo'ysang ham aslo bosa olmas edi.

Ota burgut o'zini nihoyatda yakkalangan, yolg'izlangan his etdi. Go'yoki bu dunyoda oilasiz yashashdan ma'no qolmagandek edi. Ayriliq dardidan yurak-bag'ri ezilgan, tilka-pora bo'lgan Ota burgut noiloj Yaratganning amriga — peshonasiga yozilgan taqdirga ko'nika boshladi. Biroq beshafqat vaqt Ota burgutning ham kuch-quvvatini, tanasidagi tinka-madorini so'rib olayotgan edi...

Bir umr baland cho'qqida yashab o'rgangan, hamisha osmonda parvoz aylagan, hamma narsaga tepadan qaragan, tubanlik qoni-joniga yot bo'lgan mard Ota burgut kuchdan qola boshladi. Endi u tog' cho'qqisidagi uyasidan pastga tushsa, qaytib yuqoriga ko'tarilishi qiyinlashdi. Keng qanotlari, yirik gavdasi o'ziga og'irlik qildi: osmonga zo'rg'a ko'tarilar edi. Temirdek og'ir parli qanotlarini silkitib qoqish, qo'zg'alish mushkullashdi. Hayvonlar-u qushlar burgut cho'qqisiga chiqa olmas, pastda yashar edilar. Ba'zida ko'rsichqonmi, qo'ng'iz-u qurtlarmi uchrab qolar, biroq burgut ovlab kelgan hayvonning sarqitidan umidvor bo'lib uyasining tevaragida o'rmalab yurgan bunday hasharotlarni yeyishga tabiati tortmas, to'g'risi or qilar edi: bunday mayda-chuyda, sasib-aynib yotgan jirkanch maxluqlarni tanovul qilishni hukmdor xayoliga ham keltirolmas, ularni ko'rgandayoq ko'ngli aynib o'qchir edi. Yo'q, bundan ko'ra o'lgani yaxshi. Qornidan ko'ra qadri ustun kelib, qaysarligi va ori qo'zg'alib ular bilan oziqlanmadi.

Ammo... lekin... biroq... bora-bora "tomoq — orsiz" degandek, ochlik sillasini quritib borar, bir ilojini topishi kerak... U ochlikka chiday olmay pastga tushdi. Pastga tushgani bilan avvalgidek epchil bo'lmaganidan keyin bironta hayvon yo qushni ovlash oson emas. Ota burgut ko'p halak bo'ldi: uchib borib, pastga sho'ng'ib, panja uraman deguncha o'ljasi hurkib qochib ketar edi. Ovorayi sarson bo'lib ucha-ucha bir tog' qo'chqorining o'ligini ko'rdi. Badbo'y anqiganidanoq bu o'laksaning anchadan buyon hidlanib yotganini, go'shti aynib-sasiganini sezdi. Shuning uchun qayrilmadi. Ota burgut kelayotganini ko'rgan qarg'a-quzg'unlar jon

saqlab qolish tashvishiga tushib, tumtaraqay qochgan edi, osmon hukmdori to'xtamay o'tib ketgach, o'laksaga qayta yopirilishdi.

Ota burgut qirg'ovul quvdi, biroq changalzor orasiga kirib g'oyib bo'ldi: avvalgi holi bo'lganida qirg'ovul butazorga yetib ulgurmasdi.

Quyon quvdi, iniga kirib qutuldi.

Qanotini keng yozib, emin-erkin uchib kelayotgan Ota burgutning nursizlanib, xiralashgan ko'zi olisdagi bir alqorni ko'rdi. Qanotidan tovush chiqarmay, parlarini shamolda pirillatmay uchishga harakat qilib, yaqinlashib boraverdi.

Alqorlar tabiatan nihoyatda hurkak, sezgir bo'ladi. Ota burgut shunda ham ancha yaqinlashishga ulgurgan edi, to'da qiya qoyalar oralab yugurdi. Ota burgut qulay paytni boy bermaslik zarurligini angladi: bor kuchi bilan uchdi. Keksaygan bo'lsa ham tabiat burgut zotiga ato etgan chayir vujudida, qonida saqlanib qolgan kuch-quvvat qushlar hukmdorini nishab qoyalar, chakalag-u butalar sababli o'qdek ucha olmayotgan alqorlarning tostepasiga yetkazdi. Burgut changaliga tushmaslik uchun qochayotgan alqorlarning joni halqumiga keldi. Ota burgut ovdan zavqlanib yoshlik xotiralari uyg'ondi. His-tuyg'ulari qo'zg'alib yuragini shasht-u shiddat sururi chulg'adi. U endi istagan alqorga changal sola olar edi. Avvallari Ona burgut bilan birga ko'p bora bunday lazzatli ovlarning guvohi bo'lgan, zavqlangan. Qo'rqib titrayotgan hayvonlardan birining ustiga zarb bilan urilganidan, boyoqish beli, umurtqasi sinib yiqilar, boshini burib, o'z ajaliga ayanchli boqar, mehr-shafqat so'ragan kabi ko'zlarini iltijoli tikardi. Bu faqatgina bir o'yini edi ovchi burgutning: hali o'tkir panjalarini botirgani yo'q. Beli mertilgan jonivorga qaramay, qayta uchishda davom etadi, boshqa o'ljaga hamla qiladi: o'sha paytlari tomog'i ham, nazari ham hamisha to'q uchardi, faqat burgutgina o'z o'ljalari ustida qo'nib-uchib o'ynaydi. O'z qudratini namoyish etadi.

Biroq hozir uning ahvoli ham, sharoit ham boshqacha — ilgarigidek shod va baxtiyor emas, ko'nglida g'am, o'z kuchini ko'rsatib maqtanay desa, jufti ham yo'q. Eng asosiysi, tomoq och, bu ham yetmagandek kuch-madori sob bo'lmoqda edi. Ota burgut bu o'zi-

ning so'nggi ovi ekanini ich-ichidan sezdi. Shuning uchun alqorlarning eng yirigi, eng qoruvlisiga panja urgisi keldi.

Alqorlar to'dasining oldida ko'krak kergan, soqoli to'shini to'liq yopgan, baquvvat shoxlari buralib-buralib o'sgan qo'chqor olg'a chopib borayotir. Biroq hammadan oldin yugurgani uni ajaldan qutqara olmasdi. Ota burgut yoshligidan o'rgangan ovchilik mahoratini so'nggi bora ishga soldi. Bor kuchi bilan qo'chqorning ustiga urildi, o'zining hozirgi kuchiga ishonmay, pand berib qo'yamanmi, deganday, tusmollab temirdek qattiq va o'tkir panjalarini o'ljasiga botirdi. Toshni ham ushatib yuboradigan minqorini qo'chqorning yelkasiga xanjardek urdi. Ota burgutning bunday ayovsiz zarbalaridan alqorning oyoqlari bukilib, munkib yiqildi, bo'yin-umurtqasi sinib, dir-dir titradi, ko'zlari olaydi, jon holatda achchiq va mungli ma'raganda tog'-u toshlar qayg'uli aks sado berdi.

Necha kunlab och yurgan Ota burgutning tumshug'i issiq qonga belandi, mazali go'sht isidan boshi aylandi, og'zidan so'lagi oqdi. Tirnoqlari, tumshuqlari bilan alqorning terisini shila boshladi. Bug'i chiqib turgan yumshoqqina yurak-bag'ir laxta-laxta bo'lib burgutning tomog'idan o'tib ketdi. O'tkir tumshuq bilan cho'qib, lahm go'shtlarni yulib olib, maza qilib yutaverdi, cho'qiyverdi, yeyaverdi...

Bir mahal o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymay ochko'zlik qilib ko'p go'sht yeb qo'yganini sezdi. U u yoq-bu yoqqa qarab o'ljasining ustidan tushdi, bir chekkaga o'tib tumshug'ini tozaladi, parlarini tarab, o'ziga oro berdi.

Lapanglab yurib atrofga nazar soldi, o'zi oshyon qurgan cho'qqiga tikilib boqdi. Uyasiga uchib borish uchun qanotlarini qoqqan edi toshdek og'irlashib qolgan zil-zambil tanasini ko'tara olmadi. Biroz pastlab uchdi-da, yana yerga qo'nishga majbur bo'ldi. Ota burgut holsizlangan edi. Bo'kib go'shtga to'yganidan qornidagi "yuk" yerga tortardi. Og'ir qo'zg'alib yana qo'ndi. Ucholmayotganidan qattiq o'kindi. Achchiqlanib tumshug'ini tepalikning toshiga urgan edi, cho'qqining qayroq toshidek chaqmoq yaltirashning o'rniga (tosh ham shunday bo'ladimi, degan fikr ko'nglidan "yilt" etib o'tdi) tuproqdek sachrab ketdi. Gavdasini ko'tara olmagan qanotiga zarda qilib, parlarini cho'qidi. Uchishga yordam bera

olmagan panja, boldir, sonlarini cho'qidi. O'z-o'zini yomon ko'rib depsindi, urindi, surindi.

Ota burgutning bu harakatlariga atrofdagi kiyik, qulon, qashqir, tulki, shaqal, quyon, qirg'ovul, italg'u, tuyg'un, hakka, qarg'a, quzg'un va sichqonlar lol-u hayron bo'lib qarashar, biroq "obbo" deb og'izlarini ocholmas, hukmdorning holatidan ichdan quvonar, sirtdan uning hali ham haybatli turqi-tusidan, o'tkir tirnoq, tumshuqlaridan qo'rqishar edi.

Burgut o'zidan pastlar bilan teng bo'lganidan, ular oldida kulgi — masxaraga qolganidan nomus qildi. Biroq uning kuch-qudrati ado bo'lgan, sharti ketib, parti qolgan. Shuning uchun u endi mana shu tepalikda o'z o'limini kutib yashashga mahkum bo'lganini angladi. Kim bo'lsa ham, qarigan qushning ozuqasi sassiq balchiqdagi chuvalchanglar, sassik sichqonlar, qo'ng'iz, chigirtkalar ekani unga ayon edi...

Oy sayin, hafta, kun sayin, soat sayin o'limi yaqinlashayotganini sezdi. Tinka-madori qolmadi, ko'zlari qorong'ilashdi, oyoqlari tanasini ko'tara olmay bag'rini yerga bosib yotadigan bo'ldi. Tanasining ustiga o'rmalab chiqa boshlagan qurt-qumursqalarni qanoti bilan qoqib tushirish ham amri mahol. Bularning bari jasur Ota burgutning or-nomusini qo'zg'ab, yuragini yondirardi. Uning darmoni qurib, eti suyagiga yopishib borayotganini sezib qushlar ham yaqinlashib chug'urlashar, chirqillashar, qag'illashardi.

Bir go'ngqarg'a Ota burgutning anchadan buyon qimirlamay qolgani tufayli yoniga borib ko'zini cho'qib oldi. O'shanda Ota burgut o'zini qo'riqlay olmaganidan, burgut nomini oqlayolmaganidan qattiq ranjidi. Achchig'i chiqdi, g'ashi keldi, qoni toshdi. Avvallari yoniga yaqinlashish tugul osmondan yerga tushgan soyasidan qo'rqib, sichqonning ini ming tanga bo'lib qoladigan go'ngqarg'aning bunday qilig'i — zulm-u ozori suyagidan o'tib, qonini qaynatdi, yuragining yolini silqitdi. U bunday xor-u zor bo'lib o'lishdan or qildi. Yana ko'zini cho'qish uchun yonida kuymalanayotgan go'ngqarg'aning boshidan tishlab olib, bor kuchini sarflab qo'zg'aldi, oyoqlarini yerga tirab o'rnidan turdi, qiynalsa ham ota qonidagi, zotidagi — naslidagi burgutlargagina xos eng so'nggi chorani qo'llardi, tomirlaridagi, jigaridagi quvvatni yig'ib,

qanotlarini yengil qoqib, asta osmonga ko'tarilib uchdi. Yuksak cho'qqilar qadalib turgan osmonni ko'zladi. Och bo'lsa ham sassiq go'ngqarg'ani yemay, boshini tumshug'i bilan ezg'ilab, cho'qib-cho'qib o'ldirib, tilka-pora qilib yerga tashlab yubordi.

U qanotlarini bor kuch-g'ayrati bilan silkib-silkib bulutlar osha ko'tarilaverdi. Barcha qushlar, hayvonlar, parranda-yu darrandalar, jonivorlar hayratga tushdi. Ota burgutdagidek jasorat, g'ayrat, or-nomus, yurak o'zlarida topilmasligini tushunib turar, shuning uchun ularning har biri qushlar hukmdoridek bo'lishga havas bilan bir nuqtadek bo'lib ko'rinmay ketguncha qarab qolishdi. Qushlar u hayvonlarning har biri Ota burgutning o'rnida o'zlarini ko'rgisi kelib ko'zi qiyib, shirin jonlaridan voz kechishga tayyor edi. Lekin mardona o'lim burgutlargagina xos, uni o'zgartirib bo'lmaydi. Tabiat qonuni shunday. Bunday yuksaklikka uchish, baland cho'qqilarda yashash va jon chiqqandan keyin ham jasad buzilmasdan, sasimasdan, it-u qumursqaga yem bo'lmasdan mangu muzliklardan orom topishi — bunday o'lim faqat burgutlargagina xos ekanini barcha jonivorlar his etishar, ularning yuragini hasad va qizg'anish olovi o'rtar edi.

Ota burgut dengiz sathidan juda ham baland va olis cho'qqi boshidagi uyasiga, o'zining aziz va qadrdon go'shasiga quladi. Endi bu yerga uchib kelib uning ko'zini cho'qishga, jasadini xo'rlab, etini yeyishga hech bir qushning, hech bir hayvonning yuragi dov bermasligini sezib ko'ngli to'q bo'ldi. Ikkinchidan izida o'ziga o'xshagan haybatli va keng o'mrovli burgut qolmaganidan, boshqa bir dovyurak qush zoti o'rnini bosolmasligi xavotiridan ko'nglida armon bo'y ko'rsatganday bo'ldi. Buning oqibati dunyoning chalkashib ketishiga olib kelmasmikin, degan o'yda Ota burgut shirin va mangu uyqu quchog'iga cho'mib borardi.

ERAN SAXIY

(Qissa)

Kuch sinashuv

Kimsasiz to'qay vahimali shuvullaydi, huvullaydi. To'qay ichkarisidagi shox-shabbalardan yasalgan yakka-yolg'iz kapa ichida allakim dard tutgan bemordek to'lg'anadi. Uning ham yuragi shuvullaydi, huvullaydi. O'ylab o'yining tagiga yetolmaydi. "Nega odam bolasini bu qadar nomard, pastkash, ichi tor qilib yaratgansan, Ulli Yaratuvchi Tangrim?! Agar kengga keng, torga tor dunyo deganlari to'g'ri bo'lsa, bu dunyoyingda nega o'taketgan ichi tor keng dunyoda o'ynab-quvnab yuribdi-yu... dunyoga hamisha kenglik bilan qaragan o'zi... bu torgina kapada kuchala yegan itdek tirishib yotibdi? Nega? Nega?!"

Omonatgina boshpananing o'rtasida kuni bo'yi burqsib turgan qo'lbola o'choq ham o'chishga yuz tutibdi. Uzala tushib yotgan odam bunga parvoyi falak, ko'pdan buyon bir nuqtaga tikilgan. Ostiga xashak to'shab, ustidan kiyig-u ayiq terilarini yoyib, o'zi ham halovatini yo'qotgan ayiqdek ag'nab yotibdi. Bir nuqtaga tikilaverib ko'zlari toliqdimi, yumib oldi. Zum o'tmay yana ko'zini ochib, kapaning boshqa nuqtasiga qadaldi. Qavmdan chetlatilganidan buyon ko'rgan-boqqani asosan shu uning: yotib o'ylaydi, o'tgan kunlarini eslaydi, yoshgina umrining yorug' onlarini qo'msaydi...

Tashqarida kimsasiz to'qay vahimali shuvullaydi, huvullaydi. Ichkarida esa, yoshgina yigit dam chuqur uf tortib, dam xo'rsinadi. Ko'zlarini bir nuqtaga tikkan ko'yi uzala tushib yotibdi. Uning yuragi ham bamisoli to'qaydek shuvullaydi, huvullaydi. O'ylab o'yining tagiga yetolmaydi. "Nahotki odam bolasining ko'rgan kuni shu bo'lsa? Nahot hamisha yaxshining holi voy, yomonning oshig'i olchi bo'laversa? Nahotki ko'ra-bila turib haqni nohaqqa chiqargan nomard haq sanalib, nohaq qoralangan haq butun umr yomonotliq bo'lib qolaversa? Bu holda erta bir kun butun saxiy qavmining, bu yorug' dunyoyingning holi nima kechadi, Ulli Yaratuvchim?!"

...Yerga ursa ko'kka sapchiydigan bo'z yigitlar yig'ilishib, sinovdan o'tayotgan o'sha bir kuni saxiy qavmi qo'nim topgan to'qayzor orasidagi maydon, garchi kechasi bo'lsa-da, Yaratuvchi Tangrining yorug' kunduzidek charag'on edi. Sayxonlikning har joy-har joyida gulxanlar lovullaydi.

Odamlar allamahal bo'lishiga qaramasdan bo'z yigitlar tevaragiga davra qurishib, bayram chog'laridagidek zavq-shavqqa to'lib o'tiribdilar.

Jazirama saraton issig'ida toblanib, qish qahratonining sovug'ida chiniqqan alpqomat yigitlar mushaklari o'ynoqlab birin-ketin o'rtaga chiqadilar. Ular ertangi ovga qanday tayyorgarliklarini namoyish etib, o'zlarining kuch-qudratlarini sinovdan o'tkazmoqdalar. Mana, qavm kelajagiga umid bilan qaragan kiroyi yigitlardan biri, chayir, girdig'um Fosid ko'krak kerib maydonga chiqdi. Og'ir toshning qoshiga borib, "Ulli Yaratuvchi Tangrim, o'zing yorlaqagaysan!" deya toshni quchoqlab qattiq kuchandi. Odamlar beixtiyor guvrandilar: Fosid kun bo'yi hech kim o'rnidan qo'zg'atolmagan toshni tizza qadar ko'targan edi!

Olqishlar paydar-pay yog'ildi:

— Yashshavor, azamat!

— Bo'ladigan bola ekan!

— Yigit-da yigit...

Fosid o'q-yoy otishda ham, boshqa sinovlarda ham o'zini ko'rsatdi. Navbat Eranga keldi. U qomati qo'rg'oshindan quyilgandek miqti, qo'y ko'z, keng peshona, o'rta bo'y, qirchillama yigit edi. Do'sti Fosidning yonidan o'tayotib "Qoyil", degandek yelkasiga bir qoqib o'tdi. Quchoqqa bazo'r sig'uvchi toshning qoshiga borganida beixtiyor seskandi. Odam bolasi ko'tarishi mushkul og'ir qora tosh!.. Ko'kragini kerib chuqur nafas olar ekan, ko'z qiri bilan qavmdoshlariga birrov nazar tashladi. Hamma o'ziga qiziqsinib tikilib turibdi. Nihoyat, chekkaroqda turgan Sarvinozni ko'rdi. Ko'zlari unga boqib xuddi hozirgidek shu bir nuqtada to'xtadi-qoldi. Qandaydir bir olov butun borlig'ini kuydirgandek bo'ldi. Qizili qizil, oqi oq, qiz emas, qizg'aldoq. Olov taftida gul-gul yongan yuzlari ham, o'zi ham baayni bir olov!

Qiz unga xayrixohligini bildirmoqchimi yo "bo'sh kelma"mi, "ko'nglim senda" demoqchi bo'ldimi, haytovur sirli bir qarash qilib, noz-karashma bilan qosh qoqib qo'ydi.

Ko'zlarini shu bir ajib nuqtadan uzmay turavergisi keldi, lekin nachora, odamlar kutib qolishdi: o'zining kuch-qudrati, yigitlik shan-shavkati sinovdan o'tmoqda! "Paysalga solaversam qo'rqyapti deb o'ylaydi, ko'tarishim kerak!"

U egilib, ikki qo'li bilan toshni mahkam quchoqladi-da, bor kuchini ishga soldi. O'ziyam mushtdek bo'lagi bir qancha chiqadigan zil qora tosh ekan. "Kuch otasini tanimas" deganlar, tug'ilganidan buyon butun saxiy qavmining bolalari bilan birga kurash, ko'pkari, kamon otish, tosh ko'tarish mashqlariga qatnashaverib rosa chiniqqan, o'sha paytlardanoq hammaning ko'ziga tushib, ilohiy qudrati sabab Eran* atalib kelayotgan yigitning tangri ato etgan beqiyos kuchiga dosh berolmagan tosh... ohista yerdan ko'tarila boshladi. Hamma nafasini ichiga yutib, buyog'i qanday bo'lar ekan degandek betoqatlanib kutmoqda. Ayrimlar "Yoshgina narsa, mayib bo'lib qolmasa edi", deb xavotirlanib qarasalar, boshqa birovlar "Bu toshni shu vaqtgacha hech bir saxiy ko'tarolmagan edi. Yaratuvchining o'zi kuchni ayamay bergan ekan, "Eran" deganlaricha bor ekan!" deya qoyil qolib tanglay qoqdilar. Tosh tizzadan oshdi. Beldan ham. Ko'ksiga tegib bir muddat nafas rostladi. So'ng oxirgi kuchini ishga solib ihranganicha toshni bosh ustiga azot ko'tardi. Odamlar endi guvranibgina qolmadilar. Hammalari o'yinga tushib, qo'shiq aytib, Eranni misli ko'rilmagan g'alaba bilan qutlay boshladilar.

U toshni bosh ustida azot ko'targan holda Sarvinoz tarafga yurdi. Hamma ikki tomonga tislanib, o'rtadan yo'l ochildi. Ro'parasida yolg'iz Sarvinoz o'rnidan qimirlamay dong qotib turibdi. U g'arq terga tushgan ko'yi qo'lidagi og'ir "baloyi azim"ni Sarvinozning oldiga durs etkazib tashladi. To'g'ri qildi! Shartga ko'ra, yaxshi ko'rganini boshqalarning ko'ziga ko'rsatishi — toshni o'zi sevgan qizning oyoqlari ostiga tashlashi kerak edi. Tosh qavmning eng suluv qizi, hamma havaslanib qaraydigan bu qizmisan qizning oldiga tashlanganidan o'zicha "erkakman" deya burgut patini bosh kiyimiga qadab yurgan jamiki saxiy yigitlarining ichlari kuydi. Bi-

roq chorasiz bo'lganliklari uchun yeb qo'ygudek alfozda yovqarash qilish bilan kifoyalanishga majbur bo'ldilar.

...Tashqarida to'qay vahimali shuvullaydi, huvullaydi. Ichkarida bo'lsa, yigit xasta-bemordek cho'zilib, chuqur nafas olib, og'ir o'ylarga cho'mib yotibdi. O'ylab o'yining tagiga yetolmaydi: "Sarvinoz hozir nima qilayotgan ekan-a? Yeguligi bormi ekan?.." U shaxt bilan o'rnidan turdi. Ko'z oldida ochlikdan ozib-to'zgan, ko'pdan buyon tuz totmagani uchun jag'i jag'iga yopishib, ozg'in, nimjon qo'llarini cho'zib "ovqat" deb zorlanayotgan Sarvinoz namoyon bo'ldi. Kiyik terisidan qilingan yopinchig'ini egniga ilib, oyoqlariga ayiq terisidan tikilgan chorig'ini kiydi-da, kapa to'ridagi burchakka qistirig'lik o'q-yoyi bilan uchi o'tkir nayzasini olib tashqariga chiqdi. Kapa oldida tiz cho'kkan ko'yi ko'kka qo'l cho'zib tavallo qildi:

— Ey, och-nahor jafokashni hamisha yorlaqaguvchi Tangrim! O'zing shafqat qil! O'ljali bo'lishimga o'zing madad ber!..

Yanglish baho

Tashqarida izg'irin izg'ib, qor hali-hanuz bo'ralab turgan ekan. Xuddi shunday ko'z ochirmas qorbo'ron edi o'sha kuni ham...

Sarvinozni Fosid bilan talashib-tortishish axiyri ularni yakkama-yakka olishuvga chiqishga undadi. Kunlardan bir kuni ikkovlon qattiq aytishib qoldilar-da, ertasiga tong-saharda shu to'qay ichida yakkama-yakka olishuvga ahdlashib ajralishdilar. Bu haqda hech kimga tish yorib aytmaslikka ham va'dalashdilar.

U o'sha kuni tun bo'yi uyqusi o'chib qurolini ertangi hal qiluvchi olishuvga tayyorladi, yoyiga o'q yasadi, xanjarini toshga qayrab o'tkirladi.

Eran avvaliga yakkama-yakka olishuvni ko'pam xohlamagan edi. Birovning, ayniqsa, o'z qavmdoshining qonini to'kishni paqqos istamasa-da, Fosid oyoq tirab turib olganidan keyin "yo'q" deya bosh tortib, or-nomusni qo'ldan boy berolmadi. Olishuv Sarvinoz uchun bo'lar ekan, "Men yengildim" deya kurashdan bo'yin tovlash... mumkinmi?!

Tong-saharda o'rnidan turib, kelishuvga muvofiq to'qay ga otlanmoqchi bo'lib turgan edi, kimdir "Ulug' Bilga ada cha qiryapti" deb qoldi. "Fosid qo'rqoqlik qildi deb o'ylaydiga bo'ldi-da, hayallamay tezroq yeta qolay", deya shoshilib borga nida oqsoqolning uyi oldida... Fosidni ko'rib ham quvondi, han ajablandi. Qoshida yo'lboshchining maslahatgo'yi — Fosid ning otasi Egay ham bor edi. Bilga ada Eran bilan Fosidni uyiga taklif qildi:

— Yakkama-yakka olishuv asl botirlarning ishi, sizlar qavm ning dovyurak yigitlari ekanligingizga yana bir marta ishonch hosil qildim. Biroq puxta o'ylab ko'rilmagan bemavrid mardlik odamning o'zigayam, butun saxiy qavmigayam baxt keltirmay di. Sizlarniki bemavrid o'taketgan nodonlik, g'o'r yoshlik... Axir sizlar qavmimizning suyangan tog'i, ishongan posbonisizlar-ku! O'zlaringiz yaxshi bilasizlar, yakkama-yakka olishuvda hamisha kimdir o'lishi aniq. Sizlarning qay birovlaringiz o'lsangiz ham bu qavmimiz uchun ulkan yo'qotish bo'ladi. Shuning uchun men bun day yengiltakliklaringizga rozi emasman.

— Nega aytding, nomard? — shivirlab so'radi Eran yonida tur gan Fosiddan.

Fosid uyatdan qizargan yuzini osiltirib ohista ming'irladi:

— Adamga nayzani egovlab bering degan edim... "Nima qila san?" deb so'radi. Shundan keyin... aytmaslikka bo'lmadi...

Agar Eran o'sha joydayoq Fosidning yuz-xotirini qilmay uning qo'rqoqlik qilib so'zida turolmaganini oqsoqolga aytganida edi, turgan joyida "Sen saxiylar sha'niga dog' tushirding, nomard!" deya Yaratguvchi Tangri yo'liga bir hayvondek qurbonlik qilib yuborgan bo'lar edi-ya! Biroq Eran Fosidni ayadi. Oqsoqol so'zini tashqariga chiqib davom ettirdi:

— Qani, nima qilamiz? — deb u maslahatgo'ylariga bir-bir qarab chiqdi. — Menimcha, bu ikkoviga og'ir bir shart qo'yib, ikkalasining jonini asrab qolishimiz kerakka o'xshaydi. Shartni qay biri tez-u soz bajarsa, qiz o'shaniki! Qani, kimda qanday shart bor?

— O'q-yoy otishsinlar!

— Daraxt yiqitib kapa yasashsin!

— Eng og'ir shart — shu qorbo'ronda to'qayga borib ov ovlab kelsinlar. Ko'ramiz, qay biri ko'proq o'lja keltirar ekan! — dedi Egay.

— Shunisi yaxshi! — Ko'pchilik Egayni ma'qulladi. — Go'sht kam qoluvdi... Yashashimiz kerak-ku!.. Biir go'shtga bo'kib, sassiqkekirdak bo'laylik!..

O'sha kuni ham xuddi bugungidek ko'z ochirmas qorbo'ron o'ynab, izg'irin izg'ib turgan edi. Kechga yaqin bir ayiqni orqalab kelganida Fosid yo'q ekan. Uyam bir ayiqni olib kelib yana ketibdi. Sal o'tmay keldi — orqasida kiyik! Hammaning oldiga olib kelib tashladi-da, Eranga "Qalaysan? Yutqazganingga iqrormisan?" degandek masxaraomuz tirjayib qaradi. Negadir kiyik ko'ziga issiq bosilib, unga tikilib qoldi. Ko'rdiki, uch-to'rt kun avval o'zi otib, yiqitib, terlab-pishib ko'tarib kelgan ulkan kiyik! Tarvaqaylab ketgan shoxlari ham ko'zlariga issiq ko'rindi. Yoy o'qi chap biqiniga tekkan edi. Ishonch hosil qilish uchun ag'darib ko'rdi: o'sha! Chap biqindagi o'sha joyda o'q izlari "manamen" deb turibdi! O'sha kuni uning o'ljasini yerto'laga oborib qo'yuvdi. Mana, bugun bo'lsa, u Fosidning qidirib topib ortidan quvalab otib olib kelgan o'z o'ljasiga aylanib turibdi! "Yo falak, bu qanday shumlik?! Saxiylarning saxiyligiga ham qiron kelyaptimi, nima balo?!"

— Bu yerto'ladagi kiyik-ku! — dedi u kuyib-yonib. — Bu uch kun avval men otib kelgan kiyik, mening kiyigim-ku!..

— Yengilganingdan keyin shunday deysan-da! Ikkita olib keldimi-olib keldi! Hech qanaqasiga yerto'ladagi emas-da! — Bu g'ilayko'z Egayning xotinchalish tovushi edi. Eran Fosiddagi bir nomardlikni o'z ko'zlari bilan ko'rib turganidan keyin, u olib kelgan ayiqni ham u yoq-bu yoqqa ag'darib ko'rdi.

— Bunisiyam bugun o'ldirilmagan! Buyam mening o'ljam!..

— Qo'y-e! Sendan ko'p olib kelgani rostmi? Rost! Nima qilasan endi yengilganingdan keyin qildan qiyiq qidirib!.. — Egay Fosidni yoqlab, uni ayblay ketdi. Fosid bo'lsa, o'zining so'zini so'zlaydigan qo'llaguvchisi bo'lgani uchun bir chekkada bamaylixotir ikkovining tortishuvini tomosha qilayotgandek jimgina turaverdi.

Eran Fosidning yoniga yugurib bordi-da, yoqasidan qo'shqo'llab ushladi:

— Agar sen asl saxiy bo'lsang rostingni ayt, kiyik yerto'ladan olindimi-yo'qmi?! — Nohaqlikka chidayolmay ko'zlariga qon quyilib, qoni qaynab ketdi. — Ayt, tez ayt! Gapir?!

Fosid unsizgina bosh chayqadi, tamom, biroq ovoz chiqarib "o'zim otib keldim" deya ro'y-rost aytolmadi.

— Tfuu!.. — Fosidning yuziga achchiq-alam bilan qarab qoldi. — Sening bunchalik nomardlikka borishingni bilmagan ekanman!..

— To'xtat o'zboshimchalikni, Eran! — Yo'lboshchi gaplarining davomini hammaga qaratib aytdi. — Sinovda Fosid o'z kuchini ko'rsatib yengib chiqdi! Shuning uchun shartimizga ko'ra Sarvinoz Fosidniki! Eran ularga g'ayirlik qilmay, hozirning o'zidayoq qavmdan chetlatilsin!

Saxiylar, xoh haq bo'lsin, xoh nohaq, hamisha qavm oqsoqolining so'ziga ishonar, u bilan haq-huquq talashmas, har bir buyrug'ini so'zsiz bajarar edilar. Eran ham oqsoqolning buyrug'iga qarshi chiqib, o'zining haqligini, yutuq o'ziniki, demak, Sarvinoz o'ziga tegishli ekanini aytishi hech bir natija bermasligini — odamlar baribir unga ishonmasligini tushundi. Tashqaridan qaragan kishiga Fosid haq, yutuq uniki, Eran bo'lsa, yengilganidan keyin jirtakilik qilayotgandek ko'rinardi-da! Shuning uchun u o'zining haqligini isbotlashga boshqa urinmadi. Xuddi shunday bir kunda yuragida ham bo'ron o'ynab — yuragi dam shuvullab, dam huvullab... qavmni tark etdi. Boshi oqqan tomonga ketishdan o'zga chora topolmadi! "Loshimni uzoqroqqa olib borib tashlay, mayli, qarg'a-quzg'unlar yesinlar, biroq bu nokaslarga endi yalinmayman ham, qoramni ko'rsatmayman ham!" deya to'qayni qoq ikkiga ajratib turgan ulkan daryodan suzib o'tdi-da, kimsasiz to'qayning ichkarisiga sudralib kirdi. Axiyri bir joyda to'xtab, xanjarini qo'liga oldi. O'z joniga qasd qilmoqchi bo'ldi. Biroq shu topda qonga to'lgan ko'zlari oldida Fosiddan jabr ko'rib, undan madad so'rab iltijo qilayotgan aftodahol Sarvinoz namoyon bo'ldi. Xanjarini ko'ksiga qadashning o'rniga qulochkashlab uloqtirdi. "Yo'q, o'lmayman! — deya g'ijindi o'zicha. — Yashayman! O'zimning haqligimni qavmdosh-

larimning ko'zlariga ko'rsatish uchun yashayman! Yashash uchun kurashaman!.."

Yomondan qoch!..

O'sha kuni tiklagan kapasidan shu topda biror chaqirim olislab ketdiyov. Yaqin atrofda ov ko'rinmaydi. Tugab bitdimi yo odamdan hurkib yaylovlarini o'zgartirdimi, ishqilib, tevarakda ovlasa bo'ladigan jon asari yo'q! Eran o'zidek bir tirik jonni qidirib qorbo'ron ostida uch-to'rt chaqirimcha yurib qo'ydi. Tizza bo'yi qorda yurishga qiynalib, emaklashga tushdi. Ko'z ochirmaydigan qorbo'ron ostida hech bir ovchi ochidan o'lsayam bunday tavakkal qilib yo'lga chiqmaydi odatda. Bu buhronda adashib ketish hech gap emas yoki qor ko'mgan ungurga tushib ketsangiz, tamom, chiqolmay muzlab o'lasiz! Biroq, nachora, yashash kerak, yashabgina qolmay, Sarvinozga yordam qo'lini cho'zishi va qavmdoshlariga o'zining haqligini ko'rsatishi kerak!

U goh emaklab, goh yurib, gohida qorga butkul ko'milib-sho'ng'ib amal-taqal ilgariladi. Qo'lidagi uchli nayzasi yurar yo'lini aniqlab, chuqurga tushib ketishdan asrab kelyapti. Shu alfozda qancha yo'l yurdi bilmaydi. Bir payt ko'z oldida bazo'r yurib borayotgan kiyikni ko'rib jonlandi. Ortidan jon-jahdi bilan yugura boshladi. Kiyik ovchini sezib bo'ynini burib bir qaradi-da, qochib qutulish uchun chopmoqchi bo'ldi. Biroq qalin qor bunga imkon bermasdi: chopib bo'lmasdi. Eran yoyini yelkasidan olib, qulay payt poylagan holda yiqilib-surinib, o'pkasi shishib yugurdi. Bir payt qarasa, haligina ko'rinib turgan kiyik... Yo'q! Ko'zdan g'oyib bo'libdi! Yer yutdimi, qayoqqa gumdon bo'la qoldi? Kiyik yo'qolib qolgan joyga borib ko'rdiki jonivorning tarvaqaylab ketgan shoxlarigina qor ustida g'ira-shira ko'rinib turibdi. Beliga bir necha aylantirib o'ralgan chirmoshiq ipni yozdi-da, uchini kurmaklab, kiyikning shohini mo'ljal qilib tashladi.

Ne bir mashaqqatlar bilan kiyikni chuqurdan tortib chiqardi-da, "uhh" deya og'ir nafas olib, peshona terini yengiga artar ekan, tevarakka birrov nazar tashladi. Ko'zlariga ishonmay qoldi: bir

chaqirimchagina olislikda... kapalar! Kun bo'yi uzluksiz yog'gan qor ostidagi kapalar kapa emas, oppoq tepaga-oqtepaga o'xshab ko'rinadi. Biroq yuqorisidan ko'kka o'rlayotgan tutun ularning shunchaki tepa emasligini ko'rsatib turibdi. Atrofida hech bir zog' yo'q. Bunday qahraton sovuq, qora quyunda o'z jonida qasdi bor odamdan boshqalarning sirtda ko'rinmasligi tabiiy, albatta.

U qo'rqqanidanmi-sovuqdanmi dag'-dag' titrab turgan kiyikni shohidan mahkamroq bog'ladi-da, sudray ketdi. Begona odamlarga ko'rinmasligi kerak! Ularga ko'rinish berib, yaqin atrofda qavm borligini bildirish — bu saxiy qavmi uchun ulkan ofat! Tug'ilganidan buyon begona qavm odamlarini o'zi ko'rmagan bo'lsa-da, ular tinch-osuda yashayotgan saxiylarning boshlariga balo olib kelishini juda yaxshi biladi Eran! Shu bois yot ko'zlarga ko'rinmaslik niyatida kiyikni bor kuchi bilan sudraganicha qorda emaklay ketdi. Bolalik chog'laridan xotirasiga o'chmas bo'lib o'rnashib qolgan afsonalar ko'z oldida jonlangandek bo'ldi.

...Qachonlardir saxiylar bir ko'l bo'yida qo'nim topgan ekanlar. O'shanda ochlik nimaligini bilmas ekanlar. Bir tomoni — qalin to'qayzorda ov serob, bir tomoni — baliq bilan qush to'la ko'l! Mevali daraxtlarni-ku, qo'yaverasiz! Kunlardan bir kuni begona qavm odami saxiylar yashab turgan yerga adashib-sanqib kelib qolibdi. Bobolari uni quchoq ochib kutib olishibdi-da, o'z qavmiga qo'shishibdi. Biroq o'sha odam kunlardan bir kuni tunda o'z qavmdoshlari bilan qurollanib kelib, saxiylarning kapalarini yondirib, erkaklarini tutqun qilib olib ketibdi. Ana shundan keyin tirik qolganlari o'z makonlarini o'zgartirishga majbur bo'lgan ekanlar.

Yana bir afsonada shunday deyiladi: hozirgi joyga kelib o'rnashgan kunlaridan birida saxiy qavmining ovchilari ov qidirib yurib uzoqdan bir to'p begona odamlarni uchratib qolishibdi-da, ularning ko'zlariga ko'rinmasdan xatti-harakatlarini kuzatibdilar. Anchagacha izma-iz yuribdilar. Ular jonivorlarni quvalab, nariberi yugurib, hech birini ushlayolmay rosa holdan toyibdilar. Bir vaqt kuchliroqlari baqirishib-chaqirishib nimjonroq birovini o'rtaga olibdilar-u tiriklayin xomtalash qilibdilar. Har biri qo'lga ilingan bir parcha go'shtni — o'z qavmdoshining go'shtini xomligicha og'zilariga tiqib yeya boshlabdilar.

Ovchilardan begona qavm haqidagi bu gaplarni eshitgan oqsoqollar o'ylashib-kengashib, keyinchalik bir-ikki ayg'oqchilarni yuborib aniqlabdilar. Ularning och qolganida bir-birini ayab o'tirmaydigan — yeb qo'yadigan bo'rimijoz-odamxo'rligi aniq bo'lgach, qavmning barcha urug' oqsoqollari kelishib, yovuz odatlari saxiylarga ham yuqmasligi uchun odamxo'r qavmlarni qirib tashlaydigan bo'lishibdi...

Bunday afsonaga aylangan haqiqatlar qadimdan buyon avlodlardan avlodlarga o'tib keladi. Eran ham ularni yoshi ulug'lardan talay marta eshitgan. Xullas, odatga ko'ra, saxiylar tuprog'iga qadam qo'ygan begona qavm odami, agar odamxo'r bo'lsa, o'ldiriladi, agar odamxo'r bo'lmasa — odambashara bo'lsa, qavmga a'zo qilib olinadi, biroq zinhor ortiga qaytib ketgani qo'yilmaydi. Iloji bo'lsa, ularga o'z qoralarini ko'rsatmaydilar ham! Sababi — saxiylar boshqa qavm odamlarini yovuz, makkor, hayvonsifat kimsalar deb hisoblaydilar. Bunday tushunchalar ularning qon-qonlariga singib ketgan edi. Shuning uchun ham Eran balodan ovloqroq bo'lishga shoshildi.

Yetagidagi kiyik bilan begona kapalardan uzoqlashib, bexavotir joyga yetib olgach, bir muddat to'xtab nafas rostladi-da, tag'in yo'lida davom etdi. Aksiga olib endi qor ham taqqa to'xtab qoldi: Eran bilan kiyik ortidagi izlar "manaman" deb ko'rinib turibdi!

"Tosh bilan urganni osh bilan ur!"

Qavmdan chetlatilganiga ko'nikib, yolg'iz yashashga moslasha boshlagan kunlardan birida u bir ayiqni ko'tarib kapasiga borayotgan edi, uzoqroqda Fosid boshliq besh-olti qavmdoshlarini ko'rib qoldi. Aftidan, hammalari o'lasi bo'lib charchab-horigan, biroq hech birida qo'lga ilingulik o'lja yo'q. Bo'sh qaytayotganlaridan uyalishdimi, qaydam, ular Eranni ko'rib ko'rmagandek nariroqdan burilib ketdilar. Eran ularning ortidan qichqirdi:

— Hoy, to'xtanglar! — u qavmdoshlari qoshiga kelib, ayiqni Fosidning oyoqlari ostiga tashladi. — Bo'sh qaytmanglar, oling-

lar!.. Ol, uyalma, Fosid, ko'pdan buyon quruq qo'l bilan qaytib ketyapsizlar, bilaman. Saxiylar qavmning haq deb yongan bir Eran ovchisi Eranning salomatligiga duo qilib yesinlar!

Ular ayiqni suyuna-suyuna olishdi. Olmaslikning iloji ham yo'q edi. Kuniga so'ljayib qaytaverish ovchilar boshlig'i Fosidgayam obro' keltirmaydi, albatta.

— Bugundan boshlab ushlagan ovlarimni daryo bo'yiga oborib qo'yib ketaman. Olib ketib turinglar! — deya Eran ularning ortidan ancha joygacha ergashib bordi.

Shu kundan boshlab o'ljalarini daryo bo'yidagi yerto'laga oborib tashlaydigan bo'ldi. Ertasiga tag'in bir kiyik ko'tarib kelganida kechagi tashlab ketgan ovining yo'qligini ko'rdi. Buning ustiga, daryoning har ikki sohilida yaqindagina kelib ketgan odamlarning izlari qorda yoki tuproqda aniq-ravshan ko'rinib turibdi.

Mana bugun ham u kiyikni shu yerga bog'lab ketish uchun to'xtadi. Yerto'la og'zidagi changallarni oldi-da, qorong'i ichkariga kiyikni yetaklab kirib, qo'li bilan paypaslab yurib o'rtadagi ustunni topgach, bog'lab, tashqariga chiqdi. Bir muddat dam olish niyatida daraxtga suyanib o'tirdi. Shu payt... nariroqdagi antiqa oyoq izlarini ko'rib yuragi shuvulladi. Begona odamlarning oyoq izlari! Ular daryoning narigi qirg'og'iga ham o'tgan ko'rinadi. Ajab, u tashlab ketayotgan o'ljalar qavmdoshlariga nasib qilyaptimi, yo begonalarga?! Buni bilishi, qolaversa, sovuq xabarni qavmdoshlariga tezroq yetkazishi kerak, toki ogoh bo'lsinlar.

Ko'z oldidan boshqa qavmdoshlarga tutqun bo'lgan saxiylar birin-ketin o'ta boshladi: hamma erkaklarning qo'llari bog'langan. Ayollar zor qaqshab yig'lamoqdalar. Qavmning eng suluvi — Sarvinozni bosqinchilarning boshlig'i quchoqlab olgan! Sarvinoz najot istab nola qiladi, yig'lab-siqtaydi...

U tizza bo'yi qorda yiqilib-surinib chopqillay ketdi. Bir payt taqqa to'xtab qoldi. Endi ko'z oldida ochlikdan ozib-to'zib, sillasi qurigan Sarvinoz ko'rinib ketdi. Ortiga qarab yugurdi. Yerto'lani ochib, kiyikni sudrab chiqdi.

Eran "Fosid tirik ekan, qavmga qadam bosmayman", deb ont ichgan edi. Nachora, ontini buzishga to'g'ri kelib turibdi. Qavm sha'niga isnod keltirgan nomardga achchiq qilib, saxiylarni boshqa

qavmlarning yaqin atrofda yurganidan ogohlantirmasa, qavmning holi ne kechadi?!

Iztirob

Mana, u qadrdon kapa-ko'ylar bo'ylab o'zicha o'ylab boryapti. Nega atrofda hech bir tirik jon ko'rinmaydi? Go'yo jamiki saxiylar o'z uylarini tashlab, boshqa yoqlarga ko'chib ketishgandek. Eran qavm yo'lboshchisi bilan uning maslahatgo'ylari yashaydigan kapalarni mo'ljallab ovulning narigi chekkasiga qarab yurdi. Yaqinlashib ko'rdiki, saxiylarning kattasi-yu kichigi Ulli Yaratguvchi Tangrining toshdan yo'nilgan haykali atrofiga yig'ilib olishibdi. Aftidan, qandaydir bir quvonchli yoki qayg'uli voqea yuz berganga o'xshaydi.

Eran kiyikni yetaklab yaqinroq boraverdi. Ellik-oltmish qadamcha qolganida yig'ilganlar orasida unga ko'zi tushganlar kimdir ajablanib, kimdir, shunchalik qiziqsinib, kimdir yovqarash qilib qarashdi, biroq hech kim "Kel" yoki "Nega kelding?" demadi. Eran to'ppa-to'g'ri yonlariga borib, yetovidagi kiyikni bir daraxtga bog'ladi-da, qavmdoshlariga yoppasiga salom berdi:

— Yer yuzining ildizi mustahkam Ulli chinori bo'lgan bovurim saxiylarga yurgan joyida sog'-omonligingizni tilab yurguvchi shoh-butog'ingiz Erandan salom!

Hech kim miq etmadi-hamma jim! Kim bo'lmasin, umuman, qavmga salom berilganida odatda hamisha "salom" degan javob qaytaradilar, hech bo'lmaganda oqsoqolining o'ziyoq "Salomatmisan? Sog'-omonmisan?" deya hol so'rab qarshi olardi. Saxiylarning bu odati ham qumga singgandek yo'q bo'ldimi, nima balo! Qani oqsoqol?

O'rtaroqda yig'ilishib turgan maslahatgo'ylar-u botirlar orasidan oqsoqolni qidirdi, ammo u ko'rinmadi. Birdan tushundi. Yoshligida botirligi, qaytmas qaysarligi bilan dovruq qozonib, qavm yo'lboshchisi bo'lib saylangan ulug' Bilga ada* Yaratuvchi Tangrining o'ziga kerak bo'lib qolganga o'xshaydi. Eran olomonni qoq yorib maydonga chiqdi. Rostdan ham o'rtalikda yo'lboshchining tobuti turar edi.

U shahdam yurib borib tobut oldida egildi-da, bosh kiyimini qo'liga oldi. Tobutni quchoqladi. Keyin ikki qo'lini ko'kka cho'zib yorug' dunyoda hech kimga yomonlik sog'inmay, hamisha haq deb yashagan mardi maydon yo'lboshchiga Ulli Yaratuvchi Tangridan u dunyoda munosib yaxshilik qaytarishini tiladi. Keyin ont ichdi:

— To o'lgunimcha saxiylarga sahiha* xizmat qilaman. Yolg'iz o'z boshimni o'ylab sotilgandan ko'ra sahiha* uchun tanamda tomchi qonim qolguncha dushman bilan kurashib o'lganim ortiq. Shu ontimni buzsam, har qanday azobingga roziman, Ulli Yaratuvchi Tangrim!..

U o'rtaroqda turgan odamlarga kelib qo'shildi.

— Vidolashib bo'ldingmi?.. Endi ketaversang bo'ladi. Sening qavmga qo'shilishingga ruxsat berilgani yo'q hali!

Egayning o'taketgan sovuqqonlik bilan aytilgan bu gaplari Eranning yuragiga o'qdek qadaldi. Saxiy qavmning boshiga bitgan balo bo'lib, Haqning bo'ynini egib turgan bu nomard-u nokas o'z gaplarini butun qavm oldida Eranning "saxiylar sha'niga dog' tushirgani uchun quvilgan odam" ekanini yana bir karra eslatib, obro'sizlantirish uchun atayin hammaga eshittirib aytgan ediki, bu nohaqlikka qanday chidab bo'ladi?!

Biroq hamma tarafidan saylab qo'yilgan qavm oqsoqolining yoki maslahatgo'yining aytganini qilmaslik... bu ham mumkin emas! Lekin Eran shu gal tartib-qoidani buzmay turolmadi. Vijdoni aqliga bo'ysinmadi! Nohaqlik-yuzsizlikka chidayolmay, isyon ko'tardi:

— Asl saxiy bo'lsang sahihani aytishing kerak edi! Men hech qachon saxiylar sha'niga dog' bo'lib tushadigan ish qilmaganman! Og'zingga qarab gapir, Egay! Hech kimning oldida egilmagan boshimni endi sen egmoqchimisan?! Shumi maqsading?!

Eranning mushti uning naq iyagi ostiga borib to'xtadi.

— Yolg'on so'zlaganingni unutdingmi?

Eranning qoni battar qaynab ketdi. Nima desa bo'ladi haqgo'yni yolg'onchiga chiqarib turgan bu ablahga?! Odam bolasini urib haqgo'y qilolmasang! Egayning ko'zlariga qattiq tikilib turdi-turdi-da, "Sen ham saxiymisan!" degandek qo'lini bir siltab, tez-tez yurib ketdi. Balodan tezroq qochib qutulmoqchi bo'ldi. O'zining

yolg'onchi emas, haqligini ularning yolg'onlari chirmovig'idan ajratib olib, qavmdoshlariga asl holida ko'rsata olmasligi aniq! Agar yuragini yorib ko'rsatmasa!.. Nohaqlikdan ichi yonib ketyapti, Xudo haqqi! "Dunyoda haqdan yonishdan ortiqroq azob bormi ekan?!" U haligina mushti Egayning iyagiga taqalganida xanjarini sug'urib, "Haqni nohaq qilish mana shunaqa bo'ladi", deya avval Fosidning, keyin otasining ichiga tiqib-tiqib olmoqchi bo'ldi. Lekin qon quyulgan ko'zlari yig'lab turgan Sarvinozga tushib, o'zini bazo'r to'xtatdi. Ota-bobolardan kelayotgan odatga xilof ravishda yo'lboshchilarga qo'l ko'tarib, yomon o'rnak ko'rsatish, ya'ni ahillikka raxna solib, saxiylarning tinchligi, o'zaro izzat-hurmat-u, mehr-oqibatlariga putur yetkazmaslik niyatida jahlini tiydi. Shunda Sarvinoz maydonga yugurib chiqib, jon-jahdi bilan qichqirdi:

— Quvmang! U sahiha!* Eran to'xta! — qiz yugurib borar ekan, oldidan to'sib chiqqan Fosidni itarib yubordi-da, yugurishda davom etdi. — Ketma, sen sahihasan... Men seni sevaman!

— Yo'q, ketishim kerak!

— Unda men ham sen bilan ketaman!

Eran bir muddat to'xtab, barchaning ko'z oldida qizni bag'riga bosdi-da, vazminlik bilan yupatdi:

— Sevishingni bilaman, Sarvinoz! Lekin men bugun — Ulli Bilga ada o'lgan kunda u kishining buyrug'ini buzib, seni qanday olib ketaman, o'zing o'ylab ko'r-da, qol endi, jonim! Yo'lboshchining buyrug'i — Tangrining buyrug'i. Uni bajarmaslik mardlikdan emas! — Qizni quchog'idan bo'shatar ekan, qavmning urug' oqsoqollari tomonga burilib qaradi. — Ogoh bo'linglar, daryoning narigi tarafida begona qavm odamlari yurishibdi! — Shunday deya tez-tez yurib ketdi.

"Uchrashtira ko'rma..."

Jazirama quyosh kuydiraman deydi-yu, to'qayni ikkiga bo'lib o'zaniga sig'may shiddatli daryo oqmoqda. Ko'pdan buyon saxiylar bunday saratonni, ayni chog'da, suvi jildirab qolmay to'lib-toshib

oquvchi daryoni birinchi marotaba ko'rib turishibdi. Goho bunday paytda daryoning bir qultum ham suvi qolmay, taqqa to'xtashidan yurak oldirib qo'ygan saxiylar buni Yaratguvchi Tangrining marhamati deb bilib, allaqachon yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarganlar: Tangrining haqqi-hurmati qavmning eng yaxshi, chopag'on otlari narigi dunyoga jo'natildi — so'yilib yerga ko'mildi. Tangrilar Tangrisi Yaratguvchi Tangri sharafiga qurbonlikni joyiga qo'ygan saxiylar endi suvsizlik — qurg'oqchilik azobidan qutqargan yog'in-sochin, qor-suv tangrisining o'ziga atab oltin, olmos va boshqa qimmatbaho toshlar, uning xotini — Baliq podshosiga yaltiroq taqinchoqlarni sovg'a qildilar — suvga uloqtirdilar. Shu munosabat bilan saxiy qavmida ko'klamning dastlabki kunlaridan boshlab to'y-tantanalar to'y-tantanalarga ulanib ketdi: yig'ilishib qo'shiq aytdilar, o'yinga tushdilar..

Yosh yigitlar kurash, nayzabozlik, yoyandozlik, og'ir g'ildirak va tosh ko'tarishda kuch sinashib, tomoshalar ko'rsatdilar. Bunday bayramlar paytida hech kim ovga chiqmaydi. Tartib-qoida shunaqa edi. Bayram paytlarida saxiylar iloji boricha ovqat yemaslikka, yesalar ham oz yeyishga harakat qilardilar. Tangriga hayvonotni — boshqa tirik jonzotlarni qirib-so'yib yeydigan yirtqich sifatida ko'rinishni istamasdilar, bunday qilish "saxiy" nomimizga nomunosib ish deb bilardilar.

Eran qavm a'zosi huquqidan mahrum etilgani uchun bunday bayramlarga chaqirilmasdi, albatta. Bu kunlarda ham u ov qilishni davom ettirib, qo'lga kiritgan o'ljalarini o'zi to'ppa-to'g'ri qavm yerto'lasiga oborib tashlab yurdi. Daryoning sayoz joylaridan ko'p marotaba nari-beri o'tdi. Har gal yelkasidagi o'ljani yerto'la ichiga tashlaydi-da, jimgina kelgan izi bilan ortiga qaytadi. Hamma o'zining orqasidan "Begona qavm odamlari yuribdi deya aldab bekorga vahima qildi. Gapi rost bo'lsa, shu paytgacha uchratib qolmasmidik? Chindan ham yolg'onchi ekan" deya malomat qilayotgandek tuyulib, iloji boricha hech kimga ko'rinmaslikka urinib, panalab borib-panalab qaytdi. Nogah ko'rinib qolganida ayrim qavmdoshlarining masxaraomuz istehzoli qarashlarini ko'rib, orqavarotdan otilayotgan malomat toshlarini o'zicha tusmol qilib,

alamiga chidayolmaydi-da, Yaratguvchi Tangridan o'ziga madad so'raydi:

— Saxiylar bilan begona odamlarni tezroq to'qnashtirsang-chi, qudrati cheksiz Tangrim! Mendek bir bechoraning mushkulini o'zing oson qilsang-chi! "Yolg'onchi", "uyatsiz", "qo'rqoq" singari qonimni qaynatib, jonimni yondirib, o'zagimni o'rtayotgan so'zlardan shunda shoyadki qutulsam!..

Tiz cho'kib ko'kka qo'l cho'zgan ko'yi o'z tilagidan o'zi qo'rqib ketdi-da, haligina aytganlarini qaytib olish umidida boshqacharoq iltijo qila boshlaydi:

— Nohaqlikka chidayolmagan men gunohkor achchiq ustida nojo'ya tilak aytibman, Tangrim! Tavba qildim, so'zimni qaytib oldim: ularni zinhor uchrashtira ko'rma! Yolborib so'rayman: ikki qavm odamlarini to'qnashtirma! Qavmimni bu ofatdan xoli qil! Mayli, nohaqlikdan ular emas, bir o'zim yonay, mayli, men uchun shunisi ma'qulroq!

Qo'y, ularni uchrashtirma, Tangrim, toki qo'ydek yuvosh saxiylar urush-janjalga, bir-birini o'ldirish, bir-biri bilan qasdlashish, bir-birining payini qirqishga yomon o'rganmasinlar! Toki yer yuzida kelgusi avlodlarga ibrat qilib ko'rsatgulik xulq-odob egalari, o'zaro ahil, chinakam do'sti sodiq insonlar ham yashasinlar-yashab qolsinlar! Saxiyni baxilga aylantira ko'rma, Tangrim!..

Tong-saharda tiz cho'kib, ko'kka qo'l cho'zgan ko'yi shunday iltijo qilish Eran uchun kundalik odat bo'lib qoldi:

— ...Baxilni saxiyga aylantirsang aylantir, biroq zinhor saxiyni baxilga aylantira ko'rma, Yaratgan Egam!..

Kim nomard?!

Eran kapa soyasida, maysazor ustida chalqancha yotibdi. Quyoshning zarrin nurlari qalin daraxtzor oralab ahyon-ahyonda tilladek yalt-yult qilib ko'rinib qoladi. Quyoshning ayovsiz taftiga daraxt yaproqlari balogardon bo'lgani sabab to'qay ichi salqingina.

Bir payt u chayon chaqqandek o'rnidan sapchib turib tiz cho'kkan ko'yi tag'in ko'kka qo'l cho'zib tavallo qildi:

— ...Baxil emas, saxiyning tilagi shuki, ikki qavm odamlarini zinhor to'qnashtira ko'rma, ey Ulli Yaratguvchi Tangrim!.. — Shunday sidqidil tavallo qildiki, uch yuz qadamcha nariroqdan Fosid boshliq ovchilar o'tganini sezmadi, keyinroq orqalaridan ko'rib qoldi. Iltijosi tilakka ulanib ketdi: — Ishqilib, ovlari baroridan kelsin!..

Shu alfozda qancha o'tirganini bilmaydi, bir payt sezgir quloqlari shox-shabbalarni shitirlatgancha yo'l ochib-yo'l bosib kelayotgan oyoq tovushlarini eshitdi. "Fosidlar ovdan qaytayotganga o'xshaydi", deya o'ylab ko'pam e'tibor beravermadi. Butalarning shitir-shitiri yaqinlashgani sayin odamlarning ovozlari ham aniq-tiniq eshitila boshladi.

"O'ljalari katta, shekilli" deb o'ylagancha qiziqsinib teraklar orasidan shig'alab qaradi. Yaxshiyamki kapa atrofidagi chakalaklarni chopib, ancha joygacha ship-shiydam qilib qo'ygani, bir payt kelayotganlar shu maydonga chiqdilar. Ana o'shandagina ro'y-rost ko'rdi: kelayotganlar — qo'llari chandib bog'langan Fosid bilan o'ziga tanish tag'in ikki ovchi qavmdoshi, ularning ortida nayza-sadoqlar bilan qurollangan to'rtta BEGONA!

Eran o'zini yerga tappa tashlab, ehtiyotkorlik bilan emaklagan ko'yi kapa ichidan qurol-yarog'larini olib chiqdi-da, panaroq joyga yashirinib kuzata boshladi. Ular Eranga tobora yaqinlashaverdilar. Ovozlar ham aniqlashdi:

— Qayerda yashaysanlar, deb so'rayapman? — deya qistovga olib kelayapti begonalar. Qavmdoshlari javob qilmadi. Qo'llari ortiga qayrilib bog'langan qavmdoshlarining orqalariga nayzalar shartillab tusha boshladi:

— Aytasanlarmi-yo'qmi?

Uchala qavmdoshi ham o'sha-o'sha baliqdek jim. Yaqinlashganida kapani ko'rdi, shekilli, begona qavmliklarning biri boshqalariga qo'l sermab ishora qildi. Urishqoq qavmga o'xshaydi, hademay ikkitasi ikki tomonga ajralib, kapaga ikki tarafdan bostirib kela boshladi, qolgan ikkitasi esa, tutqunlarni panalab ilgarilayverdi.

Eran kapadan uzoqroqdagi qalin butazor orasida unsiz kuzatib yotdi: ana, hammalari kapaning yonida jam bo'lishdi. Ikkitasi kapa

ichiga kirib ketdi. Ichkarini ag'dar-to'ntar qilishdi, shekilli, idish tovoqlarning singani eshitildi.

— Hozir aytmasanglar o'ldiramiz! — zug'um qildi tashqarida turgan bir begona, aftidan, qavm oqsoqoli, barzangi, turqisovuq, cho'qqi soqol birovi uch tutqunni qatorasiga turg'azib qo'yib. — Qavmlaringiz qayerda ekanini kim aytsa, ana o'sha ozod bo'ladi! Qani, kim aytadi?..

Yoppasiga do'q-po'pisa-yu aldovlar ish bermagach, barzangi bitta-bittalab javob olishga tutindi. Avvaliga saxiylarning atoqli ovchilaridan biri, qartayibroq qolgan Edgu adadan javob talab qildi. Lekin undan sas-sado chiqmadi.

— Nega aytmaysan, o'lging kelyaptimi?! — Barzangining yonidagi yosh yigit uni ura boshladi. Qariya har qancha kaltak yemasin miq etmay jimgina turaverdi.

— Rahmat, Edgu ada! — Beixtiyor xitob qildi Eran. — Asl saxiysan! — Bu gapni ichida aytdimi yo ovoz chiqarib aytdimi, bilolmay qoldi. Har ehtimolga qarshi pastki labini qonatgudek qattiq tishlab oldi. O'zini sezdirmay qulay payt poylab yotaverdi. Begonalar atrofga birrov alanglab, o'zlari uchun hech bir xavf-xatar sezmagach, so'roq-qistoqni davom ettirdilar:

— Aytmasang o'zingdan ko'r, hozir joning jahannamga ketadi! — Barzangi ingranib ikki bukilgan Edgu adani itarib yubordi-da, ikkinchi ovchi — yoshgina yigit, yalangoyoq Badalg'ining oldiga kelib to'xtadi: — Bu chol-ku, yoshini yashab, oshini oshab bo'lgani uchun o'limga rozi. Xo'sh, sen-chi, yigit? Sening ko'rmaganing hali oldinda-ku, agar aytsang, ozod bo'lib, buning ustiga, dong'uu qavmining bir suluviga ega chiqasan.

O'ylab ko'r, yigit! Dong'uuning suluvini quchish o'zga qavmliklar uchun oson emas. Biz faqat yosh umri hayf ketmasin deb senga yaxshilik qilmoqchimiz. Yaxshilikcha ayta qol, bo'lmasa majburlab ayttirish ham qo'limizdan keladi. — Ular yigitchani aldab-avray boshladilar.

— Yo'q, — dedi Badalg'i bosh chayqab, — qavmdoshlarimni sotib, "sotqin", "qo'rqoq" degan tavqu la'natni orttirib, dong'uuning qizini quchib rohat-farog'atda yashaganimdan ko'ra o'lganim yaxshiroq!

— Shundaymi hali! — Barzangi uni nayzasining orti bilan qarsillatib urdi. "Ih" degancha engashib qolgan yigitning qop-qora sochidan changallab pastga bosib ortiga itarib yubordi.

— Ikkalasi terakka osilsin! — tutoqib buyurdi yonida turgan sheriklariga.

Keyin Fosidning qoshiga borib usti-ustiga uraverdi:

— Sen ham aytmaysan-ku-a?!

— Aytamaan! Faqat urmang, aytaman! — Kaltag-u tepki zarbiga chidayolmay, qolaversa, o'zga qavmliklar haqiqatan Badalg'i bilan Edgu adani osish uchun bo'yinlariga ip solmoqchi bo'layotganlarini ko'rib, o'zining ham bo'yniga arqon tushishidan qo'rqib, barzangining oyoqlariga yiqildi.

— Sotqin! — deya g'ijindi Eran tishlarini qattiq g'ichirlatib. — Tfuu betingga! — Saxiylarda odamgarchilikdan chiqqan palid kimsalarning betiga tuflash odati bor edi. Afsuski, Eran shu topda sotqinning betiga tuflash imkoniyatiga ega bo'lmagani uchun o'zicha so'kinish bilan kifoyalanishga majbur bo'ldi.

— Qani, aytsang ayt! — Barzangi urishdan to'xtadi. Sheriklari ham eshitish ishtiyoqida qo'llaridagi arqonlarini tashlab Fosidga yuzlandilar.

— Shu yerdan to'g'riga yuraversangiz to'rt-besh chaqirimdan keyin oldingizdan daryo chiqadi. Undan kechib o'tib o'ng tomonga tag'in biror chaqirim yursalaringiz bo'ldi...

— Tamom! — Eran endi harakat qilishning vaqti kelganini tushundi. Aks holda ular urushga tayyorgarliksiz saxiylarni qirib-chopib, qolganlarini tutqun qilib olib ketadi. Qavmning boshiga balo yog'iladi. "Afsonalarda aytilgan fojialar takrorlanmasligi kerak. Ularning takrorlanishi-takrorlanmasligi shu topda menga bog'liq bo'lib turgan ekan, dadilroq harakat qilishim kerak!" U barzangini nishonga olib o'qni bo'shatdi. Uchiga zahar surkalgan o'q barzangining qoq yuragiga qadalib, u mukkasiga yiqildi. Ko'p o'tmay ikkinchi o'q yosh dong'uuning orqasiga qadaldi. Qolgan ikkovi darhol o'zlarini daraxtlar panasiga oldilar-da, o'q-yoy bilan nayzalariga yopishdilar. Oraliq ikki yuz ellik qadamchagina edi. Teraklarni oralab o'ljasiga tashlangan yo'lbarsdek otilib kelayotgan Eranga birovi nayzasini uloqtirdi. Bazo'r chap berib ulgurgan

edi, to'g'ri kelayotgan uchli nayza qulog'ining bir chekkasini yalab o'tib, terakka qadaldi. Uzun nayzalar bilan qurollangan raqiblarga qo'lidagi kichkina xanjari bilan yolg'iz o'zi bas kelolmaydigan bo'lgani uchun mushukdek chaqqon ortiga qaytib, bog'langan qo'llarini yecholmay turgan Edgu ada bilan Badalg'iga intildi. Yo'l-yo'lakay nima qilishini bilmay qaqqaygan Fosidning ko'ksiga bir musht urib o'tdi-da, bandi qavmdoshlarining qo'llaridagi arqonlarini kesib-kesib yubordi.

Qolgan ikki begona endi dushmanlarining ko'payishganini ko'rib ortlariga qaramay tiraqaylab qochishga tushdilar. Yalang-oyoq Badalg'i, Eran va Edgu ada ularning ortidan quvladi. Yugurikligi bilan dong taratib, "eloyoq" laqabini olgan Badalg'i qochoqlardan birini quvlab yetdi-da, oyog'idan chalib qoldi. Jon-jahdi bilan yugurib ketayotgan emasmi, u uchib tushdi. Boshini ro'parasidagi daraxtga qattiq urib oldi, shekilli, o'rnidan tura olmay sulayib qoldi. Edgu ada uning qo'lini bog'lashga tutindi. Ikkovlon oldindagi begonani quvlay ketdi. U Badalg'idan ham yugurikroq ekan, yetkazmadi. Hatto oraliq tobora uzoqlashaverdi. Tiriklayin qo'lga olishdan umidini uzgan Eran yoyini o'qlab, uni nishonga oldi...

Ozodlik

Uchovlan Eranning kapasi qoshiga kelganida Fosid yo'q ekan. Haligina uning begona qavmliklardan ham xavfliroq dushman ekanligini bilgan bo'lsalar-da, shoshilinchda qo'lini bog'lab ketmaganlaridan afsuslandilar. O'zingdan chiqqan baloning qochib qutulganini qarang!

— Endi bu qo'rqoqning taqdiri begona qavmdagilarning qo'lida. Chunki o'z qavmiga begona endi u! Bas, Fosid dushmanni ergashtirib bormasidan avvalroq yetib borib, oqsoqollar bilan maslahatlashishlaringiz kerak bo'ladi, — dedi Eran.

— Ketdik! — Edgu ada Eranning yelkasiga kaftini bosdi. — Sening haqligingga yolg'iz o'zim kafilman! — Shunday deya qavmning asl jonkuyar Eraniga qaragandek otalarcha mehr ham

faxr bilan tikildi. Shu paytgacha nohaqlikdan o'rtangan Eranning yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'lib, avvalgidek yelkasi qisiq, qovog'i uyilgan, boshi egilgan holda emas, aksincha, qad rostlab, chiroyi ochilib, boshini baland tutib, o'zini qafasdan qutulgan qushdek ozod his qilib, qadamini dadilroq bosdi...

**ada (eski turkiy so'z) — ota.*
**Eran (eski turkiy so'z) — botir, qahramon, mard.*
**Sahiha (eski turkiy so'z) — bu yerda: "halol" ma'noda.*
**Bu yerda: "haqiqatlik" ma'nosida.*
**Bu yerda: "haqqoniy" ma'nosida.*

Abduqodir QAYIPOV

YETIM QO'ZI

(Qissa)

1

Ko'pdan orziqib kutganim — yozgi ta'til kunlari yaqinlashib qoldi! Buni qarang, yozgi ta'til yaqinlashgani sayin, xuddi kimdir ataylab yo'lni to'sib qo'yganday, kunlarning sira o'tmayotganiga nima deysiz! Ta'til boshlanishi bilanoq men o'zim ovulga — tog'amning uyiga ketmoqchiman. Sababi, qiziqning bari ovulda-da, cho'milish deysizmi, otga minish deysizmi — bunaqa mashg'ulot-u o'yinlar har qanday bolani qiziqtirib qo'yishi bor gap. Bu yilgi ta'tilni ko'zim to'rt bo'lib kutayotganimning sababini ham aytib qo'ya qolay: men qanday qilib bo'lmasin, shu ta'tilda otni mustaqil o'zim minib o'rganmoqchiman! Ha, mana shunaqa gaplar... O'tgan yili ta'til kunlari tog'amning o'g'li Salomat:

— Sen hali kichkinasan, sal o'rganishing kerak, undan keyin minasan otni, — deb ko'zimni ochirmay qo'ydi. O'zi otni egarlab, zimg'oyib bo'ladi, men yana eshak minishga majburman. Hisoblab ko'rsam, Salomat mendan atigi bir yosh katta. Hayron qoladigan yana bir yeri bor: otga mingandan keyin ham chopdirib ketavermaydi, sekin haydab u yoqqa o'tadi, bu yoqqa o'tadi, "otimning ichiga issiq kirmasin" deydimi, qalay-qalay... Ha, yana, otda chopib, aylanib keladi-da yo o't bermay, yo suv ichirmasdan yetaklab yurishi ham bor. Eh, o'zim minishni o'rganib olay, ana o'shanda ko'rsatib qo'yaman, o'sha Salomatga ot choptirish qanaqa bo'lishini! To'g'ri, eshak minish ham zavqli-yu, lekin otga minib chopishning gashti bo'lakcha-da... Bultirgi yozni men tog'alarimning uyida eshak minib o'tkazdim. Maqtanyapti desangiz, deyvuring: biron martayam men eshakdan hali yiqilmaganman! Tog'amning aytishicha, otning usti eshaknikiga qaraganda ancha bemalolroq, bexavotirroq bo'ladi ekan, ya'ni otdan yiqilish eshakdan yiqilish-

ga qaraganda ancha yengil o'tadi ekan, hech qayering og'rimaydi, deydi...

Aytmoqchi tog'amlarning ovulidan sal chetroqqa chiqsang, ko'l bor, vuy, bu ko'ldagi baliqlarning ko'pligini! Salomatning qarmog'i yo'q ekan, shuning uchun o'tgan yili baliq ovlaganimiz yo'q. Men bu yilgi ta'tilga atab o'ndan ortiq qarmoq olib qo'ydim. Qarmoqni suvga tashlab qo'yib, baliqning kelishini kutish ham zavqli-da! Qani endi tezroq yozgi ta'til boshlansa-yu, tezroq tog'amlarning uyiga borib, Salomatning yonida paydo bo'lib qolsam. Eh!..

* * *

Tarbiyaviy soat vaqtida sinf rahbarimiz har bir o'quvchidan yozgi ta'tilni qayerda, nima ish bilan o'tkazmoqchi ekanligini birma-bir so'rab chiqdi. Sinfdoshlarimning ko'pchiligi lagerda dam olmoqchi. Men yozni qishloqda — tog'amning uyida o'tkazmoqchi ekanimni, qishloqni nima maqsadlar uchun tanlaganimni maqtanibroq aytib berdim.

Mana, orziqib kutgan ta'til ham boshlandi. Oyijonim bozordan mo'l-ko'l sovg'a-salomlar olib berdi-da, meni avtobusga mindirib, kuzatib qo'ydi. Haydovchiga qayerda tushishimni, soat nechilarda yetib borishimni qayta-qayta tushuntirdi. Yonida men turibman, "o'zim bilaman, o'zim bilaman, ketavering..." deb. Hatto ko'zimni bog'lab qo'yvorsalar ham tog'amning ovulini topib bora olaman. Sababi, necha marotaba goh onam bilan, goh otam bilan, goh ko'pchilik bo'lib, goh esa yolg'iz o'zim borib yurgan qishloq-ku, shuni bilmaymanmi? Onam esa haydovchiga, qayta-qayta tushuntirayotir qayerda tushishimni-yu, yuklarimni unutmasdan olib borishimni. E-e, necha marta aytdim, bu ovulga ko'zimni bog'lab qo'yvorsalar ham yetib boraman, deb. Bugina emas, men ovuldagi otaxon-u onaxonlarni ham besh qo'lday bilaman-u!

— Yaxshi yetib olinglar! Jon uka, yo'lning chetiga chiqib to'xtasang bo'ldi, o'zi "lip" etib tushadi-qoladi. Borganingdan keyin bir xabaringni yetkaz, men shundagina tinchib, bexavotir o'tiraman. Xo'pmi, Po'latjon o'g'lim?

— Xo'p, xo'p, siz ketavering endi...

2

Tushlik vaqti bo‘lib-bo‘lmayoq tog‘amning uyiga kirib bordim. Salomat hali maktabdan kelmagan ekan. Men yuvinib, choy-poy ichib olgunimcha, u ham kelib qoldi. Mening kelganimni ko‘rib, rosa xursand bo‘lib ketdi. Tog‘am Salomatni darhol yoniga chaqirib, kundalik daftarini ko‘rsatishni talab qildi. Kundalik daftardagi choraklik va yillik baholarni solishtirib ko‘ra boshlagan paytda Salomat “lip” etib tashqariga chiqib ketdi. Bir payt tog‘am Salomatni chaqirib oldi-da, “baribir, menga bergan va’dangni bajarolmapsan-ku!” deb, koyib berdi. Salomat shunday bo‘lishini oldindan sezib, tashqariga chiqib ketgan ekan. Tog‘am koyish-tanbehlarini aytib bo‘lgunicha Salomat yerga qarab-qarab o‘tirdi.

Tog‘am choy bilan alahsirab, kundalikni dasturxon chetiga tashlagan paytda, men Salomatning daftarini ochib varaqladim. Qarasam, faqat chet tilidan baholari “uch” ekan, yana uch fandan baholari “to‘rt”, qolgan fanlar hammasi “besh” edi. Tavba, shunga shunchalikmi deb, Salomatning o‘rniga endi men javob bermoqchi edim-u, tag‘in tog‘am gap boshlayotganini ko‘rib indamay qo‘ya qoldim. Tog‘avachcha o‘rtog‘im, hamon yerga qarab, boshini egib o‘tiribdi.

— Menga qara, bolamov, “besh”laring ko‘payibdi, bu yaxshi albatta. Lekin sen “chet tilidan ham “besh”ga o‘qiyman!” deb va’da bergan eding-ku! Aytib qo‘yay, chet tilini o‘rganmas ekansan, o‘qishga kirolmaysan, shuni yaxshi bilib qo‘y, qani ko‘ramiz, keyingi yili qanday o‘qir ekansan, eh bolam-a, bolam-a...

Ovqatlanib bo‘lgan zahoti Salomat ikkovimiz qo‘raga qarab yo‘naldik.

* * *

Avvalgi odatiga ko‘ra Salomat menga:

— Po‘lat, sen eshakni egarlayver, — degan edi, men bo‘sh kelmadim.

— Yo‘q, men endi ot minaman! — deb, o‘jarlanib turib oldim.

— Sen ot minadigan bo‘lsang, eshakka o‘rganib qolgan odam, otni ham eshakday qilib chopaverasan-da, qiynab tashlaysan.

Shunday qilib, otning ichiga issiq tushirib, majruh qilib, mayirib qo'yasan!

— Yo'q, yo'q, yo'q! Hech ham unaqa bo'lmaydi! Ot eshakka qaraganda qoruvli hayvon-ku, majruhlanmaydi. Qolaversa, eshak mayrilmaganda, ot mayrilsinmi? — deb ikkovimiz bahslasha boshlaganimizda ustimizga tog'am kelib qoldi. Aftidan, bizlarning dovlasha boshlaganimizni u uzoqdan eshitib kelayotgan bo'lsa kerak.

— Po'latjon, aylanayin jiyanimov, sen hali ot minishning yo'l-yo'rig'ini bilmaysan-ku, — dedi tog'am bizlar tinchlanib olganimizdan so'ng.

— Bilaman! — dedim yig'laguday bo'lib. — Men eshakni qancha minib choptirganimdayam biron marta yiqilmaganman! Shunday ekan, ot qanchalik qattiq chopmasin, qanchalik ho'ngkilanmasin, o'zimni tutib o'tira olaman, yiqilmayman!

— Aynanayinov, yiqilmasliging yaxshi-ku-ya, lekin bu bilan otni minib bilaman deb bo'lmaydi-da. Eng avvalo otning ahvoliga tushuna bilishing kerak. Nima uchun otni issiqda choptirish bo'lmasligini, qizib kelgan otni nima uchun sug'orib bo'lmasligi, nima uchun o't yedirib bo'lmasligini besh barmoqday bilib, shularning bariga amal qilmog'ing kerak, — deb, yana barini bir chekkadan gapirib, tushuntira boshladi tog'am. — Agar shularning barini o'rinlaydigan bo'lsang, mana ot, minaver.

Men esa shu lahzalarda otga minish borasidagi orzularim amalga oshishi uchun tog'am aytayotgan eslatma-yu shartlarning hammasini bajarishga rozi edim! Ammo, ming afsuski, "ot minsam, azondan kechgacha chopaman", deb o'ylagan niyatlarim hozircha puchga chiqdi. Bunga o'zim aybdorman, albatta.

* * *

Otni o'sha kuni minganim bilan, azonda bir marta ko'zimni ochib, shundan to choshka mahaligacha uxlayveradigan odatim sabab bo'lib, baribir otga minish menga ko'p vaqtgacha nasib etmadi. Bilasiz, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshqa qishloq bolalari ko'pincha ota-onalariga yordam berish uchun dalada yurishadi. Salomat ham erta tongdan turib, sog'in sigirni arqonlab, paxta

o'tog'iga ketadi. Tushlik mahalida sigirni sug'orib, o'rnini o'zgartirib arqonlaymiz. Ol, kechda men sigirni olib qaytaman. Nega desangiz, Salomat paxtazordan kech qaytadi. Dastlabki paytlarda choshka bo'lsayam eshakni egarlab minib, Salomatdan o'rgangan odatim bo'yicha yo'l kesaman. Ovul odamlari qay tarafga ketgan bo'lsa, o'sha tomonga yuraversam, haytovur, ularning paxta o'tab yurgan dalasini topib boraman. Bu halakchiliklarning barini yagona maqsadda — otga minish maqsadida amalga oshiraman. Ovul bolalarining ko'pchiligi dalada yurganidan keyin, ovul oralashning men uchun sira qizig'i yo'q. Ovulda o'ynab yurgan bolalarning barchasi — boshlang'ich sinf o'quvchilari. Bolalar orasida tek Salomatning sinfdoshi — Ellikboyni uchrataman, xolos. Ellikboy deganimiz Oymurod degan uzoq bir tog'amizning ellikka chiqqanda tug'ilgan yolg'iz bolasi, shuning uchun ham Oymurod tog'amiz uni erkalab paxtaga-da yubormaydi, ish ham buyurmaydi. Erka bola-da, erkatoy. Men ham bir-ikki marta Ellikboyning kichkintoy balalarga qo'shilib o'ynab yurganiga havasim kelib, ovulda qolib o'ynab ko'rdim. Mayda churvaqalar orasida ikki o'spirin bola bo'lib yurganimiz chulluk[1] o'yinidayam, qocharmon o'yinidayam qo'l kelib turgan edi. Sababi, ikkovimiz bir bo'lib olamiz-da, lahza ichida o'zimizga jamoa tuzib olamiz. Men-ku bu o'yinlarning qoidalarini unchalik bilavermayman, Ellikboyning aytgani bo'yicha o'yinga qo'shilib ketaveraman... Xullas, gapning qisqasi, ovul bolalari bilan turli o'yinlarni o'ynab yurib, bir kuni endi futbol ham o'ynaydigan bo'ldik. Mana shu o'yinda Ellikboy bilan aytishib qolaverdik, aytishib qolaverdik. Men futbol o'yinining qoidalarini yaxshi bilaman, maktabdayam futbol to'garagiga qatnashib kelayapman. Nukusda yurganimda sinfma-sinf o'yin bo'ladimi, maktabma-maktab o'yin bo'ladimi, barida ishtirok qilib kelaman. Ovuldagi futbol o'yini esa butunlay boshqacha ekan, qaysi jamoa qoida buzsa buzaversin, barcha qoidabuzarliklar bir chekkada qolib ketaveradi-yu, Ellikboyning aytgani aytgan, degani degan bo'lib, Ellikboy qay tarafni ko'rsatsa, shu tarafga to'p tepilishi shart ekan. Ellikboy bo'lsa, o'zining foydasini ko'zlab, xohlasa jarima belgilaydi, xohlasa penaltini ko'rsatadi, kichkintoy bolalarning qarshi-

[1] **Chulluk, qocharmon** — bolalar o'yinlarining nomlari.

liklari uning uchun bir tiyin. Boshqalarning haqiqat talab qilib, yelib-yugurishlarini Ellikboy jo'ramiz sariq chaqagayam olmaydi. Hisob 10:0 bo'lib turgan bo'lsayam, Ellikboy bu hisobni o'zining foydasini ko'zlab, 20:0 deb aytsa — bo'ldi, shuniki hisobga o'ta-di-da, boshqalarning gapi bir tiyin bo'lib qolaveradi. Ey, bunaqa-da o'yin bo'ladimi?! Faqat bir odamning aytgani aytgan, degani degan bo'laversa, o'yinning qizig'i qoladimi? Nahotki hech kim Ellikboyga teng kelolmasa? Unga teng keladiganlar paxta dalasida, axir. Ishqilib, kichkintoylar bilan futbol o'ynash menga yoqmay qoldi. Shuning uchun ham, azonda Xolmurod brigadirning po-dasidan oldinroq chiqib, odamlarning qay tarafga ketganligini bilib olaman-da, otiz tomonga boraman. Podadan keyin qolsam, tog'am-ning yonida yordam berib yuraveraman. Xolmurod brigadirning bir poda qo'yi bor. Shu podadan keyin yo'lga chiqadigan bo'lsam, poda burungi izlarini bosib, mo'ljaldan adashtiradi. Ovulning pax-ta otizlari anchagina olisda bo'lganligi sababli, hech kim piyoda yurmaydi. Bir-ikki odamda velosiped bor, qolganlari otli yoki Xol-murod brigadirning podasidan oldinroq chiqsang, odamlarning qay otizda ishlayotganligini bilish oson.

Tog'am mening dalaga chiqmaganimni ma'qul ko'radi. Un-gayam bir yordamchi kerak. Mening qo'limdan hech narsa kel-maydi-yu, har holda "uni olib kel, buni olib kel" degan ishlarni qoyillataman. Tog'am shundan xursand. Bir kuni tog'am, yordam berib yurganimga quvonib ketdimi, menga qarab:

— Po'latjon, mening senga bir enchi[1] berish niyatim bor, — dedi. — Nima bersam ekan? Echki beraymi, qo'y beraymi, yo... buzoq bag'ishlayinmi?

Men o'ylanib ham turmasdan:

— Tog'a, menga qo'chqor bera qoling, — dedim.

— Bo'ladi! Bo'ladi! Jiyanim, Xudo xohlasa, bir qo'chqor enchi mendan, — deb, boshimdan siypab, yelkamga qoqib qo'ydi.

Bir kuni brigadirning podasidan keyin chiqib, ovul odamlari qaysi otizda yurganligini aniqlay olmadim-da, kelib tog'amga yor-damlashib yurgan edim. Xolmurod brigadir tog'amning sog'in si-girini oldiga solib quvalab keldi-da, og'ziga kelgan yomon so'zlarni

[1] **Enchi** — meros, sovg'a, kimningdir ulushi.

aytib, tog'amga so'kish yog'dira boshladi. Tog'am ham muloyim tortib qoldi-da:

— Bolalarga ishongan edim, oqsoqol. "Bola, bolaning ishi chala" deganlari shu bo'lsa kerak. Kechirasiz, endi takrorlanmaydi, — deb yalinib turibdi. Shu orada Salomat ham paxta otizdan qaytib, otini bog'ladi-da, brigadirni ko'rgach, salom berish niyatida qo'sh qo'lini oldinga cho'zib kela boshladi. Xolmurod og'a salomga alik olishning o'rniga, uni qamchi bilan tortib yubordi. Salomat chirqirab yig'ladi-da, jo'xori otizning ichiga kirib ketdi. Chirqiramay nima qilsin?! Ora-tura men ot mingan vaqtimda siltagan qamchim otga tegmay qolib, o'zimning orqamga tekkan edi, orqam bir-ikki kungacha achishib yurdi.

Tog'am shu yerdayam brigadirga hech narsa demadi, aksincha Salomatning o'ziga:

— Mayli, gunohing yo'q, lekin sigirning qozig'ini durustroq qoqsang bo'lardi-ku, — deb urishib qo'ydi.

Bir vaqt ko'zlari qizarib qolgan Salomat mening yonimga kelib:

— Yur, Po'lat, molni arqonlagan yerni ko'rib qaytamiz, — dedi.

Ikkovimiz birga mol arqonlagan otizning dambasiga bordik. Salomat o'tlarning orasidan bir nimalarni izlay boshladi. Men ichimda "mol axir arqoni, qozig'i bilan kelgan-ku, bu nimani izlab yuribdi?" deb hayron bo'lib turdim. Shu payt Salomat tovushlab meni chaqirdi.

— Mana, qara, molning o'zi bo'shanmagan, kimdir uning qozig'ini sug'urib yuborgan, — deb, qoziq qoqilgan o'rinni ko'rsatdi. Qarasam, molning qozig'i qaptalga emas, ol tikka yuqoriga qarab sug'urilgan edi.

3

Ertasiga tong otar-otmasdan Salomat meni yulqilab uyqudan uyg'otdi. Har kuni choshkagacha uxlab o'rgangan odamga tonggi mazali uyqudan kechish oson emas ekan. Yulqilayvergach, noiloj o'rnimdan turdim. Bir-ikki piyola choy ichdik-da, sog'in sigirni oldimizga olib, dalaga ketdik. Otiz dambasining eng o'tli yeriga molning qozig'ini qoqqan Salomat:

— Po'lat, sen anovi o'tlar orasida yashirinib o'tirib, poylaysan. Oldingi kuni bizning molning ipini kimdir qisqartirib, anovi jing'alga boylab ketibdi, mol tushgacha tek ipi yetadigan yernigina o'tlab, to'ymay qolgan. Ol, kecha esa qozig'ini sug'urib, paxta otizga haydab yuboribdi. Bu ishlarni kim qilayotganini aniqlash kerak, — dedi.

Faqat o'tkir razvedkachilar bajara oladigan bu vazifa menga juda qiziq tuyuldi. Salomat paxtaga ketdi, men esa roshning boshidagi o'tlar orasida burkanib-yashirinib yotib, atrofni kuzata boshladim.

Choshka paytiga yaqin molini yetaklagan Ellikboy paydo bo'ldi. Roshning tepasida turib, atrofni kuzatib chiqdi-da, tog'amning sigiri tomon bordi, sigirning qozig'ini sug'urib oldi-da, paxta otizga qarab haydab yubordi. O'zining molining qozig'ini Salomat arqonlagan sero't joyga qoqdi. Men yotgan yerimdan qo'zg'almadim. Ellikboy ketishi bilan men ham uning sigirini paxta otizga haydab yubordim-da, tog'amning sigirini oldingi o'rniga arqonladim. Salomat tushlikka kelgan vaqtda bo'lgan voqealarni ushog'ini tushirmay aytib berdim. Bo'lgan gapdan xabar topgan Salomat "boshim og'riyapti" degan bahonani topdi-da, tushdan keyin o'toqqa bormay qoldi.

Kechqurun Salomat mening yonimga kelib, "yur, ketdik" deb imladi. Men indamay uning iziga tushdim. Bilaman, Salomat kechagi yegan qamchisining achchig'ini olishi kerak. Shuning uchun men bo'lib o'tayotgan voqealar haqida na tog'amga, na Salomatning onasiga tish yormadim.

O'ynab yurgan bolalarning ichida Ellikboy yo'q edi. Salomat bir bolani yoniga chaqirib oldida, unga o'rgatdi.

— Hozir borasan-da, Ellikboyni chaqirib kelasan. Unga ayt, "Po'lat futbol o'ynashamiz, deyapti, tezda chiqarkansan" de.

Bola Ellikboyning uyi tomon chopib ketdi. Bir payt ko'chaning narigi boshida to'p ko'targan Ellikboyning yelkasi ko'rindi. U yetib kelishi bilan Salomat "Sen nega bizning molning qozig'ini sug'urding?" — deb, quloq-chakkasiga shapaloq tortib yubordi. Ellikboy ham qolishmay, "Sen nega menga tuhmat qilasan, ko'zing bilan ko'rdingmi?" — deb aytisha boshladi.

Uning qip-qizil o'trik (yolg'on)lariga chidamay, men:

— Ay Ellikboy, men o'zimning ko'zlarim bilan ko'rdim-ku, — degan edim, u menga jerkindi:

— Hoy sen shaharlik jodugar! Aralashma, sen bilan gaplashayotganim yo'q, yo'qol Nukusingga!

Avvallari birga o'ynab yurgan paytlarda uning qilgan g'irromliklariga guvoh bo'lsam ham, yoshi sal katta bo'lganidan, yurak yutunib, bir gap ayta olmagan edim. Hozir Salomat yonimdaligi uchunmi, bilmadim, menda mardlik, o'zimga ishonch paydo bo'ldi. Yugurib borib bir turtgan edim, Ellikboy deganimiz puch yong'oq ekan, orqasiga ag'darilib tushdi-da, dod solganicha uyiga qarab zip berdi.

Salomat "ketdik" dedi-da, uy tomonga yura boshladi. Men ham mo'ntanglab unga ergashdim. Choy-poyga ham qaramay, Salomat bir piyola qatiqqa non to'g'radi-da, menga qarab:

— Sen ham qorningni to'ydirib ol! — dedi. — Hozir to'palon boshlanadi.

Men hech narsaga tushunmasam ham piyolaga non to'g'rab, xuddi izimdan kimdir quvib kelayotganday g'abir-g'ubir og'zimga tashlab, ikki yamlab, bir yuta boshladim. Sirtga chiqayotganimizda Salomat supaning ustidan ikkita ko'rpacha oldi-da, qo'ltiqlaganicha jo'xori otiz tomon lo'kkilladi.

Menga:

— Qo'raga borib, otning katta yopinchig'ini ol-da, izimga ergash, — dedi. Men jangovar xizmatdagi jangchiday faqat berilgan buyruqni, aytilgan gapni bajaraman, savol berishga fursat yo'q. Jo'xori otizning o'rtasida ot yopinchig'ining kattaligiday o't o'smay qolgan yer bor ekan. Salomat o'sha yerga yopinchiqni, uning ustiga ko'rpachalarni to'shab:

— Ol, Po'lat, og'amning achchig'i bosilaman deguncha shu yer bizlarning makonimiz bo'ladi, — dedi.

— Hav, tog'am bizlardan achchiqlanayotgani yo'q, hozirgina bizlar bilan apoq-chapoq bo'lib gaplashib o'tirdi-ku, — desam, Salomat:

— Hali shoshmay tur, guldurmomoning guldurab, chaqmoq chaqishini endi eshitasan, hali o'zing guvoh bo'lasan, — dedi-da

qo'ydi. Rostdan ham, ko'p o'tmay Ellikboyning otasi Oymurod og'aning hayqirig'i ovulni to'ldirib yangradi:

— Mening yolg'izimni ko'kola qo'yday savalaydigan Salomat degan haromqotguring qayerda? Shahardan ketgan anovi xuligan bola qani? Juvonnamaklar, nega mening qo'y og'zidan cho'p olmaydigan yolg'izdan yolg'iz bolamni bunchalik savalaydi?! Endi nima, kuchsiz, yuvosh odam bu ovulda kun ko'rolmaydigan bo'lib qoldimi?! Xolmurod kelsin qani, sizlarni bu ovuldan ko'chirtirib, qorangizni o'chirtirmasam, Aytmurod degan otimni boshqa qo'yaman! Kuchim bor deb, borganning boltasini, kelganning ketmonini olib qo'yaveradigan zamonlar o'tib ketdi!

— Assalomu alaykum, Aytmurod og'a! — deb, tog'am uning oldiga chiqqan edi, Aytmurod og'a uning salomga uzatilgan qo'lini qoqib yubordi.

— Qani anovi bezorilaring? Topib ber menga shularni! Men ularga odam urishning qanaqa bo'lishini bir ko'rsatib qo'yay! — deb qo'lidagi cho'qmorday tayog'ini yerga urib qo'ydi.

Bizlar o'sib, ko'kka intilayotgan, sarg'aya boshlagan ko'mko'k jo'xorilar ichida bo'lgandan keyin ko'rinmaymiz. Biroq bizlarga ularning barcha harakatlari ko'rinib, so'zlari aniq eshitilib turibdi. Bir payt tog'am:

— Salomat! Po'lat! — deya g'azabli turda bizlarni chaqira boshladi. O'z boshini sirtmoqqa solib beradigan ahmoq bormi? Bizlar o'rnimizdan qimirlamasdan, miq etmasdan yotaverdik. Bizlarni topolmasligiga ko'zi yetgan Aytmurod og'a:

— Xo'p, ertaga azon bilan Xolmurodni olib kelaman, anovi yer yutgur bezorilaringni topib qo'y! — deb hayqiriq solib ketdi.

Aytmurod og'a ketgandan keyin ham tog'am ancha vaqtgacha bizlarni tovushlab chaqirib turdi, oxiri uyga kirib ketdi.

4

Bir payt Salomatning oyisi — Bog'dagul kennoyimning ovozi eshitildi.

— Yo'lli! Yo'lli! — deb, u uydagi itni chaqira boshlagan edi, bizlarning qoshimizda yotgan it dik etib sakrab turdi-yu, yalog'i to-

mon chopib ketdi. Kennoyim ityaloqqa to'ldirib yuvindi quydi-da, ichkariga kirib ketdi.

Ikkovimiz u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirgan edik, kennoyimning kelib qolganini sezmabmiz ham.

— Ha qochoqlar, nima qilib o'tiribsizlar?

Qarasak, kennoyim ustimizga kelib turibdi!

— Iye, kennoyi, bizlarni qanday qilib topdingiz? — dedim men hayron bo'lib qolganimni yashirolmay.

— Yo'lli topib berdi.

— Qanday qilib?

— Qachon yuvindi olib chiqsam, qo'ra tomondan yugurib keladigan it, bugun jo'xori otizdan chopib chiqsa, nima deb o'ylashim kerak? Sizlarning shu yerda ekanligingizni shundan bildim-da, — kuldi kennoyim. Keyin qo'lidagi bir banka qatiq bilan bir cho'rak nonni bizlarga tutqazdi-da, nima voqea bo'lganligini so'radi. Salomat kechagi-bugungi voqealarning ushog'ini tushirmay aytib berdi.

— Unday bo'lsa, qo'rqadigan hech gap yo'q ekan-ku. Mayli, sizlar shu yerda o'tiraturinglar. Men og'angga bo'lgan voqeani yotig'i bilan tushuntiray. Hozir to'g'ri uyga kirib borsanglar, anovi qaynog'adan eshitgan gaplari uchun qonqizmalik qilib, ikkovingni ham savalab qo'ymasin, — dedi-da, kennoyim ichkariga kirib ketdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, tog'amning o'zi sirtga chiqdi-da:

— Aynonoyin, aynonoyinlarimov, Salomatjon, Po'latjon, uyga kira qolinglar, — deb chaqirgandan so'ng, jo'xori otizdan birim-birim sug'urilib chiqa boshladik. Uyga kirganimizdan keyin tog'am ham nima gap bo'lganligini so'radi. Men Ellikboyning o'zidan kichkina bolalar bilan o'ynab yurishi-yu, g'irromlik qilishlari, o'zini zo'ravon sezishini — bari-barini tog'amga aytib berdim.

— Qo'y, unda men Xolmurod brigadirning uyiga o'zimoq borib kela qolay deb, tog'am uydan chiqib ketdi. Bir vaqtlari ikki chekkasi qulog'ida tog'am kirib keldi.

— Hech narsadan g'am yemanglar, azonda brigadir og'angizning o'zi masalani bir yoqli qiladigan bo'ldi. Salomatjon, Aytmurod og'a jahl ustida qamchi tortib yuborgani uchun kechirim

so‘radi. Mayli, ziyoni yo‘q, yigit bo‘ladigan bola ora-sira qamchi ham, tayoq ham yeb turishi kerak-da. Yigit kishi shunda pishadi, — deb tog‘am kulib, Salomatning ko‘nglini olgan bo‘ldi.

5

Ertalab uydagi g‘ala-g‘ovurdan uyg‘onib ketdim. Qarasam, Aytmurod og‘a ham, Xolmurod brigadir ham uyda ekan. Aytmurod og‘a kechagi kayfiyat bilan lolov-lolov qilayapti, hech to‘xtaydigan emas. Bir payt Xolmurod brigadir o‘rnidan turinqiradi-da, o‘ktam tovush bilan:

— Bo‘ldi, gapni qisqartiring, Aytmurod og‘a! — dedi ovozini sal ko‘tarib. — Biz sizni oqsoqol-oqsoqol deb hurmatlaganimiz sayin tepamizga minib ketyapsiz-ku! O‘sha tayoq yegan yalqov, erkatoy bolaning qilgan ishi uchun brigadamda bir bilak bo‘lib yurgan manovi Salomat o‘tgan kuni aybsizdan aybsiz mendan qamchi yedi. Kecha otizga chiqmagan edi, shu yigitchaning o‘rni bilindi-qoldi. Endi ertadan boshlab erkatoying otizga chiqmasa o‘zing ko‘ch ovuldan! Menga otiz ishida yordam bermaydigan ovuldosh ham kerakmas, qarindoshning ham keragi yo‘q. Ha, bir oqsoqol oramizda yursa yuribdi-da deb, ko‘zimizni yumgan sayin sen ovulning og‘izbirchiligini qochirayapsan-ku! — deb, erkatoy bolasining tayoq yeyish sabablarini aytib bergan edi, Aytmurod oqsoqol pastga qarab indayolmay, boshini chayqash bilan bo‘laveradi. Birozdan keyin boshini sal ko‘tarib:

— Inimov, shu meni beobro‘ qilib yurgan juvornamakni ertagayoq oldingga solganim bo‘lsin. Etiyam seniki, suyagiyam. Tubi bir og‘aynilarmiz, shu bolamni o‘zing tarbiyalamasang, bizlar uni yolg‘izim-yolg‘izim deb erkalataverib boshimizga chiqarib qo‘yibmiz, — deb, bir lahzada “ters kiygan to‘nini aylantirib qiyib” olgan Aytmurod og‘a brigadirga yalina boshladi. Keyin Xolmurod brigadir tanglayini taqillatib o‘tirdi-da, tog‘am bilan Aytmurod oqsoqolni qo‘l olishtirdi-da:

— Mening ishlarim kutib turibdi, salgina narsa uchun ham meni chaqirib vaqtimni o‘g‘irlamanglar — deb chiqib ketdi. Brigadir chiqishi bilan Aytmurod og‘a ham:

— Kechirasan, inim, bu bolaning gapiga kirib, qartaygan chog'imda qilib yurgan ishimni qara-ya, bizdan bir bilmaslik o'tdi-da, — deb, ayvonni bo'shatdi.

6

O'sha kuni kechqurun uyda mol-holga qarab, o't-suv berib yursam "yetim qo'zi yo'q" degan g'alovut[1] chiqdi. Salomat ikkovimiz "adashib kirib qoldimi?" deb podaga jonlik qo'shadigan uylarning barining qo'ralariga birma-bir kirib chiqdik. Yo'q! Qo'zi topilmadi.

Ertalab tog'am otni minib o'zi qo'zini izlab ketdi. Ot minishga talashib yurgan ikkimiz ham bugungi sayr-u sayohatdan mahrum bo'lib qolaverdik. Yetim qo'zining yo'qolib qolishi Salomatni juda xafa qildi. U hatto men bilan ham gaplashmay qo'ydi. Nima so'rasang, yo "ha", yo "yo'q" deb javob qiladi — bo'ldi, indamasang, yuraveradi mum tishlaganday. Tog'am yetim qo'zini hech qayerdan topolmay, boshi solinib qaytib keldi. Salomat ikkimiz otning teri bosilguncha yetaklab yurdik. Otni yetaklab yurib:

— Qo'zini shaqal yeb ketdimikan? — deb so'radim.

— Yo'g'-e, — dedi u yig'lagudek bo'lib. — Birovlar o'g'irlab ketgan bo'lmasa, uni shaqal tugul, qashqir ham ololmaydi...

Salomat, yana jim bo'lib qoldi.

Men ang-tangman. Bu qanaqa qo'zi ekan?! O'zi qo'zi bo'lsa, uni na shaqal, na qashqir ololmasa. Salomatning bu gapi ichimga g'ulg'ula soldi. Endi otga minishni emas, o'zini qashqirga ham oldirmaydigan qo'zini ko'rish orzu bo'lib qoldi. Azonda ketaman, kechda kelaman, shuytib yurib, ko'radigan qo'y-qo'zi, echki-uloqlarga ham ko'p e'tibor qilavermas ekanman. Mana, shu e'tiborsizligimga endi o'kinib turibman. Salomat-ku o'zi qo'y-qo'zi tugul, tuyatovuqlarigacha, hatto ularning jo'jalarigacha taniydi. Biror yarimi adashib kelib qolsin qani, qo'y-echki, qo'zi-uloqlarning qulog'iga bir qaraydi-da kimga tegishli, qaysi ovulniki ekanligini shu zahoti aytib bera oladi. Ol, men-chi, men — ot bilan sog'in

[1] **G'alovut** — noxush voqea, gap-so'z, hozir oldini olmasa, izi janjalga aylanib ketishi mumkin bo'lgan g'ala-g'ovurli xabar.

sigirdan boshqasini yilqi, sigir podasi ichidan zo'rg'a ayiraman. Shularni o'ylab yotib, kechasi ancha vaqtgacha ko'zimga uyqu kelmadi. O'sha yetim degan qo'zini ko'z oldimga keltirmoqchi bo'lib shuncha urindim, bo'lmadi. Eslay olmadim. Qo'radagi qo'ylarning barini ko'rgandayman. Biroq Salomat aytgan — ta'riflab bergan qo'zini qanday qilib serlamagan ekanman. Hayronman. Podani boshlab yuradigan nahang (juda katta) ko'k qo'chqor bor (uni bilaman), mana shu jonivor shaqal bilan qashqirga bas kela oladigan ko'rinadi. Boshqalari... ay, bilmadimov. Shu paytgacha ko'rib yurgan qo'zilarimning barini ko'z oldimga keltirib ko'rdim. Televizorda ko'rib yurgan qashqirlarga bas kela oladigani... yo'q. Unaqasi bo'lmasayam kerak. Men eslolmayapman. Shaqal bilan solishtirib ko'ra qolay desam, shu paytgacha shaqallarga bas keladigan qo'chqor qanday bo'lishini hatto televizordayam ko'rmagan ekanman. Tek, shaqalning ulugan tovushini eshitgan ekanman, xolos. Bir kuni tunda tashqariga chiqsam, naq yonimda shaqal uliganday bo'ldi. Yuragim tarss yorilib ketdimi dedim. Qo'rqqanimdan dodlab uyga qarab zitdim[1]. Uyda kimni ko'rsam, hammasi: "Nima bo'ldi? Nega qichqirib qochding?" deb, so'roqqa tutayotir. Men esa, qo'rqqanim shunchalik, gapirolmay qoldim, tilim aylanmaydi, nuqul barmog'imni tashqariga siltab, "sh..., sh..., shaqal" deyveribman. Hammalari dupur-dupur tashqariga yugurishdi. Meni qo'rqitgan shaqal ikki chaqirim narida ulib turgan ekan. Ay, nimasini aytay, shunday qilib, ikki chaqirim yerdagi shaqaldan qo'rqaman deb, Salomatlarning mazah qilishlari uchun, mav..., mav..., nima deydi, ha, mavzu topib berganman. Salomat ham bu voqeaning ustiga o'zidan qo'shib, latifa yaratib, ovul bolalari orasida aytib yurdi. Hamma eshitganlar kulib yuradigan latifa shundan iborat:

Salomat aytyapti: "Po'lat bir kuni kechasi uyga dod solib yig'lab kirdi. "Ha, nima bo'ldi?" desak, qo'li bilan tashqarini ko'rsatib: "shaqal, shaqal... Mingta shaqal kelayotir!" deydi dir-dir qaltirab. "Ming shaqal nima qilsin?" desak, "ming bo'lmasa, yuztadir" deydi. "Ay, bu atrofdagi shaqallarni yig'ib kelsa, yuzta chiqmaydi", desak, "Men ne bilay, yuzta bo'lmasayam, aniq o'nta bor", dey-

[1] **Zitmoq** — tapir-tupur yugurib, qochib qolmoq, ko'zdan yo'qolmoq, pildirpis bo'lib, ovoz chiqarmasdan qochmoq.

di. "E qo'ysang-chi, bu yoqqa umuman shaqal kelmaydi" desak, bu bechora dir-dir qaltirab, "men ne bilay, shitirdi eshitilganday bo'ldi", deydi."

Bu latifa butun ovulga taralib, men ko'p vaqtgacha ovul odamlariga ko'rinmay yurdim.

Shunday qilib, qo'zini o'ylab yotib, tongning oldida ko'zim ilinibdi. Ertasi kuni yana meni odamlarning g'ala-g'ovuri uyg'otib yubordi.

7

Qarasam, tog'amlar choy ichib o'tiribdi. Ular ichida varillib gapiradigan bir kishi ham bor. Men turishim bilan tog'am:

— Po'latjon, yetim qo'zining daragi topildi! — dedi. Qo'shni ovulning podasiga qo'shilib ketibdi, zang'ar. Choy-poy ichib olinglar, qani. Keyin Salomat bilan borib, olib qaytasizlar.

Tuni bilan menga uyqu bermagan, "o'zini shaqal-u tulkilarga oldirmaydigan o'sha qo'zini bir ko'rsam edi!" — degan orzum ham amalga oshadigan bo'ldi. Shunday paytda choy botadimi odamga? Darhol Salomatni qistovga oldim. Salomat ham darrov rozi bo'ldi-yu, "hozir, hozir" deb non bilan uch-to'rt piyolaning tagini qurtmaguncha o'rnidan tura qolmadi.

Nihoyat yo'lga tushadigan bo'ldik.

— Arqon ola ketinglar, — dedi tog'am. — Biroving yetaklab, biroving haydab qaytasizlar.

Men yana hayron bo'ldim. "O'zi qo'zi bo'lsa, olma-kezak[1] qilib ko'tarib kelavermaymizmi? deb so'ramoqchi edim-u, Salomatning "shaqalga ham, qashqirga ham oldirmaydi", degan so'zi yana yodimga tushib, til qotib turmadim.

* * *

Ovul odamlariga hayronman-da. Qo'shni qishloq degan edi tog'am. Bu manzilga yura-yura, ikki yarim soat yo'l bosib, zo'rg'a yetib keldik. Ertalab, "choy ichmay yo'lga tushaylik" deb qistagan odam o'zim bo'lganligim sababli, mana, ochlikkayam, suvsizlikkayam rozi bo'lib, labimni tishlab kelayapman. Qo'shni ovul

[1] **Olma-kezak** — navbat bilan, almashib.

deganlari — Nukusning narigi cheti bilan berigi chetiday bor ekan. O'ldim-toldimda zo'rg'a yetib keldikov. Ovul chetidagi bir uyni ko'rsatganlarida, quvonib ketdim. Yugurib borib, qo'rasiga ungildim[1]. Qo'rada besh-oltita qo'ylik-jonlik bilan o'zimizning eshakday yirik ko'k qo'chqorimiz turibdi. Biroq orasida hech qanday qo'zi-po'zi ko'rinmaydi.

— Hov, bu uyning qo'rasida qo'zi ko'rinmaydi-ku yo bo'lmasa uy ichiga kiritib qo'yganmikanlar? — dedim chidamsizlanib.

Salomat qo'raga yaqinlashishi bilan nahang ko'k qo'chqor qo'ra eshigi — erganak tomon yaqinlashdi.

— Mana bizning yetim qo'zi! — xursand bo'lib ketgan Salomat ko'k qo'chqorning boshini qashidi. Shu payt uydan bir ayol chiqdi-da, kulib o'dag'ayladi:

— Hov, yomon jiyanim-a, o'g'irlik qilib yuribsanmi? Ko'rdinglarmi yezdamizning siqmorligini! Pulim ketib qolar, chiqimdor bo'lib qolmayin deb, o'zi kelmasdan kichkina jiyanni yuboribdi-da, moxov!

Yomon jiyan deb meni aytyaptimi desam, yo'q, Salomatni aytayotgan ekan. Yana hayronligim oshdi. Negaki, Salomatning ovulidagi ko'pchilik meni "yomon jiyan", deb chaqiradi-da.

Men bularga qo'shilolmay chetga chiqib turdim. Salomat meni tanishtirib, "Nukusdagi ajapam[2]ning bolasi, ismi Po'lat" dedi.

— Iye-iye-iye, mening shaqal ko'rgan jiyancham hali shumi? — dedi ayol qah-qah urib kulib. Men uyalganimdan qip-qizarib, yerga qarab turaverdim. "Obbo, deyman o'zimga o'zim, manov Salomatning o'zi to'qigan yolg'oni buyoqlarga ham yetib kelibdi-ya!"

— Ovuldan piyodalab kelayotgan bo'lsangiz, charchagandirsiz. Qani ichkarilang, sal hordiq chiqarib, qatiq-patiq ichib olinglar, — dedi haligi opay. Bu taklif, qorni ochqab, zo'rg'a turgan menga juda yoqib tushdi.

Bizlar qatiqqa non botirib ichayotgan paytimizda uyga tog'am ham kirib keldi.

---

[1] **Ungilmoq** — tikilmoq, ziyraklik ila, sinch ko'z bilan, diqqat bilan qaramoq.

[2] **Ajapa** — aziz opa, katta opa degani.

— Ay boldizimay, bolalarni yuborgach, akang suyunchi bermabdi degan so‘z chiqarib, qo‘zini olib qoladimi degan o‘y bilan, mana o‘zim ham otlanib kelaverdim, — dedi u.

— Ana aytdim-ku, jiyanim, akangni siqmor deb. Suyunchini ozroq berish uchun to‘ylarda bayroq olib yurgan eshakday qo‘chqorini qo‘zi deb turibdi. Qishda brigadir qaynag‘amiz kelin tushirgan to‘yida jiyanim mana shu qo‘chqorni olib kelib dugishtirgan[1] ekan. Qo‘chqor kelgan paytda bolalar “Salomat bo‘lamizning qo‘chqori-ku bu!” deb, darrov tanidi. Bojang azon bilan suyunchi so‘rayman deb, o‘pkasini qo‘liga olib, choyga ham qaramay ketgan edi. Bojangga berganing hisob emas, menga suyunchini mo‘l qilib berasan, yezda, — dedi haligi ayol yana taqillab.

— Vay, boldizim-ay, bojaning ko‘nglini topish oson-ku. O‘zi azon bilan boshi g‘uvullab og‘rib borgan ekan, bosh og‘rig‘ini yozdim-yubordim. Xursand bo‘lib ketdi. Endi, mana sening poyingni olib keldim, ma, boldizim, — deb, tog‘am kissasidan bir qizil o‘nlikni[2] chiqardi.

— Qo‘ying-ey, yezda, hazillashib aytgan edim.

— Olaversang-chi. Bolalarimning bir quvonganiga yetmaydi.

— Unday bo‘lsa, mayli. “Xo‘ja bersa, qo‘yningga sol” degan gap bor. Shunday kunda olmasak, boshqa bir kunda sendan so‘yganda ham qon chiqmaydi, — deb ayol pulni oldi, dasturxon ostiga qo‘ydi-da:

— Jezda, qatiq ichib ol, hozir olib kelaman, — deb sirtga chiqib ketdi. Tog‘am darhol boya bergan o‘nlik pulni qaytarib olib kissasiga solib qo‘ydi. Qatiq ichib bo‘lib borayotganimizda tog‘am:

— Boldizim, bergan suyunchimni oz ko‘rib yurma, mana, yana qo‘shaman, — dedi-da, boyagi qizil o‘nlik so‘mni yana ayolga ushlatdi. Ayol:

— Nima qilasan qayta-qayta suyunchi beraverib, — deb pulni olmagan edi, tog‘am uni tinglamay pulni ayolning kamzulining kissasiga solib yubordi. “Ana, — dedim men ichimda, — bizning xalqning mana shunday hazilkashligi hech qolmaydi”.

---

[1] **Dugishtirmoq** — qo‘chqor urishtirish.

[2] **Qizil o‘nlik** — sho‘rolar paytida o‘nlik pullar qizil rangda bo‘lardi.

Qo‘chqorning sirtqi ko‘rinishiga qarab, “bu jonivorni olib ketolamizmi?” degan gudik[1] bor edi. Qo‘chqor esa Salomatni ko‘rishi bilan mo‘ntanglab, uning iziga tushdi. Bizlar turib qolsak qo‘chqor ham turadi, yugursak — yuguradi.

Yo‘lda kelayotib, Salomatdan “nima sababli bu nahang qo‘chqorni yetim qo‘zi deb nomladinglar?” — deb so‘radim. Salomat buning sabablarini aytib berdi.

8

(Salomatning hikoyasi)

— U paytda biz boshlang‘ich sinfda, tushdan keyin o‘qirdik, — deb gurung boshladi Salomat. — Qish kunlari o‘qishdan juda kech qaytamiz. Bir kuni maktabdan kelganimda onam:

— Salomat, qizil qo‘ying tug‘ibdi. Bugun qo‘y boqish navbati kimniki edi? Borib qo‘zichog‘ingni olib qayt, — deb qo‘limga bir so‘m pul berdi. Podada yurgan jonlig‘ing yoki moling tug‘ib qolsa, o‘sha kuni poda boqqan odamga suyunchi berishing kerak, qo‘y-jonliq bo‘lsa — suyunchiga bir so‘m, qoramol yoki yilqi bo‘lsa — besh so‘m. Men maktab kiyimlarimni yechmasdan Rohatning uyiga yugurdim. Borsam, besh-olti uloq-qo‘zi bor ekan. Rohat qo‘yning eni bilan tur-tusini so‘radi.

Men:

— Ikki qulog‘i kesilgan qizil qo‘y, — dedim.

— Unda anovi ko‘k qo‘zi seniki, — dedi. Men cho‘ntagimdan bir so‘m chiqarib, Rohatga berdim-da, qo‘zimni olib uyga qaytdim. Shundan besh-olti kun qo‘yni podaga yubormay uyda boqdik. Qo‘zisi o‘ynoqlab yuradigan bo‘lgach, onasini podaga qo‘shib yubordik. Qizil qo‘yimiz podaga qo‘shilgan kuni uyga kelmay qoldi. Ovuldagi uylarning barisining qo‘ralarin ko‘rib chiqdim. Hech kimning qo‘rasida yo‘q. Og‘am esa:

— Bu qo‘yga bir balo bo‘lgan. Yo‘qsa qo‘zili qo‘yning kelmay qolishi mumkin emas — dedi.

Azonda podani qaytadan ko‘rdik. Yo‘q. Poda boqiladigan yaylovni so‘rab olib, izlab ketdim. Oti qish bo‘lgani bilan, yer-jahon-

[1] **Gudik** — shubha, gumon.

ning barcha joyi bilch-bilch botqoq edi. Ovuldan chiqqan yerda ko'l bor edi, shu ko'lning chetidagi loyga qizil qo'yning to'rt oyog'i ham botib qolibdi. Kimdir bog'lab berib ketganday, shaqallar tuni bilan qo'yimizni yeb mazza qilibdi. Qizil qo'ydan ayrilib qolganimizni o'z ko'zim bilan ko'rib, zor yig'lab uyga qaytdim. Endi uning qo'zisini boqishimiz kerak edi. Boshqa qo'ylarni emarmikan deb tutib ko'rdik, kelishtirolmadik. Keyin ukamning emizigi bilan sigir sutini berdik. Dastlabki vaqtlarda emizikni og'ziga zo'rlab solardik. Keyin-keyin esa emizik bilan sut shishani qo'lga olgandanoq, qo'zining o'zi mo'ntanglab izimizga ergashadigan bo'ldi. O'sha paytlardan boshlab uning nomi — yetim qo'zi. E, bu qo'chqorni qo'ldan sut berib kalo qilganmiz[1]. Lekin, baribir, o'zining onasini emganday bo'lmas ekan.

Bu qo'zi boshqa uloq-qo'zilar ichida eng abigeri (ojizi), eng kichkinasi bo'lib o'sdi. O'z oyog'idan o't yeb ketgandan keyin birdan gurkurab o'sa boshladi. Sal vaqt ichida shoxlari chiyratilib, ovuldagi eng katta qo'chqorga aylandi. Dugishgan paytda ovuldagi barcha qo'chqorlarni yengadigan darajaga yetishdi. Shundan keyin o'tgan qishda ikki to'yga olib borib dugishtirib ko'rdim, barini yengib chiqdi. Shundayam, burungi o'rgangan odat bo'yicha barimiz haligacha uni "yetim qo'zi" deb ataymiz. O'zi shunday bo'larkan, ovulda kichkinaligidan qo'lda saqlagandan keyin o'sha oti bilan atalaveradi. Qo'shnimiz Pardaboy og'aning qartayib qolgan, o'layin deb turgan sur eshagi bor, ovul odamlari uni haligacha "sur kurra" deydi. Anovi Jo'ldosboy otaning qartayib qolgan to'riq oti vaqtida talay-talay to'ylarning ulkan poygasida bosh bayroqni yengib olib yurdi. Shu otning nomini haligacha ovuldagilar "To'riq g'unon" deydi. Sababi, Jo'ldosboy otaning oti toy vaqtida "g'unonbayroq"da o'zib kelib, elga tanilgan ekan. Shu-shu, otning haligacha nomi "to'riq g'unon".

* * *

Salomatning hikoyasidagi "kurra" so'zini tushundim-u, "g'unon"ni tushunmadim, uyatni ham qo'yib so'radim:

— G'unon deganing nima o'zi? G'unonbayrog'i-chi?

[1] **Kalo qilmoq** — o'stirmoq, ulg'aytirmoq *(forsiy so'z)*.

— Yetishgan, chopqir otlar poygada o'zsa, ularga "bosh bayroq" — ya'ni bosh mukofot beriladi, ol endi, hali katta poygalarda chopish uchun yoshlik qiladigan toylar to'planib qolsa, ular ham poygaga qatnashadi, ularga "g'unonbayroq" degan mukofot beriladi. G'unonlarning poygasiga katta yoshdagi otlar qo'shilmaydi, faqat yosh toylar chopishadi.

— Mening otim yosh deb, katta otni qo'shib yuborilsa, nima bo'ladi? Axir yosh otlarning kattalaridan nima farqi bor, bo'yi-turfati bir xil-ku, — dedim.

— Poygani boshqarib yurganlar bunga yo'l qo'ymaydi. Ular otning og'zini ochib tishini ko'radilar, otning tishiga qarab hammasini aniqlashadi.

Men yana hayron qoldim. Bu boradagi barcha savollarga Salomatning javobi tayyor ekanligini sezib, gapni boshqa yoqqa burgim keldi.

— Yetim qo'zini bultur to'yga solgan ekansan, bu yil ham katta qo'chqorlar bilan dugishtirasanmi yo qo'chqordugishda ham "g'unonbayroq" bo'ladimi? — dedim.

— Endi "yetim qo'zini" qishda to'ylarga olib boraman-da, bola qo'chqorlarga solaman, — dedi Salomat.

— Nega? — dedim men tushunmay. — Qo'chqoring kap-katta-ku, nega katta qo'chqorlar bilan urishtirib, bosh bayroqni olmaysan?

— Bo'lmaydi, olib borib, birdan katta qo'chqorlarga solsam, yengilib qolsa — ko'ngli cho'kib qoladi-da. Katta qo'chqorlarga solish uchun uni hali tayyorlash kerak...

Men: "ovul bolalari nimaniyam bilardi" deb, Salomatning yonida o'zimni anchagina bilag'on tutgim kelardi. Hatto achchig'im chiqqan paytlarda uni "yovonskiy" deb kamsitgan vaqtlarim ham bo'lgan. Uning bu gurunglaridan keyin, o'zim bilmaydigan ko'p narsalarni Salomat bilishini, o'sha bilgan, tajribadan o'tkazgan narsalari borasida xuddi katta yoshlilar kabi fikr yuritishini anglab, unga tahsinlar aytgim keldi. Salomatning qiziq-qiziq gurunglarini tinglab, uyga qanday yetkanimizni bilmay qolibman. Shundan keyin men "yetim qo'zini katta qo'chqorlar bilan dugishtirib ko'raylik", deb yalinib, uning iziga tushib oldim. Men yetim qo'zining qanday o'sib, qanchalar kuchli qo'chqor bo'lib yetishganini ko'rib, o'z

ko'nglimda ishonch hosil qilishni xohlardim. Ammo hozir qo'chqor urishtiradigan to'ylar mavsumi emas-da. Paxta hosilini terib olish uchun tayyorgarlik ishlari qizib turgan bir paytda to'y-ma'raka berishga kimam jur'at qila oladi? Shunday qilib deng, paxta tarbiyasi juda avjga chiqqan bosa-bos paytda qaysidir bir ovulda baribir qurli (davrali) to'y bo'ladigan bo'ldi.

9

To'y bo'layotgani haqidagi xabarni eshitgach, mening tinchim yo'qoldi. "Yetim qo'zini davraga solaylik, dugishganini ko'raylik" deb, o'tsam-ketsam Salomatni turtaman. Ammo Salomat mening yalinib-yolvorishlarimga sira ko'nay demasdi. Oxiri, mening janjal qilish darajasida qizarib-hurpayib yurganimni ko'rgan tog'am nima gapligini so'radi. Keyin tog'am ham menga tushuntirgan bo'ldi:

— Po'latjon, jonivorning uvoliga qolasan. Buning gavdasi yirik bo'lgani bilan, hali bosh bayroqqa yoshlik qiladi. Buning raqiblari — suyagi qotgan, nomdor qo'chqorlar. Raqibni ham baholab bilish kerak. Quruq chiranavergan yoki havas qilavergan bilan g'alaba kelavermaydi. Mayli, bu gal bir-ikki marta kalla qo'yib ko'rsin, sen esa diqqat bilan tomosha qilib tur, — dedi mening o'jarligimni hisobga olgan tog'am ruxsat berarkan.

* * *

Qo'chqorlar tanishtirilib, o'rtaga chiqarildi. Otayi[1] qo'chqorbozlarday Salomat ikkimiz "yetim qo'zi"ni qurga yetalab chiqib, bosh ipini yozdirdik. Raqib bo'lib chiqqan narigi qo'chqor ham patli[2] ekan. Ikkalasi ham mukofot uchun emas, jon uchun biroz tashlashdi. Shoxlari bir-birinikiga tekkan paytida naq o't chiqqanday bo'lardi. Bir payt qarasam, bizning qo'chqorning burnidan qon tomchilayotgan ekan. Shu lahzalarda Salomatning "qo'chqor bir yengilsa, ko'ngli qaytib, dugishuvdan cho'chiydigan bo'lib qoladi", degan gapi lop etib xayolimga keldi-da, o'zimni qo'chqorlarning o'rtasiga urdim.

[1] **Otayi** — ota-bobolari qo'chqorboz o'tgan, tajribali degan ma'noda.

[2] **Patli** — harakatchan, baquvvat, kuchli.

— Bo'ldi, bayrog'ingni olaver, — dedim raqib-qo'chqorning egasiga, yetim qo'chqorning bo'ynidan quchoqlab turib. Shunda birovlar "qo'yib yubor, oxirigacha tashlashsin!" deb talab qilsa, boshqa birovlar "to'g'ri qilding, mayirilmay turib, ayirganing yaxshi bo'ladi", deyishdi.

Qo'chqorning burnidan qon tomchilasa, mening ko'zimdan yosh tomchilab o'rtadan chiqdik.

— Po'latjon, xafa bo'lma. To'g'ri qarorga kelding. Qo'chqoring, xudo xohlasa keyingi yili ta'tilga kelganingda bu qo'chqorni yengadi, mana ko'rasan. Bor-ye, shu qo'chqorni senga enchi qilib berganim bo'lsin! — dedi tog'am. Men qo'chqorli bo'lganimga quvonib qoldim.

* * *

Qo'chqorni uyga olib kelganimizdan keyin Salomat uni boshqa qo'raga qamadi. Keyin ikkovimiz ovul chetidagi garaj tomonga ketdik. Garaj sirtida yotgan traktor ballonlaridan ulkan birini tanladik, ikkovlashib zo'rg'a uyga olib keldik.

— Buni nima qilasan? — desam, Salomat negadir jo'nini aytmadi-da, "Keyin bilasan", — dedi-qo'ydi. Ballonni olib kelib qo'raga kiritdi-da, tog'amga bog'latib, osib qo'ydi. Birozdan so'ng qo'ra ichidan "dursillagan ovoz" eshitilaverdi.

— Ana boshladi. Yur, ko'ramiz! — deb, Salomat qo'ra tomonga uchdi, izidan men ham yugurdim. Borsak, ballon chayqalib turibdi, yetim qo'chqor esa ballonga kalla tashlayotgan ekan.

— Ana, aytdim-ku keyin bilasan deb. Qo'chqorning shoxi qichiganida u bilan dugishadigan yana bir qo'chqor kerak. Endi yetim qo'zi shoxi qichiganidan ballonni dugib, chiniqaveradi, — dedi Salomat quvonib. — Endi tushundingmi?

— Otingni to'ydagi poygaga qo'shib ko'rdingmi? — deb so'radim.

— Yo'q, — dedi u. — Poygaga qo'shish uchun hali uni sayislab-parvarishlash kerak. Unga jo'xori, bug'doydan yem, o't uchun beda kerak. Hali ishi ko'p...

Men Salomatning yonida yurib ko'p narsani o'rgandim. Avvallari men to'yga qo'chqorlarni qo'radan olib borib dugishtiravera-

di, otlarni minib boradi-da, musobaqa ro'yxatiga yozilib, poygaga qo'shib yuboraveradi, deb o'ylardim. Yo'q, unaqa emas ekan. Qo'chqor bo'ladimi, otmi, avval uni yaxshilab boqib, parvarishlab, yem-suvini vaqtida berib, musobaqalarga tayyorlash kerak ekan. Xuddi sportchilar qanday sinovlardan o'tib, musobaqalarga tayyorlanib, mashg'ulotlar o'tkazsa, qo'chqor-u otlarni ham xaloyiqning oldiga olib chiqishdan avval ularni shunga tayyorlash kerak ekan. Haytovur, ovullarda qo'chqorlar bor, tulpor otlar bor, nega ularni to'yda dugishuvga, poygaga qo'shavermaydilar desam, ular avvalo mashaqqatli sinovlardan o'tishi, ko'p tayyorgarliklar ko'rishi kerak ekan. Albatta, har bir kasbga shu kasbni sevgan, yaxshi o'rgangan murabbiy-mutaxassislar kerak. Men esa bu tomonini o'ylamas ekanman.

* * *

Ko'z ochib-yumguncha ta'til ham tugab qoldi. Maktablarda o'quv mashg'ulotlari boshlandi. Sinfda bolalar bilan yig'ilib, kim qayerda dam olgani-yu, nimalar ko'rgani haqida, qanday qiziq voqealarga guvoh bo'lgani borasida aytisha boshladik. Men ovulga borganim, Salomatdan nimalar o'rganganimni — otni, qo'chqorni parvarishlash, musobaqalarga qanday tayyorlash haqida gapirib berdim. Ayniqsa yetim qo'zi haqidagi hikoyalarimni sinfdoshlarim jon qulog'i bilan miriqib eshitishdi. Sinfda "endigi ta'tilda men ham tog'amnikiga boraman, dam olishni ovulda — qarindoshlarim orasida o'tkazaman!" — deydiganlar ko'paydi. Men o'zim ham yana ovulni, qishloqdagi ishchan, sodda, qiziquvchan, futbolchi jo'ralarimni sog'ina boshladim. "Tezroq qishgi, bahorgi ta'tillar boshlansa-yu, qani endi men yana tog'amlarning uyida, Salomatning yonida paydo bo'lib qolsam", deb orzu qiladigan bo'lib qoldim. Endigi borganimda albatta ot parvarishlash ishlarini yaxshilab o'rganaman. Qo'ylar qo'zilaydigan davrda cho'ponlarning yonida yuraman. Eh, mazza bo'ladi-da o'ziyam! Ayniqsa ko'k qo'chqorimni yaxshilab tayyorlab, dugishuvlarda endi yengilmaydigan qilib o'rgataman. Tog'amning, Salomatning aytganini to'lato'kis bajaraman. Hovva, mening yetim qo'zim eng zo'r qo'chqor bo'lib yetishadi!

Fazu SHERJONOVA

QOPQON YASOVCHI

(Hikoya)

Parixon — ovulning sodda, ko'nglida zarra dog'i yo'q, chechan, samimiy, qalbi pok qizlaridan biri. Ishga kelganda juda ishchan, epchil, g'aybar, qaysarligi ham bor qiz edi. Ayrim qizlarga xos jilva-nozga ega bo'lishiga qaramay, muloyim, o'zi did bilan kiyinavermasa ham, lekin ishda tajriba to'plab kelayapti, necha turli rahbarlar bilan ishlab ham ulgurdi. Qog'oz to'ldirish, hujjat yozishga qalami otday yuguradi. Kasbdoshlari yuqoriga yo'llanadigan ayrim muhim hujjatlarni, yig'ilishlarda o'qiladigan ma'ruzalarni aynan Parixonga bir ko'rsatib oladi. O'zi tuman miqyosida boshqaruv mahkamasida ishlab yurganiga ham besh-olti yilning yuzi bo'lib qoldi. Buni unga eslatgan bo'lim boshlig'i Boykeldiyeva bo'ldi. O'shandan boshlab Boykeldiyeva ham "Bizning Parixonga loyiq yigit topish kerak, uzatiladigan vaqti bo'lib qoldi" degan gapni takrorlaydigan bo'ldi.

Boykeldiyeva bu bo'limga rahbar bo'lib kelganigayam ko'p bo'lgani yo'q. Yoshi elliklarni qoralab qolgan bo'lsa-da, yuzida qilday ajin yo'q, yoqqa bo'ktirilgan bug'doyday yip-yiltir, to'ladan kelgan, yirik tanali, oqbo'zdoq bu ayolning ichi qoraligini, ikki yuzlamachi, makkoraligini oz-moz payqaganday edi. Lekin bunchalikdir deb o'ylamagandi. "Yuqori lavozimdagilarning" ichi-bag'riga kirib, tilyog'lamalik bilan jo'gisirovga usta ayol ekan. Ol, o'zidan past amaldagilarni chivinchalik ham ko'rmaydi. Lavozimidan foydalanib, yuho nahangday har bir ishdan o'ziga bir foyda ko'zlaydi, topadi ham, xullas qulay fursat poylab yurgani-yurgan. Ketvorgan amalparast, dunyoparast, shuhratparast. Muhtojlikdan oldiga dilgir bo'lib kelib turgan arizago'ylarning gapini eshitkisiyam kelmaydi. Doimo Parixonga "meni yo'q deb ayt, bugun qabul kuni emas de" deb, oldiga yo'latmaydi. O'zi esa o'rindiqni sindirib yuborguday bo'lib yastanib, to'nkarilib qolgan qozonday qornini ushlab

chalqaygancha telefonda anov gashtakdoshlari, qarindosh-u kursdoshlari bilan g'iybat daryosiga sho'ng'iydi...

Bir gal Parixon muhim bir hujjatga qo'l qo'ydirib olish uchun Boykeldiyevaning uyigacha izlab borishga to'g'ri keldi. Opa kichik o'g'lining talaba bo'lganligini nishonlayotgan ekan. Gashtakchi dugonalarning o'tirishi ancha qizigan. So'zlayotgan Boykeldiyevaning o'zi bo'lgandan keyin ancha vaqt kutib turishga to'g'ri keldi. Parixonning o'shanda payqagani — mehmonlar turli sohalarning kazo-kazolari: biri shifoxonaning atoqli hakimi (opaning qizi medinstitutni bitirishga ozgina qolib turibdi, shuning uchun bu shifokor bilan bordi-keldini kuchaytirayotgan bo'lishi kerak), yana biri — foiz o'simiga mablag' beradigan bankning xodimi, qolganlariyam yaqin orada ishi tushadigan yoki burundan ishi tushib yurgan tanishlari... Nima bo'lsayam, Boykeldiyeva kimlarni mehmonga chaqirishni biladi. Uyiga foydasi tegadigan odamlarni chaqirib, ishlarini bitirib olishga usta ekan. Bu yerda ham:

— Bir yigit topish kerak! — deb, qizni g'alati ahvolga solib qo'ydi. Parixonning ikki yuzi qizarib-lovullab ketdi. Shu so'zni eshitgandan boshi g'uvullab, arining uyasiday bo'lib ketadigan bo'lgan. Go'yoki "menga yigit topib beringlar..." deb qo'ygan, boshlig'i esa endi to'g'ri kelgan yerda bu masalani to'tiqushday sayrab yuribdi-yu, ish hal bo'lmayapti.

Aslida-ku Boykeldiyeva bu so'zni bekorga qayta-qayta aytayotgani yo'q. Qalay bo'lmasin, qizni ishdan haydashning rejalashtirilgan bir yo'li — mana shu "er topib berish..." edi. Parixonning hech kimdan hayiqmasdan haqiqatni aytib soladigan odati bor. Rahbar opa bilan shuning uchun ham gapi qovushavermaydi. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, ish bobida rahbarga nima qilish kerakligi haqida o'rgatishga ham to'g'ri kelgan. Tortishib qolgan paytlari ham bor. Shu paytgacha birov yel bo'lib yuziga tegib ko'rmagan Boykeldiyeva buni ko'tarsinmi? Yana deng, so'nggi paytlarda vazirlik yig'ilishlarida mana shu yosh kadrning nomi tilga olinib, boshqalarga ibrat-namuna qilib ko'rsatiladigan bo'ldi-yu, buni Boykeldiyeva yaxshilik alomati emas deb tushundi va aynan mana shu "yosh kadr"dan tezroq qutulish yo'llarini izlay boshladi. "Yigit topib berish..." haqidagi gap mana shu boradagi eng qulay reja

bo'lib tuyuldi. Hammasi silliq ketayapdi-yu, lekin tan olish kerak, shu qiz bo'lmasa, bo'limning ishlari anchagina ortda qolishi, ko'p ishlar o'lda-jo'lda, chala-yarim bo'lib qolishi ham bor-da, Boykeldiyevani mana shu masala qiynab turibdi. Parixon bo'lsa bo'limdagi ishlarni, vazirlikdan kelgan topshiriqlarni Boykeldiyevaning yelkasini ham qimirlatmasdan o'zi bajarib qo'yadi. Rahbar faqat yig'ilishlarga borib, o'zini ko'rsatib, qatnashib kelsa bo'ldi, qolgan ishlarni Parixonning o'zi do'ndirib, qatiqday uyutib qo'yadi, bunga so'z keltirmaydigan qilib qotiradi. Xullas, bu bo'limning "miyasi" — mana shu Parixon. Yig'ilishlarda aytadigan gapigacha tayyorlab, kerakli ma'lumotlarni ham joy-joyiga qo'yib, faqatgina "chaynab-yutish"nigina Boykeldiyevaning ixtiyoriga havola qilib qo'yadiki, rahbarlar bunday xodimni endi qayerdan ham topsin? Parixon bo'lsa haliyam Boykeldiyevaning asl maqsadini anglab yetolmay, ishda chopqillab yuribdi. Boykeldiyeva hozircha mahkamaga kelganlarga buni "eshakka ters mindirib" yomonlab, hovrini chiqarib yuribdi. Axir hozirgi zamonda birovni otsiz-oyoqsiz ishdan haydab yuborish ham oson emas-da. Boykeldiyeva mana shunday "muhim" ishlar bilan boshi qotib yurganida, o'ziga bo'lgan bir qo'ng'iroqqa o'ylanib o'tirmasdan kelishim berib yubordi. O'sha kelishimning o'zi bir insonning kelajagini ostin-ustun qilib yuborishini, og'ir musibatlarga sabab bo'lishini o'ylab ham o'tirmadi...

Bundan ikki yillar avval Parixondan umidvor bo'lib, uchrashuvlarga chorlab, keyinchalik esa, qiz tomon rozi bo'lmagach, umidi puchga chiqqan Davlat ismli yigit yaqinda yana bularning mahkamasi atrofida o'ralashib qoldi. Bu gal endi yigit Parixonning soyasiga aylandi. Qayerga bormoqchi bo'lsa, bundan oldin borib turadi. Eng hayron qoladigan yeri — Davlat hamma ishdan xabardor — Parixon qay tomonga yurishi, necha soatda yetib borishi, qachon qaytishi, barcha-barchasi xuddi qog'ozga yozilganday Davlatning qo'lida. Yig'ilishga boradimi, ishdan chiqadimi — Davlatning qo'ng'ir mashinasi mahkamaning oldida tayyor turgan bo'ladi. Buning hamma ishdan xabardorligini, "taxt bo'lib, tayyor turishlar" tekin emasligini sezgan Parixon endi har qadamini o'ylab bosadigan bo'ldi, har holda ehtiyot bo'lgan yaxshi-da. Yumushdan qaytadigan, biror yerga borib keladigan paytlari iloji boricha bir

o‘zi yurmaslikka, biror ishdoshi yoki dugonasi bilan birga bo‘lishga harakat qiladigan bo‘ldi.

Bir kuni boshlig‘i buni maxsus topshiriq bilan yuborganida yo‘l ustida yana Davlat osmondan tushganday paydo bo‘ldi-da, o‘ziga o‘xshagan dapang ikki yigit bilan ship-ship yurib kelib, Parixonni ikki buklab bir oq mashinaning ichiga tiqib yubordi. Parixon yo‘l bo‘yi asov otday sapchib, chayqashib bordi, “meni zo‘rlab olib qochganingiz uchun ustingizdan arz qilaman!” — deb borgan xonadondagilarni ancha durliktirib (hovliqtirib) yubordi. Aslida esa baloning bari Boykeldiyevadan chiqqan ekan, ko‘pchilik orasidan jilmanglab chiqib, mashina tomon kelayotgan boshliqni ko‘rganida Parixon aytar gaplarini ichiga yutib, og‘zi ochilib qoldi!

— Yur, mashinadan tusha qol, aylanayin, — deb qulog‘iga shivirladi shaytoniy ovoz. — Men bor yerda senga tegadigan yov yo‘q. Faqat endi atrofdagilarni qo‘rqitavermay, shovqin bosilguncha manov uyning ichida o‘tira turaylik...

Parixon ham rahbarining so‘zlariga laqqa tushdi-da, mashinadan chiqdi. “Yonimda Guloyim Boykeldiyevaday qo‘rg‘onim bor-ku, endi menga kim tegardi?” degan ishonch paydo bo‘ldi. Shular ustiga tashqaridan ayollar (yangalari ekan) kirib kelishdi. “Sen shu yerda o‘tira tur...” deb, Boykeldiyeva dahlizga chiqib haligi yangalar bilan allanimalar haqida shivirlashib-gaplashib oldi. Ayollar nimalarnidir o‘zaro kelishib oldi shekilli, bir-birini ma’qullashib, ular ham g‘oyib bo‘lishdi. Shundan keyin uyda odam siyraklashib qoldi, suv sepilgan cho‘g‘day atrofda shovqin bosildi. Kelganlar ham mushuk kabi jim-pusib qadam bosar, shivir-shivir gaplashib, darrov chiqib ketardi. Shundan keyin Boykeldiyeva ham chala ko‘ringan tushday g‘oyib bo‘ldi. Yangalar deb aytilayotgan ayollar buni qo‘riqlash o‘rniga, o‘rtaga olishib, “boshlig‘ing aralashgan yer yomon bo‘lmas, anov-manov emas, javobgarligi qattiq bo‘lgan mansabda o‘tirgan rahbarlardan biri ekan, jin uribdimi seni yomon yigitga chatashtirib, yana, o‘zingning gaplashib, yaxshi ko‘rishib yurgan yigiting ekan-u!” deyishib, miyasini qurt kabi yeb-yeb, hay-payga qaramay, bular ham Parixonni tashlab ketdi-da, qoldi.

Parixon zor yig'lab xonada bir o'zi qolaverdi. Xudoning manglayga yozgani shu ekanmi, har doim sergak yuradigan, aql bilan ish ko'radigan qiz nimalar bo'layotganini o'zi ham anglamay shu uyda qolib qo'ydi. Birozdan so'ng xonaga kirib kelgan Davlat Parixonga bir turli tamshanib qarab, sichqon topolmay yurgan mushukday ha demayoq bunga tashlanib, "senga yetishadigan kunlar ham bor ekan-ku, jonim!" deb, buning gavdasiga pechakday chirmashib oldi...

Parixon tush ko'rayotganday edi. Ikki ayolni tashlab ketgan, oila degan muqaddas ittifoqning nimaligini his ham qilmaydigan yengilminaz, ko'rsaxumor Davlat shu tariqa Parixonni egalladi...

Oradan yetti kun o'tib, Parixon ishga aralasha boshladi. "Ro'mollaring qutli bo'lsin, o'ng bo'lsin" deb muborakbod qilganlarga u og'zi kamsanglab (qimirlab) hech narsa deyolmay qolar, o'zini yig'idan tutib, zo'rg'a bir narsalar degan bo'lib, panaga qochib qolardi. G'aybar qizning shiddati, shaddodligi endi bosilib qolgan, xayoli parishon, ishda faqat suldari u yoqdan bu yoqqa borib kelardi, xolos. Ko'pchilik uning Davlatga turmushga chiqqaniga hayron qolib, biroz vaqtgacha gap-so'z qilib, taxminlarini yoyib-yig'ishtirib yurdi. Guloyim Boykeldiyevaning o'zi bu voqeaga aralashganini eshitgan ayrimlar bir narsalarni anglaganday bo'lib, bosh chayqab qolishdi... "Parixonni ovloq yerga chiqarib bersang, bosh-oyoq sarpo-yu, yangi modadagi siypalama telefon mendan..." degan so'zga bir qizning umrini sotib yuborgan qopqon yasovchi ustaning basharasi ancha vaqtgacha maxfiy qoldi, buyog'ini hech kim so'rab-surishtirmadiyam...

* * *

Parixon ancha vaqtlargacha hayotidagi bu xil o'zgarishlarga ko'nikolmay yurdi. Birinchidan, Davlatni o'ziga loyiq ko'rmasdi, "qaysi gunohlarim uchun shunday taqdirni manglayimga yozding?!" deb kuyib-pishar, so'ng noshukurligidan izza chekib, endi tan berish kerakligini bo'yinga olar, keyin esa yana kimlarningdir qo'lida o'yinchoq bo'lib qolganligidan oh chekar, dudi osmonga ko'tarilar edi. Axir, ikki ayoldan voz kechib ketgan yengiltabiat yigitga qaysi qizning ko'ngli isisin?! Qolaversa, tushgan

uyi ham shahardan ancha uzoqda joylashgan... ishga qatnashning mashaqqatlarini aytmasa ham bo‘lar...

“Vaqt hamma narsaga em...” Lekin Parixonning yangi sharoitlarga o‘rganib ketishi ancha qiyin kechayotir. Endiyam taqdirga tan berib yashayverishi kerakligi o‘ziga ham, Yaratganga ham xush kelmasligi aniq edi. U avvalo asta-sekinlik, asta-sekinlik bilan qo‘lga o‘rgatilgan otday o‘zini bosib oldi, eplab kuyoviga yonbosadigan bo‘ldi, yuziga qaragisi kelmasa ham uni siylashga, izzat-hurmat qilishga urinib ko‘rdi. Nima qilsin, ko‘ngil sevmasa qiyin ekan, Parixon unga yetarlicha mehr-muhabbat berolmas ekan. Tashqaridan ko‘rganlarga er-xotinday bo‘lib ko‘rinish oson-u, ammo ichkariga kirgach... erining yuziga qaragisi kelmaydi. Ancha paytgacha, “Vaqt o‘taversa, ko‘nikib ketarman”, deb yurdi. Keyin esa “buyam inson-ku, bir kuni suyuqoyoqligi pand berar, jonigayam tegar, yana ozroq chidayin, odam bo‘lib ketar...” dedi. “Yengiloyoq yurishidan tiyilsa, to‘shagini haromga bulg‘amasa, bir erni yo‘lga solarmanov”, deb ham kutdi.

“Yengiloyoq”, “buzuqi” deganday, Davlatning o‘zi avvaldan shu yo‘lni tanlagan ekan, necha-necha qiz-juvonlarni ovuldan shaharga, shahardan ovulga olib kelib yurib, ko‘plarining ko‘zlaridan daryo-daryo yoshlarni oqizib ketgan ekan — bularni Parixon so‘ng eshitdi. Umrida ko‘z ochib ko‘rgani shu Davlat ekanligidan, uni oilaga qaraydigan, “haromdan hazar qiladigan” mo‘min erkakka aylantirishning turli yo‘llarini mahkam tutib, yashamoqchi bo‘layotgan ayol bu borada ne-ne azob-u mashaqqatlarni boshdan o‘tkazmadi?! Vaqt o‘tgani sayin, ayniqsa, homilador bo‘lganini sezgandan keyin qalbida qotib qolgan muz asta eriy boshlaganday edi. Vujudidagi kichkinagina yurakning urib turgan sastini eshitganida endi faqat shu mitti bolasi uchun yashashi lozimligini his qildi...

Shunday deymiz-u... “jin urganning julligi ketmas”, deganlariday, Davlat ham atigi to‘rt oyning ichida Parixondan sovigan o‘choqday tez ko‘ngli qaytib, ko‘chadagi qiz-kelinchaklarga nazari og‘a boshladi. Shuni sezganday, Parixondan oldingi Ziyoda degan kelinchak o‘zining bor go‘zalligini, jozibasini ishga solib, Davlatni yana o‘ziga og‘dirib olish harakatlarini boshlab yuborgan

edi. Vaqtida u ham Davlatni mensimagan, doim o'ziga dilgir qilib, yalintirgisi kelgan, oxir-oqibatda erini o'zidan bezor qilib olgan edi. Endi esa bor hiylasi bilan kulib gapirib, nozli-nozli, yoqimli qiliqlar bilan yana Davlatni to'rga ilintirish orzusida emish. Maqsadi — Davlat bilan ajrashib ketganda ham, uni hech kimga bermoqchi emas! Mayli, Davlat so'qqabosh bo'lib yashasa yashasinki, mayli, o'zi bilan ham ishrat surmasa surmas-u, lekin uning boshqa xotin bilan oila qurib, bola-chaqa qilib ketishi Ziyodaning kuyukday qop-qora ko'ngliga hecham to'g'ri kelmaydigan ish, bunisini Ziyoda ko'tara olmaydi, tamom-vassalom! Shuning uchun ham u Davlatning hozirgi xotinidan qoyilmaqom o'ch olmoqchi, to ikki o'rtada tikan bo'lib ko'karmaguncha joni joy topmaydi.

— Suyukli xotining kim ko'rsinga yig'lab, "meni zo'rlab olib qochdi, hech ko'nglim suymaydi", deb gap tarqatib yurgan emish-ku, — dedi bir ko'rishganda u Davlatga. — Uning mendan nimasi ortiq ekan, ajabo! Unday desak, Parixonni o'sha yig'loqingni boshliqlariyam yoqtirmas ekan. Barini eshitib yuribman. Boykeldiyevani men yaxshi taniyman, bizlarga uzoqroqdan og'ayinchiligi bor. Qulay payt kelganida Parixonning pattasini qo'liga tutqazaman, deb yuribdi... Yana darhol sal vaqtning ichida sendan homilali bo'lib olganiga qara buning. O'zing bilasan, Gulpara sen bilan yetti yil yashab qursoq ko'tara olmadi, manovi olib kelganing bir yil ichida qalay qursoq ko'tardi? Sira, o'zing o'ylanib ko'r! Mening nima balom bor ediki, meniyam haydab yubording. Xudoga shukur, tanim-sog'lig'im yaxshi... Umringda necha turli xotinlarni ko'rgansan, biroq shularning birontasi sendan yukli bo'ldimi? Eslay olasanmi? Ko'nglingga kelmasin, Davlat, uning sendan qalay qilib yukli bo'lganini bir o'ylab ko'r...

Shunday qilib, Davlatning avvalgi ayoli ham erining hamiyatini qo'zg'aydigan gaplar aytaverdi, Parixonga qarshi sobiq erini qayrayverdi, bu yo'lda hech narsadan — g'iybatdan, bo'htondan, o'shakdan, yolg'ondan toymadi. Yana, bu xotin erkaklarning nozik gaplar tegadigan joylarini ham yaxshi o'rgangan ekan shekilli, makkorlik qilib, yigitni ayoldan ozdiradigan, o'ziga esa e'tiborni kuchaytiradigan qiliqlardan ham qochmadi. Shu maqsadlar yo'lida bor hiylalarini ishga soldi. Davlat esa uning uchun jon berishga

tayyor holatga yetib keldi. Aksiga olibmi, shu kunlarda Parixonning jerigi og'irlov kelib, yuragi ayniydigan, o'qchib o'tirib qoladigan, o'laksa mushukday bo'lib yurishi Davlatga hech yoqmayotgan edi. Unga qaraganda Ziyoda qora ko'zlari jon olguday o'tkir, joduli, qomat-badanlari oppoq bo'lib tuyulardi. Ol, Parixonda hozir nima bor, na erkakni o'ziga tortuvchi joziba, na go'zallik qolgan, qaddi-bo'yi ham goh egilib, goh kekkayib turganga o'xshaydi. Endi esa obdan jozibasi ham qochdi yo erkalanib, yo boshqa qilib, ayolligini ko'z-ko'z qilishni ham bilmaydi.

Xullas, Parixonning Davlatga bo'lgan salqin munosabatidan foydalangan Ziyoda turli-tuman hiylalarni, makkorona ishlarni o'ylab topaverdi, o'ylab topganlarini ishga oshirishga erinmadi. Davlatda ham Parixonga nisbatan ilgarigi yaxshi so'zlar qolmagan, u allaqachon Ziyoda qurgan chirmoviq qopqonga tushib qolgan, endi u xotinini quchoqlab bag'riga bosmas, uyga yarim kechada kelgan paytlari Parixonni jerkib, o'zidan nariga haydaydigan yo tutib olib do'pposlaydigan bo'lib qolgan edi. Bunday ko'ngilsiz voqealar, tepki-yu do'pposlashlar o'z ta'sirini tekkizmay qolmas ekan. Oradan ko'p o'tmayoq Parixonning goh issig'i ko'tarilib, goh vujudi muzday sovuq terga botib, dirillab sovuqqa qotadigan bo'lib qoldi. Birpasda ko'z oldi qorong'ilashadi-da, atrof chirpirak bo'lib aylana boshlaydi. Qornining past qismida turgan og'riqqa-ku chidab bo'ladigan emas...

Doktorlarga ko'ringan edi, shifokorlar mudhish xabar aytib, zudlik bilan davolashga kirishdilar. Parixon hayotidagi eng ulug' orzusi — homilasidan ayrilgan edi.

Xudoga shukur, kasbdoshlari, jamoasi ichida hanuz obro'yi baland ekan, uni yaxshi ko'rishar, noyob qobiliyatli mutaxassis sifatida hurmat qilishardi. Ammo Boykeldiyevani gapdan, so'zdan to'xtatib bo'lmadi. Qayerda bo'lmasin, ko'pchilikning o'rtasida bo'lsa ham Parixonni bir cho'qilab olmasa, ko'ngli joyiga tushmasdi. Tushiga ham kirmagan gaplarni aytib, bunga ayb yuklashni kanda qilmasdi:

— Sen shu yumushni deb, gulday oilangdan, kuyovingdan ajralmoqchimisan? Ish bo'lsa topilar, shang'arog'ingni[1] xo'rla-

[1] **Shang'aroq** — oila ma'nosida.

ma. Menga Davlat qo'ng'iroq qilib, seni kimlar bilan yuradi, deb so'rayotir. Sening hiylagar qiliqlaring borligini bilmas ekanman. Senday odamlar bu mahkamaga to'g'ri kelmaydi. Xizmat joyingda tinch yur, menga gap keltirma!

Bunisi endi tuhmatlar to'plamasi edi. Parixon bu tuhmatlarga chidayolmay yig'lab yubordi.

— Guloyim opa, o'zingizning uyingizda ham qiz bor, farzand o'stiryapsiz, ehtiyot bo'ling, anig'ini bilmasdan meni tuhmat-u mish-mishga olib borib tiqmang! — dedi hiqillab. Guloyimga uning ko'z yoshlari zarrachayam ta'sir etmadi.

— Manov ishdagi erkaklarning endi senga xayoli buzilib yurar. Qadamingni o'ylab bos deyman-da. Anov-manov gap chiqsa, bilib qo'y, endi ayab o'tirmayman! — Shunday dedi-yu, eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdi.

Bunaqa iflos va tuhmat gaplarni eshitib ko'rmagan Parixon kuzgi yaproqday qaltirab ketdi. Boshlig'ini shunday xayolga boradi deb hech o'ylamagan edi. Ammo bunisi hali holva ekan.

Bo'limga tekshiruv guruhi kelganda, Parixon hujjatlarni ko'rsatib, yugurib yurdi. Bir payt Guloyim:

— Parixon, anov kabinetda o'tirgan og'angga choy damlab oborib ber, — dedi ish buyurib.

Parixon oyog'ini qo'lga olib, yugurib-yelib yurib, kabinetga choy olib bordi. Shunda to'rda kresloda zerikib o'tirgan komissiya tarkibidagi bir og'ay unga suqlanib qarab bosh-oyoq ko'z yugurtirib:

— Nega qulog'ingga ko'k sirg'a taqib yuribsan, qoraqalpoqlarning milliy sirg'alaridan taqmaysanmi? — dedi dap-durustdan.

Parixon uning qulaysiz bergan savolidan bir cho'chib tushdi-yu, lekin e'tibor bermaslikka tirishdi.

— Ha-ya, qoraqalpoqning milliy sirg'alaridan ham taqamiz, — deb, xonadan chiqib ketdi. Bo'lgani shu.

Oradan ikki kun o'tgach, Boykeldiyeva yana xonaga xo'mrayib kirdi.

— Kecha kelgan komissiya a'zolaridan biri, qizlarimiz nega yarashmagan chetning sirg'alaridan taqib yuribdi, deb menga aytib ketdi. Qulog'ingdagi sirg'ani u qayerdan ko'rib yuribdi, hayron-

man. (U o'zining choy olib borish haqidagi gapini unutib yuborgan, shekilli.) Kelgan komissiyalarning ham ko'nglini olmoqchi bo'ldingmi?

Bu savol hamma chek-chegaradan o'tib ketgan edi.

— O'zingiz-ku choy oborib ber, degan. O'shanda ko'rgandir balki, siz bunchalik yomon o'ylarga bormang, — dedi Parixon sabrlilik bilan.

— Men sening qulog'ingga qanaqa sirg'a taqishingni erkaklardan eshitadigan bo'ldim endi, — dedi Boykeldiyeva qoshlarini chimirib.

— Men bu yerda olti yildan beri na ishimga, na nomimga dog' tushirmay ishlab kelayotirman! Biror-bir odamning men haqimda noto'g'ri so'z aytganini eshitganim yo'q edi. Tek mening umrimni xazon qilgan Davlat, unga meni oborib qo'shgan odamlargina shunday ters o'yda bo'lishlari mumkin. Men sizdan er topib ber deb so'ragan edimmi?! Nega meni Davlatga olib borib qo'shdingiz?! O'sha kuni meni aldab ketib qoldingiz! Agar siz shunday iflos yo'llar bilan ko'ylak kiyishni o'ylasangiz, men o'zimoq halol pulimdan olib berar edim-ku! Bittasini emas, o'ntasini olib berardim, bunaqa iflos xayollarni boshingizda ko'tarib yurguningizcha! Siz mening umrimning xazon bo'lishiga sababchisiz! Nega Davlatga yo'liqtirding meni?! Sening ham o'g'ling bor, qizing borku, mening qilg'iliklarim shularga qaytarov deb o'ylamaysanmi, axir?! Erkaklarning xayoli buzilar emish, erkaklarning xayolini senga o'xshagan qilig'i, xayoli buzuqlar buzadi! — deb, Parixon mahkamani boshiga ko'tarib yig'lab yubordi. Bunday so'zlarni kutmagan Guloyim Boykeldiyeva dastlab nima aytishini bilmay, qizarib turdi, tomog'ini birov bo'g'ib turganday, gapi chiqmadi. So'ng Parixonning achchiq-tizziq gaplaridan qo'rqqanday quloqlarini berkitib, xonadan otilib chiqib ketdi. Parixonning jin urganday qattiq ovozi, goh qarg'ab, goh nola chekib qilgan oh-faryodlari tinavermagandan keyin Boykeldiyevaning o'zi qaytib kelib, uni yupata boshladi. Uning bolalarcha, yuksak artistlik mahorati bilan kechirim so'rashi, Parixonni tinchlantirish uchun aytgan gaplari, aylanib-o'rgilishlari hamma-hammaning ham qo'lidan kelavermas ekan, Parixon ham umrida aytib ko'rmagan gaplarini tilga olgani

uchunmi, birpasda tinchib, tim-tirs bo'lib qoldi. Ammo bo'lar ish bo'lgan, bo'yoqlar singan edi — Boykeldiyevaning yaramasliklari jamoa ichida oshkorlanib, hamma bilib oldi.

Parixon ertasiga ishga kelsa, bir qiz uning o'rnini so'rab kelib o'tirgan ekan.

— Sizni bu yerdan ketyapdi, deyishgan edi-ku. Men sizning mutaxassisligingiz bo'yicha ish so'rab kelib o'tiribman, — dedi ochiqdan ochiq.

Shu orada Guloyim ham xonaga bosh suqdi.

— Parixon, yur, kabinetga kirib ket, — dedi muloyimlik bilan yaltoqlanib. — Kechagi gaplaringdan keyin endi bu yerda birga ishlasha olmasligimizni bilgan chiqarsan?

— Meni nega ishdan asossiz bo'shatayotirsiz? — tikilib so'radi achchig'ini zo'rg'a bosib.

— Mayli, boshqa ish topguningcha ishlab tura qol. Biroq ko'proq ishlashingga ruxsat berolmayman. O'zingning xabaring bor, sen haqda turli xil gaplar chiqib turibdi. Bunaqada biz bilan ishlashing umuman mumkin emas.

— Mayli, arizamni yozaman, ishning ham iloji topilar. Men ham endi siz bilan ishlashni xohlamayman, — dedi Parixon.

"O'z xohishim bo'yicha..." degan so'z Boykeldiyevaning nazarida yengil ko'ringani bilan, negadir Parixonning xo'rligi keldi. O'zini shu paytgacha bunchalik omadsiz yo baxtsiz his qilmagan edi. Qo'lida ikki diplomi bor, qayerga borsayam, uning uchun ish topilishi aniq. Biroq manovi ustasi farang qopqon yasovchi yana qachongacha emin-erkin yuraverajak? O'zidan keyin shu olg'ir-yaramas ayol bilan birga ishlashib qoladigan kasbdoshlariga chin dildan yuragi achidi.

Odamni dunyoda nohaqlik o'ti kuydirmasin, qiynamasin ekan. Odam tanimagani, soddadilligi tufayli bu o'tga bir tushib qolgan Parixon birato'la lovullab yonib ketishiga sal qoldi...

Mojaroning qiziqlari shundan keyin chiqa boshladi. Parixon ora-orada kasbdosh dugonalari bilan qo'ng'iroqlashib turardi. Ularning aytishlariga qaraganda, Boykeldiyevaning avvalgi ishxonasida yo'l qo'yilgan yulg'ichlik, davlat mablag'ini talon-taroj qilish, soxta hujjatlar to'ldirish kabi qonunga xilof ishlar ma'lum bo'lib

qolgan, Boykeldiyeva ham shu ishlarning boshida turgani uchun so‘roq berishga ketma-ket ravishda chaqirilayotgan emish. Bu savol-javoblar maxsus organ xodimlari tomonidan olib borilayotgan emish. Xullas Boykeldiyevaning jinoyatlari bir chekkadan oshkora bo‘la boshlagan, hozirgi mahkamani boshqarishdagi ishlari ham tekshir-tekshirga tushib, o‘zi esa davlat mablag‘larini muntazam ravishda o‘zlashtirib kelganlikda ayblanib, so‘roq berib yotgan emish...

Umr deganlari insonga bir marta beriladi. Bu yo‘lda birovlar bilib-bilmay xatoga yo‘l qo‘yib oladi, ayrimlar esa o‘zi munosib ko‘rilgan lavozim-mansabni mangulik deb biladimi, o‘rgangan ko‘ngil o‘rtangani uchunmi, jinoyat ustiga yangi-yangi jinoyatlarni o‘ylab topaveradi. Nafs hakalak otib ketsa, uni yengish qiyin. Buniyam bilgan biladi, bilmagan esa...

Boykeldiyevaning kabineti hamon bo‘sh turgan emish. Vazirlikda “rahbar o‘rinlarga ishbilarmon yoshlardan qo‘yilsin, yoshlarni ko‘taringlar” degan gaplar bo‘layotgan emish. Xullas, shunaqa gaplar...

Aytganday, shu orada Parixonga vazirlikdan ham qo‘ng‘iroq qilishdi, “kep keting, siz bilan vazir gaplashmoqchi” degan ma’noda.

Nima gapligi Parixon borgandan keyin ma’lum bo‘lib qolar...

Qumar BEGNIYAZOVA

ENDI KETMAYMAN

(Hikoya)

Endigina besh yoshni qarshilagan Nursuluvning dugonalari bilan o'yinlari ayni qizig'iga berilgan vaqti edi. "Uy-uy" o'ynashga kirishgan qizchalar qo'g'irchoqlarini ko'tarishib, bir-birlarini uyga — mehmon-mehmonga chaqirib, qo'g'irchoqlarini xuddi chaqaloq ko'targanday ko'tarib kelmoqdalar. Xuddi jo'jalar kabi chug'ur-chug'ur qilishib, o'zlariga tikilib turgan ko'zlarni qizaloqlar payqamaydiyam. Nursuluv Gulzorning uyiga borishga taraddud ko'rmoqda.

— Bezanib, chiroyli bo'lib bormasak, ular bizlarni odobsiz-tartibsiz deb o'ylaydi. Shuning uchun o'zimizga qarab, yasanib boramiz. — Nursuluv xuddi qo'g'irchog'i gapga tushunganday nasihat qilib, aql bera boshladi. — Senga qaysi ko'ylagingni kiydirsam ekan? Haa, manovi qizil ko'ylagingni kiya qol. Shunisi juda yarashadi. Men-chi, men qaysi ko'ylagimni kiysam ekan? Ustimdagi ko'ylagimning o'zi yaxshi-ku. Qolaversa, menga kim ham qaraydi? — Qizning do'ngalak ko'zlarini yosh qopladi. — Buni og'am (otam) tug'ilgan kunimga sovg'a qilgan edi.

Qizning ko'zidan bir tomchi yosh yerga dumaladi.

Boyadan beri qizaloqlardan ko'zini uzmay tomoshalab-kuzatib turgan Azamatning rangi birdan o'zgardi. Yuragi alg'ov-dalg'ovlab ketdi. O'zini zo'rg'a bosib olib, ko'zlariga quyilgan yoshni barmoqlari bilan artib-artib, tentiraklaganicha oyog'ini zo'rg'a bosib olg'a yurdi. Ikki-uch qadam bosar-bosmas "Og'a! Og'a!" degan tovush titratib yubordi. Ortiga aylanmayin desa, otalik mehri yuragidan toshib chiqmoqchiday bo'ldi. Qaramayman desa, vijdon qurg'ur yo'l qo'ymoqchi emas. Yugurib kelib, yopishqoq kanaday quchoqlagan qizini qalay qo'liga ko'targanini o'zi bilmay qoldi. Yuzlariga qovunning shirasi yopishib-qotib qolgan Nursuluvning yuzlaridan qayta-qayta suydi, bag'riga bosdi.

— Og'a, tez kelaman degan edingiz-ku. Nimaga kechikdingiz? Sizni juda sog'indim! — dedi qizaloq otasining bo'ynidan quchib.

— Mana, keldim-ku. Senga dim chiroyli ko'ylak topaman deb yurib kechikdim-da.

— Topdingizmi? Ustimdagidan ham suluv ekanmi? Unday bo'lsa, meni yomon ko'rishingiz yolg'on ekan-da!

Azamat qizidan bunday gapni eshitaman deb o'ylamagan edi.

Nursuluv baribir bolaligiga bordi.

— Kumushoy ajapam (opam) aytdi. Uning aytishicha, siz bizlarni yomon ko'rar emishsiz, shuning uchun tashlab ketgan ekansiz. Aytmoqchi, bizlardan boshqayam bolangiz bormi?

Qizining gapi Azamatning yurak-yuragini tilimlab tashlaganday bo'ldi.

— Qo'rqmang, og'a. Men ishonmayman. Bizdan boshqa bolangiz yo'q. Ajapam esa sizni mendan qizg'anaveradi. Bo'lmasa, shunday deb aytarmidi?

Nursuluv lablarini cho'chchaytirdi. Yo'l bo'yi chuldur-chuldur so'ylab kelayotir. Og'asining qanday ahvolda ekanligi bilan ishiyam yo'q. Uyiga yaqinlashganlarida og'asining quchog'idan sitilib chiqdi-da, uyiga qushday uchdi.

— Og'am keldi! Og'am!

Uning so'zidan hayron bo'lib qolgan Gulsima sirtga otildi. Yo'l bo'yi apil-tapil kiygan oyoq kiyimi yechilib ketib alviradi. Bo'yi ancha cho'zilib qolgan qizi Kumushoy hayron qolib turmadi. Uning xafa yo quvonchli ekanligini ham bilib bo'lmasdi. Ayolining: — Keldingizmi, og'asi? Keling, keling, — deb yolviroqlab yurganini ko'rgan Azamat ham biroz o'ylanib qoldi. Bugungi bu xil izzat-hurmatlardan o'zini qulaysiz sezdi. Shunday rafiqasi, qizlari bor odam oiladan ketib qolishga qanday qilib ko'zi qiydi ekan, qanday qilib boshqalarning so'ziga ergashdi, o'zi ham bilmaydi. Pushaymon o'tida kuyib, tili kurmalov (gapirish)ga kelmay, yer yorilsa, kirib ketishga tayyor bo'lib o'tirgan erini obdan qisintirib tashladi. Ship-ship terlab, yerga qaragancha ancha vaqt jim o'tirdi. Bir mahal tili kalimaga keldi.

— Gulsima, kechir. Bilaman, kechirilmas xatoga yo'l qo'yganman... Biroq men qizlarimni ko'rmay yashay olmas ekanman.

Ayro tushganimga bir yildan oshdi. Shu paytgacha bir-ikki marta xabarlashganim bo'lmasa, sira kela olmadim. Sendan o'tinch, bolalarimni ko'rib turishga ruxsat ber!

Nursuluv hech narsaga tushunmadi. Opasiga yaltang-yaltang qaradi. Gulsima bo'lsa bir narsalarni eslab qizlarini nari yubormoqchi bo'ldi. Ammo Nursuluv og'asi yonidan ketgisi kelmasdi.

— Nega meni quvaverasiz? Hozir men ketsam, og'am ham ketib qoladi, — deb obdan tipirchilab, og'asiga yopishib olgisi kelaverdi.

Gulsima kirpikdan uzilaman-u deb turgan yoshlarini ko'rsatkisi kelmay, ters burilib o'tirdi.

— Borib o'ynab kela qol, qizim, opang ikkovimiz gaplashib olamiz...

— Yo'q, ketmayman, — dedi qizaloq, bola bo'lsa-da, bir narsalarni sezganday.

— Og'angni qiynama, qizim, agar tinglamasang ketadi-da qoladi, qaytib kelmaydi.

— Ana, aytdim-ku ketib qoladi deb... — Keyin og'asini qoravullashga odam topganday:

— Tanya, sen shu yerda qol, maylimi, og'am ketib qolmasin... — dedi qo'g'irchog'iga.

Azamat ortiq turolmay qoldi. Bag'ri ezilib ketdi. O'kinch yoshlari quyoshda qoraygan yuzlarini yuvib tashladi. Deraza tomonga borib turdi. Gulsima bilan unsiz, yurak bilan gaplashdi.

— Baxtsizman, Gulsima. Gulday oilamni nega tashlab ketdim, hayronman. Kimlarning gapiga kirib... Xatomni tushunganimda esa kech bo'lgan edi. Juda kech... Mana... Qizlarim bor edi-ku. O'g'illi bo'ldim. Lekin baxtim tatimayapti...

Eshik ortiga chiqib bularning gapini tinglab turgan Nursuluv gup etib quladi...

Ikki soatlardan keyin ko'zini ochgan Nursuluv uyida emasligini bildi. Bosh uchida o'tirgan onasi bilan ajapasini ko'rib, ranjiganday to'mpayib, ters qaradi. So'ng allapaytlarda bir amallab so'radi:

— Og'am qayda?

Gulsima dim indamay, yig'lamsiraganicha xonadan chiqib ketdi.

— Yana ketib qoldimi? Yolg'onchi! Yolg'onchilar, hammang yolg'onchisiz!.. Aldayverasiz, meni tushunmaydi deb o'ylaysizlar.

Men hammasini bilaman! — deb yig'lamsiradi Nursuluv kichkina ko'zlarini derazaga tikib.

Tashqarida quyosh zar nurlarini ayamasdan sochib, gerdayib turibdi. Baqirishib-chaqirishib yurgan bolalarning shodon kulgisi Nursuluvning kichkina yuragini silkitib yubordi.

— Ajapa, eshitib turibsizma? Ular juda baxtli, a? Og'asi yonida ularning. Ol, bizlar-chi?

Nursuluv sovuq damini oldi. So'ng ko'zini toshday yumib oldi. Opasining "Qizim! Qizim"lab eshitilgan ovozini ham eshitmaganga oldi.

— Ko'zingni och, qizim, qara, kim keldi!

— Ochmayman! Men... hech kimni ko'rgim kelayotgani yo'q! Yolg'onchilar! — deb qichqirdi.

— Qizim, meni ham ko'rging kelmaydimi?

Nursuluv hurkib ovoz eshitilgan tomonga qaradi-da:

— Og'a! Og'a! — deganicha o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Shu payt esiga bir narsalar tushganday:

— Siz... siz ketmadingizmi? — dedi.

— Yo'q, qizim, endi sizlar bilan birga bo'laman!

Nursuluv hayron bo'lganday opasiga yaltanglab qaradi.

Opasi og'asining gapini ma'qulladi. Hammaning ko'zi nur sochib porlamoqda edi.

Umirboy O'TEO'LIYEV,
Qoraqalpoq yozuvchisi

QO'RQUT OTANING YELQO'BIZI

(Hujjatli hikoya)

Ko'tar boshingni, Jaqsiliq og'a![1]

Tilla sozingni qo'lingga ol, baland ovozingni, olisdagi g'ozning nolasidek qo'bizingning sehrli ovozini sog'indim. Qiyas baxshini o'ziga ustoz tutib, qo'bizingni jigarbanding Baqbergenga in'om etgansan. Iste'dod egalari o'z o'g'il-qizlaridan kamdan kam hollarda shogird chiqaradi. Orol dengizining narigi sohilidagi Qo'rqut otaga qo'yilgan haykalga bosh egib borgan paytdagi ziyorati qabul bo'libdi...

Farzand otadan bir botmon ziyod yoki kam tug'ilishi ham mumkin-ku. Quloqlarimiz changini qoqib, qo'biziga baxsh etguvchi, karomatli baxshi nomini olgan o'g'lingizga muxlis edim...

Muallif

Daryoning dengizga quyilish joyida bir soyni yoqalab, "Tog' ko'chsa ham bizlar qo'zg'almaymiz", deya oyoq tirab turib olgan elat birdaniga hovliqib, "chopa-chop"ga tushib qoldi.

Ovuldagi sumbatidan imonli, namoz-ro'zasi joyida Esimbet baliqchini hamma "Xizr ko'rgan" deya hurmat qiladi. Yoshligida bo'ynining uzunligi uchun yangalari qo'ygan "ko'zabo'yin" laqabi unutila boshlandi. Qayerdan topishi noma'lum, xas-cho'p chaynab yurgani uchun kiyimlaridan baliq hidi anqiydi...

Umr bo'yi daryo, dengizga tutash ko'llarni kezgan cholning og'ziga osh tutguvchi o'n uch yoshlardagi nevarasi qush olib ketgandek, yo'q. Esli-hushli bolaning yo'lini kesmay, belini mahkam bog'laganiga ko'ngli to'q edi. Ertaklardagi dovyurak botirlarning

[1] Jaqsiliq Sirimbetov, atoqli qoraqalpoq baxshisi.

o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, buyrakdan siyroq chiqargani bilan boshqalardan ajralib turdi.

Qovun pishig‘ida bo‘rsiq quvib, ustiga bo‘yini tashlaganda orqa oyog‘i bilan yuziga tepgandan buyon burnining suyagi botiq, oyday yuziga tirtiq tushgan.

Jetkerbay yilqichiga otboqar bo‘lib yurganda bo‘rining iniga emaklab kirmoqchi bo‘ladi va uning oyog‘idan zo‘rg‘a ushlab qoladi. “Ovsar bo‘lmay er yetilmas” hikmati bilan hasadgo‘ylarni dog‘da qoldirdi.

Ko‘zning ko‘rganidan quloqning eshitgani mo‘l. Jahongashtalarning yozishicha, Amudek shirin suvli daryodan chanqovini qondirganlar yana aylanib kelar ekan. Daryo, dengiz kabi suv bosadigan suvlik tortilmaydigan buloq-jilg‘alar bo‘lmaydi. Ko‘z oldida toshgan dengiz to‘pig‘iga kelmay qolardi. Shunga ko‘ra har narsani irim qilib, ilohiy bir kuchga yo‘ygisi keladi.

Bir oy avval siniq o‘rkachli oq tuyasi yopinchig‘ini yeb, taqir yerda girdikapalak aylangan quyunning epkiniga to‘rt oyog‘ini osmonga ko‘tarib, pichoqqa zo‘rg‘a ildi, halollab olishdi.

El taniganday o‘g‘il-qizlarining martabasi o‘z o‘rniga. Bolaning fe’li, aksiga olib uyda yo‘q narsani so‘raydi. Nevarasining yegisi kelgan qovurmochi bozorning ag‘dar-to‘nkarini chiqarib izlasa ham topilmaydi. Ota-onasi erta bahordagi yo‘g‘on ingichkalashib, ingichka uzilarga kelsa “bir elagan bilan kamayib qolmas” deb uruqqa asrab qo‘yganlarini qovurib tugatardi. Yilda ochqay berganga tog‘alarini panalab, suv yoqalagandan buyon qorni to‘q, ko‘ylagi butga aylandi.

Qarilik behuzurlik — yomon dard. O‘tirgan joyi o‘ziniki, o‘tgan-ketganlarni eslash ham qiziq.

Ko‘zidan nari qilgisi kelmaydigan nevarasini yo‘qlamaganiga ovuldagilar pichirlay boshladi. “Dengizga chiqsa bilmadik-da, qishloq orasida yursa, o‘ligi yo tirigi topilardi”, deb kun-tun yo‘llarida sarson bo‘lganlarga e’tibor qaratmadi.

Topgan gapi soz, bahonasi boshqa. Maktabning har bir o‘quvchisiga ellik kilogrammdan temir-tersak topshirish rejasini bajarish yildan yilga qiyinlashdi. Urush yillaridagidek qishloqda

temirning sinig'i — anqoning urug'i. Dengiz tubi temirga to'la, qancha kater, motoflyuga, barkaslar sohilga yeta olmay qumga cho'kib ketgani bilan ularni olishning imkoni yo'q. Kuch-quvvati borlar vertolyotlarning tumshuqlariga uzun tros bog'lab, havoda shalviratib allaqayoqlarga tashib ketishdi. Yo'l tanlamas mashinalarda kelib, payvandlash agregatlarida kesib, qiyqimigacha pullaganlarini ko'rib jirkandi. Qishlog'ining yigitlari or-nomusga talashmay, "Ertaga dengizimiz suvga to'lsa kemalar kerak bo'ladi. Bermaymiz..." deb tortishmaganiga xafa bo'ldi.

Nevara ko'rdim — oy ko'rdim, deganday, danagidan mag'zi shirin ekan. Rizq-u nasibasini chetdan topadigan o'g'li va kelini tug'di-yu oyoqlariga tushov bo'lmasligi uchun bolani kampirining etagiga soldi. Boyoqish rafiqasining umri qisqa bo'lib, keyin bor mas'uliyat o'ziga tushishini xayoliga keltirmagandi. Rangi uniqqan kalta to'niga o'rab, soviy boshlagan quchog'iga oldi, odam qildi. O'zi yeganlarini kemtik tishi bilan yamlab, og'ziga solsa g'ilqillatib yutardi. Katta bo'lgandan keyin bir yerga bog'lab qo'ymasa turmaydigan tinimsizligi bir kuydirib, bir suyuntirdi.

Qishning uzun tunlari bilan yozning qisqa kechalarida ertaklar aytmasa uyqusini keltira olmasdi. Xudoning tariqdan ko'p kecha-yu kunduzlariga "Ming bir kecha"dagidek tugamaydigan ertak qachongacha topiladi? Jimjit qolishni ma'qul ko'rmaydi, o'z umrini daryo, dengizga bog'lasa, qiziqib tinglayverdi.

Baliqchining baxti suvda, daryo to'lib oqsa, baliqlari bilan qo'shilib toshdi. Dengiz suvining kamayganini jarlikdagi "yotoq"larida necha yillab quyosh yuzini ko'rmay, orqalarida cho'p o'sib ketgan, tuproqdan boshqani yemaydigan laqqa, nahanglar payqadi. O'z-o'zlaridan qo'zg'alishib, sohillarda jon topshirishganlarga qayg'urishar edi.

Tashvishli kunlarda, "Qoramushtya"ga yaqinlashishdan motoflyugasining motori o'chibdi. Dengizdagi kemalar yuradigan yo'llarning sayoz-teranligini kun sayin aniqlab, fonus yoqib yuradigan chiroqchilarga ish qolmaganining oqibati shunga olib keldi.

Baliq to'la motoflyugasi shunda yarim kun to'xtab qolsa, ichidagilari aynib, yaroqsiz bo'lib qolishini o'ylashi bilan ratsiya orqali kolxoz raisiga xabar qilishsa, "Sizlardan boshqalarga ham nima

deb javob qaytarishimizni bilmay qoldik. Bizdan yordam kutmang, vaziyatga qarab ish tuting!" deganiga noiloj bo'ysunishdi. Qo'llariga ilingan yengil-yelpi narsalarini olib, chuqur suvli joylarda yelkasiga ortgan qayig'ini minib, sayoz joylarda sudrab yurib uylarini zo'rg'a topib kelishdi. Motoflyugasi qolgan qozon chuqurni xaritadan belgilatishga borganida uch nusxadan dalolatnoma yozib, qog'ozga qo'l qo'ydirgandan buyon baliqchilik bilan uzil-kesil xayrlashdi...

O'tgan yili qizishib ketib dengizning olis joylariga borib qolgan edi. Bir dunyo baliqqa duch kelgani bilan orqaga qaytishga yo'l topa olmay sarson bo'ldi. Qushlari uchib-qo'ngan orollar o'zgacha, dengizning suvi ko'zlarga ko'rinmay guvullab 700 metr balandlikka otib chiqqanda atrofini oppoq tuman qoplaydi. Suv yuzasiga qalqib chiqqan kichik harbiy kemadagi qorachadan kelgan matros yigit: "Assalomu alaykum, og'aynilar! Sizlarni bu yoqlarga nima maqsadda kelganingizni aniqlamaguncha ushlab turamiz", — deb qoraqalpoq tilida ravon gapirdi. Ko'rgan-bilganlari eslarida qolmasligi uchun ko'zlarini qora mato bilan bog'lab, allaqanday joylarga olib boradi. Kirishga eshigi bo'lsa ham derazasiz keng, yorug', to'shak o'rinlargacha solingan joyga qamab, qorinlarini och qoldirmadi, biroq ham vaqt o'lchami — kun-tunlarda yanglishdi. Uzoqqa cho'zilgan kunlarning birida, "Tekshiruvdan yaxshi o'tdingiz, uylaringizga qaytishga ruxsat. Bundan bu yog'iga qo'llaringizga beriladigan xarita bo'yicha faqat belgilangan joylarda baliq ovlang!" — deb yana ko'zlarini bog'lab, tanish sohillariga qo'yib yuborishdi. Bir-biridan qiziqarli hikoyalarni kecha-kunduz qulog'iga quyaverganidan keyin nevarasi har maqomga yo'rg'alamay nima qilsin.

Qarib, kuch-quvvati kamaygan odam sal gapga arazlaydigan bo'lib qolarkan. Dardini ichiga yutib, tirnog'ining uchigacha kuyingan chol bedor tunlarni uyqusiz o'tkaza boshladi. "Oyog'imiz yetgan joygacha izlab bordik. Dengizga ketib, och qashqirlarga duch kelsa, suyaklari bilan kiyim-kechaklari topilardi. Vaziyat borasida organ xodimlariga tezroq xabar beraylik. Biror tasodif yuz bersa bizlar aybdor bo'lamiz", deganlariga qarshilik bildirmadi.

Izzat ismli shaharlik militsiya kapitani mash'um xabar borishi bilan ko'pchilikni birma-bir so'roqqa tutdi, natija chiqmadi. Ilgari bobosi bilan dengizda baliq ovlagan Mirzamurod chol, "Agar qum bosgan dengizga daydib ketsa men aybdor bo'lmayin. Bir haftada, ninachidek ozg'in nabirasi "Qoramusht" haqida so'radi. Bor bilganimni aytdim", deb yo'qolgan kalavaning uchini chiqargandek bo'ldi.

Har kimning o'ziga yarasha tirikchiligi bo'lgani kabi, boriga baraka, yo'g'iga sabr-toqat qilib yashayotgandi. "Esing ketganda echki ol", deganlaridek, daryo, dengiz, ko'llar va o'rmonzorlar qora qozonini goh qaynatib, goh qaynatmaganiga qaraganda nabirasi bilan bozorga tushib har yili egizdan tug'adigan yelinli echki sotib oldi. Xudo beraman desa bir zumda beradi, uch yil ichida qo'rasi yirik-mayda mol, qo'y-echkiga to'ldi. Marqaboyga ham ermak topilib, o'qishdan so'ng yarim kun qo'y-echkilarini atrofdagi o'tloqda o'tlatib qaytardi. Dalada zerikmaslik uchun o'zi loydan hushtak yasar, undan bobosining nay qamishdan yasagan sibizg'asining tovushi chiqardi. Ashula ohanglari ko'ksini junbushga keltirgani bilan ovozini tartibga sololmay, qora terga botganda sozanda-yu xonandalik ham oson emasligini angladi.

Kimga arazlasin, barmoq bukib sanasa urug'-aymog'idan baxshi chiqmabdi. Tog'alarini surishtirsa, Hakim ismli ko'zi ojiz sozanda ancha yillar oldin yashab o'tgan ekan.

Nabirasining Hayit kunlarida katta bolalarga ergashib, shirali ovozda aytgan ramazoni qulog'iga chalingandi. Ovozi yoqimli bo'lgani uchun sharofati tegsin deb qishloqdagi Sag'in baxshining uyidagi ko'rpachasiga talay ag'anatdi.

Har ishga bir nima sabab, agar ishing o'ngidan kelsa kemang qirda ham suzadi. Marqaboy yer o'chog'i va tandir uchun yaqin yerlardan o'tin topa olmay uzoqlarga ketib yurdi. Qo'shnilari bolaning bo'yi o'smay pakana bo'lib qolganini orqalab o'tin tashiganidan ko'rishardi. Qor-yomg'irning qoq suvi qishin-yozin yerga singimaydigan taqirliklarga yaqin joylarda o'tin ko'p bo'lgani bilan u yerlar uzoq edi.

Bir safar dengiz tubida yo'g'onligi boldirdek, yarim quloch keladigan to'nkaga duch keladi. Qishning qahraton sovug'ida bir

kun bo'lsa ham bobosi bilan ertalabki choyni peshonasi terlab ichishini, uyi kun bo'yi issiq bo'lishini o'ylab to'nkani sudrab qaytadi. Tuxum ko'msa pishadigan qum tepaliklarda qoqlangan buta o'z-o'zidan sas chiqarishiga hayron qolardi.

Dala-dashtda yashagan chol har qanday vaziyatga moyil qanotli qush bolasi, barcha jonzotlar bilan tez til topishadi. Yog'ochga jon ato qila olmasa ham tug'ma usta bo'lganidan nabiralariga musiqa asbobini butadan yasashni o'ylab yuradi.

O'tgan yillari tut yog'ochidan olamo'ynoq dutorning quyma va qurama turlarini yasab, Sag'in baxshiga o'n ikki pardasini bog'latib, tiyagi bilan qo'sh ichagini soldirgani borsa, "Barakalla, tut dutor bilan qo'biz yasash uchun chinakam yog'och. Qo'limdagi qo'biz menga kelib yetgancha qo'ldan qo'llarga o'tadi. Ba'zida tovushi yaxshi chiqmay uyalib ham qolaman. Bir amallab qo'biz yasab bersang, qo'lingni bo'sh qo'ymayman.

Mayli, suv to'kilmas yo'rg'amni min, bo'tali tuyamni yetakla, sigirimni sog'ib ich", deb o'zlari bilan o'zlari kelishib yurganda urush boshlanadi. Ko'nglingdagini og'iz ochmasdan anglaydigan Sag'in baxshi: "Inim! Qo'bizni "orqasi bor" odamlargina chalgan. Xudoda ham hisob-kitob bor, hamma hunarni bir odamga bermaydi. Qo'li gul ustasan, dutor, qo'biz yasaganingning o'zi katta davlat. Nevara-chevaralaringning birortasi baxshi bo'lar", deb umid bergan edi. Ikki gapning birida: "Soz bilan suhbatni yolg'on demanglar, Odam Ato, Moma Havo davridan buyon bordur"ning ma'nosini so'rasa: "Odamzodning qo'liga tekkan ilk musiqa asbobi qo'biz. Ustasi yasashga yasabdi-yu, ovozini chiqara olmabdi.

Qo'bizini boshiga yostiq qilib yotsa tushiga kirgan farishtalarning: "Ey inson, ko'nglingni ko'tar, aytganimizni kanda qilmay bajarsang, qo'bizingga zabon bitadi. Daryo bo'yidagi jarlikka tirmashib o'sgan ko'p yillik jiydaga to'ng'iz suykanib, badanini qashiganini topishing zarur. Tovush chiqaradigan chanog'ini baqiroq tuyaning bosh terisi bilan qoplab, torlarini kishnagich ot quyrug'idan yasagin. Qumloq joyda o'sadigan quvrayning shirasidan tiyak soldirsang ovozi chiqmaganini bir ko'ray", deb aytganini ikki qilmay bajargandan so'ng qo'biz jaranglay boshlabdi.

* * *

It quvgan toychoqni miltiq bilan otmasang tuttirmas ekan. Daryo bo'yidagi qishloqni ikkiga bo'lib dengizga quyiladigan irmog'i tezoqar bo'lgani sabab tubi zilol edi.

Bobosi nima desa, gapini yerda qoldirmaydigan Marqaboy "Qoramusht"ga safarini sir tutib borib-kelishini uch kunga mo'ljalladi.

Mirzamurod cholning taxminicha, "Qoramusht" suv borida tayoq tashlam yerda, qishlog'iga yarim kunlik yo'l edi. Qumdagi qisqa yo'ldan o'zi yurmagani uchun yo'l ham unmaydi.

"Atrofi odamsiz yalangto'sh dala. Yoz kelsa chorvalar, horibtolgan ovchilargina qorasini ko'rsatadi. O'zingga tegmagan bo'ri ming yil yashasin. Odam qorasini ko'rmagani uchun bo'rilar esa juda yirtqich. Yamlamay yutishdan ham qaytmaydi. Qorong'i tushmay, tunab qoladigan joyingni tayyorla! Bo'ri ozig'i bilan er ozig'i yo'lda", deb maslahat berishadi.

Yo'lga yashirincha tayyorgarlik ko'rganda bobosining ko'p yillardan buyon devordagi yog'och qoziqqa ilib qo'yilgan miltig'ini olmadi. O'rniga sandiqdagi yetmish santimetrlar keladigan xanjari bilan kalta sopli belkuragini ko'k otiga bog'lasa, beli qayishganday og'ir yuk bo'lishini bildi.

Ketadigan kun tongda "qushuyqi" bobosining tinchini buzmaslik uchun yuklarini yo'lga chiqarib qo'yganiga quvondi. Uyquga yotishdan oldin tashqariga chiqsa yulduzlar charaqlab, ertangi obhavodan darak bersa ham niyatidan qaytmadi. Endigina tongotar pallada ko'k do'noniga yolini tortib mindi. Egasi xomush bo'lsa, oti ham yurishdan yanglishib, har qadamda surinar ekan. Olis safarga otlangani uchun otini qattiq choptirib zo'riqtirgisi kelmadi. Bahor-u yozda yashil, kuzga yaqin sarg'ish tortadigan zar yaproqli turong'ilarga qayrilib qarasa ko'ziga dosh berib bo'lmas chiroy ko'rinadi.

Bobosining aytishicha, hozirgi ot o'ynatgan keng dalalar o'rdak uchib, g'oz qo'ngan, nomdor "Qunduzli ko'l"ning tubi bo'lgan ekan. Atrof ilon yalaganday, tiriklikning nom-nishoni sezilmagani yuragini silkitmay qo'ymadi. Oshirilgan xamirday qo'pgan yerlardan oppoq tuzni hovuchlab olasan. Kul rangli qumlik yalt-yult etgan oltin zarralaridek kun nurida chaqnab, ot tuyog'i tekkan joy-

lari g'ichirlab tovush chiqarar edi. Otasining so'nggi paytlardagi ermagi — dengizning suvi saqlanib qolgan, chuqurligi ko'ksiga keladigan ko'lmak suvlarga to'r tashlasa ham quruq qo'l qaytganiga afsuslanmasdi. Bir kuni qayig'ining langarini olib zanjirini qirg'oqdagi temir qoziqqa mahkamlayotganda oyog'iga bir nima o'ralibdi. Peshonasi bilan ikki oyog'ining tizzadan pasti oppoq qarg'i bog'li, egasi bor kuchuk bo'ynigacha sapchib uyiga ergashib keladi. Hamma ham xonadonida qaynatadigan qora qozoni va dasturxonida uyidagi it bilan mushukning nasibasi borligini xayoliga keltiravermaydi. Buvimiz gap-so'zning boshiga bormasdan kuchukka "Oqtirnoq" deb laqab qo'yib, yog'och idishga sut quyib, sutga non to'g'rab berdi. Uch mahal yaxshi parvarish qilishi natijasida kuchuk qoplondek it bo'ldi. It egasi e'zozlaganidek, bergan tuzini oqlab, qishloqni qo'riqlabdi. Sal ochqasa, qishloqqa tishini botiradigan bo'rilarning soyasini ham yaqinlatmaydi. Nimagadir, Oqtirnoq inidan chiqmay uch kun, uch oqshom qatorasiga uvullasa odamlar "Qari ko'ppak bekorga uvullamaydi, yomonlik qora boshiga bo'lsin, tezroq gumdon qilaylik", degani bilan hech kim qo'lini qonga botirgisi kelmadi. Shundan beri daryo tortilib, qishloqdagilar ko'chsa ham Oqtirnoq ularga ergashmay eski go'shasida qoladi...

Ko'k shishaday yarqiragan tiniq osmonli kunlar dengiz tubida kamdan kam ko'rinadi. Odamlar dengizga bormay qo'ygani sabab yo'llar, so'qmoqlar eskirdi. Avvalgi holga tushib, yetti-sakkiz chaqirim uzoqdagi qadim yurtiga tushga yaqin yetadi. Paxsa uylarning tomlariga qo'ngan mushuk ko'zli boyo'g'lilar mungli ovoz chiqarishardi.

Oqtirnoq haqida bobosi qo'ni-qo'shnilardan talay qiziqarli hikoyalar eshitgandan buyon avvalgi yurtida tirikchilik qiladigan qarindoshlarini o'ylagani bilan kelib xabar olishning imkonini topmadi. "Qoramusht"ga boradigan yo'l avvalgi yurtiga yaqin o'tishini o'ylab, quruq qo'l bilan bormaslik uchun uyida quyoshda qoqlangan sho'r go'shtdan ko'proq olib chiqdi.

Havo to'zg'iy boshlaganda qovjiragan labini qayta-qayta yalab, havo yetishmay nafasi qayta boshladi. Dengizda tirik jon borki, tomchi suvini tansiq ko'rib, yer-u ko'kdan yomg'ir tilaydi. Qoq

tushdagi ko'kimtir saroblar ko'z oldini xiralashtiradi. Yer chuqur, osmon esa balandligini ana shu payt ko'rdi. Balandlikdan tubsiz dengiz qa'riga qulab, g'arq bo'lgandek xo'rsindi. Bir-birlariga tutashgan qumlikda qovjiragan qanboq o'simligi oldida yumaloq to'pdek dumalashi bilan yo'l boshlasa izidan ergashdi. Otining jilovini tortib, sag'iriga jonini achitmay qamchi ursa ham yetkazmay, qorasini bir ko'rsatib, bir ko'rsatmaganligiga ajablandi.

Yo'q joydan gap topadigan bobosi eski yurtni allaqachon "ajinalar egallab olgan" deb, so'nggi paytlari borish tugul, nomini tiliga olmas edi.

Dengiz sohilidan har kuni bir qarich chekinganda "chegara daraxt" bo'lsin deb ekkan bir tup qoraman daraxti uzoqlardan ko'zga tashlanibdi. Betartib o'sgan shohlariga ko'pincha o'tkinchi qushlar qo'nib, jazirama issiqda yaqin joydagi uloqchali kiyiklar panalashga kelishini bildi. Izlariga toychoqlarni ergashtirgan qochoq yilqilar uzoqlarda ko'zga tashlanibdi...

Qoramon daraxti yashin tushtimi yoki odam qo'li bilan yoqib yuborildimi, noma'lum, qosh bilan ko'zning orasida yonib kul bo'ladi. Kelasi yili qoraygan tubida bir shoxcha ko'karib, uch yildan so'ng avvalgi holiga keladi. Shoxlarini yana o'tkinchi qushlar egallab, uloqchali kiyiklar izidan bo'rilar ergashganini hech kim xush ko'rmabdi.

Izni iz o'chirganidek qumloq joylarda nima yuz bergani yaqqol ko'rinib turishi bilan ko'pchilikka bilinmay qoladi. Bo'rilarni gumdon qilish payida bo'lgan bobosi qoramon yog'ochning atrofiga qopqon qursa ham ancha vaqtgacha hech ne tushmay, sillasi qurib-di. Bir kuni iz bosib borsa, qopqonini sudragan bo'ri qum bag'rida "oq kiyik"ka tik qarashi bilan sehrlanib qolganini ko'radi.

Oq sutdek ivigan dunyo, mavjlangan tinchlikda yurak hovuchlagandek g'alati tovushlar qulog'iga chalinishidan o'ng yelkasida yetti rangli kamalak rang-barang tusda ko'nglini yorishtirsa ham ko'rgan-bilganlarini tushuntirib beradigan holatda emas edi.

Chap yelkasidan qarasa, dengizning tubida yolg'iz o'zi oyog'i bilan yerni, boshi bilan osmonni tirasa ham yakkaligi sezilaverdi. Ostidagi ko'k do'nani balanddek ko'ringan qumli tepalikka

tirmashib chiqsa-da, pastga tushganda oyoqlari bukilib yiqildi. O'rnidan turish ilinjida qo'llari bilan qumni paypaslasa, qo'liga bir nima ilindi. Bobosining motoflyugasi qirdagi qozon chuqurga yiqilgani haqidagi taxmini to'g'ri chiqdi. Oq siynalarini to'lqinlar yuvgan motoflyuganing eshigi chala yopilibdi. Eshigi qulflanmay, ochiq qolganidan g'araz niyatli kishilar talon-taroj qilganini angladi.

Yarim beligacha qumga to'lgan kabinasini tozalab, kechqurin yotishga o'rin tayyorladi. Ichi qizigan tandirdek lovullab tursa ham, tunashga rozi bo'lib, bo'rilar tishini botira olmasligiga ko'zi yetdi.

Hali kun botmay ko'zlari qonga to'lgan och bo'rilar uzun dumlarini sudrab yaqinlasha boshladi. Tumshuqlarini yuqoriga cho'zib uvullagani biri-birini chaqirgani, "yeyman" degan belgi ekanligini bobosi aytgan edi.

O'ziga boshpana topilgani bilan ko'k do'nanning bosh arqonini motoflyuganing temiriga bog'lashdan boshqa ilojini topmadi. Qancha sergak yotmoqchi bo'lsa ham uzoq yo'l ovoragarchiligi charchatganidan ko'ziga uyqu kelib toshdek qotadi. Odam hidini olgan bo'rilar tunda motoflyugani aylanib, ko'k do'nanga og'iz solmoqchi bo'lganlarini, oldiga yaqinlashsa tishlab, ortidan kelsa oyoqlari bilan depsinib, tong otguncha dusurlatganlarini sezmadi.

Tushga yaqin osmonda gurullagan ovoz eshitiladi. Uzoqda shimoli-g'arb tomon qiyalab uchgan "AN-2" samolyotining ko'ziga tushmaslik uchun sudralib saksovulzorlar orasiga berkinib, aylanib uchganidan o'zini izlab yurganini bildi. Shuncha yo'l bosib o'tgandan so'ng xayoliga keltirganlarini amalga oshirgisi, ko'rgisi, bilgisi kelgandi.

Tik qiyalikdagi tabiiy bostirmalarning lang ochiq og'zini topib, ichiga kirar-da, qanday qilib chiqishini o'ylamadi. Cho'rtanbaliqlarning faqatgina tishlari qolganidek, har yerda qora kosovdek qoraygan, laqqa-nahanglarning uyum-uyum suyaklari qo'rqinchli ko'rinardi. Bir-ikkisini qo'liga ushlasa, sinuvchan, mo'rt ekan. Qanday uzun odam bo'lsa ham tikka yursa boshi tegmaydigan ichi salqin yotoqlarning yonlariga qushlar qurgan uyalarida hayot nishoni sezilmaydi. Uzun yotoqlarni birma-bir oralab, orqasiga qaytgisi kelmay, yorug'lik tushgan teshikka qarab yurdi. Bu — tashqariga olib chiquvchi ikkinchi eshik ekan...

* * *

Yaratgandan besabab hech ish bo'lmaydi, degan xayoldagi chol dengiz tubida quloch yozib esgan shamol bir safar boshidagi quyon terili bosh kiyimini uchirgandan buyon bog'ichini iyagi ostiga bog'lab yurishga odatlandi. G'am-g'ussadan ezilib, o'rnidan yerga tayanib turgancha o'zini qo'yishga joy topmaydi. Shamol essagina tilga kiradigan tepalikdagi sehrli butazor butasidan nabirasiga qo'biz yasashga kirishdi. Sag'in baxshining qo'bizini ko'z oldiga keltirib ikki kun, ikki oqshom tinmay yo'nib, tiyagi bilan ichaklarini solib, qo'bizi tayyor bo'lishi bilan nabirasiga atagan yana bitta "sirli" ashyoni o'z qo'liga olmoq uchun "Qoramusht"ga yo'l oldi. Osmon-u zaminning tutashgan yeriga boruvchi eski so'qmoqdan yura-yura "oqtovon" yo'llar ovorasi bilan kun botganda yetib keldi. "Qushtumshuq" tepasida yuzi janubga qarab goh mudrab, goh sergak tortib o'tirgan nabirasining yaqiniga keldi. Yoniga osmondan tushgandek borib qolsa qo'rqib, yuragi tushishini o'ylab, oq bulut, qora bulutlarni yorib, ufqqa botgan quyoshga ko'zlari qamashib qaradi. Yalt-yult etgan nishtardek nurlari yerga tushishi bilan "sinib", butkul atrof larzaga keldi.

— Marqaboyjon! Soddaginam-ey, baqiroq g'ozdek tinim bilmay zorlanaverarding?! Shuncha yelib-yugurib yetgan manziling shumi? Bu yurishing nima, bu nima o'tirish?!

— Ota, bir yerda uch kun qatorasiga tunasang, Misrdek ko'rinishing to'g'ri ekan. Dengizning qozon chuquridagi qolib ketgan motoflyugangizni topib, ikkinchi uyimga aylantirdim, — deb o'rnidan tura solib, ko'ksiga boshini qo'ydi.

— Dengizning suvloq joylarigacha bormoqchiman. Kalamushlarning inlari chuqur qazilgan o'raday, oy yorug', kun undan-da yorug'. Yovvoyi hayvon va qushlarning yashash joylari torayib, bozori tarqadi. Qayishdek tovlanib, to'lib oqqan daryo, ko'k — ola-bula to'lqinli dengizimni izlab keldim. Ko'l, oydinlarga erta bahorda quyilgan, o'rdak, so'nali g'ozlar qanoti bilan uchib, quyrug'i bilan qo'nadiganlarning Orolini topmay qaylarga borganini Xudo biladi...

Dengiz tubida yulduzdek suzadigan qochoq yilqilarni ko'rdingmi?! Dengiz otlari "Suv tulpor"larga mansub, qo'ltiqlaridan yelpillab qanotlari kirib-chiqib turadi... Dengizda yo'q narsaning

o‘zi yo‘q. Sohil bo‘ylaridagi buloqlarning ko‘zlari bitsa, yilqilar tuyoqlari bilan kovlab ochar edi. Og‘izlaridan o‘t purkab, ko‘zingga yetti boshli ajdahoday ko‘ringanlari gaz buloqlari-ku...

Qanotli qush palaponi, jonli jonzotlarning mung-zoriga quloq soldim. Chag‘alaylar charx urgan yerlarda chavoq[1] izladim. Turnaga o‘xshash oqqushlar faqat tushlarimga kiradi. Juftidan ayro tushganlari ko‘zlarini yoshlab o‘zlarini qoyatoshlarga urib, o‘zlarini nobud qilishlarini eshitsam ham ko‘rmadim. Dala-dashtda tug‘ilib o‘sgan yovvoyi hayvon, qushlar qo‘lga, katakka qandoq ko‘niksin?!

— Ha, nimasini aytasan, dunyodagi eng tez harakatlanadigan yo‘lbarslar qaysidir yili shu atroflarda mushukdek bolalabdi. “Boshlari og‘risa” har payshanbada mozorda tunashga kelganlarini ko‘rganlarning ko‘pchiligi hali ham hayot. Shuning uchun ham daryolar boshlanadigan tog‘larga qarab siljigan...

— Men... o‘rmonzorda o‘tkir tumshug‘i bilan yog‘ochning o‘zak va po‘stlariga tushgan qurt-qumursqalarni cho‘qib yeydigan “to‘qildoq” degan qushni izlaganim bilan topa olmay, faqat ovozinigina eshitdim...

— Ovozi bo‘lsa o‘zi ham bor-da! Tog‘ etagida yashaganlar uning uchini ko‘rmaganidek, daryo bo‘yida yashaganlar oldidan oqqan suvning qadr-qimmatiga yetmagan...

— Bobo, dengizdan qulog‘imga bir aks sado, tanish ovoz eshitiladi...

— Barakalla, kun bo‘yi o‘z og‘zingdan eshitgim kelib, orziqib kutganimni endi aytding. Yuraging doim uyg‘oq bo‘lsin, odamlarning qalbini tushunging kelsa soz o‘rgan, tinglay bil, o‘zingdagi boringni soz bilan yetkaz, sozsiz hayot kechirish ma’nisizlik...

Narigi sohildagi Qo‘rqut otaning qo‘bizi shamol essa o‘zidan o‘zi chalinishini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Senga hali Qo‘rqut ota haqida bilganlarimni aytishga vaqtim yetmayapti. Qanday hunar egallasang ham ustoz ko‘rishing shart. Qishlog‘imizdagi Sag‘in baxshi o‘zini eski zamonlarda yashab o‘tgan Qo‘rqut otaning g‘oyibona shogirdi sanar edi. Kechalari oy nuri, kunduz kun shu’lasi titragan oydin ko‘llarda sapchib o‘ynagan baliqlarning shildiragan ovozidan o‘ziga ruhan kuch olganlarini ko‘rdim...

[1] **Chavoq** *(shevada)* — mayda baliq.

Urushga ketarda xayrlashish uchun uyiga borganimdan qil qo'bizni qo'liga olib, "Oy yur, omon yur! Yovni yer bilan yakson etgan g'alaba to'yida qo'bizimni chalib, el qo'riqlagan dovyurak botirlarni kuylayman. Tug'ilmoq haq bo'lsa, o'lmoq ham haq, o'limni tan olmaslik qalbi so'qirlik. Siz bilan qayta diydorlashamizmi, yo'qmi?! Meni tinglab ket", deb bukri qo'bizining quloqlarini maromiga keltirib burab, tug'ga qo'ngan lochindek qanot qoqib, ko'zlari porlab, boshini qimirlatdi:

Oydinda suzgan qo'ng'ir g'oz,
Cho'l qadrini na bilsin.
Qirda yurgan tuvaloq
Ko'l qadrini na bilsin.

Ovuldagi yomonlar
El qadrini na bilsin.
Ko'chib-qo'nib ko'rmagan
Yer qadrini na bilsin.

Ko'chsa makon bermagan,
Qo'nsa ko'cha bermagan,
Aytganiga yurmagan,
Yurt qadrini na bilsin? —

deb avjiga chiqib, oy-yulduzdan qaytganda bo'g'inlarimni bo'shashtirib, son suyaklarimni balqitdi.

Sag'in og'a baxshi nomini olgani bo'lmasa izini olib to'yga chiqmadi, faqat eng yaqinlarining to'ylarigagina borardi.

Ko'zdan pana, ko'ngildan yiroq. Ikki yarim yil urushda yurib, uyga yozgan har bir xatimda Sag'in og'aning hol-ahvolini so'radim. Urushdan yaralanib qaytgach, Orol shahrigacha poyezdda kelsam-da, poroxodga mina olmay ushlanib qoldim. U vaqtlar duch kelgan uyning bo'sag'asiga "Xudoyi qo'noq"man deb borsang qo'ndirar edi. Navbatdagi mehmon uyimning egasi, "Qoraqalpoq bo'lsang, qarindoshingga bor. Huv anavi, savlatli oq uy Allambergen qoraqalpoqning uyi. Kelib chiqishi sizlar tarafdan, qaysidir sabab bilan erta kelibdi. Ko'ngli ochiq, tanisin-tanimasin yotsira-

maydigan mehmondo'st, ayniqsa o'z yurtidan kelsa quvonadi", deb ergashtirib olib borganda quchoq ochib qarshi oldi.

To'qqiz yo'lning darbandida o'tirgandan keyin uyi karvonsaroyga aylanib, talay kishilar tuz totib bo'lgan, son-sanoqsiz tanish-bilish orttiribdi. Esimda, ayolining ismi O'rozgul, ikki o'g'il, uch qizi bor edi. Kiyimlarining yirtig'i bo'lsa tikib, kirlasa aytmasdanoq yuvadi. To'riga, oq to'shagiga necha kunlab yotqizsa ham qovog'ini solgan insonlar emas. Haq niyatli, ovga chiqsa ovi baroridan keladi. Ostonasiga sadaqa so'rab kelganlarning qornini to'yg'izib, uyidagi bola-chaqalariga alohida ulush berdi. Yolg'iz qolgan vaqtimizda bu tomonlarga qanday kelib qolganini so'rasam, boshini quyi solib, ancha vaqtgacha o'ylanib o'tirdi.

— Og'riqli xotiralarni qo'zg'ading, yolg'iz o'zimiz bo'lganimiz uchun aytaman. Tirik jonga og'iz ochib aytmagan sirlarim edi. Chimboylikman, Qushxona tog'ining etaklari — ota makonim. Yosh yigit vaqtimda kuchimga sig'may polvonlik qilib, beli baquvvat otlarim bilan ko'pkari o'ynardik. O'rtaholli Ubbi degan kishining qiziga uylansam, "Boyning kuyov bolasi", deb otim xatdan chiqdi. Otamiz uzoqni ko'ra biladigan dono kishi edi. Orani sovitmay bizlarni yoniga chaqirib, "Sho'ro hukumatining hozirgi harakatlari yaxshi emas, zamon tuzalguncha biroz chetda yura turing", deb uy-ro'zg'or buyumlariga qo'sha mingani ot, ko'chib-qo'nishga tuya, sog'in sigir, qo'y-echkilaridan enchimizni oldik. Tilegen ismli kichik qaynimizga, "Pochchang bilan opangni yo'lga chiqarib qayt. Daryo yoqalab yurib, oldilaringizda ko'kimtir tortib, oppoq tumanlanib ko'ringan dengizning o'ng sohillariga yursangiz qozoq qardoshlarga qo'shilasiz", deb qo'shib yubordi.

Aybdor bo'lib elga sig'magandan keyin tunda ko'rshapalakdek yurib, kunduz kuni o'rmonni panalab, uch haftadan so'ng aytgan dengiziga keldik. Shunda opamiz: "Aylanay, qolganiga o'zimiz yo'l topib ketarmiz, orqangga ketaver, uydagilarga salom ayt", — deb qo'ymay xayrlashdi. Ko'rmagan yerning o'y-chuquri ko'p bo'lishini o'ylab, bir tarafdan Sho'ro hukumati bu yerlarda ham qanot yozgandan sergaklik qilib, bir yilcha yolg'izlikda yashadik. Dengizdan baliq ovlash uchun nov qayiq kerak bo'lganida minib yurgan otimga almashtirdim. Yeb-ichishlarimizdan ortgan

balig'imizni bozorda sotib yurganda orttirgan tanish-bilishlarim elga aralashtirdi, odamlarga qo'shdi.

Qishlog'imizdagi Sag'in baxshi tanishim uylangan to'yimizda tong otguncha "Edige" dostonini aytganda karomatini ko'rsatgandek havo aynib yomg'ir yog'di...

— Sag'in baxshi yon qo'shnimiz, qarib yoshi bir joyga bordi. O'zini Qo'rqut otaga shogird sanaydi, — deganimda og'amiz miyig'ida kuldi.

— So'zdan so'z tug'iladi, bir yurtdan boshqa yurtga qalandar bo'lib kelganimda Qo'rqut otaning makonida qo'nim topganimni bildim. Dengiz sohilida shogirdlari qo'ygan tosh haykaliga avvalo o'zim, keyinchalik oilamiz bilan ziyoratga bordik. Ozarbayjonlik shogirdi "Ustozimning kindik qoni tomib, xokipoyi tekkan joylari", deb o'z hisobidan arman haykaltaroshiga qora marmardan dengiz bo'yida haykal yasatgan. Qo'bizini qo'liga ushlab turgan haykal ko'z oldingda tirikdek gavdalanadi. Urush boshlangandan buyon ziyoratga bora olmadim. Ertaga chorshanba kuni mol so'yib, mozor boshida ehson qilib qaytaylik, deganlariga quvonib rozi bo'ldim. Tunda dengizning shovullashiga qo'shilib yelqo'bizning tabiiy ohanglari qulog'imga bir-bir chalinib, tongga yaqin ko'zim ilinibdi. Tushimga Sag'in baxshi kirib, "Ustozimning qabriga ziyorat qilish senga nasib etgani yaxshi bo'ldi. Men uchun qabr boshidan bir hovuch tuproq olib kelishni unutmagaysan", deganlari eshitilishi bilan uyg'ondim, tong yorishibdi.

"Otaning haykali boshiga quruqlikdan emas, sohil bo'ylab qayiq bilan ketaylik! Salgina shamol essa sohildagi so'qmoqni suv oladi", deb tong otishi bilan qayig'iga mindirdi. Quyosh arqon bo'yi ko'tarilguncha tinmay eshkak eshgan og'amiz qalin o'sgan qamishzorni aylanib, ochiq oydinda to'xtadi.

— Ochiq dalada qo'y boqadigan cho'pon, dengizdagi baliqchi nazarini doimo uzoqqa qadayvergani uchun ham ko'zlari o'tkir. Ko'kdagi porlagan quyosh otamizning tosh haykalini nurlantirganiga qara! — deb ko'z ilmaydigan joydagi yarqiragan bo'y-bastiga ko'z uzmay qaradik.

— Shamol bo'lmasa cho'pning boshi qanday qimirlasin? Otamiz qo'lida ushlagan qil qo'bizi shamol qay tarafdan essa shu to-

monga qarab hilpiragan yalovdek g'ayrioddiy ovoz chiqarishi bilan yelqo'bizga aylanadi. Urush vaqti bo'lsa ham ziyoratga keluvchilarning izi uzilmaydi, deb qo'yimizni so'yib, tuz totganlarning oq fotihalarini olib qaytdik.

Otamizning qabr boshidan bir hovuch tuproq olib, omonat qilib Sag'in baxshiga yetkizguncha uchishga qanotim bo'lmadi. Allambergen og'a paraxodga mindirayotganda:

— Sag'in baxshiga salomimni yetkazgaysan. Salomatligi yo'lga yarasa paraxodga o'tirg'izsang, o'zim kutib olaman. Ustozni ziyorat qildirib, tug'ilgan joyining tuprog'i buyurmasa o'z xohishi bilan yoniga joylayman. O'zimga ham shu joydan o'rin tayinlab qo'ydim, degan og'amizning ko'zlariga yosh keldi.

Elga qaytsam, Sag'in baxshining yilini berishayotgan ekan. Qo'rqut otaning qabri boshidan olingan bir hovuch tuproqni o'zi bo'lmagandan keyin boshqalarga bergim kelmay, haligacha saqlab kelayotgan edim. Senga buyurgan ekan, deb qil qo'biziga qo'sha tugunchasini qo'liga ushlatdi...

Boshida qalqigan yomg'irsiz, patsimon bulutlar shimolga qarab siljishni boshladi. Qumli tepaliklarda akillagani quloqni qomatga keltirib ikki bosh ko'rinsa "qashqir" deb guvurlashgani bilan paxmoq junli "Oqtirnoq"ning kuchuklari ekanligiga ko'zlari yetgandan so'ng dengizning qa'riga qarab ketganini kuzatib turishdi.

— O'g'lim, noumid shayton! Vaqt o'tgani bilinmay tirikchilik qanday bo'lsa shunday kechaveradi... Hali nimasini ko'ribsan, bobong chiqmagan cho'qqi, akang minmagan tulpor, otang aytmagan o'gitlar bor, — deb bir-birlariga suyanishi bilan qozon chuqurda qolgan motoflyugasiga qarab odimlab ketdi.

Bobosining uzundan uzoq so'zlarini zerikmay ishtiyoq bilan tinglagan Marqaboyning yoniga arqonini uzib, ko'k do'nanni erkalab, qisib-qimtib olganidan ko'ngli ko'tarildi. Osmondagi "Oq yo'lak — Qush yo'li"ga termilishi bilan atoqli baxshilardek bir silkinib, hali ishlatilmagan qo'bizining quloqlarini shoshmasdan burab, "Yo Rabbim"lab tortqichni tortganda, jarangdor ovozi narigi sohildagi Qo'rqut otaning mangulikka chalingan yelqo'biziga hamohang, butun olamni tebratar edi...

Jumamurod ABDIMURODOV

HAQIQAT BILAN YUZMA-YUZ

(Xotira-esse)

Ibroyim Yusupov haqida shuncha ko'p odamlar yozganligi uchun ham, "endi mening ham yozishimning hojati bormikan?" deb o'ylanib yurdim. Uning asarlari-ku — shoirning o'ziga qo'ygan haykali, undan oshirib aytish hech kimning ham qo'lidan kelmaydi.

Bir narsani tan olib aytay: men shoirni boshqalarga qaraganda yaxshi bilaman. Qirq yildan ko'proq vaqt shoirning iziga ergashib yurib, hurmat-ehtirom, siylashiqda bo'lib, og'a-ini sifatida inilik vazifamni bajarib, shoirning asabiga tegib, achchig'ini chiqarmaganman. Shu sabablarga ko'rayam, shoirning ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan, qalamga olinmagan xosiyatlari haqida aytish vazifamday ko'rindi. Shoirning bir sirli, ko'p qirli inson ekanini ko'pchilik anglasa kerak. U ayniqsa ko'ngil kechinmalarini hammaga yoyib solavermaydi. Ora-orasida so'zlashganda olgan taassurotlarimni, ayniqsa Bobosh og'a Ismoilov vafot qilganidan keyin ko'proq mening bilan o'ylarin bo'lishganda ko'ngil kechinmalarini ko'pchilik bilan bo'lishsam, shoir xafa bo'lmas, o'zim ham yengil tortaman deb, qo'limga qalam oldim. Bunday o'ylab qarasam, shoir haqida yozishdan oson narsa yo'qday ko'rinadi, ol, qo'limga qalam-qog'oz olishim bilan qora bosib, osmon mening ustimga to'nkarilganday, uni men tirab turganday bo'laman-qolaman. Bu balki shoir haqida ko'pgina belgili odamlar yozganligi, yana ko'plab odamlar yozishi mumkinligini his qilish mas'uliyatidan kelib chiqsa kerak. Axir, Berdaq shoir haqida qanchadan qancha odam yozib, obro'yini oldi, baxtini topdi, atoq-unvonlarga sazovor bo'ldi. Yusupov ham elning nazarida yurgan shoirning biri-da.

Bizda birovlar haqida yozish zaruriyati tug'ilsa — biror bayramga, belgili sanalarga yoki tug'ilgan kunlarga bag'ishlab yozish odatga aylangan. Bu durust, albatta, quvonchga quvonch qo'shish xalqimiz qoniga singgan xosiyat. Lekin, Ibroyim Yusupovday in-

sonlar haqida boshqa sanalarni kutib o'tirmasdan ham yozaverish mumkin, deb o'ylayman. Zero, shoir yangi bir she'rini yozganda o'zini yangidan tug'ilgan his qiladi, shu hisobdan qaraganda, shoirning tug'ilmagan kunining o'zi yo'q. Shuning uchun ham shoir haqida kim aytsa, qachon aytsa, qanchalik aytsa ham ko'plik qilmaydi.

Biz, qirqinchi yillar avlodlari I.Yusupovni, ijodini erta tanidik. "Vatan adabiyoti" darsligida surati va she'rlari berilardi. Adabiyot muallimimiz Karimboy og'a Genjeyev shoirning darslikda yo'q she'rlarini ham yoddan o'qib berib, "shoir bilan men tengqator tug'ilganmiz, do'stmiz", — deb iftixor bilan gapirardi, bizlar esa uncha ishonmasdan qarardik, sababi — shoir biz uchun ko'z ham, xayol ham yetmas yuksaklarda, asqar tog' bo'lib ko'rinardi. Ustozimiz bizlarni ishontirish uchun Nukusdagi uy-joyigacha, ishlayotgan ish o'rnigacha gapirib berar, "U — juda yorqin iste'dod, o'zi esa juda sodda, oddiy bir odam, she'rni ham sodda qilib yozadi" deb tushuntirardi. I.Yusupov ijodi haqida dars o'tganda esa juda yuqori ko'tarinkilik, ilhom bilan gapirar, darslikda yo'q she'rlarini ifodali qilib o'qir, bu satrlar esa yodimizga xuddi muhr bosilganday saqlanib qolardi.

"Bu Vatanning tuproqlari asl gavhar, toshim mening,
Bu Vatan men gul bo'lsam nur bergan quyoshim mening..."

— degan satrlarni shu darajada zavq bilan aytardi va "sizlar ham Vatanni Ibroyim sevgan kabi sevinglar!" deb xulosa qilardi.

"U shoirlikni oqtoldan bolday so'rib olgan, ariq-yoplar yoqasidagi otquloqlarning shivirlab gapirishlaridan eshitib olgan..." degan gaplarga ishonib, so'ng biz ham oqtolga osilib, uning novdalarini so'rardik, "shoir bo'lamiz" deb ariq, suv yoqalarida otquloqlarga quloq tutib yotardik, bu gaplarning shoirona o'xshatish ekanini hisobga olmasdik, chin gaplar deb ishonardik.

Balki o'quvchida: "Shuncha yillardan beri Ibroyim Yusupov she'rlarini o'qir ekansiz, bu she'rlardan nimalarni topdingiz?" degan savol tug'ilib qolar. Bu ulug' she'riyatda hamma narsa bor: bahor shamolining yoqimliligi, gullar go'zalligi, ifor islar, tiniq muhab-

bat, haqiqiy do'stlik, ko'kdagi yulduzlarning tinimsiz so'zlashishlari, shamol chayqagan teraklar yaproqlarining shildirashi, odamlar orasidagi munosabatlar, Vatan tuyg'usi, el-yurtparvarlik tuyg'ularining balandparvoz gaplar emasligi, shoirlik iste'dodining noyobligi, hatto doktor-professor kabi unvonlar ham shoirlik darajasini bera olmasligi kabi sezimlarni o'quvchilar qalbiga joylaydi bu she'riyat. Hayot har kuni ipakday yumshoq bo'lavermasligini, etikchining bigiziday to'g'ri yurakka qadaladigan achchiq taraflari ham borligini uqtiradi bu she'riyat. Aytaversak, gap ko'p, otmay qo'ymas, botmay qo'ymas kun borligini, kishiga bermas kishi, jonlikka turmas odam bor ekanligini qalin-qalin jildlarga tatigulik ikki satr bilanoq tushuntirdi bu she'riyat.

Ibroyim Yusupov, xuddi adabiyot o'qituvchimiz aytgani kabi, baliqchining to'r to'qiydigan chizimiday chiyratilgan, mahkam, qamchining o'rimiday suluv, yurakka kelib qo'nadigan she'rlar to'qidi, satrlar yozdi, bu she'rlarning haligacha biron satri unutilgani yo'q. Aytganday, ko'pchilik Ibroyim og'aning chin ma'noda suluv qamchilar o'rishidan, ajoyib suratlar chizish iste'dodidan bexabar bo'lsa kerak. Ha, chin ma'nodagi chevarlik, mustahkam-mahkam asarlar, soddalik va samimiylik og'amizning qon-qoniga singib ketgan xislatlardir.

Taniqli professor Baxtiyor Abdikamolov Yusupov to'plamlarini Internetga yo'llash bilan birga, uning she'riy to'plamlari tarkibida qancha so'z qo'llaganligini hisoblab chiqibdi. Bilasizmi, 42 ming so'zga ega bo'lgan so'z xazinamizdan, ya'ni lug'atimizdan bor-yo'g'i 800 tagina so'zdan foydalanar ekan shoir! Odam ishonmaydigan soddalik, dersiz. Ishonmaganlar sinab ko'rsa bo'ladi. O'sha sakkiz yuz so'z bilanoq u Sharq ulug'lari — Rudakiy, Umar Xayyom, Sa'diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Maxtumquli, Robindranat Tagorni, G'arbning buyuklari — Shekspir, Bayron, Gyote, Shiller, Geyne, Mitskevich, Lomonosov, Pushkin, Lermontovlarni qoraqalpoqcha gapirtirib, ularni kitob qilib, muxlislarga sovg'a qildi.

Berdaq haykalini o'rnatadigan paytda yodgorlikni qay yerga joylashtirish haqida ko'p tortishuvlar bo'ldi. Ibroyim og'a haykalni teatr oldiga o'rnatishni taklif qilib, shu fikrda qattiq turib oldi. "Teatr Stanislavskiyning nomida, uning oldida Berdaqning yod-

gorligi tursa kelishmaydi", degan qarshiliklar bo'ldi. Shunda Ibroyim og'a "Stanislavskiylar hali o'z yurtiga qaytadi", — degan va o'zining fikrini o'tkazgan edi. U shu yerdan olisga bormayoq, Berlinda, Londonda, Parijda, hatto Amerikaning ko'kni qoq yorgan uylarining eshigidan mo'ralab qaramayoq, o'sha yoqlarda yashayotganlarning tomiriga qo'l solib, nimalar deb zarb urayotganini aytib bera olardi, bunga hayron qolsa bo'ladi. Bitta narsani yozish uchun hamma narsani axtaradigan, yerni yozish uchun ko'kka tikiladigan, birda ilonning iniga tikilsa, birda biyik qo'rg'on boshidan, birda qiron burgut uchgan yuksaklikdan nazar tashlab, keragini izlab topgan shoir edi u. Botir bilan botirday, qor bilan qorday, quyosh bilan quyoshday, o'q bilan o'qday tillashgan odam faqat haqiqatni gapiradi-da. Unga zamondosh bo'lgan shoirlarni ipga tizib keltirilsa, hazrati Vaqt-Zamonning, Tangri-Tabiatning oldiga Yusupovchasiga taysallamay borib, yelka tirashib, savollashib-javoblashadiganlar juda oz bo'lsa kerak. Uni ba'zilar oqib turgan suvga, ba'zilar daryoga, dengizga qiyoslashdi, juda-juda talantli deyishdi, ulug' iste'dod egasi deb ham yozganlar bo'ldi, bunga talashmaymiz. Balkim shunday chiqar. Anov boshdan umriga ham, hunariga ham, oyning narigi tomonini ko'rib kelgan, tanib kelgan, ko'ra olgan kishi shu Ibroyim Yusupov desa, xato bo'lmaydi. U umr bo'yi izlanish bilan o'tgan shoir. Jamiyatning tanidan odamning jonini izlagan ijodkorlar ko'p, topganlar esa oz. Topa olmaganlari yetarli. Tunni tugal uxlamay bir cho'qishga arzirlik qushemni (luqmani) sichqon ovlagan boyo'g'li, yulduz bilan sirlashib izlagan shoir, ovlagan odam shu Ibroyim Yusupov. U buyuk cho'qqilarni ko'zlab talpindi. O'zi aytgani kabi:

Olisdagi asqar tog'lar,
Biri birin ko'rmoq bo'lar.
Shuning-chun ham buyuk ular.

Ko'ngil ko'ngildan suv ichar, — deb, o'sha paytdagi Sho'rolar ittifoqining buyuk cho'qqilari, adabiyot dunyosining yorqin yulduzlariga aylangan Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov, Qaysin Quliyev, Mustay Karim, David Qo'g'iltinovlar chiqqan balandga,

cho'qqilarga o'rmaladi, ular qatoridan joy oldi, ular bilan davradosh bo'ldi.

Qaysin Quliyev: "Ibroyim — turkiy tildosh shoirlar ichidagi payg'ambarday shoirlardan, teran falsafaga ega shoir. Attang, uning she'rlari Maxtumquli singari boshqa tillarga qiyin ko'chadigan qudrat. Men Ibroyimni o'z ona tilida o'qib tushunish baxtiga egaman. Ibroyim uchun, uni yaratgan xalq uchun!" — deb qadah ko'tarib, oldida ta'zim qilganini ko'rgan ko'zlar, eshitgan quloqlar naqadar baxtli edilar. Ular — Ittifoqning qahramonlik nishonlarini, yulduzlarini ko'kraklariga, bayroqlarini yoqalariga taqib olgan, adabiyotda o'z so'zini ayta oladigan erka odamlardan edi. Bunaqa nishonlar Yusupovda bo'lmasayam, uni chetlatmas edilar. Ko'ngil bilan ularning cho'lini bosdi, o'zi ham cho'lini bosdi.

Qoraqalpog'istonda Dog'iston madaniyati kunlari o'tayotganda elimizga kelgan Hamzatov rus tilida: "Ibroyimning Vataniga salom!" — degan so'z bilan samolyotdan tushganda, bu gapni eshitgan ayrim yurtdoshlarimizning tuslari o'zgarib, yuzlari surlanib ketganining guvohi bo'lganmiz. Ular allaqachon o'z Vatanlarini o'z oti bilan aytadigan, shunday bo'lishi kerak deb o'ylaydigan Ittifoqning alp tentaklari edi. Ular Gretsiya deganda — Homerni, Germaniya deganda — Gyoteni, Angliya deganda — Shekspirni, Rossiya deganda — Pushkinni tushunib yurgan, o'z ellarida o'zlari ham shunday hurmat ko'rganlikdan, Ibroyim haqidayam shunday fikrda bo'lganlar.

Gelvetsiy shoirlarga qarata: "Agar haqiqatni obrazli shaklda tasvirlay olmas ekansiz, she'riyatni tinch qo'yinglar!" — degan ekan. Shunga qo'shimcha qilib: "She'riy obrazning tag-ma'nosini va tilini tushuntirib, haqiqatni anglata olmasangiz — she'rni ham, shoirlikni ham tinch qo'ying!" — deb aytish mumkin. Umrida o'zlari ikki satr yozolmasayam, shoirni ko'rganda chaynab tashlagisi keladigan ijodkorlar ham bo'lar ekan, shekilli. Ibroyim Yusupov ularga nimaga yoqmaydi? Nima uchun? Xalqda: "Hatto payg'ambarlar ham hammaga yoqavermaydi", — degan gap bor. Chingiz Aytmatovni butun dunyo biladi, hurmat qiladi. Kitoblari dunyoda eng ko'p tillarda nashr qilinayotganligi ko'pchilikka ma'lum. Biroq, Bishkekda "Aytmatovni aybdor qilish Akademiyasi" tashkil qilin-

gan. Uning obro'sini to'kish uchun bo'lar-bo'lmas mish-mishlar gazeta-jurnallarda tez-tez bosilib turadi. Hattoki, "Aytmatovning o'ynashlari", degan kitob ham chiqqan, deyishadi. Bir uchrashuvda unga shu haqda savol berganlarida, Chingiz Aytmatov o'ziga xos sabr-vazminlik bilan: "Bunday pastkashliklarga e'tibor bermayman. Ojiz, baxil, qo'lidan biror foydali ish kelmaydigan fosiq, dardi bedavolargina shunday ish bilan shug'ullanadilar", — deb javob bergan edi. Taniqli qirg'iz dramaturgi Mar Bayjiyev: "Chingiz Aytmatovning milliy koloritda badiiy asar yaratish tajribasi bizga qo'l kelmay, to'siq yasamoqda. U bunday ishni qoyilmaqom qilib bajarayotir. Bundan buyog'iga biz qirg'izlar uchun faqat ikki yo'l qoldi: "yozadigan bo'lsak, Aytmatovdan ham oshirib yozish (buning iloji yo'q, albatta) yoki bu ishga umuman qo'l urmaslik", degan ekan. Balki, Yusupovni ham shunday sabablarga ko'ra yoqtirmaslar?!

Bu masalada hech bir xalq bir-biridan qolishmaydi, shekilli. O'ttiz yoshga yetmasdanoq avvalgi Ittifoqning "Xalq artisti" unvoniga sazovor bo'lgan taniqli aktyor va rejissor Sergey Bondarchukni "Stalinning o'g'li Vasiliy bilan do'st bo'lganligi uchun Stalin tomonidan navbatsiz berilgan unvon" deb, o'rislar ayblab, oxir-so'ngida g'olib kelgan edilar.

Albatta, san'atda har kimning o'z yo'li bo'lganligi sabab, bu yo'lda to'sqin-to'g'anoqlar, Chingiz og'a aytganday baxil, fosiqlarning qazigan o'r(choh)lari-yu, kerib qo'ygan arqonlari bo'lmay turmaydi. Bo'lganda qalay?! Yusupov bunday yovuz yasamaliklar oldida tiz cho'kib o'tirmadi, aksincha, barini bilib, ko'rib o'tirib, seskanmasdan yozaverdi. Kerak yerida achinib, kerak yerida norastaning pokiza nafasiday chirqirab turib yozdi. Shoirning taqdirga o'pkasi yo'q, taqdir esa hech kimga bo'ysungan emas, buni u yaxshi bilardi. Biroq taqdirning arqoniga o'ralib qolgani yo'q. Shuning uchun ham Shoir bilan Taqdirning bahsi (munozarasi, aytishuvlari) — tugamaydigan she'r. Ol, muomalaga bo'yi o'rganib qolgan yurt shoirning bu sirini ne bilsin? Tushunmaganlarga:

Kuchlilarga she'rlarimni bersam-da,
Vatan! degan muhabbatim bermadim... — deydi.

Ba'zi birovlar Ibroyim Yusupovni "sho'rolarni kuyladi, kommunizmni kuyladi, tilidan partiya tushmadi", deb sazoyi qilmoqchi bo'ldilar. Undaylarga nima derdik, har qanday shoir ham o'z davrining, yashagan jamiyatining kuychisi ekanini unutmaylik-da.

U muhabbatni osmonning farishtasidan, haqiqat, adolatni oydan olib kelgani yo'q, u hamma mavzuni atrofidagi yashayotgan muhitdan, zamondan izladi va topdi. Atrofini, muhitni yurtdan oldinroq taftish qildi, zamonning kayfiyatini ko'ragonlik bilan aniqladi, diagnoz qo'ya oldi — shuning uchun u shoir-da.

Lubyankadagi qamoqxonada o'tirgan, Ittifoq paytida yurtdan haydalgan rassom Aleksandr Zinovyev sakson yoshida shunday degan edi: "Men sho'ro zamonining umri bunchalar tez tamom bo'lar deb o'ylamaganman. Yoshligimdan kommunizm dunyoda mangu yashab qolishiga ishonib keldim. Sho'rolar hukumatining yo'q bo'lib ketishi men uchun kutilmagan og'ir voqea bo'ldi."

O'z zamonini, uning qahramonlarini kuylamagan shoir — shoirmi? Ijodkorlar zamonga loyiq qahramon obrazini yaratmasa — davr yumalab yurgan qangbaqqa (pildiroq, shamolda dumalab yuradigan qurigan o'tlar uyundisiga) aylanib qolmaydimi?

Nima qilsang ham, yoqtirmagan odamlarga baribir yoqmaysan. "It huradi, karvon yuradi", deydi xalq. Ibroyim Yusupov — karvoni yo'llarda qancha itlar oldidan chiqib hursa, talasa ham, tortsa ham, yukini og'dirmasdan, yo'ldan adashmasdan, manzilga qarab to'g'ri mo'ljal olgan tulpor-tuyoq, juft qovurg'asi ziyod shoir edi.

Ibroyim Yusupov qancha tortishuv-bahslarga, kurash-ayqashlarga tushganidan bexabarmiz, balki do'stlari uni yiqish maqsadida oyog'idan chalgan vaqtlar ham bo'lgan. Suringanini sakraganday qilib ko'rsatib, falokatlardan tez o'tib olgandir, nima bo'lgandayam u tarix zimmasiga yuklagan og'irlikni mardona ko'tarib o'tdi, yo'lidan adashmadi. Kimlardir necha bora og'izga solishga urunmasin, solg'izmadiyam, chaynatmadiyam — bu uning ilohiy iste'dod ekanligidan bir darak edi. Shuning uchun ham u qoq tushda quyoshga — haqiqatga tik qaray oldi, zamondoshlari bilan ham, yosh avlod vakillari bilan ham til topishib, teng oyoq qo'shdi.

Olam yaratilishining ibtidosi, sarvari — So'z. So'z — ilohiy ne'mat. Tiriklikning boshlanishi So'zdan boshlangan. Inson ruhini

ko'taruvchi ham, tushiruvchi ham So'z. Ruhiyat dunyosining qulfi — Til bo'lsa, kaliti — So'z. "O'lan (so'z) — so'zlar podshosi" degan gapni Abay bekorga aytmagan. Shoir Ibroyim Yusupovning haydagan podasi ham — So'z, sehrlab-sayislagan suruvi ham — So'z. Minadigan ko'ligi ham So'z edi, ham o'zi so'zga ko'lik edi. Yutgan havosi, tortgan sigarasining tutuni ham So'z bo'lib chiqardi. O'z navbatida bu So'zlar she'rga aylanib, boshga toj bo'lib xalq qo'liga yetib kelardi.

Chaqaloqdayligimizdan so'zga e'tibor berib o'sgan xalqmiz. Jirovlar "Alpomish" dostonini kuylaganda tonggacha kiprik qoqmay tinglaganmiz. Dostonlardagi tasvirlar qalbimizdan xuddi filmlar kabi joylashib olgan. Hech bir rejissor qalblardagi filmlar kabi kino yarata olmaydi. "Santa-Barbara" filmini yaratganlar maqtanmasa ham bo'ladi, ular yaratgan uzundan uzoq seriallar bizning qalbimizdagi filmning bir bo'lagicha ham bo'lolmaydi.

Qadimgi Gruziyada ajoyib bir dastur bo'lgan, ya'ni qizga qo'shib beriladigan sep-sarupolar orasida Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostoni ham bo'lar ekan. Agar shu kitob-doston bo'lmasa, kelinning sepi notugal deb hisoblanar ekan. Bunday sep qabul ham qilinmagan, deyishadi. Ol, qirg'izlarda kuyov bola qanchalik mard, mergan bo'lmasin, "Manas" dostonidan ikki qator aytib berolmasa — munosib kuyov hisoblanmagan. Qoraqalpoqlar ham yetti dostonni yod bilmagan jirovni jirov deb sanamaganlar.

Bugun butkul dunyo Shekspir qahramonlariga emas, to'p tepib jahonni tang qoldirgan futbolchiga yoki temirmusht Maykl Jeksonlarga zehn qo'yib qaraydi. Millionlab tomoshabinlarning nigohi — shularda. Bugungi yoshlarga qo'shiqsimoq satrlarni aytib beradigan sahna yulduzlari Umar Xayyom, Rasul Hamzatov, Abdulla Oripov singari ulug'lardan ham afzal bo'lib ketgan siyoqli... Yana shoirning o'ziga, so'ziga yuzlanamiz:

"She'rning davlati qaytdi, uni o'qishdan hamma to'xtadi" deganlari — bu asossiz gap. Har qanday vaqtlarda ham insoniyat ruhiy-ma'naviy ozuqadan voz kechgan emas. Yaxshi she'r yerda qolmaydi, og'izda bo'ladi. Agar bu she'r haqiqat bilan yuzma-yuz tura olsa... Buni aytish bilan men bugungi yoshlargina adabiyotni,

she'rni o'qishni unutdilar, degan fikrni o'rtaga tashlashdan yiroqman.

"Mamlakatda millat yuragining kardiologiyasi bo'lmish adabiyot va san'at yuksak mavqega olib chiqilmasa, bu millat ulug' deb tan olinmaydi", — deb yozadi atoqli qozoq adibi G'abaden Musirepov. Xudoga shukur, adabiyotimizni ham, san'atimizni ham yuksak-yuksaklarga olib chiqishga qodir yoshlarimiz ko'p. Hamma gap — ularni vaqtida kashf etib, qo'llariga kerakli kitobni, imkoniyatni tutqaza bilishimizda, sharoit yaratib bera olishimizda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti olib borayotgan siyosat ayni maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

O'zimizning boyagi gapimizga qaytaylik. "Zar qadrini zargar bilar", degan so'z bor xalqimizda. Zarning ham, durning ham, oltin-u gavhar toshlarning ham qiymati yetmaydigan bebaho bir zar bor dunyoda — bu So'zdir. So'z — ilohiy, dedik. Ibroyim Yusupov — so'z zargari edi. Uning o'zi "Iz qoldirib shoir o'tar, so'z marjonin tera-tera", deganiday, haqiqatan ham u so'z marjonini tergan shoir edi. Kundalik munosabatlarda qo'llaniladigan eng oddiy so'zlarimizni til qayrog'i bilan qayrab, yarqiratib, she'riy satrlarga qo'shib yuborganida, qancha chevarlik ila tizilgan marjonlar ham bunday she'riy satrlar yonida ko'z tortmay qolishi aniq. Ibroyim Yusupov so'z marjonlarini xalqi uchun terdi, saraladi, qayradi. Xalq uchun so'z boyliklarini yig'di. Shoir butun umri bo'yi kichkinagina, qahramon xalqining ruhiy dunyosini yoritish uchun qalb qo'rini bag'ishladi. Xalqining, Vatanining qadriyatlari, imkoniyatlarining biror misqolini qoldirmay she'rga soldi, sevdi va shu dard bilan kuyib o'tdi.

Bul Vatanda yashagan odam — xonadosh, bag'irdoshim mening, Bul Vatanning tuproqlari asl gavhar toshim mening, — deb yoshligidanoq chirqirab she'r marjonlarini tergan shoir o'shanda (aytsam, ishonmassiz!) atigi yigirma yoshda edi. Ko'pchilikning orasida: " Ota-bobolarimiz kelib-kelib tuzli Kabir (sahro, cho'l) yerga o'rnashganini aytsang-a!" deb noligan odamlarni ham tinglab ko'rganimiz bor.

Shunday nadomat chekkan vatandoshlariga shoir:

Birovlarga asqar biyik,
Tog‘ bersa ham, yer bermagan.
Morol mangrab, oqcha kiyik
Yugurguday cho‘l bermagan, —

deb tasalli beradi.

Rostdan ham, kiyik quvsang, cho‘ling bor; baliq, o‘rdak, g‘oz o‘ynagan ko‘ling bo‘lsa, paxta, sholi silkinib, to‘rnovvot qovunlar o‘sadigan bo‘z-asal yering bor. Birovlarga yomg‘ir berib, yondiradigan kun bermagan, hayt-to‘ylarda ot chopgudayin keng dala bermagan. Ota-ona, Vatan tanlab olinmaydi, ota-bobolarga ayb taqa olmaysan, uni shoir sevganday sevaman — qanday bo‘lsa — shunaqasiga. “Arshan kabir”, “O‘ta kabir”, boshqa-da oti chiqqan kabir (sahro)lari bor, qanchadan qancha chavandozlar, yugruklar sinalgan ul yerlarda. Tabiat in’om etib qo‘ygan bunday otchopar-ippodromlarni qayda ko‘rgansiz?

Surxondaryo, Qashqadaryo tomonlardan kelib, karam sotib, o‘zlari yeydigan karamni shu yerdan olib ketadigan odamlarni ko‘pchilik bilmasa kerak. Bizlarning tuzli yerimizda o‘sadigan ekin totli, boqqan molingning go‘shti mazali, baliqlar-u qushigacha biram boshqacha — biladiganlardan, tatib ko‘rganlardan eshitib yuribmiz.

“Tug‘ilasan!” — desa menga yuz tutib,
Men faqat shu yerda tug‘ilar edim.
Yalangoyoq moytuproqlar changitib,
Barcha so‘qmoqlardan yugurar edim.
...Bunda teran tomir urgan terakman,
Vatan menga, men Vatanga kerakman, —

degan shoir.

Gohida pashsha to‘rg‘ay bilan tillashadi u:
— Sayra, do‘stim, shu havoda pirillab,
Soz bilan suhbatsiz davron bo‘ldimi?
Sen ko‘kda, men yerda shuncha chirillab,
Suymaganda bundan Vatan bo‘ldimi?

Qaysi so‘z zargari bo‘lsayam, bundan ortiq so‘z marjonini tera olmasa kerak. Vatanni sevish degan tuyg‘uning o‘ziyoq bo‘lsa — shunchalik bo‘ladi-da. Ibroyim Yusupov Vatanni ham, xalqni ham boshga ko‘tarib, bir farzand ularni qanchalik sevishi kerak bo‘lsa — o‘shancha sevdi:

Armonim yo‘q tursam-yotsam,
So‘z qushini uchsa — otsam,
Ma’qul bo‘lsa senga oz-kam, —
Boshqa bir baxt so‘ramasman, —

deydi xalqqa shoir.

Yurakdagi elimga, xalqimga degan muhabbati o‘zini to‘la namoyon etganigayam 60 yildan oshib ketdi. Shundan beri behalovat yuragi elim deb, xalqim deb bo‘zto‘rg‘ay misoli bo‘zlagani bo‘zlagan:

Sen tug‘arsan oqilni ham,
Suluvni ham, botirni ham.
Xalq deb sening otingni ham
Kim qo‘ysa-da, dono qo‘ygan.

Ajiniyoz, Berdaq o‘tdi,
Abbos, Sodiq jirlab o‘tdi,
Daryo bo‘lib guvlab o‘tdi,
Shul daryoni yoqalayman.
...She’r bu — dengiz, bo‘lsam baliq,
Ish buyursa sizday xaliq,
Oyog‘imni qo‘lga olib,
Boshim bilan yumalayman, —

deb qanday xizmat bo‘lsa-da tayyor ekanligini bildiradi. Shoir so‘zda xato yuborgan emas. Albatta, Ajiniyoz, Berdaq, Abbos va Sodiqday farzandlarni to‘ratgan xalqqa har qancha xizmat qilsang arziydi.

Men o‘zim shuncha yil shoirning iziga ergashib yurib, biron marta xafa bo‘lib kimgadir nolinganini yoki birovni oshiribroq

maqtaganini eslayolmayman. Ba'zan esa yozganlarini maqtay boshlasam, "Tinch yur, sening bahong baho bo'lmaydi, xalq o'z tarozisiga solib, aniqlab oladi", deb qo'yardi. Yana qo'shimcha qilardi: "Odamni yomonlash — yomon odat, ol, maqtash esa undan ham yomonroq". Ruslarda shunday gap bor: "O'tdan, suvdan, mis trubadan ham o'tgan", degan. O't, suv tushunarli, ol, mis trubadan o'tgani nimasi? O'tdan, suvdan omon o'tgan qahramonni orkestr bilan kutib olishadi, o'shanda fanfara (karnay) ham chalinadi. Shu yerga kelganda hurmat bilan maqtovlarni ko'tara olmaydigan qahramonlar qulab qoladi. Kamdan kam odamlargina bu bosqichdan o'tishi mumkin. Shuning uchun ham aytilgan gap, maqtovlar ham boshni aylantiradi, deb tushuntirar edi u.

Shoir ota-onasi, qarindoshlari haqida tish yorib aytgan emas. Bir tug'ishgan qizopasi bor ekanini qaytish bo'lganida bildik. Undayam o'zi orqali emas.

"Sobir og'a Sizni bir qiyin vaziyatda qo'rg'adim (himoya qildim) derdi, u qanday vaziyat edi?" deb so'raganimda, "unday vaqtlar ham bo'lgan. Ba'zan umrga to'yib ketasan... Shunday vaziyatlarning birida o'zimni Amudaryoga otmoqchi bo'lganman. Degish[1] olib ketsin deb, jarqovoq joyda azongacha turganman, atrofimni degish olib ketsa-da, meni qulatmadi. Tong otganidan so'ng ikki yo'l she'rimni bloknotga yozib qaytganman...", degan edi. Ochib ko'p narsani aytmadi. She'rdagi yozgani "Amuga" degan she'rining satrlari ekan:

O, Amuvim, sen asl suvsan,
Agar mening odamlarga degan
Mayda-chuyda o'pka-kinam bo'lsa,
Oyog'ingga oqizib ket sen.

Oqizib ket cho'pday qalqitib,
Men ham senday yayrab oqayin.
Sal narsani dilga kek tutib,
Sal narsaga tavbalamayin.

(1959)

[1] **Degish** — daryo toshib, qirg'oqlarni o'pirib olib ketishi.

Men qancha harakat qilsam ham boshqa narsa aytmadi. "Maqsadga borar yo'lda o'tib olgan azob — sho'rning o'zi baxt", deb qisqa qayirdi-da qo'ydi.

Shoirning shundan keyingi umri ham xamirdan qil sug'urganday bo'ldi deb aytolmayman. Ayniqsa Bibizoda yanga dunyodan o'tgandan keyin shoirning sholisiga suv ketib, shalpayib qoldi. Bunday vaziyatning og'irligini boshga ish tushgandan keyin bilib o'tiribmiz. Shoir qang'alab qoldi. Durustroq birov topilsa, oilasini boshqatdan qurishni ma'qul ko'rib, maslahat qilganimiz ham bor. Shoirga yoqqani — bizlarga, bolalarga to'g'ri kelmadi. U paytda dunyoda hech kim hali hammaga ma'qul keladigan ayol olib ko'rmagani, bundan keyin ham ololmasligini xayolga keltirmaganmiz. Ayolni olgan odamning o'zi ma'qul ko'rsa, shu bo'lgani ekan. Shuning orasida tuz-diydormi, taqdirning taqozosi deymizmi, yosh yangaga uylanib oldi. Buning g'alvasi bizga ham, farzandlariga ham yoqmay, qartaygan paytida aljiganga chiqarib, umr bo'yi qiynalib tiklagan uyidan quvib chiqdik. Shoirning shoirligiga esi yo'q aljigan qari sifatida qaradik. Bu yechimning boshi-qoshida men sharmanda turdim. Shoirni qo'shtirnoq ichindagi do'stlariga boshbukib topshirdik. Ular ham xayoliga nima kelsa, shoirdan ayamadilar.

Xalqobodda bir ma'rakada yigitlar mendan shoirning ahvolini so'rab qolishdi. Men Ibroyim og'aning yosh ayolga uylanganini, bu og'aynilarga, bolalarga yoqmay, uyidan ketib, o'sha ayoli bilan yashayotganini aytdim. "Bu elda og'aynilariga, bolalariga tasalli berguday azamat topilmadimi? Shoirni uyidan chiqarib yuboradigan huquqni kimdan olibdi ular? Unga nega qiz olib bermaysizlar?! Mateke og'aday yo'lbars qizini berganda, boshqalarga ne turish? Voy el bo'lganimizga!" deganda, manglayimga qo'sh qo'llab urgandan battar bo'ldi. Adashgan shoir emas, bizlar ekanimizni bildim. Ammo endi kech edi.

"Ajiniyoz armonlari" degan she'rida:

Guvullatib o'shak so'zning o'ng'ayin,
Eng avvalo jonga tegar og'ayin.

Yaltangan bo‘lib qay biriga yoqayin,
Jabr qilavermang jonima mening, —

kabi satrlar menga qarata aytilganday tuyulaveradi. Ko‘pchilikning undan so‘nggi voqealardan ham xabari bor. Shoqilchilvirga o‘ralib osilib o‘ladi deb o‘ylagan edilar. Taqdirga tan bergan shoir — shoirmi, undan ham omon chiqdi.

Gulsara yangani topib qo‘shilgunchayam shoir rohatli kunlarda yashay olmadi. Gapning chinini aytganda, shu kishiga qo‘shilganidan keyin ilhomi, jo‘shi qayta kelgan siyoqli, ijodiy qudrati ortib, yanada ajoyib asarlar yarata boshladi. O‘ziyam butunlay o‘zgarib ketdi. Xuddi sportchilar so‘nggi kuchlarini, nafaslarini yig‘ib olib, rekord qo‘yishga intilgani kabi harakatlar qildi. Umrining so‘nggi yillaridagi muvaffaqiyat, yutuqlar so‘zsiz Gulsara yanganing ko‘magida bo‘ldi desak, xato emas.

Hurmatli Prezidentimiz, el boshchilari shoir mehnatlarini yuksak baholab, “O‘zbekiston Qahramoni” unvonini berishi shoirning boshidan o‘tgan barcha qiyinchiliklarni unuttirib, o‘zini ham, xalqini ham quvonchlarga beladi.

Bugun u oramizda yo‘q. Chin ma’noda so‘z zargari edi, bekligini buzmasdan o‘tib ketdi. Hayotga, haqiqatga tik qarab o‘tdi. “Poshshato‘rg‘ayning o‘limi” degan elegiya-she’rida:

Qizg‘aldoq qon yig‘lab, yavshanlar anqib,
Cho‘lni xo‘rsintirdi hofiz o‘limi.
O‘ldi u, biroqda qo‘shiqning dong‘in
Qo‘l yetmas yuksakka chiqarib o‘ldi... —

deb yozganiday, haqiqatan ham qo‘shiq (she’r)ni cho‘qqiga chiqarib, haqiqatga tik qarab ketdi u.

MUNDARIJA

Qoraqalpoq nasri: izlanishning dong'il yo'llari. *(Muzaffar Ahmad)* 3
Gulaysha Yesemuradova
Shutik chiroqning sharofati *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....6
Abdimurod Otajonov
Tug'ilmay turib yo'q bo'ldi *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....13
Guliston Shomurodova
Bibizoda (Bir surat tarixi) *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....26
Uzoqboy Pirjonov
Bo'zto'rg'ay *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....44
Shirin Xolmurotova
Otam ekkan gullar *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....54
Sharap Usnatdinov
Ayol karomati *(Hidoyat Ahmedov tarjimasi)*.....61
Alp Sulton
Baxtsiz oila *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....69
O'rozboy Abdurahmonov
Dengiz to'la, oy yorug'... *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....89
Sarigul Bahodirova
To'maris haqida qissa *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....141
Kenges Smamutov
Tonggi shudring kabi tomchilar *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)* 230
Biysenboy Bekmurodov
Qadr ko'rmay *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....252
Abdimalik Xo'janazarov
To'rt shoxli odam *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....258
Murodboy Nizanov
Havo kemasidagi ikkovlon *(Rustam Musurmon tarjimasi)*.....264
Saylovboy Jumag'ulov
Ortiq puxta *(Mehmonqul Islomqulov tarjimasi)*.....361

Kengesboy Allambergenov
Kuchuk va bola *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....372
Beknazar Yernazarov
Yedige *(Ertak-qissa). (Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....377
Jumaniyoz O'taniyozov
Kichik hikoyalar. *(Rustam Musurmon tarjimasi)*.....394
Marat Tovmurodov
Novellalar. *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....399
Pardagul Xo'jamurotova
Yolg'izlik dardlari ko'p bo'lar ekan *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....415
Allanazar Abdiyev
Burgut cho'qqi *(Rustam Musurmon tarjimasi)*.....422
Eran Saxiy *(Qissa). (Otauli tarjimasi)*.....428
Abduqodir Qayipov
Yetim qo'zi *(Qissa). (Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....449
Fazu Sherjonova
Qopqon yasovchi *(Hikoya). (Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....472
Qumar Begniyazova
Endi ketmayman *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....484
Umirboy O'teo'liyev
Qo'rqut otaning yelqo'bizi *(Hujjatli hikoya)*
(Sharopatdin Arziyev tarjimasi).....488
Jumamurod Abdimurodov
Haqiqat bilan yuzma-yuz *(Muzaffar Ahmad tarjimasi)*.....504

Q 59 Qoraqalpoq zamonaviy nasri antologiyasi [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Muzaffar Ahmad. — Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. — 520 b.
ISBN 978-9943-8570-5-6

UO'K 821.512.121-3
KBK 83.3(5O'zb-6Qor)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

QORAQALPOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

38-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Malohat Ibragimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 32,5. Nashriyot-hisob tabog'i 30,56.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 105-1/22 Buyurtma raqami № 22-321

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QORAQALPOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI